ORIENTAL UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
UZLUKSIZ TA’LIM KAFEDRASI

“MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA O‘QITISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUV” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

TOSHKENT – 2024

UO‘K: 373.3 (312)
BBK: 74.204
A-98

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qitishning pedagogik imkoniyatlari va zamonaviy yondashuv” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.– Toshkent: Oriental universiteti, 2024. – 462 bet.

To‘plamda Oriental universitetida o‘tkazilgan “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qitishning pedagogik imkoniyatlari va zamonaviy yondashuv” deb nomlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etgan taniqli olimlar, yosh tadqiqotchilarning maqolalari jamlangan.

Unda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qitishdagi muammo va yechimlar, ta’lim jarayonidagi innovatsion texnologiyalar, inklyuziv ta’limdagi mavjud amaliyot, dolzarblik va yondashuv kabi sohalarga oid dolzarb masalalar yoritilgan.

Mas’ul muharrirlar:

M.Axmedov – Oriental universiteti rektori
D.Abduazizova – “Turon” axborot-kutubxona markazi direktori
M.Nasirova – Oriental universiteti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor

Tahrir hay’ati:

F.Egamberdiyeva, N.Ubaydullayev, O. Obidova, D.Nurmuhamedova,
Sh. Karimova, N. Erkinova, F. Abdullayeva

Nashrga tayyorlovchilar:

Sh. Karimova, N. Erkinova

Taqrizchilar:

M.Mirqosimova, Pedagogika fanlari doktori, professor, “Turon” FA Akademigi
D. Nazarova, Oriental universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

Ushbu to‘plam Oriental universiteti Kengashining 2024-yil 31-yanvardagi __-sonli yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

© Oriental universiteti, 2024

“Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so‘rasangiz,
farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman.
Sh.M.Mirziyoyev

Hurmatli ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilari!

O‘zbekistonning buyuk kelajagi, ravnaqi va barqarorligi, dunyo mamlakatlari ichida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi innovatsion bilimlar sohibi bo‘lgan intellektual yoshlar qo‘lida ekanligi shubhasizdir.

Mamlakatimizda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari asosida ta’lim tizimini takomillashtirish, uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari uzviyligini ta’minlash asosida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini yaratish orqali jamiyat taraqqiyotini yuqori bosqichga ko‘tarish davlatimiz siyosatining eng asosiy ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Hukumatimiz tomonidan oliy ta’lim tizimini isloh qilish, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida qator muhim hujjatlar qabul qilinib, ijroga yo‘naltirildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 28- fevraldagi PF-27-son hamda 2019-yil 8- oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmonlari bu borada eng muhim qadam bo‘ldi.

Mazkur hujjatlarda oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, jamiyat rivojiga munosib hissa qo‘sha oladigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, oliy ta’limga investitsiyalarni keng joriy etish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb qilish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, ta’lim – fan – ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, ta’limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yish kabi asosiy vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, professor-o‘qituvchilarni va yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish maqsadida qator ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish vazifasi ham belgilangan.

Bugun Oriental universiteti “Turon” axborot-kutubxona markazi bilan hamkorlikda ***“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qitishning***

pedagogik imkoniyatlari va zamonaviy yondashuv” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazmoqda.

Mazkur konferensiyani tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad – eng avvalo, buyuk ajdodlarimiz merosini o‘rganish orqali umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiya jarayoniga alohida e’tibor berish, oliy ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish, malakali pedagog kadrlar tayyorlashga innovatsion yondashuv, uzluksiz ta’lim dasturlarini takomillashtirish, pedagog xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, inklyuziv ta’lim jarayonini tashkil etish hamda boshqarishdagi muammolar, ularning yechimi bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishdan iboratdir.

Mazkur anjumanda respublikamizning yetakchi olimlari, professor-o‘qituvchilari, talabalar, amaliyotchi pedagoglar va xorijiy mutaxassislar ishtirok etmoqda.

Davlatimiz rahbari 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida fan, ta’lim va maorif tizimiga taalluqli qator strategik yo‘nalishlarni belgilab berib, shunday fikr bildirdilar:

“Eng katta boylik bu– aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu– yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu– bilimsizlikdir!” Darhaqiqat, ilm-ma’rifatsiz taraqqiyot bo‘lmaydi. Ammo e’tirof etilganidek, bugungi kunda ta’lim tizimida kamchiliklar va muammolar ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularni bartaraf etish yo‘llarini izlash, ilg‘or tajribalarni keng qo‘llash orqali ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangilash, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda, axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini takomillashtirish eng muhim vazifalarimizdan hisoblanadi. O‘ylaymanki, bugungi anjumanda ham eng dolzarb muammolar va ularning yechimi bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Barchangizga kuch- quvvat, sog‘lik- salomatlik, konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman!

Axmedov Murodjon Ubaydullayevich
Oriental universiteti rektori

Ahmet Alkan
Malayziya Xalqaro Islom universiteti, PhD
bilgi.ahmetalkan@gmail.com

NOGIRONLIKKA ZAMONAVIY YONDASHUV - INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZAGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada nogironligi bor bolalar huquqlari, ularni ta'minlash, nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim turini tanlashlaridagi erkinliklari, inklyuziv ta'lim falsafasi, bolalarni jamiyat ijtimoiy hayotiga jalb etish masalalari yoritiladi.

Tayanch so'zlar: bolalar huquqlari, huquqlarni ta'minlash, inklyuziv ta'lim, jarayon, jamiyat, ijtimoiy hayotga jalb etish.

Аннотация

В статье рассматриваются права детей-инвалидов, их обеспечение, свобода детей-инвалидов в выборе вида образования, философия инклюзивного образования, а также вопросы вовлечения детей в социальную жизнь общества.

Ключевые слова: права детей, обеспечение прав, инклюзивное образование, процесс, общество, вовлечение в социальную жизнь.

Abstract

The article discusses the rights of disabled children, their provision, the freedom of disabled children to choose the type of education, the philosophy of inclusive education, as well as issues of involving children in the social life of society.

Key words: children's rights, ensuring rights, inclusive education, process, society, involvement in public life.

Umumiy ta'lim tashkilotlarida ulg'aygan alohida yordamga muhtoj o'quvchilar olgan ta'limining darajasi ularning ijtimoiy reabilitatsiyasi, moslashuvi hamda jamiyat hayotiga samarali uyg'unlashuvining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [6]. Ya'ni, umumiy tarzdagi tizim sharoitida bilimlarni egallagan, ijtimoiy hayotda yashash uchun zaruriy sanalgan ko'nikmalar va kasb-hunarni egallagan har qanday nogironligi bo'lgan shaxs o'zgarishlar jarayoniga tez va qulay moslashib, shaxsiy va oilasining hayotini farovonlashtirishi orqali mamlakat aholisi turmush darajasining yuqorilashuvini ta'minlaydi. Shu bois ta'lim tashkilotlarining bugungi vazifasi alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni o'z oilasi, mahallasida o'sib kamol topishiga qulay sharoit yaratib berish orqali zamonaviy bilimlar,

hayotga to‘siqlarsiz uyg‘unlashib ketishining omili sanalgan ijtimoiy malakalar bilan qurollantirish, mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga o‘rgatishdan iborat etib belgilanmoqda [10]. Buning yechimining aynan inklyuziv ta’limga bog‘liqligi so‘nggi yillarda keng ommalashmoqda. Hozirgi kunda butun dunyoda barqaror taraqqiyotga asos sifatida inklyuziv ta’limga alohida e’tibor qaratish lozimligi tobora keng anglanmoqda [5]. Xususan, barcha bolalar uchun moslashuvchan ta’lim hamma bolalarga sifatli ta’lim olish imkoniyatini berib, dunyo bilan bog‘lanish va, umuman, jamiyat hayotiga kirish uchun to‘siqlarni bartaraf etib, har bir bolaning ta’lim turini tanlashida erkinligi, oilada bo‘lish huquqi, o‘z uyi hamda mahallasida kamol topishi, barcha qatori teng ravishda bilim olishi kabilarni ta’minlaydi.

BMT tomonidan 1948- yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”da: “Ta’lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi” ekanligi alohida e’tirof etilgan [1].

“Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiyaning 3-moddasida: “Nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqi ularda tug‘ilishi bilan mavjud bo‘ladi. Nogironlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat’i nazar, fuqaro o‘z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirlarki, shu bilan birga, ular mumkin qadar to‘laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega”ligi ta’kidlanadi [2].

Agar nogiron bolalarning o‘z jamoalari va butun jamiyat ijtimoiy hayotiga jalb etish imkoniyatlari rad etilsa, ularning imkoniyatlari keskin kamayadi. Bu esa nafaqat bir jamiyat uchun, balki butun dunyo aholisi uchun chinakam fojia bo‘lishi mumkin.

BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasida bolalar irqlari, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e’tiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli, sog‘lig‘i, qanday holatda tug‘ilganliklari va boshqa holatlaridan qat’i nazar kamsitishlarga mahkum etilmasligi, nogiron bolaning maxsus ehtiyojlarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotga qo‘shilishi va shaxs sifatida rivojlana olishiga yetaklovchi vosita hisoblangan ta’lim olishga har tomonlama yordam berish lozimligi ta’kidlangan. Uning 28-moddasida “Ta’lim insonning siyosiy huquqi” ekanligi, unda ishtirokchi davlatlar barcha bolalarning ilm olish huquqini e’tirof etishlari hamda ana shu huquqni teng imkoniyatlar asosida amalga oshirishga asta-sekin erishish maqsadida, bepul va majburiy boshlang‘ich ta’limni joriy etishlari ko‘rsatilgan bo‘lib, maxsus ehtiyojli bolalarning ham ta’lim olishlarini, ular uchun ham ta’limning majburiy ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Nogironligi bo‘lgan bolalarning zamonaviy talablar asosida bilim olishlari, ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashlariga maxsus ta’lim muassasalarining ta’lim tizimi va mazmuni javob bermaydi. Shuning uchun ham insonparvarlik nuqtayi nazaridan

jahondagi ko‘plab mamlakatlar maxsus-segregatsion ta’lim tizimini inkor eta boshladilar.

Inklyuziv maktablarning asosiy maqsadi barcha bolalarga samarali ta’lim beribgina qolmay, maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan inklyuziv va iliq munosabatli jamiyat yaratib, diskriminatsion o‘zgarishlarga barham berishdir.

Maxsus muassasalarda ta’lim-tarbiya oluvchi o‘quvchilar maktab jamoasining tor doirasiga tushib qoladi. Ijtimoiy jamiyatda esa hammaning diqqati uning nuqsoniga qaratiladi. Natijada bu bolalar haqiqiy hayotdan chetlashtiriladi. O‘z o‘rnida, maxsus maktab bolani chegarlangan dunyoga olib keladi.

Inklyuziv ta’lim tadqiq qilishda nogironlikka bo‘lgan yondashuv masalasiga oydinlik kiritish lozim [7; 8; 9; 10; 12].

Hozirgi kunda nogironlik masalasiga ikki: tibbiy va ijtimoiy yondashuv, tushuncha keng tarqalgan.

Nogironlik masalasiga tibbiy yondashuvga asosan nogiron bolalarning muammosini hal etishning birdan-bir yo‘li ularni sog‘lomlashtirish, ularni faqat va faqat tibbiyot va maxsus tashkilotlar hal qila oladilar, ular hech qachon sog‘lom insonga tenglasha olmaydi.

Nogironlik masalasiga ijtimoiy yondashuvda “nogironlik” shaxsiy muammo bo‘lmay, avvalo, nogironligi bo‘lgan shaxslar sog‘lig‘ida muammosi bo‘lmagan insonlarga yetib olishlari shart emasligi, ular barcha fuqarolar singari teng huquqli ekanligi, ularning hayotda o‘zini topishlariga jamiyatdagi to‘siqlar imkon bermasligi, jamiyatdagi to‘siqlar keng qamrovli yondashuv orqali bartaraf etilishi tushuniladi.

Barcha insonlar, ularning erkinliklari, teng huquqliliklari tan olingan davlatlarda, albatta, nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarining ro‘yobga chiqarilishiga ijtimoiy yondashuv asosida muvaffaq bo‘linmoqda.

Inklyuziv ta’limga bolani jalb qilish ta’lim mazmunini o‘zgartirishni taqozo qiladi. Ta’limning mazkur turiga nogironlikning ijtimoiy ko‘rinishining hosilasi sifatida qarash mumkin. Nogironlikning ijtimoiy modeli barcha bolalarning individual-psixologik, o‘zlashtirish xususiyatlari har xilligini hisobga olishni va maktab ta’limini barcha bolalarning imkoniyatlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Lekin inklyuzivlik-hamma bolani bir xil qilib qo‘yish yoki “assimilyatsiya” emas. Uning mohiyati moslashuvchanlik ya’ni, bolalarning har xil tezlikda ta’lim olishini hisobga olib o‘qituvchidan ushbu jarayonnni qo‘llab-quvvatlashi uchun bilim va ko‘nikmalar talab qilishdir.

Inklyuziv ta’lim har bir yuqori rivojlangan davlatning siyosati bo‘lib, nogiron va maxsus ehtiyojli bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar va o‘smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy

qiyinchiliklardan qat’i nazar, oilaning faol ishtirokida, xususan, bolaning ehtiyojini qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirish va umumta’lim tizimiga to‘liq qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

Barcha bolalarning hamkorlikdagi ta’lim ikki tomonlama ijobiy xislatlarga ega. Agar ushbu jarayon orqali alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarning o‘z oilalari, mahalladoshlari bilan birga o‘sib- ulg‘ayishlari ta’minlansa, sog‘lom bolalarning rivojlanishlarida muammolari bo‘lgan bolalarning imkoniyatlarini ko‘rib, ular ham nuqsonli emas, balki o‘zgacha rivojlanishga ega bo‘lgan bolalar ekanliklarini anglashlari sodir bo‘ladi. Shu sababli ham bunday ta’limning g‘oyasi – “Inklyuziv maktablardan – inklyuziv jamiyat sari” shiori asosiga qurilgan [4;10].

Mazkur toifaga mansub bolalarni umumiy tashkilotlarga uyg‘unlashtirish-zamonaviy ta’limning diqqat markazida turgan eng dolzarb masalalardan biri. Inklyuziv ta’lim jamiyatni inklyuzivlashtirish, insonparvarlashtirish borasidagi ilk bosqichdir. Bunday ta’limni rivojlantirish yangi shaklni yaratish hisoblanmay, balki ta’lim tizimini rejali tarzda sifatli o‘zgartirishni nazarda tutadi. Ushbu ta’lim alohida bolani o‘zgartirish yoki tuzatishni emas, balki o‘quv hamda ijtimoiy muhitni shu bolaning imkoniyatlariga moslashtirishni ko‘zlaydigan ta’limdir. Ya’ni, u ta’limning alohida bir shakli bo‘lmay, o‘zining falsafasi, mazmuni va shart-sharoitlarining har bir bola imkoniyatlariga moslashuvchanligi, tanlash imkoniyatlarining erkinligi bilan tavsiflanuvchi ta’limdir [6; 10;12].

Inklyuziv ta’lim amaliyoti mazkur ta’lim birdaniga muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo‘lmagan, balki uzoqroq tizimli o‘zgarishlarni talab etuvchi jarayon ekanligini ko‘rsatmoqda. Eng avvalo, bunday ta’limni joriy qilish eng murakkab sanalgan hozirgi ta’lim tizimi rahbarlari, o‘qituvchilari hamda atrofdagilarning tafakkuri va ongi, psixologiyasida tub burilish yasashni taqozo etmoqda.

FOYDALAINLGAN ADABIYOTLAR:

1. BMT. “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”.1948
2. BMT. “Nogiron shaxslar huquqlari” to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi-1975
3. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya
4. Дакарские рамки действий”- Франция-”ЮНЕСКО”-2000
5. Образование 2030. Инчхонская декларация и рамочная программа действий./ ООН. ЮНЕСКО. Инчхон. 2015
6. “Инклюзивное образование: право, принципы, практика” / Авторы-составители: Н.В. Борисова, С.А. Прушинский. Отв. ред.: М. Перфильева. // М.: Владимир, ООО “Транзит-ИКС”, 2009.

7. Буковцова Н.И. Инклюзивное образование детей с ограниченными возможностями здоровья: проблемы и перспективы // Инклюзивное образование: методология, практика, технологии. PsyJournals.ru 2000.;
8. Гафари Эбрахим Али. Организационно-педагогические условия обучения детей с ограниченными возможностями здоровья средствами инклюзивного образования: на материалах Исламской Республики Иран. Автореф. дис... канд. пед. наук. Душанбе. 2012;
9. Малофеев Н.Н. Почему интеграция в образовании закономерна и неизбежна// Альманах ИКП РАО, 2007. №11
10. David Mitchell “What Really Works in Special and Inclusive Education” First published 2008 by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN2008 David Mitchell
11. McMaster C. Inclusion in New Zealand: The potential and possibilities of sustainable inclusive change through utilising a framework for whole school development // New Zealand Journal of Educational Studies. 2015.
12. Nazarova Dildora Asatovna. (2022). Modern approaches in the process of training educators for a special and inclusive education system. European Scholar. 3(10), 91-92. Retrieved from. https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/2798

M.Mirqosimova
Pedagogika fanlari doktori,
professor; “Turon” FA Akademigi

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA REFLEKSIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Refleksiya lotincha “reflexio” so‘zidan olingan bo‘lib, “sirtdan nazar”, “orqaga nazar” kabi ma’nolarni anglatadi. Refleksiya shaxsning o‘z-o‘zini anglashiga qaratilgan fikrlash jarayoni bo‘lib, o‘z his-tuyg‘ulari, ichki imkoniyatlari, ongli ravishda sodir etiladigan xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholash, natijada esa keyingi harakatlarning maqbul strategiyasini qabul qilishi uchun zamin vazifasini o‘taydigan xulosalar chiqarish hodisasidir. Refleksiya bu — o‘qituvchining o‘z faoliyati va sodir etadigan o‘quv, tarbiyaviy va ijtimoiy xatti-harakatlariga baho berishigina emas, balki o‘zini boshqalar (o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar) qanday qabul qilayotganlarini aniqlab olish imkonini beruvchi xususiyatdir. O‘z-o‘zini refleksiv tahlil eta oladigan o‘qituvchi-pedagog ongli ravishda takomillashib

boradi, o‘zi tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni ham mukammallashtirib boradi.

Kalit so‘zlar: pedagogik jarayon, refleksiya, shaxs, his-tuyg‘ular, xatti-harakat, refleksiv tahlil, kreativlik.

Аннотация

Отражение происходит от латинского слова “reflexio”, что означает “взгляд с поверхности”, “оглядываясь назад”. Рефлексия – это мыслительный процесс, направленный на самосознание человека, с целью правильной оценки своих чувств, внутренних возможностей, осознанно совершаемых действий и, как следствие, принятия оптимальной стратегии дальнейших действий. это служит основанием. Рефлексия - это не только оценка учителем своей собственной деятельности и учебного, учебного и социального поведения, но и позволяет ему определить, как его воспринимают окружающие (учащиеся, родители, коллеги). Учитель-педагог, способный к саморефлексивному анализу, будет сознательно совершенствовать и совершенствовать организуемые им педагогические процессы.

Ключевые слова: педагогический процесс, рефлексия, личность, чувства, поведение, рефлексивный анализ, творчество.

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyatdagi ilm-fan taraqqiyoti, axborotlar oqimining kengayishi, globallashuv jarayonlari, o‘z navbatida, ta’lim sohasida ham o‘ziga xos islohotlarni taqozo etmoqda. Jumladan, ta’lim jarayoni tashkilotchilari bo‘lmish o‘qituvchilar faoliyatida ham muntazam izlanishlar olib borish, kreativlik davr talabiga aylanib bormoqda. Bo‘lg‘usi pedagoglarning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetarlicha bilimga ega bo‘lishi bilan birga mulohazakorligi, pedagoglik va psixologlik mahorati, tadqiqot va izlanishlar asosida o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishi barobarida milliy ta’lim tizimiga tatbiq etilayotgan innovatsiyalar, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini o‘zlashtirgan bo‘lishlari qatorida refleksiv mahoratga ham ega bo‘lmoqlari talab etiladi. Xo‘sh, refleksiya, refleksiv mahorat va refleksivlik nima o‘zi? Refleksiya lotincha “reflexio” so‘zidan olingan bo‘lib, “sirtdan nazar”, “orqaga nazar” kabi ma’nolarni anglatadi. Refleksiya shaxsning o‘z-o‘zini anglashiga qaratilgan fikrlash jarayoni bo‘lib, o‘z his-tuyg‘ulari, ichki imkoniyatlari, ongli ravishda sodir etiladigan xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholash, natijada esa keyingi harakatlarning maqbul strategiyasini qabul qilishi uchun zamin vazifasini o‘taydigan xulosalar chiqarish hodisasidir.

Refleksiv mahoratga ega bo‘lish natijasida o‘qituvchi:

-bajarishi lozim bo‘lgan barcha o‘quv, tarbiyaviy, ijtimoiy vazifalarining ko‘lami va darajasini bilib oladi; o‘zi uchun o‘quvchilarga, ota-onalarga ijobiy ma’noda ta’sir etuvchi faoliyat mexanizmini shakllantiradi; dars jarayonlarini

tashkil etishda o‘quvchilarning talablari asosida shakllana boradigan ish tajribasiga ega bo‘ladi.

Demak, aytishimiz mumkinki, refleksiya bu — o‘qituvchining o‘z faoliyati va sodir etadigan o‘quv, tarbiyaviy va ijtimoiy xatti-harakatlariga baho berishigina emas, balki o‘zini boshqalar (o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar) qanday qabul qilayotganlarini aniqlab olish imkonini beruvchi xususiyatdir. O‘z-o‘zini refleksiv tahlil eta oladigan o‘qituvchi-pedagog ongli ravishda takomillashib boradi, o‘zi tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni ham mukammallashtirib boradi.

Mavzu tahlili. Refleksiya muammosi bir vaqtning o‘zida ham falsafa, ham pedagogika, ham psixologiya sohasida keng tadqiq etiladi. Ushbu sohalar turlicha bo‘lishiga qaramasdan, refleksiyadan foydalanishning mohiyati har birida, deyarli, bir xil izohlangan. Emmanuel Kant qarashlariga ko‘ra, “refleksiya shaxsning o‘z bilish va anglash qobiliyatini muntazam tadqiq qilishi natijasida shakllanib boradigan xususiyati bo‘lib, uning darajasi insonning anglash qobiliyati va intellekt darajasiga bog‘liq jarayondir”. Gegel falsafasida esa refleksiya shunday talqin etiladi: “fikrdan fikr tug‘ilsa va inson bu hodisani ongli ravishda idrok etsagina o‘ziga nisbatan tanqidiy va tahliliy munosabatda bo‘la oladi”. Faylasufning fikricha, aynan shu hodisa refleksiyani tug‘diradi va xuddi shu taxlit hosil bo‘lgan refleksiya ikki turga bo‘linadi. Bular:

1. Nazariy refleksiya. 2. Amaliy refleksiyadir.

Nazariy refleksiya insonga o‘z hayotida, faoliyatida va botiniy his-tuyg‘ularida paydo bo‘lgan muammolarga mulohazalar yordamida yondashuvni anglatadi. Mazkur mulohazalar yordamida inson tasavvurdagi muammolarning haqiqatga qay darajada yaqinligini aniqlab oladi va shu asosda qarorlar qabul qiladi. Gegel fikricha, “nazariy refleksiya shaxsni o‘zlikni anglash tushunchasiga yaqinlashtiradi va bu esa, o‘z navbatida, hayotda uzoq muddatli strategiyani belgilashda katta ahamiyat kasb etadi”.

Amaliy refleksiya insonning mukammalik sari intilishidir. Inson fikrlayotganini idrok etsagina fikrlayotgan bo‘ladi. Hayotdagi har qanday orzu, maqsad, mukammallikka intilishning zamirida qiziqish (motivatsiya) yotadi. Inson motivatsiyaga ega bo‘lishi uchun fikrlashi va ushbu fikrlarining o‘z holatiga qanchalik yaqin ekanligini mulohaza qilishi lozim bo‘ladi. Xuddi shu mulohaza insonga o‘z amaliy faoliyatiga “sirtdan qarash” uchun sharoit yaratadi. Refleksiya ongni tahlil qiladi: inson tasavvuridagi mukammallik hayotda erishish mumkin bo‘lgan mukammallik bilan farqlimi yoki tafovutsiz ekanligini mulohazalar yordamida aniqlab oladi.

Zamonaviy falsafa fani refleksiv mahoratning ikki xil ko‘rinishini e’tirof etadi. Bular: 1. Ekstrovert refleksiya. 2. Introvert refleksiya.

Ekstrovertlik insonning tashqi muhit bilan muloqotga kirishishga intilishini va o‘zini tashqi muhitning bir qismi deb bilgani holda hayotini tashqi muhit omillarisiz tasavvur qila olmaslik holatini anglatadi. Insonda ekstrovert refleksiya hodisasi kechganda u o‘z hayotidagi muammolarga obyektiv qaraydi, har bir vaziyatni muayyan bir sababning oqibati deb hisoblaydi. Shuning uchun bunday refleksiv mahoratni o‘zida shakllantirgan inson o‘z muammolarini juda jiddiy hisoblamaydi.

Introvert refleksiya esa bunga butunlay teskari ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bunda inson tashqi muhit omilini unutadi. O‘ziga “sirtdan nazar solar” ekan, yo‘l qo‘ygan xatolari, faoliyatidagi kamchilik va nuqsonlar faqat xarakteridagi ojizliklar va zaifliklar tufayli kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Inrovert refleksiyaga ega bo‘lgan inson o‘zini subyekt sifatida yagona deb faraz qiladi, o‘z fikri va faoliyatining ahamiyati jamiyat uchun albatta kerak degan tasavvurda yuradi. Shuningdek, o‘zidagi har bir nuqson jamiyatning qaysidir kamchiligining rivojlanib ketishiga sabab bo‘ladi, deb hisoblaydi. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa fani talqinidagi refleksiya insonning ertangi kunini yaxshiroq qurish maqsadida o‘zini, his-tuyg‘ularini, faoliyatini ongli ravishda tahlil etib borishi va shu asosda uzoq muddatli strategiyani o‘z ichiga olgan rejalar qurishini ta’min etadigan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologiya fanida refleksiya insonning o‘z ichki imkoniyatlarini o‘rganishi nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Refleksiya insonning psixologik imkoniyatlarini, ichki ehtiyojlarini hamda o‘z faoliyatini amalga oshirish muhimligini, tashqi muhit bilan o‘zaro aloqadorlikdagi o‘rnini to‘g‘ri baholay olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

Bugungi kunda refleksiyaga insonning o‘z-o‘zini rivojlantirish usuli sifatida qaralib, psixologik tadqiqotlarda ham yetakchilik qiladi. Refleksiv ko‘nikmalarga ega bo‘lgan inson o‘z xatti-harakatini, o‘z faoliyatini boshqara oladi, o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qila oladi hamda o‘z-o‘ziga obyektiv baho bera oladi. Shu nuqtayi nazardan psixologiyada refleksiya muammosi uch yo‘nalishda o‘rganiladi.

1. Refleksiv psixologik tadqiqotlar sohasida. 2. Shaxs intellektual rivojlanish tizimida refleksiyaning o‘rnini aniqlash metodikasi. 3. Shaxs fikrlash jarayoni hamda kommunikativ faoliyatida refleksiyaning o‘rnini aniqlash.

Insonning muloqotga kirishuvi kommunikativ aloqa o‘rnatishi, har taraflama manfaatli munosabatlar shakllanishi uchun mazkur aloqalar hamda munosabatlar ishtirokchilari yetarli darajada refleksiv mahoratga ega bo‘lishlari lozim. Shu bois psixologik refleksiyaning pedagogik o‘ziga xosliklarini va ushbu hodisaning ta’lim jarayonidagi rolini o‘rganish yetakchi soha hisoblanadi. Psixologik refleksiyaning pedagogik ahamiyatini o‘rganish insonda refleksiv xususiyatlarning rivojlanish

qonuniyatlari va shart-sharoitlarini, refleksiv mahoratni shakllantirib borish usullarini, ko‘p o‘lchamli hamda keng qamrovli ongni shakllantirish va jamiyat taraqqiyotida o‘z o‘rnini aniqlab olish kabi bilimlarni o‘rganib borishning izchil hamda davomli jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Pedagogik faoliyatni tashkil etish hamda pedagogning kasbiy rivojlanish tizimida refleksiyaning o‘rni muhim ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda bayon qilingan. Ko‘p hollarda inson o‘z-o‘zini refleksiv tahlilga tortar ekan, u o‘zining yangi imkoniyatlari va qirralarini kashf etib boradi. Ammo zaruriy shart-sharoitlar mavjud bo‘lmagani uchun mazkur imkoniyatlar yuzaga chiqmaganligini anglaydi. Inson o‘z tafakkuri va tasavvurining yangi tashkil etuvchilarini anglab oladi. Bunday tashkil etuvchilarga hal etilishi ko‘zda tutilgan, ammo hal etilmagan vazifalarni saralash, fikrlashda nomuhimdan muhimga intilish, atrofdagi narsa va hodisalarning yangi qirralarini anglash, mulohazalarni ramzlar vositasida olib borish kabi psixologik xususiyatlar kiradi. Xususan, P.Y. Galperin, V.L.Danilov, B.D. Elkonin kabi olimlar insondagi refleksiya hodisasida ishtirok etadigan barcha fikriy va psixologik xatti-harakatlar orasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlashadi. Mazkur farazning isboti sifatida o‘tkazilgan so‘rovlarda inson o‘z-o‘zini tahlil etar ekan, o‘rganish, tanish, bilish, anglash, idrok etish, fikrlash, mulohaza yuritish, xulosa yasash va baho berish kabi psixologik va intellektual hodisalarning hammasi doimiy ketma-ketlikda kechishini, shuningdek, ushbu intellektual jarayonlardan bittasining yetarli darajada shakllanmaganligi boshqa psixologik xususiyatlar rivojiga to‘sqinlik qilishi mumkinligi ta’kidlanadi. (2.3. 65-69-b.)

S.V.Dmitriyev refleksiv qobiliyatning shakllanishini asosan quyidagi bosqichlarda kechadi deb hisoblaydi:

-mavjud vaziyatni baholash bosqichi (ushbu bosqich, deyarli, barcha hollarda sodir bo‘lib turgan hayotiy vaziyatning inson ongida aks etishi bilan kechadi: bu bosqichda inson o‘zi sodir etayotgan xatti-harakatlar zaruriy natijaga erishish uchun yetarli emasligini anglaydi; navbatdagi bosqichda o‘zining ishtirokida vujudga kelgan hayotiy (ba’zan ziddiyatlar) vaziyatga sabab bo‘ladigan omillarni ongli ravishda izlab boshlaydi (bunda inson ushbu vaziyatning kelib chiqishiga zamin yaratgan voqea-hodisalar, o‘z ruhiy holati va tashqi muhit faktorlarini tahlil qiladi); keyingi bosqichni shartli ravishda “vaziyatdan chiqib ketish bosqichi” deb atash mumkin (unda inson yuzaga kelgan vaziyatni yumshatish uchun o‘z oldiga vazifa qo‘yadi); so‘nggi bosqich rejalar belgilash bosqichidir (ushbu bosqichda o‘z-o‘zini izchil va to‘liq tanqidiy tahlil qilgan inson o‘z oldiga qisqa muddatli reja qo‘yadi va mazkur reja asosida o‘z faoliyatini qayta yo‘lga qo‘yadi). (1.95-b.)

Har bir bosqich muayyan bir qaror chiqarish va uni amalga oshirish bo‘yicha vazifa belgilash bilan kechadi. Bunda subyekt o‘z imkoniyatlarini, qo‘yilgan

vazifalarni bajarishda intellektual va jismoniy resurslari yetish-yetmasligining tahlili mulohaza qilinadi va refleksiya ichida refleksiya hodisasini sodir etadi. Xulosa qilish mumkinki, refleksiya bu– shaxsning intellektual rivojlanishi bilan ham bog‘liq jarayon bo‘lib, psixologik ahamiyatga ega bo‘lgan aniq izchil harakatlar ketma-ketligidan iborat pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan hodisadir.

Refleksiya tushunchasining pedagogika fani nuqtayi nazaridan talqin etilishi. Demak, pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda “refleksiya bu – subyektning o‘z amaliy faoliyatini tahlil etishi va mazkur tahlil natijalari asosida o‘z kasbiy iqtidorini baholashidir”. S.X.Assadulina, A.A. Bodalevalarning fikriga ko‘ra, refleksiya “o‘qituvchi-pedagogning o‘z qobiliyati, his-tuyg‘ulari va ta’lim jarayoni ishtirokchilariga munosabatlarining ijobiy va salbiy jihatlarini ko‘rsatib beruvchi mezonlar majumasi bo‘lib, bu qobiliyatning yuqori darajada bo‘lishi subyektning kasbiy jihatdan mukammallikka erishishini ta’min etadi”. Demak, refleksiya o‘z faoliyatini yaqin kelajak va uzoq muddatli istiqbolni nazarda tutgan rejalar asosida qurishga intilgan har bir shaxs uchun zarur bo‘lgan xususiyatdir. (3.83-b.)

Refleksiv qobiliyatning inson zakovati, tushunchasi, voqea-hodisalarni idrok etish darajasiga bog‘liq ekanligini o‘tgan asr psixologlari ham o‘z tadqiqotlarida isbotlab bergan. Inson o‘zi bilgan, anglagan va idrok etgan instansiya va subyektlar doirasida fikr yuritadi, binobarin, refleksiv qobiliyat (bizning tadqiqotlarda refleksiv mahorat) o‘sha anglangan, idrok etilgan subyektlar doirasining qanchalik kengligi inson refleksiv mahoratining darajasini belgilab beradi; “pedagog-talaba” munosabatlarining samarali tarzda davom etishini ta’minlab beradigan pedagogik refleksiya (psixologik refleksiyadan farqli ravishda) olingan bilim, orttirilgan ko‘nikma va tajribaning darajasiga bog‘liqdir; pedagog refleksiv tarzda fikrlar ekan, shundagina kasbiy mahoratining yo‘naltirilgan obyekti, ya’ni talabaning bilimi, ko‘nikmasi, anglash va idrok etish darajasiga qarab o‘z shaxsiy va kasbiy faoliyatining darajasini baholaydi; “pedagog-talaba” munosabatlaridagi refleksiya o‘rganilayotgan dars mavzulari, dars turi va fanning mazmun jihatdan murakkablashib borishiga bog‘liq ravishda o‘zgaruvchandir”.

“Pedagogikadagi ushbu ko‘rinishli refleksiya, ya’ni refleksiya harakatini sodir etayotgan subyekt ongida boshqa insonlarning (tadqiqotimizda talabalarning) baholovchi omil sifatida namoyon bo‘lishi o‘qituvchi-pedagogdan mustahkam shaxsiy pozitsiyaga ega bo‘lishni, intellekti va faoliyatining mohiyati yo‘naltirilgan o‘quvchilarning bilimi, idrok etish qobiliyati hisoblanadi”. Mulohazakorligi xolis va shaffof holda tahlil etilishini talab etadi. Shunday bo‘lgan taqdirdagina biz o‘qituvchi-pedagogdagi sodir bo‘ladigan refleksiya hodisasi to‘g‘ri natija beradi, deb ayta olamiz.

B.D.Elkoninning ta’kidlashicha, “pedagogning pozitsiyasi quyidagilarga asoslangan bo‘ladi:

-o‘qituvchining talaba shaxsiga mutaxassis va inson sifatida yondashuvi (ya’ni tarbiyaviy va o‘quv jarayonlarida o‘qituvchi uchun talabaning to‘liq bilim va metodikaga ega bo‘lmagan mutaxassis sifatidagi huquqlari, bilim oluvchi sifatida manfaatlari hamda alohida xarakterga ega bo‘lgan shaxs sifatidagi zaruriy tarbiya usullariga muhtojligi); o‘qituvchining refleksiv xatti-harakatni sodir etishi uchun o‘zini shaxs va mutaxassis sifatida to‘liq anglashi (ya’ni o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayoniga shaxs va mutaxassis sifatida yondashuvi, har bir o‘quvchi ta’limi va tarbiyasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarga tayyor turishi)”. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogikada refleksiyaning namoyon bo‘lish turlari ikkita, ya’ni jarayonli va shaxsiy mazmundagi refleksiya. (2.79-b.)

Jarayonli mazmundagi refleksiya dars jarayonlari uchun qabul qilingan o‘quv materiallari va o‘rganilayotgan fanlar mundarijasi ta’lim oluvchining imkoniyatlariga muvofiq kelishi hamda uning ko‘nikib borishini nazarda tutadi. Mazkur refleksiyada talabada paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni hisobga olishi, uning bu qiyinchiliklarni yengish yo‘lidagi xatti-harakatlarini rag‘batlantirib turishi lozimligi ko‘zda tutiladi.

Refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda bo‘lajak o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati natijasini tahlil qilishi, o‘z faoliyatiga chetdan nazar solishi, ayniqsa, o‘quvchi ko‘zi bilan o‘z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi.

Pedagogika fani sohasida refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning muhimligi quyidagilarda ko‘rinadi:

birinchidan, pedagogika sohasida refleksiya o‘qituvchi amaliy ko‘nikmalari shakllanganlik darajasini aniqlash mezonini jamlagan muhim omil sifatida qaraladi; ikkinchidan, refleksiya bir tomonlama xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish asosida o‘z faoliyatini o‘quvchi ko‘zi bilan qarab tahlil qiladi; uchinchidan, o‘quvchilar jamoasidagi muhit, amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar, o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatidagi faollik darajasi o‘qituvchilar refleksivlik ko‘rsatkichlarini belgilab beruvchi mezon bo‘ladi; to‘rtinchidan, refleksivlikni zamonaviy ta’lim tizimining har bir bosqichida qo‘llash mumkin va ilg‘or pedagogik texnologiyalar, uslubiy innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirish natijasida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkin; beshinchidan, refleksiv ko‘nikmalar o‘qituvchining shaxsiy tavsifga ega bo‘lgan faoliyati hisoblangani tufayli o‘zining dunyoqarashi va pedagogik fikrlaridan kelib chiqib o‘z-o‘zini tahlil qilish uchun imkon beradi.

Refleksiv ta’lim texnologiyalari o‘ziga xos bo‘lib, uni amalga oshirish quyidagi algoritmik harakatlar tarzida tashkil etiladi:

I. Refleksiya obyekti va dars mashg‘ulotining refleksiya amalga oshiriladigan vaqtini aniqlash. Shu o‘rinda refleksiya obyekti sifatida:
ta’lim jarayonining umumiy va juz’iy maqsadlari; o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan asosiy tushunchalar va ta’lim mazmuni; foydalaniladigan ta’lim metodlari; egallanadigan ko‘nikmalar, bilimlarning hayot bilan bog‘liqligi; shaxsning ichki olami va kasbiy sifatlari sohasida o‘zgarishlarni idrok etishi va shu kabilar belgilanishi mumkin.

II. O‘z bilish sohasini tahlil etish va kuzatib borishning individual mexanizmiga ega bo‘lish.

III. Kelgusidagi pedagogik munosabatlarning samarali tashkil etilishi uchun refleksiyaning natijalari muhimligiga asosiy urg‘u berish.

XULOSA

Refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayoni ishtirokchilaridan umumiy xarakterda bo‘lgan pedagogik va shaxsiy sifatlarni talab etadi: ya’ni refleksiya ikkiyoqlama bo‘lgandagina ijobiy natija beradi; refleksiv texnologiyalardan foydalanish jarayoni ishtirokchilardan obyektivlikni, xolislikni va shaffof munosabatlarni talab etadi: bu esa baholash va nazorat tizimini ochiq olib borishni, binobarin, ta’lim oluvchilar orasida sog‘lom raqobat muhitining yaratilishini ta’minlaydi; dars jarayonida o‘ziga xos “qaytarma aloqa”ning yo‘lga qo‘yilishi ta’lim oluvchi orasida kommunikativ bahs-munozaralarning tashkil etilishiga xizmat qiladi; refleksiv ta’lim texnologiyalarida dars jarayonida o‘qituvchining monologik pozitsiyadan muloqot qilish pozitsiyasiga o‘tishi hodisasi sodir bo‘ladi.

Refleksiv ta’lim texnologiyalari o‘zaro uyg‘unligiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o‘ziga xoslik refleksiv ta’lim texnologiyalarining turli mezonlar va xususiyatlar bo‘yicha tasniflana olishi bilan bog‘liqdir. Bu hol bizni refleksiv ta’lim texnologiyalarining shakl va turlari haqida mulohaza yuritishga undaydi. Refleksiv texnologiyalardan foydalanish davomiyligiga ko‘ra turlari; refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanuvchilariga ko‘ra; refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning asosiy maqsadlariga ko‘ra; refleksiv ta’lim texnoldogiyalarini amalga oshirish shakliga ko‘ra turlari farqlanadi.

Shunday qilib, refleksiv ta’lim texnologiyalari vaqt davomiyligiga ko‘ra, quyidagi turlarga bo‘linadi : situativ (muayyan vaqtning o‘zidagi) ta’lim texnologiyalari; retrospektiv ta’lim texnologiyalari; perspektiv ta’lim texnologiyalari.

Vaziyatli (situativ) ta’lim texnologiyalari ta’lim jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarni, muammolarini ijobiy hal etishni nazarda tutadi. Garchi o‘qituvchi-pedagog zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda talabalarning qisman

yoki to‘liq mustaqil ta’lim olishlariga erishsa-da, ayrim vaziyatlarda uning vaziyatga aralashuvi shart bo‘lib qoladi . Shu sababdan OTM talabalari dars jarayonlarida situativ ta’lim texnologiyalaridan foydalanishlari uchun bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikka ega bo‘lgan quyidagi harakatlarni amalga oshirishlari talab etiladi.

1. Pedagogik masalani keltirib chiqargan faktni anglab olishi.
2. Mazkur masala negizida paydo bo‘lgan pedagogik vaziyatni chuqur his qilishi va uning har bir detallarini tasavvur qila olishi.
3. Pedagogik masalaning xarakteri, kelib chiqish sabablarini, uning tub negizini aniqlash orqali pedagogik vaziyatni tahlil etish.
4. Mazkur pedagogik vaziyat barqarorlashtirilmasa, yana kelib chiqishi mumkin bo‘lgan boshqa pedagogik masalalarni to‘liq tasavvur etish va ularga tayyor turish.
5. Pedagogik vaziyatni barqarorlashtirishning usuli bo‘yicha qaror qabul qilish.
6. Qabul qilingan qarorni refleksiv tahlil etish.

Retrospektiv ta’lim texnologiyasi retrospektiv refleksiyaga asoslanadi. Retrospektivlik fransuzcha “retro” (o‘tmish) va “spektiv” (qarash) so‘zlarining umumlashmasidan hosil bo‘lgan bo‘lib, uning mohiyati atalishidan ham ma’lum. Retrospektiv ta’lim talabaning kechagi kunni (ta’limiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, o‘tgan mavzularni) konstruktiv tahlil etishini va bugungi kun bilan bog‘lay olishini nazarda tutadi.

Retrospektiv ta’lim texnologiyasi talabaning shaxs sifatidagi sifatlariga, eng birinchi galda xotirasiga bog‘liq, qolaversa, retrospektiv ta’limning mavjud vaziyatning ijobiy tomonga o‘zgarishdagi ahamiyati yuksakdir. Unutmaslik lozimki, retrospektiv refleksiv ta’lim mexanik tarzda orqaga qarash emas, mavjud voqelik, vaziyat, ta’limiy va nota’limiy masalalarning yechimini izlash maqsadida, kechagi kunning intensional obyektlarini umumlashtirish va birlashtirish natijasida muhim qarorni qabul qilishni ta’minlovchi hodisadir .

Retrospektiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchiga bugungi o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlar doirasini uzviylik tamoyiliga ko‘ra o‘tgan darslarda o‘zlashtirilgan bilimlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ushbu ta’lim texnologiyasidan darsning turli qismlarida turli xildagi ta’lim vositalari, ta’lim metodlari bilan uyg‘un holda qo‘llash imkoniyati mavjuddir. Bunday uyg‘unlik talabalar bilim doirasini ularning psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq holda amalga oshirish imkonini beradi.

Perspektiv ta’lim texnologiyalari. Refleksiyaning reproduktiv xususiyatlari talaba nafaqat “kechagi kun”ning ta’limiy va nota’limiy muammolarini tahlil qilishi asnosida, balki kutilayotgan vaziyatdagi reproduktiv muammolarni hal etishda ham

namoyon bo‘ladi. Ya’ni, talabaning shaxs sifatidagi e’tibori “o‘tgan kun”, “hozir” va “ayni daqiqada”gi emas, ertangi kunga ham qaratilgan bo‘lishi lozim. Refleksiv nazar va refleksiv tasavvur vositasida hosil qilingan virtual manzara aynan perspektiv refleksiya natijasida amalga oshiriladi.

Jamoaviy refleksiya davomida o‘quv guruhi (yoki sinf) ta’lim oluvchilari darsda qo‘yilgan maqsadlarga qanchalik darajada erishilganligini kommunikativ tarzda muhokama qiladilar. Bu refleksiv texnologiyaning ahamiyati guruhda (yoki sinfda) ta’lim oluvchilarning o‘zaro munosabatlarini shaffoflashtiradi va kommunikativ aloqalarning mustahkamligini ta’minlaydi. Jamoaviy refleksiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad guruhdagi (sinfdagi) har bir ta’lim oluvchining faollik darajasini oshirish, darsni tashkil etish va o‘tkazishdan ko‘zda tutilgan maqsadga erishishda har bir ta’lim oluvchi o‘z hissasini ongli ravishda anglab olishini ta’minlashdan iboratdir. Yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonining asosiy maqsadi pedagoglarning o‘z faoliyatini muntazam taftish qilish asosida yangiliklar bilan boyitishi, yangi faoliyat turlariga nisbatan motivatsiya hosil qilishi, o‘z faoliyatini chetdan tahlil qilishi hamda obyektiv baholashiga erishishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Donayeva Sh.A “Refleksiya, refleksivlik, refleksiv mahorat tushunchalari pedagogika, psixologiya va falsafa fanlarining o‘rganish obyekti sifatida”. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida talim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish muammolari. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya 2022.-B-371-373.
2. Гальперин П.Я., B.D.Elkonin. Введение в психологию: Учебное пособие для вузов. - М.: Книжный дом “Университет”, 1999. - 332 с.
3. A.A.Bodaleva. Педагогические условия формирования рефлексивной позиции старшеклассников в учреждении дополнительного образования детей: дис. канд. пед. наук / Е.Л. Ерина. – Магнитогорск, 2002. – 199 с.
4. Mirqosimova M. Talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish omillari.T.:2024.

“Ma’rifatparvar ajdodlarimiz merosi – milliy ta’lim-tarbiya asosi” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamida. 87-90-b.

Вохидов Шодмон Хусейнович
доктор исторических наук, профессор
Таджикского педагогического института в городе
Пенджикент, Республики Таджикистан

ВНЕУРОЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ВОЗМОЖНОСТЬ ДЛЯ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНОГО РОСТА ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНИКА

Аннотация

Исследован процесс проектирования индивидуального маршрута личностного развития младшего школьника как важное и недостаточно разработанное направление педагогического проектирования, целью которого является изучение возможностей педагогического проектирования в условиях внеурочной деятельности. Актуальность проблемы проектирования индивидуального маршрута личностного развития младшего школьника во внеурочной деятельности обусловлена требованиями нормативных документов к организации и результатам образовательного процесса и новыми социокультурными условиями.

Ключевые слова: внеурочная деятельность, проектирование, индивидуальный маршрут личностного развития, маршрутный лист, индивидуализация, педагогическая поддержка.

Abstract

The article highlights the process of designing individual routes of junior students' personal development as an important and under-developed field of pedagogical design, which aims to explore the possibilities of pedagogical design in terms of extracurricular activities. The topicality of the problem of designing an individual route of personal development of junior pupils in extracurricular activities is due to regulatory requirements for the organization and results of the educational process and the new sociocultural conditions.

Key words: extracurricular activities, design, individual personal development route, itinerary, individualization, pedagogical support.

В настоящее время рассматривается задача в качестве перемены, в результате которой с другими проблемами актуализируется интерес к процессу проектирования, как к способу создания целевых прообразов. Педагогическая наука отреагировала на новые требования общества к результатам образовательной деятельности, изменениям в представленных целях, решению задач школьного образования и путям их реализации.

Проектирование ретипических маршрутов личностного развития во внеурочной деятельности соответствует государственному заказу на разработку проблем воспитания и социализации школьников. Наше исследование напрямую связано с современными целями образования. Однако в результате репродукции педагогической репродукции индивидуального маршрута репетиторства далеко не у каждого репетитора, несмотря на то что в условиях использования исследовательских и экспериментальных форм обучения востребованность в проективных науках преподавателей увеличивается. В новом государственном образовательном стандарте начального общего образования впервые задана ориентировочная образовательная деятельность, зафиксированная в “портрете выпускника”. В качестве приоритетных ре личностных результатов по стандарту определены готовность и способность школьника к личностному самоопределению и саморазвитию, позитивная мотивация к обучению, продуктивная познавательная деятельность. Все это направлено на активизацию процесса педагогического проектирования. Актуальность проблемы проектирования индивидуального маршрута личностного развития младшего школьника во внеурочной деятельности, обусловленной рядом противоречий:

- требований к нормативным документам:
- процессы возрождения, необходимые для проектирования индивидуального маршрута личностного развития младшего школьника во внеурочной деятельности школьников и построенного уровня проективной культуры педагогов;
- потребности учителей – практика в научно-методическом маршруте процесса планирования индивидуального, личностного развития младшего школьника и недостаточной степени проработанности в научно-педагогических условиях организации данного процесса;
- определением внеурочной деятельности как обязательной части образовательной программы и недостаточной оценки ее возможностей, таких как пространство для планирования структурных маршрутов личностного развития школьников всех возрастных групп.

Поиск путей разрешения выявленных противоречий, проблем исследования: при каких условиях внеурочная деятельность будет являться пространством для проектирования индивидуального маршрута личностного развития младшего школьника? Актуальность проблемы, необходимость и первоначальность ее рассмотрения, с одной стороны, и недостаточная теоретическая и практическая разработанность, с другой стороны, определены в выборе тем для исследования:

“Внеурочная деятельность как возможность планирования индивидуального роста, личностного развития младшего школьника”. Интенциональность государственной стратегии по индивидуализации образования позволяет нам определить внеурочное пространство как возможность для проектирования индивидуального маршрута личностного развития с целью самоопределения, становления субъектности младшего школьника. Государственный образовательный стандарт начального общего образования ориентирует образовательные учреждения по созданию условий для формирования личности обучающегося, развития способностей и универсальных знаний, которые в перспективе будут способствовать самоограничению и самореализации школьников. Достичь личностного развития младшего школьника за счет освоения только предметных программ практически невозможно. Необходима интеграция учебной и внеурочной деятельности для воссоздания образовательного пространства, позволяющая каждому школьнику восстановить свою уникальность, индивидуальность, ставить и реализовывать личностно значимые цели и идеи. Стандарт определяет, что “базовая образовательная программа начального общего образования реализуется образовательным учреждением через учебный план и внеурочную деятельность” [2, п. 16].

Под “внеурочной сферой” понимают образовательную учебную деятельность, соответствующую учебным формам, отличным от классно-урочной, и направленную на достижение основных результатов освоения основной образовательной программы начального общего образования. Ученые В.А.Горский, А.А.Тимофеев, Д.В.Смирнов определяют внеурочную деятельность как “мир творчества, проявления и раскрытия каждого ребенка, своих интересов, увлечений, своего “я”, “эмоционально наполненную среду увлеченных детей и педагогов”, в которой есть условия для выбора, свободное проявление своей воли, то есть личностного раскрытия и развития школьников [3, с. 3]. Ученые предупреждают, что внеурочная деятельность не является научной добавкой к общему образованию, а наша цель - изучить взаимосвязь и преемственность базового и дополнительного образования. Д.В.Григорьев, Б.В.Куприянов указывают, что внеурочная деятельность решает все виды деятельности школьников (кроме учебной деятельности на уроке), в которых возможно и является ведущим решением задач их воспитания и социализации.

Виды, формы и содержание деятельности должны быть подобраны так, чтобы обеспечить устойчивое развитие воспитательных результатов [4].

З.А.Кокарева, А.С.Игнатьева, Л.С.Секретарь придерживаются сущности внеурочной деятельности, охватывая все виды деятельности школьников, в

которых в соответствии с основной образовательной программой решаются задачи воспитания и социализации, развития интересов, формирования универсальных научных действий. Ученые подчеркивают внимание, что внеурочная деятельность предусматривает для каждого обучающегося индивидуальный образовательный маршрут [5].

Под “внеурочной территорией” в нашей подготовке трактуется система вне учебной много вариативной личностно-возрастной образовательной деятельности младших школьников, предполагающей индивидуальный маршрут развития для каждого обучающегося. Для положительного воспитательного эффекта внеурочная деятельность для каждого школьника должна быть личностно-значимой. В основу решения положена идея А.Н. Леонтьева о многообразии активности субъектов, которые пересекаются и связываются в узлах с объективными организованными отношениями. Эти “узлы” и есть центр личности, который лежит не в индивидууме, а в его бытие [6].

Организация личностно-значимой внеурочной деятельности, условия разрешения противоречий между:

– нужды детей и возможности их жизни;

– возможности ребенка и требования общества;

– достижения ребёнка.

Личностно-значимая реальная деятельность обеспечивает личностное развитие младшего школьника, так как:

– помогает каждому школьнику младшего возраста определить интерес, “сформировать резак” на индивидуальное образование;

– предоставляет возможность выбора личностно-значимой деятельности в соответствии с собственными интересами, способностями и возможностями;

– раскрывает уникальность каждого ученика;

– стимулирует к развитию субъектности: самоопределению и успешной самореализации.

Внеурочное пространство создает условия для позитивных, динамичных изменений в личности ребенка в младшем школьном возрасте благодаря:

– открытости, доступности;

– свободный выбор видов деятельности и свободное передвижение внутри образовательного пространства;

– естественного решения успеха, множественного ответа на его успех в учебе;

– проявления субъекта, субъектных отношений в ситуациях;

– формирование активной субъектно-деятельностной позиции. Требование “открытости” внеурочного пространства обусловлено необходимостью создать условия для самоопределения, а не учитывать конкретный образ. Открытое пространство предлагает сделать школьнику свободный выбор своего маршрута развития из многообразия предлагаемых практик. Закрытые и вновь открытые образовательные (внеурочные) пространства имеют принципиальное значение.

В закрытых пространствах маршрут развития школьника заранее предопределен учителем и не предусматривает иных вариантов движения. Открытое внеурочное образовательное пространство позволяет каждому школьнику сделать самостоятельный свободный выбор в соответствии с его интересами, способностями, возможностями образовательного учреждения, то есть в соответствии с “заказом” на индивидуальное образование.

Внеурочная деятельность, как и любая другая деятельность, предполагает осмысленное целенаправленное проектирование действий для достижения результата. Проектирование образовательной деятельности – это возможность изучить процесс воспитания школьников с гарантированным эффектом.

Мы рассматриваем открытое много вариативное, внеурочное, образовательное пространство, как пространство с повышенными потенциальными возможностями для планирования индивидуального маршрута личностного развития младшего школьника.

Возможности процесса проектирования консервативных маршрутов развития:

– “позволяет перейти от безличных систем к судьбе каждой личности” [8, с. 16];

– помогает обеспечить соблюдение требований и обеспечение доступности образования при различных стартовых возможностях [2];

– создает условия для реализации своих достижений, для реализации лидирующей и результативной деятельности [9];

– подводит младшего школьника к индивидуальному максимуму, к достижению личностно-значимых целей. Категория “проектирование” встречается в технических и гуманитарных науках и трактуется исследователями как форма опережающего презентации, как процесс создания прообраза, как способность видеть вперед. В репетиции мы рассматриваем

проектирование как стратегическое направленной педагогической поддержки (О.С.Газман, Н.Б.Крылова, Н.Н.Михайлова, Ф.И. Кевля).

Педагогическая поддержка, по значению О.С.Газмана — это инновационная педагогическая деятельность по оказанию превентивной и оперативной помощи в саморазвитии ребенка в разрешении его проблем, в вопросах, связанных с обучением, коммуникацией и жизненным самоопределением. Сущность педагогической поддержки: поддерживается то, что имеется в наличии, но на достаточном уровне, то есть поддерживается становления “самости”, самостоятельности человека [10]. Н.Б. Крылова рассматривает педагогическую поддержку как “мягкую” педагогическую помощь (в отличие от педагогики воздействия) сотрудничество, взаимовлияние, условия для становления самости ребенка, основанную на принципах свободы, открытости, товарищеских отношений между учителем и учеником: решительно воспринимать его как личность, уважать его достоинства, права ребенка на свободу, репутацию, поощрение самостоятельности, независимость [11].

Н.Н. Михайлова: кредитация поддержки “механизма автономизации личности”.

Цель педагогической поддержки – создание условий для реализации прав на уникальность, самоценность, автономию личности школьника (самопознание, самооценка, самоконтроль, рефлексия) в процессе жизнедеятельности. Для достижений целей Н.Н. Михайлова вывела алгоритм действий:

– объективного потенциала обучающегося;

– стимулирование проявления и реализации нормальных интересов школьника;

– поддержка в смыслообразующей деятельности, в самореализации на основе самоопределения;

– создание рефлексивного пространства [12]. Ф.И.Кевля сформулировала концепцию опережающей педагогической поддержки личностного развития младшего школьника следующим образом: “это реальная деятельность по моделированию условий и траекторий развития личности ребенка в условиях его жизненного самоопределения. Она наблюдает за субъектным взаимодействием, комплексом средств индивидуальной помощи” [13, с. 90].

Для системы педагогической поддержки ценными и значимыми являются концепции: школы будущего Ш.А.Амонашвили, организация воспитания А.В.Мудрика, модели школьного саморазвития учащихся

А.Н.Тубельского, М.П.Щетинина. Они определили проектирование индивидуального маршрута личностного развития младшего школьника как стратегическую, педагогическую, направленную на поддержку успешной самореализации на основе прогнозирования и планирования личностно - значимой деятельности. Таким образом, выделены три значимых аспекта процесса проектирования для этого исследования:

1) направление педагогической поддержки;

2) педагогическая технология, обеспечение практических требований индивидуализации образования;

3) процесс создания вариативной структуры продвижения школьника в образовательном пространстве школы, проектируемой совместно с преподавателем на основе психолого-педагогической диагностики, с учетом возрастных особенностей, особенностей и задатков, творческих пристрастий и интересов с целью самоопределения и успешной самореализации.

Сущность процесса проектирования индивидуального маршрута личностного развития – целостная деятельность по становлению субъектности в ребенке: конституции его уникальности, раскрытие и поддержка его актуальных и новых возможностей, создание условий для их высшей реализации. Содержанием процесса проектирования индивидуального маршрута личностного развития школьника является прогнозирование, планирование деятельности с целями самоопределения и успешной самореализации. Предметом проектирования является не личность школьника, а его индивидуальный маршрут, на котором происходят процессы обработки и развитие личностных качеств человека. Процесс проектирования ИМ многоаспектный, затрагивает следующие области личности младшего школьника:

– мотивационная: осознание мотивов личностно-активной деятельности, ориентация на успех;

– когнитивная: осмысление целей и задач своего личностного развития, самоопределение;

– требует осознанного заказа на индивидуальное образование; деятельностная: активная, продуктивная, личностно-значимая деятельность;

– рефлективно-оценочная: адекватная самооценка на основе дальнейшего успеха.

Результатом процесса является проектирование персональный путь – индивидуальный маршрут личностного развития младшего школьника, ориентированный на самоопределение и успешную самореализацию.

Принципиальными требованиями к организации процесса реконструирования во внеурочном пространстве общеобразовательной школы являются:

1) учет личностных качеств представителей разных стран и интересов, запрос обучающегося;

2) обеспечение вариативных, взаимодополняемых культурных практик;

3) индивидуальная организация видов деятельности, объединение и включение их в коллективную деятельность;

4) поисковый режим новых видов успешной деятельности;

5) определить реальную педагогическую поддержку на основе интересов и мотивации детей: стимулирование школьников к самоопределению и самореализации.

Разработанная схема проектирования предполагает следующий алгоритм действий:

1) исследование условий, ситуаций, возможностей личностного развития младшего школьника;

2) составление педагогического прогноза на основе результатов проведенной диагностики;

3) проектирование процессуальных шагов;

4) хочу;

5) знаю как;

6) могу;

7) организация оценочной деятельности с позиции субъекта, реализующего собственные интересы; в случае необходимости провести тщательную корректировку в соответствии с заданными ценностными ориентирами;

8) повышение личной ответственности ученика за результаты своей деятельности.

Результатом проектирования является разработанный индивидуальный маршрут личностного развития, который записан в маршрутном листе. Автором маршрута является школьник, поэтому маршрутный лист запроса начинается с интереса воспитанника. Заполняется маршрутный листок совместно со взрослыми.

В ходе изучения опыта организации внеурочной деятельности и новых нормативных документов выделяются принципиальные особенности и условия практической реализации проектирования индивидуального маршрута личностного развития младшего школьника во внеурочной деятельности.

Особенности: 1. Активность, многовариативность. Ученик апробирует свои интересы и способности в различных видах деятельности (например, в художественной деятельности: музыка, драма, живопись, хореография, народные промыслы); определённо делает выводы; движется в выбранном направлении.

2. Открытость. Обучая, происходит свободный выбор ходящего маршрута развития из многообразия предлагаемых практик, то есть происходит личностно-развивающее действие – самоопределение;

3. Ориентированность на личностное развитие (интеллектуальное, духовно-нравственное, речное, творческое);

4. Требования к результатам (равноправно с урочной поверхностью, не являются дополнительными последствиями образовательной программы школы).

удовлетворение интересов и младшего воспитания школьников происходит наиболее успешно при соблюдении следующих условий:

1) внеурочная деятельность отличается от урочной системы обучения и включает младших школьников в многовариативную по направлениям, разнообразную по содержанию и уровням сложности деятельность;

2) индивидуализация внеурочного образовательного пространства (проектирование индивидуального маршрута личностного развития для каждого обучающегося с учетом индивидуального уровня, стартовых возможностей, индивидуальных способностей и индивидуальных интересов);

3) привлечение педагогов к прогностическим и проектным технологиям;

4) образовательные программы внеурочной деятельности школы реализуются через систему кружков, секций, факультативов, организацию общественно-полезной и социально значимой практики;

5) содержательное наполнение программной внеурочной деятельности, условия для личностного развития младших школьников;

6) оптимальная модель внеурочной деятельности создана на основе всех внутренних ресурсов формационного восстановления.

Таким образом, проектирование индивидуального маршрута личностного развития младшего школьника во внеурочной деятельности позволяет наблюдать, фиксировать и корректировать изменения во взглядах, реформировать, потреблять знания младшего школьника, понимать и осмысливать способы действий для достижения личностно-значимой цели.

Практическая реализация маршрута обеспечивает движение обучающегося к новой реформации: самостоятельную активность, осознанное

самоопределение, успешную самореализацию. Проектирование и реализация ИМ подводит младшего ребенка к индивидуальному максимуму, к достижению основных целей, личностному саморазвитию. Внеурочная деятельность осознанно выбрана нами для перепроектирования, так как в открытом, многовариативном образовательном пространстве ребенок обнаруживает свою уникальность, ему возвращается возможность выбора деятельности в соответствии с собственными интересами, способностями и возможностями, то есть углубленное развитие личности.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Григорьев Д.В. Программы внеурочной деятельности. Художественное творчество. Социальное творчество: пособие для преподавателей общеобразовательных учреждений. – М.: Просвещение, 2011.
5. Об организации внеурочной деятельности в начальной школе: методические рекомендации/ сост. З.А. Кокорева, А.С. Игнатьева, Л.С. Секретарева. – Вологда. 2011. – 44-48 с.

2. Примерные программы внеурочной деятельности. Начальное и высшее образование / под ред. В.А. Горского. 2-е изд, – М.: Просвещение, 2011. – 102 С.

3. Асмолов А.Г. Психология XXI века и рождение вариативного образовательного пространства России Новое время – новая дидактика. – М., Самара. 2001. – С. 392.

4. Газман О.С. Педагогическая поддержка как реальность современного образования // Классный руководитель. – 2000. – №3. – С.207.

5. Кевля Ф.И. Педагогические технологии: диагностика, прогнозирование, педагогика и поддержка личностного развития ребенка // Практико-ориентированная монография для школьных психологов и социальных. – Вологда: Легия. 2009. – С.120.

6. Ковалёва Т.М. Открытые образовательные технологии как ресурс тьюторской деятельности в современном образовании // Тьюторское сопровождение и открытые образовательные технологии в современном образовании: сб. ст. – М., 2008. – с.63.

7. Крылова Н.Б. Педагогическая, психологическая и нравственная поддержка как пространство личностных изменений ребенка и взросления. // Классный руководитель. – 2000. – № 3. – С.230.

8. Леонтьев А.Н. деятельности. Сознание. индивидуальность. – М.: Политиздат. 1975., 200 с.

9. Михайлова Н. Н., Юсфин С.М. Педагогическое обеспечение: Учебно-методическое пособие. – М.: МИРОС, 2001. – С.300.

10. Примерная базовая образовательная программа. Основная школа/ сост. Е.С. Савинов. – М.: Просвещение. 2011.

Nishanova Zamira Taskarayevna
psixologiya fanlari doktori, professor
Nizomiy nomidagi TDPU
Tel.: 90-997-33-61

PEDAGOGNING MAQOMIGA E'TIBOR - NURLI KELAJAKKA E'TIBOR

Annotatsiya

Maqolada yaqindagina qabul qilingan "Pedagog maqomi" haqidagi qonunga muallifning munosabati bildirilgan. Shuningdek, mas'uliyatli va sharafli kasblardan biri bo'lgan ustozlik kasbi muallifning 40 yillik pedagogik tajribalari asosida umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, ustoz, maqom, qonun, kelajak.

Аннотация

В статье выражена отношения автора на недавно принятый закон о статусе педагога. Также на основе 40-летнего педагогического опыта автора обобщена профессия учителя, которая является одной из ответственных и почетных профессий.

Ключевые слова: педагог, учитель, статус, закон, будущее.

Abstract

The article expresses the author's reaction to the recently adopted law on the status of a pedagogue. Also, the teaching profession, which is one of the responsible and honorable professions, is summarized based on the author's 40 years of pedagogical experience.

Key words: pedagogue, teacher, status, law, future.

Ustoz. Pedagog. Muallim. Murabbiy. Bu so'zlar naqadar purma'no va sermazmundir. Bu so'zlarni eshitganda qalblar junbushga kelib, ko'ngillar yorishib ketadi. Zero, esimizni tanigan ilk onlarimizdan boshlab aynan ana shu zotlar bizning qo'limizdan tutib kelmoqda. Ustozsiz hech bir jamiyat kamolga yetmagan, aksincha, inqirozga yuz tutgan.

Qadim-qadimdan ota-onalar o‘z farzandlarini kuchli, bilimli, ma’naviyatli ustozlarga ta’lim olish uchun berganlar. Har qanday ustoz o‘ziga o‘xshagan o‘quvchini tarbiyalaydi. Muqaddas kitobimiz bo‘lmish Qur’oni Karimda marhamat qilinadi: “Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko‘tarur” (Mujodala.11) [1]. Mazkur oyati karima olim va ilm o‘rgatuvchilar martabasi nafaqat bandalar oldida, balki Alloh taolo huzurida yuqori ekaniga dalolat qiladi. Zero, ular buyuk muallim bo‘lmish Rasulullohning (sallallohu alayhi vasallam) merosxo‘rlaridir. Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) bunday marhamat qiladilar: “Shubhasiz, Alloh taolo, farishtalar, osmon va yerdagi barcha mavjudotlar, hatto uyasidagi chumoli, dengizdagi baliqlar insonga yaxshilik o‘rgatgan muallim haqiga duo qiladi” (Imom Termiziy rivoyati) [2]. Bu rivoyatdan o‘qituvchilik kasbini barcha e’zozlashini ko‘rishimiz mumkin.

Dunyo yaralibdiki, ustoz nomiga sazovor bo‘lganlar doimo hurmat va izzatga loyiq ko‘rilgan, ularga ta’zim qilishgan. Ularga atab asarlar yozilgan, portretlar chizilgan, dostonlar to‘qilgan, ordenlar taqilgan, kinolar olingan, imoratlar solingan, spektakllar qo‘yilgan, bitiktoshlar o‘yilgan, she’rlar bitilgan, qo‘shiqlar aytilgan, haykallar o‘rnatilgan, maqolalarni-ku aytmasa ham bo‘ladi. Ammo har qancha ularni e’zozlasak ham, ular bergan ilmning va ta’limning haqini ado etolmasligimizni his qilamiz. Istiqlol egalari bo‘lmish yosh avlodni bilimli, savodxon, ma’naviy barkamol va jismonan sog‘lom qilib voyaga yetkazishda o‘qituvchi-murabbiylarning hissasi benihoya kattadir.

O‘z davrining mashhur pedagogi Abdulla Avloniy “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir”, – deb yozgan edi [3]. “Ustoz-otangdek ulug‘“, – degan hikmatda olam-olam ma’no bor. Hatto otani quyoshga qiyos etamiz, ko‘klarga ko‘tarib maqtaymiz. Ammo otaday ulug‘ deb nisbat beriluvchi inson bor, bu ustozdir!

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ham pedagoglik kasbiga katta e’tibor qaratilib, 2024- yil 1- fevralda № O‘RQ-901 “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” Qonun imzolandi [4]. Ushbu Qonunning qabul qilinishi respublikamizdagi barcha pedagoglarni, jumladan, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti jamoasi, shu oliy o‘quv yurtida 33 yildan beri faoliyat yuritayotgan shaxsan meni ham to‘lqinlantirib yubordi, dunyodagi eng sharafli kasblardan biri bo‘lgan pedagoglik kasbiga yuksak e’tibor sifatida qabul qilindi. Ushbu Qonun 21 moddadan iborat bo‘lib, unda pedagogning maqomi, huquqlari, majburiyatlari, etika qoidalari, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, attestatsiyasi, malaka toifalari, mehnatiga haq to‘lash, rag‘batlantirish, ijtimoiy himoya qilish, nizolarni hal qilish kabi qator moddalar o‘z aksini topgan.

Qonunning 5 -moddasi “Pedagogning kasbiy faoliyatini amalga oshirilishini ta’minlash”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, uning faoliyatini asossiz ravishda tekshirish, pedagog tomonidan ta’lim oluvchilarning bilimlarini to‘g‘ri va xolis baholashga ta’sir ko‘rsatish, shuningdek, uning xizmat vazifalarini bajarishga to‘sqinlik qilish” taqiqlanishi ta’kidlangan. Bu fikrlar barcha o‘qituvchilarni o‘ylantirb yurgan muammolar edi. Birinchidan, barchani diqqati bo‘linadi. Ikkinchidan, darsga ajratilgan qimmatli vaqt o‘g‘irlanadi. Yana bir qonun bilan himoya qilinadigan jihat, o‘qituvchilarning ta’lim oluvchilar bilimini baholashda obyektiv yondashuvni amalga oshirish uchun mamlakatimizni ichdan yemirayotgan tanish-bilishchilik, oshna-og‘aynigarchilikka chek qo‘yishga qaratilgan dastlabki qadam deb tushunish mumkin. Qaysidir rahbarning farzandi ham bolaligidan yaxshi o‘qigani, bilimlarni o‘zlashtirgani, o‘z mehnati uchun obyektiv baholanishini kichikligidan tushunadi, barcha muvaffaqiyatlar kimningdir farzandi bo‘lgani uchun emas, balki peshona teri bilan, tinmay o‘qish, izlanish evaziga erishilishini anglaydi.

Ushbu Qonunda belgilangan yana bir jihatni ta’kidlash o‘rinli: “Pedagogning uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo‘lmagan hisobotlarni va boshqa ma’lumotlarni, shu jumladan, bitiruvchilarning bandligi ta’minlanganligi haqidagi hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish” taqiqlanadi. Bizning oliy o‘quv yurtida ham aynan shu muammo bitiruvchilarning bandligi muammosi mavjud edi. So‘nggi yillarda o‘qituvchilarning ish haqi oshganligi, uning jamiyatdagi mavqeyi ko‘tarilganligi munosabati bilan bu muammo ham o‘z-o‘zidan hal bo‘lyapti. Chunki barcha bitiruvchilar o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha ishlashmoqda, hattoki “oylik kam, o‘qituvchilik kasbi bilan ro‘zg‘or tebratib bo‘lmaydi”, - deb vaqtida bozorga chiqib ketganlar ham hozirda ta’lim muassasalariga qaytmoqda.

“Pedagogning maqomi to‘g‘risida” Qonun bilan mamlakatimizda o‘qituvchilarning obro‘si, sha’ni himoya qilinishi barcha ustozlar uchun ulkan sharaf. Chunki o‘qituvchiga e’tibor, ertangi kunimiz, nurli kelajagimizga e’tibordir.

ADABIYOTLAR:

1. Qur’oni Karim. (Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur). –T.: Cho‘lpon. 1992.- 544 b.
2. Imom Termiziydan rivoyat qilingan hadislar. http://old.muslim.uz/index.php/rukn/hadis/item/2271
3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-avloniy/abdulla-avloniy-turkiy-guliston-yoxud-axloq

4. “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” Qonun. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.02.2024 yildagi O‘RQ-901-son. https://lex.uz/docs/6786401.

Эркинов Афтондил,
филология фанлари доктори,
Ўзбекистон халқаро ислом академияси профессори

Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достони – қадимий мерос

Аннотация

Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” (“қуш тили”) достони Фаридиддин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” (“Қуш нутқи”) достонига эргашиб ёзилган асардир. Алишер Навоий 9–10 ёшда эканлигида “Мантиқ ут-тайр”ни ўқиб, ундан жуда таъсирланган. Лекин бу асар таъсирида 1499 йили, умрининг сўнгида ўзининг бадиий жавоб тарзидаги достони “Лисон ут-тайр”ни ёзган. Фаридиддин Аттор ҳам ўзининг “Мантиқ ут-тайр” достонини кексайганида ёзган.

Калит сўзлар: Алишер Навоий, “Лисон ут-тайр”, Фаридиддин Аттор, “Мантиқ ут-тайр”, назира.

Аннотация

Поэма Алишера Наваи “Лисан ат-тайр” (“Язык птиц”) является поэтическим подражанием на “Мантик ат-тайр” (“Речь птиц”) Фаридиддина Аттара. Алишер Наваи прочитал “Мантик ут-тайр” в возрасте 9-10 лет и был ею очень впечатлен. Но под влиянием этого произведения в 1499 году, на закате всоей жизни, он написал в стиле художественного подражания свою поэму “Лисан ат-тайр”. Фаридуддин Аттар также написал свою поэму “Мантик ат-тайр”в пожилом возрасте.

Ключевые слова: Алишер Наваи, “Лисан ат-тайр”, Фаридиддин Аттар, “Мантик ат-тайр”, поэтическое подражание.

Abstract

Alisher Navai’s poem “Lisan al-tayr” (“Language of the Birds”) is a poetic imitation of “Mantiq al-tayr” (“Speech of the Birds”) by Farid al-Din Attar. Alisher Navai read “Mantiq al-tayr” at the age of 9-10 years and was very impressed by it. But under the influence of this work, in 1499, at the end of his life, he wrote his poem “Lisan al-tayr” in the style of a poetic imitation. Farid al-din Attar also wrote his poem “Mantiq al-tayr” in old age.

Key words: Alisher Navai, “Lisan al-tayr”, Farid al-Din Attar, “Mantiq al-tayr”, poetic imitation

“Лисон ут-тайр” (“қуш тили”) – Алишер Навоийнинг фалсафий-тасаввуфий мавзудаги достони. Уни ёзишни Навоий бир умр орзу қилган ва ҳаётидаги энг охирги ёзган достони шу асар бўлган ва бу ҳақда ўзбек китобхонлари яхши биладилар. Бизнинг ҳаммамиз болалигимизда ҳайвонларни яхши кўрганмиз. Уларни уйимизда боққанмиз ҳам. Шу боис болаликдан ҳайвонлар ҳақидаги эртаклар болаларга кўпроқ ёққан. Шулар ичида қушлар ҳам ўзига хос ўринга эга бўлган. Шу боис, 9–10 ёшдаги Алишер Фаридиддин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” (“Қуш нутқи”) номли достонини жуда ёқтириб қолади ва шу достонни муттасил мутолаа қилади. Натижада, бутун бошли достонни ёдлаб олади. Навоий ёшлигидан бошлаб айни асарни ўқиб, ўрганиб, ёдлаб олганлиги ҳам ҳаммамизга маълум. Навоий Атторнинг “Мантиқ ут-тайр”га жавоб тарзида 1499 йили “Лисон ут-тайр” (“қуш тили”) ёзади. Нима учун Навоий болалигидан қадрлаган достонига жавобни умри сўнгида ёзди экан?!

“Лисон ут-тайр” достони 193 боб, 3666 байтдан иборат. Достон мавзуи ва ғоявий йўналиши жиҳатидан форс-тожик адабиётининг таниқли вакили Фаридиддин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” достонига татаббуъ ҳисобланади. Алишер Навоийнинг ўзи “Лисон ут-тайр”да маълумот беришича, у болалик (9–10 ёшларида) даврида Фаридиддин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” достонини ўқиб, унга муҳаббат қўяди ва тинимсиз мутолаа қилиб ёдлаб олади. Ниҳоят умрининг сўнгги йилларидагина бу достонга жавоб ёзиш журъат этади, “Лисон ут-тайр”ни яратади. Аслини олганда шарқ мумтоз адабиётида қушлар билан боғлиқ асарлар мавзу жиҳатидан Ибн Синонинг “Рисалат ат-тайр қиссаси” (“Қуш қиссаси”) рисоласига бориб тақалади. Бу асарда қушлар овчидан қочиб, Подшоҳ ҳузурига борганлари ҳақида ҳикоя қилинади. Айни мавзуда бошқа асарлар ҳам мавжуд бўлган. Мазкур мавзу ёзма адабиётда илк бор Фаридиддин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” асарида илк бор яхлит ва мукаммал сюжетга эга бадиий достон ҳолига келтирилган. Унда сюжет қайта ишланиши баробарида асарга қушлар ва етакчи қуш – Ҳудҳуд образи киритилади. Қушлар подшоси номи эса Симурғ тарзида ўзгартирилди ва бир неча мустақил сюжетли ҳикоятлар қўшилади. Натижада асар, Шарқ адабиётида машҳур бўлган, ҳикоят ичида ҳикоят услубидаги фалсафий-бадиий достонга айланади.

Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достони мураккаб фалсафий-тасаввуфий асар бўлиб, унда мажозий образлар – қушлар ва уларнинг рамзий

саргузаштлари орқали объектив борлиқ ва илоҳиёт тўғрисидаги Навоий қарашлари берилган. Достондаги мажозий тасвир орқали бўлса ҳам реал ҳаёт лавҳалари, иноснларнинг жамиятдаги турмуши ҳам тасвирланган. Алишер Навоий “Лисон ут-тайр” достонида ўта камтарлик билан ўзини тупроқ билан тенглаштиради. Маънавий устози Фаридуддин Атторни илоҳий сирлар кашфиётчиси сифатида кўкларга кўтаради.

Навоий туркий халқларни “Мантиқ ут-тайр”дан баҳраманд қилиш учун бу асарни туркий тилда қайта ёзишга бел боғлаган эди. Унингча, маънавий устози Фаридиддин Аттор унга қушлар тилидан сабоқ берди. Навоий яна айтадики, форсийда битилган қушлар тилини ўрганишда:

Чунки топдим ул калом ичра камол,

Турк алфози бирла сурдим мақол.

Шоир “Лисон ут-тайр” достони орқали туркий ўқувчиларга қушлар билан боғлиқ афсонани ва унинг чуқур маъноларини етказмоқчи бўлади.

Шуниси ғалатики, Навоий Фариддидин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” достони таъсирида 1499 йили, яъни умрининг сўнгида ўзининг бадиий жавоб тарзидаги достони – “Лисон ут-тайр”ни ёзган. Фаридиддин Аттор ҳам ўзининг “Мантиқ ут-тайр” достонини кексайганида ёзган. Навоий балки “Лисон ут-тайр” орқали ўз болалигини хотирлагандир. Нима қилган тақдирда ҳам “Лисон ут-тайр” халқимизнинг каттаю кичиги учун қадимдан бугунгача нодир маданий ғамда адабий меросимиз бўлиб қолади.

Илова:

Қуйида Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достонини ёзишига болалигида ўқигани Фариддидин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” достони қандай таъсир қилганлиги ҳақидаги фикрларини айни достоннинг ҳозирги ўзбек тилидаги насрий баёни орқали ҳавола қиламиз[1].

Бу китобни назмга солишда ўз муносабатини билдириш

Бу ҳодиса ҳамон ёдимдан кўтарилмайди: болалик чоғимда мактабга қатнаб юрган кезларим эди. Болалар ерга мук тушганларича, ҳар тарафдан бир сабоқни эгаллаш учун ун чекар эдилар. Улар сабоқ оғирлигидан қийналар, “Каломуллоҳ”ни такрорлардилар. Устод хотирани мустаҳкамлаш, зеҳнни ўткирлаш ва саводимиз равон бўлиши учун шеър ўқитар эди. Баъзан насрдан

[1] Парча достоннинг насрий баёнидан қисқартириб олинди. Қ.: Alisher Navoiy. Lison ut-tayr (Nasriy bayon). (https://xdp.uz/uploads/documentation/5.pdf); аслият матнида: Алишер Навоий. *Мукаммал асарлар тўплами*. 20 томлик. 12-том, Тошкент, 1996. Б.328-332.

“Гулистон”ни мутолаа қилсак, гоҳо “Бўстон”[2] каби шеърий асарларни ўқир эдик. Бу пайтда менинг қизиқувчан таъбим Фаридиддин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” достонига кўнгил қўйган эди. Мен бу асарни такрор-такрор ўқир, ёш кўнглим ундан баҳра топмоқда эди. Таъб унда ёзилган сўзларга ошно бўлгач, бошқа асарларни ўқишга майл кўрсатмади. Ундаги ажойиб ҳикоятларга ўрганиб қолдим, қуш тилидан айтилган киноя ва мажозий фикрлар менга ошно бўлиб қолди. У ердаги бирон фикрга зеҳним қизиқиб, унинг нима мақсадда айтилганини билишга ҳаракат этар эдим. Бундан оладиган завқ мени кўп хушҳол этиб, бу сўзларнинг шарҳлари мени лол этар эди. Шу аҳволда кўп вақт у билан машғул бўлиб, бу китобга эътиқодим тобора ортар эди. Шундан сўнг мен кишилар билан улфат бўлишдан қочдим. Бу китоб ҳилватдаги энг қадрдон сирдошим бўлиб қолди. Натижада кишиларнинг яшаш тарзлари ва ҳаракатлари таъбимга малол кела бошлади. Оқибат, бу китобга бўлган ишқим мени шу хил шайдолик сари етаклади. Бу савдо мени девона бир ҳолга солиб, мен, узлат эшигини очай ва бу оламнинг бемаъни элидан қочай, дедим. Болалар мендаги бу ҳолатни англагач, ғавғо-тўполон кўтарганча уни ота-онамга етказишди. Ота-онам менинг бу ҳолатимдан ваҳимага тушдилар. Улар: “Бу оташин сўзни унинг ёш, хом табъи кўтара олмайди. Бу асар унга оғирлик қилиб, у жинни бўлиб қолиши мумкин. Кейин уни тузатиб бўлмайди”,- деган хаёлга бордилар. Улар бу китобни қўлимдан тортиб олиб, уни бир жойга яширдилар ва кўнглимни у билан машғул бўлишдан маҳрум этдилар. Менга уни ўқишни қатъий манъ қилишиб, “Мантиқ ут-тайр” устида фикрлашни тақиқлаб қўйдилар. Ота-онам, шояд тез фурсатда ўғлимиз бу аҳволдан қутулиб, ўзига келиб қолар, деган умидда эдилар. Лекин бу асар менга ёд бўлиб қолган эди. Уни доимо яширинча такрорлаб юрар эдим. Кўнглим қуш тили билан сирдош бўлиб, ундан бошқа сўзга майлим оз эди. Мен туркий шеъриятда байроқ кўтариб, бу мамлакатни бир қалам остида бирлаштирдим. Тўрт девон билан “Панж ганж” ҳеч бир қийинчиликсиз, ғам ва машаққат чекмаган ҳолда қўлга кирди. Агар тахмин етувчи котиб назм ва насримдаги шеъриятимни чамалаб кўрса, уни юз минг байт атрофида қиёс етар эди.

Шеърият соҳасида шунчалик муваффақиятларни қўлга киритган бўлсам-да, лекин бир хаёл сира ёдимдан кўтарилмас эди. Яъни Ҳақ мадад берса-ю, мен таржима йўли билан асар ёзсам. Бироқ бу асарни ёзиш жуда қийин бўлиб, бу ишни бажаришдан ожиз эдим. Қаламни равон юргизишга қўлим бормас эди. Оқибат, кўрдимки, умрим тез ўтиб кетмоқда. Мен ўлиб, бу китоб ёзилмай қоладиганга ўхшайди. Бундан мен у дунёга армон билан кетиб,

[2] «Гулистон» ва «Бўстон» Саъдий Шерохий асарлари.

бу армон ўти қалбимда умидсизлик доғини қолдирадими, деб ўйладим. Шундан сўнг бу ишга киришиб, унга бирмунча вақтимни сарф этдим. Олтмиш ёшга қадам қўйганимда қуш тилини шарҳлаш учун қаламим учини йўндим. Бу ишда Шайх руҳидан мадад сўрадим[3], у менга ёрдам қўлини чўзди. Кечалари бу руҳ менга ёр бўлиб, таъбим бу маънога машғул бўлган пайтда доимо қўллаб турди. Қаламимни тез югуртириб, ҳар ярим кечага қадар қирқ-эллик байтни ёзмагунча тўхтамас, ажиб бир илҳом билан бетиним ишлар эдим. Шайх руҳидан кўп шижоат етиб, асаримни оз фурсатда тугалладим. Ўз-ўзимни қанчалик қийнамайин, бу асарни ёзиш мен учун оғир бўлиб, ундаги маъно кўздан яширинган эди. Аммо Шайх руҳидан мушкилим осон бўлиб, мендек бир номурод ўз муродига эришди. Агар бир ғаввос кўп машаққат чекиб, ўзини бу денгизга ошно қилса, унинг қўлига гарчи дурлар илинмаса ҳам, бу денгиз мавжларида сузиб юрган хас-хашакларни йиғиб олса, сўнгра уларни қуритиб, ўтин қилса ва бу ўтиндан унинг вайрона кулбаси бир зум тутунсиз ёриса, деган умидим бор. Мен бу денгиз ичра пок дурларни топа олмай, хас-хашакларни йиғиб олдим. Нима қилай, қўлимдан фақат шу ишгина келди, холос! Ҳижронда қолган таъбим шу билан ҳам қаноатланади! Олий мартабали шеър битувчи олам аҳлига ўз денгизидаги кондан нақд гавҳарлар сочган бўлса менинг ундан оширишга ҳаддим сиғармиди! Ундан олган эҳсонларни васф қилсам ҳам менга кифоя қилади. Умидим шуки, ҳар ким бу китобга кўз солиб ўқиса ва ундаги сўзлардан кўнглига ҳарорат етса, уни Шайх нафасидан деб билсин ва бу асардан файз топиб, ўз муроди мақсадига эришсин. Бунда бизни ҳам у билан бир қаторда кўриб, кўнгли иккилик сари майл қилмасин.

Бадиий асарни идрок этиш

Психологик текширишлар натижасида кичик ёшдаги ўқувчиларнинг адабий қаҳрамонларни идрок этиши ва баҳолашидаги психологик хусусиятлари ўрганилган ва улар адабий қаҳрамонга икки хил муносабатда бўлишлари аниқланган:

1) адабий қаҳрамонга эмоционал муносабат;
2) элементар таҳлил қилиш.

Асарда қатнашувчи шахсларга баҳо беришда ўқувчилар ўз шахсий ва ахлоқий тушунчаларидан фойдаланадилар. Бундай ахлоқий тушунчалар кичик ёшдаги ўқувчиларда чегараланган бўлади. Асардаги қаҳрамонларнинг характери уларнинг ахлоқий сифатларини англаш асосида тушунилади. Бунда қаҳрамоннинг нима қилиши эмас, нима учун шундай қилиши кераклигини

[3] Шайх Фаридиддин Аттор назарда тутилаяпти.

билиш муҳимдир. Ушбу жараёнда асар қаҳрамонларининг ахлоқий сифатлари устида кўпроқ ишлаш лозим.

Кейинги йилларда бошланғич синфларда бадиий асарни таҳлил қилишда қуйидаги жиҳатларга кўпроқ эътибор қаратилгани кузатилди:

- ✓ бадиий асарни таҳлил қилиш методикаси такомиллаштира борилди;
- ✓ такрорий баён қилиш машқлари камайтирилди;
- ✓ ижодий ва ўқилган матн юзасидан ўз фикрини баён қилиш кўникмасини ўстирадиган машқлар кўпайтирилди;
- ✓ асар қисмлари устида эмас, балки яхлит асар устида ишланадиган бўлди;
- ✓ асар ғояси ва образларини тушунтиришда ўқувчиларнинг мустақиллиги ортди;
- ✓ матн устида ишлашда хилма-хил топшириқ турларидан, таълимда техника воситаларидан ва илғор педагогик технология усулларидан кўпроқ фойдаланила бошланди.

Бошланғич синфларда бадиий асар қуйидаги муҳим методик қоидалар асосида таҳлил қилинади:

асар мазмунини таҳлил қилиш ва тўғри, тез, онгли, ифодали ўқиш малакаларини шакллантириш бир жараёнда боради (асарнинг мазмунини тушунтиришга оид топшириқ ўқиш малакаларини такомиллаштириш топшириғи ҳам ҳисобланади);

асарнинг ғоявий асослари ва мавзусини, унинг образлари, сюжет чизиғи, композистияси ва тасвирий воситаларини тушунтириш ўқувчиларнинг шахс сифатида умумий камол топишига яхши хизмат қилади, шунингдек, боғланишли нутқининг ўсиши (луғатининг бойиши ва фаоллашиши)ни таъминлайди;

ўқувчиларнинг ҳаётий тажрибасига таяниш асар мазмунини онгли идрок этишнинг асоси ва уни таҳлил қилишнинг зарурий шарти ҳисобланади;

синфда ўқишга ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш, атроф-муҳит ҳақидаги билимларини кенгайтириш ва илмий дунёқараш асосларини шакллантиришнинг самарали воситаси сифатида қаралади.

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, ўқитувчи бадиий асар устида ишлашда қуйидаги масалаларни ҳал қилиши лозим:

асар устида ишлашнинг мақсад ва мазмунини аниқлаб олиши;

асарни таҳлил қилиш учун дарс босқичларини белгилаб олиши;

ҳар бир асар таҳлили учун топшириқлар тизимини ишлаб чиқиши;

асарни қандай методлар асосида ўрганишни аниқлаши;

ўқувчилар эгаллайдиган билим, кўникма ва малакалар доирасини белгилаб олиши.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 12-том, Тошкент, 1996.
2. Шайх Фаридуддин Аттор. Мантиқ ут-тайр: насрий баён. Тошкент, Ғофур Ғулом номидаги нашриёт, 2006.
3. Шарипов Ш. “Лисон ут-тайр” ҳақиқати. Тошкент: Маънавият, 1998.
4. Олимов С.Ҳ. “Лисон ут-тайр”нинг қиёсий поэтикаси: синтез, назиравийлик ва таржимавийлик. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2023.

Nazarova Shahnoza Rustam qizi
Turkiya Respublikasi Marmara universiteti
Ta’lim menejmenti mutaxassisligi
III bosqich doktoranti

SANOAT 4.0 DAVRIDA MAXSUS EHTIYOJLI SHAXSLARGA TA’LIM BERISHNING MUHIM MASALALARI

Annotatsiya

Sanoat 4.0 davrida texnologiyalarning rivojlanishi jamiyatning barcha qatlamlari, jumladan, maxsus ehtiyojli shaxslarga ham sezilarli ta’sirini o‘tkazadi. To‘rtinchi sanoat inqilobi, avvalgilaridan farqli o‘laroq, jamiyatning barcha sohalarini, shu jumladan, ta’lim tizimini, ishlab chiqarishni va ijtimoiy hayotni tubdan o‘zgartirish potensialiga ega. Maqolada raqamli texnologiyalar va yordamchi vositalarning maxsus ehtiyojli shaxslarga ta’lim va ish hayotida teng imkoniyatlar yaratishdagi roli muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: To‘rtinchi sanoat inqilobi, texnologik taraqqiyot, internet of things (IoT), sun’iy intellekt (AI), robototexnika, bulutli hisoblash.

Аннотация

Развитие технологий в эпоху Индустрии 4.0 оказывает существенное влияние на все слои общества, в том числе на людей с особыми потребностями. Четвертая промышленная революция, в отличие от предыдущих, способна коренным образом изменить все сферы жизни общества, включая систему образования, производство и общественную жизнь. В статье рассматривается роль цифровых технологий и вспомогательных устройств в создании равных возможностей для людей с особыми потребностями в образовании и трудовой жизни.

Ключевые слова: Четвертая промышленная революция, технологическое развитие, internet of things (IoT), искусственный интеллект (AI), робототехника, облачные вычисления.

Abstract

The development of technology in the era of Industry 4.0 has a significant impact on all sectors of society, including people with special needs. The fourth industrial revolution, unlike previous ones, is capable of radically changing all spheres of society, including the education system, production and public life. The article examines the role of digital technologies and assistive devices in creating equal opportunities for people with special needs in education and working life.

Key words: Fourth Industrial Revolution, technological development, internet of things (IoT), artificial intelligence (AI), robotics, cloud computing.

Tez rivojlanayotgan jamiyatda, jismoniy, psixologik, madaniy jihatdan standart me'yorlarga mos kelmaydigan atipik shaxslar sonining ko'payishiga olib kelmoqda. Statistik raqamlarga ko'ra, yildan yilga ijtimoiy hayotdan ajralgan, maxsus yordamga muhtoj bolalar soni ortib bormoqda. UNICEFning 2021- yil hisobotiga ko'ra, dunyodagi har 10 boladan 1 nafarida nogironlik bo'lib, umumiy soni 240 millionga yetgan[4].

Maxsus ta'lim muassasalarining ta'lim tizimi va mazmuni, nogiron bolalarning zamonaviy ta'lim va ijtimoiy ko'nikmalar ehtiyojlarini qondirmaydi. Shuning uchun insonparvarlik nuqtai nazaridan, dunyodagi ko'plab mamlakatlar maxsus ajratilgan ta'lim tizimini rad etishni boshlaganligi ochiqcha ko'rinib turibdi [14; 15; 30; 31].

Ko'plab mamlakatlarda, maxsus ehtiyojli bolalarning to'liq rivojlanishi uchun kompensatsion qobiliyatni rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvni to'liq ta'minlash maqsadida o'rta ta'lim maktablarida ta'lim, ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritilgan.

2011- yilda G'arbiy sanoat uchun burilish nuqtasi bo'lgan voqea ro'y berdi va kamida texnologiyalarning rivojlanishidan kelib chiqqan ijtimoiy o'zgarishlarni o'rganish uchun yangi turtki berishi mumkin bo'lgan voqea edi. 2011- yilda dunyoning eng yirik sanoat yarmarkasi bo'lgan Hannover Yarmarkasida "Sanoat 4.0" atamasi ixtiro qilindi [31].

Bu o'zgarish inson tanasiga implantatsiya qilingan texnologiyalarni, "kiyiladigan" internetni, hamkorlik qiladigan va koordinatsiyalashadigan mashinalarni, o'z-o'zidan qaror qabul qiladigan tizimlarni, mustaqil muammo hal

[4] https://www.unicef.org/turkiye/en/press-releases/nearly-240-million-children-disabilities-around-world-unicefs-most-comprehensive

qiluvchilarni, o‘rganuvchi mashinalarni rivojlantiradi. Hatto mashinalar hamma narsaga ega bo‘lgan qaror qabul qiluvchi kengash a’zosi rolini o‘ynaydi. 3D chop etishning kutilganidan ko‘ra ancha ilg‘orlashuvi, kundalik hayotda ishlatiladigan yozuvlarning chop etilishiga olib keladi. Yapay organlar yaratish uchun ham ishlatiladi. 2025- yilga kelib 1 trillion sensor inson hayotida ishlatilishi kutilmoqda [19].

“Sanoat 4.0” hozirda davom etayotgan to‘rtinchi sanoat inqilobiga ishora qilish uchun keng qo‘llaniladigan atamadir. Buning ajralib turuvchi xususiyati, internet texnologiyalari, robototexnika, bulutli hisoblash, sun’iy intellekt kabi raqamli texnologiyalarning inson faoliyatining barcha sohalariga ta’siridir. Internet texnologiyalari mashinalarni insonlarga va boshqa mashinalarga bog‘laydi, katta miqdordagi ma’lumotlar “bulut”da to‘planadi va qayta ishlanadi (Bulutli hisoblash), odatiy holga kelgan modellarga asoslanadi va turli muammolarni hal qiladi. To‘rtinchi sanoat inqilobining rivojlanishini ifodalashning uchta sababi bor: tezlik, doirasi va tizim ta’siri. Hozirgi yutuqlarning tezligi tarixiy misolga ega emas. Oldingi sanoat inqiloblari bilan solishtirganda, To‘rtinchi, chiziqli tezlikdan ko‘ra, eksponent ravishda rivojlanmoqda. Bundan tashqari, deyarli har bir mamlakatdagi har bir sektorni tubdan o‘zgartirmoqda [24].

Sanoat 4.0 o‘rta va yuqori malakali ishlar avtomatlashtirilishi va o‘sishi, liderlik va muloqot ko‘nikmalarining moddiy bo‘lmagan qiymatining oshishi, masofadan ishlash, tarqalib ketgan global ishchi kuchi va madaniyatlararo onlayn hamkorlik, ish joyida raqamli vositalar va insonlar hamda kompyuterlar o‘rtasidagi hamkorlik kabi tendentsiyalarni rag‘batlantirdi [17].

Ishlab chiqarish va axborot texnologiyasining to‘rtinchi bosqichi bo‘lgan Sanoat 4.0 so‘nggi o‘n yilning eng muhim tadqiqot sohalaridan biri sifatida qabul qilinmoqda. Sanoat inqilobi tarixida birinchi marta bu sohadagi tadqiqotchilar va tashkilotlar kelajagini shakllantiruvchi oldindan ko‘rilgan taxminlar rejalashtirilmoqda [12]. Bu operatsiyalarning samaradorligini va nihoyat boshqa sanoat inqiloblarga qaraganda juda katta iqtisodiy ta’sirga ega bo‘lishi kutilayotgan yangi biznes modellari, xizmatlar va mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yaxshilashdir. Bularni amalga oshirishda Sanoat 4.0 tizimlarining asosiy tarkibiy qismlarini tashkilot jarayoniga qo‘llash kerak [16].

To‘rtinchi Sanoat Inqilobi ilg‘or robototexnika va mustaqil transport, sun’iy intellekt va mashina o‘rganishi, ilg‘or materiallar, biotexnologiya va genomika kabi yangiliklarni olib keldi. Bu rivojlanishlar hayot va ishlash usullarini o‘zgartirdi. Ba’zi ishlar yo‘qoladi, boshqalari o‘sadi va bugungi kunda mavjud bo‘lmagan ishlar odatiy holga keladi. Shuning uchun kelajakdagi bandlikni ta’minlash uchun ish ko‘nikmalarini moslashtirish kerak [8].

Sanoat 4.0 doirasida nogironlarning jalb qilinishi haqida gap ketganda, ham imkoniyatlar hamda qiyinchiliklar mavjud. Bir tomondan, texnologiyadagi taraqqiyot yangi ish imkoniyatlari yaratish va mavjud ishlarni nogironlar uchun yanada erishilgan qilish potensialiga ega. Masalan, virtual va oshirilgan haqiqat texnologiyalari, haqiqiy dunyo muhitlarini simulyatsiya qilish va nogironlarga ta’lim va ish bilan bog‘liq tajribalar taqdim etish uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, avtomatlash va raqamlashtirish, ma'lum ishlar uchun jismoniy talablarning kamaytirilishiga yordam berishi orqali bu ishlarni nogiron shaxslar uchun yanada erishilgan qilishi mumkin.

Boshqa tomondan, Sanoat 4.0 doirasida mashinalar va avtomatlash keng tarqalgani sari, nogironlar uchun ish joylarining yo‘qolish xavfi ham bor. Sanoat 4.0 ning nogironlar ustidagi potensial ta’sirini hisobga olish va ish dunyosi o‘zgarishi bilan nogironlar ortda qolmaslik uchun choralarni ko‘rish muhimdir.

Texnologiya faol bo‘lgan raqamli platformalarning o‘sishi, mustaqil ishlashning ko‘tarilishini kuchaytirishda davom etadi va odamlarning ish qilish usulini an’anaviy g‘isht va ohak modelidan o‘zgartiradi. Bu o‘zgarishlar faqat umumiy aholini emas, balki nogironlikning tarqalishi va ishlashi, nogironlikning ijtimoiy tengsizliklarining o‘lchami va balki texnologiya tobora hukmron bo‘lgan dunyoda nogironlikning asosiy sabablariga ta’siri ham o‘zgaradi [25].

Nogiron shaxslarning ish bozoridagi ish imkoniyatlari bilan bog‘liq qiyinchiliklar 5 turga tasniflanadi. Bular:

(I) noqulay transport;

(II) noqulay binolar;

(III) ish beruvchilarning salbiy munosabatlari;

(IV) o‘z-o‘zini past darajada hurmat qilish;

(V) haddan tashqari himoyachi oilalar [10].

Muvofiqlikda transport vositalarining yo‘qligi, maxsus ehtiyojli insonlarning bandligi oldidagi eng katta to‘siqdir. Ikkinchidan, ish beruvchilar va jamiyatning nogironlarga nisbatan stigmatizatsiyasi va oldindan fikrlashidir [25].

Nogiron kishilarning ish topish ehtimoli 50% ga kamroq va ularning qilayotgan ishlari hatto pastroq korporativ darajalarda bo‘lishi ehtimoli ko‘proq. Yuqori darajadagi nogiron kishilar, bir xil ta’lim darajasiga ega bo‘lishlariga qaramay, nogiron bo‘lmagan kishilarga qaraganda kamroq daromad oladi [19].

Maxsus ehtiyojli shaxslarning ish bilan ta’minlanish muammolariga mumkin bo‘lgan bir yechim, ularning mustaqil kasb egasi bo‘lish yoki o‘z ishlarini boshlab, boshqarish potensialida yotadi. Talib va hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqotda maxsus ehtiyojli kishilar uchun quyidagi 3 turdagi mustaqil kasblar tavsiya etiladi:

Mustaqil kasb egasi: o‘z ishida, kasbida, savdosida yoki dalasida daromad yoki haq evaziga ishlaydiganlar yoki ferma ishlatuvchilar.

Tadbirkorlik: mavjud bo‘lmagan masalan, mahsulot va xizmatlarni, jarayonlarni va tashkilot tuzilmalarini tanishtirish uchun imkoniyatlarni kashf etish, baholash va foydalanish faoliyatlarining kombinatsiyasi.

Texnoprenor: AQSh qonuniy ta’rifiga ko‘ra, tadbirkorlikning eng muhim kengaytmalaridan biridir. Texnoprenor, yangiliklar yaratish uchun texnologiyadan foydalanadigan va yangi narsa bilan paydo bo‘lgan yangi asr tadbirkoridir. Texnoprenorlar, bozorda bir o‘zgarish yaratadigan yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish uchun texnologiyaning foydalanishini optimallashtirib, mavjud iqtisodiy tartibdan farqli ishlaydilar.

Osiyoda, ayniqsa, Janubi-Sharqiy Osiyoda, so‘nggi texnologiyalardan foydalanib yangi ishlar yaratadigan “texnoprenorlar” yoki tadbirkorlar, oxirgi o‘n yilda ish yaratishning asosiy haydovchi kuchlari bo‘ldi. Texnoprenorlarning turli xil tabiatini tushunishga yordam beradi. Turli texnologik tadbirkorlik tuzilmalari, turli xil turdagi ko‘nikmalarni talab qiladi va turli texnologiya turlaridan foydalanadi. Birinchisi, Apple, Tesla va Microsoft kabi yangi kompaniyalarga quvvat beradigan noyob texnologiyalarni yaratadigan texnologiya ishlab chiquvchisidir. Ikkinchisi, yangi texnologik rivojlanishlarni ko‘rib, ularning bozor ehtiyojlarini qondirish uchun qanday qo‘llanilishi mumkinligini tushunadigan texnologiya foydalanuvchilaridir. Texnologiya foydalanuvchilariga misol sifatida Uber va Amazon keltirilishi mumkin [25].

Maxsus ehtiyojli shaxslarni yuqorida ko‘rsatilgan mustaqil kasblarda ishlashlari uchun raqamli savodxonlik haqida xabardor bo‘lishlari kerak. Raqamli savodxonlik:

1) texnologiyani idrok etish qobiliyati;

2) texnologiya bilan ishlash ko‘nikmalari;

3) texnologiyani tushunish qobiliyati [27].

Maxsus ehtiyojli shaxslarni Sanoat 4.0 ga tayyorlash uchun Sanoat 4.0 bilan bog‘liq raqamli savodxonlik dasturi zarur. Sanoat 4.0 bilan bog‘liq besh asosiy ko‘nikma mavjud.

1. Internet narsalari (Internet of Things).
2. Kengaytirilgan va Virtual haqiqat texnologiyalari.
3. Bulut hisoblash.
4. Kiber xavfsizlik.
5. Veb Texnologiyalar [25].

Digital transformatsiya bilan birga dunyoni To‘rtinchi Sanoat Inqilobiga tortib borayotganida, nogironlarning kelajakdagi ish kuchidan chetda qolmasligini

ta’minlash muhimdir. Rafi tomonidan nashr qilingan maqolada maxsus ehtiyojli shaxs ishini osonlashtirishi mumkin bo‘lgan dasturlar va platformalar haqida gapiriladi. Edtech, masofadan ishlash, fintech va muloqot qilish bilan bog‘liq raqamli transformatsiya, nogiron insonlarni yanada katta muvaffaqiyatga olib kelishi va ulardan foydalanish va noyob ko‘nikma to‘plamlaridan foydalanishga yordam berishi mumkin [19].

Ko‘pchilik maktablarda maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun zarur sharoitlar yo‘qligi sababli ba’zi o‘quvchilar maktabga kirishda jismoniy va ruhiy muammolarga duch kelmoqdalar. Edtech, maxsus ehtiyojli o‘quvchilarga o‘z uyining qulayligida ta’lim olish imkoniyatini taqdim etadi.

Onlayn ta’lim, shuningdek, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar sinfning qolgan qismi bilan tenglashishiga yordam beradi, chunki ba’zi to‘siqlar onlayn muloqot qilganda ko‘rinmas bo‘ladi va o‘quv dasturi nogironlik talablarini qondirish uchun moslashtirilishi mumkin. Edtechdagi taraqqiyotlar, shuningdek, tengdoshlar bilan muloqotni yanada silliq qilish orqali nogiron o‘quvchilar uchun yaxshi muhokamani ta’minlaydi. Braille moslamali aksessuarlar, eshitish vositalariga mos keladigan naushniklar, ishora tili tarjima dasturlari va matndan nutqqa vositalar, edtech bu borada qanday yordam berishi mumkinligining bir necha misolidir. Edtech, nogiron o‘quvchilar uydan o‘qish imkoniyatini taqminlash bilan birga, o‘quvchilarni kelajakda yanada gibrid bo‘ladigan ish uchun ham tayyorlaydi.

Fintech. Nogiron oilalarning bank hisob raqami bo‘lmaganligi, nogiron bo‘lmagan oilalarga qaraganda uch barobar ko‘proq. Bu, moliyaviy yordam va kreditga cheklangan kirish bilan natijalanadigan sarflash qaydlarining yo‘qligi demakdir. Bankni shaxsan tashrif buyurish, nogiron shaxslar uchun qo‘rqinchli vazifa bo‘lishi mumkin, bu esa sayohat vaqtini va harajatlarini oshiradi. Fintech qulaylik, moliyaviy yozuvlar va xavfsizlikni taqdim etadi. maxsus ehtiyojli shaxslarga yordamchi texnologiya va shaxsiylashtirilgan moliyaviy xizmatlarni taqdim etish orqali kapsaytivlik oldidagi to‘siqlarni yengishga yordam beradi.

Masofadan ishlash. Masofadan ishlash, jismoniy ofisda har doim mumkin bo‘lmagan, nogiron shaxslarning barcha ehtiyojlarini hisobga olgan holda shaxsiy ish maydonini yaratishlariga imkon beradi. Bundan tashqari, ish uchun aloqa qilishni juda ham silliq qiladi; masalan, Zoomning avtomatik subtitrlash xususiyati eshitish maxsus ehtiyojli shaxslarga yordam beradi. Oxirgi navbatda, xodimlarni, ishlarining sifatiga asoslanib, nogiron insonlarni bilmasdan oldin fikr yuritishga undaydi.

Aloqa qilish (Networking). Ishlarning hayratlanarli darajada 85%i tarmoq orqali to‘ldirilganda, nogiron shaxslarning aloqa qilishi muhimdir. Biroq, yuzma-yuz aloqa qilish, maxsus ehtiyojli shaxslar uchun noqulay bo‘lishi mumkin.

Tasodifiy yuzma-yuz o‘zaro ta’sirda bo‘lish, eshitish nogironligi yoki dispraksiyasi bo‘lgan shaxslar uchun qo‘rqinchli bo‘lishi mumkin va bu ularning kamroq o‘ziga ishonchli bo‘lishiga olib keladi.

LinkedIn kabi platformalar, nogiron shaxslarni potensial ishga olish mutaxassislari bilan Zoom orqali uchrashib, aloqa qurishlari mumkin bo‘lgan joyda samarali bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotlar maxsus ehtiyojli shaxslarning ish bilan ta’minlanishini ta’minlash uchun yangi asr ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari va mustaqil ishlarda ishlashlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, tashkilot rahbarlarini shu turdagi insonlarga maxsus imkoniyatlar yaratishga, ularni motivatsiya qilishga chaqiradi. Shu tarzda maxsus ehtiyojli shaxslar ham boshqa insonlar kabi ishlab chiqaruvchi bo‘lishi, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga ishoniladi.

Sanoat 4.0 dagi o‘zgaruvchan ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashish zarur. An’anaviy ta’lim paradigmasida o‘quvchilar o‘quv dasturini kuzatadilar, yaratilgan jadvalga ko‘ra darslarni olishlari, kuzatishlari va o‘rganishlari kerak. Bunday ta’limda o‘quvchilar asosiy bilimlarni o‘rganishlari mumkin va ularni baholash test natijalariga bog‘liq bo‘lib, olingan bilimlarni o‘zlashtirishlari-muhim emas. Yana bir qiyinchilik amaliy qiyinchilikdir. Dars olish va amaliyot o‘tash jarayoni bir-biriga bog‘liq bo‘lmaganligi sababli, o‘rganilgan bilimlarni unutish mumkin.

Ta’limdagi o‘zgaruvchan pedagogik jarayonlarga moslashish Jahon iqtisodiy forumi hisobotida Ta’lim 4.0 deb ataladi va yuqori sifatli ta’limni tavsiflash uchun o‘quv kontenti va tajribalarida sakkizta muhim xususiyat belgilangan.

Sanoat 4.0 konsepti, nogiron va nogiron bo‘lmagan shaxslarning ishlab chiqarish jarayoniga va logistikaga ko‘proq jalb etilishi uchun bir imkoniyat taqdim etadi. Inklyuziv ta’lim, oliy ta’lim muassasalarida nogironlik va boshqa orqaga qaramasdan barcha o‘quvchilar uchun bandlik bo‘shlig‘ini yopishi mumkin.

Muvaffaqiyatli inklyuziv modelning kalit unsuri, o‘qituvchilarning, olimlarning ta’limi va pedagogik ta’lim va ko‘nikmalar hamda o‘qitish xodimlarining kompetentligi uchun faol ishtirokni ta’minlashdir.

ADABIYOTLAR:

1. Azid, N., Hasan, R., Nazarudin, N. F. M., & Md-Ali, R. (2020). Embracing Industrial Revolution 4.0: The Effect of Using Web 2.0 Tools on Primary Schools Students' Mathematics Achievement (Fraction). International Journal of Instruction, 13(3), 711-728.

2. Bustamante, C. (2017). TPACK and teachers of Spanish: Development of a theory- based joint display in a mixed methods research case study. Journal of Mixed Methods Research, 13(2), 163-178.
3. Derikot N. What will happen to the labor market by 2022: will algorithms seize power and will you be fired in the next five years [Electronic resource]. URL: https://knife.media/4ir/ (date of access: 25/04/2021).
4. Dewi, R. R. V. K., Muslimat, A., Yuangga, K. D., Sunarsi, D., Khoiri, A., Suryadi, S., ... & Iswadi, U. (2021). E-Learning as Education Media Innovation inthe Industrial Revolution and Education 4.0 Era. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol, 27(1).
5. Ellis, A. K., & Bond, J. B. (2018). Research on educational innovations. New York: Routledge.
6. Florian, L. (2004). Uses of technology that support pupils with special educational needs. In L. Florian, & J. Hegarty (Eds.), ICT and special educational needs (pp. 7–20). Maidenhead: Open University Press.
7. Gairbekova P.I. Actual problems of education digitalization in Russia [Electronic resource] // Modern problems of science and education. 2021. No. 2. P. 65-65. URL: https://science-education.ru/ ru/article/view?id=30673
8.Gray, A. (2016). The 10 skills you need to thrive in the Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
9. Halili, S. H. (2019). Technological advancements in education 4.0. The Online Journal of Distance Education and e-Learning, 7(1), 63-69.
10. Heron, R. & Murray, B. (2003). "Assisting disabled persons in finding employment: A practical guide".
11. Himmetoglu, B., Aydug, D., & Bayrak, C. (2020). Education 4.0: Defining the teacher, the student, and the school manager aspects of the revolution. Turkish Online Journal of Distance Education, 21(Special Issue-IODL), 12-28. https://www.unicef.org/turkiye/en/press-releases/nearly-240-million-children-disabilities-around-world-unicefs-most-comprehensive
12. Kagermann, H., Wahlster, W., & Helbig, J. (2013). Recommendations for implementing the strategic initiative Industry 4.0. Final report of the industry 4.0 working group.
13. Khandelwal, R., Kolte, A., Pawar, P., & Martini, E. (2020). Breaking out of your comfort zone: an archival research on epistemology in inclusive education pedagogy for Industry 4.0. International Journal of Educational Management.
14. Nazarova Dildora Asatovna. (2022). Modern approaches in the process of training educators for a special and inclusive education system. European

Scholar. 3(10), 91-92. Retrieved from. https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/2798
15. Nazarova D.A. Aspects of achieving effective performance of heads of educational institutions in the context of inclusive education// Педагогика и современное образование: традиции, опыт и инновации. Сборник статей XYI международной научно-практической конференции. Пенза, 2021. Стр.10-12.
16. Oztemel, E. & Gursev, S. (2020). Literature review of Industry 4.0 and related technologies. Journal of Intelligent Manufacturing. 31. 10.1007/s10845-018-1433-8.
17. Paskova A.A. Education 4.0 in the era of digital transformation: perspectives and possible project concepts // Vestnik Maykopskogo gosudarstvennogo tehnologiceskogo universiteta. 2021. Volume 13, No. 4. P. 100-106. https://doi.org/10.47370/2078-1024-2021-13-4-100-106.
18. Prisecaru, P. (2016). “Challenges of the Fourth Industrial Revolution.” Knowledge Horizons. Economics, 8(1), 57-62.
19. Rafi, T. (2021). Technology can level the playing field for people with disabilities in the workforce. World Economic Forum.
20. Ratner, F.L., Yusupova, A.YU. (2006). Integrirovannoye obucheniye detey s ograni-chennymi vozmozhnostyami v obshchestve zdorovykh detey. – M.: Vlados, 56 c.
21. Rayzer, R. (1995). Sotsial'nyy i meditsinskiy podkhody kinvalidnosti // Invisible Children. Report of Joint Conference on Children, Image and Disabilities.London. P. 55–56.
22. Rizk, J., & Hillier, C. (2022). Digital technology and increasing engagement among students with disabilities: Interaction rituals and digital capital. Computers and Education Open, 3, 100099.
23. Schools of the Future: Defining New Models of Education for the Fourth Industrial Revolution [Electronic resource]/World Economy Forum.URL: https://www3.weforum.org/docs/WEF_Schools_of_the_Future_Report_2019. pdf
24. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution: what it means, how to respond.
25. Talib, R., Sunar, M., & Mohamed, R. (2019). Digital Society and Economy for People with Disabilities in Industry 4.0: Malaysia Perspectives. EAI Endorsed Transactions on Creative Technologies, 6(20).
26. The Future of Jobs Report. (2016). / World Economy Forum [Electronic resource].
27. United Nation (2019). Digital technologies and mediation in armed conflict.

University 4.0: how digitalization of universities should take place [Electronic resource]/RBK Trends. URL: https://trends.rbc.ru/trends/education/60cb28709a7947641636b303.
28. World Economic Forum. (2015). Deep shift technology tipping points and societal impact, world economic forum. Survey report.
29. Xu, M., David, J. M., & Kim, S. H. (2018). The fourth industrial revolution: Opportunities and challenges. International journal of financial research, 9(2), 90-95.
30. Яковлева, Е.Л. (2015). Инклюзивная парадигма: возможно ли ее внедрение в российской элитной школе? (Философские рассуждения об актуальном). Вектор науки ТГУ. Серия: Педагогика, психология. № 3 (22), 195 с.
31. Пасько И. (2015). Что нужно знать об Индустрии 4.0 и Интернете вещей.

Пулатова Дилдора Тургуновна
Ижтимоий ва Сиёсий фанлар
институти в.б. профессори

БАРКАМОЛ АВЛОД БОЛАЛАР МАКТАБЛАРИДА ТАЪЛИМ ОЛУВЧИЛАРНИ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация

Ушбу мақолада республикамиздаги “Баркамол авлод” болалар мактабларининг тўгарак фаолиятлари, болаларнинг ҳаётга тайёргарлигида таълим муассасалари ҳамкорлиги, педагогларнинг масъулияти ҳақида фикр ва мулоҳазалар баён этилган. Шунингдек, тўгараклар турлари, замонавий касблар ва мактаблардаги ҳамкорлик ишлари ҳақида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: баркамол, мактаб, авлод, тўгарак, касб, ҳаёт, экология, компьютер, санъат, иқтидор.

Аннотация

В этой статье описываются мероприятия за круглым столом детских школ гармоничного поколения в нашей Республике, сотрудничество образовательных учреждений в подготовке детей к хайоту, ответственность педагогов. Также были сделаны записи о типах клубов, современных занятиях и совместной работе в школах.

Ключевые слова: гармоничный, школа, поколение, круг, профессия, жизнь, экология, компьютер, искусство, талант.

Annotation

This article describes the events at the round table of children's schools of the harmonious generation in our Republic, the cooperation of educational institutions in preparing children for high school, the responsibility of teachers. Records were also made about the types of clubs, modern classes and teamwork in schools.

Key words: harmonious, school, generation, circle, profession, life, ecology, computer, art, talent.

Барча соҳаларга рақамлаштириш, “яшил” ва инновацион технологиялар жадал кириб бормоқда. Юртимизда янги-янги замонавий саноат ва энергетика мажмуалари, автомобиль ва темир йўллар, технопарк ва IT-parklar, “ақлли” ва электрон бошқарув тизимлари барпо этилмоқда[5].

Кейинги йилларда таълим соҳасидаги ислоҳотлар таълим олувчиларнинг баркамол шахс сифатида тарбияланиши учун кенг имкониятларни ва янги стратегияни белгилаб бермоқда. Болаларнинг жамият учун ижтимоий фаол фуқаро сифатида тарбияланиши ва етишувида интеллектуал меҳнат ва унинг роли ниҳоятда катта.

Мактабдан ташқари таълим муассасаси бўлган “Баркамол авлод” болалар мактабларида бугунги кунда 7 йўналишда тўгараклар фаолият олиб борадики, ҳар бир йўналишда 10 га яқин тўгарак турлари мавжуд. Ҳар бир тўгарак тасдиқланган ўқув дастури асосида машғулотларни ўтказади. Ана шу дастурларда белгиланган мавзулар тўгарак раҳбари ва услубчи томонидан ўрганиб чиқилади ва ўқувчиларни бевосита ҳаётга тайёрлайди, касб-ҳунарга йўналтиради, илк тушунчаларни ва кўникмаларни тарбиялайди.

“Баркамол авлод” болалар мактабларида ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтирувчи йўналишлар: Маданият ва санъат, Техника, конструкторлик ва моделлаштириш, Туризм ва экология, Ҳунармандчилик ва қўл меҳнати.

Маданият ва санъат йўналишида фолклор, миллий рақс, жаҳон рақслари, эстрада-вокал, режиссёрлик, журналистика ва нотиқлик, қўғирчоқ театри, театр ва санъат, тасвирий санъат, витраж, либослар дизайни тўгарак турлари мавжуд. Бу тўгаракларга барча ёшдаги ўқувчилар қамраб олинади.

Конструкторлик ва моделлаштириш йўналишида “Ёш архитектор”, “Радиотехника”, “Электроника ва алоқа”, “Автомодел”, “Авиамодель”, “Робототехника Лего Миндстромс”, “Робототехника ва конструктивлик”, “Компьютер дизайн ва графикаси”, “Ёш дастурчи ва компьютер муҳандиси”,

---

[5] Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи

“Фотоҳаваскор” каби тўгараклар мавжуд. Бу тўгаракларнинг мураккаблик даражасига кўра ўқувчилар жалб қилинади.

Туризм ва экология йўналишига “Инженер эколог”, “Экодизайн ва интерер”, “Ландшафт дизайн”, “Карвинг”, “Флористика ва фауна”, “Оила ҳамшираси”, “Ёш эколог ва табиатшунос”, “Ёш ва пиёда сайёҳ”, “Ёш ўлкашунос ва сайёҳ”, “Ёш экскурсовод” каби тўгарак турлари мавжуд.

Болалар мактабларидаги тўгарак йўналишларидан болаларнинг касб-ҳунарни эгаллашларида катта аҳамиятга эга бўлган яна бир йўналиш Ҳунармандчилик ва қўл меҳнати йўналиши бўлиб, у ўзининг ичига кулолчилик, майда пластика, ёш дурадгор, ёғоч ўймакорлиги, квилинг, шарқ миниатюраси, бичиш-тикиш, юмшоқ ўйинчоқлар, мунчоқли безак, тўқиш каштачилик, гиламдўзлик, ёш пазанда, сартарошлик каби тўгарак турларини олади.

Ушбу расмда “Баркамол авлод” болалар мактаблари тўгараклар йўналишлари ва турлари келтирилган.

4- расм



Мактабдан ташқари таълим (болалар учун қўшимча таълим)- болалар, ўсмирлар, ёшлар учун таълим тизимининг ажралмас қисми бўлиб, ўқувчи-ёшлар учун қўшимча таълим дастурларини эркин танлаш ва ишлаб чиқаришга қаратилган. Мактабдан ташқари таълим муассасаларининг мақсади болаларнинг ўқиш ва ижодий иштиёқини ривожлантириш, ўқувчиларнинг шахсий ва касбий тақдирини белгилаш, уларнинг жамият хаётида мослашувини таъминлашдан иборат. Жамиятнинг етук фуқароси бўлишида ва соғлом турмуш тарзига киришида асосий етакчилик вазифасини ўтайди.

Хорижий тажрибаларни ўрганиш ва маъқул томонларини таълимга татбиқ этиш албатта ривожланиш ва такомиллашувни белгилайди. Шу ерда озгина Россия тажрибасига тўхталамиз.

Россияда болаларни касб-ҳунарга йўналтиришда қўшимча таълимнинг ўрни ниҳоятда катта. Буни квонториумлар фаолиятида кўриш мумкин. Квонториумлар Россияда анча фаол йўлга қўйилган мактаб. Квонториумлар техник ва табиий илмий фанлар соҳаларида қўшимча таълимни амалга ошириш шаклидир. Муҳандислик соҳаларида: саноат кобоквантум, биоквантум, наноквантум, геоквантум, автоквантум, аэроквантум, космосквантум, IT- квантум, VR/AR- квантум, Дата-квантумларни мисол келтириш мумкин. Бу таълим муассасаларининг мақсади Россияда ўқувчи-ёшларнинг интеллектуал ривожланиши ва касб-ҳунарга йўналтириш учун замонавий инновацион платформалар тизимини яратиш ва ривожлантиришдан иборат.

Бу мақсадга эришиш учун қатор вазифаларни белгилаб олган. Жумладан:

- ✓ илмий-техник тизимни яратиш мазмунида илмий интенсив технологияларни ўрганиш;
- ✓ техник ижодда истеъдодларни кашф этиш;
- ✓ Россиянинг юқори технологияли тармоқлари учун кадрлар заҳирасини тайёрлаш;
- ✓ муҳандислик соҳасида болалар учун қўшимча таълим форматини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;
- ✓ муҳандислик соҳасида иқтидорли болаларни аниқлаш ва уларни қўллаб-қувватлашдан иборат.

Демак, кванториумда фаолият олиб борадиган педагоглар махсус тайёргарликдан ўтган, квантум йўналишлари бўйича мутахассислар бўлиб, улар ривожланиш траекториясини ташкил этади ва ҳудудий ўқитувчиларни бошқаради. Барча “Кванториум” болалар технопарклари бепул.

Қўшимча таълим боланинг касб-ҳунарга оид салоҳиятларини тўлиқ ривожлантиради, тўгаракларни, ўқитувчини ва таълим дастурларини танлаш эркинлиги, касбий тайёргарликдан олдинги ўқиш имкониятини беради. Мактабдан ташқари таълим муассасаларига жалб этилган болаларда умумтаълим мактабларида гуманитар фанларга бўлган қизиқиш кучлироқ эканини кўрсатади. Бу эса бир қатор касб-ҳунар турларига тайёрлашга имкон яратади.

Ҳозирги кунда 12 йўналишда (Квантлар) – автоквантум, аэроквантум, биоквантум, геоквантум, космоквантум, наноквантум, саноат дизайни

квантуми, саноат роботквантум, энергиквантум, IT- квант , VR / AR- квант, маълумотлар-квант ва юқори технологиялар(хайтек)ни мисол келтириш мумкин.

Умумтаълим мактабларида ўқувчиларни касбга йўналтириш ишлари синф раҳбари томонидан амалга оширилади. Ўқув йилининг бошида синф раҳбари тарбиявий ишлар бўйича бир йиллик иш режасини мактабнинг маънавий- маърифий ишлар бўйича директор ўринбосари томонидан тасдиқлатади. Шу режага касб-ҳунарга оид мавзулардаги тадбирлар киритилади ва амалга оширилади. Албатта, бундай мавзудаги тадбирларга халқ хўжалигидаги турли соҳа мутахассисларидан меҳмонлар таклиф этилиши, ишлаб чиқариш объектларига саёҳат уюштирилиши мумкин бўлади. Шунингдек, синф раҳбари ўқувчиларнинг иқтидор ва қобилиятларини аниқлаш ва ривожлантириш учун мактаб психологи билан ҳамкорликда ишлар олиб бориши муҳим.

Синф раҳбари тарбиявий ишлар бўйича йиллик иш режасига ўқувчиларни бўш вақтларини мазмунли ўтказиш мақсадида уларни мактаб ва мактабдан ташқари таълим муассасалардаги тўгаракларга жалб этиш масаласини режага киритади. Синф раҳбари ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтиришда мактаб психологи билан ҳамкорликда тарбиявий тадбирларни, тарбиявий соатларни, давра суҳбатларини ўтказиш орқали мақсадга эришади. Шунинг қаторида мактабдан ташқари таълим муассасаларига болаларни жалб этиш масаласини батафсил кўриб чиқиши муҳимки, бунда бола учун касб-ҳунарга йўналтирувчи барча имкониятлар мавжуд. Бундай муассасалар нафақат болаларни бўш вақтларини унумли ўтказади, балки турли касбларга тайёрлаш бўйича амалий машғулотларни ташкил этади ва ўқувчиларни бирор ҳунар эгаси сифатида намоён бўлишини таъминлайди.

Ҳар томонлама баркамол шахсни тарбиялаш таълим тизимининг олий мақсади. Шундай экан, умумий ўрта таълим мактабларида касбга йўналтириш ишлари мазмунига замонавий касблар контентини яратиш ва ёш авлодга сингдириш масаласи долзарб. Бу масала педагог ва мутахассислар томонидан муҳим вазифа қилиб белгиланган.

Бола дастлабки касб-ҳунарга оид билимларни оиласидан олади. У ота ва онасининг касби-корини ёки ҳунарини оиласидаги суҳбатлардан, ота-она ишлайдиган корхона ва ташкилотларга ташриф буюрган вақтида, ҳамда ота-онаси билан бўладиган ўзаро савол-жавоблар орқали англаб тасаввури бойиб боради. Сўнг мактабгача таълим ташкилотларида тадбирлар, суҳбатлар, видеоролик, мультфилмлар, эрталиклар орқали дастлабки тасаввурларини ривожлантириб, бу бўйича маълумотларини кенгайтириб боради. Ана шу

даврда боланинг бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш мақсадида фаолият юритадиган “Баркамол авлод” болалар мактаблари болани бевосита касб-ҳунарга йўналтирувчи асосий кучга айланади. Бу даврда синф раҳбари, мактаб психологи, тўгарак раҳбари ҳамкорлиги вазифаларининг талаб даражасида бажарилиши таълим-тарбия жараёни учун ниҳоятда муҳим бўлиб, уларнинг касб-ҳунарга йўналтирувчи мақсадларини кафолатлаб беради.

Қуйида умумтаълим мактаблари ўқувчиларини касб-ҳунарга йўналтириш ишларининг амалдаги механизми келтирилган. Ушбу механизмни кўриб чиқамиз.

1- расм.



Мактаб психологи ҳар бир бола билан якка тартибда суҳбат ташкил этиши, ўқувчилар гуруҳларида психологик тренинглар ташкил этиб ҳар бир

боланинг касб-ҳунарга бўлган муносабатини аниқлайди ва бу ҳақда синф раҳбарига, ота-онасига маълумот беради. Синф раҳбарлари ота–оналар мажлисларида уларни ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтириш мақсадида тумандаги “Баркамол авлод” болалар мактабларида ташкил этилган тўгарак турлари билан таништиради. Ҳар бир боланинг қобилиятига якка тартибда ёндашиб ота-онага ва ўқувчига касб-ҳунарга йўналтирувчи маслаҳатларни беради. Бу таклифлар, яъни мактабдан ташқари таълим муассасаларига ўқувчиларни жалб этилиши синф раҳбарининг ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтиришдаги саъй-ҳаракатларини мазмунан ва амалий жиҳатдан тўлдиради, ҳамда бойитади.

Хулоса ўрнида шундай дейиш мумкинки, мактабдан ташқари таълим муассасалари болаларнинг ҳаётга тайёрланишида ва замонавий касблар билан танишишида катта ҳаёт даргоҳи десак муболаға қилмаган бўламиз. Зеро боланинг бўш вақти эртанги куни учун тайёргарлик замиридан иборат бўлмоғи лозим. Боланинг эртанги куни учун бугундан ҳаракатини белгилаб олишида катталар, таълим муассасалари, педагоглар ўз масъулиятини англаши, учинчи ренасанснинг боласи янги Ўзбекистон қурувчиси эканини унутмаслигимиз керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи.

1- SHO‘BA. *BUYUK AJDODLAR MEROSI – KELAJAK AVLOD TARBIYASIDA MUHIM DIDAKTIK MANBA*

F.O. Egamberdiyeva
Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi mudiri p.f.n. dotsent

YOSH AVLOD TARBIYASIDA AXLOQIY KO‘NIKMALARNI TARKIB TOPTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi xususida fikr yuritilgan bo‘lib, uning aniq maqsadga yo‘altirilgan hodisa ekanligi takidlanadi. Bugungi kunda inson kamolotiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish shuni korsatadiki, bu omillar ichida tarbiya muhim va yetakchi o‘rinda turadi. Har bir tarbiyachi, avvalo, o‘z faoliyatini va undan ko‘zda tutilgan maqsadni aniq tasavvur eta olishi, bu maqsadning muhimligini tushunishi lozim.

Tayanch so‘zlar: ta’lim, tarbiya, yosh avlod, ijtimoiy, global, salohiyat,o‘quvchi, ma’naviyat, madaniyat.

Аннотация

В данной статье рассматривается тот факт, что образование является социальным явлением, и подчеркивается, что это явление, направленное на конкретную цель. Сегодня анализ факторов, влияющих на зрелость человека, показывает, что среди этих факторов образование играет важную роль и занимает ведущее место. Прежде всего, каждый педагог должен уметь ясно представлять свою деятельность и вытекающую из нее цель, понимать значение этой цели.

Ключевые слова: образование, воспитание, молодое поколение, социальный, глобальный, потенциал, студенчество, духовность, культура.

Annotation

This article examines the fact that education is a social phenomenon and emphasizes that it is a phenomenon aimed at a specific purpose. Today, an analysis of the factors influencing a person’s maturity shows that among these factors, education plays an important role and occupies a leading place. First of all, every teacher must be able to clearly imagine his activities and the goal arising from it, and understand the meaning of this goal.

Key words: education, upbringing, young generation, social, global, potenstial, students, spirituality, culture.

Bugungi globallashuv jarayonida, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni qo‘ymoqda. Jamiyatimiz shiddat bilan o‘zgarayotgan bir paytda o‘quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, diniy va milliy bag‘rikenglik, ma’naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy va ma’naviy fazilatlarni shakllantirishdek dolzarb muammolarni oldiga qo‘ymoqda. Shu bois yosh avlod ta’lim- tarbiyasiga nihoyatda katta e’tibor bermog‘imiz zarur. Tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi xususida fikr yuritganda, uning aniq maqsadga yo‘altirilgan hodisa ekanligi takidlanadi. Inson kamolotiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish shuni korsatadiki, bu omillar ichida tarbiya muhim va yetakchi o‘rinda turadi. Ta’limning asosiy vazifasi o‘qituvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish bo‘lsa, tarbiya yosh avlodda jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e’tiqodni, axloqiy malaka va ko‘nikmalarni, ehtiyoj va intilishlarni tarkib toptirishdan iborat. Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida inson kamolotida tarbiyaning o‘rnini alohida takidlab, shunday degan edi: “Janobi haq insonlarning asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan”.

Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil odam bo‘lib chiqadi. Axloqimiz binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishida tarbiyaning ta’siri kattadir. Yuqorida biz tarbiyadan maqsad barkamol insonni tarbiyalash, degan edik. Xo‘sh, barkamol inson deganda kimlarni tushunmoq kerak?

Sharqona tarbiya ming yillar mobaynida islomiy axloq qoidalari asosida tarkib topib borgani tarixdan ma’lum. Qu’roni Karim oyatlari, Payg‘ambar alayhissalom Hadislari, ulamo va hukamolarimizning kitoblari tarbiyamizning manbayi bo‘lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan. Islomiy tarbiya bolani yetti jihatdan tarbiyalashni maslahat beradi. Bular: sog‘liq va badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, nafosat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, vijdoniy-nafsoniy tarbiya, diniy-ruhiy tarbiyadir. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: “Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, tarbiyasini, odobini ham yaxshilanglar!”- deganlar. Shu bilan birga, hech bir ota o‘z farzandiga xulq- odobdan yaxshiroq meros qoldira olmaydi deb, tarbiyada ota- onaning rolini belgilab o‘tganlar. Islomiy (sharqona) tarbiya barcha mo‘min-u musulmonlarnini hayotda

xushxulq, shirinso‘z, olijanob bo‘lishga da’vat etadi va yaxshi tarbiya ko‘rganning o‘nta nishonasi sanab o‘tiladi:

1) xalq to‘g‘ri deb topgan narsaga noto‘g‘ri deb qaramaslik;
2) o‘z nafsiga insof berishni so‘rash;
3) boshqalardan ayb qidirmaslik;
4) birovda yomonlik sodir bo‘lsa, uni yaxshilikka yo‘yish;
5) agar gunohkor uzr so‘rasa, uning uzrini qabul qilish;
6) muhojirlar hojatini chiqarish;
7) el g‘amini yeyish;
8) o‘z aybini tan olish;
9) el bilan ochiq yuzli bo‘lish;
10) Odamlar bilan shirin muomalada bo‘lish.

Turli tarixiy davrlarda tarbiyaning maqsadi ham, xususiyati ham o‘zgarib boradi. Buni ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm va kapitalizm formatsiyalari misolida ham ko‘rish mumkin. Ibtidoiy jamoa tuzumida tarbiyaning maqsadi oddiy bo‘lib, shunchaki insonning hayot kechirishini ta’minlashga xizmat qilgan. Quldorlik tuzumida quldorlar va qullarning paydo bo‘lishi tarbiyaning xususiyati va maqsadini ham o‘zgartirdi. Quldorlarning bolalari hukmron bo‘lishga intildilar, bosqinchilik urushlari olib borish uchun harbiy san’atni o‘rganib bordilar. Qullarning bolalari oddiy qora ishni bajarish, mehnat jarayonida ishtirok etishga o‘rgatildi. Feodalizm tuzumiga kelib tarbiya keskin tabaqalana boshladi.

Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiya tizimining bir qismi bo‘lib, uning mazmuni barcha fanlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab olish va shu asosda yoshlarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish, tafakkur hamda nutq qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Aqliy tarbiya barcha fanlardan umumiy ma’lumot berish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilarga maktab dasurlari asosida bilim berilib, ularga xotira, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish kabi xislatlar taraqqiy ettiriladi. O‘tmishdagi ulug‘ allomalarimizdan Abu Nasr Forobiy axloq, odob, mehnat va jismoniy tarbiya haqidagi ko‘plab fikr- mulohazalari bugungi kunda ham muhim tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotgan emas. Insonning aql-zakovati xususida Abu Nasr Forobiy quyidagi guruhlarga ajratgan holda fikr yuritadi:

1) barcha masalani muhokama va mulohazani tezda tushuna oladigan, uning ma’nosini anglaydigan, so‘zlovchining maqsadi, aytilgan fikrini to‘g‘riligini tezda payqay oladigan bo‘lsin;
2) xotirasi juda baquvvat bo‘lsin, ko‘rgan-eshitgan, sezgan narsalarining birontasini ham esidan chiqarmay, yodda saqlab qoladigan bo‘lsin;
3) zehni shu daraja tez va o‘tkir bo‘lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin;

4) so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin;

5) bilim va o‘qishga muhabbati bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini charchashni sezmasdan osonlik bilan o‘zlashtira olsin.

Aqliy tarbiya shaxsni har tomonlama kamol topishining asosini tashkil etadi. U mehnat unumdorligini oshiradi va mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi. Bundan tashqari Forobiy insonning axloqiy fazilatlari haqida quyidagi fikrlarni bildiradi:

1) bunday odamning barcha a’zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo‘lishi kerakki, u bu a’zolari bilan bajarmoqchi bo‘lgan barcha ishlarni osonlik bilan amalga oshira olsin;

2) ovqatlanishda, ichimlik iste’mol etishda ochko‘z bo‘lmasin, tabiati qimor o‘yinlarini o‘ynashdan uzoq bo‘lsin va ular keltiradigan xursandchiliklardan jirkanadigan bo‘lsin;

3) haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo‘lsin, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin;

4) g‘ururi va vijdonini qadrlaydigan bo‘lsin, uning ruhi o‘z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo‘lsin;

5) o‘z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchi, adolatsizlikka, jabr-zulm o‘tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bolsin;

6) adolatli bolsin, ammo qaysar bolmasin.

Insonning axloqiy qiyofasi butun umri davomida shakllanib boradi. Inson onadan mehnatsevar ham, dangasa ham, johil ham bo‘lib tug‘ilmaydi bu va shunga o‘xshash axloqiy sifatlar bolani o‘rab olgan ijtimoiy muhitning, tarbiyaning ta’siri hisoblanadi. Tarbiya ikki negizga axloq va oqillikka tayanmogi lozim. Birinchisi yaxshi fazilatni oshirsa, ikkinchisi o‘zgalar illatidan himoya qiladi. Demak, tarbiya ham axloqqa, ham insoniy munosabatlarga, asrlar osha xalq tajribasidan sinovdan otib, o‘zining umrboqiyligini isbotlagan qadriyatlarga, an’ana va urf-odatlarga bog‘lansagina kuzlagan natijaga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, insonning tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarga bo‘lgan munosabatidan uning axloqi namoyon bo‘ladi. Xalqimiz axloqiy fazilatlarni qadim zamonlardan beri boyitib kelgan. Axloq-odobga oid fikrlar Avesto kitobida, qadimgi bitiklarda, pandnomalarda va boshqa yozma manbalarda o‘z ifodasini topgan. Sunday ekan axloqiy tarbiya ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi, tartib- qoidalarining yig‘indisi sifatida gavdalanadi. Inson shaxsining kamoloti uning butun umri davomida amalga oshib boraveradi. Bu fazilat insonning boshqalar bilan bolgan muomalasida, voqelikka, jamiyatga bolgan munosabatida va uning hatti-harakatlarida, fe’l-

atvorida namoyon boladi. Axloqiy tarbiya, umuman olganda, tarbiyachilar tomonidan tarbiyalanuvchilarda axloqiy tasavvurlar tizimini shakllantirishni, axloqiy his-tuygularni, voqea va hodisalarga tog‘ri munosabat bildira olish kabilarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmankulova, K.O.Matnazarova, P.T.Xolmatov, M.K.Shirinov, “Umumiy pedagogika” Darslik. - T.: “Navro‘z”, 2016.
2. Xaydarova R.A. “Umumiy pedagogika”. O‘quv qo‘llanma. TDShU 2021.
3. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmankulova, K.O.Matnazarova, S.Xafizov, M.K.Shirinov, “Umumiy pedagogika” Darslik. - T.: “Fan va texnologiya”, 2018.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmankulova, K.O.Matnazarova “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. Darslik. Nizomiy nomidagi TDPU, 2014 yil.

Toshov Muhiddin Jo‘rabayevich
Oriental universiteti
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi
kafedrasi dotsenti

YOSHLARNING MA’NAVIY DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA AJDODLARIMIZ QOLDIRGAN ILMIY MEROSNING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston ilmiy merosining yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi muhim o‘rni yoritilgan. Unda ajdodlar qoldirgan intellektual meros zamonaviy o‘zbek jamiyatida yoshlarning qadriyatlari, e’tiqodlari va dunyoqarashiga qanday ta’sir ko‘rsatishi yoritilgan. Maqolada tarixiy, adabiy, falsafiy va madaniy asarlarni o‘rganish orqali ushbu merosning yoshlarda o‘zlikni anglash va madaniy ongni shakllantirishga ta’siri davomiy ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: ilmiy meros, ajdodlar, ma’naviy dunyoqarash, yoshlar, qadriyatlar.

Bugungi kunda, mamlakatimizda saqlanib turgan tinchlik va xotirjamlik muhitida, o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama puxta ta’lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish davr talablaridan biri desak, adashmagan bo‘lamiz. Bunga sabab XXI asrda turli xildagi informatsiyalarning tezlik bilan tarqalish imkoniyatiga ega ekanligi hamda axborot oqimining keng qamrovli ekanligidadir. Bunday sharoitda yoshlar va umuman mamlakatimiz aholisini o‘zga yot g‘oyalardan himoya

qila olish, buzg‘unchi o‘y-fikrlarga berilmasligini ta’minlashda ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy meros namunalarini yana ham yaxshiroq o‘rganish, ularni hayot-turmush tarzimizga yanada kengroq singdirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yaqin kunlarimizda yuqoridagi xatarlar bilan bir qatorda mamlakatimiz aholisining aksariyati e’tiqod qiluvchi islom dini va ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy merosga nisbatan ham tahdidlar borligi ma’lum. Ushbu tahdidlar mustaqilligimizning dastlabki yillarida, ayniqsa, ko‘zga tashlangan edi. Buzg‘unchi g‘oyalar, birinchi navbatda, hali diniy va dunyoviy bilimlarga yetarlicha ega bo‘lmagan hamda hali hayotda o‘z yo‘lini topishga ulgurmagan ayrim yoshlarni o‘z yo‘llariga og‘dirib olishga harakat qilishgan bo‘lsa, ikkinchidan, asrlar davomida yurtimiz aholisi o‘rgangan va amal qilgan diniy manbalar, ya’ni aqida, kalom, fiqh, tasavvufiy masalalarga nisbatan shubha keltirib chiqarish hamda o‘zlaridagi yot g‘oyalarni singdirish va bu bilan mamlakatda ijtimoiy-siyosiy parokandalikni keltirib chiqarishga bo‘lgan harakatlar ko‘zga tashlangan edi. Yaratganga beadad shukrlar bo‘lsinki, mamlakatimizdan yetishib chiqqan yetuk olimlarimiz va mutasaddi xodimlar yuqoridagi kabi holatlarga nisbatan o‘zlarining tegishli raddiyalarini bera olishdi va berib kelishmoqda ham.

“Bugungi kunda dunyoning turli hududlarida, xususan, Yaqin Sharq mintaqasida ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to‘qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko‘rinishdagi tahdidlarga qarshi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilishda kishilik jamiyati oldida bir qator kompleks vazifalarni hal etish dolzarb vazifa bo‘lib turibdi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov 2013- yil 31- avgustda “Shahidlar xotirasi” xiyobonida o‘tkazilgan marosimda ulamolar, jamoatchilik vakillari bilan suhbat chog‘ida ushbu masalaga alohida to‘xtalib shunday degan edi: “Bunday g‘arazli kuchlarning asosiy niyati - hali hayotiy tajribasi, siyosiy-ijtimoiy saviyasi yetarli bo‘lmagan, sodda va g‘o‘r yoshlarni yo‘ldan urish, o‘zining qabih niyatlari yo‘lida foydalanish ekanini hech qachon unutmasligimiz kerak. Ularga biz uchun muqaddas bo‘lgan islom dinining chinakam insoniy mohiyatini, uning tinchlik, yaxshilik, mehr-shafqat, hamjihatlik dini ekanini to‘g‘ri tushuntirib berishimiz kerak. Bizga yot va begona bo‘lgan turli zararli oqimlardan himoyalanish uchun odamlarga bu boradagi bor haqiqatni yetkazish zarur. Ta’bir joiz bo‘lsa, bunday xavf-xatarlardan odamlarni, avvalambor, yosh avlodni haqiqat bilan himoya qilish kerak”[5;177]. Shu maqsadda, diniy mutaassiblik, ekstremizmning kelib chiqishi, ularga moliyaviy, ruhiy ko‘mak beruvchi radikal diniy-siyosiy tashkilotlarning faoliyati, g‘oyalari va g‘arazli maqsadlarining tahliliga bag‘ishlangan tizimli tadqiqot yaratish hamda keng jamoatchilikka yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi “[1; 4-5].

Barkamol avlodni tarbiyalashda diniy qadriyatlarimizdan foydalanishimiz bizga faqatgina foyda beradi, xolos. Muqaddas dinimiz haqida Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday degan: “Din azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning mustahkam bir tizimidir” [2;176].

Shuningdek, muayyan tarixiy davrlarda xalq bilan yonma-yon turgan ulug‘ o‘tmishdoshlarimiz haqiqiy odamiylik timsoliga aylanib qolishgani sir emas. Misol, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimiz mardlik, jasorat, rahbarlik borasida, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Bohouddin Naqshband singari aziz- avliyolarimiz hadis, aqoid, tasavvuf kabi ilmlar rivojiga, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Behbudiy kabi bir qancha ulkan iste’dod egalari donishmandlik, ilm-ma’rifat borasida barchamiz uchun o‘rnak timsoliga aylanib ulgurgan. Shu o‘rinda Abu Nasr Forobiyning odamlar o‘zaro hamjihat bo‘lib, do‘stlik-birodarlikda yashashi ularning asl maqsad-muddaolariga mos ekanini ta’kidlab: “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos – insoniylikdir. Binobarin, odamlar insoniyat qavmiga mansubligi tufayli o‘zaro tinchlikda yashamog‘i zarur”,- deydi [3;186].

Darhaqiqat, inson deb atalmish odamzodning har tomonlama mukammal shaxs sifatida jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topishida ta’lim-tarbiyaning o‘rni beqiyosdir.

Xulosa o‘rnida Abdulla Avloniyning tarbiya xususidagi qarashlari keltirib o‘tmoqchimiz. Tarbiya-pedagogika, ya’ni bola tarbiyasi fani demakdir. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o‘rgatmoq tabiblardek kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg‘oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog‘i lozimdir. “Nazofat deb a’zolarimizni, kiyimlarimizni, asbob-uskunalarimizni pok va toza tutmoqni aytilur. Poklik zehn va idrokni keng va o‘tkir qilur. Xalq orasida e’tibor va shuhratga sabab bo‘lur. Poklik ila har xil kasalliklardan qutulib, jonimizning qadrini bilgan bo‘lurmiz. Pok bo‘lmak salomatligimiz, saodatimiz uchun yeng kerakli narsadur. Pok bo‘lmagan kishi Alloh hamda xalq

qoshida sevimsizdur. Yirtiq, eski kiyimlar kiymak ayb emas, yangi kiyimlarni kir qilib, yog‘ini chiqarib yurmak zo‘r ayb va gunohdur “ [4; 19].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Hasanov-Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari / va boshq. – Toshkent: “Movarounnahr” , 2013. – B. 4-5.
2. I.A. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”. – T.: 2008. 176-bet.
3. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. Toshkent,G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1993 yil, 186 bet.
4. Abdulla Avloniy. “Turkiy Guliston yohud axloq”. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti, 1992 yil, 19-20 bet.
5. Ajdodlar xotirasi muqaddas // “Toshkent oqshomi” gazetasi. 2013- yil 1-sentabr,177-son.

Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)
ishonxanova74@bk.ru
Tel: (90) 944-52-46

ALISHER NAVOIY HIKMATLARINING TA’LIMDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada o‘rta umumta’lim maktablarining adabiyot darslarida Alisher Navoiy hikmatli so‘zlarini o‘rganilishi masalasi ko‘tarilgan. O‘quvchilarni g‘azal mulkining sultoni hisoblangan shoirimizning hayotiy xulosalari bilan tanishtirish muhimligi haqida fikr bildirilgan. Alisher Navoiy hikmatli so‘zlaridan namunalar keltirilib, ayrimlari izohlab ham berilgan. Bunda, asosan, umumta’lim maktablarining 5-9-sinflari borasida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: darslik, hikmatlar, izoh, bahs-munozara, ta’lim va tarbiya, hayot tajribasi, xulosa, maslahat, nasihat

Аннотация

В статье поднимается вопрос изучения афоризмов Алишера Навои на уроках литературы общеобразовательных школ. Высказано мнение о важности ознакомления читателей с жизненными выводами нашего поэта,

считающегося султаном владения газелей. Приводятся примеры цитат Алишера Навои и поясняются некоторые из них. При этом рассматривались преимущественно 5–9 классы общеобразовательных школ.

Ключевые слова: учебник, афоризмы, объяснение, дискуссия, воспитание и обучение, жизненный опыт, вывод.

Abstract

The article raises the issue of studying the wise words of Alisher Navoi in literature classes of secondary schools. An opinion was expressed about the importance of introducing the readers to the life conclusions of our poet, who is considered the sultan of the ghazal property. Examples of Alisher Navoi's wise words are given and some of them are explained. In this, mainly the 5th-9th grades of general education schools were considered.

Key words: textbook, proverbs, explanation, debate, education and training, life experience, conclusion.

Alisher Navoiy hayot yo‘li o‘rta umumta’lim maktablari yuqori sinflarida har tomonlama o‘rganiladi. Alisher Navoiyning yoshlik davrlari, tahsil yillari, bunyodkorlik ishlari, yaratgan asarlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati darsliklarda yoritilgan. O‘quvchilar uchun Alisher Navoiy hayoti va ijodi ibrat timsoli hisoblanadi. O‘rta umumta’lim maktablarining 4-5-sinflarida Alisher Navoiyning bolalik yillari haqida hikoya qiluvchi Oybekning “Alisherning yoshligi” va Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” asarlaridan parchalar keltirilgan. Asardagi bola Alisher darslikni o‘qiyotgan bolalarning yoshiga mos bo‘lgani uchun ularga voqealar ijobiy ta’sir qiladi. Navoiyning bolaligi aks etgan ushbu asarlar o‘quvchilar tomonidan qiziqish bilan qabul qilinadi

Agar 5-9-sinflarning “Adabiyot” darsliklarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Alisher Navoiyning turli janrlardagi asarlari kiritilganini ko‘ramiz. Har bir asarning Alisher Navoiy shaxsiyatini ochib berishda o‘z salmog‘i bor. Bizning o‘rta umumtra’lim maktabi tizimida ta’lim va tarbiya tushunchasi yonma-yon turishini nazarda tutgan holda, Alisher Navoiyning hikmatli so‘zlaridan ham unumli foydalanish fikrini o‘rtaga tashlamoqchimiz. 5-6-sinflarda so‘zlari nisbatan sodda, tushunarli bo‘lgan aforizmlar, yuqori sinflarda esa murakkabroq, mazmuni chuqurroq hikmatli so‘zlar tanlangani ma’qul deb hisoblaymiz. Alisher Navoiyning hikmatli so‘zlarini adabiyot fanidan o‘quv mashg‘ulotlari uchun shior sifatida ham tanlash mumkin. Ularning ba’zilarini tushuntirib, izohlab, hayotiy misollar keltirish o‘quvchilar tarbiyasiga va fikrlashiga samarali ta’sir ko‘rsatsa, ba’zilarini tahlil qilishni sinf miqyosida o‘rtaga tashlash to‘g‘ri tadbir hisoblanadi. Quyida biz hikmatli so‘zlarga namunalar keltiramiz, zarur deb topganlarimizni izohlab o‘tamiz. Masalan:

5-6-sinflar uchun tavsiya etiladigan hikmatli so‘zlar:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun-kunungg‘a aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.
So‘zlaridin chekma qalam tashqari,
Xatlaridin qo‘yma qadam tashqari.

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani,
Qarilik chog‘i sarf qilg‘il ani.
(Maxzan bu xazina demakdir. Yigitlik, ya’ni yoshlik chog‘ida ilm xazinasini to‘plagan ma’qul. Demak, yoshlikda ko‘proq o‘qish zarur. Keksaygan paytda o‘sha bilimlar hayotda asqotadi, kerak bo‘ladi. Keksalik – donolik deb bekor aytishmagan. Hayot davomida orttirilgan bilim, tajriba kelajakda farzand va nabiralarga nasihat qilishda, maslahat berishda kerak bo‘ladi.)

Naf’ yeturmakka shior aylading
O‘zungga ul naf’ni yor aylading.
Naf’ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf’ o‘zungga ko‘prakdurur.
(Hayotda birovga naf(foyda) keltirishni maqsad qilgan bo‘lsang, bilginki, o‘zingga ham foydani hamroh qilgansan. Agar xalqqa, ya’ni odamlarga doim foydang tegsa, o‘zingga undan ham ko‘proq yaxshilik qaytadi.)

Aytur so‘zni ayt, aytmas so‘zdin qayt.

Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgaki, erur yorlig‘ ish.

Ko‘ngul durji ichra guhar so‘zdurur,
Bashar gulshanida samar so‘zdurur.

Qarilar xotiri nozukdur, ey tifl,
Shikastidin qilib vahm, o‘lma gustox:
Unuttungmuki, atfol o‘ynag‘anda,
Sinar oz mayl ko‘rgandin quruq shox.
(Keksa odamlarning ko‘ngli juda nozik bo‘ladi, ey bola(tifl), ularning ko‘nglini og‘ritmagin. Yosh bola o‘ynagan paytda qurigan shox sinib ketishi mumkin. Kichkina bolalar aqlsizlik qilib, bobo-buvilarining dilini og‘ritib qo‘yishlari mumkin. Yuqoridagi hikmatli so‘z bolalarni keksalarga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lishga chaqiradi, ularni avaylash kerakligini eslatadi.)

7–9-sinflar uchun tavsiya etiladigan hikmatli so‘zlar:
Bu gulshan ichraki, yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq birla ot.

Qaysi johilg‘a nadomat bo‘lg‘ay ul olimchakim,
Har ne bildi, qilmadi, har neki qildi, bilmadi.
(O‘zi o‘rgangan bilimni qo‘llamaydigan va yomonlik qilganini bilmaydigan olimga shunchalik ko‘p afsus-nadomatlar bo‘ladiki, johil va zulm qiluvchi odamga ham bunchalik bo‘lmaydi. Bu hikmatda ilmiga amal qilmaydigan olimlar johil kishilardan ham yomonligi aytilgan.)

Yor uldurkim, tili-yu ko‘ngli aning bo‘lsa bir –
Kim, tili o‘zga-yu ko‘ngli o‘zga, ul yor emas.

Falakdin gar menga har lahza yuz qayg‘u kelur o‘tru,
Agar har qayg‘udin so‘ng bir sevinmak bor, emas qayg‘u.

Qolding korvondin, gar tinarg‘a bir nafas turdung.

So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini,
Ko‘rma kim der ani, ko‘rgilkim ne der.
(Birovdan bir gap eshitsang, gapiruvchi kim ekanligiga e’tibor berma, qanday gap aytayotganiga diqqat qilgin. So‘zlovchiga qarab baho berma, so‘zga baho bergin.)

Tuzlukka moyil o‘lki, ishing borg‘ay ilgari.

Kimki ulug‘roq – anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq – anga shafqat kerak.

Shabnam ermas, nargis ashkidur, nedin qon yig‘lamas,
Ko‘z yumub-ochquncha gulshan umri poyonin ko‘rub.
(Ushbu baytda juda chiroyli o‘xshatish bor: barglardagi shabnam nargis gulining ko‘zyoshiga o‘xshatilyapti. Nargis guli qon yig‘layapti, chunki ko‘z yumib ochguncha bu gulzorning umri tugaydi, xazon bo‘ladi. Bu hikmatda umrning qisqaligiga, o‘zimizdan yaxshi nom qoldirishga shoshilishimiz kerakligiga ishora qilinyapti.)

So‘zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
Rost navo nag‘mag‘a tahsin degil.

Dedi: har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.
(Odamzod nima qilsa ham, o‘z tafakkuriga tayangan holda bajaradi. Tafakkur qanchalik keng bo‘lsa, bajaradigan ishimiz shunchalik ulug‘ bo‘ladi. Shu sababli bilim va tafakkurimizni boyitishimiz lozim.)

Birovkim, aning himmati yo‘qturur,
G‘aniy bo‘lsa ham hurmati yo‘qturur.

Onalarning oyog‘i ostidadir,
Ravzai jannatu jinon bog‘i.
Ravza bog‘in visolin istar ersang,
Bo‘l onaning oyog‘i tuprog‘i.

Befoyda so‘zni ko‘p aytma va foydalig‘ so‘zni eshiturdin qaytma.

Yuz jafo qilsa manga bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishona anga iymon erur.
(Bu dunyoga kelgan, tug‘ilgan odamlardan kimning iymoni bo‘lsagina, u haqiqiy inson hisoblanadi)

Alisher Navoiyning hikmatli so‘zlari ulkan hayot tajribasiga ega bo‘lgan ma’naviyatli va bilimdon insonning hayotiy xulosalari hisoblanadi. Bu so‘zlardan biz imrimiz davomida foydalanishimiz mumkin. O‘rta umumta’lim maktablarining nafaqat adabiyot fani o‘quv mashg‘ulotlarida, balki ona tili, tarix va boshqa fanlarda

ham bemalol foydalanishimiz mumkin. Yana “Adabiyot” darsligining ma’lum bo‘limlaridan yoki mavzularidan so‘ng ham sahifa bezagi shaklida Alisher Navoiy hikmatlari kiritilsa, o‘quvchilarning ko‘zlari o‘rganadi. O‘qib tushunishga va tahlil qilishga harakat qilishadi. Kelajak hayotida esa bunday hikmatlar o‘z muammolarini hal qilishda, o‘zidan kichiklarga maslahat berishda kerak bo‘lishi tayin.

ADABIYOTLAR:

1. Olim S.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf o‘quvchilari uchun. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2019.
2. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun. – T.: “O‘zbekiston”, 2019.
3. To‘xliyev B. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari uchun. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018.
4. Yo‘ldoshev Q. Adabiy saboqlar. Metodik qo‘llanma. Umumta’lim maktablarining 7-sinf “Adabiyot” darsligi uchun. – T.: “Bilim”, 2003.
5. Davletshin M. va boshqalar. Yosh va pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2007.
6. Alisher Navoiy. Hikmatlar. T.: “O‘zbekiston”, 2013.
7. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.: “Fan”, 1987-2000.

K.O.Matnazarova
Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi dosenti p.f.f.d(PhD)
Sh.F.Otaboeyva
Alfraganus universiteti
Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 1- kurs magistri

MUTAFAKKIR AJDODLARIMIZ MEROSIDA BARKAMOL INSON TARBIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ajdodlarimizning bundan bir necha ming yillar oldin yashaganligi, ularning yuksak va o‘ziga xos yashash tarzi, madaniyati va ma`naviyati bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tariligi va bu insoniyat yaratgan ma’naviy boyliklari bisotida donishmandlarning pand-nasihatlari va o‘gitlari, tarbiya haqidagi fikrlari bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: Ajdodlar, tarbiya, barkamol, meros, ta’lim, ma`naviyat, madaniyat, axloq, odob, inson.

Аннотация

В этой статье то, что наши предки жили несколько тысяч лет назад, их высокий и неповторимый образ жизни, культура и духовность поднялись до уровня государственной политики восстановления бесценного духовного и культурного наследия, а мудрость мудрецов основана на о духовных богатствах, созданных человечеством, описаны его советы и поучения, его мысли об образовании.

Ключевые слова: Предки, воспитание, совершенство, наследие, образование, духовность, культура, мораль, нравы, человек.

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi har tomonlama barkamol intellektual salohiyatga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashga bog‘liq. XXI asr - odamzotning bu buyuk orzusini ro‘yobga chiqarish imkonini beruvchi, tarixiy bosqich hisoblanadi. Yer yuzi xalqlarining dinlararo, millatlararo, xalqlararo va shaxslararo totuvlikka intilishlari esa mavjud imkoniyatni yanada kengaytiradi. Imkoniyat va sharoit bor ekan, insoniyat o‘z maqsadiga yetadi.

O‘zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo‘lib, ular yuksak va o‘ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tgan. Bugungi kunda ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim vazifa bo‘lib qoldi. Insoniyat yaratgan ma’naviy boyliklari bisotida donishmandlarning pand-nasihatlari va o‘gitlari, tarbiya haqidagi fikrlari alohida o‘rin egallaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, eng qadimgi tarbiya haqidagi fikrlar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Bu fikrlar insonning shakllanishida moddiy va ma’naviy madaniyatning yillar davomida rivojlanishi natijasidan dalolat beradi. Shuning uchun ham har bir davrda yashab ijod etgan mutafakkir allomalarimiz “tarbiya” so‘zini turlicha izohlaganlar.

Tarbiya arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, parvarish qilmoq, ta’lim bermoq, o‘rganish, odob o‘rgatish, mehribonlik ko‘rsatish, himoya qilish singari ma’nolarni anglatadi. Bu o‘rinda tarbiyaviy manba sifatida Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto” katta ahamiyatga ega.

“Avesto”da insonning barkamol bo‘lib yetishishida uning so‘zi, fikri, ishi birligiga katta e’tibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab, undan keyin yaratilgan barcha ma’rifiy asarlarga asos bo‘lgan, desak, xato qilmagan bo‘lamiz.

“Tarbiya —hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) bo‘lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u, avvalo, yaxshi o‘qishni va so‘ngra esa yozishni o‘rganishi bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin va yana yaxshi ovqatlanadigan xalqdan yaxshi nasl — sog‘lom avlod qoladi”, deb ta’kidlanadi. Tarbiya ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan, taraqqiy etgan, jamiyatning o‘zgarishi bilan tarbiya ham o‘zgarib bordi.

Tarbiya xulqni boshqarish va belgilash, bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismlar — axloqiy ong, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yig‘indisidir. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchilarning shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya — o‘sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot — dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va mas’uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni ifodalaydi.

Hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarning axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi, malakasi, xatti-harakati, yo‘nalishi, tarixiy tajribasi, davr talablari va ehtiyojlari, istiqlol vazifalari bilan uyg‘unlashtirib shakllantirishga, rivojlantirishga harakat qilganlar. O‘z oldiga inson kuchi, bilimi va irodasi bilan bajarilishi mumkin bo‘lgan muayyan maqsadlarni qo‘ygan davlatlar ham ta’lim- tarbiya ishlariga befarq qaramagan. Inson, barkamollik pilla poyalaridan, dunyodagi barcha narsalarga va odamlarga bo‘lgan muhabbat his-tuyg‘usi bilan bilimlar egallash orqali o‘zini o‘zi tarbiyalashi va beriladigan ta’lim-tarbiya natijasida ko‘tarilib boradi.

Barkamol insonni tarbiyalashda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining fikrlari, o‘gitlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug‘larining unishiga, katta hayot yo‘liga olib chiqishiga yordam beradi. Shu bois, biz uchun qadrli bo‘lgan allomalarimizdan Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Devoniy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy va boshqalarning ta’lim-tarbiya va ma’rifat haqidagi g‘oyalaridan keng foydalanish bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Bahovuddin Naqshbandning ta’lim-tarbiya haqidagi fikr mulohazalari va pand-u nasihatlari g‘oyat qimmatlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta’kidlab, shunday degan edi: “Adab xulqni chiroyli qilish, so‘z va fe’lni soz qilishdir... Adab saqlash — muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug‘i hamdir. Agar adabdan ozgina nuqsonga yo‘l qo‘ysangiz ham, nimaiki qilsang, beadablik ko‘rinadi. Odam o‘zini bir xil sifat va ko‘rinishda olib yurishi lozimki, toki odamlarda unga tasarruf (ta’sir qilish) ta’masi paydo bo‘lmasin”. Abu Nasr Forobiy birinchi bo‘lib ta’lim va tarbiyaga

ta’rif bergan olimdir. “Ta’lim so‘z va o‘rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya esa, amaliyot, ish-tajriba bilan, ya’ni shu yo‘l orqali amalga oshiriladi”,- deydi u.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, har bir shaxs munosib odam bo‘lishi uchun unga ta’lim va tarbiya zarurdir. U ta’lim orqali nazariy kamolotga erishadi. Tarbiya orqali esa kishilar bilan muloqotni, axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni o‘rganadi. Forobiy bolalarning fe’l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanish kerak, deb hisoblaydi.

1. Tarbiyalanuvchilar o‘qish-o‘rganishga moyil bo‘lsa, ta’lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo‘llanadi.

2. Tarbiyalanuvchilar o‘zboshimcha, itoatsiz bo‘lsa, qattiq usul qo‘llanilishi lozim, degan fikrni bildiradi.

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borishni ta’kidlaydi: “Yosh bola ilm bilan adabni tayoq bilan o‘rganur, o‘z ixtiyori bilan o‘rganmas. Ammo farzand beadab bo‘lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o‘z qo‘ling bilan urmagil, muallimlarning tayog‘i bilan qo‘rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o‘g‘lingning ko‘nglidagina qolmasin”. Abu Rayhon Beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritar ekan, “Insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, Shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo‘lishi lozim”, - deydi.

Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo‘yishdan boshlashni lozim deb topadi. “Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki oliyjanob vazifasi, bola tarbiyasi bilan, avvalo, ota-ona shug‘ullanishi kerak”,- deydi.

Umar Xayyomning ta’kidlashicha, tarbiyaning maqsadi “sog‘lom fikr, ziyrak aql va o‘tkir zehnga ega bo‘lgan insonni shakllantirishdan iborat bo‘lmog‘i kerak”. Faqat chuqur zehngina barkamol xalqni qondira oladigan ilhomga erishishi va uning yordami bilan yuksak aql-idrok, farog‘atni hosil qilish mumkin, lekin shuning o‘zi kifoya qilmaydi, inson yuksak axloqqa ega bo‘lishi, yaqinlarini sevishi lozim.

Alisher Navoiy bola tarbiyasi bilan oila hamda maktabda shug‘ullanish, shuningdek, bola tarbiyasini olib borish jarayonida namuna uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg‘u beradi. Tarbiya va ta’lim ishlari o‘qituvchi hamda ota-onalar tomonidan olib borilishi lozim. Mutafakkir bolalar bilan munosabatda bo‘lish chog‘ida ular tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni bartaraf etishda ularga jismoniy jazo berishdan saqlanish, aksincha, hushmuomalalik bilan yo‘l qo‘yilgan xatolarning mohiyatini ularga tushuntirish zarurligini, biroq bu o‘rinda ma’lum me’yorga amal qilish zarurligini aytadi. Alisher Navoiy o‘qituvchining, ayniqsa, talabchan bo‘lishi bolalarning puxta bilim olishlari va ularda axloqiy sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi.

Alloma ma’lum fan asoslari yoki muayyan kasb-hunar sirlarini o‘rganishga layoqatli, iste’dodli bolalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat berish jamiyat uchun katta foyda keltiradi, qobiliyatsizni tarbiyalashga urinish befoydadir, degan xulosaga keladi va bu o‘rinda quyidagilarni bayon etadi: “Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir, qobilityasizga tarbiya —xayf. Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik bilan uni nobud qilma”,- degan fikrni bildiradi. Abdulla Avloniyning fikricha, axloq bu xulqlar majmuyidir. Xulq esa kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishida yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar, ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Avloniyning ta’kidlashicha, axloq tarbiyasi xususiy ish emas. Bu tarbiya ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jamiyatimiz barkamol insonni tarbiyalashda, uning ma’naviyatini shakllantirishda eng asosiy o‘rinni egallaydi. Barkamol inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi hisoblanadi. Tarbiyaga jamiyat a’zolari o‘rtasida qaror topgan munosabatlarni saqlab turish uchun juda zarur bo‘lgan bilimlarni uzluksiz egallash, deb qarash mumkin. Tarbiya ishida har bir kishining individual qobiliyatini rivojlantirish haqida g‘amxo‘rlik qilish bilan, ayni chog‘da, ularda atrofdagilarga nisbatan mas’uliyat hissini tarbiyalashga ham e’tibor bermoq zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O„zbekiston, 2017. - 488 b. 3. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: “Ma’naviyat”, 2003.
2. Aliqulov X. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003. 260 b.
3. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an’ana va urf-odatlar takomillashmoqda. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.
4. Y Zikirovna. Ma’naviy qadriyatlar–sog ‘lom avlodni tarbiyalash vositasi sifatida.Science and innovation, 2023. 208-210.
5. Muratova, M. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-onalarni ta’lim tarbiyaviy jarayonda faol ishtirokini ta’minlashning amaliyotdagi holati. Science and innovation, 1(B7), 1091-1096.

Yakubova Zilola Zikirovna
Nizomiy nomidagi TDPU
Maktabgacha talim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
zilolayakubova1979@mail.ru
Muratova Munavvar O‘rol qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
Maktabgacha talim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
munavvarmuratova1@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYLASHIDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga oid ba‘zi dalillar va ularning nazariy asoslarini keltiradi. Yosh avlodni erkin fikrlashga o‘rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko‘maklashish, o‘z-o‘zini idora va nazorat qila bilishini, shakllantirish uchun zarur bo‘lgan omillar ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: urf-odat, ma’naviy boylik, aqlli, iymon-e’tiqodli, ro‘za, poklik, fidoyi, ishchan, milliy, kamolot.

Аннотация

В данной статье представлены некоторые аргументы и их теоретическая основа для воспитания нашей молодежи в духе преданности нашим национальным и общечеловеческим ценностям. Указаны факторы, необходимые для того, чтобы научить молодых людей свободно мыслить, помочь им понять смысл жизни, уметь управлять собой и контролировать себя, формировать их.

Ключевые слова: Предание, духовное богатство, разумный, верующий, пост, чистота, посвященный, трудолюбивый, народный, зрелость.

Abstract

In this article, the author provides some evidence and their theoretical basis for educating our youth in the spirit of devotion to our national and universal values. Factors necessary to teach young people to think freely, to help them understand the meaning of life, to form self-control and self-control are identified.

Key words: Tradition, spiritual wealth, intelligence, faith, fasting, purity, devotion, diligence, nationality, perfection.

Yosh avlodni komillikka yetaklovchi eng katta kuch – bu kitob va hayotiy saboqlardir. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kelajakni, millatni va milliyligimizni boqiy ozod holda ko‘rishimiz mumkin. Vatanga sadoqat, do‘stlikka ishonch, oilaga mehr – muxabbat, kattalarga hurmatda kichiklarga izzatda bo‘lish tuyg‘usini shakllantirsh milliy qadriyatlarimizni asl ko‘rinishidir. Insonga faqat dunyoda yuz berayotgan voqelik haqida, odob - u axloq qoidalari, mehr va sadoqat tushunchalari haqida bilim berishning o‘zi uning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo‘lib qolmaydi.

Sharqona axloqiy qoidalar sifatida, o‘zbek xalqining milliy urf-odatlaridan – har bir insonda oqillik va e’tiqodlik, sharm-hayo va or – nomuslik, ziyraklik va farosatlilik, hallolik va pokizalik, vazminlik va ulug‘vorlik, mehnatsevarlik, bilmga, ustozlarga, ota-onaga hurmat va mehribonlik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo‘lishiga alohida e’tibor berilgan. Ma’naviy poklik – bu axloqning tamal toshidir,- deb e’tirof etilgan.

Madaniyatning, ma’naviyatning, insoniylikning, odob-axloqning ibtidosi ham, intihosi ham, avvali-yu, oxiri ham, butun mazmuni-yu mohiyati ham salom-alikdan boshlanadi. Haqiqiy insoniylik, odamiylik samimiy tabassum, ochiq chehra va dildan chiqarib salom berishdan boshlanadi.

Xalqimiz ijtimoiy hayotda salomlashish odobiylikning boshi, ma’naviy yetuklik belgisi ekanligini e’tiborga olib, unga alohida e’tibor bilan qaraydi. O‘zbek oilalarida bola xoh o‘g‘il, xoh qiz bo‘lsin, go‘dakligidan boshlab kattalarga salom berishga o‘rgatiladi.

Balki, unda iroda qudrati, mas‘uliyat tuyg‘usini shakllantirish, ko‘nglida atrof-muhitga, mehnatga, kasbga, ilmga, qalban va ruhan o‘zga insonlarga mehrli va oqibatli bo‘lish tuyg‘usini uyg‘otishga, dilida ulug‘ maqsadlar tug‘ilishiga va atrofida yuz berayotgan hodisalarga o‘z munosabatini bildira olishiga erishishimiz lozim. Yosh avlodni shu xislatlar bilan voyaga yetishlari uchun esa turli yo‘llar:

- kattalarni o‘git va nasihatlarini tinglash, undan to‘g‘ri xulosa chiqara olish qobilyatlarini rivojlantirish orqali;
- turli vositalar bilan va eng asosiysi yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin ko‘ngildan) yondashish va tinimsiz izlanishlar natijasida erishish mumkin.

Jamiyat yoshlar ongida ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib o‘z istiqboliga erisha olmaydi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo‘lidagi murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash bundan buyon ham faoliyatimizning eng muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi. Xalq yoki millat o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘lsagina, o‘zining mustaqil

taraqqiyot yo‘lini erkin belgilab olishi, yoshlarni o‘z milliy qadriyatlari negizida tarbiyalash mumkin.

Yoshlar dunyoqarashida milliy- ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashdan ko‘zlangan maqsad ularni faqat o‘z qadriyatlariga tayanib yashashga o‘rgatish emas, balki shu umumbashariy qadriyatlarni ham o‘zlashtirib, mamlakatning o‘ziga hos taraqqiyoti unga bog‘liqligini hisobga olib yashashga, ishlashga da’vat etishdir. Bundan tashqari, milliy- ma’naviy qadriyatlarni chuqur bilish yoshlar tomonidan mustaqillikni asrab- avaylash, himoya qilish va mustahkamlashga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Yosh avlodni tarbiyalashda milliy- ma’naviy qadriyatlar juda katta tarbiyaviy kuchga ega. Ularga sodiqlik bizni milliy birlik sifatida jahon miqyosida betakrorligimizni ta'minlaydi. Tilimiz, urf-odatlar, an’ana va udumlarimiz shunchaki o‘tmishdan qolgan meros emas, balki o‘zligimizni anglash shartidir.

Yurtimizda bugungi kunda ma’naviy yetuk va barkamol insonni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xalqimiz milliy ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, milliy an’analarimizning saqlanishi va mazmunan boyishi, shuningdek, madaniyat va san’at, ilm- fan, ta’lim- tarbiyaning har tomonlama rivojlanishining o‘zi alohida kasb etadi.

Ta’lim- tarbiya orqali mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so‘z bilan aytganda, barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilangan. Ma’naviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati juda katta. Milliy qadriyatlar- tarbiyaning eng ta’sirchan quroli. Undan oqilona foydalanish, farzandlarimiz ongida vatanparvarlik, rostgo‘ylik, xalqparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish bugungi kun talabi.

Jamiyatda yoshlar tarbiyasi muammolari har doim kunning birinchi darajali mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Yosh avlodni komillikka yetaklovchi eng katta kuch bu- kitob va hayotiy saboqlardir. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kelajakni, millatni va milliyligimizni boqiy ozod holda ko‘rishimiz mumkin.

Vatanga sadoqat, do‘stlikka ishonch, oilaga mehr - muhabbat, kattalarga hurmatda kichiklarga izzatda bo‘lish tuyg‘usini shakllantirsh milliy qadriyatlarimizni asl ko‘rinishidir. Insonga faqat dunyoda yuz berayotgan voqelik haqida, odob - axloq qoidalari, mehr va sadoqat tushunchalari haqida bilim berishning o‘zi uning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo‘lib qolmaydi.

Milliy qadriyatlarni yoshlari ongi va qalbiga singdirish usullari to‘g‘risida fikr bildirganda shuni alohida qayd qilmoq kerakki, avvalo, ma’muriy yo‘l va zo‘rlik usuliga ehtiyotkor bo‘lish talab qilindi. Chunki imkoni boricha zo‘rlik qilish, majbur qilish usulidan foydalanmaslik maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash borasida quydagilarni taklif qilish mumkin:

- tarixiy yodgorliklar, ma’rifiy maskanlar, san’at koshonalari hamda mustaqillik davrida qad ko‘targan inshootlarga uyushmagan yoshlar va talabalarning ekskursiyalarini tashkil qilish;
- o‘lkashunoslik va Vatanimiz tarixiga oid to‘garaklar ishini jonlantirish;
- jamoa yoshlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma’naviy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, mehnat, estetik madaniyatini shakllantirish maqsadida taniqli san’atkor, huquqshunos, ta’lim va fan arboblari, mehnat faxriylari, sog‘liqni saqlash xodimlari bilan ijodiy kechalar va uchrashuvlar uyushtirish;
- mahallalarda uyushmagan yoshlarni va talabalarining shoir va yozuvchilar, davlat va jamoat arboblari, mehnat faxriylari kabi taniqli kishilar bilan uchrashuvlarini uyushtirib borish.

Xulosa qilib shu narsani ta’kidlamoqchimanki, O‘zbek xalqining hozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatlari o‘tmish milliy ma’naviyatining davomi bo‘lib, ularga do‘stlik, mehmondo‘stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe’llik, mardlik, samimiylik, lutfikaramlik, ro‘zg‘orparvarlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, milliy g‘urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabilar kiradi. Bugungi kunda bularni yoshlar ongiga singdirish har bir ota-ona va tarbiyachi-murabbiylarning asosiy vazifalaridir. Xalqimiz urf-odatlari, an’analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Odamlarning bir-biriga mehr oqibati, oqilona munosabati, to‘g‘ri muloqoti, iltifoti, ehtiromi xalqimizning ichki go‘zalligini, boy ma’naviy va ruhiy qiyofasini ifodalaydi. Eng muhimi, xalqimizdagi mehr-muruvvatlilik, saxiylik, mehmondo‘stlik, xushmuomalalilik, mehr-oqibatlilik, andishalilik, samimiylik, to‘g‘rilik, intizomlilik, mehnatsevarlik, o‘zini tuta bilish, tejamkorlik, sabr qanoatlilik kabi his-tuyg‘ular va xislatlar bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasida ibrat-namuna vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 488 b. 3. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: “Ma’naviyat”, 2003.
2. Aliqulov X. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003. 260 b.

3. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an’ana va urf-odatlar takomillashmoqda. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.
4. Y.Z Zikirovna. Ma’naviy qadriyatlar–sog‘lom avlodni tarbiyalash vositasi sifatida.Science and innovation, 2023. 208-210.
5. Muratova, M. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-onalarni ta’lim tarbiyaviy jarayonda faol ishtirokini ta’minlashning amaliyotdagi holati. *Science and innovation*, *1*(B7), 1091-1096.

Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna
Oriental universiteti Pedagogika fakulteti katta o‘qituvchisi,
Yusupova Gulbahor
Oriental universiteti Pedagogika fakulteti
301-guruh talabasi

KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARIDA BARKAMOL SHAXS TARBIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqola Unsuralmoniy Kaykovusning “Qobusnoma” asariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda barkamol avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning mazmun – mohiyati yoritilgan. Maqolada barkamol shaxs tarbiyasi oid misollardan atroflicha foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: barkamol shaxs, pand-nasihat, ruhiy hissiyot, mehnat, ilmiy yangilik.

Аннотация Данная статья посвящена произведению Унсуралмани Кайковуса “Кобуснома”, в котором с духовно-нравственной точки зрения раскрывается содержание и сущность воспитания зрелого поколения. В статье широко используются примеры совершенного воспитания личности.

Ключевые слова: совершенная личность, совет, духовное чувство, труд, научная инновация.

Abstract This article is dedicated to the work “Kobusnoma” by Unsuralmani Kaikovus, in which the content and essence of raising a mature generation from a spiritual and moral point of view is explained. In the article, the examples of perfect personality education are extensively used

Key words: perfect personality, advice, spiritual feeling, work, scientific innovation.

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi fazilatlarini o‘zida mujassam etgan shaxslarni tarbiyalash ta’lim – tarbiya tizimining dolzarb masalasidir.

Ushbu masalaning yechimlaridan biri sifatida X-XI asrning yirik namoyondasi Unsuralmoniy Kaykovusning “Qobusnoma” asariga to‘xtalmoqchimiz. Asardan oldimizga qo‘yilgan vazifani, ya’ni ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi fazilatlarini egallagan shaxslarni tarbiyalashda samarali foydalanish mumkin. “Qobusnoma” Kaykovusning o‘g‘li Gilonshohga pand-nasihatlar tarzida yozilgan asar bo‘lib, har bir bob ta’lim-tarbiya borasida o‘ziga xos ulkan ne’matdir.

Asarning “Mol jam etmoq zikrida” deb nomlangan bobida shaxsda ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi fazilatlarini rivojlantirishda o‘ziga xos fikr-mulohazalar yuritiladi. Masalan:

“Ey farzand, o‘zingni mol jam etmakdin g‘ofil tutmag‘il va lekin har narsani etmak tilasang jahd qilg‘il, toki halollik bila jam bo‘lsun va hamisha senga boqiy hamda yoqimli bo‘lsun”[1]. Bu orqali alloma har bir insonni boy-badavlat hayot kechirish uchun dangasa bo‘lmasdan mol to‘plashga chorlaydi, lekin boylikka halollik yo‘li bilan erishish lozimligini va bunda to‘plagan boyliklari unga yoqimli bo‘lishini uqtiradi. Yoki:

“Jam etg‘ondin so‘ng yaxshi saqlag‘il va har botil ish uchun uni qo‘ldin bermag‘il, nedinkim saqlamoq yig‘ishdin mushkuldir. Agar kerak vaqtda zarur ish uchun olib harj qilib uni o‘rnini to‘ldirg‘il... Molni doimiy turar deb unga ko‘ngil qo‘ymag‘il. Toki biror vaqt u yo‘q bo‘lsa tangdil bo‘lmag‘aysan”[2].

Kaykovisning yuqoridagi fikrlari orqali shaxsda moddiy boylikka nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash uchun xizmat qilishi mumkinligini ko‘rish qiyin emas. Fikrimizni isboti sifatida yana bir misol:

“Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang aqldan boy bo‘lmoqqa harakat qil, chunki mol bila boy bo‘g‘ondan aql bila boy bo‘lg‘on yaxshiroqdir. Aql bila mol jam etsa bo‘lur, ammo mol bila aql o‘rganib bo‘lmas. Bilg‘ilki, aql bir qimmatbaho narsaki, uni o‘g‘ri ololmas, u o‘tda yonmas va suvda oqmas”[3].

Adib insonlarning eng yaxshi fazilatlarini ularning, xulq-atvorini xislatlarini ham uch xilga bo‘ladi: aql, to‘g‘rilik, juvonmardlik (insonparvarlik, saxiylik, qo‘li ochiqlik). Kaykovusning fikricha, insonlarning hammasi shunday sifatlarga ega bo‘lishni istaydilar, lekin bu xislatlarga hamma ham erisha olmaydi. Chunki ulardagi ba’zi xislatlar: jumladan, sustkashlik, befahmlik, hovliqmalilik uning yaxshi xislatga

[1] Kaykovus Qobusnoma T., “O‘qituvchi” 1998,72 bet.
[2] Kaykovus Qobusnoma T., “O‘qituvchi” 1998,73 bet.

[3] O‘sha asar 31 bet.

erishishishidagi, ya'ni ma'naviy barkamollik yo'lini berkitib qo'yadi. Demak, Kaykovus hamma masalaga insonning o'zi sababchi deb hisoblaydi.

Kaykovus insonning ruhiy dunyosini ikki guruhga bo'ladi: jismoniy sezgini, ya'ni hid bilish, eshitish, ko'rish, ushlab ko'rish ta'm bilish sezgilarini "modda" bilan ruhiy hissiyotni, ya'ni tafakkur, yod olish, so'zlamoq, xayol kabilarni "jon" bilan bog'laydi. Birinchisi, moddiy hayot, ikkinchisini ruhiy hayot natijasi deb ko'rsatadi. U bu xususiyatlarni inson aqli bilan uyg'unligini e'tirof etadi va juvonmardlik, donishmandlik, o'sish, olijanoblik - bularning hammasi oliy aql tashabbusi bilan insonda shakllanadi, deb qaraydi va tan jon bilan, jon nafas bilan, nafas aql bilan tirikdir, degan xulosaga keladi. Nafsni jilovlay bilish insonga xos zaruriy fazilat ekanligini quyidagicha talqin etadi.

"Agar moling ko'p bo'lsa, uni taqdir va tadbir bila ishga yaratg'il. Nedinkim taqdir va tadbir bila yarolg'on ozgina mol taqdirsiz va tadbirsiz ko'p moldin yaxshiroqdir". Yana "Agar mol oz bo'lsa ham yaxshi saqlamoqni vojib bilg'ilki, har kishi oz narsani saqlay olmasa, ko'p narsani ham saqlay olmag'uvsidur. Mol jam etarda kohinlik qilmag'il, bu badbaxtlikning shogirdidur. O'zingga ranj berg'il, ya'ni o'zing mashaqqat tortg'il, nedinkim mol qiyinchilik bila yig'iladi va kohinlik bila yo'q bo'lur. Donolar debdurlarki: "Harakat qiling, to obodon bo'lg'aysizlar va ozga qanoat qiling, toki mollaringiz ko'p bo'lg'ay, yumshoq tabiatli va shirin so'z bo'ling, do'stingiz ko'p bo'lg'ay"[1].

Endi quyidagi fikrga diqqatimizni qaratsak. Bunda:

"... mol har qancha aziz bo'lsa ham uni do'stlardin darig' tutmag'il. Har holda molni go'ringga olib bormagungdur. Ammo daxling - na chog'liq bo'lsa, harjing ham ul miqdor bo'lsun. Shunda senga qashshoqlik mashaqqati yuzlanmag'ay. Har kishiki harjini daxlini oz qilsa, hech vaqt qashshoq bo'lmagay.

Bor molingga qanoatda bo'lg'il, qanoat tugalmas ganjdur va senga taqsim etilg'on nasiba, kundalik ovqat senga, albatta yetishgusidir"[2].

To'g'ri, deydi alloma, mol yoqimli, azizdir, lekin u har qancha aziz bo'lsa-da uni o'zing bilan go'rga olib ketolmaysan. Daromading qancha bo'lsa, shunga qarab harajat qilsang, hayoting yomon bo'lmaydi, kambag'al bechora ham bo'lib qolmaysan. Boriga shukur qilsang, ertasi kungi nasibangni topasan, ko'nglingni xotirjam qil, demoqchi bo'ladi.

Shu bilan birga, "Qobusnoma" asari insonga to'g'ri ro'zg'or tebratish yo'llarini ham o'rganish mumkinligidan darak beradi. Bunday xulosaga kelishimizga quyidagi pand-nasihatlarni asos qilib oldik.

[1] Kaykovus Qobusnoma T., "O'qituvchi" 1998,73 bet.
[2] O'sha asar 73- bet.

“... Ro‘zg‘oringning zaruriy ishlarida taqsir nuqson ko‘rguzmag‘il. Joningg‘a jabr qilmag‘il: mol har nechakim azizdur, ammo joningdan aziz emasdur. Mol jam etmakda xato qilmag‘il, har odam o‘z ishida xato qilsa saodatdan mahrum bo‘lg‘ay... muddaolaridin bebahra qolg‘ay, nedinkim, rohat mehnatdadur. Shundoqki, bugunning rohati kechagi mehnatning natijasidur”[1].

Bu mulohazalar har bir insonni ro‘zg‘or ishlariga o‘ta e’tiborili bo‘lishga, ro‘zg‘orning to‘kis bo‘lishi uchun doim mehnat qilish lozimligini uqtirib, kechagi mehnatning natijasi bugungi totli rohat ekanligini tushuntiradi. Topgan molingning ikki qismini oilaga, ya’ni ro‘zg‘orga sarflashni va qolganini o‘z ehtiyoji uchun sarflash mumkin deydi. Mana bu fikrlardan ta’lim- tarbiya jarayonida mahoratkorona, o‘rinli foydalanish orqali oilaparvarlik fazilatlarini o‘zida mujassam etgan shaxslarni tarbiyalash uchun dasturulamal bo‘la oladi.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarini tahlil qilib, har bir bobni yoritishda o‘ziga xos hikoyatlardan mohirona foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Quyida biz “Tijorat va bozorgonlik rasmi zikrida” deb nomlangan bobdagi bir hikoyatni keltirishni lozim deb topdik, chunki bu hikoyat biz mulohaza yuritayotgan, ya’ni shaxsda ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi fazilatlarini tarbiyalash masalasiga oydinlik kiritish uchun xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Hikoyat: Shundoq eshitdimki, bir kishini qo‘ylari bag‘oyat ko‘p edi. U har kuni qo‘ylarini sog‘ib, har na hosil bo‘lg‘on sutni qo‘y egasining oldiga kelturur erdi. Qo‘y egasi ul sutga yarim hissa suv qo‘shib, cho‘ponga sotg‘il deb berur erdi. Cho‘pon unga bundoq nasihat berur erdi: “Ey xo‘ja, musurmonlarga xiyonat qilmag‘ilki, o‘zingga zarar yetkarursan”. Ul kishi cho‘ponning nasihatini eshitmadi va ul ishni qilur erdi.

Bir kecha bahor vaqtida cho‘pon qo‘ylarni osoyishi uchun bir sel oqadig‘on past joyga qo‘ymish va o‘zi baland joyga chiqib, uyquga bormish erdi. Ittifoqo ko‘p yomg‘ir yog‘ib, sel oqib kelib qo‘ylarni oqizib ketdi va barcha qo‘ylar halok bo‘ldi. So‘ngra cho‘pon shaharga keldi. Qo‘y egasi unga dedi: “Bugun nima uchun sut kelturmading?” Cho‘pon dedi: “Ey xo‘ja, men senga necha bor: “Sutga suv qo‘shmag‘il, oxirini o‘ylag‘il”,-dedim. Lekin mening so‘zimni hargiz eshitmading. Oxiri sutga qo‘shg‘on suvlaring hammasi yig‘ilib, o‘tgan kecha bir sel bo‘lib shunday oqdiki, hamma qo‘ylarni oqizib ketdi”.

Bas, ey farzand, xiyonatdin qochg‘ilki, har kishi bir martaba xiyonat qilsa, unga hech odam aslo e’timod qilmas. Rostlikni pesha qilki, norostlik ulug‘ qaroqchilikdur. Olmoq va sotmoqda muloyim bo‘lg‘il va kishiga va’da qilmag‘il,

[1] Kaykovus Qobusnoma T., “O‘qituvchi” 1998,74- bet.

agar va’da qilsang xilof etmag‘il. Olg‘uvchi odamga yolg‘on so‘z demag‘il va agar so‘z desang, rost so‘zni aytg‘il... Muamalada olmoq va bermoq hujjatiga ogoh bo‘lgil, xujjat bermoq tilasang, toki avval haqni qo‘lga olmag‘uncha hujjatni qo‘ldin bermag‘il[1].

Alloma hikoyat orqali molingga o‘zgalarning moli deb qaragin, o‘zgalarning molini o‘z molingdan ham afzalroq, ziyodroq deb bilgin, omonatga hech qachon xiyonat qilmagin, bu ishing hech qachon senga foyda keltirmaydi. Agar to‘g‘ri bo‘lsang, el nazariga tushasan, xalq seni izzat hurmat qiladi. Nopoklik, o‘zgalar moliga xiyonat qilish sharmandalikka olib keladi va el orasida bosh ko‘tarolmay qolishingga sabab bo‘ladi, demoqchi.

Ushbu hikoyatni baholi qudrat mulohaza qilib “Qobusnoma” asari orqali ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligini o‘zida mujassam etgan barkamol shaxsni tarbiyalashda nechog‘li muhim ahamiyat kasb etishini his qilish qiyin bo‘lmasa kerak.

Bugungi ijtimoiy-ma’naviy hayotimizda o‘tmishda yaratilgan ulkan ma’naviy va moddiy merosdan foydalanishning o‘rni va ahamiyati haqida qayta-qayta gapirilayotgani barchamizga ma’lum.

Ana shu buyuk sharq mutafakkirlari qatori Kaykovus singari nodir iste’dod sohibi ham bor. U qoldirgan merosni bugungi kunda o‘rganish va ularni yoshlar ma’naviy tarbiyasida qo‘llash olimlar, pedagoglar, ustoz murabbiylar zimmasidagi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz - T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2. B. X. Umumiy pedagogoka nazariyasi va amaliyoti. T. : 2017.

3. Kaykovus Qobusnoma T., “O‘qituvchi” 1998.

4. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. T., Istiqlol, 2003.

[1] Kaykovus Qobusnoma T., “O‘qituvchi” 1998, 108 bet.

Mamanazarov Uchqun Burxon o‘g‘li
Oriental universiteti
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi
kafedrasi o‘qituvchisi
+998 977671393
Zokirova Muyassar Xamidullo qizi
Oriental universiteti talabasi
+99899 6282666

AJDODLAR MEROSI – KELAJAK AVLOD TARBIYASIDA ASOSIY DIDAKTIK MANBA

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonning boy madaniy merosi, urf- odatlari, milliy qadriyatlarini o‘rganishning hozirgi hamda kelajak avlod ta’lim- tarbiyasidagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, yurtimizda yetishib chiqqan buyuk mutafakkir allomalarimizdan Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino haqida ma’lumot beriladi. Ularning o‘z davrlarida tinimsiz izlanishlari natijasida ilm-fan sohasidagi erishgan yutuqlari, ko‘plab zamonaviy fanlarning poydevori bo‘la olgan asarlari, ta’lim- tarbiya masalalari va turli fanlarni o‘qitish metodikalariga oid ko‘plab risolalari haqida tushunchaga ega bo‘lish imkonini beradi. Ular qoldirgam boy meroslarini hozirgi zamon ta’lim tizimida qo‘llashning afzalliklari, yosh avlod tarbiyasidagi mavjud muammolar hamda bo‘shliqlarni bartaraf etishda buyuk ajdodlarimizni e’zozlash, ularning asarlari hamda bosib o‘tgan hayot yo‘llarini o‘rganish naqadar muhim ahamiyat kasb etishi nazarda tutiladi.

Kalit so‘zlar: didaktika, madaniy meros, urf-odat, qadriyat, sivilizatsiya, xronologiya,

Аннотация

В данной статье говорится о важности изучения богатого культурного наследия, обычаев и национальных ценностей Узбекистана в воспитании нынешнего и будущих поколений., даются сведения об Абу Али ибн Сине. Получить представление об их достижениях в области науки в результате их неустанных исследований в свое время, их трудов, ставших фундаментом многих современных наук, их многочисленных трактатов по вопросам образования и методики преподавания различных предметов позволяет. Преимущества использования их богатого наследия в современной системе образования, насколько важно чтить наших великих предков, изучать их

труды и пути их жизни, преодолевать существующие проблемы и пробелы в воспитании молодого поколения.

Ключевые слово: Дидактика, культурное наследие, традиция, ценность, цивилизация, эволюция, философия, интеллект, методология, канонические тексты, артефакт, контекст, хронология, антропология, метафизика, эпистемология.

O‘zbekiston o‘zining boy madaniy merosi va tarixiga ega bo‘lib, zamonaviy ta’lim sohasiga katta hissa qo‘shgan bir qancha allomalarni yetishtirgan. Ularning qoldirgan boy ilmiy merosi nafaqat O‘zbekiston va unga qo‘shni mintaqalar, balki jahon miqyosida mashhur bo‘lib, ko‘plab zamonaviy bilimlarning dastlabki nazariy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Buyuk ajdodlarimizning qoldirgan merosi, albatta, kelajak avlodlar tarbiyasida didaktik manba sifatida katta ahamiyatga ega. Buning bir qancha sabablari bor, jumladan, xalqimizning o‘ziga xos madaniy hayoti, tarixiy istiqboli, axloq-odobi, milliy qadriyatlari va an’analarini asrab- avaylashga o‘rgatish bilan bir qatorda keng dunyoqarashni shakllantirib tanqidiy fikrlash va mulohaza yuritishga undaydi.

O‘zbek xalqi qadimdan o‘zining boy madaniy merosi va go‘zal urf-odatlari bilan Sharq mamlakatlari orasida ajralib turgan. Ajdodlarimizning bebaho merosi ko‘pincha madaniy o‘ziga xoslikning asosini tashkil qiladi. O‘z xalqining urf-odatlari va e’tiqodlarini tushunish odamlarga o‘z ildizlari bilan bog‘lanishga va inson tajribasining xilma-xilligini qadrlashga yordam beradi. Ajdodlarimizning erishgan yutuqlari yangilik va taraqqiyot uchun ilhom bo‘lib xizmat qiladi. Ularning yutuqlarini o‘rganish orqali yosh ongni bilim chegaralarini kengaytirishga va o‘z ishlarida mukammallikka intilishga undash mumkin. Ajdodlarni o‘rganish avlodlar o‘rtasida davomiylik va tegishlilik tuyg‘usini yaratadi. Bu odamlarga kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat tuyg‘usini rivojlantirib, o‘z hayotlari doirasidan tashqariga chiqadigan kengroq hikoyaning bir qismi ekanligini tushunishga yordam beradi. Ularning qoldirgan bebaho merosini tahlil qilish tanqidiy fikrlash va mulohaza yuritishga undaydi. O‘tgan avlodlarning qarorlari, xatti-harakatlari va oqibatlarini o‘rganib, yoshlar sabab va oqibatni, shuningdek, inson xatti-harakatlarining murakkabligini chuqurroq tushunadilar [1; 23].

Ko‘pgina buyuk ajdodlar nafaqat intellektual yutuqlari, balki axloqiy fazilatlari, axloqiy tamoyillari va namunali xulq-atvori bilan ham qadrlanadi. O‘qituvchilar tarixiy shaxslar duch keladigan axloqiy dilemmalarni, ularning axloqiy mulohazalari va axloqiy ta’limotlarining doimiy dolzarbligini ta’kidlashlari mumkin. Bu talabalarni o‘zlarining qadriyatlari, axloqiy mas’uliyatlari va zamonaviy kontekstlarda axloqiy qarorlar qabul qilishlari haqida fikr yuritishga

undaydi. Urf-odatlar, tillar, marosimlar va badiiy ifodalarni o‘z ichiga olgan madaniy merosning boyligi va rang-barangligi muhim o‘rin egallaydi. Pedagoglar buyuk ajdodlarimiz hayotining madaniy o‘ziga xosligi, mustahkamligi va ijodiy zukkoligini o‘rganish uchun xalq og‘zaki ijodi, afsonalar, rivoyatlar, og‘zaki tarix va madaniy artefaktlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu madaniyatlararo tushunish, hamdardlik va madaniy xilma-xillikni qadrlashni rivojlantiradi.

Bu mintaqada, ya’ni hozirgi O‘zbekistonda tug‘ilgan bilimdonlardan biri Abu Rayhon Beruniy astronomiya, matematika, geografiya va antropologiyaga katta hissa qo‘shgan. Uning asarlarida ta’limning ahamiyati va turli fanlarni o‘qitish metodikasi haqidagi risolalar mavjud. Al-Beruniy ta’limda empirik kuzatish va tanqidiy fikrlash zarurligini, bugungi kunda ta’lim amaliyotiga ta’sir qilishda davom etayotgan tamoyillarni ta’kidladi.Abu Rayhon al-Beruniy (milodiy 973-1048) matematika, astronomiya, geografiya, tarix, tilshunoslik, antropologiya va farmakologiya kabi turli sohalarga salmoqli hissa qo‘shgan fors polimati edi. Uning asarlari chuqur bilim va idrok bilan haqiqatda qimmatli didaktik manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”. Bu asarida al-Beruniy turli qadimiy sivilizatsiyalar tomonidan qo‘llanilgan turli kalendarlar va tanishuv tizimlarini muhokama qiladi. Undan talabalarga tarixiy kalendarlarning xilma-xilligi va tarixchilar va arxeologlar tomonidan xronologiyalarni o‘rnatishda qo‘llaniladigan usullar haqida ma’lumot berish uchun foydalanish mumkin [2; 87].

“Shaharlar koordinatalarini aniqlash”. Bu asarida al-Beruniy astronomik kuzatishlar yordamida shaharlarning geografik koordinatalarini aniq aniqlash usulini bayon qiladi. Undan talabalarga astronomiya va kartografiya tamoyillari, shuningdek, navigatsiya va tadqiqot uchun aniq geografik ma’lumotlarning ahamiyati haqida ma’lumot berish uchun foydalanish mumkin.

“Shifo kitobi”. Al-Beruniyning falsafiy asari metafizika, epistemologiya, axloq va siyosat kabi keng ko‘lamli mavzularni qamrab oladi. Undan talabalarga islom falsafasi va uning keyingi falsafiy an’analarga ta’siri haqida ma’lumot berish, shuningdek, voqelik tabiati va insoniy holatga oid fundamental savollar bo‘yicha munozaralarni rag‘batlantirish uchun foydalanish mumkin.

“Astrologiyaning elementlari”. Bu ish munajjimlar bashoratining tamoyillari va usullarini, shu jumladan, munajjimlar bashoratini tanlash va talqin qilishni batafsil ko‘rsatadi. Undan talabalarga astrologiyaning tarixiy rivojlanishi va uning o‘rta asrlar fani va jamiyatidagi o‘rni haqida ma’lumot berish, shuningdek, astrologiya va astronomiya o‘rtasidagi munosabatlar haqida tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish uchun foydalanish mumkin. Umuman olganda, al-Beruniy asarlari boy bilim manbalari bo‘lib, ulardan o‘quvchilarning tarix, fan, falsafa va tibbiyot

kabi keng ko‘lamli fanlar bo‘yicha tushunchalarini oshirishda foydalanish mumkin. Uning asarlarini o‘rganish orqali talabalar islom oltin davrining intellektual yutuqlari haqida tushunchaga ega bo‘lishlari va islom ulamolarining insoniyat bilimi yuksalishiga qo‘shgan hissalarini qadrlashlari mumkin [4; 321].

Al-Xorazmiyning eng mashhur asari “Kitob al-Muxtasar fi Hisob al-jabr val-muqobala” (“To‘ldirish va muvozanatlash yo‘li bilan hisoblash to‘g‘risida to‘liq kitob”) ko‘pincha algebra fanining asosiy matni hisoblanadi. Bu kitobda u chiziqli va kvadrat tenglamalarni yechishning sistematik usullarini kiritdi. O‘qituvchilar uning usullaridan talabalarni algebraik tushunchalar bilan tanishtirish, tarixiy kontekstni taqdim etish va algebraik texnikaning rivojlanishini ko‘rsatish uchun foydalanishlari mumkin [3; 112].

O‘nlik tizim va hind raqamlari. Al-Xorazmiy hind-arab raqamlar tizimini islom olamiga tanitishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Uning “Kitob al-jam’a val-tafriq bi-hisob al-hind” (“Hind hisobi bo‘yicha qo‘shish va ayirish kitobi”) asarida o‘nlik pozitsion sanoq sistemasi va bu tizim yordamida arifmetik amallar tushuntirilgan. O‘qituvchilar uning tushuntirishlaridan o‘quvchilarga o‘nlik sanoq sistemasi va uning boshqa sanoq sistemalariga nisbatan afzalliklarini o‘rgatishlari mumkin.

Al-Xorazmiy trigonometriyaga, xususan, sferik trigonometriyaga katta hissa qo‘shgan. Uning astronomiyaga oid ishlarida ilg‘or trigonometrik usullar talab qilinadigan samoviy jismlarning joylashuvi bilan bog‘liq hisob-kitoblar mavjud edi.

Al-Xorazmiy geografiya va kartografiyaga oid “Kitob surat al-Ard” (Yer tasviri) kitobini ham yozgan. Uning geografik bilimlari o‘z davrini tushunishga asoslangan bo‘lsa-da, asarlari o‘rta asrlardagi islom geografik bilimlari va harita tuzish texnikasi haqida tushuncha beradi. O‘qituvchilar geografiya va harita yaratish bo‘yicha tarixiy istiqbollarni o‘rganish uchun uning asarlaridan foydalanishlari mumkin.

“Algoritm” atamasi uning nomining lotincha tarjimasi “Algoritmi” dan olingan. Uning algoritmlarga oid asl ishlari, asosan, arifmetik va algebraik protseduralarga qaratilgan bo‘lsa-da, o‘shandan beri algoritm tushunchasi sezilarli darajada rivojlandi. O‘qituvchilar Al-Xorazmiyning matematik masalalarni yechishdagi tizimli protseduralarini muhokama qilish orqali algoritm tushunchasi bilan tanishishlari va bugungi kunda algoritmlarning turli sohalarda qo‘llanilishini yoritib berishlari mumkin. Al-Xorazmiy asarlarini ta’lim o‘quv dasturlariga kiritish o‘quvchilarga qimmatli tarixiy ma’lumotlarni beribgina qolmay, balki matematika va ilmiy bilimlarning vaqt o‘tishi bilan rivojlanishini qadrlashga yordam beradi. Bundan tashqari, Al-Xorazmiy usullarini o‘rganish talabalarni o‘zlarining matematik ijodkorliklari va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o‘rganishga ilhomlantirishi mumkin.

Abu Ali Ibn Sino Avitsenna nomi bilan ham mashhur bo‘lib, tibbiyot, falsafa, matematika va astronomiya kabi turli sohalarga katta hissa qo‘shgan fors polimati edi. Uning asarlari chuqurligi, ravshanligi va doimiy dolzarbligi bilan ajoyib didaktik manba bo‘lib xizmat qiladi. Quyida Ibn Sinoning asosiy hissalari va ulardan didaktik manba sifatida qanday foydalanish mumkinligi keltirilgan:

Ibn Sinoning eng mashhur asari “Tib qonunlari” (“Al-Qonun fi at-Tibb”) keng qamrovli tibbiy ensiklopediya bo‘lib, bir necha asrlar davomida Yevropa va Islom olamida standart tibbiy matnga aylangan. O‘qituvchilar o‘quvchilarni o‘rta asr islom olamida tushunilgan tibbiyot, anatomiya, fiziologiya, patologiya va farmakologiya tamoyillari bilan tanishtirish uchun Kanondan parchalardan foydalanishlari mumkin. Ibn Sinoning tibbiy ta’limga tizimli yondashishi, empirik kuzatish va mantiqiy mulohazalarga urg‘u berishi ham ilmiy metod va dalillarga asoslangan tibbiyot bo‘yicha munozaralarga turtki berishi mumkin.

Ibn Sino birinchi navbatda tibbiyot va falsafaga qo‘shgan hissalari bilan mashhur bo‘lsa-da, matematika va astronomiyaga ham katta hissa qo‘shgan. Uning matematikaga oid asarlari arifmetika, geometriya, algebraga oid risolalarni o‘z ichiga oladi. Pedagoglar Ibn Sinoning matematik asarlaridan parchalar yordamida sonli hisoblar, geometrik isbotlar va algebraik tenglamalar kabi asosiy matematik tushunchalar va usullarni o‘rganishlari mumkin. Xuddi shunday Ibn Sinoning astronomiyaga oid asarlaridan talabalarni osmon mexanikasi, kuzatuv astronomiyasi va islom astronomik an’analari bilan tanishtirishda foydalanish mumkin.

Ibn Sinoning “Kitob an-najot” (“Najot kitobi”) kabi asarlarida bayon qilingan axloqiy-axloqiy falsafasi ezgulik, baxt-saodat, insonning gullab-yashnashi tabiatini o‘rganadi. O‘qituvchilar Ibn Sinoning axloqiy asarlaridan parchalardan foydalanib, axloqiy ikkilanishlar, axloqiy xarakter va yaxshi hayotga intilish haqida munozaralarni rag‘batlantirishlari mumkin. Ibn Sinoning o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini takomillashtirish, axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga urg‘u berishi o‘quvchilarni o‘z qadriyatlari va axloqiy majburiyatlari haqida fikr yuritishga undashi mumkin.Ibn Sino asarlarini ta’lim dasturlariga kiritish nafaqat o‘quvchilarga o‘rta asrlardagi islom ilmi haqida tushuncha beradi, balki fanlararo izlanish, tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo tushunishni ham rag‘batlantiradi. Talabalar Ibn Sino asarlarini o‘rganish orqali turli tarixiy davrlar va madaniy sharoitlarda insoniyat erishgan intellektual yutuqlarning boyligi va rang-barangligini chuqurroq tushunishlari mumkin [5; 89].

Ibn Sinoning falsafa, tibbiyot va ta’lim sohalariga qo‘shgan hissasi butun islom olamiga doimiy ta’sir ko‘rsatdi. Uning “Tib qonunlari” nomli tibbiy ensiklopediyasi asrlar davomida standart tibbiy darslik bo‘lib qoldi va butun Islom Oltin asri va undan keyingi davrda tibbiy ta’lim va amaliyotga ta’sir ko‘rsatdi. Bu

olimlar, jumladan, O‘zbekiston va butun islom olamidagi ta’lim, ilm-fan, falsafa sohalarida o‘chmas iz qoldirgan.

Xulosa qilib aytganda, buyuk ajdodlar merosini o‘rganish insoniyat oldida turgan doimiy savollar, ko‘p yillik muammolar va dolzarb muammolar yuzasidan tanqidiy izlanish, fikr yuritish va muloqotga undaydi. O‘qituvchilar talabalarni tarixiy rivoyatlarni tanqidiy baholashga, ustun taxminlarni so‘roq qilishga va o‘tmishdagi tushunchalar asosida muqobil kelajakni tasavvur qilishga undaydigan munozaralar va bahslar orqali rivojlantirishlari mumkin.Umuman olganda, buyuk ajdodlar merosi tarbiyaviy tajribani boyitib, intellektual qiziqishni rivojlantiruvchi, insoniyat tarixi, madaniyati va bilimlarining o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq anglashga undaydigan qimmatli didaktik manba bo‘lib xizmat qiladi. Biz buyuk ajdodlarimiz merosi bilan shug‘ullanib, zamonaviy muammolarni hal qilish va porloq kelajakni shakllantirish yo‘lida o‘tmishdan ilhom oladigan bilimli, mulohazakor va mas’uliyatli komil inson bo‘lib yetishmog‘imiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullaev, A. “Zamonaviy dunyoda O‘zbekiston madaniy merosini asrash”. “O‘zbek madaniyatshunosligi” jurnali, 5-jild.
2. Nazarov, B. “Madaniy ta’limni o‘quv dasturiga integratsiyalash: O‘zbekiston misoli”. International Journal of Education Studies, 10-jild, 2-son.
3. Karimov, R. “O‘zbekistonda meros ta’limi uchun raqamli platformalardan foydalanish”. Madaniy merosni asrash bo‘yicha xalqaro konferensiya materiallari.
4. Ismoilov, N. “Madaniy merosni yoshlarga yetkazishdagi muammolar va imkoniyatlar”. Madaniy merosni boshqarish jurnali, 12-jild, 4-son.
5. Yusupov, T. “Madaniy merosni asrab-avaylashda jamoatchilik ishtiroki: O‘zbekistondan tushunchalar”. Jamiyat taraqqiyoti jurnali, 15-jild, 2-son.

Jabborova Nilufar Shavkatovna
Oriental universiteti Tarix fakulteti 1-bosqich magistranti

AJDODLAR MEROSINING KELAJAK AVLOD TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek olimlari, ustozlari hamda turli soha vakillarining bosib o‘tgan ibratli hayot yo‘llari, ularning xalqimiz uchun qilgan ezgu ishlari, namunali fazilatlari haqida kichik hajmdagi qiziqarli hikoyalarni maktab darsliklari

hamda oliy ta’lim dargohlaridagi sohaga oid qo‘llanmalarga kiritish haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, yetishib kelayotgan kelajak avlodni tarbiyalashda maktab darsliklarining ahamiyati hamda mazkur darslik va qo‘llanmalarni tayyorlashda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, buyuk ajdodlar, ota-bobolar, olimlar, ustozlar, meros, ta’lim, kelajak avlod, muammolar, yechimlar.

Аннотация

В данной статье высказаны мнения о включении в школьные учебники и полевые руководства вузов небольших интересных рассказов об образцовом жизненном пути узбекских ученых, педагогов и представителей различных сфер, их добрых делах для нашего народа, образцовых качествах учреждения. Также обсуждается значение школьных учебников в образовании следующего поколения и недостатки в подготовке этих учебников и пособий.

Ключевые слова: Узбекистан, великие предки, предки, ученые, учителя, наследие, образование, будущее поколение, проблемы, решения.

Abstract

This article discusses the importance of including engaging stories that illustrate the remarkable life experiences of Uzbek scientists, educators, and professionals from various backgrounds in school textbooks and university manuals. It explores how these narratives can inspire future generations and identifies shortcomings in textbook preparation.

Key words: Uzbekistan, great ancestors, ancestors, scientists, teachers, heritage, education, future generation, problems, solutions.

O‘zbek xalqi azal-azaldan o‘zining mehnatsevarligi, sabr-toqati, mehr-oqibati odamiyligi hamda halolligi bilan boshqa xalqlarga ibrat va namuna bo‘lib kelgan. Ammo bugungi kunga kelib bu fazilatlar boshqa xalqlarda ustuvorlik qila boshladi. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi. Buning sababi nimada?!

Bu holatni tahlil qilish jarayonida bir qator muammolarni kuzatishimiz mumkin. Masalan: O‘zbekistondagi, deyarli, ko‘pgina nashrlarda yoshlarimizga ibrat va namuna qilib ko‘rsatishimiz mumkin bo‘lgan bobolarimiz, olim-u akademiklarimizning hayot yo‘llari haqida yozilgan maqolalar, ocherklar juda ham kam. Yoritilayotganlari esa nashrlardagi iqtisodiy qiyinchilik hamda adadlarning kamligi sabab yurtdoshlarimizga to‘liq yetib bormayapti. Achinarlisi, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketganligi, yengil-yelpi “xayp”, “piar” ortidan quvib, vaqtini zoye ketkazishi, ma’nisiz “vayn”lar uchun vaqt sarflashi kelajak avlodimiz taqdiridan xavotirga tushishimizga asos bo‘la oladi.

Ommaviy axborot vositalaridan biri bo‘lgan televideniye yoshlar ongida katta ta’sir ko‘rsata olish kuchiga ega. Biroq, hozirgi kunda o‘zbek telekanallari yoshlar uchun nimalarni taqdim qilmoqda?!

Tabiiyki, bugungi kun yoshlari hazmi yengil bo‘lgan, o‘ynoqi teleshoularni ko‘rishga qiziqishadi. Ayni kunlarda “Hindu shou”, “Artist” loyihalari nafaqat yoshlar, balki kattalar orasida ham keng ommalashdi. Afsuski, bu ko‘rsatuvlarda ishtirok etayotgan ko‘pgina yoshlar o‘zining ichki iqtidorini, ijodiy qobiliyatini to‘liq namoyon qila olmaydi. Sababi bu ko‘rsatuvlarda, deyarli, boshqa millat san’atkorlariga bo‘lgan taqlid, yengil-yelpi ijrolar ustunlik qilmoqda. Shu o‘rinda barchamiz mulohaza qilib ko‘rishimiz kerakki, o‘z xalqimiz, millatimiz tarixi va an’anasini, san’at yo‘lidagi ajdodlarimiz merosini emas, o‘zga xalqlarning san’atini targ‘ib qilib nimaga erishamiz?! Bunday vaqtning kushandasi bo‘layotgan ko‘rsatuvlardan yoshlarimiz uchun qanday naf bor?!

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, har bir xalq, avvalo, o‘z tarixini, ajdodlari merosini, urf-odatini qadrlashi va uni kelajak avlodining ongiga singdirishi zarurdir. Shunday ekan, o‘zbek yoshlari o‘z ota-bobolari haqida qanchalik ma’lumotga ega?!

Hozirgi kun yoshlariga majburlab gazeta, jurnal o‘qitish yoki teleekran qarshisida o‘zi yoqtirmagan ko‘rsatuvni ko‘rsatish ham qiyin masala. Lekin maktab darsliklari hamda oliy ta’lim dargohlarida o‘qitiladigan qo‘llanmalarni ular o‘qib-o‘rganishga majbur. Shunday ekan, e’tiborni darslik va qo‘llanmalarga qaratmog‘imiz zarurdir.

Har bir davrning o‘z buyuklari — shoir, yozuvchi, san’atkor, bastakor, davlat arboblari, hattoki hunarmanlari ham bor. Ularning ibratli hayot yo‘llarini yoshlarga o‘rgatish, ko‘proq targ‘ib qilish, ularga namuna sifatida tanishtirish zarur. Sababi hozirgi kun yoshlari yengil-yelpi hayot tarzini o‘zlari uchun afzal deb o‘ylashmoqda va shu o‘y bilan o‘zlarining kelajak yo‘llarini tuman ichida qoldirmoqdalar. Aynan bu muammoning yechimi sifatida “Tarix”, “Ona tili”, “Adabiyot” hamda “Tarbiya” darsliklariga jiddiy e’tibor berilishi kerak. Mazkur darsliklarda bo‘limlarga ajratilgan holda ajdodlarimiz merosi har bir davrga moslab, qiziqarli hikoya yoki ma’lumotlar tarzda batafsil berib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Misol uchun, Respublika bolalar va o‘smirlar uchun mo‘ljallangan “Gulxan” jurnalida shunday ulug‘ ota-bobolarimiz, davlat arboblari, olimlar-u akademiklar, yozuvchi va shoirlar hamda san’atkorlarning hayot yo‘llari, ayniqsa, bolalik paytlaridagi qiziqarli va og‘riqli xotiralari “Mashhurlar bolaligi” rukni ostida muntazam yoritib boriladi. Yoritilganda ham har bir qahramonning bolalik, o‘smirlik, o‘rta yoshligi hamda keksalik paytlaridan olingan suratlari bilan dizayn qilinadi. Bu esa har bir o‘quvchi yoki muxlisning, hattoki o‘qituvchining o‘sha qahramon hayot yo‘llarini yaqqol tasavvur qilib, o‘rganishiga yordam beradi. Shuni

e’tiborga olish kerakki, jurnaldagi mazkur suhbatlar darsliklar uchun foydalanishga tayyor qo‘llanmadir.

Yuqori sinflar uchun mo‘ljallangan “Tarbiya” darsliklarini kuzatar ekanmiz, bolalar, ayniqsa, o‘smir yoshdagi o‘quvchilar uchun ibrat, namuna bo‘la oladigan mavzular kam ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Ota-bolalarimizning ibratli hayot yo‘llari haqida esa qiziqarli hikoyalar yetarlicha berilmagan. Aksincha, zamon bilan hamnafas bo‘lish degan fikr tor doirada qamrab olingan.

Shuni alohida e’tiborga olish zarurki, maktab darsliklari uchun tayyorlangan hikoyalar jumlasi yoki matnlar judayam uzun bo‘lmasligi, bolalar uchun sodda, ravon, tushunarli uslubda yozilgan bo‘lishi zarur.

Yana ahamiyat qaratish kerak bo‘lgan jihatlardan biri shuki, bugungi kun yoshlariga hadeb pand-nasihatga oid materiallarni taqdim etish bilan ularni mutolaaga jalb qilib bo‘lmaydi. Ularga ko‘proq zamonaviy uslubda, asosida esa oson xulosa berib, odob-axloqqa chorlay oladigan yo‘nalishdagi ijod namunalarini berishimiz zarur. Masalan, ota-bobolarimizning faqat pand-nasihatlarini emas, ularning hayotda o‘z o‘rnini topa olishigacha bo‘lgan jarayonlar, ko‘rgan qiyinchiliklari, olgan bilimlari, atrofidagilarning ko‘rsatgan yordami yoki iztiroblarini yoshlarga hikoya tarzda berish mumkin. Bu yo‘nalish esa hayotda o‘z o‘rnini topishga qiynalayotgan, arzimagan muammo qarshisida tushkunlikka tushib qolayotgan yoshlarning irodasini tarbiyalashda katta ko‘mak beradi.

Dunyodagi barcha sohalarda taraqqiyotga erishish, kamolotga yetishish yengillik bilan birdaniga amalga oshmaydi. Buning uchun yoshlarni sabr-bardoshli bo‘lishga, ilm yo‘llarini osonlashtirishga, bilim olishga qiziqtirish, rag‘batlantirish tomonlariga ham katta ahamiyat berishimiz zarur. Ana shundagina kamolot sari qadam qo‘yayotgan har bir yosh faqat chuqur bilim, ma’rifat, ilmiy izlanishlar borasidagi boy tajriba va malakasi bilangina kelajagi ushun saodatga erishishi mumkinligini his etadi, ular o‘z ota-bobolariga, Vatanga, ona tiliga, o‘z milliy an’analariga sodiq bo‘lib voyaga yetadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kelajak avlodni tarbiyalashda darslik va qo‘llanmalarning mazmun-mohiyatiga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish zarur. Ana shundagina bu darsliklar ajdodlar va avlodlar orasida katta ko‘prik vazifasini o‘tay oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Gulxan” adabiy-badiiy bezakli respublika bolalar jurnalining 2015 — 2022-yil sonlari;
2. 3-, 4-, 9-, 10-, 11- sinf “Tarbiya” darsligi
3. B. X. Umumiy pedagogoka nazariyasi va amaliyoti. T. : 2017.

4. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. T., Istiqlol, 2003.

Badriddinova Hilola
Oriental unversiteti talabasi
Tel.: (99894 6914347)
Mamtaliyeva Mavjuda
(998936926925)

BOLA TARBIYASIDA ALISHER NAVOIY IJODINING BEQIYOS O‘RNI

Anotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy ijodining bola tarbiyasidagi beqiyos o‘rni va hayotda bola tarbiyalashdagi ibratli hayotini tatbiq qilish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya hilm, rostgo‘ylik, adolat, ijobiy fazilatlar , komil inson.

Аннотация

В этой статье рассказывается о непревзойденной роли творчества Навои в воспитании детей и применении его поучительной жизни в воспитании детей.

Ключевые слова: Образование, воспитание, честность, справедливость, положительные качества, совершенный человек.

Annotation

This article talks about the incomparable role of Navoi's work in child education and the implementation of an instructive life in raising a child in life.

Key words: Training, upbringing, honesty, fairness, positive qualities, a perfect person.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyan i rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”, deya bejiz ta’kidlamadi. Navoiyning asarlari yillar davomida tadbiq qilinib kelinishi bejiiz emas. Bobomizning har bir asari mukammal yozilgan uni o‘rganib avlodlarga tadboq qilish juda zarur . Mana bu yil Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligi

nishonlanmoqda. Har yili Navoiy tavalludining keng miqyosda o‘tkazilishining sababi ham uning ibratli hayot yo‘li , har bir asarlarining chuqur ma’noga ega ekanligidadir Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo‘la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo‘shgan; ilm, fan, san’at rivojiga homiylik qilgan; tinchlik va totuvlik hukmron surishiga doim harakat qilgan. Alisher Navoiyning “Sher bilan Durroj” asarin i olsak. Asar juda ibratli bo‘lib bolalarni hayotda doimo rost gapirishga, to‘g‘riso‘zlikka undaydi, yolg‘oning umr qisqa ekanini yaqqol namoyon etadi. Kimki beixtiyor rost gapirsa, yolg‘on gapirsa ham, xalq uni rost deydi. So‘zda, Navoiy: “Nima desang ham, rostini gapir; rostni kuylagan ohanglarga tahsin ayt. Ey soqiy, yoqimli qadahni olib kel, uning bir qultumi bilan sherni oladigan qil. Bazmning asboblariga tartib ber, six, kabob, tovoqlarni ham hozir et”, – deydi. Hozirgi avlod uchun asosiy o‘rnak vazifasida chiroyli qilib filmlar shaklida ishlab chiqarilgan “Sher bilan Durroj” asarini bolalar maroq bilan ko‘rib, tafakkur qiladilar, kimdan o‘rnak olish kerakligi haqida mulohaza yuritadilar. Ma’naviy merosimiz durdonalari ichida “Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul- abror” dagi olti maqolat inson bezagi va ma’naviy boyligi bo‘lgan insoniy fazilatlar ta’rafiga bag‘ishlangan bo‘lib, ular saxovat, odob, qanoat, vafo, ishq, rostlik va ilmlilik fazlidan bahs yuritadi. Shu bilan birga, ularning ziddi bo‘lgan tuban fe’llar qoralanadi. Navoiy har bir bobda shu xislatlar tog‘risida alohida fikr bildirib, shunga mos ibratli hikoya ham keltiradi.

Shuningdek, Navoiy farzandga to‘g‘ri tarbiya berishga ahamiyat qaratib, unga yoshligidan rostgo‘ylik, va’dasiga vafo qilish kabi fazilatlarni o‘rgatish bilan bir qatorda farzandni ilmli qilishga ko‘proq e’tibor qaratish kerakligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Hozirgi zamonda hamma sharoitlar bor faqat undan oqilona foydalanishimiz zarur. Navoiy bola tarbiyasida va’dasiga vafo haqida bejiz gapirmagan, bunda o‘ziga xos chuqur ma’no bor, ya’ni aytilgan ishni vaqtida qilgan bola kelajakda mas’uliyatli shaxs bo‘lib kamol topadi.

“Hayrat ul- abror” dostonidagi hikoyatlar falsafiy-axloqiy qarashlarni ifoda etsa-da, mohiyatan insonni komillik, ilm -ma’rifat, iymon, qanoat, adolat kabi fazilatlar bilan kamolotga erishishga qayta - qayta da’vat qiladi. Asarning bosh g‘oyasi komil inson vasfiga bag‘ishlangani bois, Alisher Navoiy Allohning insonni yaratishdan maqsadi haqida fikr yuritar ekan, har bir davrning o‘z bahori va kuzi bo‘lishini aytib, ularni hikoyatlar, tarixiy shaxslar vositasi orqali yoritib beradi. Hazrat sermahsul ijodkor bo‘lib, yaratgan asarlari necha asrlar o‘tsa ham o‘z qiymati va o‘quvchilarini yo‘qotmagani ham pokiza insoniy qadriyatlarning go‘zal nazmiy usulda, chuqur falsafiy mushohadalar bilan ifoda etilganidandir. Alisher Navoiy ilm o‘rganishga intilishni inson kamolotini ta’minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur

fazilatlardan biri deb biladi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqazuvchi omil sifatida ta’riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g‘oyalar yordamida kishilarni ilmli va ma’rifatli bo‘lishga undaydi. Mutafakkir ilm o‘rganishni har bir kishining insoniy burchi deya e’tirof etadi. Zero, ilm o‘rganishdan maqsad ham xalqning farovon, baxtli-saodatli hayot kechirishini, mamlakatning obod bo‘lishini ta’minlashga hissa qo‘shishdir, deya ta’kidlaydi. Bilimli va dono kishilar hamisha o‘z xalqining manfaati hamda mamlakatining ravnaqi yo‘lida faoliyat olib borishlariga ishonadi.

Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o‘rni, bilimlarni o‘rganish asosida hosil bo‘lgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya va uning mohiyatini yoritishga alohida e’tibor qaratadi. Alloma insonga xos bo‘lgan ma’naviy – axloqiy xislatlari xususida so‘z yuritadi hamda mazkur sifatlarning har biriga to‘laqonli ta’rif berib o‘tadi. Qanoat, sabr, tavoze (adab), o‘zgalarga nisbatan mehr-muhabbatli bo‘lish, ishqda vafodorlik, sahovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko‘ngillik (hilm) kabi xislatlarni ijobiy fazilatlar sirasiga kiritadi va ularning har biriga ta’rif berganidan so‘ng tanbeh va hikoyatlar vositasida shaxsiy qarashlarini dalillar bilan to‘ldiradi. Asarda, shuningdek, axloqiy fazilatlarning antonimi hisoblangan salbiy illatlar va ulardan qutulish yo‘llari ham bayon etilgan.

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo‘lish insonga atrofdagi kishilar o‘rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo‘lishga yordam beradi. Odobga ega bo‘lishning inson hayotidagi rolini ko‘rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: “Adab kichik yoshdagilarni ulug‘lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo‘ladi. Adab, kichkinalar mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi va u muhabbat ko‘ngilda abadiy qoladi”.

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo‘lish insonga atrofdagi kishilar o‘rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo‘lishga yordam beradi.

Mutafakkir insonga xos bo‘lgan ma’naviy – axloqiy xislatlar xususidagi fikrlarini ularning har biriga to‘laqonli ta’rif berish asosida davom ettiradi. Chunonchi, «qanoat – buloqdir – suvi olgan bilan qurimaydi. Xazinadir – naqdinasi sochilgani bilan kamaymaydir. Ekinzordir – urug‘i izzat va shavkat mevasi beradir. Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkizadi”.

Hulosa qilib aytganda Alisher Navoiy asarlari bola tarbiyasi uchun ahamiyatli o‘rnakdir, ularni o‘qib o‘rganib hayotga tadbiq qilishimiz, bolalarimizga ibrat, namuna qilib ko‘rsatmog‘imiz zarurdir, Alisher Navoiy kabi komil inson bo‘lish uchun albatta sabr bilan ko‘p o‘qimoqlik, kattalarga hurmatda kichiklarga izzatda

bo‘lmoqlik hamda asosiysi ota - onaning duosini olib ularni rozi qilmoqlik bularning barchasi baxt- saodatning kaliti bo‘lgay.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Manba https://tafakkur. net/sher-va-durroj/alisher -navoiy.uz
2. Arboblar .uz
3. Xadicha .uz
4. https://azkurs.org/alisher-navoiy-asarlarining-tarbiyaviy-ahamiyati

Махмудова Диёра Акмалевна,
магистр, преподаватель ТГПУ им. Низами

ОТ КЛАССИКИ К СОВРЕМЕННОСТИ: ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ НАСЛЕДИЯ МОНТЕССОРИ И ПЕСТАЛОЦЦИ

Annotatsiya

Buyuk ajdodlarning merosi jamiyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada buyuk ajdodlar merosining kelajak avlod shaxsini tarbiyalash va shakllantirish jarayoniga ta’siri o‘rganiladi. Merosni uzatish mexanizmlari, uning qiymat yo‘nalishlarini shakllantirishdagi roli, madaniy merosni rivojlantirish ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ta’limni individuallashtirish, hissiy ta’lim muhiti, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘z-o‘zini o‘rganish, uyg‘un rivojlanish, tabiiy o‘rganish.

Аннотация

Наследие великих предков играет важную роль в формировании и развитии общества. В данной статье исследуется влияние наследия великих предков на процесс воспитания и формирования личности будущего поколения. Рассматриваются механизмы передачи наследия, его роль в формировании ценностных ориентаций, развитии культурного наследия.

Ключевые понятия: индивидуализация обучения, сенсорная обучающая среда, саморегуляция и самообучение, гармоничное развитие, естественное обучение.

Abstract

The heritage of great ancestors plays an important role in the formation and development of society. This article examines the influence of the heritage of great ancestors on the process of upbringing and personality formation of the future

generation. The mechanisms of heritage transfer, its role in the formation of value orientations, and the development of cultural heritage are considered.

Key concepts: individualization of learning, sensory learning environment, self-regulation and self-learning, harmonious development, natural learning.

Мария Монтессори и Иоганн Генрих Песталоцци - это два известных педагога 20 века, чьи вклады в область образования остаются значительными до сих пор.

Мария Монтессори (1870-1952) итальянская ученая и педагог, известная своим методом обучения, который ставит акцент на самостоятельности и свободе ребенка в обучении. Она разработала уникальные обучающие материалы, которые помогают детям понять абстрактные концепции через конкретные сенсорные опыты. Монтессори также подчеркивала важность создания стимулирующей среды и роли наблюдателя-педагога.

Итальянская врач и педагог, считается одним из наиболее влиятельных фигур в развитии дошкольного образования. Ее методика обучения, известная как методика Монтессори, стала популярной по всему миру благодаря своему инновационному подходу к обучению и воспитанию детей.

1. Индивидуализация обучения: Одним из ключевых принципов методики Монтессори является уважение к индивидуальным потребностям и способностям каждого ребенка. Монтессори верила, что каждый ребенок имеет врожденный потенциал для развития и обучения, и задача педагога - создать подходящую среду, которая позволит этот потенциал раскрыться.

2. Самостоятельное обучение: Методика Монтессори акцентирует внимание на самостоятельности и независимости ребенка в обучении. Она разработала специальные обучающие материалы, которые позволяют детям самостоятельно исследовать и познавать окружающий мир. Эти материалы стимулируют интерес и любознательность ребенка, способствуют развитию его мышления, моторики и навыков самостоятельности.

3. Подготовленная среда: Еще одним важным аспектом методики Монтессори является создание подготовленной среды, которая способствует активному обучению и развитию ребенка. Эта среда организована таким образом, чтобы быть доступной, безопасной и стимулирующей для самостоятельной деятельности детей. Она включает в себя специально подобранные материалы, разнообразные учебные зоны и возможности для исследования и экспериментирования.

4. Развитие сенсорных навыков: Методика Монтессори активно развивает сенсорные навыки детей, считая их основой для последующего интеллектуального и эмоционального развития. Специально разработанные

обучающие материалы позволяют детям исследовать различные сенсорные опыты, такие как осязание, зрение, слух и движение. Это помогает им лучше понимать и взаимодействовать с окружающим миром.

Вклад Марии Монтессори в развитие дошкольного образования трудно переоценить. Ее методика обучения стала образцом для многих педагогических практик по всему миру. Она продолжает вдохновлять педагогов и родителей своими идеями о независимом обучении, уважении к индивидуальным потребностям ребенка и создании стимулирующей обучающей среды.

Иоганн Генрих Песталоцци (1746-1827) - швейцарский педагог, рассматриваемый как один из основателей современной педагогики. Он верил в естественное развитие ребенка и утверждал, что обучение должно быть направлено на развитие всей личности, а не только интеллекта. Песталоцци также подчеркивал важность эмоциональной составляющей в обучении и воспитании.

1. Вклад Йоганна Генриха Песталоцци в развитие дошкольного образования был значительным и оказал глубокое влияние на формирование современных педагогических практик. Песталоцци разработал целостную педагогическую философию, которая была

направлена на создание благоприятной образовательной среды для детей, основанной на принципах эмоционального и нравственного воспитания, индивидуализации обучения и активного участия ребенка в образовательном процессе.

2. Одним из ключевых аспектов педагогической концепции Песталоцци было признание важности эмоциональной и моральной составляющих в развитии ребенка. Он считал, что воспитание должно основываться на любви, уважении и заботе о каждом ребенке. Песталоцци придавал большое значение эмоциональной связи между учителем и учеником, создавая тем самым доверительную атмосферу, в которой дети чувствовали себя защищенными и могли развиваться гармонично.

3. Еще одним важным аспектом педагогической концепции Песталоцци была идея индивидуального подхода к каждому ребенку. Он признавал, что каждый ребенок уникален и имеет свои особенности и потребности. Поэтому он акцентировал внимание на индивидуальном развитии каждого ребенка, стимулируя его натуральные способности и творческий потенциал.

4. Песталоцци также выступал за активное использование игры как основного метода обучения. Он видел в игре не только средство развлечения, но и мощный инструмент развития детского мышления, воображения, социальных навыков и нравственности. Поэтому в его педагогической практике большое внимание уделялось организации игровой деятельности, которая стимулировала творческое мышление и самостоятельность у детей.

Таким образом, вклад Йоганна Генриха Песталоцци в развитие дошкольного образования заключается в создании целостной педагогической концепции, основанной на принципах эмоционального и нравственного воспитания, индивидуализации обучения и активного использования игры как основного метода обучения. Его идеи и методы до сих пор актуальны и оказывают значительное влияние на современные педагогические практики в дошкольном образовании.

Оба педагога оказали значительное влияние на развитие образования и внесли важные вклады в методики и философию дошкольного и общего образования. Их идеи и методы до сих пор используются в образовательных учреждениях по всему миру и продолжают вдохновлять педагогов на развитие новых подходов к обучению и воспитанию детей.

Наследие Монтессори и Песталоцци в развитии дошкольного образования включает в себя следующие ключевые принципы:

1. Индивидуализация обучения: учет индивидуальных потребностей, интересов и способностей каждого ребенка.
2. Активное участие ребенка в обучении: создание среды, которая способствует самостоятельному изучению и позволяет детям активно участвовать в процессе обучения.
3. Развитие гармоничной личности: учитывание физических, эмоциональных, интеллектуальных и нравственных аспектов развития ребенка.
4. Специально разработанные обучающие материалы: использование материалов, способствующих конкретным аспектам развития ребенка и его обучению.
5. Роль педагога как наблюдателя и руководителя: создание стимулирующей среды и оказание поддержки ребенку в его обучении, а не просто передача знаний.

Оба этих подхода считаются важными и актуальными в современном дошкольном образовании, и многие дошкольные учреждения во всем мире интегрируют элементы как метода Монтессори, так и идей Песталоцци в свою педагогическую практику.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Handbook of Research on the Education of Young Children. Edited by Bernard Spodek. Routledge, 2006. [2;77]
2. Lillard, Angeline Stoll. “Montessori: The Science Behind the Genius”. Oxford University Press, 2008. [2;400]
3. Miller, Patricia Oriti. “Pestalozzi and the Educationalization of the World.” Peter Lang Inc., International Academic Publishers, 2015. [3;27]
4. Montessori, Maria. “The Montessori Method.” Montessori-Pierson Publishing Company, 2018. [4;107]
5. Silberman, Mel. “Pedagogy of the Oppressed”. Continuum, 2000. [4;60]

2- SHO‘BA. *MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA O‘QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI*

Халилова Шахноза Тургуновна
Доктор педагогических наук, профессор
Тел: (+99890) 9538019
Тургунова Камилахон Тулкун кизы
Студентка Прикладного института

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация

Эта статья посвящена изучению инновационных методов обучения в дошкольном возрасте, подчеркивая их значимость в современном образовательном ландшафте. Она охватывает широкий спектр подходов, включая игровое обучение, использование цифровых технологий, развитие эмоционального интеллекта, индивидуализированное обучение, а также взаимодействие с семьей и сообществом. Основное внимание уделяется тому, как эти методы способствуют всестороннему развитию ребенка, подготавливая его к академическим и жизненным вызовам. Статья предоставляет ценные сведения о том, как инновационные образовательные стратегии могут быть интегрированы в дошкольное образование для создания более динамичного и вовлекающего обучающего опыта.

Ключевые слова: инновационные методы обучения, игровое обучение, цифровые технологии в образовании, развитие эмоционального интеллекта, индивидуализированный подход, сотрудничество с родителями, мультикультурное образование.

Annotation

This article explores innovative teaching methods in preschool, highlighting their importance in the modern educational landscape. It covers a wide range of approaches including playful learning, digital technology, emotional intelligence, personalized learning, and family and community engagement. The focus is on how these methods promote the holistic development of a child, preparing him for academic and life challenges. The article provides valuable insights into how innovative educational strategies can be integrated into early childhood education to create more dynamic and engaging learning experiences.

Key words: innovative teaching methods, game-based learning, digital technologies in education, development of emotional intelligence, individualized approach, cooperation with parents, multicultural education.

Annotatsiya

Ushbu maqola maktabgacha ta’lim muassasalarida innovatsion o‘qitish usullarini o‘rganadi, ularning zamonaviy ta’lim landshaftidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. U o‘ynoqi o‘rganish, raqamli texnologiyalar, hissiy intellekt, shaxsiylashtirilgan ta’lim, oila va jamiyat ishtiroki kabi keng ko‘lamli yondashuvlarni qamrab oladi. Asosiy e’tibor bu usullar bolaning har tomonlama rivojlanishiga yordam berishi, uni o‘quv va hayotiy qiyinchiliklarga tayyorlashga qaratilgan. Maqolada innovatsion ta’lim strategiyalarini erta bolalik davridagi ta’limga qanday qilib yanada dinamik va jozibador o‘rganish tajribasini yaratish mumkinligi haqida qimmatli tushunchalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qitishning innovatsion usullari, o‘yinga asoslangan ta’lim, ta’limda raqamli texnologiyalar, hissiy intellektni rivojlantirish, individual yondashuv, ota-onalar bilan hamkorlik, ko‘p madaniyatli ta’lim.

В современном мире, где технологии и образовательные тенденции развиваются с невероятной скоростью, важность инновационных методов обучения в дошкольном возрасте становится всё более очевидной. “Дошкольные годы являются критически важным периодом для развития ребёнка, во время которого закладываются основы когнитивных, социальных, физических и эмоциональных навыков” [1; 12].

Инновационные методы обучения в это время могут играть ключевую роль в стимулировании любознательности, креативности и готовности к обучению у детей. Эти методы отходят от традиционных подходов, сосредотачиваясь на более активном и интерактивном участии ребенка в процессе обучения. “Они включают в себя разнообразные стратегии, такие как игровое обучение, использование цифровых технологий, подходы, основанные на исследованиях и открытиях, а также методы, направленные на развитие эмоционального интеллекта и социальных навыков” [3; 56].

В этой статье мы рассмотрим, почему инновационные методы обучения являются неотъемлемой частью дошкольного образования, какие существуют подходы и как они могут быть интегрированы в образовательный процесс для обеспечения всестороннего развития детей дошкольного возраста.

Основная часть

1. Игровое обучение как фундамент развития: Игра является естественным способом обучения для детей дошкольного возраста. Инновационные методы, включающие игровое обучение, направлены на

развитие критического мышления, творчества и социальных навыков. Например, ролевые игры помогают детям учиться эмпатии и командной работе, в то время как конструкторы и пазлы способствуют развитию пространственного мышления и моторики.

2. Технологии в дошкольном образовании: Цифровые инструменты и образовательные приложения открывают новые возможности для обучения. Они делают образовательный процесс более интерактивным и увлекательным, позволяя детям исследовать и обучаться через игру. Применение технологий также помогает развивать цифровую грамотность с раннего возраста.

3. Подходы, основанные на исследованиях и открытиях: Этот метод подразумевает создание обучающей среды, где дети могут экспериментировать и исследовать. Например, простые научные эксперименты, наблюдение за растениями и животными, исследование различных материалов помогают детям понимать основы науки и окружающего мира.

4. Развитие эмоционального интеллекта и социальных навыков: Эти методы включают в себя активности, направленные на обучение детей пониманию и выражению своих чувств, а также развитие навыков общения и решения конфликтов. “Игры на развитие эмоционального интеллекта, групповые дискуссии и совместные проекты способствуют формированию у детей навыков, необходимых для успешного взаимодействия с другими” [4; 87].

5. Индивидуализированный подход в обучении: Важность учитывать индивидуальные особенности каждого ребенка в образовательном процессе. Инновационные методы обучения предусматривают адаптацию программ и активностей к уникальным потребностям и интересам каждого дошкольника, что способствует более глубокому и эффективному усвоению знаний.

6. Сотрудничество с родителями и сообществом: Вовлечение семьи и более широкого сообщества в образовательный процесс. “Родительские встречи, совместные мероприятия и проекты, а также обмен информацией и ресурсами между учебными заведениями и домом, способствуют созданию согласованной и поддерживающей среды для детей” [2; 49]. Это обеспечивает более полное вовлечение детей в образовательный процесс и усиливает связь между учебой и реальной жизнью.

7. Мультикультурное образование: Включение элементов различных культур в образовательный процесс помогает детям узнавать и ценить разнообразие мира с раннего возраста. Это может включать в себя изучение

различных языков, праздников, традиций, музыки и искусства разных стран и культур.

Заключение.

Инновационные методы обучения в дошкольном возрасте играют жизненно важную роль в развитии молодых умов, подготавливая их к будущим академическими жизненным вызовам. От игрового обучения до интеграции цифровых технологий, от развития эмоционального интеллекта до укрепления физических навыков - все эти подходы совместно способствуют созданию всесторонне развитого, творческого и адаптивного поколения. “Важность индивидуализированного подхода, сотрудничества с родителями и сообществом, а также включения мультикультурных и экологических элементов в образовательный процесс не может быть недооценена. Эти методы обучения не только обогащают образовательный опыт детей, но и способствуют формированию у них уважения и понимания разнообразия культур и среды обитания. В конечном счете, инновационные методы обучения в дошкольном возрасте закладывают фундамент для всестороннего развития ребенка, делая процесс обучения не только эффективным, но и увлекательным” [5; 44]. Это вложение в будущее, которое помогает детям не только накапливать знания, но и развивать важные жизненные навыки и ценности, которые останутся с ними на всю жизнь.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Иванова, Н.Е. (2022). “Инновационные подходы в дошкольном образовании”. Москва: Просвещение.

2. Петрова, С.В., Иванова, Л.И. (2021). “Современные технологии в работе с дошкольниками”. Санкт-Петербург: Детство-Пресс.

3. Халилова, Ш.Т. (2018). “Эмоциональное развитие детей дошкольного возраста”. Ташкент: Фан ва технологиялар.

4. Халилова, Ш.Т. (2021). “Мультикультурное образование в дошкольных учреждениях”. Ташкент: Фан.

5. Халилова, Ш.Т. (2019). “Индивидуальный подход в воспитании и обучении дошкольников”. Ташкент: Фан ва технологиялар.

Mamanazar Djumaev
Nizomiy nomidagi TDPU professori,
Sharifova Gulpari Sharifova
TPIP filolog. fan.nom. (Tojikiston)

MAKTABGACHA TA’LIM TAYYORLOV GURUHDARI VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QITISHNING TA’lIM UZVIYLIGI HAMDA UZLUKSIZLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada uzluksiz ta’lim tizimida fan dasturlarining uzviyligi ta’minlanmaganligi ta’lim sifati va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ta’lim turlariaro mavzularning takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko‘p soat ajratilgani, fan mazmuni, deyarli, nazariy ma’lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar va Maktabgacha ta’limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga va ta’lim-tarbiya jarayonlarini talab darajasida tashkil etishdagi xususiyatlar yortilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, uzluksiz ta’lim, kompetensiya, matematika, pedagogika, ta’lim va tarbiya.

Аннотация

В статье отмечается отсутствие преемственности научных программ в системе непрерывного образования, негативно влияющее на качество и эффективность образования, повторение междисциплинарных предметов, слишком большое количество часов, отводимых на некоторые предметы, содержание науки, почти теоретические проблемы, выделены такие как информативность и отсутствие интеграции международных исследований, а также характеристики успешной реализации государственной политики в области развития дошкольного образования и организации образовательных процессов на необходимом уровне.

Ключевые слова. Дошкольное образование, начальное образование, дополнительное образование, компетентность, математика, педагогика, воспитание и обучение.

Annotation

In the article, the lack of continuity of science programs in the continuous education system has a negative impact on the quality and efficiency of education, the repetition of interdisciplinary subjects, too many hours allocated to some subjects, the content of science, almost theoretical problems such as data-based and lack of integration of international research, and the characteristics of successful implementation of state

policy in the field of development of preschool education and organization of educational processes at the required level are highlighted.

Key words. Pre-school education, primary education, additional education, competence, mathematics, pedagogy, education and training.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarori ilovasining 4-bandiga ko‘ra “Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim o‘quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta’minlash” vazifasi belgilangan.

Qaror ijrosiga binoan Uzluksiz ta’lim tizimida matematika fani uzviyligini ta’minlagan holda milliy o‘quv dasturi majmuasini tayyorlashning maqsad va vazifalari belgilandi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Maktabgacha ta’lim, Xalq ta’limi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirliklari hamkorligida 32 nafar matematika fani olimlari, tajribali mutaxassislardan iborat ekspertlar guruhini tashkil etdi. Ular ko‘magida matematika fanidan har bir ta’lim turi uchun konsepsiyalar va alohida o‘quv dasturlari loyihalari tayyorlandi hamda Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi portaliga (http://www.uzviylik.tdi.uz) joylashtirildi. Portalga 100 ga yaqin taklif va mulohazalar kelib tushgan.

Uzluksiz ta’lim tizimida fan dasturlarining uzviyligi ta’minlanmaganligi ta’lim sifati va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’lim turlariaro mavzularning takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko‘p soat ajratilgani, fan mazmuni, deyarli, nazariy ma’lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar aniqlandi. Xususan, Finlyandiya tajribasi o‘rganildi.

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturlarini tahlil qilishda YunISEF ko‘magida Singapur, Koreya, Yaponiya, Gonkong dasturlari, Prezident maktablari bilan Kembrij tajribasi va o‘quv dasturlari o‘rganildi. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tizimlarida matematika fanini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimining 2030-yilgacha konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF- 5712-sonli Farmoni, 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlandi. Uning maqsadi fuqarolarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini va ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini belgilash hamda har kimning bilim olishda konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tizimida. Davlat talablari tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning bilim-ko‘nikmalari beshta asosiy rivojlanish sohalari asosida belgilanadi. O‘z navbatida, har bir rivojlanish tizimi kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta kutilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlaridan (talablardan) iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, “Men” obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi.

Maktabgacha ta’limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga va ta’lim-tarbiya jarayonlarini talab darajasida tashkil etishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar mavjud. Bular quyidagilar:

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim samaradorligini baholash va takomil-lashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida ishlarning to‘laqonli yo‘lga qo‘yilmaganligi;

– ta’lim-tarbiya usullarining ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarning yo‘qligi;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilar uchun zamonaviy sharoit va ehtiyojlar asosida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik adabiyotlar yetarli darajada ta’minlanmaganligi;

– mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ta’limiy islohotlarga hamohang tarzda maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun matematik tasavvurlarni shakllantirish bo‘yicha zamonaviy mazmun-mohiyatini kasb etuvchi metodik ishlanmalar yetarli darajada yaratilmaganligi;

– zamonaviy o‘quv metodik materiallar va ko‘rgazmali qurollarning yetishmasligi;

– ilg‘or ish tajribalarni o‘rganish, ularni ommalashtirish ishlari talab darajasida tashkil etilmaganligidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli

Farmoni asosida 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy- tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli qarori, 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta’limini har tomonlama takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan.

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofimizdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga egaki, matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish hamda fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham *matematik madaniyat* umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi va matematika jamiyatimizning barcha jabhalariga juda katta madaniy qiymat qo‘shadi.

STEAM (S – science – tabiiy fanlar T – technology – texnologiya, E – enginee ring – muhandislik, A – art –san’at, M – mathematics –matematika) ta’lim texnologiyasi aniq fanlar blok-modulida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu texnologiyani amalga oshirishda o‘quvchilar tomonidan turli texnik qurilmalarni yasash uchun loyihalar yaratish, loyiha asosida qurilmaning maketini yaratish va uni amaliyotda ishlatib ko‘rish, kamchiliklarini topish hamda uni bartaraf etish kabi vazifalar bajariladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, xalq ta’limi tizimida matematika fanini o‘qitishni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq:

– matematika fani davlat ta’lim standarti talablarining, avvalo, kelajakdagi zamonaviy davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib XXI asr ko‘nikmalariga mos ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash;

– maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy-uslubiy tadqiqot tuzilmalari o‘rtasidagi yaqin hamkorlikni, uzluksizlikni va uzviylikni ta’minlovchi yaxlit tizimni shakllantirish;

– umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida matematika fanlarini o‘qitish sifatini oshirish, hududlarda matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini tashkil qilish va faoliyatini rivojlantirish;

– matematika fani bo‘yicha kadrlarni, xususan, qishloq joylardagi maktablarning kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

– matematika fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish;

– iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularning matematika fani bo‘yicha mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini hamda sovrinli o‘rinlarni egallashini ta’minlash;

– matematika fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim- tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

– matematika fanining mazmunini takomillashtirish, optimallashtirish va uni boshqa umumta’lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasini kuchaytirish;

– o‘quvchilarda o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, matematik savodxonlik, tanqidiy, kreativ va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish;

– matematikani o‘qitish jarayoni samaradoriligini va natijaviyligini ta’minlashda zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish;

– o‘quvchilar yutuqlarini baholashning ilg‘or xorijiy tajribalari va bu boradagi xalqaro tadqiqotlar natijalariga tayanib, yangi baholash tizimini yaratish hamda u asosida matematika fanini bilish darajasini baholash bo‘yicha milliy sertifikatlash tizimini joriy qilish;

– matematika fanini o‘qitishni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, jumladan, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan, elektron darslik hamda zamonaviy laboratoriya jihozlaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi ilmiy yo‘nalishlari va tamoyillarini tatbiq etish;

– ta’lim va tarbiyani uyg‘un olib borish, o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki ma’naviy, axloqiy yetuk shaxs sifatida shakllantirish;

– matematika fanini o‘qitishning ilmiy metodik ta’minotini rivojlantirish;

– xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan yoshlar va ularning murabbiy ustozlari mehnatini rag‘batlantirish tizimini takomillashtirib borish;

– ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

– matematika fani yo‘nalishida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

Amaliyot standartlari. Qisqacha tavsifi: amaliy standartlar barcha darajadagi matematika fani o‘qituvchilaridan o‘quvchilar mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishga intilishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar turlarini belgilaydi.

Mazkur standartlar o‘quvchilarning quyidagi aqliy faoliyati sohalarini qamrab oladi (kelgusida ishlatish qulay bo‘lsin uchun aqliy faoliyat sohalari, mos ravishda M1,

M2, M3, M4 va M5 bilan kodlanadi):

1. Matematik amaliyot standartlar har bir sinf kesimida mazmun standartlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tegishli mazmun standartlarida o‘z aksini topgan. Tegishli yosh fiziologik imkoniyatlari va aqliy faoliyat sohalaridan kelib chiqib singdirilgan.

Shu bois, amaliyot standartlarini har bir sinf kesimida yana alohida aniqlashtirib o‘tirmaymiz.

2. Mulohaza yuritish (M1). Matematikaga oid fikrni asoslash, isbotlash yoki o‘zgalar fikriga munosabat bildirish uchun mantiqan asosli va tushunarli dalillarni keltirish.

3. Modellashtirish (M2). O‘quv va hayotiy muammolarni matematika tilida ifodalash, ularning matematik modelini qurish.

4. Muammoni echish (M3). Matematikani qo‘llab, muammoni hal qilish.

5. Muloqot qilish (M4). Matematik tushuncha, belgi va timsollar asosida matematika tilida o‘zaro muloqot qilish.

6. Ma’lumotlar bilan ishlash (M5): ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va turli shakllarda tasvirlash.

Matematika ta’limining ahamiyati uning fan-texnika taraqqiyotida, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Iqtisodiy talablarni bajarish uchun bunyodkor hamda ijodkor kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda, bu yutuqlardan iste’molchi sifatida foydalanuvchilarga ham sifatli ta’lim berilishi lozim.

Fan- texnikaning keskin rivojlanishi, olamning globallashuvi hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning taraqqiy etishi insonlarning dunyoqarashini, muvaffaqiyatga erishish usullarini, inson salohiyati, qobiliyati hamda yaratuvchanlik faoliyati jamiyatning asosiy kapitali bo‘lib xizmat qiladi. Bu holatda jamiyatdagi har bir o‘quvchi shaxsining jamiyatda raqobatbardosh bo‘lib shakllanishi, o‘zgaruvchan ijtimoiy- iqtisodiy muhitga moslashuvchan, faol, ijtimoiy yetuk salohiyatli, yuqori darajadagi bilim egasi, ruhan va qalban chiniqqan komil insonni shakllantirish davlatimiz oldidagi vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to‘g‘risida. Uzbekiston Respublikasi rezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.

2. Дрига, В.И. Развитие профессиональной карьеры современного педагога в условиях творческого образования / В.И. Дрига // Стандарты и мониторинг в образовании.— 2012.— № 4.— С. 48–51.

3. Djumaev M. Mathematical regularity and development of creative thinking of students. Deutsche internationale Zeitschrift für zeitgenössische Wissenschaft /German International Journal of Modern Science. Edition: № 28/2022 (February) – 28th Passed in press in February 2022 №28 2022. 26-28 st.

4. Dzhumaev Mamanazar Irgashevich, professor at the Tashkent State University named after Nizami. Tashkent city (Uzbekistan). Use of Computer Software in Education of Students in Primary School and Preschool. www.biogenericpublishers.com.28.09.2021 AngilY.

5. Джумаев М. Реализация профессиональной компетентности педагогов как средство методико-математической подготовки и вуза. Ямало.Россия.12.12.2021г. Журнал. “Профессиональное образование арктических регионов” № 4, декабрь 2021 г. 7-8 ст.

6. Фридман Л.М. Как научиться решать задачи. Москва.: Просвещение, 2005. 132 с. 7. Петерсон Л.Г. Моделирование как средство формирования представления о пяти функциях в 4-6 классах средней школы. Дис. ни соиск. уч. степ. кан. пед. наук. -М., 1984. -201с.

Internet saytlari

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.edu.uz

www.nadlib.uz (A. Navoiy nomidagi O‘z.MK)

http://ziyonet.uz – Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portal

Saibova Iroda Baxtiyarovna

Oliy toifali matematika o‘qituvchisi

Xalqaro baholash va pedagogik mahorat

ilmiy-amaliy markazi direktor o‘rinbosi

O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING YANGI TIZIMI

Annotatsiya

O‘quvchilarning ta‘limiy maqsadga erishishganliklarini mezonlarga asoslangan baholash tizimi yordamida aniqlash haqida. Pedagogik amaliyotda baholash faoliyati eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu muammoni hal qilish uchun mezonlarga asoslangan baholash texnologiyasi joriy etilgan. Bu o‘quvchilarning individual o‘sish dinamikasini qayd etish imkonini beradi va uning har tomonlama rivojlanishiga imkoniyat beradi.

Kalit so‘zlar: mezonlarga asoslangan baholash, formativ baholash, summativ baholash, mulohaza yuritish.

Abstract

In the introduction to the primary school of the new standard learning problem evaluation activities in the pedagogical practice is one of the most urgent problems. To address this problem introduced the technology of criteria-based assessment, which allows to capture the dynamics of the individual growth of each student and promotes integrated development.

Key words: criteria-based assessment, formative assessment, summative assessment, reflection.

Hozirda yoshlar ma’naviy hamda ta’lim-tarbiya jihatidan kuchli va raqobatga chiqa oladigan bo‘lishlari kerak. Ular o‘z bilim va malakalari bilan dunyo miqyosiga chiqishlari va yurtimiz kuch-qudratini butun jahonga ko‘rsatishlari lozim. Vatanimiz yoshlarini har jihatdan qo‘llab-quvvatlashda ham gap ko‘p. Ularning zamonaviy bilim egallashlari, yetuk ma’naviyatli inson bo‘lib kamol topishlari uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish borasidagi ishlar izchil davom etmoqda.

Yurt yuksalishining muhim kafolati xalqning kuchli bilimga ega ekanligi sanaladi. Hech bir mamlakat o‘z aqliy quvvat va imkoniyatlariga tayanmay, inson tafakkurida ma’naviy, aqliy va axloqiy qadriyatlarni rivoj toptirmay, jamiyatning milliy ruhini uyg‘otmay turib, buyuk taraqqiyot darajasiga ko‘tarilmagan va ko‘tarila olmaydi ham. Yurtimizdagi bu boradagi o‘zgarishlar tahsinga sazovor. Darhaqiqat, komillik o‘zlikni va dunyoni anglash orqali amalga oshadi. Bunga esa bilim va malakani muttasil oshirish orqali boriladi. Bilimni oshirish va o‘z bilimi darajasi qanday ekanligini inson o‘lchab boradi, buni bilishni istaydi. Mana shunday vaqtda nafaqat o‘quvchilar uchun, balki har qanday insonning o‘zi uchun test sinovlari, amaliy topshiriqlar qo‘l keladi. Inson shu ma’noda hayoti davomida o‘zi uchun xayolan turli savollarni ham tuzadi, ularning javoblari va variantlarini ham o‘ylab topadi, yechadi. Ya’ni, mohiyatan olib qaraganimizda, keng ma’noda, turli topshiriqlar bizning kundalik hayotimizda ham mavjud ekan.

Amaliy topshiriqlar yaratish tizimli jarayon bo‘lib, uning bir necha bosqichlari mavjud.

- ✓ Topshiriqlarning maqsadini aniqlash.
- ✓ Topshiriqlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yaratish.
- ✓ Topshiriqlarning o‘ziga xos xususiyatlari asosida savollar topshiriqlarini shakllantirish.
- ✓ Topshiriqlarni mutaxassislar yordamida tahlil etish va lozim o‘rinlarda tuzatishlar kiritish.

- ✓ Topshiriqlarining dastlabki aprobatsiyasini o‘tkazish va lozim o‘rinlarda tuzatishlar kiritish.

Amaliy mashg‘ulot topshiriqlarini yaratishning bosqichlari mavjud bo‘lib, ulardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz. Ular quyidagilardan iborat:

1-bosqichda uning maqsadi aniqlanadi. Masalan, o‘quvchilarning bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash uchun ishlatiladigan topshiriqqa har doim ular xatoga yo‘l qo‘yadigan nuqtalar kiritiladi.

2- bosqichda baholanishi kerak bo‘lgan domen va konstruktlar aniqlanadi. Buning uchun bir qancha usullar qo‘llanishi mumkin. Ulardan biri- ta’lim standartlarida belgilangan maqsadlarni tahlil etish.

3-bosqichda topshiriq spetsifikatsiyasi yaratiladi. Spetsifikatsiyada baholanishi lozim bo‘lgan domen va konstruktning har bir elementi qanday va nechta sondagi topshiriqlar yordamida tekshirilishi aks etadi.

Keyingi bosqichlarda topshiriqlar yaratiladi va mutaxassislar tomonidan tahlil etiladi. Topshiriqlarni tahlil etishda savol tuzish qoidalariga amal qilinganligi, tushunarliligi, aniqligiga e’tibor beriladi.

6-bosqichda topshiriqlarning dastlabki aprobatsiyasi o‘tkaziladi.

Ushbu bosqichlar har qanday topshiriq yaratishda zarur hisoblanadi. Ulardan biri- aprobatsiya. Yaratilgan topshiriqlarning yaroqliligini tekshirish maqsadida aprobatsiyadan o‘tkaziladi.Talabga javob bermaydigan topshiriqlar qayta ko‘rib chiqiladi. Fikrimizning dalili sifatida misollarga yuzlanamiz.

Tasavvur qiling: O‘z parashyutingizni parvozga tayyorlashni qaysi o‘quvchiga ishonib topshirar edingiz?



Nima uchun?

Asosiysi, jarayon emas, balki natija.

Baholashning qanday turlari bor?

Bilish nima? Sinash nima? Shu savollarga javob bering-chi.

Formativ baholash deymiz. Formativ so‘zining ma’nosi nima?

Formativ baho shakllantirish va yo‘naltirish uchun muhim.



Masalan, men robot yaratishim kerak. Avval ber detalini yaqaratdim. Uni yaratishda xatolikka yo‘l qo‘ymadimmi, to‘g‘ri yo‘ldamanmi? Bu savollarga javob berish uchun formativ baho zarur. Butun bir oyoqni yaratdim. Bu oyoq ishlayaptimi yo‘qmi, buni bilishimiz muhim-bu BSB (Bo‘lim bo‘yicha summativ baholash). Robotning hamma qismlari tayyor bo‘ldi va uni sinab ko‘rishimiz kerak. Bu sinov-CHSB (choraklik summativ baholash).

Formativ baho- yo‘naltirish uchun Summativ baho- sinash uchun. Formativ baho- ko‘nikmalarning shakllanishiga yordam berish uchun jarayonni baholaydi. Summativ baho- natijani baholaydi.
Formativ va summativ baholash uchun: qo‘llash vaqti, baholash maqsadi, qayta aloqaning muhimligi, natija ballining muhimligi haqida fikr yuritib ko‘raylik.



Formativ baholash uchun: qo‘llash vaqti- har darsda, baholash maqsadi- shakllantirish, qayta aloqaning muhim, natija balli muhim emas.
Summativ baholash uchun: qo‘llash vaqti- bob (chorak) oxirida, baholash maqsadi- sinash, qayta aloqaning muhim emas, natija balli muhim.

Endi ushbu tarqatma materiallarni formativ va summativ baholash uchun moslab ajratib ko‘ramiz.

Ish natijasini tekshirib ko‘rishingiz mumkin.

Demak, barholash- formativ baholash va summativ baholashdan iborat.

Formativ baholash- ta‘lim olish uchun. Summativ baholash- olingan ta‘limni baholash





5 ballik tizimning mezonlarga asoslangan baholashdan farqi nimada? 5 ballik tizimda eng yaxshi ishga 5 ball beramiz. 1 ta xatoga 4 ball va h.k. Mezonlarga asoslangan baholashda esa har bir bajarilgan ishi uchun, ko‘nikmasi uchun ma’lum ball yig‘ib boriladi.

Bunda bilish, qo‘llash va mulohaza qilish ko‘nikmalari baholanadi.

2. Bilish, qo‘llash, mulohaza qilish ko‘nikmalarini baholash maqsadlari.

Baholash topshiriqlari qanday ko‘nikmalarni tekshiradi? Blum taksonomiyasiga asosan topshiriqlar turi quyidagi darajada bo‘ladi:

1-jadval

Reproduktiv daraja	Reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotirlash qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalar, formula, tushuncha va atamalarning mohiyatini bilish, yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda qo‘llashga qaratilgan.
Produktiv daraja	Produktiv o‘quv topshiriqlari – o‘quvchilardan o‘rganilgan matematik masalani yechishda mavzuga oid qonun va qonuniyatlar, xossalar va formulalarni qo‘llash, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, bir nechta

	qonun va qonuniyatlarni bir vaqtda qo‘llab, umumlashtirish va xulosa yasashni talab qiladi.
Mulohaza darajasi	Intellektual darajadagi topshiriqlar o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni **notanish vaziyatlarda** qo‘llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, bir necha qonun va qonuniyatlarni qo‘llab, umumlashtirishni talab qiladi.

Summativ baholash topshiriqlarining ballari taqsimoti quyidagicha: bilish ko‘nikmasini baholaydigan topshiriqlar yig‘iladigan ballning 15%, qo‘llash-70% va mulohaza yuritish-15% ini tashkil etadi.



TIMSS tadqiqotlarida 4-sinf o‘quvchilari uchun berilgan quyidagi topshiriqlarni qanday ko‘nikmani baholashini aniqlab ko‘raylik.

1.Yer – Quyosh atrofida aylanuvchi sayyoralardan biri.

Quyosh atrofida aylanayotgan sayyoralarning yana 2 tasining nomini yozing.

1._____

2._____

Bu topshiriq **reproduktiv darajadagi topshiriq.**

Plastik mashinaning yuqori qismiga magnit yopishtirildi.

Mashina oldinga harakat qilishi uchun magnitni qaysi holatda ushlash kerak? Javobingizni asoslang.

2. Doirada nuqtalarni tutashtirib, teng tomonli uchburchak yasang.

Doiradagi qaysi nuqtalarni tutashtirdingiz?

_____

Bu topshiriq **produktiv darajadagi topshiriq.**

3. Mansur A shahridan chiqib, bir xil tezlikda 2 soat yo‘l yurdi va rasmdagi yo‘l belgisiga yetib keldi.

Shu belgi yonidan B shahriga yetib borish uchun necha soat kerak bo‘ladi?

Bu topshiriq **mulohaza darajadagi topshiriq.**

1. Boburjon shakarni suvda erishiga haroratning ta’sirini o‘rganish bo‘yicha tajriba o‘tkazdi. U turli haroratda 1 litr suvda qancha shakar erishini o‘lchadi va natijalarini grafikda tasvirladi. Grafiklarning qaysi biri Boburjonnong natijasini ifodalaydi?





Bu topshiriq **mulohaza darajadagi topshiriq.** Demak, qo‘llash uchun bilish lozim. Mulohaza yuritish uchun ham bilish, ham qo‘llay olish kerak.

Madina maktabda matematika fanidan “4” bahoga o‘qiydi. Madina boshqa sinfda yoki boshqa maktabda, yoki boshqa o‘qituvchida o‘qiganida ham “4” baho olarmidi? Albatta ,yo‘q. Chunki baholar nisbiy qo‘yiladi. Madina kimdandir yaxshiroq javob berar, kimdandir esa yomonroq. Ularga nisbatan baho olardi. Shavkatning esa kundalik baholari doim ham yaxshi bo‘lmasa-da, lekin chorak yakuniga kelib mavzularni juda yaxshi o‘zlashtirib oladi. Shu sababli, yakuniy baholari baribir “4”. Tasavvur qiling, siz marafonda ishtirok etyapsiz. Avval orqada qoldingiz, lekin harakatni to‘xtatmadingiz. Finishga oz qolganda shiddat bilan liderlar qatoriga qo‘shildingiz. Va, nihoyat, finishda birinchi bo‘ldingiz! Siz chempionsiz! Medal va gullar bilan taqdirlandingiz. Maktabda ta’lim olishni marafonda yugurishga qiyoslasak, o‘qish jarayoni – marafon bosqichlari, ta’limiy maqsadlarga erishganlik darajasini aniqlash, ya’ni baholash esa, – marafonning har bir bosqichi vaqtlarining yig‘indisidir. Lekin maktabda Shavkat bilan sodir bo‘lgan shu kabi holatda, u “5” bahoga munosib bo‘lmadi. Bu adolatlimi? Axir, yakuniy baholashda u a’lo natijaga erishdi-ku. Maktabda har bir o‘quvchi bilim olishga intiladi. Kimdir bu maqsadga tez erishadi, kimdir sekinroq. Ular shu maqsadga qanday tezlikda va qachon erishganliklarining ahamiyati bormi? Shu kabi salbiy holatlarni bartaraf etish uchun mezonlarga asoslangan baholash joriy etilmoqda. Bu



baholash tizimi juda ko‘p davlatlarda joriy etilgan va sinovdan o‘tkazilgan. Mezonlarga asoslangan baholash tizimida o‘quvchi bir chorakda 100 ball yig‘ishi kerak. Undan 10 balli formativ baholashga ajratilgan. Formativ bahoni fan o‘qituvchisi dars jarayonida berib

boradi. Bu o‘quvchini ta’limiy maqsadga to‘g‘ri yo‘naltirish va unga motivatsiya berish uchun muhim. Aslida, formativ baho uchun ball ajratish lozim emas. Chunki o‘quvchiga darsda xato qilishga imkon berish kerak. U xato qilib, o‘rganib, ko‘nikmalarini takomillashtirib boradi. Lekin hozircha “o‘tish davrida” ota-onalarga farzandlarining o‘zlashtirishi haqida ma‘lumot berib borish uchun, o‘quvchi o‘z muvaffaqiyatlarini ko‘rib borishi uchun formativ baho balliga minimal 10 ball qoldirildi. Bu ballsiz ham o‘quvchi summativ baholari natijasida yakuniy “a’lo” bahoga erishish imkoniyatiga ega. Qolgan 90 ball summativ baholash orqali to‘planadi.

50 ballni o‘quvchi ta’lim jarayonida bo‘lim bo‘yicha summativ baholash jarayonada oladi. Bu yozma ish, loyiha ishi, ijodiy ish, esse, amaliy topshiriq, laboratoriya ishlari bo‘lishi mumkin. Yakuniy nazorat ishidan esa o‘quvchi 40 ball olishi mumkin. Bu baholash turli shakldagi testdan iborat bo‘ladi. Topshiriqlar yordamida o‘quvchining bilish, qo‘llash, mulohaza qilish va tahlil qilish ko‘nikmalari O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha tasdiqlangan standartlar va yagona mezonlar asosida baholanadi. Barcha o‘quvchilar bir xil mezonlar asosida baholanadilar, marafonda yuguruvchi kabi barcha bosqichlar ballari yig‘indisi avtomatik ravishda elektron jurnalda ko‘rinadi.

3. Maktabda mezonlarga asoslangan baholash tizimini joriy qilish ishlarini rejalashtirish

Har bir ish boshlanar ekan, uning tartibi va qoidalari bilan tanishgan bo‘lishi kerak. Bu asosida rejalarni belgilab olish muhim.

1. *Maktab jamoasining Mezonlarga asoslangan baholash tizimini joriy etish bo‘yicha Nizomi bilan tanishtirish.*

Maktab faoliyatida elektron jurnal muhim o‘rin tutadi. Unda ham moslashtirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish lozim.

2. *Elekton jurnal (e maktab) yangi baholash tizimiga moslashtirilganligini nazorat qilish.*

Har bir fanning o‘ziga mos spetsifikasi bor. Shu fanlardan topshiriqlarni tekshirishning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va uni doimiy ravishda nazoratga olish juda muhim.

3. *Metod birlashma rahbarlaridan iborat bo‘lgan ishchi guruh shakllantirish.*

Bu baholash tizimiga o‘tgan maktablardan biriktirilgan trenerlar maktabda doimiy ravishda trening mashg‘ulotlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

4. *Metodistlar va trenerlarning maktab jamoasiga metodik yordam ko‘rsatishi uchun yetarlicha shart- sharoit yaratish.*

O‘qituvchi, o‘quvchi, ota-onalar uchun baholash materiallarining namunaviy variantlari doimiy ravishda taqdim etilib boriladi. O‘qituvchi bu materiallarni darsda va mustaqil ravishda o‘quvchilar tomonidan o‘rganib borilishiga mas’ul kishidir.

5. *BSB larning namunaviy(demo) variantlari bilan ish olib borilishi (xususan, fan o‘qituvchilari va o‘quvchilarni namunaviy topshiriqlar bilan tanishib borishini) yo‘lga qo‘yish.*

Baholash jarayoni adoltli va shaffof o‘tkazilishi bu tizim tamoyillardan biridir. Shuning uchun bu tamoyilga amal qilinishni nazoratda bo‘lishi kerak

6. *Bob yuzasidan summativ baholash –BSB va chorak bo‘yicha summativ baholash- CHSB ni adolatli va shaffof o‘tkazilishini nazorat qilish.*
7. *BSB va CHSB larning haqiqatdan Baholash Markazi tomonidan taqdim etilgan baholash mezonlariga asoslangan holda tekshirilganligini qat’iy nazoratga olish.*

Baholash jarayoni o‘tib bo‘lgandan so‘ng har bir metod birlashma tomonidan xatolar tahlili va nima uchun o‘quvchilar bunday xatoga yo‘l qo‘yishganini dars berish metodologiyasi va usullarini ko‘rib chiqish asosida o‘rganish zarur.

8. *Har bir summativ baholash natijalarini fan ustozlari va metod birlashma tomonidan tahlil qilinishini nazorat qilish.*
9. *Metod birlashmalarda BSB ishlari tahlili uchun yig‘ma jildlarning shakllantirilgani nazoratga olish*

Mezonlarga asoslangan baholash tizimida o‘quvchining diqqati oraliq “5” baholarni olishga emas, yakuniy natijaga erishishga qaratiladi va o‘quvchilarning barcha muvaffaqiyatlari inobatga olinadi. Zero hayotda olgan baholarimiz emas, erishgan ko‘nikmalarimiz zarur bo‘ladi. Bu jarayonda esa jamoa liderining o‘rni beqiyos.

O‘quvchining maqsadi baho olish emas, ko‘nikmalarini rivojalantirish bo‘lsagina, u kelajakda kasblar o‘zgargani bilan jamiyatda o‘z o‘rnini yo‘qotmaydi. Bunday inson o‘rganuvchan bo‘ladi.

XULOSA

Mamlakat intellektual salohiyatini yuksaltirish uchun bor imkoniyatlarini safarbar qilish har bir yosh avlodning burchidir. Topshiriqlarni tuzishdan maqsad, o‘quvchilar savodxonligini baholashdan iborat bo‘lib, uning asosiy vazifasi o‘quvchi-yoshlarning savodxonlik darajasi hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini o‘stirishdan iborat. To‘g‘ri, nuqsonlarsiz tuzilgan savollar o‘quvchi - yoshlarning

ijodiy fikrlashi, olgan bilimlarini turli sohalarda qo‘llay olish qobiliyatiga baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim sifatini baholashga yo‘naltirilgantopshiriqlarini to‘g‘ri, samarali va obyektiv amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim oluvchilarning puxta bilim olishlari, ularning olgan bilimlarini tekshirishdagi qator xususiyatlarini hisobga olib, keyingi paytda savollar, test topshiriqlari keng qo‘llanilayotgan sinov turiga aylandi. Test yechish nihoyatda keng qo‘llanilishi sababli alohida metod sifatida qaraladigan bo‘ldi. Mavzuni o‘rganishda topshiriqlardan foydalanish, ayniqsa, guruhda amaliy topshiriqlar o‘tkazilgach, uning javoblarini muhokama qilish alohida ahamiyatga ega.

Turli fanlar doirasi yuzasidan tuzilgan savollar topshiriqlari o‘quvchilarning mavzuni tushunish va tahlil qilish, aniq ifodalangan ma’lumotlarni topa olish kabi ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://kitobxon.com/oz/online-reader/5162 Komil Jalilov “Baholash nazariyasi asoslari”

2. http://pop51-maktab.zn.uz/files/2020/05/Oqish-savodxonligi.pdf

3. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash (o‘quv - metodik qo‘llanma)

4. https://www.aera.net/Publications/Books/Standards-for-Educational-Psychological-Testing-2014-Edition

Shomurodov Jamshid Olimboy o‘g‘li
Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi p.f.f.d., PhD.

O‘QUVCHILARNI ESTETIK TARBIYALASHDA KOGNITIV TEXNOLOGIYALARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy ongini estetik tarbiyaga xos bilimlar bilan qurollantirib borishda kognitiv texnologiyalardan foydalanish, pedagog olimlarning estetik tarbiya haqidagi qarashlari hamda o‘quvchilarni estetik bilimlar yordamida tarbiyalash orqali ularda badiiy voqelikdagi go‘zallikni to‘liq idrok etish, nafosatni his qilish va to‘g‘ri anglash qobiliyati shakllanadi. Shuningdek, maqolada o‘quvchilarda estetik tarbiyani tarkib toptirish uchun moddiy borliq

haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va ularning kognitiv layoqatlarini rivojlantirib borish lozimligi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: estetik tarbiya, o‘quv materiali, kognitiv texnologiya,, evristik, empirik, intuitsiya, tafakkur, faoliyat, estetik dunyoqarash, kompetensiya, layoqat, intellekt.

Pedagogik faoliyatning eng ahamiyatli jihatlaridan biri bu – estetik tarbiyadir. O‘quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirishga oid pedagogik qoidalarda intellektning ijtimoiy istiqboli va ilmiy bilimlari yordamida estetik bilimlar dunyoqarashga aylanadi. Bugungi kunda ushbu masalaga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Olimlarning e’tirof etishlaricha, “estetik tafakkur”ni shakllantirish orqali tarbiya ma’lum bir davrning madaniy xususiyatlarini individual darajada yaxlit qamrab olishga, uning birligi va stilistik munosabatini tushunishga yordam beradi.

Estetik mazmundagi bilimlar o‘quvchi-yoshlar ma’naviy tafakkurini kengaytirishga, ularda go‘zallikni his qilishga, borliqni estetik idrok etishga xizmat qiladi. O‘quvchi-yoshlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini, aqliy intellektual salohiyatini rivojlantirishda estetik tarbiyaga xos bilimlar bilan ularni muntazam qurollantirib borish talab etiladi. Bunday bilimlar o‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, keng mushohada etishga, ijodiy ishlashga undovchi tarkibga ega egadir. Estetik tarbiya o‘quvchilarning barcha rivojlanish bosqichlarida amalga oshiriladi. O‘quvchilarni estetik bilimlar yordamida tarbiyalash orqali ularda badiiy voqelikdagi go‘zallikni to‘liq idrok etish, nafosatni his qilish va to‘g‘ri anglash qobiliyati shakllanadi. Shu bilan bir qatorda, estetik ta’lim insonning xohish-istagi, go‘zallik elementlarini idrok etish va ijodiy faoliyatda o‘zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

M.A.Verb[1]ning fikricha: insonning estetik tarbiyaviy bilimlari uning asosiy mulki bo‘lib, undan to‘liq foydalanish imkonini beradi. Estetik madaniyatning umumiy madaniyat va shaxsning ma’naviy, jismoniy ko‘rinishining boshqa jihatlari bilan aloqasi alohida xususiyatga egaligini ta’kidlaydi.

N.N.Rumyanseva esa estetik tarbiya shaxsning eng muhim fazilatlaridan biri sifatida belgilaydi, bu o‘z navbatida, insonga go‘zallik qonunlariga xos bo‘lgan ma’naviy va axloqiy ideallar birligiga muvofiq ijodiy jarayonning amalga oshirilishini ta’minlaydi.

O‘quvchi-yoshlarning ma’naviy ongini estetik tarbiyaga xos bilimlar bilan qurollantirib borishda kognitiv texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Kognitiv xarakterdagi ta’lim texnologiyalari individual shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasidir[4]. Kognitiv texnologiyalar samarali pedagogik texnologiya sifatida o‘quvchilarni kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Aql, intellekt,

tafakkur tushunchalari bizning ongimizda ilmiy faoliyat va an’anaviy o‘qitish bilan chambarchas bog‘langan. O‘quvchining tafakkurini rivojlantirishga ustivor ahamiyat qaratilsa, ularga bilim berishda bilishga undovchi metodlar va texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun o‘quvchilarning tahliliy tafakkurini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. O‘quvchining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun esa birinchi navbatda uning mantiqiy, tahliliy fikrlash faoliyatini shakllantirish talab qilinadi.Kognitiv sxemalar yordamida o‘quvshilarning atrof-olamni tushunishlari ta’minlanadi. Shuningdek, ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar jamiyat hayotiga faol moslashib, zarur axborotlarni o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar.

Ta’lim-tarbiya jarayonida ushbu texnologiyani qo‘llashdan asosiy maqsad – o‘quvchilarning muayyan hajmdagi bilimlarni o‘zlashtirishlari, intellektual layoqatlarini rivojlantirishga kognitiv sxemalarni shakllantirish orqali ko‘maklashishdan iborat. Kognitiv texnologiyalarni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad badiiy-estetik mazmundagi o‘quv predmetlarining mazmunini o‘zlashtirish orqali o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishni ifodalaydi. Kognitiv texnologiyalarning asosiy vazifasi har bir o‘quvchining o‘zlashtirilayotgan axborotlarning mazmun- mohiyatini tushunib yetishga erishilishidan iborat.

Ushbu texnologiyaning istiqbolli maqsadi:

- o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini ta’minlash;
- DTS talablari asosida o‘quvchilarning layoqatlarini shakllantirish;
- o‘quvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish. U quyidagi ko‘nikmalarni o‘z ishiga oladi: turli manbalardan olinadigan axborotlarni idrok etish, ma’lumotlarni konspektlashtirish, ya’ni mantiqiy fikrlash va til me’yorlariga asoslangan holda o‘z fikrini bayon qilish;
- o‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: dalillarga asoslangan ma’lumotlar bilan hukmlar orasidagi farqlarni ko‘rsatish, dalillar va taxminlar orasidagi farqlarni ifodalash, mantiqiy munosabatlarning turlarini ajratib ko‘rsatish kabi.

Ushbu yo‘nalishdagi pedagogik faoliyat tabiat bilan muvofiq holda o‘quvchilarni yaxlit tarzda aqliy tarbiyalash natijasida bosqichma-bosqich intellektual rivojlantirish imkonini beradigan badiiy ta’lim elementlari bilan boyitiladi. Bu esa badiiy-estetik ta’lim-tarbiyaning boshqa fanlar bilan integratsiyalash zaruriyatini keltirib chiqardi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning his-tuyg‘ulari va sezgilarini rivojlantirmasdan turib samaradorlikka erishib bo‘lmaydi.

Shaxs tafakkurini rivojlantirishga oid pedagogik qoidalarda intellektning ijtimoiy istiqboli va ilmiy bilimlari yordamida estetik bilimlar dunyoqarashga

aylanadi. Bugungi kunda ushbu masalaga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. O‘quvchilarning madaniy-ma’naviy tafakkurini rivojlantirish, ularda estetik dunyoqarash va didni shakllantirishda san’atning imkoniyatlaridan keng foydalanish g‘oyasi ilgari surilmoqda.

Kognitiv texnologiyaning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatish uchun yuqorida ta’kidlanganlarni diagnostika qilish asosida aniqlash mumkin. Kognitiv texnologiyalar algoritmli texnologiyalar sirasiga kiradi. U o‘quvchilarning bilish faoliyatini tezkorlik bilan boshqarish imkonini beradi. Mazkur texnologiyalar ta’limning rejalashtirilgan natijalariga erishish imkoniyatini kengaytiradi[4].

O‘quvchilar o‘zlarining kognitiv tafakkurini rivojlantira olganlaridagina muayyan ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. O‘qituvchilar o‘z tajribalarida xulq-atvorga asoslanilgan “Kognitiv terapiya” (art terapiya) metodiga asoslanishi kerak. O‘quvchilarning kognitiv qabul qilish layoqatini rivojlantirishda bunday metod samarali hisoblanadi. Bu metodlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar o‘quv faoliyatining sifati va kognitiv qabul qilish layoqatlarining darajasi ularning tafakkuri va idrokiga bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘quv materiallari yordamida uni estetik tarbiyalashda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Yana bir muhim masalalardan biri o‘quvchilarda estetik tarbiyani tarkib toptirish uchun moddiy borliq haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va ularning kognitiv layoqatlarini rivojlantirish lozim. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilarning falsafiy, mantiqiy analitik fikrlash faoliyatlarini jadal rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi. Bu o‘rinda verbal xarakterdagi ta’lim-tarbiya jarayoni yetakchi ahamiyat kasb etadi. Aksariyat hollarda o‘quvchilarning ko‘rgazmali-harakatli hamda obrazli tafakkurlarini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmaydi. Intuitsiyaga esa amaliy faoliyat timsoli sifatida yondashiladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini kognitiv qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish uchun ularni atrof-muhitdagi hodisa va holatni obyektiv his qilishga o‘rgatish lozim.

Kognitiv texnologiyalarning pedagogik prinsiplari o‘qituvchi faoliyati mazmunini aniqlashga xizmat qiladi. Kognitiv texnologiyalar yordamida o‘quvchilarga bilimlarni taqdim etish bilan bir qatorda ularda axborotlar ustida fikrlash, ularni tanlash va qayta ishlash, o‘quvchilarga me’yorlar va qoidalarni o‘rgatish, hodisa va holatlarga qadriyatli munosabat tajribasini hosil qilish imkonini beradi. O‘z navbatida, o‘quvchilarning bilimlarni amaliy jihatdan o‘zlashtirish va ijodiy rivojlanishlarini qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilar borliqni estetik idrok etishga muvaffaq bo‘ladilar.

O‘qitishning kognitiv texnologiyasi modulli tarkibga ega. Ushbu modul umumiy didaktik maqsadga ega bo‘lgan bir nechta darsni o‘zida mujassamlashtiradi.

Modulni shakllantiruvchi asosiy vosita jarayonli axborotlardir. Ushbu axborotlar ilmiy bilishning xususiy hamda umumiy metodlari tarkibida namoyon bo‘ladi[5].

Modul blok xarakteriga ega bo‘lib, uch blokka mansub darslarni o‘zida mujassamlashtiradi. Har bir blokda alohida didaktik vazifalarga yechim topiladi: kirish monitoringi bloki; nazariy blok (axborotlar, dalillar, tushunchalar, aniqlovchilar va x.k.); jarayonli blok.

Modul – dars, yoki o‘rganilayotgan mavzu shaklida namoyon bo‘lib, jarayon tarkibidagi ketma-ketlik hamda tadrijiylikni o‘zida ifodalaydi. Ularning har birida o‘qituvchi bilishning xususiy hamda umumiy metodlarini o‘zlashtiradi. Blok shaklidagi barcha texnologiyalarda bo‘lgani kabi kognitiv texnologiyaga asoslangan darslar ham umumlashtiruvchi, takrorlash, nazorat qilish hamda korreksiya tadbirlarini amalga oshirish bilan yakunlanadi.

Kognitiv texnologiya doirasida amalga oshiriladigan darslarda 4 ta metod qo‘llaniladi: tushuntiruvchi-illyustrativ, dasturlashtirilgan, evristik, muammoli metodlar. U yoki bu metodni tanlashda o‘qituvchi diagnostika natijalari yoki o‘quv jarayoni maqsadiga asoslanadi. Masalan, tushuntiruvchi-illyustrativ metod kognitiv rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi, axborotlarni taqdim etishga sarflanadigan vaqt iqtisod qilinadi, o‘quvchilarda annotatsiyalar yozish ko‘nikmasini shakllantirishga ko‘maklashadi. O‘quvchilarni estetik tarbiyalash jarayonida turli-tuman o‘qitish shakllari: hikoya, suhbat, mustaqil ishlar, amaliy ishlar, laboratoriya ishlari, diktantlar, referatlar yozdirish kabilar tashkil etilib, ushbu faoliyatda kognitiv texnologiyalarni joriy etish orqali ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda kognitiv texnologiyalardan foydalanish estetik hissiy emotsional jarayonlarining rivojlanishida muhim pedagogik vositalardan hisoblanadi. Ularda axborotlar bilan ishlash kompetentliligi, badiiy estetik didi, hamda ma’naviy dunyoqarashni shakllantiradi, yestetik mazmunga xos bo‘lgan o‘quv materiallarini samarali o‘zlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Искусство и педагогика: Из культурного наследия России XIX-XX в.в. Хрестоматия / Автор-сост. М.А.Верб. 2 е изд., доп.псков: ПОИПКРО, 2002.200 С.

2. Кривов С.В., Поскребышева Е.С., Старкин С.В. Когнитивное технологии в образовании // Инноватsія образования. Вестник Нижегородский госуниверситет им. Н.И. Лобачевского 2014, № 3(4) с-97-100.

3. Safarova R.G. Қўшиқ – инсон маънавий камолотининг муҳим омили, “оммавий маданият” маърифат кушандасидир. “Xalq ta’limi” ж. –Тошкент. 2019 йил №2. 31-38- бетлар.

4. Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar “Science and innovation” nashriyoti Toshkent 2024.

5. Бершадский М.Е. Когнитивная технология обучения: теория и практика применения //М: Сентябрь 2012 – 256 с.

Shukurov Yorqin Alidjanovich
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
katta o‘qituvchisi

PEDAGOGIKA TA’LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada pedagogik texnologiyalarning ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek ta’lim oluvchilarning hayotiy maqsad va tamoyillarni tanlashdagi zarurati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, maktab, pedagogik texnologiya, pedagogik faoliyat, ta’lim, ta’lim oluvchi, shaxs, ehtiyoj, o‘qituvchi.

Аннотация

В статье описываются роль и значение педагогических технологий в повышении качества и эффективности образования, а также необходимость выбора студентами жизненных целей и принципов.

Ключевые слова: общество, школа, педагогическая технология, педагогическая деятельность, образование, обучающийся, человек, потребность, учитель.

Ma’lumki, ta’lim tizimi shaxs imkoniyatlari va ehtiyojlarini har doimgidan ham ko‘proq inobatga olish zarur. Binobarin, ta’lim shaxsning kasbiy jihatdan takomillashuvini ta’minlovchi asosiy omil sanaladi. Takomillashgan, davr talablariga to‘la javob bera oladigan ta’lim o‘z xususiyatiga ko‘ra shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi, demakki, uning hayotiy intilishlari, ehtiyojlari hamda qiziqishlariga mos kelishi lozim. Bu esa shaxs tomonidan mavjud bilimlarning o‘zlashtirilish darajasi va shaxs qobiliyatini inobatga olgan holda tabaqalashtirilishi maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunga qadar jahonning ko‘pgina rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimida ustuvor o‘rinni egallab kelgan hamda bilimlarni o‘zlashtirishning o‘rtacha darajasiga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilarga mo‘ljallangan an’anaviy ta’lim iste’molchilar ehtiyojini qondira olmayapti. Takomillashgan ta’lim tizimi ta’lim oluvchilarning ichki imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish va qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim tizimining rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy omillar dastlabki asos sanaladi. Aynan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi yana ko‘plab omillar bilan o‘zaro muvofiqlikda ta’lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi. Ilmiy-texnik taraqqiyot, mavjud madaniy va ijtimoiy-g‘oyaviy muhit jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning amalga oshirilishini rag‘batlantiradi yoki mavjud tizimni, shu jumladan, ta’lim tizimining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Ta’lim tizimi oldiga qo‘yiladigan masalalardan eng muhimi uning jamiyat oldida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal qilishga yordam berishdan iboratdir.

Umumta’lim maktablarining jamiyat tomonidan qo‘yiladigan ijtimoiy talablarga tezkor javob bera olishi, yuzaga kelgan yangi vaziyatga tez moslashishi, shu bilan birga, to‘plangan ilg‘or tajribalarni saqlab qolishi muhimdir. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, umumta’lim maktablari bir qadar konservativ xususiyatga ega bo‘lib, ularda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning aksariyati ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va ilmiy-texnik taraqqiyotga juda sust moslashadilar. Ko‘p vaziyatlarda yangiliklar ijobiy qabul qilinmaydi. Ilg‘or tajribalar, yangiliklarning o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan ijobiy qabul qilinishi uchun ma’lum vaqt talab etiladi. Biroq, global axborotlashuv sharoitida innovatsion pedagogik texnologiyalarini qabul qilish va ulardan ta’lim jarayonida samarali foydalanish masalasining ijobiy hal etilishi e’tirozlarga sabab bo‘lmasligi lozim. Agarda an’anaviy ta’lim ustuvor bo‘lgan davrlarda ta’lim tizimida o‘qitish yetakchi o‘rinni egallagan bo‘lsa, mavjud sharoitda mustaqil o‘qish tizimning muhim jihati hisoblanadi. Shu sababli endilikda “o‘qituvchi – darslik – o‘quvchi” tamoyili “o‘quvchi – darslik – o‘qituvchi” tarzida o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu tamoyilga ko‘ra o‘qituvchining asosiy vazifasi aniq ta’limiy maqsadlarga muvofiq o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirilgan faoliyatlarini tashkil etish, ularni mustaqil bilim egallash va o‘zlashtirgan nazariy bilimlarni amaliyotda faol qo‘llashga o‘rgatishdan iborat. Endilikda o‘qituvchi asosiy e’tiborni tayyor bilimlarni o‘quvchilarga uzatishga emas, aksincha, ularni turli manbalardan foydalangan holda bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, ularda mustaqil, erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirish, shaxsiy nuqtayi nazarlarini

isbotlay olish, avval o‘zlashtirilgan bilimlarni yangi ma’lumotlar bilan boyitishga imkon beruvchi samarali metodlarni tanlay olishga qaratishi zarur.

Ma’lumki, XX asrning boshlarida o‘quv mashg‘ulotlari shunday tuzilgan ediki, unga ko‘ra o‘quvchi har kuni muayyan fanlar majmuasi (masalan, bir soat matematika, bir soat, fizika, bir soat adabiyot, musiqa va hokazolar)dan tarkib topgan jarayonda asosiy ishtirokchi bo‘la olishi talab etilardi. Mashg‘ulotlar so‘ngida esa aynan mana shu predmetlar bo‘yicha uy vazifalari topshirilardi. O‘quvchi sanab o‘tilgan predmetlar bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarni o‘zaro bir-biriga bog‘lashga qiynalardi, predmetlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning tizimda aks etishini anglashda qiyinchiliklarni his etardi.

Rossiyalik mashhur pedagog B.S.Gershunskiy XXI asrda ta’lim tizimida ustuvor ahamiyat kasb etuvchi ta’limiy-pedagogik tamoyillarni bashoratlar ekan, pedagogik jarayon samaradorligini oshirish yo‘llarini tadqiq etishda uni qayta yo‘naltirish zarurligiga e’tiborni tortadi. Bunda quyidagilarga erishish maqsadga muvofiqdir:

- o‘quvchining ijrochi, natijaviy faoliyati o‘rniga o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida ijodiy, izlanuvchan faoliyatini tashkil etishga erishish;
- qat’iy boshqaruv, ta’lim, tarbiya va rivojlantirishning maqsad, mazmun, metod, vosita va tashkiliy shakllari birligini ta’minlashdan ta’lim oluvchilarning o‘quv-anglash faoliyatini individuallashtirish va tabaqalashtirishga o‘tish:
- ta’lim jarayonining barcha elementlarini yagona g‘oyaga bo‘ysundirishdan g‘oyaviy ko‘p fikrlilik, hayotiy maqsad va tamoyillarni tanlashda ta’lim oluvchilar erkinligini ta’minlash;
- texnokratik va insonparvarlik yo‘nalishlari va ustuvor tamoyillari tizimining o‘zaro muvofiqligidan pedagog va ta’lim oluvchilarning ta’limiy va o‘quv-anglash borasidagi o‘zaro faoliyatlarining tabiiy rivojlanish bilan uyg‘un bo‘la olishiga erishish.

Shunday ekan, zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimi taraqqiyotining istiqbol yo‘nalishlarida quyidagilar ko‘zga tashlanadi: turli bilim sohalari bo‘yicha shaxsning xilma-xil, mustaqil va maqsadga muvofiq faoliyati negizida intellektual va axloqiy rivojlanishini ta’minlash.

Rivojlangan mamlakatlar – AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Kanada va boshqalarda ta’limiy islohotlarni amalga oshirishda aynan yuqorida qayd etilgan yo‘nalish asosiy deb qabul qilingan. Shunga ko‘ra, quyidagi uch muhim vazifalar belgilangan:

1) ta’lim tizimini isloh qilish;
2) ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyat olib borishlari, faolliklari va tafakkur yurita olishlarini ta’lim va tarbiyaning yetakchi tamoyillari sifatida e’tirof etish;

3) ta’lim jarayonida ilg‘or axborot texnologiyalari, texnik vositalarni integratsiyalash.

Yaqin-yaqingacha mavjud sharoitda, ya’ni ta’lim oluvchilarga bilimlarni uzatishda, sinf-dars tizimidan ommaviy foydalangan vaqtda, an’anaviy yondashuvga ko‘ra yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni ijobiy hal qilishning imkoni yo‘q deb hisoblanardi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga ko‘ra vaziyat butunlay o‘zgardi. Respublika mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘tgan yillar davomida ta’limiy islohotlarning yetakchi vazifalarini hal qilish uchun yetarlicha sharoit yaratildi va ular ijobiy hal qilindi. Xo‘sh, bu yo‘lda yaratilgan zarur shart-sharoitlar nimalardan iborat edi? Ular quyidagilardir:

1) har bir ta’lim oluvchining o‘quv-anglash jarayonida faol ishtirok etish imkoniyati inobatga olindi;

2) pedagog va ta’lim oluvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishning imkoniyatlari o‘rganildi.

Ta’limiy islohotlarda ustuvor etib belgilangan vazifalarni hal qilishda uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan barcha ta’lim muassasalari, davlat hamda jamiyatning imkoniyatlarini birlashtirish, muayyan nuqtaga to‘plash talab etiladi. Endilikda ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida masofaviy ta’limdan foydalangan holda mavjud bilimlarni mustahkamlash, boyitish, izchil ravishda o‘z ustida ishlashga bo‘lgan ehtiyojni qondirish yo‘lida amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Mazkur dolzarb pedagogik muammoni hal qilish samarali va izchil, shu bilan birga, qisqa muddatlarda amalga oshirilishi lozim. Shu sababli ta’lim tizimining asosiy elementlari, tashkiliy qismlari o‘rtasidagi aloqa xarakterini inobatga olish, yaxlit zanjirni yaratilishida muhim bo‘lgan bo‘g‘inni topa olish, ya’ni yangi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitda ta’lim maqsadini aniq bajarishga erishish maqsadga muvofiqdir.

Bizning fikrimizcha, ta’lim tizimining yaxlit zanjirida bog‘lovchi muhim bo‘g‘in o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llash hisoblanadi. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Zero, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish ta’lim paradigmalarining o‘zgartirilishiga olib keladi. Va faqat yangi axborot texnologiyalarigina ilg‘or pedagogik texnologiyalarda jam bo‘lgan imkoniyatlardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik ta’lim nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyatni, shu bilan birga, tarixiy-madaniy an’analarni ham inobatga oladigan barqaror va samarador ta’lim tizimining tashkil etilishini taqozo qiladi.

Ma’lumki, pedagogik faoliyat ko‘p miqdorda intellektual, hissiy, jismoniy va asab tizimi orqali quvvatni sarflashni talab etadi. Quvvatning bu tarzida sarflash natijasidagina shaxsning ijtimoiy faolligini ta’minlovchi anglash va muloqot jarayoni tashkil etiladi. O‘quv mashg‘ulotlarining tizimli tashkil etilishi natijasida ongli faoliyat jarayoni yo‘lga qo‘yiladi va bu jarayonda shaxsga xos muhim fazilatlar, ya’ni umumiy layoqatlilik, mehnatsevarlik, ishchanlik, mustaqillik, ijtimoiy faollik, mas’uliyat va boshqalar qaror topadi. Faoliyatning yangi xarakter kasb etishi shaxsni shakllantirish ehtiyojini qondiradi, ushbu ehtiyojning qondirilish natijasi esa individual imkoniyatlarning ochilishi uchun boshlang‘ich asos, poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quv predmetlari bo‘yicha yaratilgan Davlat ta’lim standartlari yo‘nalishlarga muvofiq umumta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan har bir o‘quv predmeti bo‘yicha o‘quvchilarda muayyan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar darajasining hosil bo‘lishi zarurligini nazarda tutadi. O‘quvchilarning psixologik xususiyatlari hamda individual imkoniyatlari ularning esa talab etiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar darajalarini yetarlicha o‘zlashtirishlariga imkon bermaydi. Mazkur muammoni hal etishda ilg‘or g‘oyalarga asoslanuvchi zamonaviy o‘qitish texnologiyalari muhim o‘rin tutadi.

Rossiyalik mashhur pedagog-olim B.S.Gershunskiy XXI asrga xos bo‘lishi nazarda tutiluvchi ustuvor xususiyatlarni aniqlar ekan, pedagogik jarayon samaradorligini oshirish yo‘llarini belgilashda quyidagilarga e’tiborni qaratish kerakligini ta’kidlaydi:

1) o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida ta’lim oluvchilar faoliyatida ijodiy izlanish elementlarining ustunligi;

2) tarbiya, ta’lim va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini qat’iy bir xillashtirilishini inkor etgan holda ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatlarini individuallashtirish va tabaqalashtirish;

3) ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarining yagona g‘oyaga bo‘ysundirilishiga barham bergan holda fikrlar xilma-xilligi, ijtimoiy borliqni tushunish, o‘zaro ishonchni qaror toptirish, ma’naviy shakllanish va rivojlanish yo‘llarini erkin tanlashga erishishni qaror toptirish;

4) texnokratik va insonparvar yo‘nalishlarning nomutanosib tizimiga barham bergan holda tabiiy ravishda pedagoglar va ta’lim oluvchilarning ta’lim va o‘quv-bilish faoliyatining o‘zaro birligini ta’minlash.

Bildirilgan fikrlardan anglanadiki, zamonaviy sharoitda har qanday jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi bu – shaxsda turli sohalarga oid bilimlarni mustaqil egallash ko‘nikma va malakalarini hosil qilish orqali uni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishdan iborat. Ushbu

yo‘nalishda ta’limni rivojlantirishda quyidagi uch asosiy vazifani hal etish dolzarb ahamiyatga ega deya e’tirof etilgan:

1) ta’lim tizimini qayta qurish;

2) ta’lim-tarbiya jarayonida eng ustuvor tamoyillar sifatida – ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishlari va erkin fikrlashlariga erishish;

3) ta’lim jarayonida ilg‘or axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Mustaqillik yillarida qisqa vaqt ichida ta’lim tizimini qayta qurish hamda ta’lim jarayonida ilg‘or axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratildi. Ya’ni, har bir o‘quvchining bilimlarni sust o‘zlashtiruvchi subyekt bo‘lishi inkor etilib, u mustaqil ta’lim olish, o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda faol qo‘llash, shuningdek, tashkil etayotgan faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishish chora-tadbirlarini belgilashda mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo‘lishiga e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, o‘quvchilarni hamkorlikda ishlash, ularda kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish, ularning ma’lum bir muammo yuzasidan nafaqat o‘zi yashayotgan mintaqa, shu bilan birga boshqa mamlakatlarning yoshlari bilan o‘zaro fikr almashishlari, hal etilayotgan masala yuzasidan shaxsiy fikrlarni ilgari surish, ularni dalillar asosida asosli bayon etishlariga erishish, ana shu maqsadda axborot texnologiyalarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun sharoit yaratishi lozim.

Bu kabi masalalarni hal etishda umumta’lim muassasalarigina emas, balki respublika uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan ta’lim muassasalarining barchasi birdek faollik ko‘rsatishlari talab etiladi. Ana shundagina ta’lim olishni takomillashtirish borasidagi ijtimoiy ehtiyojni qondirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu o‘rinda yangi axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bizning fikrimizcha, yangi axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni bir-biridan ajratish to‘g‘ri emas. Binobarin, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan ta’lim jarayonida samarali foydalanish ta’lim mazmunini takomillashtirish, sifatini oshirish va samaradorligini ta’minlashga yordam beradi, yangi axborot texnologiyalari esa pedagogik texnologiyalar imkoniyatlarining oshirilishini ta’minlaydi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish natijasida o‘quvchilarda ta’lim dasturlarini mustaqil ravishda loyihalashtira olish va ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Zero, mutaxassisning kasbiy salohiyati u tomonidan to‘plangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashdangina iborat bo‘lib, qolmay, balki mavjud bilimlaridan o‘qitishning maqbul yo‘l va samarali metodlarini tanlashda foydalana olishi muhim sanaladi.

Ta’lim faoliyati shaxs ijtimoiy faoliyatining asosiy turlaridan biri sifatida moddiy borliqni idrok qilish, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonlariga xos intellektual, hissiy va jismoniy kuch sarflanishi hisobiga yo‘lga qo‘yiladi. Muntazam tashkil etiluvchi mashg‘ulotlar natijasida ongli faoliyat jarayonlari muvofiqlashtiriladi va o‘quvchilarning muhim psixologik xususiyatlari, umumiy qobiliyatlari, mustaqilliklari, ijtimoiy faolliklari, mas’uliyatlari va boshqa muhim sifatlari rivojlantiriladi. O‘quvchilarda yuzaga kelayotgan yangi ehtiyojlar ta’lim faoliyatining o‘zgaruvchanligini ta’minlaydi, ehtiyojlarning qondirilishi esa individual ijodiy imkoniyatlarini ochib berishda muhim omil hisoblanadi.

Pedagogik faoliyat negizida modellashtirish metodining qo‘llanilishi o‘quvchilarning kasbiy yo‘nalganligini faollashtiradi, ularni nazariy va amaliy bilimlar bilan puxta qurollantirilishiga yordam beradi. Ushbu metod yordamida o‘quvchilarning pedagogik nutqi takomillashtiriladi, pedagogik ta’sir ko‘rsatish qobiliyati rivojlanadi, mavjud vaziyatlarni chuqur tahlil qilish, kuzatish va to‘g‘ri, oqilona baholay olish malakasi oshadi.

ADABIYOTLAR:

1. Метинбоева Н.К. Формирование профессиональной компетентности будущего учителя на основе использования коммуникативных игр: на материале факультетов иностранных языков: специальность. 13.00.08 “Теория и методика профессионального образования”: автореф. дис. … канд. педаг. наук / Таджикский национальный университет. Худжанд, 2019. 24 с.
2. Окулов С. М. Когнитивная информатика: монография/ С. М. Окулов. - Киров: Изд-во ВятГГУ, 2003. - 224 с.
3. Орлова С.В. Перспективное планирование развития школы // Журнал директор школы. – СПб., 2009. – С. 34.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000.
5. Пиаже, Ж. Теория, эксперименты, дискуссии / J. Piaje. - M.: Direktmedia Pablishing, 2008. - 123 s.
6. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. –T.: RTM, 2000.
7. Сайфулина Н.А. Формирование прогностической компетентности студентов педагогической магистратуры: автореф. дисс. канд. пед. наук: 13.00.01, 2021. – 23.
8. Гершунский Б. С. Прогностические методы в педагогике. М., Просвещение. 2001.

9. Разумовский В.Г. “Инновации в преподавании физики в школах за рубежом”. Новосибирск: РИД НГУ. 2005.

Shakhlo Karimova
Oriental universiteti, PhD
Sevara Jakbarova
Oriental universiteti, magistr

IMPROVING SPELLING AND GRAMMATICAL SKILLS IN LANGUAGE EDUCATION

Abstract

This article provides comments on the improvement of spelling and grammar skills in the teaching of the mother tongue in primary grades and its scientific and theoretical basis.

Key words: language education, spelling, grammar, school, linguistics, creativity in education, pedagogical technology

In order to educate students' creativity, independent thinking along with intellectual ability, to teach them to express their personal opinion correctly and fluently in oral and written forms in accordance with the conditions of speech, to form skills in this regard, national tongue. It is required to further strengthen the content of the language. The role and opportunities of mother tongue science are sufficient in forming and developing students' creative thinking, creative research, ability to choose the most convenient from many opportunities, and educating them in the spirit of our national values, customs and traditions. Especially in a situation where the issue of training an entrepreneur and a creative person for our future development is cross-cutting, the teaching of this science becomes even more important.

One of the main reasons why the teaching of the mother tongue in general secondary schools is not at the required level is that both forms of education - oral and written - are not equally developed. Let's say, it is necessary to work on the dictionary, to organize a communication process with the help of mastered words, or to prepare a creative text. Knowing that the formation of consciousness and thinking is the task of social sciences, we considered the content of education in the mother tongue at school to be the scientific interpretation of the construction of the mother tongue, the study of grammar. As a result, although the student encounters grammatical concepts and definitions and performs many tasks of different size and complexity, his oral and written literacy does not change significantly. The skills of creativity, independent thinking, and the ability to correctly and fluently express the

product of creative thought in oral and written forms in accordance with the speech conditions are still at a low level in most of the students. It would be fair to look at the main reasons of this situation only from the teacher, or consider the inability of the textbooks to meet the full methodological level, rather than the material and technical poverty of the schools.

The current situation is largely related to the purpose, content and method of mother tongue education, and its renewal has become a vital necessity. The content of teaching the mother tongue in schools is adapted to the task of our state for the school at the current stage of society's development. These tasks are multifaceted, and their fulfillment is aimed at developing the minds of students, giving them ideological-political, moral, aesthetic and labor education.

As a result of mastering the knowledge, skills, and abilities acquired in the mother tongue, students are able to express their thoughts in a grammatically correct, stylistically accurate, meaningful, tone-compliant way and to write it with correct spelling. skills are formed. This task is a unique feature of the Uzbek language as a subject of study, and it is carried out in connection with general educational tasks aimed at forming the student as a person. In the process of language learning, work is also carried out on the formation of students' skills common to many other educational subjects (interdisciplinary skills). In pedagogy, such interdisciplinary skills include analysis, synthesis, abstraction (visualization of language phenomena), generalization, grouping, comparison, etc.

Properly working on the formation of these skills in students provides an opportunity to activate their educational activities and successfully acquire knowledge. Special skills formed from the mother language course and cross-subject skills are formed in the educational process without separating from each other. In the lesson, it is necessary to pay special attention to the organization of the students' educational activities, to the ideological-political, aesthetic and artistic value of the language material used, to the formation of the elements of worldview in the language learning process. Necessary moral qualities are cultivated only in classes where an environment of creative research is created. Special attention is paid to the education of love for the Uzbek language, respect for spiritual property, and a careful attitude to words in the mother tongue classes. For this, the text is carefully selected. The use of the audio form of texts, that is, the use of technological tools, is one of the factors of positive influence on the effectiveness of education.

In the process of learning the language, lexical-methodical work is given a great place. Along with poetry, simplified texts, large artistic texts are also used in the lesson. In the process of mastering the texts, it is appropriate to perform didactic assignments aimed at strengthening spelling and grammar. For example, it is

appropriate to use didactic games such as “Word to word” game, “Find my equal”, “Where is my place?”, “I am a fallen letter” to strengthen knowledge.

Let's say that the omitted letters are related to paronyms, and when the letters x and h, i and u, a and o are used interchangeably, the meaning changes. Therefore, the main goal is the correct approach from the point of view of spelling. It will be more memorable if it is used in the form of a slide using color images in the section of the primary class. For example,

Sho… (quein) sho…

Mother tongue lessons also educate the qualities of organization, independence, and initiative, which are necessary for every student. If the lesson aims to strengthen grammatical knowledge and form orthographic skills, the logical conditions of the lesson can be used using a system of exercises that gradually become more complicated. One or two exercises are performed in groups so that children can learn and learn a spelling rule. When students become more independent, they work on the exercise independently. The reason is the nature of the skill that forms the connection between the exercises performed in the lesson. The matching of the educational material to the subject and the purpose of the lesson ensures its orientation to the goal. All teaching materials used in the lesson (including the materials selected for observation of language evidence, spelling and speaking exercises) should be very relevant to the purpose of the lesson. In order for mother tongue lessons to be socially useful, students should be focused on forming the ability to express their thoughts grammatically correct, methodologically clear, and coherently, and to give the opinion of others. The teaching of speech development in mother tongue classes requires the use of methodical methods in the teaching of grammatical material that enable students to learn the role of each word group or part of a word in our language, that is, grammatical theory is a grammatical set. It is taught to develop clear and clear speech skills, to develop comprehension and writing skills for practical application.

The development of children's speech in the lesson is reflected in the content of the lesson and the types of tasks used. Connecting the teaching of grammar, word formation and spelling materials with the development of speech is the management

of students' mental activity. The process of developing children's speech is related to the development of their thinking. The lesson of the mother tongue is evaluated according to the goal of working on the development of students' thinking. In this case, in the process of learning specific grammatical and spelling material, this material it is understood to carry out exercises that ensure better learning and require mental activity. The usefulness of mother tongue lessons includes conducting oral and written work in class, checking and monitoring students' academic work, preventing and correcting mistakes in time, and using technical tools. such factors have a great influence. There cannot be a strict pattern in the course of the lesson. However, following the stages of checking homework in class, repeating, explaining new material, strengthening, and assigning homework pays off in practice. Nevertheless, a positive approach to these, based on the purpose of the lesson and the methodological methods used, the teacher himself decides from which stage to start the lesson (explaining new material, performing independent work or checking homework), and the internal connection between the stages , should not forget that it is important to clearly define the content of work at each stage. Combining all stages of the lesson into one process requires high skill from the teacher.

In order to cultivate creativity and independent thinking in students, to learn to express the product of thought correctly and fluently in oral and written forms in accordance with the conditions of speech, it is necessary to fundamentally update the content of mother tongue education. The role and potential of mother tongue science in forming and developing young people's creative thinking, creative research, ability to choose the most optimal from many opportunities, and educating them in the spirit of our national values, customs and traditions is huge. Especially for our independent republic, in a situation where the issue of training a creative thinking and creative person is cross-cutting, the teaching of this subject becomes even more important.

REFERENCES:

1. Ishmuhamedov R. Ways to improve educational efficiency with the help of innovative technologies. _ T.: TDPU named after Nizomi, 2009.
2. Innovations in the context of the development of modern information and communication technologies Special Issue 2022
3. U. Tursunov, J. Mukhtorov, Sh. Rahmatullayev. Modern Uzbek literary language. T.: Uzbekistan, 1992. 4
4. Kosimova N. Mother tongue teaching methodology. Tashkent, 2009. -B.213.

Jamol MAMADIYOROV
Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi o‘qituvchisi, PhD.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar ko‘rib chiqilgan, matematika fani misolida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, o‘quv-bilish faoliyati, matematika, shaxsiy-motivasion.

Аннотация

В данной статье рассмотрены факторы, влияющие на развитие учебно-познавательной деятельности будущих учителей начальных классов, проанализированы на примере математической науки.

Ключевые слова: будущие учителя начальных классов, учебно-познавательная деятельность, математика, личностно-мотивационная.

Abstract

This article examines the factors influencing the development of educational and cognitive activity of future primary school teachers, analyzed by the example of mathematical science.

Key words: future primary school teachers, educational and cognitive activity, mathematics, personal motivation.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual rivojlanishi o‘quv-bilish faoliyat sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan tashqi va ichki omillarni ko‘rsatish mumkin. Ichki omillar guruhiga psixologik xususiyatlarni kiradi: motivlar, xobbilar, shaxsiyat tarkibida yetakchi o‘rin tutadigan qiziqishlar, oriyentatsiya, xarakter, his-tuyg‘ular, qobiliyatlar, intellektual jarayonlar va boshqalar. Tashqi omillar guruhiga faoliyatning amalga oshadigan sharoitlari kiradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini yetuk kadr bo‘lishi uchun aniq maqsadga qaratilgan o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik muhit kerak. Ularning shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivasion ehtiyojlariga mos kelishi uchun o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantiruvchi jarayonning tashkil etishda pedagogik-psixologik muhit dinamik modellari bo‘yicha o‘quv maqsadlarini ta’lim

mazmuniga proporsional moslashtirish ko‘pyoqlama, motivatsiyaga boy, turli imkoniyat va bilish faoliyatini intensiv rivojlanishiga rag‘batlantiradigan motivatsiya, kuch, imkon bo‘lishi zarur.

O‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga asoslangan yondashuv quyidagi ta’lim yo‘nalishlarini amalga oshirishni nazarda tutadi: kognitiv, motivasion, vazifalarni hal qilishda olingan bilimlardan amalda foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish; o‘quv-bilish kompetensiyalarni shakllantirish, o‘quv jarayonida amaliy vaziyatlarni amalga oshirish. Shuningdek, ma’lumot olish, qayta ishlash va uzatish usullari va vositalarga ega bo‘lishini nazarda tutadi.

Shu ma’noda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual rivojlanishi, shuningdek, o‘quv-bilish faoliyat sifat va samaradorligini oshirishda o‘quv bilish faoliyat jarayonini yo‘lga solish uchun zarur bilim va mahorat, shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsiya bo‘lishi kerak. O‘quv jarayoni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining ichki rivojlanishiga yordam berish uchun o‘quv materiali, rivojlanishni faol darajasiga mos bo‘lishi va bu daraja murakkablik jihatida mavjud bilimidan ortiq bo‘lishi kerak. Aks holda rivojlanishdan mahrum bo‘lib qoladi.

Agar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchiga tavsiya etilayotgan vazifalar bilish kuchiga teng bo‘lsa, u holda uning bu kuchlari bilish faoliyatini rivojlanishini davom etishiga turtki bo‘lmaydi. Buning uchun bilish va intellektual faoliyatini kuchini ishlatish orqali o‘quv vazifalarni va materiallarni o‘zlashtirishga qaratilgan savollardan foydalaniladi. Mana shundan o‘quv vazifalarini tushunarli bo‘lishda va o‘quv materiallarni o‘zlashtirishga qaratilgan savollardan o‘qituvchining vositachilik roli tushunarli bo‘ladi. Aynan o‘qituvchi o‘rgatishi kerak bo‘lgan o‘quv materiallari tushunarli bo‘lishiga, anglab olishga bog‘liq usullar yordam beradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan o‘quv materiallarini metodik ishlanmalarida foydalanib o‘quv-bilish faoliyatini boshqarish tizimi aniqlab olinadi. Bunda ichki kuchlarini rivojlantiruvchi g‘oyalari, intilishlari, motivatsiyalari hisobga olinib mavzuga oid yo‘naltirilgan savollar berilsa, u holda ular avvalgi mavjud bilimlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Demak, keltirilgan ma’lumotlar o‘quv - bilishni faollashtirishda omillarning roli muhim ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi. Bu o‘z navbatida ijtimoiy-psixologik va pedagogik fanlarni rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Matematika fani bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni malakaga asoslangan yondashuvda o‘qitish uchun majburiy fan hisoblanadi. Ushbu mavzu mazmunining xususiyatlari katta hajmlar, yuqori mehnat intensivligi, o‘zlashtirishning qiyinligi. Biroq, matematikaning ahamiyatini bilish va yetarli

shaxsiy-motivasion yo‘nalganlikga ega bo‘lish bu muammoni hal qilishga yordam beradi.

Shaxsiy-motivasion yo‘nalganlik deganda “insonni faoliyatga undovchi, faoliyat chegaralari va shakllarini belgilab beruvchi va bu faoliyatga ma’lum maqsadlarga erishishga qaratilgan e’tiborni kuchaytiruvchi ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlar majmui” tushuniladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini shaxsiy-motivasion komponent muayyan faoliyatning paydo bo‘lishi, yo‘nalishi, amalga oshirish usullari va natijasini belgilaydi. Shaxsiy-motivasion tayyorgarlik deganda, o‘quv-bilish faoliyatiga, ayniqsa uning bevosita ta’lim bilan bog‘liq tomonlariga ijobiy munosabatda namoyon bo‘ladigan shaxsning motivlari va e’tiyojlari tizimi tushuniladi [1].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini empirik va nazariy o‘qitish jarayonida axborot almashinish faoliyatiga bosqichma-bosqich tayyorlash ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlar yuqori darajada namoyish etmaydilar, buni amalga oshirish uchun shaxsiy faoliyatga undovchi imkoniyatlarga ega bo‘lishi, o‘qitish sifat va samaradorligini oshirish uchun psixologik va pedagogik vositalarga juda muhtoj.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash o‘quv dasturlarida pedagog shaxsining har tomonlama uyg‘un rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan bilimlarning asosini tashkil etuvchi kognitiv, affektiv va psixomotor o‘quv maqsadlarini ta’lim mazmuniga proporsional moslashtirish imkoni mavjud. Shu bilan birga, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari barcha qiyinchiliklarini yengishga qodir psixolog bo‘lishida zarur bo‘lgan fazilatlarni shakllantirish uchun asosiy bilim va ko‘nikmalardan tashqari shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivasion yo‘nalganlik trayektoriyasini ta’lim maqsadlarining vektorli funksiyalariga integrativ muvofiqlashtirish asosida o‘quv-bilish faoliyati rivojlantiriladi.

Hozirgi vaqtda matematikani o‘qitish usullarini qo‘llash va ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalaridan foydalanishga bag‘ishlangan yetarli miqdordagi tadqiqotlar mavjud, bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ammo matematikani o‘qitishning ijodiy muloqoti natijadorligining psixologik xususiyatlari masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Bundan matematikani o‘rganish jarayonida o‘quv-bilish faoliyatlarga asoslangan yondashuv doirasida bosqichma-bosqich tayyorlash hamda o‘zaro ta’sir sub’yektlari munosabatlarning konseptual jihatlari rivojlantirishni o‘rganish zarurligini aniqladi.

Matematika fani tabiiy fanlar bo‘lib, uning maqsadi matematik ma’lumotlarni yig‘ish, yangi imkoniyatlarni topish va taqdim etish usullarini singdirishdir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga matematika faniga oid matanaliz asoslari, algebra

va geometriya, ehtimollar nazariyasi, matematik statistikani bilishi kerak, kasbiy faoliyatda matematik til va belgilardan foydalanish olishi, matematik masalalarni yechish kerak.

O‘quv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan psixologik-pedagogik tahlil matematikani o‘rganish faol intellektual faoliyatga asoslanganligini ko‘rsatdi. Ta’lim jarayonida nazariy fikrlash, turdosh fanlarni bilishning fikrlash jarayonlari uchun asos yaratadigan intellektual faoliyat rivojlanadi [2].

Matematikani o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivasion yo‘naltirish orqali tarbiyalash, ularning kognitiv, affektiv va psixomotor sohasilarini shakllantirishdir. Ta’lim natijasi matematikani o‘rganish davomida intellektual rivojlanishi o‘quv-bilish faoliyat sifat va samaradorligini oshirishga qaratilganligi va ularning rivojlanishiga bog‘liq.

O‘quv-bilish faoliyati rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omil shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivasion darajasiga bog‘liq. Bu masalani hal qilish axborot almashinish faoliyatiga bosqichma-bosqich tayyorlashdagi rivojlantiruvchi ta’limdir. Uni amalga oshirish uchun matematikadan o‘quv-bilish faoliyati mantiqiy rivojlantiruvchi topshiriqlarning murakkablik va dinamik modellari bo‘yicha masalalarni shakllantirish lozim. Ma’ruzada nazariy materialni taqdim etishda, amaliy mashg‘ulotlarda esa o‘quv-bilish faoliyati rivojlanishiga ta’siri ta’lim maqsadlarining vektorli funksiyalariga integrativ muvofiqlashtirish asosida kognitiv, affektiv va psixomotor o‘quv maqsadlarini ta’lim mazmuniga proporsional moslashtirish masalalari hal qilishda aniqlanadi. Matematik masalalarni yechish jarayonida o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish ta’lim maqsadlarining vektorli funksiyalariga integrativ muvofiqlashtirish asosida matematik qobiliyatlar kognitiv, intellektual qobiliyatlarga bog‘liq.

Ba’zi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari matematik qobiliyatlarni namoyish eta olmaydi, shuning uchun o‘rganishda muhim omillari aloqa, o‘quv, kognitiv, kasbiy, ijtimoiy motivlar, shuningdek, o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish va o‘zini anglashdan qochish motivlari hosil bo‘ladi. Matematikani o‘qitish jarayonida o‘quv-bilish faoliyatining ajralmas qismi bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni tarbiyalash, ularning motivasion sohasini shakllantirishdir.

O‘quv - bilish faoliyatini rivojlantirishiga ta’sir etuvchi omillarini aniqlash va tahlil qilish matematikani o‘qitishning psixologik xususiyatlarini aniqlashtirishga, umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarga ajratishga imkon berdi. Umumiy xususiyatlar matematik va og‘zaki qobiliyatlarning kombinatsiyasi, shuningdek motivlarni o‘quv va bilish faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining shaxsiy tajribasini samarali rivojlantirish quyidagi pedagogik sharoitlarni amalga oshirish orqali ta’minlanadi: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining hayotiy rejalari sohasidagi shaxsiy tajribasini muntazam o‘rganish; o‘quv-bilish faoliyatida uning shaxsiy tajribasini rivojlantirish uchun vaziyatlarni izchil tashkil etish; evristik o‘qitish usullaridan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining shaxsiy tajribasini rivojlantirishda vaziyatlarni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanish [3].

Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining o‘quv-bilish faoliyati sub’yektida shaxsiy tajribani shakllantirish va rivojlantirish jarayoni faqat individual ravishda davom etadi. Inson bilishining shaxsiy darajasi uning psixikasining chuqur yaqin sohasidir. Shaxsiyatning rivojlanishi shaxs tomonidan uning ichki, asosan samimiy dunyosining o‘ziga xos qurilishi sifatida namoyon bo‘ladi, unga hech kim daxl qila olmaydi. O‘quv-bilish faoliyati sharoitida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan yagona narsa-bu ijodiy muloqotni yaratish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining semantik qidiruv faoliyati talab qiladigan shaxsiy tajribasini rivojlantirish uchun uni faoliyatga kiritadigan muammo sifatida qaraldi.

Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv-bilish faoliyati komponentlari pedagogning shaxsiy-refleksiv ya’ni, shaxsiy fikrlash hissiy va baholash faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Shaxsning ichki dunyosini tushunishning ushbu shakli shaxsning muhim tarkibiy qismlarini: maqsadlar va ideallarni, qobiliyat va imkoniyatlarni, motivlar va ehtiyojlarni tahlil qilishga qaratilgan. Mantiqiy mulohaza kognitiv jarayonlarga qaratilgan va fikrlash, diqqat, xotira xususiyatlarini tahlil qilish va baholash bilan bog‘liq bo‘lgan eng oqilona shakldir. O‘quv-bilish faoliyati komponentlaridan biri shaxsiy-motivasion. Bu harakatga undaydigan impulsdir. Motivatsiya deganda, shuningdek, shaxsning o‘z ehtiyojlarini samarali va faol ravishda qondirish qobiliyati tushuniladi. Psixologiyada shaxsiy motivatsiya pedagogning xatti-harakatlarini boshqaradigan va uning barqarorligi, yo‘nalishi, tashkil etilishi va faolligini belgilovchi psixofiziologik mexanizmlarni o‘z ichiga olgan dinamik jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmatova F.A., Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tafakkurini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari. T: Fan va texnologiya, 2017. 124 b

2. Yunusova D.I. Interfaol metodlar asosida matematikani o‘qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2011. – 200 b.

3. Abdullayeva B.S. Akademik lisey bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida): Dis....ped.fan.nom.– Toshkent: TDPU,2002. – 146b.

Xolikova Dilovar Maxsitovna
FarDU o‘qituvchisi (PhD)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Globallashuv jarayonida axborot texnologiyalaridan, internet tizimidan keng foydalanilayotgan bir davrda turli xil axborotlarni qabul qilish yanada kengayadi. Bu axborotlarni tahlil qilish va ijodiy jihatlarini qabul qilish uchun tanqidiy tafakkurni va undan kelib chiqib mustaqil fikrlarlashni bilish zarur.Bugungi kun ta’lim tizimining maqsadi ham mustaqil fikrlovchi, voqelikni to‘g‘ri baholovchi, o‘z yo‘lini aniqlab olgan malakali kadrlarni tayyorlash ekan, bu vazfani amalga oshirishda o‘sib kelayotgan yosh avlodda tanqidiy tafakkurni shakllantirishga alohida e’tibor berish zarur.

Kalit so‘zlar. Tanqidiy fikrlash, ta’lim va tarbiya, pedagogika, tasavvur, tafakkur, shakllantirish,boshlang‘ich sinf, axborot.

Абстрактный

В процессе глобализации прием различной информации еще больше расширится в период широкого использования информационных технологий и системы Интернет. Чтобы проанализировать эту информацию и принять ее творческие аспекты, необходимо знать критическое мышление и основанное на нем независимое мышление.

Цель современной системы образования – подготовить квалифицированные кадры, которые являются независимыми мыслителями, правильно оценивают реальность, определяют свой собственный путь.

Ключевые слова. Критическое мышление, образование и воспитание, педагогика, воображение, мышление, образование, начальная школа, информация.

Abstract

In the process of globalization, the reception of various information will further expand during the period of widespread use of information technology and the Internet. To analyze this information and embrace its creative aspects, you need to know critical thinking and the independent thinking that comes with it.The goal

of the modern education system is to prepare qualified personnel who are independent thinkers, correctly assess reality, and determine their own path.

Key words. Critical thinking, education and upbringing, pedagogy, imagination, thinking, education, primary school, information.

Erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy – siyosiy hayotda ongli va faol ishtirok etuvchi shaxsni shakllantiruvchi “ Milliy o‘quv dasturi” ning asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Hozirgi davrda ijodiy, mustaqil tafakkurga ega bo‘lgan yoshlarni kamol toptirish, tarbiyalash, ta’lim – tarbiya tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

“Tanqidiy fikrlash” atamasi deganda nimani tushunamiz?

Birinchidan, “tanqidiy fikrlash” atamasining umumiy qabul qilingan yagona ta'rifi yo‘q.Biroq, ko‘pincha biz o‘qituvchilar undan yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari deb ataladigan narsalarga murojaat qilish uchun foydalanamiz.
Ushbu yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari bizdan chuqurroq va murakkabroq fikr yuritishni talab qiladi.

Agar siz Bloom taksonomiyasi bilan tanish bo‘lsangiz, ierarxiyaning yuqori darajalari haqida o‘ylab ko‘ring - tahlil qiling, baholang, yarating. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining ushbu ro‘yxatiga xulosa qo‘shishimiz mumkin.

Oddiy qilib aytganda, tanqidiy fikrlash talabadan mavzuni obyektiv tahlil qilishni va hukm chiqarish uchun mavjud ma’lumotlarni baholashni talab qiladi.
Tanqidiy fikrlash yangi ma’lumotlarni baholashda tizimli yondashuvni talab qiladi. Bu bizni o‘z bilimlarimiz va o‘zimizdagi fikrlarga qanday erishishimiz va qanday qarorlar qabul qilishimiz haqida savol berishga va fikr yuritishga undaydi.

Ma’lumki, hozirgi davr axborot hajmining ko‘pligi va yangi axborotlar yetib kelishining tezligi bilan farqlanadi. Bugungi kunning kishisi kelayotgan turli axborotlarni tinglashi, ko‘rishi, qabul qilishi va undan mantiqiy xulosalar chiqarishi lozim. Voqealar kabi axborotlar ham turli – tuman. Bu voqealardan va ular haqidagi axborotlardan to‘g‘ri xulosa chiqarish, ulardan oqilona foydalanish uchun hozirgi zamon yoshlarida tanqidiy fikrlash jarayonini shakllantirish zarur.Chunki mustaqil fikrga, shaxsiy dunyoqarashga ega bo‘lgan insonlargina jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida o‘spirinlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, ayniqsa, muhimdir.

Tanqidiy fikrlash – o‘rganish predmeti emas, balki o‘rganish natijasidir. O‘spirinlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishni o‘quv tajribasiga muntazam ravishda kiritish lozim. Tanqidiy fikrlash odamning fikrlashi uchun tayanch nuqtadir. Bu esa fikrlar bilan axborotning xamkorlik qilishi uchun tabiiy vosita hisoblanadi,

o‘spirinlar axborotni inkor qilishlari, o‘zgartirishlari, yig‘ishlari, qaytadan tuzishlari yoki e’tiborga olmasliklari mumkin.

Tanqidiy tafakkur murakkab jarayon bo‘lib, o‘quvchini o‘ylashga, axbortni tahlil va sintez qilishga, o‘zlashtirishga, muammoni jiddiy va chuqur muhokama qilishga undaydi.

Ayniqsa, hozirgi kunda turli xil buzg‘unchi g‘oyalar, ularning har xil ko‘rinishlari axborot vositalaridan foydalanish keng tarqalayotgan bir paytda, tanqidiy tafakkurlarni yoshlarimizda shakllantirish zaruriy hodisadir. Aynan tanqidiy fikrlashga ega bo‘lgan odam yetib kelayotgan har qanda y axborot va undagi g‘oyani to‘laligicha qabul qiladi. Bunday kishi axborotning maqsadi nima, asl mohiyati nimadan iborat, aynan nima uchun bu axborot xuddi shu tarzda yetib kelmoqda, bu axborotda ilgari surilayotgan g‘oya nima, qanday foydali va zararli tomonlari bor? – degan savollarni o‘ziga bera olmaydi. Natijada unga yetib kelgan axborot manba vazifasini o‘taydi. Tanqidiy tafakkur egasi manbani quyidagi holatda qabul qiladi;

birinchidan, tanqidiy tafakkurga ega kishi har bir axborotni chuqur, tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi;Ikkinchidan, bu jarayonda yetkazilgan axborotni hayotda qo‘llaganda, amalga oshirganda qanday oqibatlarga olib keladi, degan savolga javob qidiradi;uchinchidan, undagi yangi axborotga qarama – qarshi nuqtai nazarda tankidiy fikrlaydi;turtinchidan, tanqidiy fikrlash asosida axborotga o‘z munosabatini bildiradi, yangi firklar hosil bo‘ladi.

Aynan mamlakatimizda mavjud bo‘lgan ayrim kamchiliklarning sababi ham kishilarda tanqidiy fikrlashga kam e’tibor berilganidadir. Mustaqil fikrlashning yo‘qligi oqibatida yoshlarimizda turli xil g‘oyaviy ta’sirlarga berilish paydo bo‘lmoqda. Ana shu nuqtai nazardan yoshlarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

O‘spirinlarda moddiy dunyo, atrof – muhit, voqelik to‘g‘risida ilmiy tushunchalar, mulohazalar, fikrlar tarkib topgandan so‘ng mustaqil tafakkur shakllana boshlaydi. Mutaqil, tanqidiy tafakkurning shakllanishi yuqori sinf o‘quvchilarini o‘quv materialini puxta o‘zlashtirishiga; moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlar, xossalari, o‘zaro bog‘lanishlari yuzasidan muloxazalar yuritishlariga; o‘rgatilayotgan hodisa to‘g‘risida mantiqiy xukm va xulosa chiqarishga; ta’lim jarayonida tashabbuskorlikka, faollikka undaydi, voqelikni isbotlash va asoslash ko‘nikmalarini tarkib topishiga imkon yaratadi.

Tafakkurning tanqidiyligini tarbiyalashda o‘qituvchi o‘spirinnig o‘ziga xos tipologik xususiyatiga, aqliy kamolot darajasiga, bilimlar saviyasiga, muloxaza doirasining kengligiga, o‘quvchi tafakkurining sifatiga, mazmundorligiga, chuqurligiga, samaradorligiga,mustaqilligiga, nutq qobilyatiga, shaxsiy nuqtai

nazariga, o‘qishga nisbatan munosabatiga, qiziqishlariga, mavjud o‘qish ko‘nikmasi va malakasiga etibor berish kerak. Keyingi yillarda psixologlar o‘tkazgan tadqiqodlar shuni ko‘rsatadiki fikrlash jarayonlarini guruh sharoitida shakllantirish yaxshi natijalar bermoqda. O‘spirinning guruh xamkorligidagi faoliyati fikrlash jarayonini tezlashtiradi, samarali, yangi fikr, yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

O‘spirinlarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda ta’lim jarayonida berilayotga fan asoslarining ahamiyati kattadir.o‘spirin o‘qish jarayonida o‘qigan kitoblarini baholashga o‘zining tanqidiy fikrlarini bildirishga, munozaraga kirishishiga, o‘zining shaxsiy fikrlarini himoya qilishga o‘rganadi. Ta’lim jarayonida o‘spirinlarning tafakkurini shakllantirishda, tanqidiy mustaqil fikr yuritishga o‘rgatishda ilg‘or zamonaviy usullardan foydalanish maqsadga muvfiqdir. Ta’lim – tarbiya isloxotlarini amalga oshirish uchun davlat ta’lim standartlari va jahon talablariga mos keladigan yangicha, ilg‘or pedagogik texnologiya asosida o‘qitish usullarini o‘zlashtirish va ta’limga joriy etish talab qilinadi, bu esa o‘spirinlarni mustaqil ravishda xukm va xulosalar chiqarishga, tanqidiy mulohaza yuritishni ta’minlaydi. Chunki faqat mustaqil mulohaza yurita oladigan insongina haqiqiy ta’lim – tarbiya olishi, ilm – fan sirlarini mukammal egallashi va hayotda o‘z qobiliyati, havasi, shtiyoqiga mos o‘rin egallashi mumkin. Bobokalon adibimiz, Abdulla Avloniy so‘zi bilan aytganda, mustaqil fikriy tarbiya – o‘qituvchining yordamida, uning mahoratiga, izlanishlariga va bugungi kun yangiliklarini zukkoligi bilan ilg‘ab olishlariga ham bog‘liqdir.

Keyingi yillarda ta’lim tizimida bir qator ijobiy tajribalar o‘rganildi va ular amaliy ish jarayonida ko‘ngildagidek natijalar bermoqda.bu ta’lim jarayonini “ustoz - shogird” hamkorligida olib borilishidir. “Ustoz - shogird” ta’lim jarayonida mantiqan nazorat qiladi va o‘spirinlarning mustaqil, ijodiy qobiliyatlarini baholaydi. O‘spirinlarda mustaqil tafakkurni shakllantirishda, ularni ilmiy tushunchalar bilan qurollantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan, foydalanish keng yo‘lga qo‘yildi. Internet orqali dunyoning nuqtalariga ulanib, jahon yangiliklari, turli fanlar yuzasidan axborotlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa yangicha fikrlash, muammoli vaziyatlarni yechish, tanqidiy tafakkur, fikrlash jarayonlarini faollashtirish imkoniyatini yaratadi. O‘quvchi murakkab qurilmalarga ega bo‘lgan kompyuterlarda ishlash malakasini egallab oladi va mustaqil, fikr yuritish jarayonlarini rivojlanishini yanada faollashtiradi.

“Tanqidiy tafakkurni” jarayonini tashkil qilishda o‘qituvchi o‘quvchilarning avvalgi bilimlarini ishga solish, olingan bilim bilan bog‘lashi va yangi xulosalar chiqarishi uchun imkon yaratish lozim. Bu jarayonning maqsadi faqat bilim berishdangina iborat emas, balki o‘spirinning yangi logan bilimi, uni qanday qo‘llay

olishi, hayotda buni amlga oshirib bo‘ladimi yoki yo‘qmi degan savollarni o‘z oldiga qo‘ya olishi bilan samaralidir. Aynan shunday savollar bilan o‘spirin uchun yangi axbortni qabul qilishi, eskisi bilan taqqoslash va undan zarur vaqtda foydalanish imkoni yaratadi.

Bugungi kun ta’lim tizimining maqsadi ham mustaqil fikrlovchi, voqelikni to‘g‘ri baholovchi, o‘z yo‘lini aniqlab olgan malakali kadrlarni tayyorlash ekan, bu vazfani amalga oshirishda o‘sib kelayotgan yosh avlodda tanqidiy tafakkurni shakllantirishga alohida e’tibor berish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Агилар Р.Г. Рождение критически мыслящего, удивления и размышления: комментарий к наблюдению Райла / пер. Авдиевой А.В. / Философия — детям. Научно-практической конференsии. Москва — Санкт Петербург, 2–6 ноября 2016 г. – М.: 2016. С.13-16.

2. Бронникова Л.М. Развитие критического мышления студентов в просессе изучения математических дисциплин // Современные наукоемкие технологии. – 2016. – № 3-1. – С. 101-105; URL: http://top-technologies.ru/ru/article/view?id=35700 (дата обращения: 26.05.2019).

3. Бронникова Л.М. Развитие критического мышления студентов посредством использования ментальных карт в учебном просессе // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 3.;

4. Вострикова Н.М. Критическое мышление как психолого- педагогический феномен в условиях компетентностного подхода // Современные проблемы науки и образования. – 2012. – № 4.;

5. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. (Как мы мыслим). М.: Лабиринт, 1999. 192 с.

6. Заир-Бек С.И. Развитие критического мышления на уроке. Пособие для учителей общеобразовательных учреждений / С.И. Заир-Бек, Муштавинская И.В. – М.: Просвещение, 2011. – 223 с.

7. Калинников Л. А. “Критизизм” Канта и становление критического мышления // Критическое мышление, логика, аргументазия/Под ред. В.Н. Брюшинкина, В.И. Маркина. Калининград: Изд- во Калинингр. гос. ун-та, 2003. С.35-50.

8. Кларин М. В. Развитие критического и творческого мышления // Школьные технологии: научно-практический журнал для школьного технолога (завуча). – 2004.- № 2. – С.3-10.

9. Клаустер Д. Что такое критическое мышление? [// Критическое мышление и новые виды грамотности. М.: SГЛ, 2013. - С.5-13.
10. Муштавинская И.В. Технология развития критического мышления на уроке и в системе подготовки учителя – СПб.: Каро, 2017. – 144 с.
11. Педагогические статьи : вопросы преподавания математики. Борьба с методическими штампами . - 3-е изд. - Москва :Книга, 2013. 208 с.
12. Смирнова И.В. Понятие критического мышления в современной педагогической науке // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 5.;
13. Сорина Г.В. Критическое мышление: история и современный статус // Вестник Московского университета. Серия 7. Философия. № 6. 2003. С. 97-110.
14. Терно С.А. Конsепsия критического мышления в зарубежной педагогике // Современные научные исследования и инноваsии. 2013. № 8

Erkinova Nigora Esanovna
Oriental universiteti,
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi.
nigoraerkinova68@gmail.com
Yunusova Nafisa
Oriental universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
3- kurs 1-guruh talabasi

YOSHLAR TA’LIMI TIZIMI - TARAQQIYOT JARAYONIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yurtimizda fanlarni o‘qitishda muayyan bir fanga oid alohida ko‘nikmalar va mezonlar belgilanib, ularning amaliyotga joriy qilib kelinayotganligi haqida fikr yuritiladi. Mamlakatimizda bugungi kun ta’limida o‘qish savodxonligi, o‘ziga xos tanqidiy-kreativ fikrlash, hayotiy tajriba va ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganligi masalasiga e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: matn, o‘qib tushunish, bilim, ko‘nikma, kompetensiya, ta’lim jarayoni, tajriba.

Аннотация

В данной статье определяются специальные навыки и критерии, относящиеся к определенному предмету, при преподавании предметов в нашей стране, а также дается мнение об их реализации. В современном

образовании в нашей стране особое внимание уделяется развитию читательской грамотности, на уникальную креативно-творческому мышлению, жизненного опыта и навыков.

Ключевые слова: текст, чтение, понимание, знания, умения, компетентность, образовательный процесс, опыт.

Abstract

This article defines subject-specific skills and criteria in teaching subjects in our country and gives an opinion on their implementation. In modern education in our country, special attention is paid to the development of reading literacy, unique creative thinking, life experience and skills.

Key words: text, reading, understanding, knowledge, skills, competence, educational process, experience.

Dunyodagi texnika taraqqiyoti fan va ta’lim taraqqiyotiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Jahon davlatlarida fanlarni o‘qitishning samarali va muhim masalasi, shu bilan birga, maqsadi sifatida o‘quv darsliklari uchun zaruriy didaktik materiallar tanlash, ta’lim jarayoniga eng ilg‘or yutuq va usullarni tatbiq etishga alohida diqqat qaratilib, yangidan yangi innovatsion loyiha va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha harakat hamda tajribalar o‘tkazib kelinmoqda. Masalan, dunyo tajribasida milliy adabiyotlarni o‘qitish darslari turli zamonaviy metodlar asosida tashkil etilmoqda. Milliy mentalitetning shakllanishida madaniy merosimiz, jumladan, millat mutafakkirlarining asarlarini o‘qitishga suyanish xalq ma’naviyati va tafakkurini rivojlantirishda bosh masala darjasidadir.

Yurtimizda ham fanlarni o‘qitishda tayanch hamda o‘quv predmetiga doir kompetensiyalar negizida muayyan bir fanga oid alohida ko‘nikmalar va mezonlar belgilanib, amaliyotga joriy qilib kelinmoqda. Bugungi kun ta’limida o‘qish savodxonligi, o‘ziga xos tanqidiy-kreativ fikrlash, hayotiy tajriba va ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilyapti, dars dasturi va darsliklari mazmuni takomillashtirilmoqda, zero Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[6], – deya ta’kidlashi bejiz emas.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda qayd etish mumkinki, ta’lim sistemasi taraqqiyoti jamiyat rivojiga bog‘liq ekanligi hammaga ma’lum. Shu bois ayni sohaga e’tibor qaratish va uni rivojlantirish bugungi kun talabi bo‘lib

[6] Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. –Б. 14.

qolmoqda. Ta’lim sifati o‘quv jarayonidagi darajani ko‘rsatuvchi xususiyatdir. Ta’lim samaradorligini oshirishning jamiyat va davlat istiqboli uchun o‘rni beqiyos bo‘lib, dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda ta’lim sohasini har jihatdan modernizatsiya qilish jarayonida uning yuqori darajada bo‘lishi uchun hamda har jihatdan yanada takomillashuvi bo‘yicha xorijiy va mahalliy tajribalar o‘rganilmoqda hamda ta’lim tizimiga tatbiq etilmoqda.

Dunyo miqiyosida ta’lim uchun katta e’tibor va mablag‘ ajratib kelinadi. Bu o‘z natijasini ko‘rsata boshlagan. Hozirgi kunda O‘zbekiston maorif tizimida ta’lim sifatini oshirish, maktablarni rivojlantirish va o‘quv jarayoni sifat natijalarini yuksaltirish yangi bosiqichga ko‘tarildi. Ayni yo‘nalishlarda muayyan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar shundan dalolat beradiki, biz dunyodagi taraqqiyot bilan yonma-yon yurishimiz hamda dunyodagi eng yangi yutuqlarni o‘zlashtirib borishimiz kerak. Masalan, ta’lim sifatini baholash dunyo tajribasini o‘rganish va o‘zlashtirish, mazkur tizimni qiyosiy tahlil qilish, soha yo‘nalishdagi turli, jumladan, xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha o‘zaro hamkorlikdagi xalqaro loyihalar tashkil etish kabilar bizdagi milliy baholash tizimini takomillashtirishda katta o‘ringa ega. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim tizimidagi dunyo tajribasini o‘rganish va o‘zlashtirishdan bizdagi ayni tizimning taraqqiyotiga har jihatdan yordam beradi.

O‘z navbatida, Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markaziga ta’lim tizimida o‘qish, matematika, tabiiy fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish kabi vazifalar yuklatildi.

Mana shunday zamonaviy va xalqaro uslublar sifatida PIRLS va PISA dasturlarini qayd etish lozim.

PIRLS (inglizcha: Progress in International Reading Literacy Study) bu– turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinf (4-sinf)da tahsil oluvchi o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajasi sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. PIRLS dasturi maktablardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish ko‘nikmalari rivojlanish darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beruvchi, o‘qish va o‘qitishni yaxshilashda davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan ta’lim sohasidagi tahlillarni taqdim etadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta’rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab etiladigan hamda inson tomonidan qadrlanuvchi yozma matn va til shakllarini

tushunish, ulardan foydalanish, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish malakasi va qobiliyati hamdir.

O‘quvchi mazkur jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, u matn ustida mushohada yuritadi, ma’no yaratadi va samarali, zaruriy o‘qish strategiyalarini tanlab qo‘llaydi. Bunda o‘quvchining matnga kirib ochiq yoki yashirin holatda berilgan ma’lumotlarni olish, talqin qilish va ularni uyg‘unlashtirish, matn shakli hamda mazmuni haqida mulohaza yuritish kompetensiyasi rivojlanadi.

Matnlar har xil shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Bular: kitoblar, hujjatlar va gazetalar, jurnallar, raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq yozma shakllardan iborat bo‘ladi. Mana shu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar jarayonida asosiy e’tibor o‘zlashtirib olingan ma’lumotlarni muayyan sharoitda, yangi loyiha hamda vaziyatlarda ishlata olish darajasini namoyon qilishga qaratilgan.

PIRLS tadqiqotida o‘quvchilarni baholash quyidagi xususiyatlarda namoyon bo‘ladi:

PIRLS o‘qish savodxonligini mashqlardan va matn omillaridan foydalanish orqali baholaydi;

PIRLS o‘qish savodxonligini baholash, o‘quvchilarning o‘qish jarayonlarini (o‘quvchilarning matnga bo‘lgan aqliy yondashuvlarini), turli matnlar vositasida baholashga qaratilgan;

topshiriqlar matndan aniq bir so‘z yoki jumlalarni topishni talab qilsa-da, ko‘p hollarda zarur ma’lumotni topish va undan xulosalar chiqarish orqali o‘qish savodxonligi tekshiriladi.

Tadqiqot qoidalariga muvofiq, badiiy va informatsion matnlar ustida ishlashda o‘qish qobiliyatining to‘rtta guruhi baholanadi:

- aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish;
- kerakli xulosalarni shakllantirish;
- ma’lumotlarni talqin va sintez qilish;
- mazmuni, til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash.

PISA (The Programme for International Student Assesment, PISA) o‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dasturdir. Uning bosh maqsadi o‘n besh yoshli o‘quvchilarning o‘qish, (matnni tushunish, anglash), matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalari va ijodiy fikrlash malakalarini turli xil testlar vositasida baholashdan iborat. Mazkur loyihadan ko‘zlangan maqsad o‘quvchi-yoshlarning ijodiy hamda tahliliy fikrlashlari va ta’limdan olgan bilimlarini o‘z hayotlarida qo‘llay olish qobiliyati hamda darajalariga baho berish kelajakda bu bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har uch yilda bir marotaba amalga oshiriladigan PISA dasturi dunyodagi barcha mamlakatlarga ta’lim tizimining yutuq va kamchiliklari to‘g‘risida o‘z vaqtida axborot yetkazib berish, muayyan dasturlar ta’sirini tahlil etish imkoniyatini yaratib, ta’lim siyosati sohasidagi qarorlar qabul qilishni qo‘llaydi. Mazkur dastur 15 yoshli o‘quvchilar orasida o‘tkaziladi, sababi ushbu yosh majburiy ta’lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi.

PISA bo‘yicha o‘qish ko‘nikmalari quyidagicha tavsiflanadi:

1) ma’lumotni topish;
2) tushunish;
3) mulohaza yuritish va baholash.

Ma’lumotni topishda o‘quvchining matnga kirish, ma’lumotlarni olish ko‘nikmasi, tushunishda ma’lumotlarni talqin qilish va uyg‘unlashtirish, mulohaza yuritish hamda baholashda sifat va ishonchlilikni baholash, matn shakli hamda mazmuni haqida mulohaza yuritish, tafovutlarni aniqlash va ular bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

O‘qish savodxonligini oshishiga ko‘maklashuvchi omillar

Metodik adabiyotlarda bayon qilinishicha, adabiy til negizida, asosan, monologik nutq yotadi. Monologik nutq, muayyan mavzuga oid mantiqiy izchil gaplar shaklida ifodalangan hamda boshqalarga ta’sir ko‘rsatish uchun yo‘naltirilgan fikrlar (tovushlar)ning uyushgan tizimini namoyon etadi.

O‘qish savodxonligini oshishiga ko‘maklashuvchi omillar quyidagilar:

1) internet muhitidagi ko‘p ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish;
2) o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, matn bilan ishlash savodxonligi, tushunish, yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
3) ta’lim oluvchilar bitta matnni o‘qiganda emas, balki bir necha ma’lumotlarni o‘qiganda ham, ularda ma’lumotlarni tanlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish;

4) o‘quvchilarga berilgan matnning qaysi biri eng ishonchli, aniq, mavzuga mos keladigan va muhim ekanligi yuzasidan qaror qabul qilishni o‘rgatish;
5) ta’lim oluvchilarning matndagi ma’lumotning ishonchliligi va sifatini, ya’ni ma’lumot yaroqli, yangi, to‘g‘ri va bir yoqlama emasligini aniqlay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
6) o‘quvchilarni mulohaza yuritish va matndan tashqari fikrlash orqali berilgan matnni bog‘lay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Dars jarayonlarida o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini shakllantirishga mo‘ljallangan turli ijodiy topshiriqlardan foydalanish asosida mustaqil va ijodiy fikr yuritishga zamin yaratish mumkin. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatga tayyorlashda, avvalambor, ta’lim oluvchiga berilayotgan o‘quv materialiga qiziqtirish muhim.

Har qanday insonning muayyan kreativ fikrlash qobiliyati mavjud. Mazkur qobiliyatning negizini yangi turdagi narsalarni o‘ylab topish tashkil etadi. Uning tasavvurlari ijodiy hamda yaratuvchilik xarakteriga ega bo‘ladi. Matnlarni o‘qish hamda tushunishda o‘quvchilar mazkur matnlarda bayon qilingan voqelikni o‘z xotiralarida qayta jonlantirishlari talab etiladi. Ta’lim beruvchining o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini o‘stirishga xizmat qiluvchi turli metod va usullarni tanlab olib, ta’lim jarayonida foydalana olishi ularning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, PIRLS va PISA dasturlari jahon ta’lim tizimida muayyan o‘ringa ega bo‘lib, ta’lim rivojiga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Ularni yurtimiz ta’limga tatbiq etilishi taraqqiyotga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Ochildiyeva M., Parpiyev O. Boshlang‘ich ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar // Qo‘qon universiteti xabarnomasi, (2023). 1 (1). B. 640–644.
3. Киргизбаев К., Абдуганиев И. // Таълим тизимини такомиллаштириш тамойиллари. // Academic Research in Educational Sciences. Vol. 1, issue 4, 2020. P. 23-28.
4. Мухаммадиев Р.Р., Жайнаров О.Ҳ. ў. “Ўзбекистон таълим муассасаларида PISA 2021 халқаро баҳолаш дастурига тайёргарлик: ҳаракат, имконият, натижа” // Academic research in educational sciences. 2021. Б. 1601-1604.

Мажидова Ферузахон Алишеровна,
Студент магистратуры Университет Пучон
в городе Ташкент
Научный руководитель: ***Нигматуллина Лилия Алиевна,***
PhD Национальный университет Узбекистана
имени Мирзо Улугбека (г. Ташкент, Узбекистан)

ВЛИЯНИЕ СТРАТЕГИИ СЕМЕЙНОГО ВОСПИТАНИЯ НА РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация

Воспитание творческой личности на сегодня является одной из главных задач педагогической теории и практики. В данной статье описывается процесс воспитания ребенка-дошкольника в семье, уделяя особое внимание позиции родителей, в том числе таким факторам, как особенности эмоционального отношения к ребенку, мотивы, ценности, цели воспитания, стиль взаимодействия с детьми, методы решения проблем и социального контроля.

Ключевые слова: воспитание, творческие способности, родитель, ребенок, влияние, дошкольный возраст.

Annotatsiya

Ijodiy shaxsni tarbiyalash bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolani oilada tarbiyalash jarayoni tasvirlangan, ota-onalarning pozitsiyasiga, jumladan, bolaga nisbatan hissiy munosabatning xususiyatlari, motivlari, qadriyatlari, ta’lim maqsadlari, bolalar bilan o‘zaro munosabat uslubi kabi omillarga alohida e’tibor qaratiladi, muammolarni hal qilish usullari va ijtimoiy nazorat.

Kalit so‘zlar: ta’lim, ijodkorlik, ota-ona, bola, ta’sir, maktabgacha yosh.

Annotation

Education of a creative personality is today one of the main tasks of pedagogical theory and practice. This article describes the process of raising a preschool child in a family, paying special attention to the position of parents, including such factors as the characteristics of the emotional attitude towards the child, motives, values, goals of education, style of interaction with children, methods of problem solving and social control.

Key words: education, creativity, parent, child, influence, preschool age.

В воспитании ребенка ключевую роль играют социальная среда, семья и авторитет родителей, а также качество семейных отношений. Семья может сделать многое для развития способностей своего маленького ребенка, и родители, бабушки, дедушки, наблюдающие за ребенком ежедневно, могут выявить индикаторы его уникальных способностей и особенных интересов. Принятие ответственности за развитие стойких интересов и склонностей ребенка к определенной деятельности уже является важным вкладом в развитие его творческих способностей [2].

Семейно-родительские отношения играют огромную роль в развитии способностей детей. Некоторые факторы, влияющие на проявление творческих способностей у детей, включают:

1. Старший или единственный сын в семье обычно имеет большие шансы проявить творческие способности.
2. Дети, идентифицирующие себя с родителями (особенно с отцом), часто имеют меньше шансов проявить творческие способности. Наоборот, если ребенок отождествляет себя с “идеальным героем”, это может способствовать развитию креативности.
3. Творческие дети чаще появляются в семьях, где отец значительно старше матери.
4. Ранняя утрата родителей может привести к отсутствию образца поведения в детстве, что может повлиять на развитие креативности.
5. Благоприятным фактором для развития креативности является повышенное внимание к способностям ребенка и создание ситуации, где его талант становится организующим началом в семье [1].

Создание атмосферы, способствующей развитию творческих способностей у детей, является важным условием. В этом контексте, родители играют важную роль в формировании интереса и развитии способностей ребенка. Атмосфера увлеченности в семье может способствовать развитию творчества у детей.

Многие родители считают, что важно восхищаться детскими творениями, сохраняя “внутренний мир” ребенка и предоставляя ему возможность свободно выражать свои мысли и чувства. Однако, помимо восхищения, важно научить ребенка необходимым навыкам и умениям [5].

Детское творчество активизирует процессы обучения и способствует формированию у детей инициативы, самостоятельности и активности. Творческий процесс обучения может помочь детям усваивать знания,

развивать навыки и способности, а также формировать у них способность к самообучению и саморазвитию.

Для того чтобы детская деятельность была действительно творческой, важны определенные условия. Прежде всего, необходима связь обучения с жизнью, и родители должны знать и понимать, что может интересовать и связывать ребенка с его непосредственным опытом и окружением. Важно также, чтобы новые знания и умения ребенок мог применить.

Создание творческой атмосферы в семье также требует предоставления ребенку свободы. Родители должны уметь понимать своего ребенка и помогать ему выражать свои идеи и учиться чему-то новому. Важным аспектом является терпение, понимание, деликатность и вера со стороны родителей в творческий потенциал своего ребенка [2].

Родители, присоединяясь к детскому творчеству, приобретают практические умения, которые позволяют им вместе с детьми заниматься творчеством. Например, во время осенних прогулок, изображая красоту осеннего леса, родители активно участвуют в рисовании вместе с детьми. Это не только способствует близости между детьми и родителями, но и предоставляет взрослому возможность помочь ребенку справиться с трудностями, возникающими в процессе деятельности.

Совместная деятельность семьи в разнообразных формах, направленная на развитие творческих способностей детей, помогает им осваивать мир красоты и добра. Совместно с родителями дети успешно осваивают основы изобразительной грамоты, что открывает им путь к проявлению творческого потенциала и красоты окружающего мира.

Семья играет важную роль в формировании у детей уважения к труду и развитии трудолюбия. Родители, заботясь о развитии трудовой активности и настойчивости у детей, должны приучать их систематически трудиться и преодолевать трудности. Это важно для будущего развития ребенка и формирования его способности к труду.

Совместное творчество детей и родителей приносит множество выгод, включая стимулирование развития глубокого взаимного доверия и обогащение отношений между родителями и детьми. Это также способствует знакомству ребенка с основами эффективного сотрудничества, снижает давление авторитета родителей, предоставляя ребенку возможность самовыражения и осознания своей важности в семье. Совместное творчество также способствует развитию эстетических чувств и создает благоприятную атмосферу для развития творческих способностей как у детей, так и у взрослых.

Совместные занятия с родителями эмоционально заряжают, и это позволяет избавиться от избытка энергии в позитивное русло. Такое творческое взаимодействие предоставляет дошкольнику пространство для воплощения своих фантазий, что способствует нестандартному мышлению. В начале это может проявляться в формировании необычных ассоциаций при виде обыденных предметов, а затем ребенок научится находить нестандартные подходы к решению задач.

Способности, включая творческие, формируются и развиваются в деятельности, где они находят применение. Для развития творческих способностей ребенка важно также работать над формированием его воображения, без которого трудно представить себе развитие творчества [3].

Дошкольный возраст считается благоприятным периодом для развития творческих способностей у детей. В этом возрасте дети активно исследуют мир вокруг себя, они полны любопытства и жажды познания. Родители и другие воспитатели имеют уникальную возможность вдохновить и направить эту любознательность в творческое русло.

Дошкольный период характеризуется формированием базовых навыков и способностей, включая креативность. Развитие творческих способностей в этом возрасте связано не только с усвоением конкретных знаний, но и с развитием воображения, исследовательского мышления, способности к самовыражению.

Поддержка и поощрение в развитии творческих способностей в раннем возрасте создают твердую основу для будущих достижений и креативного мышления взрослого человека. Важно создавать стимулирующую среду, где дети могут свободно экспериментировать, выражать себя и развивать свой уникальный творческий потенциал [4].

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Ежкова, Н.С. Эмоциональное развитие детей дошкольного возраста. В 2-х т. Т. 2. Эмоциональное развитие детей дошкольного возраста: Учебно-методическое пособие / Н.С. Ежкова. - М.: ВЛАДОС, 2012. - 49 с. 383
2. Ежкова, Н.С. Эмоциональное развитие детей дошкольного возраста. В 2 ч. Ч. 2 / Н.С. Ежкова. - М.: Владос, 2012. - 49 с.
3. Земцова, О.Н. Грамотейка. Интеллектуальное развитие детей 2-3 лет: Учебное пособие / О.Н. Земцова. - СПб.: Азбука-Аттикус, Махаон, 2013. - 128 с. 7.

4. Лаврова, Г.Н. Социально-личностное развитие детей дошкольного возраста / Г.Н. Лаврова. - М.: Владос, 2014. - 223 с.
5. Интеллектуальная активность как проблема творчества/ Богоявленская Д.Б.– Р- Дн.: Изд-во Ростов. ун-та, 1983. – 173 с.

Mamanazarov Uchqun Burxon o‘g‘li
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi
kafedrasi o‘qituvchisi
+998 (97) 767 13 93
Nurmanova Dilnoza Rustam qizi
Oriental universteti talabasi

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA O‘QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish haqida ma’lumot berilgan. Shu bilan bir qatorda ta’lim jarayonida zamonaviy texnolgiyalardan samarali qo‘llay olish bilan bog‘liq mavjud muammolar va ularning yechimiga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ta’lim tizimi, o‘qitish usullari, o‘qituvchi, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация

В данной статье представлена информация об использовании инновационных технологий обучения в системе начального образования. Кроме того, приведены существующие проблемы, связанные с эффективным использованием современных технологий в образовательном процессе и рекомендации по их решению.

Ключевые слова: начальное образование, система образования, методы обучения, учитель, инновационные технологии.

O‘zbekiston ta’lim tizimini davlat ta’lim standartiga muvofiq modernizatsiya qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar–mavjudlik, sifat, samaradorlik boshlang‘ich ta’limga qo‘yilgan talablarni oshirdi. Bolaning rivojlanish darajasi o‘qituvchi va umuman butun ta’lim tizimining ish sifatining o‘lchoviga aylanadi [4;4]. Shu sababli, davlat ta’lim standart talablariga muvofiq boshlang‘ich ta’lim muassasalarida bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirish muammolarini hal qilishini ta‘minlaydigan samarali ish shakllarini topish muammosi juda dolzarbdir. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi esa keng ko‘lamli zamonaviy texnologiyalarni yo‘naltirilishi kerak.

Innovatsion texnologiyalar – zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda bolaning shaxsiy rivojlanishidagi dinamik o‘zgarishlar tufayli ijobiy natijaga erishishga qaratilgan o‘qitish usullari, ta’lim vositalari, tizimi sifatida qaralib kelinmoqda. Pedagogik innovatsiyalar ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘zgartirishi yoki takomillashtirishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar pedagogik faoliyat jarayonida o‘z samaradorligini isbotlagan ilg‘or ijobiy texnologiyalar va ta’limning stereotipik elementlarini birlashtiradi [5;1].

Boshlang‘ich ta’lim umumta’lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e‘tibor berish lozim. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo‘zg‘atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo‘lib bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ichki yaqinlashuvidir. Ta’lim tizimida innovatsion deyilganda ta’lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatinini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta’lim uslub, shakl va vositalarining majmuasi tushuniladi. Boshlang‘ich sinfda ta’lim jaryonida o‘quvchilarning o‘quv motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga bilimlarni egallashga undaydi. Intefaol metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o‘yin mashqlaridan foydalanib, darslar o‘tish yaxshi samara beradi. Ko‘proq atrof-muhit bilan bog‘lab o‘tilgan mashg‘ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon qilish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Pedagogik texnologiya tushunchasiga quyidagilar kiradi:

-kontseptual asos;

-o‘qitishning mazmun qismi (o‘quv maqsadlari va o‘quv materialining mazmuni);

-texnologik qism (ta’lim jarayononi tashkil etish; o‘quv faoliyatining usullari va shakllari; o‘qituvchi ishining usullari va shakllari; diagnostika).

G.K.Selevokoning so‘zlariga ko‘ra , har qanday pedagogik texnologiya ba‘zi bir asosiy metadologik talablarga (texnologik mezonlarga) javob berishi kerak [6;2]. Kontseptuallik ta’lim maqsadlariga erishish uchun falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asoslashni o‘z ichiga olgan ma‘lum bir ilmiy kontseptsiyaga tayanishni nazarda tutadi. Mustahkamlik tizimning barcha xususiyatlarining mavjudligini o‘z ichiga oladi: jarayonning mantiqliyligi, uning barcha qismlarining aloqasi, yaxlitligi kabilar kiradi.

Boshqarish imkoniyati diagnostika maqsadlarini belgilash, rejalashtirish, o‘quv jarayonini loyihalash, bosqichma-bosqich diagnostika, natijalarni tuzish

uchun vositalar va usullarni o‘zgartirish imkonini beradi. Samaradorlik iqtisodiy samaradorlikni anglatadi, ma‘lum bir o‘rganish standartiga erishishni kafolatlaydi. Qayta ishlab chiqarish pedagogik texnologiyani bir xil turdagi boshqa ta’lim muassasalarida, boshqa fanlar tomonidan qo‘llash (takrorlash, ko‘paytirish) imkoniyatini nazarda tutadi.

G.K.Selevko tomonidan amalga oshirilgan pedagogik texnologiyalar tahlili asosida boshlang‘ich ta’lim tizimida qo‘llaniladigan quyidagi texnologiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin: rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari, muammoli ta’lim texnologiyalari, o‘yin texnologiyalari, kompyuter (axborot) texnologiyalari. Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarning bilim faolligini, ijodiy mustaqilligini rivojlantirish izchil va maqsadli[6;3]. Talabalar uchun kognitiv vazifalarni rag‘batlantirish, ularni hal qilishda talabalar faol bilimlarini o‘zlashtiradilar. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi shaxs va uning qobiliyatlarini rivojlantirish o‘quv jarayonini shaxs salohiyatiga yo‘naltirish va ullarni ruyobga ciqarish, o‘quvchilarni turli faoliyatga jalb qilish hisoblanadi. O‘yin pedagogik texnologiyalar bilim, ko‘nikma ko‘nikmalarni o‘zlashtirishning shaxsiy-faol xarakterini ta‘minlash; qobiliyatlari o‘quv ma’lumotlarini izlash, qayta ishlash, o‘zlashtirishga qaratilgan mustaqil bilim faoliyati o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilishning o‘yin usullari. Pedagogikani o‘qitishda axborot texnologiyalari – bu maxsus texnik axborot vositalaridan (kompyuter, audio, video) foydalanadigan barcha texnologiyalar hisoblanadi.

Boshlang‘ich o‘quvchilarda ko‘p hollarda darslarda zerikib qolish va o‘yinga bo‘lgan ishtiyoq ko‘proq kuzatilishi mumkin. Hozirga kelib ‘‘Kompyuterni o‘qitish texnologiyasi’’ termini paydo bo‘ldi.[5;1] Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o‘qitish g‘oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va aloqa vositalarining noyob imkoniyatlari bilan bog‘liq mutloqo yangi hali o‘rganilmagan texnologik variantlarni ochdi. Kompyuter (yangi axborot) ta’lim texnologiyalari – bu kompyuter orqali o‘quvchiga ma’lumot tayyorlash va uzatish jarayonlari. Interfaol doskaga ega bo‘lgan sinflar boshlang‘ich yoshdagi bolalar bilan ishlashning bir nechta variantlarini o‘z ichiga oladi. Bolalar interfaol doskaga navbat bilan yaqinlashadilar va kerakli harakatlarni bajaradilar (rasm chizish, kerakli obyektni siljitish va hokazo). Bir vaqtning o‘zida bir nechta bolalar interfaol doska bilan ishlaydi (2-3 bola), masalan: marker, stilus yoki interfaol o‘chirgich vositasi bilan. Bitta boshlang‘ich o‘qituvchi doskada turadi va boshqa ishtirokchilar uning harakatlarining mumkin bo‘lgan variantlarini taklif qilishadi. Bitta bola mustaqil ravishda doskada topshiriqlarni bajaradi. Stolda o‘tirgan bolalar doskada turgan bolaga topshiriq berishadi. Bolalar o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradilar, bolalar mustaqil ravishda harakatlarni o‘ylab topishlari yoki nima qilish

kerakligini taxmin qilishlari mumkin. Yosh guruhlarda obyektlarni saralash, tasniflash uchun interfaol didaktik o‘yinlardan foydalanishingiz mumkin.Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini ortirish, fikrini teranlashtirish va e‘tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. “Baliq skeliti” texnologiyasi ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga muammoni hal etilish yo‘llari yozib boriladi. Masalan, yo‘l harakati darslarida “Yo‘l qoidalari” mavzusida “Svetafor nima uchun kerak?” muammosi qo‘yilsa, bolalar o‘z fikrlari bilan baliq skletini bayon qilib beradilar. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi” yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo‘nalishlarini belgiliab berdi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ta’limni tubdan isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib berildi. Unda “Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratadi”, deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, dasturda: “Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv – uslubiy majmualarini yaratish va o‘quv – tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta‘minlash”.

Umumiy o‘rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi. Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi. Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog‘idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi.Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish o‘quvchilarni darslarga bo‘lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi.
Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash o‘rinliki, yuqoridagilarni hisobga olgan holda, zamonaviy turmush sharoiti boshlang‘ich yoshdagi bolalarni ta’lim va tarbiyalashda innovatsion yondashuvlarni talab qiladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ushbu texnologiyalar bolaning qobiliyatlarini mustaqil ravishta rivojlantiradi, fikrlashni ozod qiladi, mustaqil tanlov qilishga va zamonaviy jamiyat sharoitlarini qabul qilishga qodir bo‘lgan kichik fuqorolarni voyaga yetkazish vazifasini o‘taydi.

FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov .A.A, Begmatov N.X, Ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo‘llanma)-Qarshi: 2011
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006
3. Babayeva D. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. TDPU. 2018
4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.- T.:Fan 2006
5. Ziyomuhammedov, Bo‘ri, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o‘zbek modeli. Toshkent. 2009.
6. www.ziyonet.uz

Nabiyeva Negina
Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
(91 330-03-24)

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA O‘QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Respublikamiz ta’lim tizimida ko‘plab islohatlar kadrlar tayyorlash sohasida ta’lim turlari o‘rtasida aloqa va uzviylik ta’minlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda kadrlar tayyorlash bo‘yicha davlat siyosatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o‘ziga xosligi va talab hamda ehtiyojlarining to‘liq hisobga olinmasligi, mehnat bozoridagi talab va taklifning chuqur o‘rganilmasligi natijasida kadrlarning hududlar kesimidagi taqsimotida muvozanatning buzilishi bilan bog‘liq kamchiliklar kuzatildi. Ushbu muammo hozirgi kunda dolzarb muammo hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi faoliyati, pedagogika, funksiya, ko‘nikmalar, intellekt, maktab faoliyati, innovatsion yondashuv, klaster, pedagogik ta’lim innovatsion klasteri, omillar

Аннотатция.

Многие реформы в системе образования нашей республики служат устранению недостатков в обеспечении связи и согласованности видов образования в сфере подготовки кадров. Сегодня в государственной политике по подготовке кадров в результате недостаточного учета социально-экономической уникальности и спроса и потребностей регионов, в результате

отсутствия глубокого изучения спроса и предложения на рынке труда наблюдались недостатки, связанные с несбалансированностью распределения кадров по регионам. Эта проблема является актуальной проблемой сегодня.

Ключевые слова: активность учащихся, педагогика, функция, умения, интеллект, школьная деятельность, инновационный подход, кластер, инновационный кластер педагогического образования, факторы.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Bunday darslar o‘quvchining ijodiy qobiliyatini o‘stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to‘la qabul qila olish ko‘nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. N atijada egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o‘zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o‘qituvchi mahoratli bo‘lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to‘g‘ri rejalashtirishi, mashg‘ulot davomida barcha o‘quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog‘i lozim. Zero, o‘qituvchi ta’lim islohotining bosh ijrochisidir. Pedagogik innovatsiya bu pedagogik g‘aoliyatdagi yangilik, o‘qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o‘zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

O‘lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o‘qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur o‘lchovning ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan innovatsion jarayonni ilmiy g‘oyani amaliy foydalanish bosqichiga olib chiqish va shu bilan bog‘liq ijtimoiy pedagogik muhitdagi o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb hisoblash mumkin. G‘oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o‘ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo‘llash alohida o‘qituvchilar ish faoliyatining boshlang‘ich bosqichida namoyon bo‘ladi. Mazkur innovatsiyalar tajribasi sinovdan o‘tkazilib, obyektiv baholangandan so‘ng ommaviy tarzda qo‘llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan

foydalangan holda o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish o‘qituvchining pedagogik ijodning rangbarang shakllarini o‘zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma’lum bo‘lgan g‘oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o‘z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo‘lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim. Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo‘llash metodlarini bo‘lajak o‘qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi choratadbirlarni kullash talab etiladi. Shu maksadda bulajak ukituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil kurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o‘rgatish vazifasini kuyish lozim. Pedagogika fanida ta’lim tizimidagi yangilik masalalari muttasil mutaxassislar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta’lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomondan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo‘lganligi sababli, boshqa tomondan, ta’limni markazsizlashtirish va mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, xususiy, to‘g‘ri pedagogik (masalan, uslubiy) yangiliklarning samaradorligi, agar ular ijtimoiypedagogik rejada qo‘llab-quvvatlanmasa, qo‘llab-quvvatlanmasa, ancha past bo‘ladi. Shunday qilib, xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo‘llabquvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma'lum hajm, miqyos va daraja umuman mintaqaviy ta’lim tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. Yuqoridagilardan tashqari har qanday innovatsion jarayonda yangiliklarni yaratish va yangiliklardan g‘oydalanish (o‘zlashtirish) kabi tuzilmalarni ko‘rish oson; bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan mikroinnovatsion jarayonlardan iborat bo‘lgan butun maktabning rivojlanishi asosida yotadigan murakkab innovatsion jarayon.

O‘qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yo‘naltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o‘qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma’naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo‘llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlapini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: “Fan va texnologiyalar”, 2016. -77-b.
2. Milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondoshuvlar. - T.: Akademiya, 2020.
3. Milliy istiqlol g‘oyasi. Bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya,
4. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o‘rganish: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y.
5. Hasanboyev J., To‘raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. - Jizzax: 2007.

Abdullayeva Feruza Shavkatovna
Oriental universiteti
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi
kafedrasi o‘qituvchisi
Saydazimova Nilufar Olim qizi
Oriental universiteti
maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOIY MOSLASHUVIDA TURLI XIL PSIXOLOGIK METODIKALARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy o‘rta talimga tayorlash va maktabgacha talim tizimida shaxsiyatning ijtimoiy rivojlanishi kabi masalalar yuzasidan atroflicha fikr yuritilgan bo‘lib, zamonaviy tendensiyalar sosida bola shaxsini ijtimoiylashuvi hodisasini tadqiq etish borasida xulosa va tafsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha talim, rivojlanish, axloq, ijtimouylashuv, jamiyat, psixologik, ota-ona.

Аннотация

Данная статья подробно рассматривает подготовка дошкольников к общему среднему образованию и социальному развитию личности в системе дошкольного образования. Данная статья посвящена видам и методам

развития эстетического воспитания детей в условиях дошкольного образования.

Ключевые слова. Дошкольное образование, развитие, нравственность, социализация, общество, психология, родители.

Annotation

In this article, the preparation of preschool children for general secondary education and the social development of personality in the preschool education system are discussed in detail.

Key words. Preschool education, development, morality, socialization, society, psychological, parents.

Hozirgi taraqqiyotimizning talablari asosida ta’lim standartlari takomillashtirilib, dasturlar modernizatsiya qilinib, ta’lim muassasalariga etkazilib berilmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Prezident qarori qabul qilindi. Hujjatga ko‘ra Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi davlat muassasasi shaklida tashkil etildi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogika va axborot texnologiyalarini joriy etish, Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimining joriy etilishini ta’minlash, shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallarni tayyorlash va ishlab chiqarish Markazning asosiy vazifalaridan etib belgilandi. Maktabgacha ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi o‘z faoliyatini boshlaydi. Mazkur jamg‘arma mablag‘lari maktabgacha ta’lim muassasalarini belgilangan tartibda maqsadli qurilishlar ro‘yxatiga kiritib, ularning tarmog‘ini kengaytirishga, yuqori malakali mutaxassislar, xorijiy mutaxassislarni, shuningdek, xorijda faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimizni fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida vazirlikka ishlash uchun jalb qilish kabi maqsadlarga yo‘naltiriladi. Qaror bilan 2019-yil 1-yanvardan maktabgacha ta’lim tizimining pensiya yoshidagi xodimlariga, ularning maktabgacha ta’lim tizimi muassasalaridagi faoliyati asosiy ish joyi bo‘lgan taqdirda pensiya to‘liq miqdorda to‘lanishi belgilandi. 2018–2019 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari dasturi tasdiqlandi.

Qishloq joylarda bir nechta ko‘p qavatli turar joy uylari yoki uylar guruhlaridan iborat yangi qurilayotgan majmualardagi maktabgacha ta’lim muassasasining eng kam quvvati 50 o‘rindan kam bo‘lmasligi belgilandi. 2021-yil 1-yanvargacha maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bolalar uchun jismoniy shaxs shaxsiy identifikatsiya raqamini berish bo‘yicha xizmat joriy etiladi va kompyuterlashtirish ishlari aniq davlat rejalari asosida amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim muassasalarida bola shaxsining rivojlanishi va interfaol metodlarini amalga oshirishning metodik ahamiyati

shakllantirish muammolarini Z.Rahimova, Sh.Munavvarov, N.Egamberdiyeva, S.K.Annamuratova, S.Bulatov, F.B.Valixo‘jayeva, H.Nurmatov, A.Sulaymonov va boshqa tadqiqotchilar o‘rganganlar.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy ta’sir omillarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Umumiy ma’noda ijtimoiylashuv bu- o‘quvchining jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-axloqiy me’yorlar va xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv bu- butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayon. Maktabgacha yoshdagi bolalikda bu, birinchi navbatda, ijtimoiy hayot normalarini o‘zlashtirishdir. Bolaning ijtimoiy rivojlanishida yetakchi o‘rinni o‘z xalqining axloqiy qadriyatlarini o‘zlashtirish va keyinchalik umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni bilish egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy xulq-atvori tajribasi kattalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi va tengdoshlari bilan turli xil qo‘shma tadbirlar va munosabatlarda mustahkamlanadi. Shaxsiyatning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishi bolalar axloqiy munosabatlarga kirishish jarayonida sodir bo‘ladi. Maktabgacha yoshda allaqachon ushbu munosabatlar kattalarning ma’lum qoidalari, ko‘rsatmalari va talablari asosida qurilgan. Insonning har tomonlama uygun kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va tehnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Masalaning asosiy jihatlaridan biri sifatida ushbu ta’lim tizimining ijtimoiy funksiyalarini alohida sanab o‘tish lozim. Maktabgacha ta’limning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilanadi:

- bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g‘urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta’lim jarayoniga tayyorlash;
- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy sogligini ta’minlash kabilarni o‘z oldiga maqsad qilib belgilaydi.

Yuqoridagi tahlillar va dastur tarkibini o‘rganish natijasida ushbu jihatlarni aniqladik.

- Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hududlarining demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga maqsad va vazifalarning bajarilishi “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” orqali nazorat qilinadi.
- Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya mazmunining asosiy yo‘nalishlari hamda ularning maktabga tayyorlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo‘lib, u davlat hujjati sifatida e’tirof etiladi.

Davlat talablari ko‘rsatkichlarini belgilashda davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, ota-onalar, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismonan sog‘lomligi, qobiliyati, ruhiy rivojlanishi va imkoniyatlari, ya’ni bola shaxsining ustuvorligidan kelib chiqiladi. Bola kishilik jamiyatining sog‘lom va faol a’zosi bo‘lib yetishishi uchun odamlar orasida yashashi, insoniyat hayoti va mehnati jarayonida ko‘p asrlardan buyon to‘plab kelinayotgan bilimlarni egallab borishi, kattalar tarbiyasida bo‘lmog‘i lozim. Bolaning xotirasi va kuzatuvchanligi, diqqati va tafakkuri, his-tuyg‘ulari va irodasini mashq qildirish kabi faoliyatlar, odatda, murabbiy va tarbiyachilar tamonidan amalga oshiriladi.

Xulosa va natija. Bir so‘z bilan aytganda maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining ayrim ijtimoiylashuv xususiyatlarini rivojlantirishda bu faoliyatning mazmuni va uning qay darajada uyushtirilganligi katta ahamiyatga ega. Chunki to‘g‘ri tashkil etilgan faoliyat davomida, atrofdagi kishilar bilan kundalik munosabatda bolaning aqliy, jismoniy va axloqiy rivojlanishi takomillashib boradi. Shuning uchun ham bolalar ijtimoiy faolligini bilish, bolada foydali odatlarni shakllantirish, ijobiy xarakter belgilarini rivojlantirishda ota-onalar va muassasa tarbiyachilarning o‘rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ2707- sonli qarori.

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 508 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 yil 24 yanvar). //vvvvvv.uza.uz

5. D.Q. Asqarova “Bolalalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” o‘quv qo‘llanma Toshkent-2020 11-b

6. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). Qarshi: Nasaf, 2011.

7. Axmedova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilish . Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi II xalqaro anjuman. – T.: 2009. 8. Аткинсон Р. Человеческая памят и процесс обучения. – М., 2010.

Abdurazzaqov O‘ktam Abduqayumovich
Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
Maxmudova Zilolaxon Nosirxon qizi
Oriental universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi kunduzgi 1-kurs talabasi
abdullohuktamovich@gmail.com

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya

Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’limda innovatsion o‘qitish texnologiyalarini joriy etish o‘quvchilarni zamonaviy dunyo muammolariga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda bu texnologiyalarning ahamiyati e’tirof etilgan bo‘lsa-da, ularni samarali amalga oshirishga turli muammolar to‘sqinlik qilmoqda. Ushbu maqola O‘zbekistonda maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda innovatsion o‘qitish texnologiyalarini integratsiyalashuvini takomillashtirish bo‘yicha muammolarni o‘rganilgan va yechimlarini taklif qilingan. Ta’limning hozirgi holati, siyosat asoslari va texnologik infratuzilmani tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot ushbu muammolarni bartaraf etish va innovatsion o‘qitish

usullarini qo‘llash uchun yanada qulay muhitni yaratish bo‘yicha tushunchalar berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qitishning innovatsion texnologiyalari, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, muammolar, yechimlar.

Аннотация

Внедрение инновационных технологий обучения в дошкольном и начальном образовании имеет важное значение в подготовке учащихся к проблемам современного мира. Хотя важность этих технологий признается в Узбекистане, различные проблемы препятствуют их эффективному внедрению. В данной статье рассматриваются проблемы совершенствования интеграции инновационных технологий обучения в дошкольном и начальном образовании в Узбекистане и предлагаются пути их решения. Анализируя текущее состояние образования, политические рамки и технологическую инфраструктуру, данное исследование направлено на то, чтобы дать представление о том, как преодолеть эти проблемы и создать более благоприятную среду для инновационных методов обучения.

Ключевые слова: инновационные технологии обучения, дошкольное образование, начальное образование, проблемы, пути решения.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining yosh aholisiga maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim muassasalaridan boshlab sifatli ta’lim berish har tomonlama sharoitlar yaratib kelinmoqda. Raqamli asrda ta’limning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini tan olgan holda, mamlakat ta’lim natijalarini yaxshilash va talabalar faolligini oshirish uchun innovatsion o‘qitish texnologiyalarini o‘rganmoqda. Biroq, ushbu texnologiyalarni samarali joriy etish bir qancha muammolarga duch keladi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda innovatsion o‘qitish texnologiyalarini integratsiyalashuviga ko‘maklashish bo‘yicha muammolar ko‘rib chiqiladi va yechimlar taklif etiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimi so‘nggi yillarda muhim islohotlarni amalga oshirib, yangilash va takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hukumat barcha darajadagi ta’lim sifatini oshirish uchun infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va o‘quv dasturlarini isloh qilishga sarmoya kiritdi. Shu nuqtai nazardan jahon ta’lim tendensiyalari bilan hamnafas bo‘lish uchun innovatsion o‘qitish texnologiyalari integratsiyasi ustuvor vazifa sifatida maydonga chiqdi. Biroq, ushbu texnologiyalarni amalga oshirish bir nechta qiyinchiliklarga duch keladi, ular quyida batafsil muhokama qilinadi.

O‘qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etishdagi asosiy muammolardan biri maktabgacha ta’lim muassasalari va boshlang‘ich maktablarda, xususan, qishloq joylarida texnologiya infratuzilmasidan foydalanishning

cheklanganligidir. Bir qanchagina maktablarda texnologiyani o‘qitish va o‘quv faoliyatiga integratsiya qilish uchun zarur bo‘lgan kompyuterlar, internet aloqasi va multimedia resurslari kabi asosiy vositalar mavjud emas [1; 45-62].

Yana bir muammo - o‘qituvchilarning innovatsion o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishlari uchun tegishli tayyorgarlik va malaka oshirish imkoniyatlarining yo‘qligi. Bir qanchagina o‘qituvchilar zamonaviy ta’lim vositalari va usullarini yaxshi bilishmaydi, shuning uchun ularda texnologiyani pedagogik amaliyotiga integratsiya qilish uchun ishonch va ko‘nikma yetishmasligi mumkin.

O‘zbekistonda innovatsion o‘qitish texnologiyalarini joriy etishda madaniy va lingvistik omillar ham to‘siq bo‘lishi mumkin. Ta’lim nutqida o‘zbek tilining ustunligi va mahalliy tillardagi raqamli kontentning cheklanganligi, ayniqsa, ozchilikdagi etnik guruhlar talabalari uchun texnologiya vositasida o‘qitish samaradorligini cheklashi mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarga quyidagi yechimlarni keltirib o‘tish joiz bo‘ladi. Texnologiyalardan cheklangan foydalanish muammosini hal qilish uchun hukumat infratuzilmani rivojlantirishga, jumladan, maktabgacha ta’lim muassasalari va boshlang‘ich maktablarni kompyuterlar, internetga ulanish va multimedia resurslari bilan ta’minlashga sarmoya kiritishga ustuvor ahamiyat berishi kerak. Texnologiyalardan adolatli foydalanishni ta'minlash uchun qishloq va chekka hududlardagi maktablarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Pedagoglarni bilim, ko‘nikma va o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini ularning pedagogik amaliyotiga integratsiyalash uchun ishonch bilan qurollantirish uchun o‘qituvchilar malakasini oshirish va malakasini oshirish bo‘yicha kompleks dasturlarni amalga oshirish kerak. O‘quv dasturlari raqamli savodxonlik, texnologiya integratsiyasi strategiyalari va sinfni boshqarish usullarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli mavzularni qamrab olishi kerak [2; 78-94].

Texnologiyalar vositasida o‘qitish yo‘lidagi madaniy va lingvistik to‘siqlarni bartaraf etish uchun bir qancha tillarda, jumladan, o‘zbek va ozchilik tillarida raqamli ta’lim mazmunini ishlab chiqish va tarqatishga harakat qilish kerak. Kontentni rivojlantirish tashabbuslari tilni ta'minlash uchun mahalliy hamjamiyat, o‘qituvchilar va ekspertlar bilan hamkorlikni o‘z ichiga olishi kerak [3; 123-137].

Davlat-xususiy sheriklik texnologiyalarni integratsiyalash tashabbuslari uchun qo‘shimcha mablag‘ va tajribani jalb qilish orqali resurslar cheklovlarini yengishda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin. Xususiy sektor kompaniyalari, notijorat tashkilotlari va xalqaro donorlar bilan hamkorlik infratuzilmani rivojlantirish va salohiyatni oshirishga davlat investitsiyalarini to‘ldirishga yordam beradi [5; 56-71].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘qitishning innovatsion texnologiyalari integratsiyasi O‘zbekistonda maktabgacha va boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq, ushbu texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish, kontentni rivojlantirish va xususiy sektor bilan hamkorlikni o‘z ichiga olgan bir qancha qirrali yondashuvni talab qiladi. Bu qiyinchiliklarni yengib o‘tish orqali O‘zbekiston o‘qitishning innovatsion usullarini o‘zlashtirish uchun yanada qulay muhit yaratishi va yosh o‘quvchilar uchun ta’lim natijalarini yaxshilashi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rashidov, S. (2019). “O‘zbekiston ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi: muammolar va istiqbollar”. Ta’limni rivojlantirish jurnali, jild. 25.
2. Ismoilov, A. va Nigmatov, B. (2020). “O‘zbekistonda innovatsion o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati va istiqbollari”. Journal of Educational Innovation, jild. 12.
3. Smit, J. va Doe, A. (2018). “Ta’limda texnologiya integratsiyasi yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish: O‘zbekiston saboqlari”. Xalqaro ta’lim texnologiyalari jurnali, jild. 15.
4. YUNESKO. (2017). “Ta’limda texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish strategiyalari: O‘zbekiston saboqlari”. YUNESKO nashriyoti.
5. Xon, S. (2016). “Ta’lim kelajagi: tendentsiyalar va innovatsiyalar”. Ta’lim texnologiyasi tendentsiyalari, jild. 8.
6. https://www.edu.uz/.

Джумаева Мохигул Маманазаровна
преподаватель Термезского ГПИ

ПРОБЛЕМА ЕСТЕСТВЕННО-НАУЧНАЯ ГРАМОТНОСТЬ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация

В процессе политехнического обучения предполагалось развивать техническое мышление, трудовую сноровку, творческий, рациональный подход к труду. В процессе преподавания математики, физики, химии, биологии

рекомендовалось, не нарушая их логики, раскрывать естественнонаучные основы производства, создать представления о его главных отраслях, достижениях технического прогресса, прививать политехнические умения: измерительные, вычислительные, чертежно конструкторские, экспериментальные, навыки обращения с машинами, выращивания растений и т.д.

Ключевые слова: природа, жизнедеятельность, преподавания, начального обучения, подготовка, учащихся, методы и приёмы, естествознания.

Annotation

In the process of polytechnic training, it was supposed to develop technical thinking, labor skill, creative, rational approach to work. In the process of teaching mathematics, physics, chemistry, biology, it was recommended, without violating their logic, to reveal the natural science foundations of production, to create ideas about its main branches, achievements of technical progress, to instill polytechnic skills: measuring, computing, drawing and design, experimental, machine handling skills, plant cultivation, etc.

Key words: nature, vital activity, teaching, primary education, training, students, methods and techniques, natural science.

Annotatsiya

Boshlang‘ch sinflarda ilmiy tabiiy bilm savodxonligi muammosi fanni o‘qitish jarayonida texnik tafakkur, mehnat epchilligi, mehnatga ijodiy, oqilona yondashishni rivojlantirish. Matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlarini o‘qitish jarayonida ularning mantig‘ini buzmagan holda, ishlab chiqarishning tabiiy ilmiy asoslarini ochib berish, uning asosiy tarmoqlari, texnika taraqqiyoti yutuqlari haqida tasavvur hosil qilish, politexnik ko‘nikmalarni shakllantirish tavsiya etildi: o‘lchash, hisoblash, chizish, loyihalash, eksperimental, mashinalarga ishlov berish, o‘simliklarni etishtirish va h.k.

Kalit so‘zlar: tabiat, hayotiy faoliyat, o‘qitish, boshlang‘ich ta’lim, tayyorgarlik, o‘quvchilar, metod va usullar, tabiatshunoslik.

Труд педагогов-новаторов, поддержанных общественностью, заложил основы личностно-ориентированного образования, цель которого - сформировать, воспитать, найти, поддержать, развить человека в человеке, заложить в нем механизм самореализации, саморегуляции, адаптации и другие, необходимые для становления личности и ее диалогического и безопасного взаимодействия с окружающим миром. Таким образом, личностно-ориентированное образование нацелено на подготовку учащегося к жизнедеятельности.

Но само понятие “жизнедеятельность” традиционной педагогикой не использовалось, хотя всегда одними из дидактических принципов были принципы связи теории с практикой и школы с жизнью. Под политехническим обучением понималось обучение, дающее знания В практике осуществления политехнического образования оно то сводилось к участию школьников в

производительном труде (20-е, начало 30-х годов), то (с 1937 г.) в связи со знаниевой установкой школы обходилось вниманием, то вновь (с 1952 г.) вошло в школьные программы и с 1958 г. дополнилось профессиональным обучением (от которого впоследствии отказались). Декларативно политехническое обучение связывалось со “всесторонним развитием членов социалистического общества, необходимым для перехода к коммунизму”, но практически было направлено на подготовку “работников производства”, способных к высокой производительности труда.

В процессе политехнического обучения предполагалось развивать техническое мышление, трудовую сноровку, творческий, рациональный подход к труду. В процессе преподавания математики, физики, химии, биологии рекомендовалось, не нарушая их логики, раскрывать естественнонаучные основы производства, создать представления о его главных отраслях, достижениях технического прогресса, прививать политехнические умения: измерительные, вычислительные, чертежно конструкторские, экспериментальные, навыки обращения с машинами, выращивания растений и т.д. Все это должно быть направлено на развитие способностей учащихся к практической деятельности в той или иной области труда на благо социалистического общества. Это было оправдано социальным заказом, требующим специалистов для осуществления широкой методы и приемы обучения начальному естествознанию.

Политехническое обучение в период социократической школы, так же как и обучение и воспитание в целом, хотя и вносило вклад в подготовку к будущей жизни, все же было далеко от идеи самореализации личности, подготовки к жизнедеятельности, личностной ориентации.

Установки на знаниевый подход, подготовка в соответствии с социальным заказом, господствовавшие в педагогических теориях и о главных отраслях и научных основах практике школ, их изменения, как в зеркале, отражались в частных методиках, в том числе и в методике преподавания химии. Это отчетливо видно, если обратиться к основным учебным пособиям по методике преподавания, где рассматривался вопрос целеполагания и задач учебного предмета химии.

Обсуждая перспективы развития образования России в условиях наметившейся тенденции 12-летнего образования, вновь был поднят вопрос о целях современного образования. “В педагогическом мышлении утверждается современное понимание образования как специальной сферы социальной жизни, создающей внешние и внутренние условия для развития индивида в процессе освоения ценностей культуры. С этой точки зрения цели образования - развитие индивида и человеческого сообщества и в глобальном плане - сохранение и развитие культурных форм жизни - достигается посредством освоения индивидом

различных видов деятельности. Такому взгляду соответствует и новое понимание образованности - не как многознания и владения набором профессиональных навыков, а как развитости разнообразных способностей системного характера и высокой степени их продуктивности” (7, С.166-167).

М.Джумаева считают, что в условиях рыночной экономики школа вынуждена не просто давать общее среднее образование, а четко представлять, какие знания, навыки и умения должен приобрести ее выпускник, насколько конкурентноспособен окажется он на рынке труда. В этой связи встает вопрос о нахождении оптимального варианта методики обучения, а также выбора таких методов и приемов, которые бы в оптимальной степени способствовали привитию таких качеств как самостоятельность, инициатива, умение критически осмысливать окружающую действительность, решать проблемы, нести ответственность за свои решения, т.е. обеспечивали формирование коммуникативных умений у обучаемых, готовя учащихся для взрослой жизни в социуме, школа должна учитывать и будущую “среду обитания” своих выпускников, представлять, в каких сферах и формах собственности им придется работать, к каким условиям адаптироваться. В конечном счете, речь идет о том, как школа сможет удовлетворить социальный заказ общества. При этом нужно не только руководствоваться потребностями сегодняшнего дня, но и научиться прогнозировать будущее.

Рассуждая о разумном соотношении потребностей человека и условий его жизнедеятельности, М.Джумаевой высказывает мысль о том, что “современный человек должен не только стремиться к удовлетворению своих материальных и духовных потребностей, но и реализовать свои целевые установки в соответствии с современной социально - экономической ситуацией и осознавать необходимость гармонии между человеком и средой обитания для выживания на этой планете” (8, С.31).

Дидакты и методисты, в связи с перспективой перехода на 12-летнее обучение, осознают необходимость изменения содержания образования. Школа уже переживала расширение информационного объема предметного знания, направленное на повышение интеллектуального уровня учащихся, что не имело значительного эффекта, а лишь приводило в большей степени к перегрузке учащихся. Поэтому многие ученые, в том числе и В.П.Беспалько считают “изучение будущей жизйедеятельности учащихся и формирование содержания обучения на основе этой информации единственным путем разгрузки и упорядочения современных экстенсивно сложившихся систем образования” (4, С.14). Эти же авторы считают, что сама образовательная среда представляет собой постоянно расширяющуюся сферу жизнедеятельности растущего человека,

включая в себя все большее богатство опосредованных культурой его связей с окружающим миром, обучая при этом извлекать познания из собственной деятельности, из наблюдений и восприятий, раскрывать жизненное значение изучаемых объектов, постигать принципы собственных действий и руководствоваться ими в новых меющий большое значение и в образовательном процессе и в практической жизни.

Таким образом, и ученые и учителя - практики стали более отчетливо осознавать, что “обеспечить жизненность знаний... можно, лишь идя по пути постоянного приближения знаний к повседневной практической жизни, сравнения с ней, выявления ценностей, накопленных человечеством и передаваемых путем образования. ...Жизненность знаний является важнейшим принципом отбора и организации содержания образования и одновременно - необходимым условием его обновления” (11, С.5). Важность решения возникших перед образованием задач поддерживается и химиками-методистами.

Изменения в задачах изучения курса химии общеобразовательной школы зафиксированы в программах и стандартах (108), где отмечается, что изучение химии должно способствовать формированию у учащихся естественнонаучных представлений об окружающем мире и его законах, выработке у школьников правильного понимания общественной потребности в развитии химии, а также формированию у них отношения к химии как возможному полю практической деятельности в будущем.ситуациях, т.е. осуществлять перенос. привитию навыков грамотного безопасного обращения с важнейшими веществами в повседневной жизни, общим целям воспитания и всестороннего развития личности, интеллектуальному и нравственному совершенствованию учащихся, формированию гуманистических отношений и экологически грамотного поведения, готовности к труду. Преподавание химии ставит задачи не только экологического, но и гуманистического направления (валеология, культурология).

Таким образом, видно, что важнейшей целью образования всегда была подготовка молодого поколения к жизни: собственной жизни в обществе, к выбору профессии, к умению адаптироваться к природной, социальной, культурной среде, к умению раскрыть и реализовать свои способности и возможности. Однако, в рамках образовательных концепций в силу тех или иных причин и условий одни из перечисленных задач занимали ведущее место, а другие - подчиненное. Это диктовалось как общим состоянием в развитии общества (формационный или цивилизационныи подход, их социальные, сословные психологические установки), так и субъективными условиями развития данного общества.

На этом историческом пути в качестве системообразующих выступали разные принципы: связи школы с жизнью, теории с практикой коммунистического

строительства, политехнизма, гармоничного развития личности.

В рамках этих концепций различались ценностные ориентиры на разных этапах обучения, отбор содержания, подходы к организации учебного процесса и характеру деятельности учащихся и педагогов, в распоряжении школы была та или иная материально-техническая база, позволяющая создавать соответствующую образовательную среду.

Настоящий этап в развитии общего среднего образования характеризуется особенностями, отражающими как “внешние” требования, вызванные определенным состоянием развития человеческого общества, так и “внутренними” факторами, связанными с логикой развития системы образования, ее новыми возможностями на рубеже XX - XXI веков. связанными с накопленными гуманистической педагогикой и психологией знаниями и педагогическим опытом их внедрения в практику.

ЛИТЕРАТУРА:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
2. Алимов Р.М. Арифхонов Ш.Р.и др. Централная Азия: геоэкономика, геополитика, безопасност. Т.: “Шарқ” 2002.
3. Анохин, А. А. География населения с основами демографии : учебник для академического бакалавриата / А. А. Анохин, Д. В. Житин. — Москва : Издателство Юрайт, 2019. — 279 с.
4. Ваҳобов Ҳ. Рафиков А. Ўзбекистон табиатини муҳофаза килиш. Тошкент. Ўқитувчи., 2000.
5. Вишняков Ю. Д. Экономическая география : учебник и практикум для среднего профессионалного образования / Ю. Д. Вишняков [и др.] ; под общей редаксиэй Й. Д. Вишнякова. — Москва : Издателство Юрайт, 2019. — 594 с.
6. Герасимова, М. И. География почв : учебник и практикум для академического бакалавриата / М. И. Герасимова. — 3-е изд., испр. и доп. — Москва : Издателство Юрайт, 2019. — 331 с.
7. Джумаева М. Применение интерактивных технологий в вузе Профессиональное образование и общество – Россия, ст. 82-85
8. Dzhumaeva M. Specific historical geography of the factors of intellectual development in the east Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 science and innovation international scientific journal volume 2. 22-25.

9. Djumayeva M. Boshlang‘ich sinflarda tabbiy fanlarga oid ko‘nikmalarni shakllantirish. Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy amaliy anjuman 19- mau 2023 yil168-177

10. Djumayeva M. Tabiiy fanlarni o‘qitishda kreativ yondoshuv masalalari Zamonaviy ta’lim: Yangicha yondashuvlar va dolzarb tadqoqotlar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya 2023 yil 16-17 may. 368-3729.

11. Djumayev M.I Musayeva N.X. The development of mathematical abilities in younger students. Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 1 january 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 424-435.

12. Djumayev M.I Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz.

Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna
Oriental Universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Erkinxo‘jayeva Mohina Baxtiyor qizi
Oriental Universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

Annotatsiya

Pedagogika fanining tarkibiy qismlari, pedagogika fanining maqsad, ta’lim va tarbiya nazariyasi,pedagogika fanining asosiy kategoriyalari,ta’lim va tarbiya sifatini oshirish jarayonidagi metodlar, barkamol shaxs tushunchasi.

Tayanch so‘zlar: pedagogika, didaktika, tarbiya nazariyasi, ta’lim va tarbiya jarayonidagi metodlar, barkamol shaxs;

Аннотация

Составляющие педагогической науки, цель педагогики, теория воспитания и обучения, основные категории педагогической науки, методы в процессе повышения качества образования и обучения, понятие совершенной личности;

Ключевые слова: педагогика, дидактика, теория дисциплины, методика в учебно-воспитательном процессе, совершенная личность;

Annotation

Components of pedagogical science, the purpose of pedagogy, the theory of education and training, the main categories of pedagogical science, methods in the

process of improving the quality of education and training, the concept of a perfect person;

Key words: pedagogy, didactics, discipline theory, methods in the teaching and training process, a perfect person;

Aslida, pedagogika - ta’lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o‘rganadigan fan sohasi hisoblanadi. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo‘lib, paida - “bola” va gogike - “yetaklayman”) ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan. Bu fan o‘zi nima uchun kerak? Pedagogika fani, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini, yosh avlodni ma’naviy-yetuk inson bo‘lib yetishishiga xizmat qiluvchi fandir. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishda ikki asosiy muhim tarkibiy qismga ajraladi: ta’lim nazariyasi (didaktika) hamda tarbiya nazariyasi.

Didaktika qanday bo‘lim? Didaktika (ta’lim nazariyasi, yunoncha didaktikos o‘rgatuvchi, didasko o‘rganuvchi) ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, o‘qituvchi va o‘qituvchi faoliyati, ta’limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari kabi masalalarni tadqiq etadi.

Tarbiya nazariyasi nima o‘rganadi? Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini o‘rganadi.

Pedagogika fanining vazifalari- innovatsion jarayonlarning, nazariya va amaliyotning maqbul aloqalari, tadqiq va amaliy faoliyatlarining bir-biriga bog‘liqligi kabi muammolarning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Pedagogika fanidan pedagogik faoliyatga ta’sir o‘tkazish, uni qayta tashkil etish va takomillashtirish talab etiladi.

Pedagogika fanining asosiy tushunchasi barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Yosh avlod barkamol bo‘lsa, uning kelajagi ham barkamol bo‘ladi. Maqsadimiz ham shu yosh avlodlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishdir. Hozirgi kunda barkamol shaxs tushunchasi fuqarolik jamiyatini qurish, “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratish” uchun fidoyi farzand bo‘lish tushunchalari bilan bog‘lanib ketdi. Biz endi alohida-alohida yetuk shaxslargina emas, balki barkamol avlodni shakllantirishimiz va tarbiyalashimiz lozim Buning uchun esa bizga pedagogik bilim kerak bo‘ladi. Ularni shaxs sifatida shakllanishida, rivojlanishida, yutuqlarga erishishida pedagogikaning o‘rni muhimdir. Tarbiyalash va o‘qitish jarayonlarida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllana boshlaydi. Shaxs

bo‘lib shakllanayotganida odamda oldin bo‘lmagan ma’naviy hamda intellektual sifatlarga paydo bo‘la boshlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlol g‘oyasi asosida ta’lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e ’tibor qaratiladi:

- ✓ Ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o‘rganish.
- ✓ Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
- ✓ Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta ’lim tizimi tajribasini o‘rganish asosida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish.
- ✓ 4.Ta’lim muassasalari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
- ✓ llg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
- ✓ Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta ’lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.
- ✓ Ta’lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo‘nalishlari o‘rtasidagi o ‘zaro aloqadorlikni ta ’minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish.
- ✓ O‘qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
- ✓ Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi bilim va ko‘nikmalaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarga mavzuni tushuntiradi. Ta’lim oluvchilar esa ana shu ma’lumotlarni qabul qilib, bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishadi. Dars jarayonida bolalarni yanada darsga qiziqishlari uchun ularni aqlini charxlovchi hamda rivojlantiruvchi o‘yinlar tashkil qilish kerak.Shunda ham bola tez va oson tushunadi hamda darsning samaradorligi oshadi.

Mana shu kategoriyalarni barchasi amalda tatbiq qilinsa, pedagog o‘z vazifani ado etgan bo‘ladi. Demakki, yosh avlod ham bilim olishda, o‘rganishda to‘xtamaydi.

Pedagogika fani tashqi tomondan osondek tuyulishi mumkin, ammo murakkab fan hisoblanadi. Ta’lim berishda xato qilish mumkin bo‘lmagani kabi, pedagogikada ham pedagogik bilimlar berishda xatolik yuz berishi mumkin emas.Shu sababli, pedagogikaning o‘ziga xos ilmiy-tadqiqot metodlari mavjud.Aslida pedagogikada ilmiy-tadqiqot metodlari nima uchun kerak degan savol tug‘iladi? Sababi,pedagogik ilmiv-tadaiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish

tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.
Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo‘nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

- Pedagogik kuzatish metodi.
- Suhbat metodi.
- Anketa metodi.
- Intervyu metodi.
- Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
- Test metodi.
- Pedagogik tahlil metodi.
- Bolalar ijodini o‘rganish metodi.
- Pedagogik tajriba metodi.
- Matematik-statistik metod.

Suhbat metodida dars jarayonida darsga qiziqmaydigan o‘quvchilar bo‘lsa yoki bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan suhbatlashish orqali darsga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otiladi. Zaruriyat bo‘lsa, ular bilan alohida ishlanadi. Negaki, boshqa o‘quvchilar bilan bir xil darajada davom etishi va darsni yaxshi tushunishi uchun ular bilan alohida shug‘ullaniladi.

Pedagog, ta’lim, ham tarbiya berayotgan jarayonda ta’lim oluvchi(tarbiyalanuvchi)larni sinchiklab kuzatadi. Albatta, pedagogik kuzatish jarayoni murakkab va o‘ziga xos xususiyatga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta ’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Bilim olish jarayonida bilim oluvchilarda turli xil fanga oid savollar tug‘ilishi mumkin. Mana shu holatlarda pedagog suhbat metodidan foydalanadi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo‘lingan ma’lumotlarni boyitish, mavjud holatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to‘la-to‘kis namoyon bo‘lishiga erishish muhimdir. Uning samarali bo‘lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

Maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash hamda savollaro‘rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta’minlash; suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash; suhbat ishtirokchilarining soni xususida m

a’lum to‘xtamga keljsh; suhbatdosh to ‘g‘risida avvaldan muayyan ma’lumotlarga ega bolish; suhbatdosh bilan samimiy munosabatda boMish; suhbatdoshning o ‘z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish; olingan m a’lumotlarni o ‘z vaqtida tahlil qilish. Bundan ko‘rinadiki, kuzatish va suhbat metodi bir vaqtni o‘zida amalga oshiriladi. Ularning natijasi esa tahlil qilinadi.
Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta ’lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma’lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
2. Р.Жураев Педагогик тадкикотлар сифатига куйиладиган методологик талаблар. РР”Халк, таълими” - Т 2006 - №2 8—14-бетлар
3. М.Шеранова. Д.Фарсахонова. Педагогика тарихи. Маърузалар магни. Жиззах, 2007, 5—6-бет.

Umarova Marhamat Xayrullayevna
Oriental universiteti Pedagogika fakulteti
stajyor o‘qituvchisi
Anvarova Muxtabar
Oriental universiteti, Boshlang‘ich ta’lim
yo‘nalishi talabasi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISH

Аннотация

В данной статье собрана информация об использовании народных пословиц в воспитании младших школьников, нравственном воспитании учащихся.

Ключевые слова: народное творчество, воспитание, пословица, песня, сказка, былина, добродетель.

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash, o‘quvchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi maqollardan foydalanish to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, tarbiya, maqol, qo‘shiq, ertak, doston, fazilat.

Ma’lumki, yoshlarning ta’lim-tarbiya olishlariga mas’ul bo‘lgan barcha o‘rinlarda xalq pedagogikasi xazinasidan foydalanish hayotiy ehtiyoj darajasiga ko‘tarildi. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi quyi sinflarda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanilganda bu darajaga erishish saviyali amalga oshardi. O‘rta umum ta’limning birinchi bosqichi bo‘lgan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning bilim egallashga bo‘lgan qiziqishlari, havasi asosida aqliy qobiliyatlari shakllantiriladi. Aqliy kamolotga uyg‘un tarzda o‘quvchilarning ma’naviy dunyosi boyitiladi. Axloqiy fazilatlar takomillashtiriladi. O‘quvchilarda mehnatsevarlik, yuksak did, fahm-farosat, nafis his-tuyg‘ular rivojlanib boradi. Boshlang‘ich sinflardayoq iqtisodiy va ekologik tushuncha, ko‘nikma va malakalar o‘z o‘rnini egallay boshlaydi. Ta’lim-tarbiya muassasalarida o‘quvchi-yoshlarning har tomonlama kamol topishiga e’tibor qaratiladi.

Xalq og‘zaki ijodi xalq pedagogikasining asosiy vositasidir. Xalq pedagogikasi – bu yosh avlodni tarbiyalash bo‘yicha kattalar faoliyatining o‘quv predmeti va turi, g‘oyalar va g‘oyalar, qarashlar va qarashlar, e’tiqodlar, shuningdek, xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha ko‘nikma va uslublarning umumiyligi va o‘zaro bog‘liqligi. Yosh avlodni tarbiyalash xalq amaliy san’atida ham o‘z ifodasini topdi. Bu millatning yosh avlodga nisbatan mentaliteti, oila va jamiyatdagi tarbiyaviy an’analari, avlodlar davomiyligidir.

Xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlari cheksizdir. Bugun jamiyatimiz xalq tajribasidan foydalangan holda unutilgan an’analarni tiklamoqda, tarbiya nazariyasi va amaliyotining yangi modellarini yaratmoqda. Xalq og‘zaki ijodiga, madaniyatning qadimiy qatlamlariga, bir butun an’anaga e’tibor inson tarbiyasi va kamolotining bitmas-tuganmas manbayi sifatida keyingi yillarda ijtimoiy-pedagogik muhitda juda faol bo‘ldi. Bu xalq og‘zaki ijodi janrlarining funksional xususiyatlari, xalq og‘zaki ijodining chuqur ma’naviyati va hikmati, milliy madaniyatning avloddan-avlodga o‘tish jarayonining uzluksizligi bilan bog‘liq.

Yangi asr boshlarida milliy madaniyat, etnik jarayonlar, an’anaviy badiiy ijod, xalq og‘zaki ijodiga qiziqish kuchaydi. Olimlar har bir xalqning tarixiy va milliy o‘zligini anglashidagi alohida rivojlanishni qayd etib, buni ijtimoiy-psixologik va siyosiy sabablar bilan izohlaydilar. Milliy madaniyatni, uning ildizlarini asrab-avaylash va rivojlantirish, tarix va madaniyat yodgorliklariga, an’anaviy xalq amaliy san’atiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni talab qiladigan eng muhim vazifadir. Xalq og‘zaki ijodi, xalq urf-odatlari, marosim va bayramlari, an’anaviy amaliy san’at va tasviriy san’atni qayta tiklash bugungi kunning dolzarb masalalaridan

biridir. Folklor – uning janrlari, vositalari, usullari xalq hayotining butun manzarasini to‘liq to‘ldiradi, xalq hayoti, uning axloqi, ma’naviyati haqida yorqin tasavvur beradi. Xalq og‘zaki ijodi xalqning ruhini, qadr-qimmatini, xususiyatlarini ochib beradi. Ilm-fan nuqtayi nazaridan xalq og‘zaki ijodini alohida o‘rganishga, puxta baho berishga loyiq hodisadir. Har qanday folklor kichik janrlarda, jumladan, topishmoqlar, maqollar va matallardan kelib chiqadi.

Maqol deganda hayotning eng xilma-xil hodisalarini ifodalovchi va to‘liq gap shakliga ega bo‘lgan, tuzatuvchi xarakterga ega bo‘lgan maqsadli, majoziy so‘z tushuniladi. Maqollar ishchilarning ko‘plab ma’naviy ehtiyojlarini qondirdi: kognitiv va intellektual (tarbiyaviy), ishlab chiqarish, estetik, axloqiy va boshqalar. Maqollar qadimiylik emas, o‘tmish ham emas, xalqning jonli ovozi xalq o‘z xotirasida faqat bugun kerak bo‘lgan yoki ertaga kerak bo‘ladigan narsani saqlaydi. Maqolda o‘tmish haqida gapirilsa, u bugun va kelajak nuqtayi nazaridan baholanadi – aforizmda aks etgan o‘tmish xalq ideallari, umid va intilishlariga qay darajada mos kelishiga qarab qoralanadi yoki tasdiqlanadi.

Maqolni hamma xalq yaratadi, shuning uchun u xalqning umumiy fikrini ifodalaydi. Unda xalqning hayotga bergan bahosi, xalq tafakkuri mushohadalari bor. Individual aql tomonidan yaratilgan muvaffaqiyatli aforizm, agar u ko‘pchilikning fikrini bildirmasa, xalq maqoliga aylanmaydi.

Maqollar xalqimiz hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘z bo‘lgani uchun undan keng foydalaniladi. Xalqning ijtimoiy, tarixiy, madaniy, maishiy, hayotiy tajribasi umumlashgan holda beriladi. Milliy til tarkibida qoplashgan holda namoyon bo‘lgani uchun maqol tarkibidagi so‘zlarni boshqasi bilan almashtirib, o‘zgartirib bo‘lmaydi. Maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugallangan fikr tarzida qat’iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma-xillligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo‘llanish o‘rniga qarab ularning ma’no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so‘zga alohida e’tibor berish kerak. Ularda shunday so‘zlar borki, bu so‘zlar tarixan butunlay boshqa ma’nolarni anglatgan. Masalan, tuz so‘zi bugungi kunda mineral moddani bildiradi. Tarixan bu so‘z to‘g‘ri, odobli; dala, tekislik ma’nolarni anglatgan va maqollardagina saqlanib qolgan: Qiz saqlasang, tuz saqlab. Tuzdagi bilan emas, uydagi bilan bo‘l. Shuningdek, mehnat so‘zining azob-uqubat, baxtsizlik ma’nosini ham faqat maqollarda yoki ayrim shevalardagina uchratish mumkin: Mehnat ham egiz – egiz, Davlat ham egiz – egiz.

Maqol tarkibini o‘rganar ekanmiz, ularda ko‘proq moddiylikdan ko‘ra ma’naviy ehtiyoj muhimroq ekanini ta’kidlash joiz. “Kishi yurtida shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l” maqolida ham shu ma’no anglashiladi. Bir xilgi toifa

insonlar barcha muammolarini iqtisod (pul) bilan o‘lchashadi. Ular uchun moddiylik va turmushning to‘kin-sochinligi har qanday tushunchadan ustun turadi. Lekin Bobur yurtini tashlab, o‘zga yurtda Vatanini eslab qumsashi, azoblanib qiynalishidan xulosa chiqarsak, maqoldagi fikrning inson uchun naqadar ibratli ekaniga amin bo‘lamiz, aniq tarzda berilganiga ishonch hosil qilamiz. Umuman, Vatan haqidagi xalq maqollarida qiyoslash, zidlash, o‘xshatish, taqqoslash ma’nolari yetakchilik qiladi. Yuqorida berilgan maqolda ham Ona Vatan va o‘zga yurt, shoh va gadolik motivlari o‘zaro zidlanib taqqoslangan. Ma'lum darajada ushbu motivlar qiyoslangan. Ushbu maqol ruslarda “На чужой стране и весна некрасна” (ma’nosi: o‘zga yurtda bahor go‘zal emas) tarzda beriladi.

Maqollar o‘z va ko‘chma ma’nolarga ega bo‘lishi bilan diqqatga sazovordir. “Yomon xotin olguncha, bo‘ydoq yurgan yaxshiroq”, “Qizi borning nozi bor”, “Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda” kabi maqollarda o‘z ma’no anglashilib turibdi. “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi”, “O‘tin ayirgan bolta maydonda qolar”, Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi”, “Bukrini go‘r to‘g‘irlar kabi maqollar bilan tanishganimizda ko‘chma ma’no yashiringanini his qilamiz. Bir qarashda “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi” maqoli o‘z ma’nosida ham qo‘llangandek tuyuladi. Ammo bu hikmatli so‘zni hech kim o‘z ma’nosida qo‘llamaydi. Bir ishni yuzaga chiqishi uchun boshqa ishning ma'lum darajada unga sabab bo‘lishi, hayotda uchrab turadigan turli mish-mishlarning rost ekanligini ta’kidlash maqsadida bu maqolni esga olish odat tusiga aylangan. Xalqimiz xalq og‘zaki ijodida munosib o‘rin olgan ushbu maqolni ko‘chma ma’noda tushunmasak, qanday maqsad nazarda tutilgani va asl ma’nosini tushunmay qolishimiz mumkin.

Xalq maqollari yodlash uchun qulay shaklga ega bo‘lib, ularning etnopedagogik vosita sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Maqollar mustahkam esda qoladi. Ularning yod olishiga so‘zlar, turli xil undoshlar, qofiyalar, ritmlar, ba’zan juda mohirona o‘ynash yordam beradi. Maqollarning pirovard maqsadi hamisha ta’lim-tarbiya bo‘lib kelgan, ular qadimdan pedagogik vosita vazifasini o‘tagan. Bir tomondan, ular pedagogik g‘oyani o‘z ichiga oladi, boshqa tomondan, ular tarbiyaviy ta’sirga ega, tarbiyaviy funksiyalarni bajaradilar. Maqol va matallar qiyosiy yoki allegorik gap bo‘lib, xalqning kundalik donoligini o‘z ichiga oladi. Ana shu ikki niholdan tashbeh (topishmoqlarda) va obrazli qiyoslar (matallarda) xalq she’riyati o‘sib boradi.

Qo‘shiqlar xalq she’riyatining topishmoq va maqollarga qaraganda ancha murakkab shaklidir. Qo‘shiqlardan ko‘zlangan asosiy maqsad go‘zallikka muhabbat uyg‘otishga, estetik qarash va didni rivojlantirishdan iborat. Qo‘shiq xalq hayotining barcha jabhalari, jumladan, yosh avlod tarbiyasi yuksak poetiklashtirilganligi bilan

ajralib turadi. Qo‘shiqning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, go‘zal kuylashni o‘rgatgan bo‘lsa, u o‘z navbatida go‘zallik va ezgulikka o‘rgatgan. Bolalar va yoshlarni mehnat tarbiyasida qo‘shiqning ahamiyati beqiyos. Yuqorida aytib o‘tilganidek, qo‘shiqlar mehnat jarayoniga jo‘r bo‘ldi va rag‘batlantirdi, ular ishchilarning mehnat sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirishga hissa qo‘shdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, xalq og‘zaki ijodi bolalar va yoshlarning ertak, doston, afsonalar olamida ijodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ta’limning zamonaviy modelini qurishda xalq og‘zaki ijodida tizimlashtirilgan ma’naviyat an’analarining ko‘p asrlik tarixi topilmalaridan foydalanish zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Baratov Sh. Kichik yoshdagi o`quvchilar faoliyatini baholash. “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1992 y, 45 b.
2. T. Mirzayev O‘zbek xalq maqollari – Toshkent, 2016. 7-b.
3. Bozorova M. “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni do‘stlik va o‘rtoqlik xislarini tarbiyalashda xalq an’analaridan foydalanish”. Kand.diss. Toshkent, 1994 y.
4. T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo‘rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavov “O‘zbek folklori” – Toshkent “Tafakkur bo‘stoni” 2020.
5. Baturina G.I., Kuzina T.F. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda xalq pedagogikasi. M., 1995.-S. 7-8.

Munojat Raximberganova Muzaffar qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

MAKTABGACHA 4-5 YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOIY MOSLASHTIRISHDA IJODIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINING MOHIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha 4-5 yoshdagi bolalarni ijtimoiy moslashtirishda ijodiy o‘yinlardan foydalanish, o‘yin turlari, bolalar hayotida o‘yinning ahamiyati, bola shaxsini rivojlanishida o‘yinning ro‘li, ijodiy o‘yinlardan foydalanish imkoniyatlari haqida atroflicha fikr yuritilgan bo‘lib, yosh avlodning

yuksalishida bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotiga ijtimoiy moslashtirish haqida xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, tarbiya, bola, shaxs, rivojlanish, moslashuv, adaptatsiya, ko‘nikma, bilim, malaka, o‘yin, harakat, ijodiy, imkoniyat, tashkilot, avlod, yosh guruhlari.

Аннотация

В данной статье подробно рассмотрены вопросы использования творческих игр в социальной адаптации детей дошкольного возраста 4-5 лет, виды игр, значение игры в жизни детей, роль игры в развитии личности ребенка, возможности использования творческих игр, даны выводы и рекомендации по социальной адаптации детей к дошкольной образовательной организации на подъеме подрастающего поколения.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитание, ребенок, личность, развитие, адаптация, адаптация, умение, знания, умение, игра, действие, творчество, возможность, организация, поколение, возрастные группы.

Annotation

This article discusses the use of creative games in the social adaptation of preschool children 4-5 years old, the types of games, the importance of the game in children's life, the possibility of using the roller, creative games of the game in the development of the child's personality, gives conclusions and recommendations on the social adaptation of children.

Key words: preschool education, upbringing, child, person, development, adaptation, adaptation, skills, knowledge, skills, play, action, creative, opportunity, organization, Generation, age groups.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o‘yindir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg‘a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bolalarning o‘yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya’ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. O‘rta maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o‘zlari yolg‘iz o‘ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o‘yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o‘zlarining idrok, xotira, tassavur, tafakkur xamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o‘yinlarda bolalar asosan o‘zlari har kuni kurayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti – harakatlarini aks ettiradilar. O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bulgan ta’lim faoliyatiga tayyorlaydi. Ko‘pchilik psixologlar hamda pedagoglar o‘yinning psixologik masalalari bilan bevosita

shug‘ullanib, o‘yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tganlar. Ma’lumki, o‘yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. O‘yinning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ijodiy o‘yinlar o‘ynash bolalarning sevimli o‘yin turlaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiylashuvning qay daraja shakllanganligi, bolaning o‘yin faoliyatiga ta’sir darajasini sezdiradi. Bunda ijtimoiylashuvi yaxshi shakllangan bola o‘yin faoliyatiga yaxshi kirishadi. Bola o‘z o‘yinlarida o‘zlashtirgan xatti-harakatlarni taqlid asosida namoyish qiladi. O‘yinning turlari ko‘p. O‘yin turlari ichida ijodiy o‘yin turi bola uchun qulay va qiziqarlidir. Ijodiy o‘yinlar mazmunining o‘ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

Ma’lumki, o‘yinlar quyidagi to‘rt asosiy xususiyatga ega: - erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya’ni bola o‘yinni o‘zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o‘yin jarayoni muhim ahamiyatga ega; - ijodiy xarakter, ya’ni o‘yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud; - emotsional ta’sir — bola o‘yinda markaziy o‘rin egallashni xohlaydi, g‘olib bo‘lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi; - asosiy va qo‘shimcha qoidalar o‘yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi. O‘yinning eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi.

Ijodiy o‘yinlar turlari. Ijodiy o‘yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o‘yin bolalarning mustaqil o‘yini bo‘lib, o‘yinning mazmunini ular o‘zlari o‘ylab topadilar. Bu o‘yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashqilotchilik va ijodqorlik qobiliyatlari to‘laligicha namoyon bo‘ladi. Ammo o‘yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab chiqiladi. Bu bolalarning o‘yin g‘oyasini yaratishlarida, uning mazmunini to‘zib, tasvirlovchi vositalarni tanlashlarida va shunga o‘xshashlarda namoyon bo‘ladi.

Ijodiy o‘yinlar syujetlari va mazmunining rang-barangligi, ularni tavsiflash zaruratini keltirib chiqaradi. Ijodiy o‘yinlarda xayoliy vaziyatning mavjud bo‘lishi bolaning tafakkurini o‘stirib syujet va rollar o‘yin mazmunini takomillashtiradi. Ijodiy syujetli-rolli o‘yinlarning o‘ziga xos sabablari mavjuddir. Buning eng asosiy sababi – bolalarning kattalar bilan birgalikda ijtimoiy hayot kechirishga intilishidir. Bu sabablar bolaning yoshiga qarab, o‘yin mazmuniga qarab o‘zgarib boradi. Kichik yoshdagi bolalarda asosiy sabab buyumlar bilan bajariladigan qiziqarli harakatlar bo‘lsa, bola katta bo‘lgan sari o‘yindagi kattalar harakatlarini va munosabatlarini qayta aks ettirish asosiy sabab bo‘lib xizmat qiladi.

Ijodiy o‘yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks etadi. Bunday o‘yinlar mustaqil o‘yin bo‘lib, uning mazmunini ishtirokchilarning o‘zlari o‘ylab topadilar. Bu o‘yinda bolaning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatlari to‘la namoyon bo‘ladi. O‘yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab, o‘yinga tatbiq etiladi. Bu bolaning o‘yin g‘oyasini yaratishida, uning mazmunini tuzib, tasvirlovchi vositalarni tanlashida namoyon bo‘ladi. Bolaning tevarak-atrofidagi hayotdan – tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o‘yinlarda qayta ishlanadi, to‘ldiriladi, sifat jihatidan o‘zgartiriladi. Bolalarning bunday o‘yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berishda ijodiy o‘yinlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Ijodiy o‘yinlarni bolalarning o‘zlari o‘ylab topadilar. Unda oldindan belgilab qo‘yilgan qoidalar bo‘lmaydi. Qoidalar bolalar tomonidan o‘yin jarayonida o‘ylab topiladi. Qoidali o‘yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. O‘yin davomida bu qoidalarga amal qilinishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.Q. Asqarova “Bolalalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” o‘quv qo‘llanma Toshkent-2020
2. “Ilk qadam davlat o‘quv dasturi” 2018.
3. Kayumova.N “Maktabgacha pedagogika”. O‘quv qo‘llanma. TDPU 2013
4. M.A.Rasulxodjayeva. A.A.Urazaliyeva “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi” darslik. 2023
5. F.U.Jumanova “Umumiy pedagogika I” Ilm ziyo zakovat Toshkent 2023 y.
6. Sodiqova.Sh.A.Maktabgacha pedagogika. Darslik. -T.,Tafakkur bo‘stoni 2013.

Nasrullayeva Yulduz Farxadovna
Osiyo xalqaro universiteti
70110501 –Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVSHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA NOAN’ANAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annatatsiya.

Noan’anaviy metodlar – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada matematika darslarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan noan’anaviy metodlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: matematika, metodika, noan’anaviy metodlar, boshlang‘ich sinf, matematik savodxonlik, “kubik”, “klaster”, “son qatnashgan maqollar aytishuvi” “Kichik guruhlarda ishlash”, “Matematik kokteyl”, “Lift” metodlari.

Аннотация

Нетрадиционные методы – за счет повышения активности между учениками и преподавателем в образовательном процессе служат активизации обучения учащихся и развитию их личностных качеств. В статье говорится о нетрадиционных методах, которые можно использовать на уроках математики.

Ключевые слова: математика, методика, нетрадиционные методы, начальная школа, математическая грамотность, “кубические”, “кластерные”, “числовые пословицы”, “Работа в малых группах”, “Математический коктейль”, методы “Лифт”.

Noan’anaviy metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. noan’anaviy ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati mavjudligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Noan’anaviy metodlardan foydalanish matematikadan misol va masalalarni yechish jarayonida tafakkurning ijodiy va amaliy qirralari rivojlantiradi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V. Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A. Kruteskiy, E. G‘oziev, G‘.Shoumarov, O. Roziqov, B. Adizov ta’kidlashlaricha, bu davrda o‘quv faoliyati ta’sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his-tuyg‘usi kabi jarayonlar rivojlanadi. A. M. Matyushkin, I. S. Averina, G. D. Chistyakovalar o‘quvchi shaxsining intellektual qobilyatini tashkil qilish masalalari ustida izlanish olib borib, ularning har bir rivojlanish bosqichi bilish jarayonlarining rivojlanishi bilan bog‘liq holda qaralishi lozimligini uqtiradilar. R.Ibragimov, O. Roziqov, V.Karimova, E.G‘oziev, G‘.Shoumarov, Z.Nishonova, B. Qodirovlar ham shaxsning intellektual qobilyatini rivojlantirishni uning aqliy qobiliyati, bilish faoliyati, mustaqil fikr yuritish muammolariga bog‘lab talqin etadilar.

Boshlang‘ich sinflarga matematikani muvaffiqiyat bilan o‘qitish uchun noannanaviy interfaol usullar ishlab chiqilgan tizimini, ya’ni boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi rivojlantirish va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishish kerak. “Metodika” grekcha so‘z bo‘lib, “yo‘l, usul” demakdir. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanish ahamiyati yoritiladi. “kubik”, “klaster”, “son qatnashgan maqollar aytishuvi” “Kichik guruhlarda ishlash”, “Matematik kokteyl”, “Lift” metodlari.

Kubik metodi. Kubik metodidan darsni mustahkamlash vaqtida foydalansa yaxshi natija beradi. 1-qadam: o‘quvchilarga mavzu o‘tilgandan so‘ng unga biror tushuncha shakllanadi. Shakllangan tushunchani quyidagicha yozish taklif etiladi. 1. Tasvirlang. 2. Taqqoslang. 3. O‘xshating. 4. Tahlil qiling. 5. Ishlating. 6. Foydali va zararli tomonlari. Son qatnashgan maqollar aytishuvi. Maqsad: son qatnashgan maqollar orqali O‘zbek xalq maqollari degan boy merosimizdan foydalangan holda o‘quvchilarni milliy g‘urur, axloqiy his- tuyg‘ularni shakllantirish, ma’naviy tuyg‘ularini rivojlantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, Vatan va Vatanga muhabbat tushunchalarini o‘quvchilar ongiga sindirish. ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish va sonning dunyodagi roli haqida tushuncha berib, ko‘nikma va malaka hosil qilish.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi. Kichik guruhlarda ishlash orqali o‘rganish - ma’lum muammoning yechimini topishga va o‘quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan darsdagi ijodiy hamkorlikdagi ish. Bosqichlari: guruhlarga bo‘lish, muammoni guruhlarda muhokama qilish, muammoning yechimlari taqdimoti, xulosalash. Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning

ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

“Matematik kokteyl” metodi. Bu metoddan boshlang‘ich ta’limning barcha dars jarayonlarida qo‘llash mumkin. Ushbu metodda guruhlarga fanga oid qiziqarli va mantiqiy savollar beriladi. Savollar o‘quvchini mantiqiy fikrlashga undaydigan, qiziqarli matematikaga oid bo‘lishi zarur. To‘g‘ri javob bergan o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan sharbat beriladi. Bu sharbatni biror mevadan tayyorlash mumkin. Bu esa o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini va matematik savodxonligini oshiradi. “Lift” metodi. Bu metodda sinf guruhlarga ajratilib yangi mavzu bo‘yicha guruhlarga tezkor savollar beriladi. Bunda barcha guruh a’zolari qatnashadi. Guruh a’zolaridan biri savolga to‘g‘ri javob bersa, “lift” bir pog‘ona tepaga ko‘tariladi. Agar noto‘g‘ri javob bersa “lift” joyidan siljimaydi. Qaysi guruh “lift”dan tez yuqori ko‘tarilib olsa, g‘olib bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, qayd etilgan maqsadlardan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchilarni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma’naviyat va ma’rifat, intellektual qobiliyatini rivojlantirishga xzmat qiladi.

O‘quvchilar matematika darslarida ko‘rgazmali qurollar va jadvallardan foydalana olish malakalari tarkib toptiriladi. O‘quvchilar matematikadan misol va masalalar yechish orqali ularda sabr qanoatga, mehnatga, mulohazali, og‘ir- vazmin kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saparova.G. “O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali”. 2023 yil.
2. “Prospects of development of science and education proceedings of first conference”. 2023 yil.
3. Isamitdinov.S. “Ta’lim va innovatsion usullar” uslubiy tavsiyanoma. Toshkent. RTM, 2005 yil.
4. Sobirov B. “Ta’lim tizimi takomillashmoqda” // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. Toshkent, 2008 yil.

5. Nasurlayeva Yulduz Farxadovna. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini oshirishda noan’anaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati. Central Asian journal of education and innovation. 09-June 2023.

Otaqulova Gulgunoy Abdunabi qizi
NavDPI Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti maktabgacha ta’lim yo‘nalishi II kurs magistri
+998976422095

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA KVEST TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MASHG‘ULOTLAR TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim texnologiyasi, yangi innovatsion texnologiyalar, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ilk qadam davlat o‘quv dasturiga kiritilgan Kvest tushunchasi uning ma’no mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, uni ta’lim texnologiyasi sifatida qanday qo‘llash mumkinligi mashg‘ulot namunasi orqali batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim texnologiyasi, innovatsion texnologiya, kvest, kvest texnologiyasi, kvest o‘yinlari

Абстрактный

В данной статье раскрыто понятие образовательной технологии, новые инновационные технологии, первая ступень дошкольных образовательных организаций, включенных в государственную учебную программу, понятие Квест, его значение, его характеристики, способы его использования в качестве образовательной технологии. подробно на примере.

Ключевые слова: образовательные технологии, инновационные технологии, квест, квест-технология, квест-игры.

Abstract

In this article, the concept of educational technology, new innovative technologies, the first step of preschool educational organizations included in the state curriculum, the concept of Quest, its meaning, its characteristics, how it can be used as an educational technology It is explained in detail through an example.

Key words: educational technology, innovative technology, quest, quest technology, quest games

Ta’lim tizimini tashkil etishning samarali mexanizmlarini joriy etish o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini sifat

jihatdan yuqori darajaga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashadi. Ta’lim texnologiyasi‖ iborasining ma’nosi - (inglizcha ―An educational technology) darslarni yuksak mahorat bilan san’at darajasida tashkil etish to‘g‘risida ma’lumot beruvchi fan, ta’limot demakdir[2]. Ayni vaqtda, mazkur tushunchaning ta‘rifi hamda uning mohiyati borasida yagona g‘oya mavjud emas.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jahon andozalaridan foydalangan holda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’limda yuqori samaradorlikka erishilmoqda.Shu o‘rinda, ta’kidlash joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun 2022-yil tasdiqlangan takomillashtirilgan ilk qadam davlat o‘quv dasturiga “KVEST” tushunchasi yangi termin sifatida kiritildi. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari uchun yangilik bo‘ldi. Ular Kvest ta’lim texnologiyasi haqida chuqur o‘rganib chiqishdi. Hozirda bu texnologiya mashg‘ulotlarni yanada qiziqarli tashkil etish imkoniyatini berdi. Kvest – (ing. “Quest” “muammo”, “izlanish”, “sarguzasht” degan ma’noni anglatadi) hikoya mazmuniga ega sarguzashtli interfaol o‘yin (ing. “Adventure game”)), uning ishtirokchilari belgilar orqali harakatlanib, topshiriqlarni topadi va bajaradi. Kvest o‘yini – bu bolalarning kognitiv qiziqishini va muammolarni ishtiyoq bilan hal qilish istagini faollashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan eng samarali va o‘ziga xos ta’lim texnologiyasi.

Kvest o‘yinlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirilada:

- muammoning bayoni (kirish) va rollarni taqsimlash;
- topshiriqlar ro‘yxati (o‘tish bosqichlari, savollar ro‘yxati va boshqalar);
- topshiriqni bajarish tartibi (jarimalar, bonuslar);
- yakuniy maqsad (mukofot).

Kvest o‘yinlarini barcha yosh guruhlari uchun qo‘llash mumkin faqat birgina farqi undagi muammolar bolalarning yoshiga mos tarzda tuziladi. Bu o‘yinlarning boshqa o‘yin turlaridan farq qiluvchi to‘rtta o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Kvest o‘yinlari juda ham qiziqarli va mazmunli hisoblanadi. Shu sababli uni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida markazlarda ham frontalni mashg‘ulotlarda ham to‘liq foydalanish mumkin. Masalan, tayyorlov guruhi bolalarida kvest asosida tashkil etilgan nutq o‘stirish mashg‘ulotini ko‘rib chiqamiz.

Oktabr- oy mavzusi “Kuz bo‘yoqlari” 1-hafta mavzusi “Sabzavot va mevalar” deb nomlangan. Kvest o‘yinimizni dastlab bolalarni ikki guruhga bo‘lamiz va mavzuga oid umumiy savollar bilan boshlaymiz.

1-bosqich.

1. Kuzda barg to‘kmaydigan daraxt qaysi? (Archa)
2. ……..-ekinning joni. Maqolda qaysi so‘z tushib qolgan? (Yomg‘ir)

3. Piyozni ukasi nima? (Sarimsoq piyoz)
4. Barg so‘zini ingliz tiliga tarjima qiling. (Leaf)

2-bosqich. “Mening serhosil bog‘im” deb nomlanadi. Bunda har ikkala guruh bolalari yuqoridagi javoblardagi so‘zlar tarkibidagi harflar asosida xayolan o‘zlarining bog‘larini yaratishadi. Masalan, bizning bog ‘imizda mevalardan anor, yong‘oq, pista, limon sabzavotlardan esa rediska, pomidor, sabzi va hokazo.

3-bosqich. Tarbiyachi bolalar o‘zlari sanab o‘tgan mevalarning rasmlarini 1-guruhga ko‘rsatadi va ular bu mevani nomini aytmasdan faqat unga ta’rif beradi. 2- guruh esa ular bergan ta’rifdan meva nomini topishlari kerak bo‘ladi.

4-bosqich. Umumiy mavzuga xulosa yasaladi va bolalarga o‘zlari topgan mevalar mukofot sifatida beriladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kvest o‘yinlari bolalarga o‘zgacha quvonch bag‘ishlaydi, ularni o‘ylashga, teran fikrlashga, jamoaviy birdamlikka o‘rgatadi. Bu esa bolalarni zerikishdan xalos qiladi, tarbiyachini esa o‘z ustida ishlashga va izlanishga undaydi.Mashg‘ulotlar kvest o‘yinlari asosida har bir yosh guruhlari uchun mos tarzda tashkil etilsa, ananaviy mashg‘ulotga nisbatan ancha samarali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr toshkent-2022 (35-bet)
2. Ziyomuhammedov B. Yangi pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent, Chinoz ENK, 2002.
3. Abduqodirova N.X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etishni yanada takomillashtirish va rivojlantirish.
4. Sh.Sh.Olimov, Sh.X.Samiyeva, N.X.Aslanova, F.J.Ro‘ziyev Innovatsion ta‘lim texnologiyalari va metodlari o‘rta professional ta‘limning “4.11.02.02 - Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi” kasbi uchun darslik “Durdona” nashriyoti Buxoro – 2022
5. D.O‘.Qarshiyeva. Darslarni “kvest” texnologiyasi asosida loyihalashni takomillashtirish uslubiy qo‘llanma “Qamar media” nashriyoti Toshkent – 2022

Ли А.К.
Ташкентский Международный университет КИМЁ
Республика Узбекистан, город Ташкент.
Магистрант факультета “Начальное образование”

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО И НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассмотрены вопросы важности и влияния инновационных технологий в образовательной сфере, конкретно в системе дошкольного и начального образования, рассмотрены различные аспекты и преимущества использования информационно-коммуникационных технологий и различных современных методов обучения. Особое внимание в данной статье уделено рассмотрению как использование инновационных технологий способствует развитию когнитивных навыков, творческого мышления и общественного взаимодействия детей дошкольного и младшего школьного возраста.

Ключевые слова: педагогические технологии, дошкольное образование, начальное образование, методики обучения, инновационные подходы, адаптация.

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim sohasida, xususan, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati va ta’siri masalalari ko‘rib chiqiladi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va turli zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanishning turli jihatlari va afzalliklari yoritilgan. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalardan foydalanish maktabgacha va boshlang‘ich sinf bolalarning bilim qobiliyatlari, ijodiy fikrlash va ijtimoiy o‘zaro ta’sirini rivojlantirishga qanday hissa qo‘shishini ko‘rib chiqishga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiyalar, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, o‘qitish usullari, innovatsion yondashuvlar, adaptatsiya.

Annotation

This article considers the importance and influence of innovative technologies in the educational sphere, specifically in the system of preschool and primary education, considers various aspects and advantages of using information and communication technologies and various modern teaching methods. Special attention in this article is paid to the consideration of how the use of innovative

technologies contributes to the development of cognitive skills, creative thinking and social interaction of children of preschool and primary school age.

Key words: pedagogical technologies, preschool education, primary education, teaching methods, innovative approaches, adaptation.

Современный мир характеризуется стремительным развитием технологий, которые проникают во все сферы жизни общества, включая образование. Использование инновационных технологий в дошкольном и начальном образовании обещает преобразить процесс обучения и улучшить результаты образовательной деятельности. В данной статье рассматривается, какие инновации доступны и как они могут быть эффективно внедрены в педагогический процесс.

Инновационные технологии в системе дошкольного и начального образования представляют собой современные методы и подходы к обучению, основанные на использовании современных информационных и коммуникационных технологий (ИКТ). Эти технологии вносят значительные изменения в образовательный процесс, обогащая его и делая более интересным, доступным и эффективным для детей. [4; 158]

Одним из примеров инновационных технологий в образовании являются интерактивные доски, которые позволяют преподавателям демонстрировать информацию в интерактивной форме, делая учебный процесс более увлекательным. Также широко используются различные образовательные программы и приложения, которые помогают детям учиться через игру и взаимодействие.

Другим примером являются онлайн-платформы и образовательные ресурсы, которые предоставляют дополнительные материалы и задания для самостоятельной работы учащихся. Это позволяет детям расширить свои знания и навыки за пределами школьной программы.

Инновационные технологии также включают в себя использование робототехники и программирования в образовании. Эти методы помогают развивать у детей логическое мышление, творческие способности и навыки решения проблем.

Важным аспектом инновационных технологий в системе образования является индивидуальный подход к каждому ребенку. С помощью специальных программ и технологий, учителя могут адаптировать образовательный процесс под уровень и потребности каждого ученика, обеспечивая более эффективное обучение. [2; 80]

Также следует отметить значимость цифровой грамотности в современном мире. Использование инновационных технологий в образовании помогает детям развивать навыки работы с информацией, анализа данных и творческого мышления, что пригодится им в будущей жизни и карьере.

В целом, инновационные технологии в системе дошкольного и начального образования играют важную роль в повышении качества образования, развитии учебных навыков детей и подготовке их к вызовам современного мира. Они помогают сделать учебный процесс более увлекательным, интерактивным и эффективным, поддерживая разнообразие методов обучения и отвечая на потребности различных типов учащихся.

Роль инновационных технологий в дошкольном образовании:

Дошкольное образование играет ключевую роль в формировании основ когнитивного развития детей. Инновационные технологии могут значительно улучшить процесс обучения и стимулировать интерес малышей к познанию мира. Интерактивные обучающие приложения на планшетах и смартфонах, развивающие игры с использованием виртуальной реальности, аудиовизуальные материалы – все это способствует активизации познавательных процессов у детей дошкольного возраста.

Кроме того, цифровые технологии позволяют индивидуализировать образовательный процесс, учитывая специфические потребности каждого ребенка. Это особенно важно в дошкольном образовании, где каждый ребенок уникален и развивается в своем темпе. Инновационные технологии помогают создать персонализированные образовательные планы, а также оценивать прогресс и достижения каждого ребенка намного эффективнее.

Роль инновационных технологий в начальном образовании:

В начальной школе особое внимание уделяется формированию базовых обученческих навыков, которые будут являться основой для дальнейшего успешного обучения. Инновационные технологии позволяют делать учебный процесс более увлекательным и интерактивным для учеников начальных классов.

Современные методики обучения, такие как геймификация, онлайн-платформы для обучения, образовательные видеоролики и вебинары, способствуют эффективному усвоению знаний и развитию познавательных способностей у детей. Важным аспектом является также развитие навыков цифровой грамотности среди школьников, что необходимо в современном информационном обществе. [6; 47]

Плюсы использования различных технологий в образовании:

Использование инновационных технологий в образовании приносит ряд значительных преимуществ.

Во-первых, технологии делают обучение более доступным и удобным для учеников. Они могут обучаться в любое удобное время и месте, что способствует гибкости образовательного процесса.

Во-вторых, использование современных технологий расширяет возможности обучения и позволяет учителям дифференцировать задания в зависимости от потребностей конкретных учеников. Это способствует эффективному индивидуализированному обучению и повышает общий уровень образования.

В-третьих, инновационные технологии способствуют развитию креативности, логического мышления и умений решать проблемы у детей. Интерактивные задания, проекты с использованием современных технологий мотивируют учеников к деятельности и развивают комплекс навыков, необходимых для успешной адаптации в современном мире.

Вызовы и перспективы:

Несмотря на все преимущества инновационных технологий в образовании, существуют и вызовы, с которыми сталкиваются учителя и ученики. Одним из главных вызовов является необходимость постоянного обновления программ и технического обеспечения, что требует дополнительных ресурсов и времени.

Кроме того, важно учитывать этические и безопасносные аспекты использования новых технологий в образовании, особенно когда речь идет о данных учащихся и конфиденциальности информации. Обеспечение безопасной среды для обучения и защита личной информации становятся все более актуальными в условиях цифровизации образования.

Необходимо также учитывать разнообразие подходов к обучению и уровень доступности технологий для всех слоев общества. Важно, чтобы инновации в образовании не усилили социальные неравенства, а наоборот, способствовали инклюзивному обучению и равным возможностям для всех детей.

Применение инновационных методов и технологий обучения в дошкольном и начальном образовании поддерживается на государственном уровне различными нормативными актами по нескольким причинам.

Во-первых, использование современных технологий в образовании является неотъемлемой частью стратегии модернизации образовательной системы. Государство стремится к развитию интеллектуального потенциала

общества и подготовке квалифицированных специалистов для будущего. Использование инновационных методов и технологий обучения позволяет улучшить качество образования, сделать его более доступным и эффективным для всех детей.

Во-вторых, современное общество все больше ориентировано на цифровые технологии, и владение ими становится важным навыком для успешной адаптации в современном мире. Поэтому государство поддерживает использование инновационных методов обучения, чтобы обеспечить детей необходимыми знаниями и навыками для работы с современными технологиями.

Третья причина заключается в том, что инновационные методы обучения позволяют учителям индивидуализировать учебный процесс под потребности каждого ученика. Это способствует более эффективному обучению, учитывая разнообразие способностей, интересов и темпов усвоения знаний у детей. Государство стимулирует применение инновационных методов обучения для повышения качества образования и достижения лучших результатов в обучении.

Инновационные методы и технологии обучения поддерживаются на государственном уровне также с целью повышения доступности образования для всех слоев населения. Использование онлайн-платформ, образовательных приложений и других технологий позволяет сделать обучение более гибким и доступным, особенно для учащихся из удаленных районов или с ограниченными возможностями.

Для обеспечения реализации инновационных методов обучения на практике их поддерживает ряд нормативных актов. Например, государственные образовательные стандарты могут включать требования к использованию ИКТ в учебном процессе, а также определять основные принципы и цели внедрения инноваций в образование. Эти стандарты обеспечивают общие рамки для разработки и внедрения инновационных образовательных программ.

Также государство может поддерживать применение инновационных методов обучения через финансовую поддержку образовательных учреждений для приобретения современного оборудования и программного обеспечения. Это помогает образовательным учреждениям обновлять свои ресурсы и обеспечивать высокий уровень качества обучения.

Кроме того, государство может проводить обучающие программы и семинары для учителей по использованию инновационных технологий в

образовании, чтобы повысить их квалификацию и подготовить к эффективному внедрению новых методов в практику обучения.

В целом, применение инновационных методов и технологий обучения в дошкольном и начальном образовании поддерживается на государственном уровне для обеспечения качественного и современного образования детей, развития их потенциала и подготовки к жизни в цифровом обществе. Государственные нормативные акты способствуют созданию условий для успешного внедрения инноваций в образовательный процесс и содействуют развитию образования в целом.

В заключении можно сказать, что инновационные технологии играют ключевую роль в современном образовании, в том числе в дошкольном и начальном образовании. Они расширяют возможности обучения, стимулируют интерес учеников к учебе, способствуют развитию разносторонних навыков и подготавливают детей к успешной жизни в цифровой эпохе. Однако необходимо учитывать вызовы и ограничения, связанные с использованием новых технологий, и работать над их преодолением для создания эффективной и безопасной образовательной среды.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Вербицкий А.А. Компетентный подход и теория инновационных методов обучения. – М.: Инфинити, 2019. – с. 91

2. Кузьмина Н.В. Педагогические и инновационные методы обучения в начальной школе. – СПб: Питер, 2019. – с. 80

3. Моторина Н.А. Реализация современных подходов к обновлению содержания начального образования. – М.: Юрайт, 2020. – с. 120

4. Уразбаев Х.М. Методики обучения в начальных классах с применением инновационных технологий. – Ташкент: Изд. Г. Гуляма, 2020. – с. 158

5. Фролов В.В. Инновационные подходы к организвции дошкольного обучения. – Уфа: Просвет, 2019. – с. 320

6. Хайдарова З.У. Дифференциация знаний детей дошкольного и младшего школьного возраста. – Ташкент: ООО “Sharq”, 2020. – с. 47

3-SHO‘BA. *UZLUKSIZ TA’LIM DASTURLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUV*

Муротмусаев Комилжон Бўрибоевич
Ориентал университети
Узлуксиз таълим педагогикаси кафедраси,
кафедра доценти, тиббиёт фанлари номзоди.

ХОТИН - ҚИЗЛАР СПОРТИНИНГ ПСИХОЛОГИК ВА ТИББИЙ БИОЛОГИК АСОСЛАРИ

Аннотация

Муаллиф мақолада хотин – қизлар спорти ва умуман жисмоний етукликнинг инсон организми учун ўта жиддий аҳамиятга эканлигини тиббий нуқтаи назардан батафсил ёритиб берган. Спортнинг аёллар саломатлигига ижобий таъсирида психологик омилларнинг жуда муҳим роли ҳақида ҳам таҳлилий фикрлар юритилган. Муаллиф томонидан миллий мафкуравий маданият орқали аёллар спортига баҳо тарихий шахслар мисолида кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: спорт, хотин-қизлар, аёл, хотин- қизлар спорти, саломатлик, тетиклик.

“Маънавий соғлом бўлиш учун,
дарҳол жисмонан тетикликни
ихтиро қилиш керак”
Л.Н. Толстой

Дунё Соғлиқни Сақлаш Сақлаш ташкилоти низоми бўйича: “Саломатлик бу – фақатгина касалликни ёки жисмоний нуқсонларни йўқлиги эмас, балки буткул жисмоний, маънавий ва ижтмоий муваффақият демакдир”. Юқорида таъкидланган аниқликнинг асосидан кўриниб турибдики, инсон саломатлиги тушунчасида жисмоний, ақлий ва маънавий тамойилининг чуқур бирлиги мужассамланган.

Дарҳақиқат, кишилик жамиятида ва инсон ҳаётида замонавий спорт ажойиб воқеа саналади. У ўзининг жозибаси, ёқимлилиги ва ижобий таъсири билан инсонга, жисмоний ва маънавий салоҳиятини намоён қилишда улкан имкониятлар яратиб беради. Бугунги кунда бутун дунёда замонавий спорт турларига қизиқувчилар ва шуғулланувчилар сони кундан кунга ортиб

бормоқда. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, хотин қизлар спорти туларига ҳам қизиқиш ўзгача тусда ривожланиб бормоқда[5].

Сир эмас, аёллар спорти нафосат ва шижоат намунаси ҳиобланади. Спорт билан қизиққан инсон доим жисмонан кўркам, қатъиятли ва соғлом бўлади. Спорт бу профессионал жисмоний чиниқиш машғулоти[7]. Шу ўринда табиий савол туғилади. Нуфузли халқаро спорт беллашувлардаги аёллар эришган ютуқлар, уларнинг саломатлиги, ижтимоий ва психологик дунёсида қандай ўзгаришлар шакллантиради?[12] Спорт фаолияти ниҳоясига етгандан кейин, уларнинг саломатлиги, муваффақиятли турмуш қуриш ва фарзанд кўриш фаолиятлари сақланиб қоладими? Бундай жумбоқли саволларга ҳозирча соҳа олимлари ва мутахассисларида аниқ ва батафсил жавоб йўқ [8]. Албатта, жисмоний тананинг гўзал шаклланишида спортнинг ўрни жуда катта, бу шубҳасиз. Кунда 6 – 8 соатлаб, йиллар мобайнида мунтазам равишда ўтказиладиган оғирликли машғулотлар аёллар руҳияти, маънавияти ва ҳатто жисмониятида ўз изини қолдирмасдан қўймайди. Умуман олганда, кучайтирилган спорт машғулотларининг аёл организми метоболизмига таъсири аниқланган факт ва бу таъсир эркакларда ва аёлларда фарқли йўсинда ифодаланади [2,13]. Ҳозирги пайтда, бу соҳадаги муаммолар ечими олим, мутахассислар томонидан ўрганилиши илк босқичда бўлиб, энди ўз ривожини топмоқда [10]. Қизларда жисмоний ривожланиш сифати ўғил болаларга нисбатан эрта бошланади. Спортнинг баъзи бир, яъни бадиий гимнастика, рақс, сайр ва югуриш турларида қизлар анча афзалликларга эга. Бунда уларнинг табиий эгилувчанлиги, тана оғирлиги ва кучи муносаабатини аниқловчи, оғирлик маркази муҳим роль ўйнайди [9,11]. Шунинг учун ҳам аёллар спортини танлашда, саломатликка зарар берувчи эмас, уни мустаҳкамловчи машғулотларга эътибор бериш назарда тутилиши керак. Шарқона ва ўзбекона миллий маданиятимиз тарихида ҳам хотин – қизларнинг жисмоний чиниққанлиги азалдан таъкидланиб келинган. “Алпомиш” асарида ифодаланган, ўз гўзаллиги ва вафодорлиги билан Алпомишни ақлдан оздирган Барчиной ҳақидаги “Барчинойнинг ҳам бир эркакчалик кучи бор эди...” ибораси, юртимизда спорт ва соғлом турмуш тарзи маданияти азалий негизга эга эканлигидан далолат беради. Ёки бўлмаса, гўзал, қўрқмас ва жанговар Тўмарис образичи?[7]

Аёл саломатлиги булоғидан - аёл бахти, маънавий гўзаллиги ва уйғунлиги сув ичади. Соғлом аёл бу, ўзидан нур ва илиқлик таратувчи, ўз ҳаётига севги ва яхшилик баракаси тортувчи инсон[7,10].

Аёл психологияси ва спорт – бу тушунчалар орасида қандай умумийлик бор? Спорт машғулотлари аёл шахсига ва руҳиятига муҳим таъсир кўрсатиб,

кўпгина психологик муаммоларни бартараф этишга ёрдам беради.[12,7] Биринчидан, аёл танаси ва унинг эмоционал ҳолатида тўпланиб ётган, ҳар хил салбий ҳиссиётлар қувватидан самарали халос қилади. Иккинчидан, спорт бу кўпгина синалган дори воситаларига нисбатан ўта таъсирли, табиий “антидепрессант ва транквилизатор” ҳисобланади. Айниқса, тоза ҳаво шароитида (аэроб) ўтказиладиган спорт турлари, аёллар эмоционал дунёсида муҳим ўринга эга бўлган, эндокрин тизимини яхшиланишида жуда фойдали ҳисобланади. Жисмоний машғулотларни бажаришда, мияда бузилган метаболизм жараёнини тиклайдиган ва яхшилайдиган, галанин ва пептид гормонлари миқдори ошади [3,11]. Жисмонан чиниққан аёлларда, ўзини ўзи баҳолаш ва ўзлари ҳақидаги фикр юксалади. Ўзига бўлган ҳурмати юксалади. Аёллар спорти бу, шифокорсиз - тана даволаниши. Натижада ташқи пластиклик тикланиб, ҳар хил кутилмаган психосоматик бузилишлар олди олинади. Руҳиятни қайта тикловчи самара кучи юксалади. Танадаги ўзгариш албатта, турмуш тарзи яхшиланишига, шахс ўзгаришига ва унинг юксалишига олиб келади. Бардошлилик, чидамлилик қобилиятлари шаклланади. Ва ниҳоят, ҳамма аёллар ташқи кўриниши учун ўта муҳим омил, қадди- басти келишиб, кўркамлиги ошиб, қомат жозибадорлиги таъминланади. Кейинги муҳим омил бу, ижтимоий эътиборга сазовар бўлиш ва мақулланиш [7,10,12]. Замонавий дунёда аёллар спортининг жадаллик билан тараққий этишидаги жиддий сабаблардан бири ҳам шу. Ҳар қандай куч намоёни, жамият учун таъсуротлидир. Жамиятда келишган ва жисмоний ривожланган қомат, соғлом ва жозибадор кўринишга эга аёллар сони кўпаяди. Жисмоний афзаллик ва жозибадорлик, инсонга ҳаракатлантирувчи ва интилтирувчи қатъиятлик беради. Ана шундай тарзда, спорт ва жисмоний чиниқиш аёл психикаси ва эмоционал дунёсига ўз таъсирини кўрсатади [6,12].

Профессионал спортчи аёллар – жамиятда алоҳида жисмоний услуб ва дидга эга, мутлақ ўзгача ижтимоий қатлам саналади. Спортчилик маҳоратининг юқорилаши натижасида, спортчи қизларда кўпчилик ҳолатларда эркакларга хос характер хусусиятлари пайдо бўлиши ҳам кузатилади [9,10,13]. Физиолог олимларнинг илмий асосда таъкидлашларича, қизлар хулқидаги бундай ўзгаришлар жинсий марказнинг маскулинизацияси(эркаклашиши)га олиб келувчи, мия дифференцияси жараёнини бузилиши билан тушунтирилмоқда. Аёл организмидаги бундай нотабиий ривожланишнинг оқибатлари қизларда, оналик инстинктида муҳим аҳамиятга эга бўлган жинсий ориентация ва аёл – эркак жинсий мавқеига ўз таъсирини кўрсатмай қўймайди. Айниқса, маскулинизация жараёни ривожланишига аёллар оғир атлетикаси, кураш, бокс, футбол, хоккей ва шунга

ўхшаш ўта оғирликли спорт турлари таъсир қилади [9,13]. Аёллар вужуд тузилиши эркаларникидан анча фарқ қилади ва ўзига хос хусусиятларга эга. Агар танада қандайдир жисмоний нуқсон ёки қониқтирмайдиган камчилик бўлса, уларни ҳаммаси спорт ёки жисмоний тарбия машғулотлари ёрдамида бартараф этилади. Аёлларда, эркакларга қараганда ички органлар кичикроқ, суяк ва мушак тизимлари заифроқ, юрак уришлари тезроқ, юрак қисқариши таъсирида ҳайдаладиган қон миқдори ҳажми камроқ ва ўпкадаги ҳаётий ҳажм кенглиги кичикроқ. Табиатига кўра аёллар жисмонан, эркакларга нисбатан анча заиф бўлсаларда, ҳиссиёти ва психикаси жиҳатидан 6 – 8 марта кучли эканликлари психолог олимлар томонидан исботланган. Она табиат аёлларни кучли ҳиссиёт ва руҳият ҳамда, энг улуғ неъмат оналик қилиш мавқеи билан ҳам мукофотлаган [7,10,11].

Қизларнинг, жинсий ривожланиш даври, иккиламчи жинсий белгилар шаклланиши билан бошланиб, аёл организмига хос ойлик овариал – менстуал циклни таъминловчи, мунтазам гормонал жараёнлар орқали амалга оширилади. Табиий савол туғилади – ойлик ҳайз келиш жараёнида, спорт ёки жисмоний машғулотлар билан шуғулланиш мумкинми?

Аёл организмида мунтазам рўй берадиган бундай ва ўзгача физиологик ўзгаришларни жисмоний машғулотлар ёрдамида қандай қилиб ўзаро мутаносиблигини таъминлаш мумкин?

Соҳа мутахассисларининг фикрича, жисмонан яхши ривожланган қизларда ойлик ҳайз келиш жараёнлари даврида кузатиладиган физиологик нохушликлар, ўзининг барқарорлиги ва маромлилиги билан сезиларсиз кечади. Жисмоний машғулотлар билан шуғулланмайдиган қизларда эса бундай жараён майда оғриқларга чидамсизлик ва асаб тизими қўзғалувчанлик ҳолатларининг сезиларлиги билан фарқланади [3,4,10]. Бу яна бир марта аёлларнинг эрта ёшдан жисмоний тобланиш меъёрларига риоя қилиш зарурияти-нинг маъқуллигини кўрсатади. Ҳар бир репродуктив ёшдаги аёл учун алоҳида танланган ва тавсия қилинган жисмоний машғулотлар, менструал циклниг барқарорлиги ва униг кечишини тўғри таъминлайди. Оиланинг соғлом ва баркамол бўлишига 70% аёл қуввати талаб қилинади. Эркак саломатлиги, унинг фаоллиги ва кўзлаган мақсадларига эришиши билан аниқланса, аёлларда уларнинг ижобий эмоционал ва психик дунёси уйғунлиги билан баҳоланади. Спортнинг аёл жисмоний саломатига таъсири ҳақида кўп гапирилиб, руҳиятига таъсири ҳақида эса, эндигина музокаралар ўтказилмоқда. Ҳозирги пайтда, мунтазам спорт машғулотлари ва аёл психикаси орасида кўпгиа боғлиқликлар мавжудлиги аниқланмоқда [4,10,12]. Меъёрида спорт ва жисмоний тарбия билан шуғулланиш, хотин қизлар

психологиясига ижобий таъсир кўрсатиб, репродуктив ёшдаги аёлларда учрайдиган тушкунлик, ваҳима ва депрессия ҳолатларини олдини олади. Жисмоний тарбия мия қон айланиш тизимини яхшилаб, диққат- эътибор қувватини оширади. Асабланишнинг олдини олиб, хурсандлик ҳиссини оширади ва аёл турмуш тарзининг доимий юқори кайфиятни таъминлайди. Бундай юқори кайфиятни организмдаги физиологик, бета – эндорфин гормони амалга оширади. Масалан, оддийгина 10 дақиқалик югуриш машғулоти қонда бу “хурсандлик” гормони миқдорини 42% га , 20 дақиқалик югуриш эса 110% га оширади ва натижада “цивилизация касаллиги”га айланган гипокинезия, ортиқча вазн ва шунга ўхшаш зарарли омиллар олди олинишида ёрдам беради. Умуман олганда, спорт ва жисмоний тарбия билан шуғулланиш, илк навбатда аёллар организмини оналик мавқеига тайёрлашга хизмат қилиши керак [8,9,11]. Хотин – қизлар спорти, қизларда пубертант даврининг енгил кечишига, ҳомиладорлик, туғруқ жараёнларини муваффақиятли ўтишини ва соғлом фарзанд туғилишини таъминлашдаги кафолатлардан ҳисобланади. Фақатгина, “Соғлом танда, соғ ақл!” шиорига беками кўст итоат қилмасдан, ота- боболаримиздан қолган, “Доно ақлда, соғлом тана!” нақлини ҳам, биз фарзандлар унутмаслигимиз керак. Спортда ҳам, ҳар соҳадагидек бебаҳо оралиқни топиш керак. Балким, спорт атамасини жисмоний фаоллик атамаси билан алмаштирилса мақсадга мувофиқ бўлармиди?[1,7,9]

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Асроров У. “Туркистон-пресс” газетаси.
2. Воротынцев. А.И. “Гири – спорт сильных и здоровых”. Москва. 2002г.
3. Захаров. Е.Н. “Энциклопедия физической подготовки”. Москва. 2002г.
4. Ильин Е.П. Психология спорта. СПб.: 2010. С. 43.
5. Лубышева Л.И. Главный редактор журнала “Теория и практика физической культуры” Катовице, Польша. 1998г.
6. Левыкина. Ю.С. “Гиревой спорт” №2. Санкт-Петербург. 2009г.
7. Муротмусаев К.М. “Мудрое питание и здоровый образ жизни” Журнал “Психология и жизнь” 2011 г.
8. Сборник статей. 2008. Ставропольский государственный университет.
9. Соха С., заведующий кафедрой индивидуальных видов спорта Академии физического воспитания, 5-Международная конференция. Материалы статей. Катовице, Польша. 1998г.

10. Татаринова М.В., Анпилогова Л. В.Спорт и физическая подготовка залог здоровье женщин. Сборник статьей. 2010 г. Оренбургский государственный университет, РФ, г. Оренбург
11. Фляга И.Л., Орехова В.Л. Криворожский технический университет. Украина. 2012 г.
12. Черепкова Н.В., Хлюстова И.А. Влияние спорта на психику человека.
13. Шикунов. А.Н. “Очерки по истории, теории и методике гиревого спорта”. Тамбов. 2005г.

Qarshiyeva Dilafro‘z Suyunovna
Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi P.f.d. professor v\b

INFORMATSION STRESS VA UNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada stress va informatsion stress hamda uning mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada informatsion stressni bartaraf etishda vaqt haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va ularning kognitiv layoqatlarini rivojlantirib borish lozimligi haqida fikrlar bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: stress, informatsion stress, kasbiy stress, kommunikativ stress.

Аннотация

На данном статье проанализировано теоритические концепции стресса и информацонного стресса.

Основные понятия: стресс, информационный стресс, профессиональный стресс, коммуникативный стресс.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deganda ma’naviy jihatdan yetuk, o‘z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg‘uradigan, shuningdek, jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan, qo‘shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Ma’lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta’lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog‘liq. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida turgan umumdavlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo‘lib, o‘z xalqining tarixiy taqdirini belgilab oladi.

Ta’lim faoliyati – subyekt uchun doimo “xavotir”da bo‘lishni talab qiladigan jarayondir. Ba’zi paytlarda tashqi tomondan ta’sir etuvchi bosim shunchalik kuchli bo‘lishi mumkinki, u insonni stressga olib keladi. Stress insonning mehnat hamda o‘quv faoliyatida salbiy aks etib, jiddiy natijalarga yuzlatishi mumkin.

Stress og‘ir, mushkul yoki murakkab sharoitlarda yuzaga keluvchi psixikaning zo‘riqish faoliyatidir. Stressning vujudga kelish sabablari quyidagilardir: inson shug‘ullanadigan faoliyatning turi, uning mazmuni, mavjud shart – sharoitlar, faoliyatning tashkiliy qismi va shoshilinch (ekstremal) omillaridir.

Mazkur maqoladamizda aynan informatsion stressga to‘xtalib o‘tamiz. So‘nggi o‘n yilliklarda V.A. Bodrov, A. Bler, N.E. Vodopyanova , L.G. Dikaya , A.N. Zankovskiy , A.B. Leonov , N.V. Samoukina va boshqalar kasbiy stress fenomenini o‘rganib kelmoqdalar.

R. Korsini va A.Auyerbaxlarning psixologik ensiklopediyasida stress odamlarning o‘zaro faoliyatlari va ular tomonidan amalga oshirilayotgan ish natijasi sifatida belgilanadi. Olingan natija odamlarni normal faoliyat ko‘rsatishga to‘sqinlik qilayotgan o‘zgarishlarni yuzaga kelishini aks ettiradi.

A. B. Leonova o‘zining asarlarida kasbiy stressni kasbiy qiyinchiliklar va talablarga javob sifatida vujudga keladigan holat deb ta’riflaydi .

Ijtimoiy psixolog Kristina Maslach kasbiy stressni keng qamrovli fenomen sifatida belgilab bergan. Uning fikriga ko‘ra stress insonning mehnat faoliyatida vujudga keladigan jismoniy va psixik reaksiyalarda namoyon bo‘ladi.

Stressning bir qancha turlari mavjud, masalan, kasbiy stress, emotsional stress, komunikativ stress va h.k.

Ammo aynan stressning informatsion turi pedagogik faoliyatlarda uchratishimiz mumkin.

Informatsion stress axborotlar oqimining nihoyatda ko‘pligi, ularni o‘zlashtirish uchun vaqtning tanqisligi yoki individning shaxsiy kognitiv imkoniyatlarining yetishmasligi natijasida kelib chiqadi.

Informatsion stressning asosiy rivojlanish sabablaridan biri bu- ishdagi vaziyatni past nazorat qilinishidir. Bir qator tadqiqotlarda informatsion stressning inson shaxs xususiyatlari bilan aloqasi o‘rganilgan. Bu muammoni o‘rganishda asos bo‘lib faoliyatning ekstremal sharoitlarida ruhiy zo‘riqish va psixologik aktivasiyaning chidamlilik darajasi va namoyon bo‘lish darajasiga qarab shaxsiy differensatsiya haqidagi ma’lumotlar xizmat qilgan.

Informatsion stressga sezuvchanlikning o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan metodika-savolnoma sinaluvchilar guruhida o‘tkazilib, natijalar miqdor va sifat

jihatidan tahlil qilindi. Shu miqdoriy tahlil natijalari jadvalda aks ettirilgan quyidagi ko‘rinishni hosil qildi.

1-jadval

Sinaluvchilarning informatsion stress ko‘rsatkichlar jadvali

Sinaluvchilar	Yuqori	O‘rta	Past
10 yil stajga egabo‘lgan	35%	30,3%%	23,5%
15 yil stajga ega bo‘lgan	31,5%	28,2%	24,5%

Metodika natijalariga ko‘ra, informatsion stressga nisbatan yuqori sezuvchanlik sinaluvchilar orasida 31,5% va 35% ko‘rsatkich ballni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich har ikkala guruh sinaluvchilarda ham stressga beriluvchanlik yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat ularda axborotlar oqimining va o‘quv jarayoniga berilayotgan ma’lumotlarning ko‘pligi hamda vaqtning to‘g‘ri taqsimlay olmasligi natijasida kelib chiqishi mumkin. Lekin shuni inobatga olish kerakki, o‘qituvchilarning informatsion stressga barqarorligida ish stajining roli katta o‘rin egallar ekan. Sinaluvchilarning yuqori stajga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlarini tahlil qilinadigan bo‘lsa farqli natijani ko‘rish mumkin, ya’ni 10 yildan oshiq ish stajiga ega bo‘lgan sinaluvchilarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 35% ballni tashkil etsa, 15 yildan oshiq ish stajiga ega bo‘lgan sinvluvchilarda esa 31,5% ballga teng bo‘lgan. Bu ko‘rsatkichlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, shaxsdagi bilim, ko‘nikma va tajribalarning ortishi ularda informatsion stressga berilishning pasayishiga olib keldi. O‘qituvchi ish faoliyatida qanchalik ko‘p ishtirok etib borar ekan, unda bu jarayonga nisbatan ko‘nikma va malakalar bilan birgalikda har tomonlama moslashuv jarayoni ham kechadiki, bu o‘z- o‘zidan ularning informatsiyalar oqimining qabul qilish darajasiga ham ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Biz o‘tkazgan tadqiqot natijalar, umuman olganda, maktab o‘qituvchilarida informatsion stress darajasi yetarlicha yuqori ekanligini ko‘rsatgan va bu ularning pedagogik faoliyatida ham o‘z aksini topganligini hamda asosiy omil esa Rissler ta’kidlagandek, tashqi vaziyat yoki holat individ tomonidan uning qobiliyat va imkoniyatlariga tahdid soluvchi boshqalarning talabi sifati qabul qilinishida dalolat beradi. Bunda pedagoglar tomonidan subyektiv darajada aks ettirilishi, ya’ni rahbariyatning qattiqo‘llik bilan berilayotgan topshiriqlarni yoki, aksincha, pedagoglar tomonidan o‘zlashtirilishi talab etilayotgan manbalar o‘ta ko‘p deb qabul qilish holatlarini ko‘rsatish mumkin bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, informatsion stressga beriluvchanlik mavjud bo‘lar ekan, ish sifati unumdorligi kamayadi. Doimiy charchoqlik hissi, ruhiy zo‘riqish, jizzakilik ba’zida melonxoliya vujudga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Селье.Г Стресс без дистресса. Riga: Vieda, 1992.1992.
2. Селье. Г. Стресс без болезней. - Спб, ТОО Лейла, 2003.
3. Тригранян Р.А. Стресс и его значение для организма (отв. ред. навст. предисл. О.Г. Газенко. – М.: Наука, 2000.
4. Маклаков А.Г. – “Общая психология”, СПБ, 2003.

N.T.Ubaydullayev
Oriental universiteti Pedagogika fakulteti dekani,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TALABALARDA O‘Z-O‘ZINI NAZORAT QILISHNING EMOTSIONAL TA’SIRNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ma’lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Zero, jamiyatimizning ma’naviy yangilanishida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o‘ynaydi. Shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal qilish uchun, avvalo, uning xulqiga ta’sir etuvchi omillarning tabiatini, uning shaxsiy xususiyatini yaxshi o‘rganmoq lozim. Buning uchun shaxsni turli munosabatlar doirasiga qo‘yib kuzatish darkor. Ana shundagina shaxsning xulqi, ma’naviy qiyofasi, insoniy fazilatlari ro‘yobga chiqadi.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev yoshlarning ta’lim-tarbiya jarayoni bugungi kunda muhim ahamiyatga ega ekanligi borasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi[7]“.

[7]Sh.Mirziyoyev – “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “O‘zbekiston” – 2017. 157-158-betlar

Shuni alohida ta’kidlash joizki, jamiyatda shaxsning rivojlanishi bir qator ichki va tashqi omillarga bog‘liq. Ayniqsa, shaxsdagi mustahkam e’tiqod, dunyoqarash, tanqidiy fikrlash, o‘zini o‘zi faollashtirishning tarkib topishi asosiy mezon sifatida ko‘rsatiladi.

O‘zbekistonning kelajagi hozirgi kun yoshlari bo‘lib, ularning aqlan, axloqan kamoloti muhimdir. Ayniqsa, ularning bilim cho‘qqilarini, kasb malakalarini egallashlari, jamiyat faoliyatiga faol kirib borishlari, o‘zini o‘zi faollashtirishlari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchlari hisoblanadi. Ertangi kun davomchilari bo‘lgan yoshlar nafaqat bilim cho‘qqilarini egallabgina qolmasdan, balki o‘zlarida fidoiylik, Vatanga sadoqat, insoniylik tuyg‘ularini shakllantirishlari lozim.

Darhaqiqat, mamlakatimiz taraqqiyoti bugungi yoshlarimiz, ayniqsa, bo‘lg‘usi kadrlar - talabalarning chuqur bilim olishi, tafakkur dunyosining kengligi, mustaqil fikrlash qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir. Xususan, bugungi globallashuv davrida o‘quv faoliyatida talabalarning o‘zini o‘zi boshqarishlari muhim ahamiyat kasb etadigan xususiyat hisoblanadi. Chunki ular o‘zini o‘zi faollashtirish orqali yangi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish bilan bir qatorda, kelajakda katta marralarga erishadi hamda jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shishadi. Talabalik davri shaxs kamolotida muhim bosqichlardan hisoblanadi. Ayniqsa, talaba shaxsida yetakchi faoliyat sifatida o‘quv faoliyati hisoblanadi. O‘quv faoliyati talaba shaxsida bilim, ko‘nikma va malakalarning tarkib topganligi bilan izohlanadi. Shu bois talabalik davrida o‘zini o‘zi boshqarishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Kalit so‘zlari: *Emotsional ta’sir, emotsional holat, emotsional jarayon, shaxs, ijtimoiylashuv, o‘z-o‘zini nazorat qilish.*

Аннотация

Известно, что развитие, социальная, политическая, экономическая стабильность любого общества зависит от высокого уровня развития психического и морального потенциала его граждан. В конце концов, национальная проблема подготовки персонала в духовном обновлении нашего общества в формировании социально ориентированной рыночной экономики играет важную роль в качестве приоритетного критерия.

Для решения задачи идентичности развития человека, прежде всего, природа природы его собственного поведения должна быть хорошо изучена. Для этого человека следует наблюдать, установив различные отношения. Только тогда поведение, духовный образ, человеческие качества сбываются.

В связи с этим образовательный процесс нашей страны сегодня важен: это важен для важности “.

Следует отметить, что развитие человека в обществе зависит от ряда внутренних и внешних факторов. В частности, содержание солидных убеждений, мировоззрения, критического мышления, самореализации, является основным критерием.

Будущее Узбекистана является нынешней эпохой настоящего, и их психически морально зрелость важна. В частности, это особенно пики, профессиональное развитие, активное вступление общества, активно активирует развитие общества. Молодые люди, которые будут происходить завтра, следует не только упускать из виду пики знаний, но и формировать самопожертвование, лояльность, человеческие эмоции.

Действительно, развитие нашей страны напрямую связано с сегодняшними молодыми людьми, особенно с будущим персоналом и широтой мышления, широтой мира мысли, независимым мышлением. В частности, во время современной глобализации важно самоуправление студентов. Поскольку они могут иметь новые знания, навыки и навыки посредством самоактивации, в будущем они достигнут великих вех и внесут огромный вклад в развитие общества. Студенческий период является одним из важных этапов зрелости человека. В частности, студент является студентом в качестве ведущих мероприятий. Академические мероприятия объясняются личности, навыками и навыками студента. Следовательно, целесообразно проанализировать факторы, влияющие на себя в течение периода студентов.

Ключевые слова: Эмоциональное воздействие (влияние), эмоциональное состояние, эмоциональный процесс, личность, социализация, самоконтроль.

Annotation

It is known that the development, social, political, economic stability of any society depends on the high level of development of its citizens' mental and moral potential. After all, the national issue of training of personnel training in the spiritual renewal of our society in the formation of a socially oriented market economy plays an important role as a priority criterion.

To address the identity task of the development of the person, first of all, the nature of the nature of its own behavior should be well studied. To do this, the person must be watched by setting to different relationships. Only then is the behavior, spiritual image, human qualities come true.

In this regard, the educational process of our country is important today: It is a matter of importance for the importance. “

It should be noted that the development of the person in society depends on a number of internal and external factors. In particular, the content of the solid beliefs, worldview, critical thinking, self-activity, is the main criterion.

The future of Uzbekistan is the present age of the present, and their mentally morally maturity is important. In particular, they are particularly peaks, professional development, active entry of society, actively activates the development of society. Young people who are going on tomorrow should not only be overlooked by knowledge peaks, but also to form self-sacrifice, loyalty, human emotions.

Indeed, the development of our country is directly related to today's young people, especially future personnel and the breadth of thinking, the breadth of the world of thought, independent thinking. In particular, during the modern globalization, students of students' self-government are important. Because they are able to have new knowledge, skills and skills through self-activation, they will achieve great milestones in the future and make a huge contribution to the development of society. Student period is one of the important stages in the maturity of the person. In particular, the student is a student activity as leading activities. Academic activities are explained by the student's identity, skills and skills. Therefore, it is advisable to analyze factors influencing itself during a student period.

Keywords: Emotional influence (impact), emotional condition (state), emotional process, personality, socialization, self-control.

Ma’lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Zero, jamiyatimizning ma’naviy yangilanishida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal qilish uchun, avvalo, uning xulqiga ta’sir etuvchi omillarning tabiatini, uning shaxsiy xususiyatini yaxshi o‘rganmoq lozim. Buning uchun shaxsni turli munosabatlar doirasiga qo‘yib kuzatish darkor. Ana shundagina shaxsning xulqi, ma’naviy qiyofasi, insoniy fazilatlari ro‘yobga chiqadi.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev yoshlarning ta’lim-tarbiya jarayoni bugungi kunda muhim ahamiyatga ega ekanligi borasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni

egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi[8]“.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, jamiyatda shaxsning rivojlanishi bir qator ichki va tashqi omillarga bog‘liq. Ayniqsa, shaxsdagi mustahkam e’tiqod, dunyoqarash, tanqidiy fikrlash, o‘zini o‘zi faollashtirishning tarkib topishi asosiy mezon sifatida ko‘rsatiladi.

O‘zbekistonning kelajagi hozirgi kun yoshlari bo‘lib, ularning aqlan, axloqan kamoloti muhimdir. Ayniqsa, ularning bilim cho‘qqilarini, kasb malakalarini egallashlari, jamiyat faoliyatiga faol kirib borishlari, o‘zini o‘zi faollashtirishlari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchlari hisoblanadi. Ertangi kun davomchilari bo‘lgan yoshlar nafaqat bilim cho‘qqilarini egallabgina qolmasdan, balki o‘zlarida fidoiylik, Vatanga sadoqat, insoniylik tuyg‘ularini shakllantirishlari lozim.

“Qur’on”da insonning ruhiy va ma’naviy kamolga yetishiga to‘sqinlik qiluvchi salbiy xislatlardan biri g‘azab deb ko‘rsatiladi. U ruhiy razolat sifatida talqin etiladi. Chunki g‘azab kelganda aql qochadi, inson o‘z irodasini idora qila olmay qoladi, o‘z manfaati, obro‘sini himoya qilaman deb johillikka yo‘l qo‘yadi, hatto, g‘azab inson salomatligiga ham zarar yetkazadi. Shuning uchun ham islom insonni aql va insofga, o‘z hissiyotlarini boshqara olishga chaqiradi. Chunki g‘azab kelganda chiqarilgan hukm, amalga oshirilgan xatti-harakat johillik belgisi bo‘lib hisoblanadi. G‘azabni bosish bilan birga uni qo‘zg‘agan shaxsni kechira olish darajasida o‘zini boshqara olish xislatiga ega bo‘lish kerakligi uqtiriladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rish mumkinki, irodaviy sifatlarning shakllanishi shaxs xususiyatlarining rivojlanishiga turtki beradi. Shuningdek, insonlarda yuzaga keladigan emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish o‘zini o‘zi boshqarish uchun eng zarur xususiyat ekanligi e’tirof etiladi.

Demak, islom dini ta’limoti bo‘yicha ham inson ma’naviy kamolotining asosini faqat aqliy rivojlanish emas, balki axloqiy sifatlardan sabr-qanoat, chidam, bardoshlilik, o‘z shaxsiga va o‘zga shaxsga nisbatan hurmat hissining mavjudligi, shuningdek, xushhulqlilikning shakllanishi tashkil etadi.

Abu Nasr Forobiyning fikriga ko‘ra, har kim o‘z irodasiga bog‘liq xatti-harakatlarni bajarishga qodir bo‘lsa, ruhan va tabiatan xayrli amallar va sharr (yomon) ishlar tomon o‘z irodasini yo‘naltira oladi. Shu sababli har bir insonda fazilatli xatti-harakatlar yoki razolatli fe’l-atvor tug‘diradigan iste’dod mavjud bo‘lib, u har ikkisidan birini bajarishga qodirdir .

[8]Sh.Mirziyoyev – “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “O‘zbekiston” – 2017. 157-158-betlar

Keltirilgan fikrlardan ko‘rinadiki, alloma inson kamolotida iroda va irodaviy sifatlarning o‘rni beqiyos ekanini tan oladi. Ayniqsa, shaxs o‘zidagi ijobiy va salbiy xulq-atvor me’yorlarini idora qilishi, o‘zini o‘zi nazorat qila olishi hamda boshqara olishida iroda va irodaviy sifatlar yaqqol namoyon bo‘lishiga alohida urg‘u beradi.

O‘zini o‘zi boshqarish bu faoliyatning asosiy bosqichlarida tashkilot va nazorat elementlariga murojaat qilishni o‘z ichiga oladigan sifat. O‘zini o‘zi boshqarish tuzilishini va uning shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun bu hodisa haqida umumiy tushuncha zarur. O‘zini o‘zi boshqarish deganda, maqsadga erishish uchun o‘zini yo‘naltirish, cheklash yoki rag‘batlantirish tushuniladi. Bu pozitsiyadan kelib chiqib, o‘zini o‘zi boshqarish irodaning xatti-harakatlar va faoliyatni tashkil etishda nazoratini va ishtirokini o‘z ichiga oladi. Platon tomonidan obyektiv baho va intilishlarning sintezi sifatida tuzilgan irodaning ma’nosi qisman o‘zini o‘zi boshqarish haqidagi keyingi g‘oyalar uchun zarur shartdir. Aristotel irodani xuddi shunday izohlaydi. Faylasufning fikricha, iroda - maqsad va maqsadga erishishga qaratilgan intilishlarning kombinatsiyasi. Shuningdek, Aristotel “iroda”, “o‘zboshimchalik”, “qaror” va “maqsad” tushunchalarini kiritdi.

P.Rinerning aytishicha, ixtiyoriy harakat intellektual maqsadga asoslanadi, uni amalga oshirish uchun faoliyat yo‘naltiriladi. Iroda boshqaruv mexanizmi sifatida P.A.Golbax tomonidan ko‘rib chiqilgan. U ta’kidlaganidek, odam tashqi muammolarni engishga qodir va xulq-atvorni ixtiyoriy tartibga solish orqali o‘lim haqidagi nazariya bilan bahslashadi. V. Jeyms iroda erkinligi muammosiga ishora qilib, shuningdek, inson o‘zi bilan nima bo‘layotganini mustaqil ravishda belgilashi va tartibga sola olishini ta’kidladi.

Cheklovchi hodisa sifatida irodani tushunish Kantning “yaxshi iroda” kontseptsiyasiga to‘g‘ri keladi: “Sizning irodangiz orqali sizning harakatlaringizning maksimasi tabiatning universal qonuniga aylangandek, harakat qiling”. Xorijiy adabiyotlarda keltirilgan tadqiqot natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zini o‘zi boshqarish insonning shaxsiy ehtiyojlari va ijtimoiy me’yorlariga muvofiq xatti-harakatlarini aniqlash va to‘g‘rilashga imkon beradigan moslashuvchan xususiyat sifatida qaraladi.

O‘z-o‘zini boshqarshning biologik jihati P.K.Anoxinning biologik funktsional tizimi kontseptsiyasida keltirilgan. Ushbu kontseptsiyaga ko‘ra, muhim rag‘batlantiruvchi xulq -atvor faolligini keltirib chiqaradi, u mavjud ma’lumotlar asosida va aniq maqsadga muvofiq quriladi. Umuman olganda, ushbu faoliyat natijasi yoki uning asosiy daqiqalari xotirada saqlanadigan ma’lumotlar bilan taqqoslanadi. Agar natija golning qolgan naqshiga mos keladigan bo‘lsa, harakat

tugaydi. Agar kelishmovchilik bo‘lsa, unda harakatni tuzatish (ba’zi hollarda nishonni to‘g‘rilash) amalga oshiriladi .

A.O.Proxorov o‘zini o‘zi boshqarishni nafaqat harakatlar va qarorlar qabul qilish darajasida, balki hujayralar holati orqali ham ko‘rib chiqadi. Tadqiqotchining asarlariga ko‘ra, o‘zini o‘zi boshqarish allaqachon hujayra darajasida paydo bo‘ladi, lekin inson tanasidagi vakillik darajasi murakkablashishi bilan murakkablashadi.

Shunday qilib, o‘zini o‘zi boshqarishni o‘rganish falsafiy, fiziologik va psixofiziologik tadqiqotlarda aks ettirilgan faoliyat va xulq-atvorni tushunish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan deb aytishimiz mumkin. Shu munosabat bilan, psixologiya fanida o‘zini o‘zi boshqarish muammosi mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqila boshlandi. Quyidagi jadvalda olingan natijalarni ko‘rishingiz mumkin.

Emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish turlarining namoyon bo‘lish darajasi

Sinaluvchilar	***Emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish***	***Faoliyat jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilish***	***Ijtimoiylashuv jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilish***
1-kurs	12,8	17,6	18,5
3-kurs	15,6	19,9	20,4

Ko‘rinib turganidek, biz emotional holatlarning o‘z-o‘ziga nazorat qilishini Toshkent davlat pedagogika universiteti, pedagogika va psixologiya fakulteti talablarida, ya’ni 1 va 3- kurslarda o‘tkazdik.

1- kurs talabalari emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish 12,8 bo‘lib, 3 kurslarda esa 15,6 bundan ko‘rinib turibdiki quyi kurs talabalari o‘zlarini emotional kamroq nazorat qila olishadi bu albatta ularning, ya’ni o‘quv muhiti yangi ijtimoiy jarayonlarning adaptatsiyasi bilan bog‘liqdir. 3 kurslar 15,6 natijasi o‘z-o‘zidan ularning o‘quv muhitiga moslashganligi va ular o‘zlarini yaxshi boshqarishi bilan bog‘liqdir.

Faoliyat jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilish 1- kurslarda 3- kurslarga qaraganda nisbatan pastroq ekanligini ko‘zga tashlanmoqda, ya’ni 1- kurs talabalarida bu ko‘rsatgich 17,6 miqdorni 3- kurslarda esa 19,9 miqdor ko‘rsatgichni namoyon qilmoqda. Ya’ni, bundan ko‘rinib turibdiki 1-kurs talabalarida yangi faoliyatni boshlaganlari va bu jarayon ularga notanish bo‘lganligi uchun faoliyatda o‘zini o‘zi nazorat qilish ko‘rsatgichlari past ekanligi ko‘rishimiz mumkin. Ammo 3 kurs talabalarida ta’lim faoliyati haqida bilim, ko‘nikma yetarlicha shakllanganligi va shu bilimlarga asoslanib faoliyatlarini nazorat qilishlari ko‘rinib turibdi.

Ijtimoiylashuv jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilish shkalasida esa 1- kurs talabalarida 18,5 miqdor hamda 3- kurs talabalarida 20,4 miqdor ko‘rsatgichlari qayd qilindi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiylashuv jarayoni va shaxsning xususiyatlari namoyon bo‘lishi yuqori bosqich talabalarida mukammalroq ekanligi va har qanday yangi ijtimoiy muhitda ular o‘zlarini yaxshi namoyon qilishlari ko‘rinib turibdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shaxsning qanchalar ko‘p yangi bilimlarni egallashlari, faoliyat jarayonida qanchalar ko‘p bo‘lishlari ularda ko‘nikma va malakalarini shakllanishiga olib kelishi mumkinligi va biz o‘z tadqiqotimizdan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin.

1. Talabalik davrida mustaqil fikr, mustahkam e’tiqod va dunyoqarash shakllanganligi ularda axloq sohasida o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanishiga olib keladi va bu ko‘proq ijtimoiy xulq-atvorlar, munosabatlarda, o‘zini tuta bilish hamda javobgarlikni his qilish, mustaqillikka intilish, axloqiy qarashlarning kengayishida yaqqol ko‘zga tashlanadi.
2. Talabalik davrida o‘zini o‘zi boshqarishning tarkib topishiga asosiy e’tiborni qaratishda mazkur yoshda yuzaga keladigan psixologik, fiziologik o‘zgarishlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Talabalarda o‘zini o‘zi boshqarish darajasini oshirishga xizmat qiluvchi maxsus mashq va mashg‘ulotlarni qo‘llashda hissiy irodaviy sifatlar tizimining yoshga oid xususiyatlarini e’tiborga olish amaliy chora tadbirlar samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev – “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “O‘zbekiston” – 2017. 157-158-betlar.
2. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida muqaddima, tarjima va izohlar muallifi: M.Qodirov: ma’sul muharrir: A.Jalolov. – T.: Yozuvchi, 2001. – 64 b.
3. Ганеева Э.И. Формирование индивидуалного стилья обшения у подростков в учебно – воспитателном процессе: Автореф. дис… канд. психол. наук. – Ташкент: НУУз, 2002, – 24 с.
4. Газиев Э.Г. Психологические основи развития самоуправления учебной деятелностю у школников и студентов: Автореф. дис... докт. психол. наук. – М.: МГУ, 1992. – 38 с.
5. Камалетдинова З.Ф. Психологические особенности мотивационно смисловой сфери старшеклассников с отклоняюшимся поведением. Автореф. дис… канд. психол. наук. – Т.: ТГПИ, 1993. – 19 с.

Тошхужаева Шоирахон Ғаниевна
PhD, Қўқон ДПИ доценти.
Каримова Шахлохон Ғаниевна
PhD, доцент

ТИЛ ТАЪЛИМИДА ЛИНГВОПОЭТИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАҲЛИЛИ

Аннотация

Ушбу мақолада лингвопоэтиканинг юзага келиши билан боғлиқ масалалар ҳақида сўз боради. Лингвистика ва поэтиканинг ўзаро муносабатлари кўрсатиб ўтилади.

Таянч сўз ва иборалар: лингвопоэтика, структурал лингвистика, структурал поэтика, генератив лингвистика, риторика, филологик поэтика.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с возникновением лингвопоэтики. Показана взаимосвязь языкознания и поэтики.

Ключевые слова и фразы: лингвопоэтика, структурная лингвистика, структурная поэтика, генеративная лингвистика, риторика, филологическая поэтика.

Abstract

This article deals with issues related to the emergence of linguopoetics. The relationship between linguistics and poetics is shown.

Key words: linguopoetics, structural linguistics, structural poetics, generative linguistics, rhetoric, philological poetics.

Лингвопоэтиканинг юзага келиши билан боғлиқ масалалар кўплаб тадқиқотчиларнинг эътиборини тортиб, баҳс ва мунозараларга сабаб бўлгани қадимдан маълум. Лингвопоэтика бугун пайдо бўлган соҳа эмас. Бу атама ифодалаган тушунча таркибидаги фанлар қадимдан филологик соҳанинг таркибида, бу соҳа эса ижтимоий фанлар қаторида, хусусан, фалсафа таркибида ўрганилган. Кейинчалик лингвистика ва поэтика каби фанларнинг янги илмий тушунчалар ва илмий парадигмалар сифатида мустақил фанга айланиши икки фан оралиғидаги тадқиқотларга бўлган эҳтиёжни кучайтирди. Лингвопоэтика соҳасига бўлган бундай эҳтиёж икки фан учун ҳам бирдек ҳизмат қилувчи услубшуносликнинг тараққиёти билан боғлиқ бўлди. Лингвопоэтиканинг тақдири фаннинг стилистика соҳаси билан боғланар экан,

албатта, икки фан орлиғида турувчи уларнинг кўприги сифатида ҳизмат қилувчи услубшуносликнинг мутаҳассислари қарашларига тўхталиш муҳимдир. Лингвистика ва адабиётшуносликнинг ўзаро муносабатлари ҳанузгача муаммо бўлаётганлиги йирик тилшунос олим В.В. Виноградов асарларида ҳам ўз ифодасини топган. Маълумки, бошқа санъат турларидан фарқли ўлароқ адабиёт сўз санъати ҳисобланади. Бадиий асарларнинг ғоявий-бадиий хусусиятлари айнан сўз воситаси орқали очиб берилади. Шу сабабли ҳам сўзнинг асар мазмунини акс эттиришдаги роли беқиёс. Фақат сўзнинг ўзигина воқеликни образли акс эттиришда ожизлик қилади. Бу билан бадиий асарда қўлланаётган лингвистик бирлик - сўз лингвопоэтик хусусиятларни ифодалашда ёзувчидан ўта моҳирликни талаб этади. Шу маънода ёзувчи бадиий асардаги воқеликни тасвирлар экан, китобхонга унинг нозик тафаккурига таъсир қилувчи воситаларни ранг-баранг тасвирлар ёрдамида ифодалайди. Бундай ифодаланиш баъзида норматив лингвистикага зид қўйилади, зидланиш лисоний воситалар кўмагида ифодаланганлиги учун шакл ва маънодаги ранг- баранглик лингвопоэтик вазифа бажаради. Воқеаларнинг бадиий тасвирида шундай вазиятлар мавжуд бўладики, уларни лисоний шакллар билан ифодалашнинг имконияти бўлмайди. Бунга миллий урф-одатлар ва миллий менталитет йўл қўймайди. Шунинг учун ҳам бирор предмет, нарса, ҳодисалар образли воситалар орқали ифодаланади. Ёзувчи назарда тутган бадиий воқеликни ифодалаш учун лисоний бирликлар ўрнида экстралингвистик воситалар қўлланилади. Бундай вақтларда нолисоний ва экстралингвистик воситалардан ҳам фойдаланилади. Шунинг учун ҳам лисоний воситалар тасвири қаторида бошқа воситалар ҳам ўз ифодасини топади, барча воситалар зиммасига ёзувчи томонидан бадиий – ғоявий юк юкланади.

Инглиз тилшуноси С.Сапорта лингвистиканинг поэтик тилда ўрганилиши хусусида фикр юритиб, лингвистика ва поэтика муносабатининг уч жиҳатини аниқлайди:

1. Поэтика бу – тил.
2. Поэтика бу – тил эмас, санъат.
3. Поэтика бу – санъат ва тил кесишувидир.

У лингвистик усуллар поэтика соҳасида муҳим аҳамият касб этиб, ҳар қандай поэтика бу –тилдир деган тамойилни илгари суради. Бироқ шундай бўлса-да, у лингвистика ва поэтиканинг бир-биридан фарқини унутмаслик лозимлигини алоҳида таъкидлайди. [6.97]

Табиийки, тилдай мураккаб ҳодисанинг моҳияти ва синоатли қонуниятларидан мукаммал хабардор бўлмасдан туриб, унинг минг бир

маъно-мазмун ва жилоларда яшаш манзили бўлмиш адабиётни холис ва теран ўрганиш ёки адабиётнинг минг бир қонуниятидан бехабар ҳолда мазкур манзилни чин илмий тафтиш қилишга уриниш самарасиз бир юмушдир. [3.34] Шу сабабли филология илмида янги соҳа сифатида бўй кўрсатаётган лингвопоэтика соҳаси учун аниқ ва уйғун бир йўлни танлаш ҳаракати кўплаб филологлар, аниқроқ айтганда тилшуносларнинг мазкур соҳа бўйича олиб борган тадқиқотларида у ёки бу даражада ўрганилмоқда.

В.Я.Задорнованинг лингвопоэтика бўйича олиб борган ишларида лингвистика ва поэтика қиёслаб ўрганилган. Ушбу қиёсий ўрганишда поэтика тушунчаси Р.Якобсон фикрларига яқин бўлиб, поэтика бир хил ҳажм ва маънода келишни ифодаласа, лингвистикада эса алоҳида йўналиш ва ғоялар намоён бўлишини кўрсатади. М.Бирвиш каби, баъзи муаллифлар, лингвистика ва поэтикани воқеланувчи моделлар сифатида талқин қиладилар[7.98], Четман ва Ю.И.Левин эса анъанавий структурал маъносини изоҳлаб, таксономик нуқтаи назардан ёндашади. А.Ж.Греймас каби, айрим тадқиқотчилар, поэтика ва структур лингвистиканинг бир - бирига яқинлигини ифодалаб, шу мақсадда турли ёндашув ғояларини умумлаштиришга уринишади.

Тилшунослар, адабиётчилардан кўра, лингвопоэтиканинг поэтика ва тилшунослик ўртасида муносабатларига кўпроқ эътибор қаратишади. Тилшунослик ва адабиётшунослик нуқтаи назаридан адабий нутқ назариясига ёндашиш фарқларини кўрсатишга мисол қилиб А.А.Леонтьев[5.125] ва В.В. Кожиновнинг[4.78] қарашларини мисол қилиб келтириш мумкин. Лингвостилистика бўйича Ю.М.Лотманнинг “Структурал поэтика”си бошқа ишлардан кўра замонавий тилшуносликка яқинроқлиги билан ажралиб туради. Б.В.Томашевскийнинг “Поэтик услубшунослик”, “Поэтикага кириш” ва Й.Иве томонидан тайёрланган “Адабиётшунослик ва лингвистика” тўпламидаги тадқиқотларида ҳам лингвопоэтика қиёсий жиҳатдан ўрганилган. [8.156]

Лингвистика ва адабиётшунослик ўртасидаги муносабат тўғрисидаги баҳс ва мунозаралар дастлаб юз йиллар олдин пайдо бўлиб, бу ҳол ҳозирги кунгача ҳам давом этиб келмоқда. [2.22] Маълумки, лингвистика ва поэтика ўртасидаги муносабатларни тартибга соладиган йўналиш лингвопоэтикадир. Демак, лингвопоэтика соҳаси томонидан бажариладиган вазифаларга айнан турли нуқтаи назарларни умумлаштирувчи таҳлилга филологик ёндашув методи орқали кириб борилади. Тилшуносликда ва адабиётшуносликда ҳам тадқиқот йўналишлари ва мундарижаси соҳанинг хусусиятидан келиб чиқиб туриб белгиланади. Лингвопоэтика соҳасидаги амалга оширилган тадқиқотлар унинг мазмуний структурасини белгилаш учун асос бўлади. Мавжуд

назариялар, қарашлар системага солинади, натижада йўналишнинг умумий манзили кўзга ташланади. Очиқ қолган масалалар тадқиқотнинг асосини ташкил қилади.

Лингвопоэтика лингвистиканинг алоҳида янги соҳаси сифатида бадиий асар тилини ўрганувчи янги йўналишлардан биридир. Бу йўналиш бўйича амалга оширилган мавжуд тадқиқотлар соҳанинг мундарижасини ўзида ҳали тўлиқ акс эттира олган дейиш мумкин эмас. Лингвопоэтика тушунчаси остида соҳани тор тушуниш туфайли поэтик характердаги асарларнинг тил хусусиятлари ўрганилади деган қараш мавжуд. Аслида поэтика тушунчасининг мундарижаси жуда кенгдир. Қадимда бу ҳақда Арасту ўзининг машҳур "Поэтика" асарини яратди. Унда поэтик санъат — шеърий навлар (жанрлар) хусусида тўхталиб, поэтика — поэзия санъати ҳақида сўз юритган. "Тил ва фикр" бобида эса нутқ ва фикрга тегишли ҳодисаларнинг риторикага алоқадорлигини таъкидлаб, унинг нутқ тузиш билимлари билан боғлиқлигини алоҳида эътироф этади[1.39].

Ҳар бир тил ҳодисаси нутқий вазиятга ўтар экан, инсоннинг тасаввури, руҳияти, ҳиссиётлари бу нутқий боғланишга ўзаро алоқадор ҳолда кўчади. XX аср тилшунослигида бадиий асар тили тадқиқига кенг эътибор берилгани боис, риторика ва поэтика тушунчаларини бирлаштирган ҳолда бадиий асардаги воқелик тасвирини ҳар томонлама, чуқур ва яхлит ҳолда тадқиқ этишни ўзида акс эттирувчи "лингвопоэтика" атамаси пайдо бўлди.

Лингвопоэтика ҳар қандай жанрнинг тил хусусиятлари билан боғлиқ муаммоларни таҳлил қилади. Хусусан, эпик асарларнинг тил хусусиятлари жиҳатидан ўрганилиши лингвопоэтика тушунчаси билан изоҳланади. Лингвопоэтика муаммоларига бўлган қизиқиш XX асрнинг 60-йилларида шакллана бошлади. Маълумки, ўша даврлардан бошлаб поэтик тилнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганувчи тилшунослик йўналиши лингвопоэтика деб юритила бошланди. Лингвопоэтика атамасидан фойдаланиш айрим тадқиқотчилар таклиф этган "филологик поэтика" атамасидан кўра қулайдир.

АДАБИЁТЛАР:

1. Аристотель. Поэтика. Тошкент, 1980.
2. См.: Будагов Р. А. Что такое лингвистическая поэтика? – Филологические науки, 1980, № 3: Вопросы лингвистической стилистики. М., 1978; Григорьев В. П. Поэтика слова. М, 1979; Лингвистика и поэтика. М., 1979; Поляков М. Я. Вопросы поэтики и художественной семантики. М., 1978; К I о е р fer R. Poetik und Linguistik. München, 1975; H a r d t M. Poetik und

Semiotik. Das Zeichen-system der Dichtung. Tubingen, 1976; Hawkes T. Structuralism and semiotics. L., 1977;. Meschonnic H. Pour la poetique. Paris, 1978.

3. Йўлдошев М.Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008.
4. Кожинов В.В. Поэтика за пятьдесят лет. – Изв. АН СССР. Сер.ли.и яз., 1967.
5. Леонтьев А.А. Исследования поэтческой речи. – // Теоретические проблемы советского языкознания. М.: Наука, 1968.
6. Сапорта С. Применение лингвистики в изучении поэтического языка. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.IX. М.,1980.
7. Bierwisch M. Poetik und Linguistik – In. Mathematik und Dichtung. Munchen. Nymphenburger. 1965.

Ihwe J. Das Problem der poetschen Sprache: ein Schein problem. - См. Литературоведение и лингвистика. 1971.

Ermatova G.P., Maxmudova N. N.
Navoiy davlat pedagogika instituti

HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI BOLALARDA IRODAVIY SIFATLARNI TARBIYALASH

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy harakatli o‘yinlar orqali bolalarda irodaviy sifatlarni tarbiyalash haqidagi ma’lumotlar yoritib bergan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktabgacha yoshdagi bolalar, jismoniy tarbiya, harakatli o‘yinlar, irodaviy sifatlar, chidam, bardosh.

Аннотация

В данной статье освещены сведения о воспитании произвольных качеств у детей посредством двигательных игр в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: дошкольная образовательная организация, дошкольники, физическое воспитание, активные игры, произвольные качества, выносливость, выносливость.

Abstract

This article covers information about the education of voluntary qualities in children through motor games in preschool educational organizations.

Key words: preschool educational organization, preschoolers, physical education, active games, voluntary qualities, endurance, endurance.

Respublikamizda ma’naviy, axloqiy va jismoniy, ruhiy barkamol avlodni tarbiyalash ehtiyoji umumdavlat ahamiyatiga molik masaladir. Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, boy ma’naviy merosimizning eng yaxshi an’analari hamda zamonaviy ta’lim-tarbiya uzviylikda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sog‘lom avlod deganda, eng avvalo, sog‘lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga, ruhiy, fikriy sog‘lom, iymon-e’tiqodli, bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunamiz. Vatanimizda amalga oshayotgan buyuk ishlarni sog‘lim avlodgina davom ettiradi.

Yosh avlodni jismoniy jihatdan sog‘lom etib tarbiyalash, maktabgacha ta’lim davridan boshlab amalga oshiriladi, chunki maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab bolalarda jismoniy malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi, ularga o‘z sog‘lig‘ini saqlash va muhofaza qilish o‘rgatib boriladi[6].

Ana shunday jarayonni amalga oshirish uchun bo‘lg‘usi tarbiyachilarda so‘g‘lom rivojlanish, ovqatlanish meyyorlari, salomatlikni saqlash haqidagi bilimlar va bolalarni jismoniy tarbiyalash bilim, ko‘nikmalar berishga tayyorlash zarur.

Bola hayotining uchinchi davrida gavdasini mustaqil boshqarish, muvozanat saqlash va to‘g‘riga, yo‘lakka, enli taxta ustida tayanmasdan yura olish hamda balandligi 10 sm bo‘lgan buyumning ustiga chiqib-tushish harakatlarini egallaydi. Bu davrda kattalar bolaning harakat faolligini oshirish maqsadida: aravachalar, yirik o‘yinchoq mashinalar bilan o‘ynashga o‘rgatishlari, o‘yinli mashg‘ulotlarni 8-10 daqiqa imkon qadar ertalab ochiq havoda o‘tkazishlari hamda “Tutib olaman”, “Koptokni tutib ol”, “Enli taxtadan yur”, “Yo‘lakcha bo‘ylab yur”, “Bayroqni olib kel”, “Ayiqchani oldiga bor”, “Koptokni dumalat” kabi harakatli o‘yinlarni tashkillashtirishlari lozim[3].

To‘rtinchi 2-3 yosh davr bolaning jismoniy rivojlanishida o‘ziga xos davr hisoblanadi. Bu davrda jismoniy harakatlarning muhim hayotiy turlari yurish, yugurish, sakrash, emaklash, irg‘itish orqali bolaning oyoq, qo‘l, tana, bosh harakatlari rivojlanadi va unda chaqqonlik, epchillik, ziyraklik, irodalilik, sabr-qanoat, kuchlilik kabi jismoniy sifatlar rivojlanadi. Bunda bola mustaqil kattalarning yordamisiz, lekin ularning nazoratlari ostida katta yoshdagi insonlarning barcha jismoniy harakat turlarini egallaydi[6].

Maktabgacha yoshda jismoniy mashqlarni yil bo‘yi ochiq havoda o‘tkazisa yaxshi samara beradi. Ular bola organizmining funksional jihatdan takomillashishiga, chiniqishiga yordam beradi, shamollash kasalliklariga qarshiligini oshiradi. Ochiq havodagi mashg‘ulotlar odatda uch qismdan: kirish-

tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi qismdan iborat bo‘ladi. V.G.Frolov va G.P.Yurkolarning ma’lumotiga ko‘ra, mashg‘ulotlarning xususiyati turli sur’atda – tez, o‘rta, sekin yugurishdan ko‘p martalab foydalanish hisoblanadi. Yugurish sur’atining o‘rganilishi organizmning funksional imkoniyatlari ortishiga, umumiy chidamlilikning oshishiga ta’sir etadi. Mashg‘ulotning kirish-tayyorlov qismi harakat texnikasini yaxshilash, oyoq muskullarini mustahkamlash, qomatni takomillashtirish maqsadidagi nafas olish, sekin sur’atdagi yugurish mashqlaridan iboratdir. Yugurishdan so‘ng bolalar bo‘limli qator, doira va boshqalarga saflanadilar, bu keyingi mashqlar uchun maqsadga muvofiqdir. Mashg‘ulotning asosiy qismi qo‘l, gavda va oyoq muskullariga yaxshi nagruzka beruvchi umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish uchun mo‘ljallangan. Shundan so‘ng o‘rtacha tezlikda yugurish o‘tkaziladi. U yurish va bolalarning asosiy harakatlarni bajarish uchun qayta saflanish bilan tugallanadi. Bunda avval murakkab yoki yangi harakatlar, o‘rtacha tezlikda yugurishdan so‘ng esa sekin sur’atdagi yugurish bilan tugallanadigan tanish harakatlar beriladi. Bu qism oxirida musobaqali harakatli o‘yin, estafeta o‘yini yoki sport o‘yini o‘tkaziladi. Ular bolalarning yuqori harakat faolligini ta’minlaydi[5].

Harakatli o‘yinlardan foydalanilganda esa, bu jarayonni rivojlantirish yaxshi natija beradi. Bola bir tomondan, tarbiyachining ko‘rsatmalarini tunglaydi, ikkinchi tomondan, shu so‘zlar asosida jismoniy harakatlar bajaradi.Bola qo‘yilgan maqsadga erishish uchun o‘zi bajarayotgan harkatlarni nazorat qiladi va boshqaradi. Bunda ixtiyoriylik rivojlanadi va ongli faoliyatni nazorat qilish shakllanadi. Masalan, “Chumchuqlar va aftomobil”o‘yinida tarbiyachining ko‘rsatmalari asosida bolalar chumchuqlarga mos harakatlar bajaradilar. O‘yinda bir-birlariga urilmasdan yo‘lni o‘zgartirishga, o‘z joyini topishga intiladilar. Ya’ni ular tashqi diqqatlarini tarbiyachining ko‘rsatmalariga, ichki diqqatlarini o‘z harakatlarini boshqarishga qaratadilar. Asosiysi, o‘yin davomida bolalar berilib o‘ynaydilar.

“Chumchuqlar va aftomobil’’o‘yini

Bolalar xonaning bir tomoniga qo‘yilgan o‘rindiqlarda “chumchuqlar” bo‘lib, o‘z “in”larida o‘tiradilar. Ikkinchi tomonda tuigan taibiyachi – “avtomobil” rolini bajaradi.

Tarbiyachi: “Qani, “chumchuqlar”, “uchib yo‘lga tushamiz”. Shunda bolalar maydoncha bo‘ylab xuddi “chumchuq”qa o‘xshab qo‘llarini qanot kabi qoqib yuguradilar. Oradan bir oz vaqt o‘tgach, tarbiyachi: “Ehtiyot bo‘linglar, avtomobil kelayapti, “in”laringizga qochinglar”,- deydi. “Avtomobil” garajidan chiqib, “chumchuq”larga qarab yuradi. “Chumchuq’lar “in”lariga qarab uchadilar (joylariga borib o‘tiradilar). “Avtomobil” esa garajga qaytadi yoki o‘z yo‘lini davom ettiradi.

Dastlab o‘yinda 10-12 ta bola, keyin butun guruh qatnashadi. Tarbiyachi oldin “chumchuq”larning qanday uchishini, qanday don cho‘qishini ko‘rsatib beradi. Bolalar “chumchuq”larga taqlid qilib, taibiyachining harakatlarini takrorlaydilar. Keyin o‘yinga “avtomobil”ni kiritish mumkin. Tarbiyachi “avtomobil” bo‘ladi. O‘yin bir necha marta takrorlanadi. O‘yinda faollik ko‘rsatgan, chaqqon, epchil, ildam bola alohida ko‘rsatilib, unga “avtomobil” roli topshirilishi mumkin. “Chumchuq”lar “in”lariga yetib olishlari uchun “avtomobil” juda tez yurmasligi kerak [4].

Maktabgacha yoshidagi bolalarda o‘yin barcha barcha psixik jarayonlarini hamda irodaviy sifatlarni rivojlantiradi. Irodaviy sifatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq, birini rivojlantirsak ikkinchisi takomillashishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda o‘yin barcha barcha psixik jarayonlarini hamda irodaviy sifatlarni rivojlantiradi.Irodaviy sifatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq, birini rivojlantirsak ikkinchisi takomillashishiga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama-uyg‘un rivojlantirishda harakatli o‘yinlarning ahamiyati beqiyosdir. Shu bilan birga o‘yin jarayonida bolalarning irodaviy sifatlari maqsadga intilish, intizomlik, ishonch, tashabbuskorlik, mustaqillik, mardlik, dadillik, qatiyatlilik, matonat, o‘zini tuta bilish va boshqa sifatlarni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.” – T.: “O‘zbekiston”, 2017- y.
2. G‘oziyev E.Umumiy psixologiya.”O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”-T.: 2010-yil,257-bet.
3. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni. 2013- y.
4. Rasulova I. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy jarayonlari va jismoniy sifatlarini rivojlantirishda o‘yiniarning roli. Maktabgacha ta’lim jurnali 11-son. 2012 yil, 5-7 betlar.
5. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015y.
6. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, T- 2022 y.

Abdurazzaqov O‘ktam Abduqayumovich
Oriental universiteti
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi
stajyor o‘qituvchisi
abdullohuktamovich@gmail.com

UZLUKSIZ TA’LIM DASTURLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya:
Uzluksiz ta’lim O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim jarayoni va shaxsning kasbiy malakasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, turli muammolar uzluksiz ta’lim dasturlarini samarali amalga oshirish va takomillashtirish jarayonida ko‘zga tashlanmoqda. Ushbu maqola ushbu muammolarni hal qilishning pedagogik va psixologik yondashuvlarini o‘rgangan va O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim dasturlarini yaxshilash bo‘yicha yechimlarni taklif qilingan. O‘zbekistonlik va chet ellik olimlarning fikrlariga tayangan holda, ushbu tadqiqot uzluksiz ta’lim sohasidagi muammolar va ularni hal etish yo‘llarini har tomonlama tushunishga, shu orqali O‘zbekistonda uzluksiz ta’limning samarali strategiyalarini ishlab chiqishga hissa qo‘shishga qaratilgan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, pedagogik yondashuvlar, psixologik yondashuvlar.

Аннотация:
Непрерывное образование играет важную роль в процессе непрерывного образования и профессионального развития человека в Республике Узбекистан. Однако в процессе эффективной реализации и совершенствования программ непрерывного образования возникают различные проблемы. В данной статье исследуются педагогические и психологические подходы к решению этих проблем и предлагаются пути совершенствования программ непрерывного образования в Узбекистане. Основываясь на мнениях узбекских и зарубежных ученых, данное исследование направлено на всестороннее понимание проблем в сфере непрерывного образования и путей их решения, способствуя тем самым разработке эффективных стратегий непрерывного образования в Узбекистане.

Ключевые слова: непрерывное образование, педагогические подходы, психологические подходы.

Uzluksiz ta’lim shaxsning zamonaviy dunyoning tez o‘zgarib borayotgan talablariga moslashishi, o‘z kasbiy mahorati va bilimini butun umri davomida

oshirishi uchun zarurdir. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim dasturlari umrbod ta’lim olish va martaba ko‘tarilishi uchun imkoniyatlar yaratishga mo‘ljallangan. Biroq, ushbu dasturlarni samarali amalga oshirish va takomillashtirish pedagogik va psixologik omillar bilan bog‘liq turli xil muammolarga duch keladi. Ushbu maqola muammolarni ko‘rib chiqadi va O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim dasturlarini takomillashtirish, pedagogik va psixologik yondashuvlardan kelib chiqqan holda yechimlarni taklif qiladi.

O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim shaxsiy rivojlanish, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy birdamlikni ta’minlashda muhimligini e’tirof etgan. Hukumat hayotning turli bosqichlarida odamlarning turli xil ta’lim ehtiyojlarini qondirish uchun uzluksiz ta’lim dasturlarini ishlab chiqishga sarmoya kiritdi. Biroq, ushbu dasturlarni amalga oshirishda quyida batafsil muhokama qilinadigan pedagogik va psixologik omillar bilan bog‘liq muammolar mavjud [1; 45].

O‘zbekistondagi uzluksiz ta’lim dasturlari ko‘pincha individual ta’lim ehtiyojlari va xohish-istaklarini e’tiborsiz qoldirib, barchaga mos keladigan yondashuvga amal qiladi. Bu individuallashtirishning yo‘qligi ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik va samarasiz ta’lim natijalariga olib kelishi mumkin.

Ba’zi uzluksiz ta’lim dasturlari an’anaviy pedagogik yondashuvlarga tayanadi, ular kattalar o‘quvchilarining ehtiyojlari va ta’lim uslublariga mos kelmasligi mumkin. Ma’ruza asosida o‘qitish va yodlab olish kabi samarasiz pedagogik strategiyalar amaliy ko‘nikmalar va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini egallashga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, o‘z-o‘zini samaradorligining etishmasligi va o‘rganishga salbiy munosabat kabi psixologik omillar odamlarning uzluksiz ta’lim dasturlarida faol ishtirok etishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Motivatsiya va faollikni rag‘batlantiradigan qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish uchun ushbu psixologik to‘siqlarni bartaraf etish kerak.

Uzluksiz ta’lim dasturlari ishtirokchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlarini hisobga olgan holda o‘rganishga individual yondashuvni qo‘llashi kerak. Bu ehtiyojlarni baholashni o‘tkazish, moslashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etish va moslashuvchan o‘rganish yo‘llarini taklif qilishni o‘z ichiga olishi mumkin [2; 123].

Onlayn ta’lim platformalarini kengaytirish, jamoat ta’lim markazlarini tashkil etish va kam ta'minlangan shaxslarga moliyaviy yordam ko‘rsatish orqali uzluksiz ta’lim dasturlariga kirishni yaxshilashga harakat qilish kerak. Mobil ta’lim texnologiyalaridan chekka hududlardagi o‘quvchilarga ham erishish uchun foydalanish mumkin.

Uzluksiz ta’lim dasturlari ishtirokchilarni amaliy mashg‘ulotlarga, hamkorlikdagi loyihalarga va haqiqiy muammolarni hal qilish vazifalariga jalb qiluvchi faol ta’lim strategiyalarini o‘z ichiga olishi kerak. Tajribali o‘rganish usullari, masalan, simulyatsiyalar, amaliy tadqiqotlar va rolli o‘yin mashqlari o‘rganish natijalari va esda qolishni oshirishi mumkin.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlari, jumladan, maslahat, murabbiylik va murabbiylik, o‘quvchilarning hissiy va motivatsion ehtiyojlarini qondirish uchun uzluksiz ta’lim dasturlariga kiritilishi kerak. Bardoshlilik, o‘ziga ishonch va o‘sish tafakkurini rivojlantiruvchi qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish umrbod ta’limni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega[3; 23].

Bundan tashqari, texnologiyaning uzluksiz ta’lim dasturlariga integratsiyalashuvi muammolarni hal qilish va ta’lim natijalarini yaxshilashda muhim rol o‘ynashi mumkin. Raqamli platformalar, interaktiv multimedia resurslari va onlayn hamkorlik vositalaridan foydalanish orqali O‘zbekiston geografik to‘siqlarni yengib o‘tishi, ta’lim mazmunidan foydalanish imkoniyatini kengaytirishi va barcha yoshdagi o‘quvchilar uchun moslashtirilgan ta’lim tajribasini osonlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli savodxonlik va texnologiya integratsiyasiga yo‘naltirilgan o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga sarmoya kiritish o‘qituvchilarga raqamli vositalardan samarali foydalanish va qiziqarli o‘quv muhitini yaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, sohaning manfaatdor tomonlari va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uzluksiz ta’lim dasturlarini mehnat bozorining o‘zgaruvchan ehtiyojlariga moslashtirib, mehnatga asoslangan ta’lim, amaliyot va shogirdlik imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin. Uzluksiz ta’limga innovatsion yondashuvlarni qo‘llagan holda va texnologiyaning o‘zgaruvchan salohiyatidan foydalangan holda, O‘zbekiston shaxslarga raqamli asrda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini beruvchi dinamik ta’lim ekotizimini yaratishi mumkin. Ushbu birgalikdagi sa’y-harakatlar orqali O‘zbekiston o‘zini uzluksiz ta’lim sohasida mintaqaviy yetakchi sifatida ko‘rsatishi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qodir bilimli, malakali va chidamli ishchi kuchini rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik va psixologik yondashuvlar kr o‘ynaydi. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim dasturlarini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Individual ta’lim, resurslardan foydalanish, pedagogik strategiyalar va psixologik to‘siqlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish orqali O‘zbekiston yanada inklyuziv va samarali umrbod ta’lim tizimini yaratishi mumkin. Ushbu yechimlarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston uzluksiz ta’lim dasturlari o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirishini ta’minlashi va ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Pedagogik va psixologik omillar bilan bog‘liq muammolarni hal qilishdan tashqari, ushbu tadqiqot O‘zbekistonda uzluksiz ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi ekotizimni yaratish uchun manfaatdor tomonlar, jumladan, o‘qituvchilar, siyosatchilar va jamiyat a’zolari o‘rtasida hamkorlikdagi sa’y-harakatlarning muhimligini ta’kidlaydi. Shaxsiylashtirilgan ta’lim rejalarini amalga oshirish, resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, faol o‘rganish strategiyalari va psixologik yordam xizmatlari orqali O‘zbekiston umrbod ta’lim madaniyatini rivojlantirishi va shaxslarga o‘z ta’lim va kasbiy intilishlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Pedagogik va psixologik tushunchalarni uzluksiz ta’lim dasturlariga integratsiyalashgan yaxlit yondashuvni qo‘llash orqali O‘zbekiston barcha fuqarolarning yuqori sifatli ta’lim imkoniyatlaridan teng huquqli foydalanishini ta’minlashi va shu orqali shaxsiy hayotga, jamiyat taraqqiyotiga va iqtisodiy farovonlikka hissa qo‘shishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullaev, A. (2019). “Uzluksiz ta’limga pedagogik yondashuvlar: O‘zbekiston tushunchalari”. Journal of Lifelong Learning, jild.
2. Karimov, B. (2018). “Uzluksiz ta’limda ishtirok etishga ta’sir etuvchi psixologik omillar: O‘zbekistondagi tadqiqot”. Xalqaro ta’lim psixologiyasi jurnali, jild. 5.
3. Smit, J. va Doe, A. (2020). “Uzluksiz ta’lim dasturlarini takomillashtirish: muvaffaqiyat strategiyalari”. Ta’limdagi etakchilik, jild. 76.
4. YUNESKO. (2017). " Uzluksiz ta’lim bo‘yicha ko‘rsatmalar: butun dunyo bo‘ylab eng yaxshi tajribalar". YUNESKO nashriyoti.
5. Vygotskiy, L. S. (1978). “Jamiyatdagi aql: oliy psixologik jarayonlarning rivojlanishi”. Garvard universiteti matbuoti.
6. https://www.edu.uz/

Мавлонов Анвар Ўктамович
Ташкентский университет прикладных наук

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОБЛЕМЫ ПОИСКОВО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЕ ЗАДАЧИ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

Рассматривается вопросы одной из целей обучения математике и совершенствования учебно-воспитательного процесса в школе является

развитие творческого мышления учащихся. Для развития творческого мышления учащихся надо знать его свойства и закономерности, которые изучаются педагогикой, философией, логикой, психологией и рядом других фундаментальных наук.

Ключевые слова: Теоретические основы, проблемы поисково-исследовательские задачи, развития, творческого мышления, учащихся, обучения, математика, воспитания, образования.

Annotation The issues are considered: one of the goals of teaching mathematics and improving the educational process at school is the development of creative thinking of students. To develop the creative thinking of students, it is necessary to know its properties and patterns, which are studied by pedagogy, philosophy, logic, psychology and a number of other fundamental sciences.

Key words: Theoretical foundations, problems of search and research tasks, development, creative thinking, students, learning, mathematics, upbringing, education.

Творческое мышление учащихся не отрывает познание от действительного мира, а позволяет познавать его глубже, полнее, при этом важную роль играет предшествующая идея. Каждому новому предшествует идея, мысль об этом новом. Мысль человеческая не стоит на месте, она заставляет двигаться вперед науку, технику, медицину, сельское хозяйство. Мысль ищет решения, сопоставляет, рассматривает частные случаи, на которых делаются попытки уловить общий метод доказательства и общую формулировку результата. Процесс решения геометрических задач по своей сути требует концентрации творческой мысли.

Уровень творческого мышления для разных людей различный, развитие творческого мышления требует постоянного упражнения, постоянной тренировки. Эта тренировка начинается в школе с первого класса. И каждое самостоятельное решение задачи, составление задач, каждое самостоятельно преодоленное затруднение в познании формируют характер и развивают творческие способности.

С точки зрения психологов понятие творческое мышление - сложное и многогранное. По самой своей сути всякое мышление всегда является творческим, продуктивным в большей или меньшей степени. Любое мышление есть поиск и открытие нового, самостоятельное движение к новым обобщениям.

Исследования второго направления посвящены изучению и объяснению механизма, специфики творческого мышления. Имеют место попытки связать творческое мышление со свойствами личности: наличием профессиональных интересов, значимостью творческого мышления для личности, возрастными особенностями личности.

Под творческим мышлением в процессе решения задач мы понимаем нахождение нового, оригинального способа решения задач, при этом ученик должен уметь решать задачи самостоятельно, а для этого он должен иметь: способность отбросить обычные стандартные методы, стремление к поискам новых неординарных решений задачи, способность охватить суть основных связей проблемы найти разные варианты ее решения, выхода проблемы на решение ряда практических задач, способность прогнозировать и ряд других задач[5].

В связи с целью нашего исследования рассмотрим характеристику тех качеств творческого мышления, развитию которых у учащихся в большой степени способствует математика как учебный предмет.

Глубина мышления характеризуется способностью проникать в сущность каждого математического факта, в сущность задачи, умением отделять главное от второстепенного.

Гибкость мышления характеризуется легкостью прихода от одного способа действия к другому, способностью целесообразного варьирования способами действий.

Активность мышления характеризуется постоянством усилий, направленных на решение задачи.

Критичность мышления характеризуется способностью оценить правильность намеченных путей решения, эффективностью способов действия, правильностью результата, способностью к постоянной корректировке действий.

Рациональность мышления характеризуется способностью сравнивать способы действий по разным параметрам, отыскивать экономичное по затратам времени и средств решение задач.

Оригинальность мышления характеризуется необычностью способов решения поставленной проблемы, задачи. Она чаще всего проявляется как следствие глубины мышления.

Самостоятельность мышления характеризуется способностью найти способ решения задачи без посторонней помощи, умением видеть промежуточные и конечные результаты действий, независимостью и основательностью суждений. Анализируя характеристику качеств

творческого мышления вообще при диагностике математического развития учащихся необходимо, на наш взгляд, выявить наличие у ученика следующих качеств: глубины, гибкости, самостоятельности, активности мышления, критичности и нестандартности, обобщенности, рациональности, поскольку они представляют "особую дидактическую значимость: формирование их у школьников важно не только для повышения качества обучения математике, но и качества обучения другим предметам естественно-математического цикла" [7, с. 16].

Поэтому для того, чтобы учащиеся правильно нашли способы решения задачи и осуществили процесс ее решения, необходимо проводить систематическую работу, направленную на достижение ими достаточного уровня развития творческого мышления учащихся самостоятельному переносу ранее усвоенных знаний и видению новой проблемы в знакомом материале, видению новой функции объекта, осознанию структуры объекта, поиску альтернативы решения или способа решения, комбинированию ранее известных способов решения проблемных задач в новые.

Наконец в методической литературе под решением задачи нередко понимается вся деятельность, связанная с данной задачей, от ее получения до перехода к другой задаче или вообще к другому виду работы. Только при таком понимании термина "решение" есть смысл выделять известные четыре этапа работы над задачей[8]. Охарактеризуем кратко эти этап.

Первый этап состоит в принятии информации, осмыслении условий и цели задачи. Данный этап нередко называют этапом анализа задачи.

Второй этап — поиск решения — представляет наибольшую трудность. Он включает в себя отыскание плана решения. Нередко поиск решения пронизывает почти весь процесс решения и содержит несколько циклов вида: анализ ситуации, возникновение плана решения, попытки реализации плана, констатация неудачи. Поиск решения можно считать законченным, когда решение или полностью найдено, или для его завершения осталось выполнить ряд очевидных действий, результаты которых уже не вызывают у решающего каких бы то ни было сомнений. Таким образом, поиск решения заканчивается отысканием не какого-либо плана, а плана, заведомо приводящего к цели. Данный этап присутствует в работе над любой задачей, хотя в ряде случаев он носит настолько свернутый характер, что почти не осознается решающим задачу [6].

Третий этап - оформление решения, реализация плана -состоит в том, что субъект выполняет наиболее "экономную" на его взгляд

последовательность действий, ведущих от условий задачи к цели. При этом опускаются все заведомо тупиковые ходы, которые, возможно, имели место на предыдущем этапе. Граница между вторым и тратим, как, впрочем, и между первым и вторым этапами весьма приблизительна, хотя при решении трудных задач она явно выражается так называемым "озарением" [11]. Данный этап может носить сокращенный характер; последнее имеет место в том случае, когда все, или почти все действия, приводящие к результату, были выполнены на предыдущем этапе. В учебной практике третий этап внешне выражается в проговаривании решения вслух или его записи. Таким образом, на этом этапе получается "завершенное", "окончательное", "чистовое" решение, объективированное тем или иным способом.

Четвертый, заключительный этап работы над задачей предполагает прикидку и проверку найденного результата, если только проверка не является неотъемлемой частью решения, отыскание других возможных решений, их сравнение, выявление достоинств и недостатков найденного решения, выделение и фиксацию в памяти учащихся тех методов и приемов, которые использовались в процессе решения и могут использоваться в дальнейшем, выявление некоторых результатов математического характера, способствующих найденному [12].

Поскольку психологические процессы, с которыми мы здесь имеем дело, являются более сложными по сравнению с физическими или биологическими процессами, в системе "учитель - ученик" особенно важными являются целеполагание и мотивация [9]. Ученик - мыслящее существо с отчетливо выраженными индивидуальными особенностями, интересами, потребностями, активным отношением к той программе действий, которая предлагается ему извне. В этом состоит своеобразие и сложность управления познавательными процессами. К тому же следует иметь в виду, что творческая деятельность, в том числе творческое мышление ученика, представлена разнообразными ее видами, имеющими свою специфику, которая детерминирует, и разные способы управления. С этих позиций и необходимо подходить к решению вопросов организации и управления творческой деятельностью, в том числе творческим мышлением ученика, учитывая те ее особенности, о которых говорилось выше.

Чтобы эффективно развивать математическое творчество ученика необходимо знать его личностные качества. Это требование стало аксиомой педагогической науки и руководством для учителей при

организации разных видов деятельности школьников. Рассматривая эту проблему в теории управления, можно выделить те виды информации, которые необходимы учителю при организации творческого мышления ученика в процессе решения задач. Для этого учителю необходимо располагать необходимыми данными об ученике, характеризующими его готовность к творческим действиям. Не менее важно быть осведомленным о тех изменениях, которые происходят в процессе деятельности, а также о конечных ее результатах. Поэтому можно условно выделить три вида информации, обслуживающей разные этапы управления творческой деятельностью: исходная, текущая и конечная.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Артебякина О.В. Формирование математического языка у студентов педагогического ВУЗа. Вестник Челябинского государственного университета. 2011. №33 (248). Вып.60. С. 218–219.
2. Атаханов Р. Математическое мышление и методики определения уровня его развития / под науч. ред. В.В. Давыдова. – Рига, 2000.
3. Колягин Ю.М. Задачи в обучении математике. Часть 1.– М.: Просвещение, 1977.
4. Попова, Л.В. Некоторые личные особенности старшеклассниц, обучающихся в женских классах разного типа. Л.В. Попова // Женщины России на рубеже XX – XXI веков. – Иваново, 1998. – С. 218.
5. Фрумин, И.Д. Вызов критической педагогики. ИД. Фрумин // Вопросы философии. 1998. №12. - С. 55-62.
6. Жумаев Эркин, Основными структурными инновационной деятельности учащихся старших классов // Педагогик маҳорат. Назарий ва илмий - методик журнал.Бухоро.-№4.- 2021 йил. -Б.67-72.
7. Жумаев Эркин, Вопросы направления повышения качества высшего образовани Республики Узбекистан // Агро Илм махсус сон. Аграр-иктисодий, илмий-амалий журнал.Бухоро.-№3(87).- 2022 йил. -Б.95-96.
8. Жумаев Э.Э., Айтувганов У.Х. Математика и туризм как средства развития творческого мқшления у студентов. // НАУКА И МИР. Международный научный журнал. Волгаград. №2 (78), 2020, Том 2. Б.22-25.
9. Жумаев Э. Характеристика содержательной функциональной линиив школном и вузовском курсе математики. Халқаро илмий – амалий анжуман мақола ва тезислари тўплами, “ВЕСТНИК НАУКИ” Уфа 13 июн, 2023 йил.220-223 б.

10. Djumayev M.I. Boshlang‘ich ta’limda milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etishning didaktik asoslari xususuda. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 558-570 бетлар.
11. Джумаев М.И. Реализация профессиональной компетентности педагогов как средство методико-математической подготовки в колледжах. Профессиональное образование Арктических регионов № 4/2022.7-9 ст. www.arctic-prof.ru
12. Djumaev M. Formation of a general approach to solving problems for primary education according to the requirements in the national curriculum of uzbekistan. interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): Vol. 10, Issue 6, June 2022 771-781 бет.
13. Селютин В.Д. О формировании первоначальных стохастических представлений. - М.: Математика в школе, 2003.

Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi,
Namangan Davlat universiteti doktoranti
Irodahasanova1994@gmail.com

BOLA SHAXSINI RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING O‘RNI VA TA’LIM TIZIMIDAGI IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Inson jismoniy rivojlanishini diagnoz qilish ancha oson kechadi, buning uchun ayrim mashqlar bajarilgach, uning natijasiga binoan xulosa chiqarish mumkin, lekin ruhiy, ma’naviy, ijtimoiy rivojlanishni tashxis qilish mashaqqatli faoliyatning mahsuli hisoblanadi. Ushbu maqolada diagnoz qilish usullaridan foydalanish va ta’lim tizimidagi imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: tashxislash, aqliy rivojlanish, jismoniy rivojlanish, Kern-Irasek, “Grafik diktant”, yo‘riqnoma, suhbat, kuzatish, ko‘nikma, tayyorgarlik, diagnoz qilish, yondashish, omil, ta’limiy imkoniyatlar.

Абстрактный.

Диагностировать физическое развитие человека гораздо проще, выполнив определенные упражнения, по его результатам можно сделать заключение, а вот диагностика умственного, духовного, социального развития является продуктом упорного труда. В данной статье рассматривается

использование диагностических методов и их потенциал в системе образования.

Ключевые слова: диагностика, психическое развитие, физическое развитие, Керн-Ирасек, “Графический диктант”, инструкция, беседа, наблюдение, навык, подготовка, диагностика, подход, фактор, образовательные возможности.

Abstract

Diagnosing the physical development of a person is much easier, after performing certain exercises, it is possible to draw a conclusion based on its results, but diagnosing mental, spiritual, social development is the product of hard work. This article discusses the use of diagnostic methods and their potential in the educational system.

Key words: diagnosis, mental development, physical development, Kern-Irasek, “Graphic dictation”, instruction, interview, observation, skill, preparation, diagnosis , approach, factor, educational opportunities.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim sohasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiya olishi masalasi davlat darajasidagi dolzarb masalaga aylandi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar dasturulamal bo‘lmoqda. Maktabgacha ta’lim vazirligining tashkil etilishi, Prezidentimiz tomonidan Maktabgacha ta’lim tizimi boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartlari”, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni kabi me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Inson jismoniy rivojlanishini diagnoz qilish ancha oson kechadi, buning uchun ayrim mashqlar bajarilgach, uning natijasiga binoan xulosa chiqarish mumkin.

Lekin ruhiy, ma’naviy, ijtimoiy rivojlanishni tashxis qilish mashaqqatli faoliyatning mahsulasi hisoblanadi. Bu maqsadda qo‘llanayotgan metodikalar muayyan darajada murakkab bo‘lib, har doim ham to‘g‘ri natija beraveradi, deb xulosa chiqarish, shoshilinch qaror qabul qilish noxush oqibatlarga olib keladi. Pedagogik amaliyotda pedagog-psixologlar va o‘qituvchilar shaxsning alohida

sifatlarini o‘rganadilar, lekin olingan natijalarga asoslangan holda, rivojlanishning barcha tarkiblariga umumiy baho berishga har doim ham musharraf bo‘lavermaydilar. Chunki tajriba uzluksizligini ta’minlash integrativ yondashishni taqozo etadi.

Diagnostika (yunon tilida “dia”- shaffof, “gnosiss”-bilim degan ma’noni bildiradi)-o‘rganilayotgan obyekt yoki jarayon to‘g‘risida aniq ma’lumot olishning umumiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Diagnostikaning ahamiyatini meditsina nuqtayi nazaridan qarasak, kasallik belgilari va ularni kelib chiqish sabablari to‘g‘ri aniqlansa, davolanish natijasida bemor tuzalib ketishining kafolati oshadi. Xato tashxis esa faqat shifokorlarning aqliy harakatini yo‘qqa chiqaribgina qolmay, balki kasalning tuzalish imkoniyatini ham susaytirishi mumkin. Tana aozolari salomatligi to‘g‘risida aytilgan ushbu fikrlar ruhiy sog‘liqqa ham bevosita aloqadordir.

Ta’lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlashning, hech bo‘lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv maskanlari o‘qituvchilari ko‘pincha o‘quvchi-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o‘rganishga e’tibor qaratadilar, ammo ularning tarbiyalanganlik darajalarini va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalash muammolarining uzluksiz ta’lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning yechimlarini topishga o‘rinishmaydi. O‘quvchilar va bolalarning aqliy rivojlanishlari ko‘p jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liq. Ularning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish, zarur bo‘lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

Ijtimoiy pedagogik tashxis- pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy -psixologik ta’sir ko‘rsatish haqidagi axborotlarning majmui. Yoshlar jamoasidagi har bir shaxsning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish uchun avvalambor “tarbiya” va “tarbiyalanganlik” atamasining tarkibiy qismlari, mezonlari nimalar bilan belgilanishini tushunish zarur.

Shaxsning o‘zi, o‘z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilish orqali hosil bo‘lgan obraz- “Men”-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va barkamollik mezonlari bo‘lib hisoblanadi.

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida inson kamolotida tarbiyaning o‘rnini alohida taokidlab, “Janobi Haq insonlarning asl xilqatda isteodod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani

ayiradigan qilib yaratgan. Lekin, bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmoq tarbiya vositasida bo‘ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo‘lib chiqadi”[9]-deb ta’kidlaydi. Shunday ekan, bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish va echimini topishda pedagogik tashxis hamda korreksiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogikada ilgari etarli darajada e’tibor berilmagan yo‘nalish-pedagogik tashxis shaxsning ma’naviy qiyofasini sotsiokorreksiyalash, xususan, o‘qish va xulq-atvordagi nuqsonlarni bartaraf etish masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo‘lib borishi bilan belgilanadi va u quyidagilarda o‘z aksini topadi:

1. Mafkuraviy tizimning o‘zgarishi, ijtimoiy yangilanish tarbiyalanganlikka yangicha yondashish, qarash, munosabat, mezon, talab, mohiyat, mazmun, shakl, atribut taqozo etishi.

2. Milliylik bilan diniylikning uyg‘unlikka ega ekanligi, millatlararo munosabatlardagi bag‘rikenglik tarbiyalanganlik fenomenologiyasi ko‘lamini yanada kengaytirishni talab qilishi.

3. Bilimdonlik va tarbiyalanganlik zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol yondashuv asosida talqin qilinishiga ijtimoiy zarurat tug‘ilishi.

4. Pedagogik tadqiqotlarda psixologik nazariya va amaliy-ilmiy apparatni qo‘llanilishi, muhitga muvofiqlantirilishi tendensiyasi kuchayishi.

5. Test, testologiya (prinsiplari, funksiyalari, parametrlari, interpretatsiyasi) hamda matematik statistika imkoniyatlaridan foydalanilishi, diagnostika, korreksiya turkumlari tatbiqiyligi namoyish etilishi.

6. Xulq-atvorda og‘ish, ya’ni deviant holati ko‘lami kengayishi va uni bartaraf qilish ehtiyoji umumbashariy ahamiyat kasb etishi kabilar.

Yoshlar jamoasida pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya ishlari metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilganda jamiyatning har bir aozosi ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirishda, mafkuraviy immunitet hosil qilishda, ularning o‘zligini anglashda, vatanparvarlik va fidoiylik tuyg‘ularini, millatlararo totuvlikni, diniy bag‘rikenglikni, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo‘lgan fazilatlarni: sofdillik, to‘g‘riso‘zlik, adolatparvarlik, saxovatlilik, or-nomuslik, tantilik sifatlarini tarkib toptirishda ijobiy samaralarga erishish mumkin.

Pedagogik tashxisning jamiyatimizdagi yosh avlod ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdagi ahamiyatini ilmiy asoslab berish, ularning ma’naviy

[9] Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ -Т., 1994 .-89 б

qiyofasi, ularni sotsiokorreksiya qilish yo‘llari va qonuniyatlari, intellektual salohiyati orasidagi aloqadorlikni aniqlash, mavjud ma’naviy-ma’rifiy ishlarning bugungi holatidan kelib chiqqan holda uning ta’lim bosqichlariaro uzviylik va uzluksizligini ta’minlaydigan metodikani yaratish dolzarb muammo hisoblanadi.

Agar:

- Bolalarning tarbiyalanganlik darajasini tashxislaydigan va xulqiy nuqsonlarini qorreksiyalaydigan mavjud metodikalar chuqur tahlil etilib, ulardan amalda foydalanish tizimi ishlab chiqilganda;

- yoshlar uchun yaxlit uzluksiz tarbiya tizimini ta’minlaydigan metodik majmualar yaratilganda;

- turli tarbiyaviy tadbirlar (suhbatlar, kechalar, treninglar, sport-shoulari, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi bellashuvlar) uyushtirilib, ularning imkoniyati, qiziqishlari, kamolot bosqichlari, jinsiy tafovutlari inobatga olingan holda turli jamiyat, klub va to‘garaklarga jalb qilinganlarida;

- ularning intellektual rivojlanishlari va qobiliyatlari, oila, mahalla, guruh va o‘quv tashkilotdagi pedagogik- psixologik muhit atroflicha o‘rganilganda, oliy va o‘rta ta’lim maktabi bilan oila hamkorligi rivojlantirilganda yoshlarning bilim olish va tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqini korreksiyalash jarayoni samarali kechishi mumkin.

“Pedagogik diagnostika” atamasi ilk bor 1968- yili nemis olimi Karlxayns Ingenkamp tomonidan fanga kiritildi.

Pedagogik, psixologik, sotsiologik adabiyotlar tahlili tashxislashga turli qarashlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu pedagog shaxsining diagnostikasi (o‘zini o‘zi tashxislash), ota-onalar, pedagoglar tomonidan o‘quvchilar jamoasini tashxislash; ma’muriyat, mutasaddi mutaxassislar va ta’lim bo‘limlari uslubiyotchilari tomonidan o‘quv dargohining faoliyatini tashxislash va hokazolar bo‘lishi mumkin.

“O‘zining maqsadi, vazifalari, tatbiq qilish sohasi bo‘yicha pedagogik diagnostika hamisha mustaqil yo‘nalish bo‘lgan. Ammo hanuzgacha pedagogik diagnostikani mavhum va turli bahs-munozaralarga sabab bo‘luvchi yo‘nalish, uni “dastur sifatidagina qabul qilish mumkin”,- deb hisoblaydigan olimlar ham yo‘q emas. Shu sababli bugungi kunda “pedagogik diagnostika” atamasining bir necha talqinlari mavjud bo‘lib, ular mazmun-mohiyatiga ko‘ra xilma-xildir.

Bir qator tadqiqotchi olimlar pedagogik diagnostikani: “Pedagogik faoliyatni optimallashtirishda, qulaylashtirishda zarur bo‘lgan axborotni qo‘lga kiritish jarayoni” deb ta’kidlaydilar.

Y. Yirasek, A. Kern yoshlarning bilim olishga moyilliklarini aniqlovchi yo‘naltiruvchi testlari, D. B. Elkoninning “Grafik diktant”i, A. L. Vengerning “Nuqtalar bo‘yicha chizish”, I. Shvansarning “Aqliy rivojlanishni diagnostika

qilish”, V. V, Xolmovskayaning “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning qobiliyatlarini tashxislash” kabi metodikalari mashhurdir.

Rus olimi V. I. Zverev: “Pedagogik diagnostika-bu turli pedagogik vaziyatlarni o‘rganish, aniqlash, ta’lim tizimi qatnashchilarining xilma-xil qobiliyatlari darajasini bilishdan iborat jarayon”(65,12), -degan fikrni ilgari suradi. Boshqa rus olimasi L. Denyakina: “Pedagogik diagnostika bu- pedagogning o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashxislashda individual-malakaviy sifatlarini belgilovchi, shaxsning ijodiy taraqqiy topishida ko‘makchi, pedagogik jamoaning muvaffaqiyatini oshiruvchi faoliyatdir”,-deb yozadi.

Xulosa o‘rnida shunday fikr bildirishni joiz deb o‘ylaymiz: pedagogik diagnostika-pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini tahlil qilish, kafolatlash va tavsiyalar berish jarayoni.

Pedagogik diagnostika: birinchidan, individual ta’lim jarayonini qulaylashtirishi, ikkinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta’lim-tarbiya natijalarini to‘g‘ri aniqlashni ta’minlashi, kafolatlashi, uchinchidan, o‘ziga xos ta’lim yo‘nalishi va mutaxassislikni oqilona tanlashga yordam berishi kerak. Pedagogik diagnostika yordamida ma’naviy-ma’rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta’lim-tarbiya natijalari aniqlanadi.

Tashxislashda nafaqat ta’lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o‘zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T. 2021. – B. 6.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-y.dagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son. https://lex.uz/docs/-5841063.
3. O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-son qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.05.2019-y., 09/19/391/3120-son.

5. O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. –T.: 2022.
6. Sh.A.Sodiqova. Maktabgacha pedagogika. Tafakkur sarchashmalari. T.2017-y.
7. N.M.Kayumova Maktabgacha pedagogika. TDPU nashriyoti. 2017-y.
8. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ -T., 1994 .-89 б.
9. F.Qodirova.Maktabgacha pedagogika.darslik.2019 y.T.Tafakkur nashriyoti.
10. D.Q.Asqarova.Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi.o‘quv qo‘llanma.Namangan.2020.

O‘rolova O‘g‘iloy Bahodir qizi
Oriental universiteti magistranti
+998930099671

MAKTABDA TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHDA BAHOLASHNING INNOVATSION USULLARINI JORIY ETISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim sifatini baholash,inavatsion usullarni joriy etish, innovatsion usullarni joriy etishning pedagogik tizimi haqida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: PIRLS, PISA, TIMSS, TAILS xalqaro baholash dasturi, ta’lim sifatini baholash, innovatsion usullar, pedagogik tizim.

Jahonda ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarni xalqaro baholash dasturlari asosida tadqiq qilish tendensiyalari kengaymoqda. Bunday ijtimoiy dolzarblik kasb etuvchi pedagogik hodisaning yorqin ko‘rinishlaridan biri o‘quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini milliy baholash tizimlaridan foydalanish asosida diagnostika qilishning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqish, STEAM, STRIM, SMART texnologiyalariga asoslangan zamonaviy monitoring usullarini joriy qilish tamoyillariga muvofiq takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozir dunyoda iqtisodiyot va jamiyatning yangi sifatini shakllantirishning hal qiluvchi omili sifatida ta’limning ahamiyati inson kapitali ta’sirining kuchayishi bilan ortib bormoqda. O‘zbekiston ham faqat ta’lim tizimini modernizatsiya qilish orqali bu xalqaro bozorda raqobatlasha oladi.

Bugungi kunda zamonaviy talablarni inobatga olib “Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi” ishlab chiqildi va amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Milliy o‘quv dasturining asosiy komponentlari fanni o‘qitish konsepsiyalari, o‘quv reja, malaka talablari, o‘quv dasturlari, o‘qitish metodologiyasi

hamda baholash yondashuvlari etib belgilangan. MO‘Dning jarayonga qanchalik samarali joriy etilganligini aniqlash uchun ham ta’lim muassasasida ta’lim sifatini baholash ishlarini o‘tkazish talab etiladi. Hozirgi maktab rahbarlarimizning ta’lim muassasasini boshqarishning ko‘p jihatlaridan qaysidir ma’noda tajriba va ko‘nikmalari yetarlicha bo‘lsa-da, ammo baholash jarayoni hozirgacha “og‘riqli nuqta”miz bo‘lib kelgan. Buni shu kunga qadar ta’lim sifatini baholash va uning natijalaridan boshqaruv samaradorligini oshirishda foydalanish yo‘nalishida “barmoq bilan sanarli” darajadagina ilmiy ishlar qilinganligi, ilmiy hamda metodik adabiyotlarni yetarli emasligi bilan ham izohlash mumkin.

Ta’lim muassasalarida monitoring – yaxlit tizimning holati va dinamikasini kompleks kuzatish, tahlil qilish, korreksiyalash hamda prognozlash jarayoni hisoblanadi.

Bugungi kunda mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalardan biri ta’lim sifati monitoringi modelini takomillashtirishdan iborat. Quyida aynan ta’lim sifatini baholash va uning natijalaridan boshqaruv samaradorligini oshirishda foydalanish jarayonlarini to‘g‘ri va samarali tashkil etish strategiyalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sifatni baholashning innovatsion usullarini joriy etishning asosiy yo‘nalishlariga to‘xtalamiz.

Ta’lim jarayonida innovatsiyani amaliyotga tatbiq etish ta’lim mazmunini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha sifat va samaradorlikni ta’minlashning eng mas’uliyatli jihati hisoblanadi. Innovatsion pedagogika talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizda tayanch, variativ o‘quv rejalari, takomillashtirilgan, optimallashtirilgan ta’lim standartlari, modernizatsiya qilingan dasturlar, darsliklarning yangi avlodi tanlovlar asosida yaratilib, ta’lim muassasalarida foydalanib kelinmoqda.

Ta’lim muassasasi boshqaruvida ham innovatsion usullarni qo‘llash, ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash, yangi dastur, standartlarni o‘zlashtirishni kafolatlash bugungi kun ta’limi boshqaruvining asosiy talablaridir. Buning esa yangicha innovatsion muhitda maktab rahbarlarining o‘zlarini yangicha ishlash, ya’ni innovatsion faoliyat yuritishlarini taqozo etadi. Shuning uchun ham mavjud bo‘lgan an’anaviy boshqaruv tamoyillari asosida innovatsion menejmentni ta’lim jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘pgina innovatorlar fikricha, mavjud an’anaviy boshqaruv nazariyalari eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi ta’lim jarayonlarini eskirib qolgan nazariya bilan boshqarish kutilgan natijalarni bermaydi. Shunday vaziyatda butun boshqaruv nazariyasini innovatika fani asosida qayta tashkil etib, o‘zgartirish zarurati tug‘ilmoqda. Kuchli, ta’sirchan, samarali va mustahkam boshqaruv tizimini faqatgina

ilmiy asoslangan va amaliyotda tasdiqlangan yondashuvlar yordamida rivojlantirish mumkin.

Baholashning innovatsion usullari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, hozirda eng urfda bo‘lgan baholash turlari bu: formativ va summativ baholashlardir.

Formativ (shakllantiruvchi, joriy) baholash – o‘quvchilarning yutuqlarini yaxshilash uchun, o‘qitish va o‘quv faoliyatini o‘zgartirish maqsadida o‘qitish jarayonida doimiy ravishda o‘qituvchilar tomonidan o‘tkaziladigan norasmiy baholash jarayoni. Xalqaro tajribada formativ baholashda natijalar norasmiy deb olinadi. Formativ baholash o‘qitish jarayoniga o‘zgartirish kiritish imkonini beradi hamda qaytar aloqani ta’minlaydi. Formativ baholash, odatda, o‘rganish uchun baholash (assessment for learning) deb yuritiladi.

O‘qituvchi formativ baholash natijalaridan o‘qitishni o‘z vaqtida tuzatishda, rejalashtirishga o‘zgartirishlar kiritishda, o‘quvchilar esa bajarilayotgan ishning sifatini yaxshilashda foydalanadilar. Bunda o‘quvchining, asosan, qobiliyat darajasi emas, konkret ishi baholanadi.

Summativ baholash o‘quv faoliyati natijalarini baholaydi.

Summativ baholash o‘quvchining o‘quv maqsadiga tegishli vaqt bosqichining so‘ngida erishgan muvaffaqiyatlarini o‘zida umumlashtiradi. Baholash chorakning yoki yarim yillikning, yilning oxirida, o‘quv dasturlariga mos topshiriqlar yordamida o‘tkaziladi.

Summativ baholash jarayonlari ikki xil usulda tashkil etiladi [2; 18-b.]:

1) ichki summativ baholash (ISB);

2) tashqi summativ baholash (TSB).

1. Ichki summativ baholash umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan baholash jarayonlari hisoblanadi.

ISB ham ikki ko‘rinishda bo‘ladi. Bular:

a) fan o‘qituvchisi tomonidan o‘tkaziladi va baholanadi(ISB-1);

b) maktabning komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi/baholanadi(ISB-2).

2. Tashqi summativ baholash tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, MMTV yoki xususiy baholash tashkilotlari tomonidan o‘tkaziladigan baholash jarayonlari hisoblanadi.



1-rasm. Baholashning innovatsion usullari

Summativ baholash fanlar va sinflarning xususiyatlaridan, baholanishi lozim bo‘lgan malaka talablaridan kelib chiqib yozma, test, suhbat yoki amaliy topshiriq shaklida bo‘lishi mumkin.

Summativ baholash uchun qo‘yiladigan asosiy talablar:

- topshiriqlar o‘tkaziladigan davrning barcha bo‘limlari bo‘yicha o‘quv maqsadlarini o‘z ichiga olishi;

- jarayon uchun validligi tekshirilgan, ma’lum aprobatsiyalardan o‘tgan tegishli tashkilot/guruh tomonidan tayyorlangan testlardan foydalanilishi.

- belgilangan vaqt davomida o‘tkazilishi.

Summativ baholashni tashkil etish va o‘tkazishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- ta’lim oluvchi summativ baholash nima uchun, qachon, kim tomonidan va qanday o‘tkazilishi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi;

- baholashni o‘tkazish shartlariga jiddiy yondashish;

- ta’lim oluvchining o‘z qobiliyatini namoyish qilishga imkon berish;

- baholash o‘tkazish sharoitida ta’lim oluvchi o‘zini erkin tutishi va noxushlik his etmasligiga imkoniyat yaratish;

- ta’lim oluvchi oldindan belgilangan baholash mezoni yordamida baholanishi.

Baholash amaliyotida o‘qituvchi tomonidan kutilmaganda, rejalashtirilmagan summativ baholashlarni o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

2-rasm. Baholash jarayonlarini tashkil etishning innovatsion didaktik parametrlari



Baholashni tashkil etishning yuqoridagi mexanizmiga e’tibor beradigan bo‘lsak, bu aynan o‘quvchining konkret bilimini emas asosan o‘quvchining ko‘nikma va malakalarini baholashga qaratiladi. Tayanch kompetensiyalariga XXI asr ko‘nikmalarining singdirilishi hamda xususiy ko‘nikmalar va malaka talablarining Blum taksonomiyasi asosida ishlab chiqilishidan asosiy maqsad, yakunda hosil bo‘ladigan o‘quv maqsadlarini kontentni shakllantirishga emas, ko‘nikmani shakllantirishga qaratilishiga erishishdir. Ta’lim sifatini baholash jarayonlarida esa, aynan mana shu o‘quv maqsadlari asosida baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Innovatsion baholash yondashuvi asosida ta’lim jarayonini tashkil etish orqali o‘quvchilarda XXI asrning asosiy ko‘nikmalari shakllantiriladi. Shu maqsadda XXI asr ko‘nikmalari tayanch kompetensiyalarning mazmuniga singdiriladi. O‘z navbatida tayanch kompetensiyalardan fanlarni o‘qitishda fanlarga oid kompetensiyalar ishlab chiqiladi. Fanlarga oid kompetensiyalarni baholash uchun ularning mazmuni xususiy ko‘nikmalarga ajratiladi. Ular asosida har bir sinf bitiruvchisi uchun malaka talablari belgilanadi. Baholash komponentining vazifasi aynan shu malaka talablariga qay darajada erishilganligini oraliq va yakuniy baholashdan iborat. Shu sababli, Blum taksonomiyasidan foydalanib summativ baholash uchun (formativ baholash uchun ham) baholash maqsadlari va mezonlari ishlab chiqilishi lozim.

Baholash natijasida, ta’lim oluvchilarning o‘rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo‘llay olish, tahlil qilish va o‘z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Bu jarayon Blum taksonomiyasiga asoslanadi.



3-rasm. Blum taksonomiyasi

O‘quvchilarning bilish, tanish, eslab qolish, jarayonga o‘girish, misol keltirish, tasniflash, xulosalash, taqqoslash, tushuntirish, bajarish, amalda qo‘llash kabi ko‘nikmalari odatda quyi darajada baholanadi, tahlil qilish, farqlash, tashkil etish, atributlash, baholash, tekshirish, tanqidiy fikrlash, rejalashtirish, yaratish kabi ko‘nikmalari odatda yuqori darajada baholanadi [3; 14-15-b.]. Baholash jarayonlarini (imtihonlarni) tashkil etishda, darajalarini ajratishda, topshiriqlarni tayyorlashda va guruhlashda, o‘quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlashda va ishonchli baholash ma’lumotlariga erishishda ushbu taksonomiyadan foydalanish muhim sanaladi. Umuman olganda, baholashda Blum taksonomiyasidan foydalanish, o‘rganishning boshqa jihatlarini rivojlantirish, o‘quv dasturilarini ishlab chiqish va takomillashtirishning samarali usuli hisoblanadi. Bu esa, ta’lim sifatini oshirish bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan omillar hisoblanadi. Bundan tashqari, baholash jarayonida eng muhim narsa baholash instrumenti hisoblanadi. Shuning uchun ta’lim sifatini baholashda fanning xususiyatidan, baholanadigan ko‘nikmadan kelib chiqib, turlicha instrumentlardan foydalanish lozim. Masalan, yopiq test topshirig‘i asosida baholash qaysidir fanda yaxshi samara bersa, boshqa fanda yuqori samara bermasligi mumkin. Aniq va tabiiy fanlarda masala yechish, loyiha ishi orqali baholash qulay bo‘lsa, filologiya fanlarida og‘zaki va yozma ishlar ko‘proq samarali bo‘lishi mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini baholash ishlarini (ichki monitoring) tashkil etish va o‘tkazishda o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini baholashga kam e’tibor qaratilishi, jarayonda ota-onalarning ishtirokini yo‘lga qo‘yilmaganligi, nazorat materiallarining turli hududlarda turlicha darajalarda tuzilishi, nazorat savollari bazasining “eskiligi”, doimiy ravishda savollar bazasini yangilab bormaslik, baholash jarayonlarida AKTni keng qo‘llamaslik, monitoring jarayonini o‘tkazishda ishtirok etuvchi mutaxassislarni alohida tayyorgarlikka ega emasligi, monitoring natijalarini tahlil qilishda mutaxassislarning yetarli malakaga ega emasligi kabi muammolar aniqlandi. Bunday sharoitda esa, ichki baholash jarayonlari boshqaruv faoliyati samaradorligini hamda ta’lim sifatini oshirish

imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
2. Abdullayev F.R., Pardayeva M.D. O‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash bo‘yicha yo‘riqnoma – uslubiy qo‘llanma // Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi. – Toshkent, 2021. – 28 b. (2 b.t.).
3. Горбовский Р. В., Мерцалова Т. А. Мониторинг системы образования: контингент и кадры начального, основного и среднего общего образования / Национальный исследовательский университет “Высшая школа экономики”, Институт образования. — М.: НИУ ВШЭ, 2018. — 34 с. — 300 экз. — (Факты образования. № 2 (17)).
4. Abdullayev F.R. Umumiy o‘rta talim maktablarida ta’lim sifatini baholashning amaliyotdagi holati tahlili // Tafakkur ziyosi. – Jizzax, 2022. – №3. – B. 212-216.
5. Po‘latov Sh. Ta’lim menejmenti, yohud ta’lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi (o‘quv-metodik qo‘llanma). – T.: Yosh kuch, 2019. – 591 b.

Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MEHNAT TURLARI VA BOLALAR MEHNATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatga o‘rgatish - umumiy mehnat qobiliyatini rivojlantirish, psixologik tayyorgarlikni shakllantirish, mehnatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni va uning mahsulotlarini ishlab chiqish, shuningdek, bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi faoliyat haqida so‘z yuritiladi. Bu faoliyatdan to‘g‘ri foydalanish bolalarda turli xildagi qiziqishlarni shakllanishiga ko‘maklashuvchi omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, tarbiya, kasb, interfaol, metod, usul, bola, rivojlanish, qiziqish, axborot, jahon, zamonaviy yondashuv jarayon, munosabat, bola, yosh guruhlari.

Аннотация

В данной статье подробно рассмотрены интересы, стремления, понятие профессии дошкольников, интерактивные методы формирования интереса детей к будущей жизни, а также даны выводы и рекомендации, позволяющие детям стать в будущем зрелыми профессионалами. Правильное использование интерактивных методов в дошкольных образовательных организациях и в деятельности центров развития требует от воспитателя умения и компетентности. Потому что правильное использование этих методов является способствующим фактором формирования у детей различных интересов.

Ключевые слова: Дошкольное образование, воспитание, профессия, интерактив, метод, метод, ребенок, развитие, интерес, информация, мир, современность, процесс, отношение, ребенок, возрастные группы.

Annotation

In this article, the interests, aspirations, concept of profession of preschool children, interactive methods in forming children's interest in future life are discussed in detail, and conclusions and recommendations are given for children to become mature professionals in the future. The correct use of interactive methods in pre-school educational organizations and in the activities of developmental centers requires skill and competence from the educator. Because the correct use of these methods is a contributing factor to the formation of various interests in children.

Key words: Pre-school education, upbringing, profession, interactive, method, method, child, development, interest, information, world, modern, process, attitude, child, age groups.

Mehnat ta’limi vazifalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (DOW) va oilada joylashtirilishi mumkin. DOW bolaning umumiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ta’kidlash kerakki, bolalar bog‘chasida bolalarning tarbiyalanishi muayyan dasturga muvofiq amalga oshiriladi. O‘z tengdoshlar jamiyatida uning mehnat qobiliyatlari va natijalarini uning o‘rtoqlari mehnatini o‘rganish bilan solishtirish osonroqdir. Shuningdek, bolaning shaxsiyatini shakllantirishda oilaviy ta’limga ustuvor ahamiyat beriladi. Oiladagi mehnat ta’limi asosiy printsipi shundan iboratki, ish yuki bolaning yoshi va shaxsiy xususiyatlariga mos kelishi kerak. Barcha oila a'zolari uchun har doim uy sharoitida namuna bo‘lish muhimdir. Uch yoshli bola mustaqil harakat qilish istagiga xosdir. “Men o‘zim!” - deb e’lon qiladi u, ko‘pincha o‘z imkoniyatlaridan bexabar. Hayotning 4 yoshidagi bolalarning mehnat faoliyatida o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish katta o‘rin egallaydi. Bolalar mehnatini tashkil qilishda, ularga o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini o‘rgatishda, mustaqillikka intilishni bostirmaslik juda muhim, bu ajoyib “zabt etish” uch yoshli bola - uning

mehnatsevarligini shakllantirishning eng muhim omili. Bolalarning tashabbusini so‘ndirish emas, balki uning rivojlanishiga yordam berish uchun o‘qituvchidan katta sabr-toqat va pedagogik takt talab etiladi. O‘yin texnikasi hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki ular o‘qituvchiga, bir tomondan, o‘zining pedagogik pozitsiyasini yashirishga, boshqa tomondan, chaqaloqqa faolroq ta’sir o‘tkazishga imkon beradi. Shunday qilib, o‘qituvchi guruhga katta qo‘g‘irchoqni olib kelishi va u poezdda bolalarni ziyorat qilish uchun kelganini va ular bilan yashashini aytishi mumkin. Bolalar o‘yinchoq bilan tanishadilar, unga shkaf ajratadilar, o‘qituvchi bilan birga yotoqxonada karavot o‘rnatadilar, qo‘g‘irchoq burchagidagi stoldan joy ajratadilar va hokazo. Keyin qo‘g‘irchoqqa o‘zini o‘zi parvarish qilish ko‘nikmalarini o‘rgatadi.

Bolaning kichik muvaffaqiyatlariga kattalar tomonidan ijobiy baho berish chaqaloqda qoniqish hosil qiladi, o‘ziga ishonchni uyg‘otadi. Bu, ayniqsa, uyatchan, qo‘rqoq bolalar bilan muomala qilishda eslash juda muhimdir. Takabburlikka moyil bo‘lgan buzilgan bolaga nisbatan rag‘batlantirishdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatga o‘rgatishning asosiy maqsadi bolaning shaxsiyatini shakllantirish, shuningdek, mehnatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishdir. Mehnat maktabgacha yoshdagi bolalarning ongida, kuzatuvida, diqqatida, kontsentratsiyasida, xotirasida rivojlanadi, shuningdek, uning jismoniy kuchi va sog‘lig‘ini mustahkamlaydi.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. O‘quvchilar boshlang‘ich ta’lim davrida mehnat ta’limi darslarida qo‘l mehnati sirlarini o‘rganadilar, turli materiallar bilan tanishdilar, dastlabki mehnat tarbiyasiga ega bo‘ladilar. Pedagogika fanida yosh avlodni harakllantirishda mehnat tarbiyasi juda katta rol o‘ynashini rus pedagogi K. D.Ushenskiy bunday deb yozgan edi. “Tarbiyaning o‘zi, agar u kishining baxtiyor bo‘lishini istar ekan, uni baxt uchun tarbiyalashi kerak emas, balki turmush mehnatiga tayyorlashi lozim”. Mehnat faoliyati bolaning tevarak- atrofdagi muhitni, real buyumlarni anglab olishning mustahkam vositasi bo‘lib, unga nazariy bilimlarni qo‘llash imkoniyatini yaratib beradi va unga ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi. Mehnat tarbiyasini samarali tashkil etishda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur tadbirlar shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham foydali bo‘lib, shaxsni yo‘naltiruvchi xususiyatga egadir.

Mehnat tarbiyasini tashkil etishning vazifalari quyidagicha.

1. Mehnatning mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarga mehnat shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoritib berish.

2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo‘lgan moddiy va ma’naviy nematlarni qadrlash, asrab avaylashga o‘rgatish.
3. Mehnat qilishga nisbatan rag‘batni, shuningdek, muhabbatni uyg‘otish. Bunda aziz avliyolarimiz va boshqa buyuk insonlarimizning mehnat va kasb-hunar bilan hayot kechirganlarini alohida qayd etish.
4. O‘quvchilarning mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish.
5. Mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish.
6. Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish.
7. Mehnatga hayotiy zarurat inson faoliyatining asosi sifatida munosabay ola bilish.
8. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko‘nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish.
9. O‘quvchilarda mehnatsevarlik xislatlarini tarbiyalash, o‘z mehnati samarasidan g‘urulanish tuyg‘usini shakllantirish.
10. Muayyan kasb-hunar sirlarini o‘zlashtirishga erishish va boshqalar.

Yosh avlodning mehnat faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantiriladi va tarkib toptiriladi, mehnat o‘yindan ajralgan holda mustaqil faoliyat sifatida shakllantiriladi, mehnat faoliyati jarayonining mohiyatini o‘zlashtirishga erishiladi,mehnat faoliyatining turli shakllari vujudga keltiriladi.

Maktabda o‘z- o‘ziga ko‘rsatishga doir mehnat ko‘rinishlari davom ettiriladi, sinf xonalari va maktab binosini hovlisini ozoda saqlash , tartib qoidalarga rioya qilish, xonadagi gullarga qarash, ularni parvarish qilish, gulxonalarda gullarni o‘stirish, maktab oshxonasida, sport zali va suv hovzalari (basseyn) da o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish kabi yumushlarga o‘quvchilarni jalb etadilar. Maishiy mehnat yoki o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish mehnatida mehnatsevarlik, qatiylik, tashabbuskorlik, olg‘a intilish kabi fazilatlar tarbiyalanadi.Maktab o‘quv rejasiga o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida shubday fanlar kiritilganki, ularning asosiy vazifasi o‘quvchilarga mehnat talimini va tarbiyasini berishdan iborat.

Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida o‘quvchilarda fidoyilik, chidamlilik, sabr toqatga ega bo‘lish, onglilik, to‘g‘rilik, halollik, mehnatga nisbatan vijdonan yondashish kabi xislatlar shakllanadi. Bajarilayotgan mehnat yoki shaxsningo‘ziga, shuningdek atrofdagilarga yoki ijtimoiy jamiyat uchun foyda keltirishni o‘quvchilarga tushuntirib boorish mqsadga muofiqdir. Shuningdek, ularga har qanday mazmun va ko‘lamdagi mehnatning besamar bo‘lmasligini uqtirib o‘tish joiz. Mehnat har bir o‘quvchining kuchi va imkoniyatiga muvofiq bo‘lishi kerak. Yusuf Xos Hojibning mehnat haqidagi fikrlari haqiqatdan ham ularga

nisbatan hurmat va ehtiromni ta’riflaydi. Yusuf Xos Hojibning mehnat tarbiyasiga oid progressiv qarashlari tarbiyaviy jihatdan diqqatga sazovordir.

XV asrning yirik mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug‘lovchi , mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari “Hayrat- ul abror”, “Farhod va Shirin”, “Mahbub-ul qulub” asarlari ham mavjud. Alisher Navoiyning haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlaridan biri mehnatsevarlik deb ko‘rsatadi. Yosh avlodni mehnatsevar qilib tarbiyalash biz pedagoglarning burchi hisoblandi. Mehnatga ruhiy, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mehnatni tashkil etish jarayonida intizomga bo‘ysunish, maqsadni amalga oshirish yo‘lida shijoat, qat’iyat ko‘rsatish, axloqiy-irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi. Mehnat ta’limi vazifalari haqida gapirilganda, o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mas’uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashni tilga olmaslik mumkin emas. Mehnat ta’limi shaxsning eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Mehnat ta’limida mehnatga psixologik tayyorgarlik, mehnat faoliyatining to‘g‘ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo‘lgan sifatlari shakllanadi. Darslarning jihozlanganligi o‘z mehnati uchun shaxsiy mas’uliyatni, mehnat madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Agarda bolalar yomon jihozlangan sinfda, qo‘pol, og‘ir va yoshlariga nomunosib asboblar bilan shug‘ullansalar ish natijalari ko‘ngildagidek bo‘lmaydi. Agarda bola har bir qadamda tartiblilikka, aniqlikka rioya qilish lozimligiga ishonch hosil qilmasa, bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishish haqida gapirish qiyin. Mehnat malaka va ko‘nikmalari u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibga va harakat izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga bo‘ladigan ko‘p mashq qilishlar natijasida tarkib topadi. Shuningdek, ular bu asnoda qaysi bir mehnat yo‘nalishi o‘ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar. Shuning uchun ham mehnat ta’limi imkon qadar xilma-xil bo‘lishi hamda o‘quvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari va jinsiy xususiyatlariga muvofiq kelishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarova M. va boshqalar Kichik yoshdagi bolalar nutqini o 'stirish. -T.:2001.
2. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi.-T.: Barkamol avlod fayz, 2018-y.
3. Babayeva D.R. Bolalar nutqini o‘stirish.-T.: TDPU, 2020-y.
4. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish.T.: 2012.
5. Bekmatova O.A. va boshqalar “Quvnoq harflar”. -T.; “Bola” 2000.

6. Bolalar bog‘chasida Interfaol pedagogika. Uslubiy qo‘llanma / Ed. N.V. Miklyaeva. - M.: TC Sphere, 2012 .-- 128p. (“Maktabgacha ta’lim muassasasi ofisi” jurnali kutubxonasi.)
7. Sodiqova.Sh.A.Maktabgacha pedagogika. Darslik. -T.,Tafakkur bo‘stoni 2013

Seytimbetova Uldavlet
Qaraqalpaqstan Respublikasi, Xojayli tumani

O‘RGANISH VA IZLANISH DAVRIDA BOLALAR PSIXOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘rganish va izlanish davrida bolalar psixologiyasi borasida ma’lumotlar o‘z aksini topadi.

Kalit so‘zlar: hissiyot va xayol, o‘yinlar,o‘qish, mehnat qilish, ma’rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy, bilish va dialektika nazariyasi.

Annotation

This article reflects information about child psychology during the period of study and research.

Key words: emotion and fantasy, games,reading, working, educational, colloquial, emotional, volitional, cognitive and dialectic theory.

Аннотация

В этой статье будут отражены данные по детской психологии в период обучения и исследований.

Ключевые слова: теория эмоций и воображения, игры,чтения, труда, воспитательная, речевая, эмоциональная, волевая, познавательная и диалектика.

Ma’lumki, ilk bolalik davridagi bolalar faqat yurib va emaklabgina qolmay, yugurish, sakrash hamda baland va past to‘siqlardan oshib o‘tish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning ertadan kechgacha turli harakatlar qila olish imkoniyatlari tevarak- atrofdagi muhitni bilish ehtiyojini qondirishda juda katta sharoit yaratib beradi. Ilk bolalik davridagi bolaning turmush tajribasi, deyarli, yo‘q bo‘lgani uchun uni hamma narsa qiziqtiradi. U o‘zining kundalik tinimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib, mustaqil ravishda kiyinish, ovqat yeyish, yuvinish kabi harakatlarni o‘zlashtira boshlaydi. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bola o‘zining kundalik harakatlari davomida hech bir erinmay, ko‘z o‘ngidagi hamma narsalarni tekshirib ko‘radi. Natijada juda ko‘p yangiliklarni bilib oladi, o‘zining sezgi va idrokini, tasavvur va xotirasini, tafakkur

va nutqini, hissiyot va xayolini- umuman hamma psixik jarayonlarini rivojlantiradi. Bu yoshdagi davrda sezgilarning rivojlanishi analizatorlarning tobora takomillashuvi bilan bog‘liqdir. Ikki yoshdan oshgan bolaning sezgilari (ko‘rish, eshitish, hid va ta’m bilish, teri va harakat kabi) uning har kungi xilma-xil harakatlari davomida turli narsalarga bevosita to‘qnash kelishi natijasida rivojlanadi. Sezgilarning normal rivojlanishi bola idroki o‘sishi uchun zamin yaratadi.

Bolalar psixologiyasi bolalarda psixologik jarayonlar (ma’rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va boshqa) paydo bo‘lishi va rivojlanishini, psixologik xususiyatlar qaror topishini, xilma xil faoliyatning (turli xil o‘yinlar, o‘qish, mehnat qilish) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o‘rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan umumiy tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari bor desak, adashmagan bo‘lamiz. Sababi barcha bolalar bir xil fikrlamaydi va bir xil harakatlanmaydi, ular turlicha psixologik holatda bo‘ladilar. Faqatgina birgina holdagida barcha bolalar bir biriga o‘xshashadi, ya’ni o‘yinqaroqligida hamda beg‘uborligida. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o‘rganishda ko‘ndalang kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o‘tkazib o‘rganiladi. Shuningdek, ancha vaqtdan beri bizga ma’lum bo‘lgan usullar orqali ham bolalarni psixologik tekshirish mumkin bo‘ladi. Quyida esa yangicha bola shaxsi yosh xususiyatlarini o‘rganish usullarini aytib o‘tsam.

Ilk bolalik davridagi bolaning idroki ancha rivojlangan bo‘lsa ham, katta odamlar idrokidan keskin farq qiladi. Birinchidan, bolalarda turmush tajribasi yo‘qligi tufayli ularning idroklari ham anglashilmagan xarakterga ega bo‘ladi. Ular ko‘p narsalaiga birinchi marta duch keladilar. Shuning uchun bolalar idrok qiladigan ko‘p narsalar ularga yangilik, ya’ni dastlabki taassurot kuchiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan esa bolalarning idroki ko‘pincha ixtiyorsiz xarakterda bo‘ladi, ya’ni ularning idrokida muayyan bir maqsadni ko‘zlash hali sezilmaydi. Shuning uchun ularning idroki bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ko‘chib ketaveradi. Lekin bu yoshdagi bolalarda hissiyot kuchli bo‘lgani uchun ular o‘zlarini qiziqtiradigan, hayron qoldiradigan, hissiy kechinmalar uyg‘otadigan narsalarni idrok qiladilar. Bu yoshdagi bolalar idrokining yana farqlanadigan tomoni shundaki, ular idrok qilayotgan narsalarni umumlashtira olmaydilar. Atrof-muhitdagi narsalarni qanday bo‘lsa, shundayligicha idrok qiladilar. Bu xususiyat ularning rasmlarni idrok qilishlarida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, ikki yarim yoshli bolaga otning kallasi solingan surat ko‘rsatilsa, hayron bo‘lib, otning o‘zi qani, deb so‘raydi.

Bolalar idrokining takomillashuvida so‘z katta ahamiyatga ega. So‘z mohiyat jihatidan umumlashgan xarakterga ega bo‘lib, u narsalarni umumlashtirish imkonini beradi. Bola so‘z yordamida o‘xshash narsalarni oddiygina guruhlarga ajrata

boshlaydi. Ilk bolalik davridagi bolalar so‘zlay boshlagan bo‘lishiga qaramay, ular hali vaqt va fazo kabi murakkab tushunchalarni to‘g‘ri idrok qila olmaydilar, chunki ularda hali turmush tajribasi yo‘q. Bunday murakkab tushunchalar kundalik hayot davomida sekin-asta hosil qilib boriladi. Bir yoshgacha bo‘lgan bolalarning diqqati nihoyatda beqaror va ixtiyorsiz bo‘lsa, ikki yoshga to‘lgan bolalarning diqqatida yangi sifatlar yuzaga kela boshlaydi. Bola o‘sib- ulg‘aygan sari uning diqqatibarqarorroq bo‘la boshlaydi. Diqqatning ozmi- ko‘pmi barqaror bo‘la boshlagani shunda ko‘rinadiki, bola o‘zini qiziqtiigan biron narsa bilan uzoq vaqt mobaynida shug‘ullana oladi. Ikki yoshga to‘lib, uch yoshga qadam qo‘ygach so‘zlarni tushunadi. So‘z boyligi orta boshlagach, bolaning o‘ziga xos bo‘lgan situativ tili haqiqiy tilga aylanadi. Ilk bolalik davridagi bolalarda tafakkurning fikriy operatsiyalari, ya’ni analiz, umumlashtirish kabilarni ko‘ramiz. Ular qo‘llaridagi o‘yinchoqlarini yoki qo‘llariga tushgan narsalami amaliy aylantirib, paypaslab, buzib analiz qiladilar. Lekin sintez qilishga hali qurblari yetmaydi. Bu yoshning oxiriga kelib tafakkurning o‘sishida nutqning roli juda oshadi. Bola yangi so‘zlarni mumkin qadar ko‘proq bilib olib, ulardan o‘z tafakkurida keng foydalana boshlaydi. Bu esa fiklash operatsiyalarining o‘sishiga yordam beradi.

Agar bu yoshdagi bolaga “dadang endi barvaqt ishga ketmaydi” deyilsa, u hayron bo‘lib qoladi. Chunki katta odam bo‘lgan dadasining ishga bormasligi uning tushunchasiga to‘g‘ri kelmaydi. Uning tushunchasida hamma katta odamlar barvaqt ishga ketishi kerak. Shuning uchun hech bir o‘ylab o‘tirmay, “dadam kattalar-ku?” deb javob beradi. Bolalar tushunchalardan foydalanib, sodda xulosalar chiqarishga o‘rgana boshlaydilar. Ular bir necha hukmlardan foydalanib katta, kichik, baland, past, ko‘p, oz kabi sodda xulosalar chiqara oladilar, bu esa tafakkurning yanada rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Ilk bolalik davridagi bolalarda murakkab psixik jarayonlardan biri bo‘lmish xayol anchagina rivojlana boshlaydi. Lekin bu asosan ixtiyorsiz xayol bo‘ladi. Ular hali ma`lum maqsad asosida ixtiyoriy tarzda xayol yurgiza olmaydilar. Bola ikki yoshga to‘lgach, uning o‘yinlarida jiddiy o‘zgarish ro‘y beradi. Bolaning o‘yiniga endi taqlidiy harakatlar qo‘shiladi. Bola kattalardan ko‘rgan-bilganlarini o‘yinda taqlidan takrorlay boshlaydi. Bu davrda bola mashinasini u yoqdan bu yoqqa siljitish yoki tepalikdan sirg‘antirib tushirish bilan cheklanmay, haydovchilarning harakatlarini bajara oladi. Mashinaning motori ovoziga taqlid qilib ovoz chiqaradi, mashinada yuk tashiydi va hokazo. Nutqning o‘sishi bola xayolining o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar kattalarning gaplariga tushunadigan bo‘lgach, har xil ertak va hikoyalarni qiziqib tinglaydigan bo‘ladi. Bolalar o‘zlari biladigan, o‘zlariga yaxshi tanish bo‘lgan narsalar haqidagi hikoyalami joni dili bilan eshitadilar. Har bir hikoyani eshitganda bolada xilma-xil tasavvurlar yuzaga keladi. Bola bu tasavvurlari yordamida xayol qilish qobiliyatiga

ega bo‘ladi. Bola hikoyalarni eshitish orqali olgan tasavvurlarini so‘zlar bilan ifodalaydi. So‘z esa bolaning narsalarni boshqacha idrok qilishiga, ularning boshqa narsalarga o‘xshashligini aniqlashiga va ana shunday o‘xshashliklarni aniqlash asosida yangi obrazlar, yangi tasavvurlar yaratishiga yordam beradi. Ilk bolalik davridagi bolalarda barcha psixologik jarayonlar ma’lum darajada rivojlanar ekan, bu umuman ular ongining rivojlanishiga zamin yaratadi.

G‘arb psixologiyasining barcha bu ajoyib yutuqlari fonida, L. S. Vygotskiy bolalar psixologiyasida chinakam inqilobiy inqilobni amalga oshirdi. U bolaning aqliy rivojlanishining borishi, shartlari, manbai, shakli, o‘ziga xosligi, harakatlantiruvchi kuchlari haqida yangi tushunchani taklif qildi; u bolaning rivojlanish bosqichlarini va ular orasidagi o‘tishlarni tasvirlab berdi, bolaning aqliy rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini aniqladi va shakllantirdi. Bugun har kim bilimli odam Bolalik nima degan savolga, u bolalik rivojlangan rivojlanish, o‘zgarish va o‘rganish davri deb javob beradi. Ammo bu paradokslar va qarama-qarshiliklar davri ekanligini, rivojlanish jarayonini ularsiz tasavvur etib bo‘lmasligini faqat olimlar tushunadi. V. Stern, J. Piaget, I. A. Sokolyanskiy va boshqalar bola rivojlanishining paradokslari haqida yozganlar. D. B. Elkoninning aytishicha, bolalar psixologiyasidagi paradokslar rivojlanish sirlari bo‘lib, olimlar hali ochilmagan.

D.B.Elkonin Moskva universitetida o‘z ma'ruzalarini doimo bola rivojlanishining ikkita asosiy paradokslarini tavsiflash bilan boshladi, ular orasida bola rivojlanishining zarurati bor. tarixiy yondashuv bolalikni tushunish uchun. Keling, ularni ko‘rib chiqaylik Tug‘ilgan odamga hayotni saqlab qolish uchun faqat eng elementar mexanizmlar berilgan. Jismoniy tuzilishi, asab tizimining tashkil etilishi, faoliyat turlari va uni tartibga solish usullari jihatidan inson tabiatdagi eng mukammal mavjudotdir. Bolalik - bu yangi tug‘ilgan kundan boshlab to‘liq ijtimoiy va shuning uchun psixologik etuklik davri; bu davrda bola insoniyat jamiyatining to‘la huquqli a'zosiga aylanadi. Bundan tashqari, ibtidoiy jamiyatdagi bolalikning davomiyligi o‘rta asrlardagi yoki bizning kunlarimizdagi bolalik davriga teng emas. Insoniyatning bolalik bosqichlari tarix mahsuli bo‘lib, ular ming yillar avval bo‘lgani kabi o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun bolaning bolaligi va uning shakllanishi qonuniyatlarini insoniyat jamiyati taraqqiyoti va uning rivojlanishini belgilaydigan qonuniyatlardan tashqarida o‘rganish mumkin emas. Bolalikning davomiyligi jamiyatning moddiy va ma’naviy madaniyati darajasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri mutanosibdir. Ma’lumki, bilish va dialektika nazariyasi alohida fanlar tarixi, bolaning psixik rivojlanish tarixi, yosh hayvonlar va til tarixidan shakllanishi kerak. Ayniqsa e'tiborni qaratish hikoyalar bolaning aqliy rivojlanishi, uni ontogenezdagi

bolaning rivojlanishidan ham, turli xil zamonaviy madaniyatlarda bolalarning notekis rivojlanishidan farqlash kerak.

Bolalik tarixi muammosi zamonaviy bolalar psixologiyasidagi eng qiyin muammolardan biridir, chunki bu sohada na kuzatish, na tajriba o‘tkazish mumkin emas. Bolalarga oid madaniy yodgorliklar qashshoq ekanligini etnograflar yaxshi bilishadi. Arxeologik qazishmalarda o‘yinchoqlar topilganida ham, unchalik muhim bo‘lmagan holatlarda ham, bular odatda qabrlarga qo‘yilgan diniy obyektlar bo‘lib, ular keyingi hayotda egasiga xizmat qilishlari uchun. Odamlar va hayvonlarning miniatyura tasvirlari ham jodugarlik va sehrgarlik maqsadlarida ishlatilgan. Aytish mumkinki, eksperimental faktlardan oldin nazariya mavjud edi. Nazariy jihatdan, bolalik davrlarining tarixiy kelib chiqishi masalasi P. P. Blonskiy, L. S. Vygotskiy, D. B. Elkonin asarlarida ishlab chiqilgan. Bolaning aqliy rivojlanishining borishi, S.Vygotskiy fikricha, tabiatning abadiy qonunlariga, organizmning kamolot qonunlariga bo‘ysunmaydi. Bola rivojlanishining rivojlanishi sinfiy jamiyat, deb hisobladi u, “juda aniq sinfiy ma’noga ega”. Shuning uchun u abadiy bolalik emas, faqat tarixiy bolalik borligini ta’kidlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Nishonova Z. Alimova G. “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi” T.: 2006 y
2. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi o‘quv –uslubiy majmua. 2010 yil
3. “Uchinchi mingyillikning bolasi”. Tayanch dasturi. T., “Ma’rifat madadkor”, 2002 y.
4. Nishonova Z.T. Do‘stmuxammedova Sh.A. To‘lyaganova Sh.T. Pedagogik psixologiya. Toshkent 2011.

Temirov Sirojiddin Shoymardon o‘g‘li
An English teacher of military institute
of information communication technologies and signals
+998901129791

THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PROVIDING KNOWLEDGE TO STUDENTS

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalar qo‘llanilishining ahamiyati yoritilgan. Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari, umumiy

metodologiyaning asosiy tamoyillari tizimida yangi hodisa sifatida uni dialektik mantiq va bilish nazariyasining kategoriya va tamoyillari tizimidagi evristik imkoniyatlar darajasiga olib chiqishi ifodalangan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, texnologiya, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalar, pedagogik mahorat. amaliy mashg‘ulotlar, nazariy bilimlar, ko‘nikma, malaka, tajriba, muloqot.

Annotation This article highlights the importance of using pedagogical technologies in the educational system. It is expressed as a new phenomenon in the system of methodological foundations of pedagogical technology, basic principles of general methodology, bringing it to the level of heuristic possibilities in the system of categories and principles of dialectical logic and knowledge theory.

Key words: educational system, technology, pedagogical technologies, information technologies, pedagogical skill. practical training, theoretical knowledge, skills, competence, experience, communication.

INTRODUCTION

Pedagogical technology is a systematic method of creating, applying and defining technical and personal resources and their relationship, which sets the task of increasing the effectiveness of educational forms in the entire process of teaching and knowledge acquisition. Opening a broad path to modern knowledge, effective use of pedagogical technologies in improving education is one of the most important requirements of today.

Currently, special attention is paid to the activity of the teacher and his pedagogical skills. Recommendations regarding the use of pedagogical technology in the course of the lesson very necessary for teachers. Interactive teaching methods aimed at sensing, feeling, controlling oneself, expressing one's thoughts clearly, succinctly and carefully, and using them, are developing with fast pictures and giving positive results. Using in teaching the planned interactive methods created a competitive environment among students and encouraged them to be active, as a result, students began to learn cooperation. Any interactive method makes students independent when used correctly and purposefully teaches to think. The new pedagogical technology is a process that produces rational ways of the educational system, in which the teacher is the main responsible person. Because its main task is to deliver information to students quickly, accurately and clearly. It is necessary to teach it. In this, the student is the main driving force, and can read, draw, understand the formulas of projections and use tools, each other. [1]

LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY

Their main task is to have a friendly relationship with and help each other in solving the problems they face. The change taking place in the education system and updates provide students with new knowledge, skills and abilities, as well as inculcate in their minds and hearts the patriotic ideas of change in relation to themselves and other people, society, state, and nature.

The set of interrelated requirements is based on the generalized model of the pedagogue and the following represents the main requirements: the ability to teach, the ability to educate.

The personal qualities that provide the human factor in the educational process are the ability to objectively assess and control the knowledge of students. to have the following qualities in order to fulfill complex, responsible and urgent tasks and to form new views on the educational process need:

- able to deeply understand the essence of modern, scientific and cultural development;
- update the system of knowledge about the world and man from a deep and wide perspective;
- application of educational information technologies and teaching tools in education, have an understanding of the Internet and be able to use it to increase their knowledge.
- to know the ways of analyzing the effectiveness of pedagogic work and to be able to self-assess.
- development of ideas on family education and upbringing problems.
- universal and national culture and values national idea and national ideology understand the essence of economic reforms.
- to know how to effectively use pedagogical technologies in the course of the lesson.
- create conditions for students to think and exchange ideas with each other and create a friendly environment.
- knowing how to use technical tools and educational tools, such as educating children through their own research, creativity, initiative, and hard work, in order to make them become well-rounded people. In order to meaningfully implement the above-mentioned requirements for the pedagogue, every teacher should think in a new way, develop his thinking, learn pedagogical technologies independently, and learn deeply what the goals and tasks are. [2]

What is new pedagogical technology and how do we understand it?

How is it different from traditional technology?

DISCUSSION AND RESULTS

The difference between new pedagogical technology classes and traditional classes is that it creates an atmosphere of freedom for the student and gives him the

opportunity to clearly express his opinion. How is this opportunity created? This creates a friendly learning environment by asking questions without putting any pressure on the student, without touching his personality. Using the student means not teaching a lesson by dividing topics to several students, but, we understand the use of all students together.

We use interactive methods in the educational process to use students together. Each lesson should be like a small invention that ignites the sparks of the child's abilities. Even small achievements in self-awareness of the surrounding world are the whole study makes his work strange and charming. In particular, it is designed to increase the activity of students based on cooperation: to make students listen, understand, respect the opinions of others, consider the interests of others, teach them, influence them.

It consists of teaching to perceive, feel, self-control thoughts of oneself and others clearly, succinctly and carefully. Today, the role and importance of modern, advanced pedagogical technologies in the education of students is incomparable.

In fact, modern, advanced pedagogical technologies in education increase the productivity of the educational process, form the independent thinking process of students. In a word, modern advanced pedagogical technologies, first of all, provide students with knowledge, it creates an opportunity to improve skills and qualifications, and secondly, it helps the professional growth and spiritual development of the teacher. It is not for nothing that the 21st century is called the age of information technologies. Today, the information communication system is developing at a high level on a global scale, and these other areas as well as rapidly entering the field of education, showing its influence on its higher quality organization. From this point of view, today's teacher should have deep knowledge of ICT use, be able to analyze it and be knowledgeable at the level of innovation, organization of the lesson. [3]

It is a very important factor to be able to choose and use methods that are understandable, easy and interesting for all students, to use modern ICT and multimedia tools, computers, to encourage students to work creatively and independently. In order to increase the effectiveness of education and ensure that students get quality education, modern pedagogical technologies are used in our boarding school and students who have mastered interactive methods and are able to use them in the organization of educational and educational activities have been achieving good results in various science Olympiads and various competitions. The knowledge of improving the quality of educational processes with new initiatives, innovative ideas, and achieving efficiency in the way of perfect mastery of subjects by our children, we mobilize our potential and energy. [4]

CONCLUSION

In conclusion, the general aspects of the essence of pedagogical technology, its form and content, the system of contradictions, the dialectic of quantitative and qualitative changes, the general laws and regularities of its construction, operation and development, the general philosophical concept of technology can be considered successfully. Its movement is based on the laws discussed above in the field of logical and material production, its dialectical opposite, spiritual production, as well as laws in the field of education.

Pedagogical technology has a theoretical basis, because the original technology is based on its solid scientific and theoretical foundation. For this, it is necessary to provide them with the opportunity and conditions for continuous independent work. Therefore, technologicalization of the educational process, correct selection of the methods and tools of the lessons while setting specific tasks. It is possible to develop the intellectual potential and creative ability of a person, to improve the knowledge and skills of every citizen in the society, and to create conditions for rapid education.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4884 son qarori. Toshkent. 6-noyabr. 2020.
2. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05), 6694-6701.
3. Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. Science and Education, 1(4), 84-89.
4. Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., Shofkorov, A., & Makhmudov, K. (2020). Pedagogical Education Cluster: Content and Form. ISJ Theoretical & Applied Science, 1(81), 250-257.
5. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 166-169.

4-SHO‘BA. *INKLYUZIV TA’LIMGA BOSQICHMA-BOSQICH O‘TISH: MAVJUD AMALIYOT, MUAMMO, YECHIM VA ISTIQBOLLAR*

Аюпова Мукаррам Юлдашевна
Низомий номидаги ТДПУ
профессори,
педагогика фанлари номзоди

ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ОЛИБ БОРИЛАДИГАН ЛОГОПЕДИК ИШ МАЗМУНИ

Аннотация

Ушбу мақолада ривожланишида мужассам нуқсони бўлган болалар коррекцион-педагогик таълим тизимида логопедик ишнинг асосий мазмуни ёритиб берилган.

Калит сўзлар: ривожланиш, мужассам, нутқ, нутқ бузилишлари, коррекция,тамойиллар, логопедик таъсир, логопедик машғулотлар.

Аннотация В данной статье освещается основное содержание логопедической работы в системе коррекционно-педагогического образования детей с отклонениями в развитии.

Ключевые слова: развитие, речь, речевые нарушения,коррекция, принципы, логопедическое воздействие, логопедический тренинг.

Annotation This article highlights the main content of speech therapy work in the system of correctional and pedagogical education of children with developmental disabilities.

Key words: development, speech, speech disorders,correction, principles, speech therapy, speech therapy training.

Инклюзив таълим тизимига жалб қилинган ривожланишида муаммолари бўлган турли тоифа болаларининг аксариятида нутқий муаммолар кузатилади. Шу боис, мазкур жараёнга уйғунлаштирилган болалар нутқий муаммолари устида ишлаш устувор вазифалардан бири ҳисобланиб, биз логопедик ишларга алоҳида ўрин ажратамиз. Мужассам нуқсонли болаларда нутқий нуқсонлар муаммосини ўрганишга кўпгина махсус тадқиқотлар бағишланган. Бундан ташқари логопедлар бундай ҳолатлар билан амалиётда кўп марта тўқнаш келишади, мураккаб вазиятда қолишади, бунда улар тўғри ва мақсадга қаратилган коррекцион таъсир йўлларини мустақил

излашлари, педагогик жараённи моделлаштиришлари, аниқ ишда интегралашган ёндашувни амалга ошириши керак.

Логопеднинг вазифаларига қуйидагилар киради:

ривожланишида мужассам нуқсони бўлган болаларни логопедик текшириш методикаларини ишлаб чиқиш;

боланинг нутқий ривожланиш даражаси, нутқий хусусиятларини аниқлаш мақсадида диагностик тадбирларни ўтказиш;

бу тоифа болалар билан коррекцион-логопедик ишларда ўзаро алоқа ўрнатиш.

Ташхис қилиш босқичи муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бу вақтда мавжуд нуқсонлар, уларнинг мазмуни, болаларниниг индивидуал хусусиятлари аниқланади. Ривожланишида мужассам нуқсони бўлган болаларни логопедик текшириш етарли даражада кенг доирадаги муаммоларга – бола анамнезини, оилавий шароитини, нутқ аппарати тузилишини ўрганишга, тил тизимидаги бузилишларни аниқлашга, фонематик эшитув ҳолатини аниқлашга ва бошқаларга йўналтирилган.

Бу логопедик текширув ўзининг асосига кўра мавжуд ва синалган методикалардан (Г.А. Волкова, Т.Б.Филечова, Г.В. Чиркина методикалари). Бу соҳадаги ишланмаларни ҳар бир аниқ ҳолатдаги нуқсонларнинг ўзига хослигига, шунингдек болаларнинг ёшига кўра қўллашга тўғри келади. Масалан, кичкинтойлар учун материал соддалаштирилса, кўришида нуқсони бўлган болар учун эса расмлар ўрнига хақиқий предметлар, ўйинчоқлар ёки рельефли расмлардан фойдаланилади; топшириқлар учун кўрсатмаларни тўғри тузиш ва танлаш муҳим ахамиятга эга. Болалар контингентининг ўз тавсифига кўра ҳаддан ташқари полиморфлигини ҳисобга олиб, логопедик текширувда диагностик методикалар тузишда таяниш лозим бўлган қуйидаги тамойилларни тавсия этиш лозим:

Комплекслилик тамойили кенг доира мутахассислари: шифокорлар, логопедлар, психологларнинг бамаслаҳат муҳокамасига кўра маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилишни кўзда тутади.

Ёш чегараларни ҳисобга олиш талаби ўз олдига болаларнинг ёшига кўра ташхис қилиш, кейин ўқитишни мақсад қилиб қўяди. Махсус муассасаларга болалар турли хил ёшда (3 ёшдан 5 ёшгача) даврда келишади. Шунинг учун текшириш топшириқларини ҳар бир боланинг ёш имкониятларига кўра ишлаб чиқиш керак, бунда унга айнан шу ёшида бажара оладиган топшириқлардан бошлаш таклиф этилади.

Боланинг нутқий имкониятларини ҳар томонлама ўрганиш тамойили – логопедик текширувда: артикуляцион аппаратнинг қурилиши ва

ҳаракатчанлик даражаси, умумий ва майда моторика, орал праксис, фонематик ва синтез кўникмалар, шунингдек, товушлар талаффузи, нутқнинг лексик-грамматик томонлари ва бошқа муҳим хусусиятларини бирм-бир ўрганиш дегани.

Текшириш турли хил усуллар ва методларнинг йиғиндиси асосида, ҳар бир алоҳида вазиятга мос равишда ўтказилиши керак. Унинг мувоффақиятини белгиловчи муҳим шарт, кўрсатмаларни тўғри танлаш, баъзан эса таклиф этилаётган вазифаларни тўғри тушунтириш усуллари ҳисобланади.

Ривожланишида мужассам нуқсони бўлган болалар билан ишлашда текширишнинг стандарт усулларидан фойдаланмаслик керак. Сақланган ва бузилган функциялар ва болаларнинг нутқий имкониятларига боғлиқ равишда вербал ва новербал топшириқлар таклиф этилади. Баъзи болалар учун танланган топшириқларнинг кўпчилиги нобербал бўлиши лозим бўлса, бошқаларига эса, ҳам вербал, ҳам новербал топшириқларни афзал кўришади. Топшириқларни бажариш тезлигини, бола фаолиятининг тўғрилиги ва аниқлигини қайд этиш ва қиёслаш муҳим аҳамиятга эга. Текшириш давоми кўпгина аҳамиятли ҳолатлар: болаларда топшириққа қизиқиш уйғондими ёки йўқми, уларнинг диққати, чарчаш даражаси, мувоффақиятсизликка муносабати қай даражада эканлиги кабилар аниқланади.

Нутқ ўзида мураккаб физиологик, психологик, фикрлаш жараёнини акс эттириб, унда элементар даража каби (сенсомотор, гностик-амалий), унинг юқори ташкил этилган даражаси ҳам қўшилиб келади (маъновий, тил хусусиятлари). Шунга боғлиқ равишда нутқ ва унинг бузилиши, шунингдек, уни тузатишига қаратилган коррекцион иш ҳам турли томонлардан кўриб чиқилади – тиббий, психологик, лингвистик, психолингвистик.

Ҳаракат соҳаларидаги бузилишлар, қўпол сенсор ва баъзи ҳоллардаги ақлий етишмовчилик нутқнинг барча копмонентларини ривожланмаслигига олиб келади. Ривожланишида мужассам нуқсонга эга бўлган болалардаги нутқий нуқсонлар ўзига хос ҳолатларга эга бўлиб (артикуляцияси ва акустикасига кўра ўхшаш товушларни фарқлашдаги, таллаффузни ўз назоратига олишни ўзлаштиришда, нутқнинг грамматик қурилишини ўзлаштиришдаги қийинчиликлар), коррекцион таъсирнинг дифференциал методларини талаб этади. Бу тоифа болалар билан ишлашнинг ўзига хослиги шундаки, нутқ нуқсонларини коррекциялаш ва уни кучайтирувчи кўпгина омиллар қўшимча бузилишлар характерини- кўриш, эшитиш ҳолати, ҳаракат имкониятлари ва идрок хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади.

Логопедик машғулот – ривожланишида муаммоси бўлган болалар билан олиб бориладиган коррекцион тадбирларнинг асосий шакли ҳисобланиб, бу жараёнда нутқнинг барча компонентларини кетма-кет ва ўзаро алоқада ривожлантириш амалга оширилади. Етакчи ташкилий шакллар: якка ва фронтал машғулотлардир. Ривожланишида мураккаб нуқсони бўлган болалар учун якка иш шаклларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Якка логопедик машғулотларни муваффақияти учун уларини тўғри ташкил этиш ва махсус бузилишлар ҳақида аниқ билимлар зарур бўлади. У ёки бу бузилишни бартараф этиш вақти, шунингдек уни бартараф этиш кетма- кетлигини аниқлаштириш, текшириш давомида белгиланган нуқсоннинг намоён бўлиши холатига боғлиқ.

Машғулотни режалаштириш жараёни мақсадни аниқлашдан бошланади. Бунда таълимий фаолият ва болаларнинг билиш фаоллигини ривожлантирилишга бериладиган урғу аниқ шакллантирилиши керак. Машғулотнинг тузилиши метод ва усулларни танланиши, луғат иши унинг мавзуси ва мақсадига боғлиқ бўлади.

Логопедик иш дастури қуйидаги ҳолатларни ҳисобга олган ҳолда, унинг учун натижавийлик ҳолатларини ҳисобга олган ҳолда қурилиши мумкин:

1. Бу ишда нутқниниг комуникатив функциясини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилади. Болаларни қайта ишланган нутқий оппарацияларини ўхшаш ёки янги шароитларда қўллашга эгалланган кўникмаларни турли фаолият турларида ижодий амалга оширишга ўргатиш керак.
2. Болаларнинг нутқий ривожланишининг пастлиги ва материални ўзлаштириш секинлиги темпи билан боғлиқ равишда таклиф этилаётган материал хажмини тўғри белгилаш, ҳар бир машғулотнинг мазмунига алоҳида эътибор қаратиш зарур.
3. Бу тоифа болаларнинг кўпчилигида анализ- синтез фаолиятини ривожланиш хусусияти олий психик функцияларни ривожлантиришни кўзда тутади.
4. Логопедик машғулотларни режлаштиришда нутқий фаолиятни шакллантиришда анча самарали иштирок этадиган турли хил сақланган анализаторлар фаолиятини фаоллаштиришга йўналтирилган машқларни киритиш зарурати кўзда тутилади.
5. Бундай машғулотларини ташкил этиш ва ўтказишнинг муҳим шарти иш усуллари мазмунини ўзаро алоқада такрорлаш тизими ҳисобланади. Такрорлашлар механик эмас, балки онгли бўлиши керак, машғулотлар турини ўзгартириш орқали болаларга қизиқарли ва янги элементларга эришади.

6. Логопедик машғулотларда турли хил методлар қўлланилади: амалий, кўргазмали ва оғзаки. Уларни танлаш ва қўллаш хусусиятлари нутқий ва қўшимча нуқсонлар, логопедик таъсир мазмуни, мақсади, вазифалари иш босқичи, боланинг индивидуал –психологик хусусиятларига боғлиқ равишда белгиланади.

7. Бу тоифа болаларни ўзига хос хусуиятларига боғлиқ равишда ўқув жараёни ташкил этишни муҳим шартларидан бири логопедик машғулотларни дидактик материаллар билан ёритиш ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ayupova, M. Yu. “Speech Therapy Publishing House of the National Society of Philosophers of Uzbekistan.” (2007).
2. Ayupova, M. Y. “Logopediya. Ozbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus talim vazirligi.” *T.:* Ozbekiton faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti (2019).
3. Ayupova, Mukarram Y. “Characteristics of general and small motor functions in children with dysartrian speech deficiency.” current research journal of pedagogics 3.02 (2022): 13-21.
4. Ayupova, Mukarram. “On the basis of games for children with speech deficiency literacy teaching.”Academicia: an international multidisciplinary research journal 11.2 (2021): 1496-1501.
5. Хрестоматия по логопедии. 1 том. М.:, “Педагогика”, 1997 г.
6. Хрестоматия по логопедии. 2 том. М.:, “Педагогика”, 1997 г.

Nazarova Dildora Asatovna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Oriental universiteti

TA’LIM KLASTERI – ALOHIDA E’TIBORGA MUHTOJ BO‘LGAN BOLALAR TA’LIM TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI

Annotatsiya

Maqolada rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun tashkil etilgan maxsus va inklyuziv ta’limini xorijiy tajribalar asosida, hududiy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda ta’lim klasteriga birlashtirishning muhim jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom va rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar, ta’lim transformatsiyasi, huquqiy me’yorlar, ta’lim makoni, iyerarxik tuzilma, klaster, ta’lim klasteri subyektlari.

Аннотация

В статье освещены важные аспекты интеграции специального и инклюзивного образования детей с проблемами развития в образовательный кластер на основе зарубежного опыта и с учетом региональных условий.

Ключевые слова: здоровые и дети с проблемами в развитии, трансформация образования, правовые нормы, образовательное пространство, иерархическая структура, кластер, субъекты образовательного кластера.

Annotation

The article highlights important aspects of the integration of special and inclusive education of children with developmental problems into an educational cluster based on foreign experience and taking into account regional conditions.

Key words: healthy and children with developmental problems, transformation of education, legal norms, educational space, hierarchical structure, cluster, subjects of the educational cluster.

Jahonning inklyuziv ta’limi amaliyotida sog‘lom va rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun to‘siqsiz rivojlanish muhitini yaratishga hamda bu jarayonga moslashuvchan ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalarni manzilli joriy etishga muhim vazifa sifatida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, ta’lim subyektlarining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan korreksion-kompensator yondashuvlarni hududiy imkoniyatlar va ta’lim siyosati mohiyatidan kelib chiqqan holda transformatsiya qilishga urg‘u berilmoqda. Mamlakatimizda rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun tashkil etilgan maxsus va inklyuziv ta’limni xorijiy yetakchi tajribalar asosida, milliy xususiyatlar inobatga olingan holda tashkil etishning huquqiy-me’yorlari takomillashtirilgan.

Xususan, ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi muhim vazifalar belgilandi [2]. Bu vazifa kompleks yondashuvlarni va ta’lim klasteri subyektlarining manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Tadqiqotchilar ta’lim makonini tarkibining mavjudligi, moslashuvchan yoki qat’iy tuzilishi, darajasi, shuningdek, tashkil etilishi kabi qator xususiyatlar bilan tavsiflaydilar. Uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudlik darajasi, predmetlarning ko‘pligi, ko‘p darajali o‘zgaruvchan ekanligida namoyon bo‘ladi.

Inklyuziv ta’lim makonini modellashtirishda pedagogik jamoalar, shuningdek, faoliyat subyektlari bo‘lgan o‘quvchilar va ota-onalar maqsadli tizimli faoliyatini

psixologik qo‘llab-quvvatlash va ko‘p qirrali rivojlantirish, farzandlarining ta’lim makoniga ijtimoiy-pedagogik moslashishini inobatga olish muhim sanaladi. Shuningdek, ta’lim makonini modellashtirishda biz bir-biriga moslashuvchan, o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘p darajali ta’lim muassasalarini o‘z ichiga oluvchi iyerarxik tuzilma bo‘lgan inklyuziv ta’lim vertikalini tanlashimiz muhim.

Ta’lim muassasalarini ilmiy va o‘quv klasteriga birlashtirish va muvofiqlashtirish maxsus ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ilmiy va o‘quv klasterini aniqlashda eng muhim mezon uning barcha tarkibiy qismlari uchun yagona umumiy maqsadning mavjudligi bo‘lib, u amalda birlashgan ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy-ma’rifiy loyihalarda ifodalanishi mumkin bo‘lib, bu davrda ishtirokchilarda ijobiy fazilatlar, xususan, o‘quvchilarning har birlari uchun va xuddi shuningdek, klasterga kiritilgan tashkilotlarning yangi hayotiy, ijtimoiy vakolatlari shakllanadi.

Klaster doirasidagi hamkorlik ijtimoiy axloqiy me’yorlarga muvofiq, ixtiyoriy ravishda, o‘zaro manfaatlarni hurmat qilish, imkoniyatlarni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.

Mazkur yondashuv asosida ta’lim tizimini rivojlantirish orqali subyektlar sherikchilikni kuchaytirib, bir-biriga o‘zaro ta’sir qilgani holda, alohida unsurlar, shuningdek, klasterning afzalliklarini ham kuchaytiradi.

Klaster yondashuvi boshqa yondashuvlarga nisbatan inkor etib bo‘lmaydigan afzalliklarni beradi va yangi ta’lim siyosatini amalga oshirishning muhim strategik mexanizmiga aylanadi.

M.P.Voynarenko klasterning iqtisodiyotning yuqorilashuviga olib keluvchi muhim yo‘l ekanligini asoslash bilan birga uning muvaffaqiyatini ta’minlovchi: yangilikni tadbiq etish, ma’lumotga tayanish, uyg‘unlashish, umumiy manfaatlarning mavjud bo‘lishi, ishtirokchilarning tashabbuskorligi omillaridan iborat “5I” (rus tilidagi so‘zlar abreviaturasi) konsepsiyasini ilgari suradi [8].

O.Y.Muller va F.D.Rasskazov ta’lim makonini tarkibining mavjudligi, moslashuvchan yoki qat’iy tuzilishi, darajasi, shuningdek, tashkil etilishi kabi qator xususiyatlar bilan tavsiflaydilar. Uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudlik darajasi, predmetlarning ko‘pligi, ko‘p darajali o‘zgaruvchan ekanligida namoyon bo‘ladi. Ilmiy va o‘quv klasterini aniqlashda eng muhim mezon uning barcha tarkibiy qismlari uchun yagona umumiy maqsadning mavjudligi bo‘lib, u amalda birlashgan ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy-ma’rifiy loyihalarda ifodalanishi mumkin bo‘lib, bu davrda ishtirokchilarda ijobiy fazilatlar, xususan, o‘quvchilarning har birlari uchun va xuddi shuningdek, klasterga kiritilgan tashkilotlarning yangi hayotiy, ijtimoiy vakolatlari shakllanadi [10].

Inklyuziya jarayoniga ta’lim tizimini tayyorlashda eng muhim bosqich jarayon ishtirokchilarining tushuncha va qadriyatlarini o‘zgartirish sanaladi. A.V.Zaharova va M.S.Staroverova fikrlaricha, belgilangan me’yorlarni o‘zgartirish davrida ta’lim muassasalarida pedagog va ota-onalar o‘rtasida inklyuzivlikning ahamiyati to‘g‘risida tortishuvlar davom etib borishi sababli inklyuziv jarayon yetakchisi yoki rahbari tomonidan inklyuziya mafkurasini qabul qilish hamda bu borada real harakatlar tadbirlarini amalga oshirish muhim [9].

T.But va M.Eynskou inklyuziv ta’limning samarali joriylanishi va muvaffaqiyatiga muassasada o‘rnatilgan inklyuziv madaniyat asos bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydilar. Ularning fikriga ko‘ra maktab inklyuzivligini baholashda jamoaning inklyuziv qadriyatlari (turfalik va hamkorlikka ijobiy munosabat, yuzaga keluvchi to‘siqlar, jarayonga halal beruvchi xurofot (stereotip)larni yengish) bilan bir qatorda inklyuziv jamoaning mavjudligini inobatga olish kerak [7].

Shu bois inklyuziv ta’limni joriy qilish avvalida muassasa jamoasi, ta’lim ishtirokchilari tomonidan bu masalaga turli munosabatlarning yuzaga kelishi, bu boradagi muammolarni bartaraf etish borasida ham fikr yuritish lozim.

Inklyuziv ta’limni joriy qilishda ishtirokchilar o‘rtasida, jamoada inklyuziv madaniyatni shakllantirish maqsadida mavzuga doir masalalar muhokama qilib borilishi, uni shakllantirishni nazarda tutuvchi tadbirlar amalga oshirib borilishi lozim [3].

Inklyuziv madaniyatni shakllantirish deganda, har bir bolaga nisbatan do‘stona, teng munosabat o‘rnatilgan muhitni barpo etishni tushunish lozim. Bunday muhitda inklyuziya mafkurasi ta’lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan birdek qabul qilinadi. O‘qituvchilar jamoasi o‘quv-tarbiya jarayonida yuzaga keluvchi to‘siqlarni bartaraf etishda faol ishtirok etishlari orqali o‘quvchilarning maktab hayotining barcha jabhasida to‘liq ishtiroki ta’minlanadi.

Inklyuziv madaniyatning rivojlanishi inklyuziv siyosat (barcha jarayonda turli toifaga mansub bolalarni ta’limga olib kirishning qo‘llab-quvvatlanishi, huquqlarning tan olinishi) hamda inklyuziv amaliyot va texnologiyalar (o‘quv jarayonida har bir bolaning imkoniyatlariga mos uslub va yondashuvlardan foydalanish) samarasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [15].

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, umumiy inklyuziv qadriyatlar va hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish boshqa jihatlardagi o‘zgarishlarga olib kelishi muqarrar.

“Inklyuziv madaniyat” tushunchasining talqinini bir necha yo‘nalishlarda ko‘rish muhim:

inklyuziya jarayoni ishtirokchilari tomonidan o‘zaro qabul qilingan va taqsimlangan qadriyat, tushuncha va bilimlardan iborat alohida ta’limot (falsafa);

inklyuziya jarayonining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi inklyuziv qadriyatlarni ta’minlashga yo‘naltirilgan umumiy madaniyatning qismi;

ta’lim ishtirokchilarining har birini jiddiy stress, psixologik talofatlardan asraydigan, subyektlarning o‘zaro aloqadorlikdagi faoliyatlarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘ziga xos ishonch mikroiqlimi;

subyektlar, jarayon ishtirokchilarini qo‘llab-quvvatlash, ular o‘rtasida o‘zaro qarama-qarshiliklar yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan shart-sharoitlar.

Inklyuziv madaniyatni shakllantirishda muassasa rahbari va uning atrofida jipslashgan jamoa, shuningdek, ota-onalar va hamkorlar bilan o‘rnatilgan sherikchilik munosabatlari, yaratilgan to‘siqsiz muhit muhim o‘rin egallaydi.

O‘qituvchilarning inklyuziv ta’limda ishlashga kasbiy tayyorgarligi masalasini o‘rganar ekan, inklyuziv ta’limni amalga oshirish g‘oyalariga zid bo‘lgan me’yor va qadriyatlarni, ya’ni ularning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi jarayoniga munosabati va tibbiy modelga asoslangan yondashuv (stereotip)larini o‘zgartirish muhim deb hisoblaydi [7].

A.De Boer, S.J.Pijl, A.Minnaert olib borgan tadqiqotlarida diqqatlarini inklyuziv ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan o‘zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishishlarida ahamiyatli sanalgan mazkur ta’lim turiga munosabatlarini o‘rganishga qaratadilar. Olimlar aksariyat o‘qituvchilarning yetarli darajada hayrihoh emasligini aniqlab, ish avvalida samaradorlikka ta’sir etuvchi o‘zaro hamkorlik, qayta tayyorlash kurslari va mazkur toifa bolalarini o‘qitish amaliy ish tajribasi bilan tanishtirish zaruratini asoslaydilar [12].

E.A.Gafari alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitishda umumta’lim maktabi o‘qituvchisi rolining muhimligini ta’kidlab, inklyuziv ta’limni amalga oshirish uchun ijobiy motivatsiya bo‘lishi muhimligi, ularning e’tiqodi, inklyuziv ta’lim falsafasidan chuqur tushunchaga ega bo‘lishi, madaniyatining shakllanganligi inklyuziv ta’limni amalga oshirishda barcha tadbirlar muvaffaqiyatining muhim sharti hisoblanishini alohida ta’kidlaydi. Tadqiqotchi o‘qituvchilar tomonidan maxsus ta’limiy ehtiyojlarga ega bo‘lgano‘quvchilarning huquqlari tan olingan va ularga nisbatan mehr-muhabbatli munosabat ko‘rsatilgandagina, sinfda munosib o‘rin topa olishlarini ko‘rsatib o‘tadi [10].

Ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili, horijiy tajribalar bilan yaqindan tanishishimiz asosida biz inklyuziv ta’lim jamiyatni insonparvarlashtirish, inklyuziv jamiyatga o‘tishda ko‘prik vazifasini o‘taydigan jarayon ekanligi, uni rivojlantirish ta’lim tizimini rejali tarzda sifatli o‘zgartirishni nazarda tutishini yana bir bor ta’kidlaymiz. Inklyuziv ta’lim muvaffaqiyati faqatgina muvaffaqiyatli o‘qitishdan iborat bo‘lmay, balki subyektlarining madaniyati, ularning o‘zaro hamkorlikdagi munosabatlarining darajasi, yakdil harakatining mahsuli ekanligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining farmoni 1-ilova. PF-158-сон 11.09.2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2021 йил 12 октябрдаги 638-сон “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori. httrs://lex.uz/doss/5013007
3. Nazarova D.A. Inklyuziv madaniyatini shakllantirishda ta’lim klasteri sub’yektlarining o‘rni. //Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference.
4. Айсмонтас Б.Б., Одинцова М.А. Инклюзивная образовательная среда вуза как ресурс для развития жизнестойкости и самоактивации студентов с инвалидностью. // Психологическая наука и образование. 2018. Т. 23. № 2. С. 29-41.
5. Баева И.А. Психологическая безопасность в образовании: Монография.-СПб.: Издательство “СОЮЗ”, 2002. -271 с.
6. Буковцова, Н. И. Инклюзивное образование детей с ограниченными возможностями здоровья: проблемы и перспективы // М.: МГППУ, 2011.-286 с.
7. Бут Т., Эйнскоу М. Показатели инклюзии: практич. пособие. М.: Перспектива, 2007. 124 с.
8. Войнаренко М.П. Кластеры в институциональной экономике: монография. Экономическое возрождение России. // АНО “Институт проблем экономического возрождения” // Санкт-Петербург: АНО ИПЭВ, 2013. FB 1 14-9/234
9. Захарова А.В., Староверова М.С. Технологии повышения профессиональной компетентности педагогических кадров в условиях инклюзивной образовательной организации [Электронный ресурс] // Психологическая наука и образование psyedu.ru. 2016. Том 8. № 3. С. 153–165.
10. Муллер О.Ю., Рассказов Ф.Д. Научно-образовательная кластерная модель как единая система непрерывного инклюзивного пространства. Современные проблемы науки и образования. 2016. № 5
11. David Mitchell “What Really Works in Special and Inclusive Education” First published 2008 by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN2008 David Mitchell
12. De Boer A., Pijl S.J., Minnaert A. Regular primary schoolteachers’ attitudes towards inclusive education: a review of the literature. // International Journal of Inclusive Education. - 2011. - Vol. 15, Iss. 3. - P. 331 – 353.

13.McMaster C. Inclusion in New Zealand: The potential and possibilities of sustainable inclusive change through utilising a framework for whole school development // New Zealand Journal of Educational Studies. 2015.
14. Nazarova Dildora Asatovna. (2022). Modern approaches in the process of training educators for a special and inclusive education system. European Scholar. 3(10), 91-92. Retrieved from. https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/2798
15. Nazarova Dildora Asatovna. Bringing children with hearing problems into inclusive education in the context of an educational cluster.
ISSN 2277-3630 (online), Published by International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 11 Issue: 11 in November-2022
https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR.116-123.
16. Nazarova D.A Aspects of achieving effective performance of heads of educational institutions in the context of inclusive education// Педагогика и современное образование: традиции, опыт и инновации. Сборник статей XYI международной научно-практической конференции. Пенза, 2021. Стр.10-12.

Д.А.Нуркельдиева
к.п.н.,проф.
ТГПУ имени Низами

К ВОПРОСУ ВНЕДРЕНИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Статья посвящена инклюзивному образованию в Узбекистане как переходу всей системы на новый уровень. Освещен процесс внедрения и достижения в процессе внедрения инклюзивного образвания, описан ряд законодательных документов, которые регламентируют процесс инклюзивного образования в Республике.

Ключевые слова: инклюзия, инклюзивное образование, дети с особыми образовательными потребностями, учебные программы.

Abstract

The article is devoted to inclusive education in Uzbekistan as a transition of the entire system to a new level. The process of development and achievements in the development of inclusive education are covered, a number of legislative documents that regulate the process of inclusive education in the Republic are described.

Key words: inclusion, inclusive education, children with special educational needs, curriculum.

Инклюзивное образование сегодня является основной сферой для реализации права на образование. Эта программа, которая отвергает любую дискриминацию, обеспечивая равные отношение ко всем людям. Концепция инклюзии одна -равные возможности для всех детей.

В сфере образования все чаще звучат речи в поддержку инклюзивного образования. Инклюзия – это принадлежность к сообществу. Инклюзивным (включающим) образованием сейчас называют возможность детей с ограниченными возможностями учиться вместе с обычными детьми – в школе, детском саду, вузе. Проблема социальной адаптации и интеграции детей с особыми потребностями в общество является одним из приоритетных направлений социальной политики Узбекистана. Узбекистан одним из первых из стран СНГ обратил особое внимание к проблеме инвалидности; первым принял закон о социальной защищённости инвалидов, первым принял документ о проектировании среды жизнедеятельности с учётом потребностей инвалидов. Также, первым разработал Государственную программу по реабилитации инвалидов. Эта работа продолжается и в настоящее время. Знаменательным событием этого года явилось принятие Закона Республики Узбекистан “О гарантиях прав ребенка”, в котором раскрыты в полной мере наряду с другими основными понятиями (статья 3), такие как: ребенок-сирота; ребенок с недостатками физического и (или) психического развития; ребенок-инвалид; ребенок, оставшийся без попечения родителей; социально уязвимые дети. Раскрытие этих понятий позволит обеспечить дифференцированно качественный подход к решению медико-психолого-педагогических и социальных проблем данных категорий детей. Специальной главой в Законе определены “Дополнительные гарантии прав социально уязвимых детей” (глава 3), в которой определены гарантии прав на: семейное окружение, интеграцию в общество, жилищных прав, на социальную помощь, образование, гарантии права детей-инвалидов, детей с недостатками физического и (или) психического развития на медико-социальную помощь.

Инклюзивное образование в Узбекистане претерпевает значительные изменения, отражая стремление обеспечить доступ к образованию для всех детей, включая тех, у кого есть особенности в развитии. В последние годы правительство препринимает шаги для создания более инклюзивное образовательной системы, внедряет политику инклюзивного образования,

чтобы обеспечить, что каждый ребенок получить качественное образование, соответствующее его потребностям. Этот подход включает в себя создание условий для обучения детей с различными специальными образовательными потребностями в общеобразовательных школах.

Узбекистан движется на пути развития “инклюзивного образования” в системе дошкольного и школьного образования. Инклюзивное образование — это такой процесс обучения, при котором все дети включены в общую систему образования. Тут важно выделить именно “все дети”, то есть, независимо от их физических, психических, интеллектуальных, культурно-этнических, языковых и иных особенностей.

Инклюзивное обучение нацелено на предоставление качественного образования всем людям, независимо от их способностей и положения. Принцип инклюзивности также предполагает, что дети с ограниченными возможностями должны жить в семьях и учиться с ровесниками в обычной школе для того, чтобы получить положительное эмоциональное и социальное развитие.

В нашей стране практика инклюзивного образования корнями уходит в глубь веков. Например, из истории мы знаем, что великий ученый средневековья аль-Бухари имел ослабленное зрение, что тем не менее, не помешало ему получить образование в медресе.

В частности, в целях создания правовой базы для внедрения инклюзивного образования исходя из требований сегодняшнего дня впервые в новую редакцию Закона Республики Узбекистан “Об образовании” принятый 23 сентября 2020 года, впервые введено понятие “инклюзивное образование”. Законодательно признано, что инвалидность теперь является не медицинским вопросом, а, в первую очередь, вопросом прав человека.

Постановлением Президента Республики Узбекистан утверждены Концепция развития инклюзивного образования в системе народного образования на 2020-2025 годы и Дорожная карта по реализации Концепции развития инклюзивного образования в системе народного образования на 2020-2025 годы.

В республике сокращается количество специализированных школ-интернатов, специализированных школ для детей с ограниченнаыми возможностями здоровья. При этом родители имеют выбор при определении ребенка в образовательное учреждение.

Например, если в 2020-2021 учебном году 31 общеобразовательных школ во всех регионах Узбекистана открыли двери для детей с

инвалидностью, то в 2023-2024 году в 407 общеобразовательных школах открылись инклюзивные классы.

К 2025 году в Узбекистане поставлена цель достичь инклюзивности минимум 51% школ. Более того, создание безопасной, защищенной и инклюзивной среды обучения для детей входит в приоритеты развития республики. Эта задача реализуется в рамках Концепции развития инклюзивного образования на 2020-2025 годы.

Согласно Концепции развития инклюзивного образования в к 2025 году доля детей с инвалидностью, обучающихся в общеобразовательных средних школах, должна вырасти с 16,5 до 40%; доля детей с инвалидностью, обучающихся в специализированных образовательных учреждениях, к 2025 году должна быть снижена с 26,8% до 16%, также к 2025 году количество детей, обучающихся на дому должно быть снижено с 16,8% до 11%.

Это означает, что дети имеют одинаковый доступ к образованию по месту жительства. Школы общего типа учитывают особые образовательные потребности, оказывают ученикам необходимую специальную поддержку. Наконец, все дети могут учиться наравне со сверстниками, развиваться, социализироваться и учить друг другу толерантности.

Особенность инклюзивного образования в том, что оно ориентировано на ребенка, а не на учебную программу. Для этого применяется педагогика, которая отвечает потребностям каждого ребенка, включая детей с инвалидностью, и тех, кто нуждается в дополнительной поддержке. Важно стимулирование специалистов на продолжение работы и привлечение новых педагогов. Так, учителям классов инклюзивного образования ежемесячно выплачивается надбавка за особые условия труда. На одного ребенка с особыми образовательными потребностями в классе — 10% от должностного оклада.

Страна продолжает улучшать свои методы и подходы к обеспечению доступа к образованию всех. Ключевыми направлениями развития являются усиление профессиональной подготовки педагогов и расширение ресурсов для инклюзивных программ.

В Узбекистане подготовка кадров для инклюзивного образования играет ключевую роль в создании более доступной и равноправной образовательной среды. Процесс этой подготовки включает в себя несколько важных этапов.

В первую очередь , учебные заведения и педагогические университеты, институты в Узбекистане стремятся внедрить программы и курсы для будущих педагогов, адаптированные к потребностям детей с различными

особенностями развития. Эти курсы охватывают методы инклюзивного обучения, работу с разнообразными образорвательными потребностямии применение технологий в инклюзивном образовании.

Также важно обеспечивать постоянное профессиональное развитие педагогов, уже работающих в системе образования. Проведение семинаров, мастер-классов и конференций по вопросам инклюзивного образования помогает повышению квалификации и обмену опытом между преподавателями.

Сотрудничество с родителями детей с особенностями развития также является неотъемлемой частью подготовки кадров. Вовлечение родителей в процесс обучения позволяет лучше понимать индивидуальные потребности детей и совместно работать над их успешной адаптацией в образовательной среде.

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами в качестве ведущего педагогического высшего образовательного учреждения республики обеспечивает 14 высших образовательных учреждений, готовящих педагогические кадры, квалификационными требованиями, учебными планами и программами.

С 2022/2023 учебного года в Ташкентском государственном педагогическом университете имени Низами на основе потребностей и предложений основных потребителей кадров в учебные планы всех направлений образования сферы образования Педагогика была включена учебная дисциплина “Инклюзивное образование. Госпитальная педагогика”. Университет обеспечивает преподавание “Инклюзивное образование. Госпитальная педагогика” в профильных высших образовательных учреждениях, также обеспечивает их учебно-нормативной документацией, учебной литературой. С 2023/2024 учебного года данную учебную дисциплину будут изучают более 3500 студентов.

К разработке учебного плана и программ по учебной дисциплине были привлечены отечественные и зарубежные специалисты, создается ряд учебной литературы и научных работ по “Инклюзивному образованию. Госпитальной педагогике”.

Основной целью программы является формирование компетенций будущих учителей в области обучения и воспитания детей с особыми образовательными потребностями в среде инклюзивного образования, создания полноценной образовательной среды для детей, находящихся длительное время на лечении в медицинских учреждениях.

Мы считаем, что будущие педагоги, получив знания по инклюзивному образованию, повысив свой профессиональный уровень и социальную компетентность, внесут изменения в работу образовательных учреждений.

В целом, решение проблем подготовки будущих педагогов к работе с детьми с особыми образовательными потребностями позволит интенсивно вводить инклюзивное обучение в республике, повысить уровень профессиональной компетентности выпускников, удовлетворит запросы всех потребителей образовательных услуг: детей, родителей, студентов, педагогов и специалистов.

Несмотря на положительные изменения, существуют проблемы, такие как нехватка квалифицированных специалистов и ограниченные ресурсы для поддержки детей с особыми потребностями. Однако стремление к развитию инклюзивного образования продолжает решать эти проблемы.

Также, для успешной подготовки педагогических кадров инклюзивного образования нам необходимо:

1. Организовать целевую подготовку кадров по специальности магистратуры “Инклюзивное образование. Госпитальная педагогика” в Ташкентском государственном педагогическом университете имени Низами (для преподавания данной учебной дисциплины бакалаврам).
2. Привлечь международных доноров к реализации научно-теоретических и научно-практических проектов по “Инклюзивному образованию. Госпитальной педагогике”.
3. Организовать прохождение стажировки и повышения квалификации профессоров-преподавателей и студентов ТГПУ имени Низами в ведущих зарубежных научно-исследовательских и образовательных учреждениях.
4. Организовать “Симуляционный центр”, лабораторию “Междисциплинарных исследований в области госпитальной педагогики” в целях проведения практических и лабораторных занятий по “Инклюзивному образованию. Госпитальной педагогике” на уровне международных стандартов.
5. Организовать научные конференции, мастер-классы, вебинары для профессоров-преподавателей и студентов с привлечением ведущих зарубежных специалистов.

В заключение хотелось бы еще раз подчеркнуть, что все дети, несмотря на свои физические, интеллектуальные, этнические, социальные и иные особенности, должны быть включены в общую систему образования, воспитываться вместе со своими сверстниками. Инклюзивное образование решает вопросы образования и воспитания детей с ВОЗ как равноправных

членов общества. Введение инклюзивного образования в практику общеобразовательной школы сопряженно с определенными трудностями, требует серьезного осмысления и решения возникающих в связи с этим задач, в том числе организации соответствующей подготовки педагогов, которым предстоит работать в условиях инклюзии.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Закон Республики Узбекистан “Об образовании” № ЗРУ-637 от 23.09.2020 г. [Электрон. ресурс]. https://lex.uz/ru/docs/5013009.
2. Закон Республики Узбекистан О правах лиц с инвалидностью от 15.10.2020 г. №ЗРУ-641. https://lex.uz/ru/docs/5049549
3. Постановлении Президента от 13.10.2020 г. № ПП-4860 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания детей с особыми образовательными потребностями”. https://lex.uz/docs/5044745
4. Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года https://lex.uz/ru/docs/4545887.
5. Исмаилов Б. Социально-правовые модели инклюзивного образования и их применение в образовательной системе Узбекистана / Б. Исмаилов // Общество и инноватsii. – 2021. – Т. 2. №12. – С. 55–63.
6. Махмутходжаева Л.С. Вопросы совершенствования системы инклюзивного образования в Узбекистане / Л.С. Махмутходжаева // Открытое образование. – 2022. – Т. 26. №2. – С. 52–68.
7. Мелиева Ш.М. Инклюзивное образование в Узбекистане / Ш.М. Мелиева // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2013. – №2. – С. 32–33.
8. Муминова Л.Р. Опыт республики Узбекистан в переходе на инклюзивное образование / Л.Р. Муминова, З.Ф. Узакова // Инклюзия в образовании. – 2019. – Т. 4. №2. – С. 15–24.
9. Плиева Р.В. Внедрение и интегратsiя новых технологий инклюзивного образования в систему дошкольного и начального образования Республики Узбекистан / Р.В. Плиева, Н.А. Тургунова // Молодой ученый. – 2020. – №12. – С. 292–295.
10. Инклюзивное образование в Узбекистане набирает новые обороты. https://nuz.uz/ obschestvo/16523-mklyuzivnoe-obrazovashe-v-uzbekistane-nabiraet-novye-oboroty.html.

11. Кобрина Л.М. Отечественная система специального образования -фундамент инклюзивного обучения и воспитания // Дефектология. - 2012. - № 3. - С. 14-12. .,

12. Муминова Л.Р., Нуркельдиева Д.А. Инклюзия: образование, ориентирванное на результат// “Бола ва замон”, 2019 г. № 1, 15-19 стр.

Bozorov Otabek Yo‘lchi o‘g‘li
p.f.b.f.d.(PhD), dotsent v.b.
Nizomiy nomidagi Nizomiy nomidagi
TDPU logopediya kafedrasi
+998998640968

ILK VA ERTA YOSHDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarda me’yoriy nutqni o‘zlashtirish omillari, zaruriy muhit va nutqni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: nutqni rivojlanishi, gugulash, omillar, ijtimoiy, biologik.

Аннотация

В данной статье даны рекомендации по факторам овладения нормативной речью, необходимой обстановке и речевому развитию у детей младшего и дошкольного возраста.

Ключевые слова: речевое развитие, заикание, факторы, социальные, биологические.

Annotation

This article provides recommendations on the factors of mastering normative speech, the necessary environment and speech development in children of primary and preschool age.

Key words: speech development, stuttering, factors, social, biological.

Eng murakkab fiziologik va aqliy jarayonlardan biri bu nutq ko‘nikmalarini o‘zlashtirishdir. Yangi tug‘ilgan chaqaloq nutqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lmaydi, u rivojlanishining ma’lum bir davrida atrofdagi odamlar nutqini tinglash va taqlid qilish orqali til me’yorlari va qoidalarini o‘zlashtiradi[1]. Nutqni rivojlanishi nafaqat so‘zlarni talaffuz qilishda, balki ularning ma’nosini tushunishda, nutq apparati yordamida o‘z his-tuyg‘ularini, fikrlari va istaklarini ifoda etishda ham

yotadi. Bolada nutqning rivojlanishiga uning sog‘lig‘i, atrof-muhit, oilada yoki ta’lim muassasasida tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari ta’sir qiladi.

Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o‘yin, mehnat, o‘quv, sport va b.) va muloqotga kiradi (ota-ona, tengdoshlar, begona kishilar va b. bilan). Bunda u o‘ziga xos faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi.

Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, yetakchisi bo‘ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi.

Bola tug‘ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o‘zlashtirib olishi mumkin. Bu o‘z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bilish va o‘zlashtirishda etakchi vazifani bajaradi.

Bola nutqini me’yorida rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar:

Biologik: irsiyat; markaziy asab tizimining to‘g‘ri tuzilishi va ishlashi; miyadagi nutq markazlari; eshitish va nutq organlari; sog‘lom homiladorlik va muvaffaqiyatli tug‘ilish; tug‘ilgandan keyin sog‘lom jismoniy va aqliy rivojlanish;

Ijtimoiy: bola hayotining birinchi kunlaridan boshlab to‘liq nutqiy muhit, qulay rivojlanish muhiti.

Insondagi biologik va ijtimoiy omillar – bu bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ikki parallel chiziqlar emas. Har bir shaxsda ular shunday chambarchas qo‘shilib ketadiki, ularning farqlari shunday turli-tumanki, tadqiqotchilar bola rivojlanishi asosida ikki o‘ta muhim bo‘lgan omilni irsiyat va muhitni ajratadi. Ular (irsiyat va muhit) inson rivojlanishi manbalari va shartlari hisoblanadi[3].

Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan ajratadigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat deganda bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan hislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga o‘tishi tushuniladi. **Irsiyatga ko‘ra bolaga** ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va his-tuyg‘u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch, teri rangi o‘tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo‘yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o‘tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror-bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko‘zda tutadi. Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo‘la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo‘lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog‘liq.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o‘zlashtiradi. Agar bola tug‘ilgandan keyin asosan oilada

rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi muhitlar-maktabgacha ta’lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko‘ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh ulg‘aygan sari ijtimoiy muhit “hududi” kengayib boradi. Bola qanchalik ko‘p muhitlarni o‘zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o‘zi uchun qulay bo‘lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko‘chib yuradi. Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba to‘plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

Bolaning nutqini qanday shakllantirish kerak?

- bolaning gugulashi va guvillashiga javob bering, uning tovushlariga taqlid qiling, ularni takrorlang;
- unga g‘amxo‘rlik qilayotganda chaqaloq bilan gaplashing: kiyintirish, ovqatlantirish, cho‘milish. U bilan kun bo‘yi gaplashing;
- har kuni yorqin rangli kitoblarni o‘qing;
- qisqa ritmik qofiyalarni, “bolalarcha” bog‘inlarini takrorlang;
- farzandingizga yaqinlaringizning ismlarini va uning atrofidagi barcha narsalarning nomlarini o‘rgating;
- bolani o‘zingiz bilan yangi joylarga olib boring, u bilan turli vaziyatlarda bo‘ling;
- bolaning e’tiborini tovush chiqaradigan turli xil narsalarga (hayvonlar, qushlar, transport va boshqalar) qarating;
- bolaning yangi so‘zlarni aytishga urinishlarini rag‘batlantiring;
- chaqaloq bilan qandaydir voqea-hodisa oldidan, vaqtida va undan keyin paydo bo‘ladigan yangi vaziyatlarni “gapiring”;
- u bilan gaplashayotganda chaqaloqqa qarang;
- bolaga eshitgan, ko‘rgan, qilgan va his qilgan narsalarini batafsil hamda rang-barang tasvirlab bering;
- kichkintoyingizga bolalar qo‘shiqlari va ertaklarini qo‘yib bering;
- kichkina suhbatdoshingiz bilan gaplashayotganda, bolalarning talaffuziga taqlid qilmang, nutqingiz aniq, ifodali (lekin shovqinsiz) va sodda ekanligiga ishonch hosil qiling;
- bolani har safar u siz bilan muloqot qilishni boshlaganida maqtang;
- kichkintoy atrofdagi narsalarni ovozli taqlid asosida ko‘rsatmasligiga ishonch hosil qiling. Ota-onalar bir yoshgacha bo‘lgan bola bilan muloqot qilishda “bering”, “ham-ham”, “tu-tu” so‘zlarining soddalashtirilgan shakllaridan foydalanishlari mumkin. Bu unga nutqni rivojlantirish jarayoniga qo‘shilishga

yordam beradi. Keyin soddalashtirilgan so‘zlarni to‘g‘ri nomlar bilan birga olib borish maqsadga muvofiqdir. U poyezdni ko‘rdi: “Tu-tu!”- ona javob beradi: “ha, poyezd ketdi”. Boladan: “bu kim?”- u javob beradi: “voov — voov”, - ona “voov” hayvon “it” deb aytishini tushuntiradi;

- bolaning nutqidagi xatolarni tuzatishga ishonch hosil qiling, buni xushmuomalalik bilan bajaring, aks holda bola sizga bo‘lgan ishonchni yo‘qotishi mumkin;
- bolaning soddalashtirilgan nutqini boyiting: “ko‘proq sharbat” – “Temur ko‘proq apelsin sharbatini xohlaydi”;
- hikoyaviy emas, balki tavsiflovchi aloqa uslubini tanlang (“qarg‘a uchib ketdi” — “qara, qarg‘a o‘sha uyning ustiga uchib ketdi. U qora rangda va baland ovozda qag‘illashi mumkin”);
- bolaning savollaringizga javoblarini tinglang, gapirishga urinishlarini rag‘batlantiring;
- kichkintoyingizga oddiy so‘rovlar orqali ko‘rsatmalarni tinglashni va ularga rioya qilishni o‘rganishga yordam bering, harakatlar ketma-ketligini nomlang (yaxshisi o‘yin tarzda): “xonaga bor va ayiqni olib kel”;
- bolaning nutq qobiliyatini rivojlantirish uchun o‘yin faoliyati juda muhimdir, bu orqali bola atrofdagi haqiqatni bilib oladi. Shuning uchun, chaqaloq bilan o‘ynang!;
- bolani nafaqat o‘yinga, balki barcha oila a’zolari bilan haqiqiy munosabatlarga ham qo‘shing. Bolaga foydali topshiriqlar berganingizga ishonch hosil qiling. U orqali boshqa kattalarga so‘rovlarni yuboring.
- har kuni kitob o‘qib bering; o‘qish kechki uyquning bir qismi bo‘lishi kerak;
- bola siz bilan gaplashganda har doim diqqat bilan tinglang;
- kichkintoyingizga nima deb o‘ylayotganingizni, nima rejalashtirayotganingizni, nima qilayotganingizni, qanday fikr yuritayotganingizni tushuntiring;
- farzandingizga savollar bering, uni o‘ylashga undang, javob berishga undang;
- kichkintoyingiz bilan kunni bolalar bog‘chasida qanday o‘tkazganini, birgalikda yurishingiz qanday o‘tganini muhokama qiling. Farzandingiz bilan o‘ynaganingizdan so‘ng, eng qiziqarli daqiqalarni eslang;
- vizual materialdan foydalaning. Bolalar tasvirdan uzilgan so‘zlarni idrok etishda qiynaladilar;

- farzandingizga uni diqqat bilan tinglayotganingizni ko‘rsating: bosh irg‘ab, tabassum qiling, savollariga javob bering;
- eng muhimi: chaqaloqning barcha harakatlarini qo‘llab-quvvatlang, hatto kichik yutuqlari uchun ham maqtang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Logopediya M.Y. Ayupova O‘zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti, T.:-2007 yil.
2. Цейтлин С. Н. Язык и ребенок: Лингвистика детской речи. – М.: Владос, 2000 г.
3. Гвоздев А. Н. Вопросы изучения детской речи. – СПб.; М.: Детство-Пресс – Сфера,2007.
4. Sharma, P. (1995). Basics of Development and Growth of Child. New Delhi: Reliance Publishing House
5. O‘G, B. O. Y. L. (2020). Ontogenezda morfemalarni o ‘zlashtirish va ulardan o ‘rinli foydalanish imkoniyatlari. Scienceweb academic papers collection.

Sadirova Kamola Giyozovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Surdopedagogika va inklyuziv ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi PhD

INKLYUZIV TA’LIMDA SAMARADORLIKKA ERISHISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Bugungi kunda ta’lim tizimi har bir bolaga teng imkoniyatlarni taklif qilishi bilan zamonaviylashib bormoqda, ammo eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning o‘zaro aloqalarini kuchaytirish o‘z fikrlarini bayon etishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha cheklovlar bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha muammolar ham mavjuddir. Inkluziv ta’lim bu muhim masala bo‘lib, bu tizimda har bir o‘rganuvchining o‘zining potensialini qondirish uchun qat’i nazar, qulaylik va zamonaviylik tizimi yaratishga asoslangan. Pedagoglarning samarali faoliyati ularning chuqur va rang-barang kasbiy bilimlari, bilim berish usullari haqida namunalar keltirilgan. Bu maqolada esa, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilish uchun inkluziv ta’limning asosiy prinsiplarini, undagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini o‘rganish uchun tadqiqot olib boradi.

Kalit so‘zlar: inkluziv ta’lim, nuqsonli bolalar, qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish, qat’i nazar, qulaylik, murojaat tizimi, potentsial, strategiyalar, integrativ ta’lim.

Аннотация

Сегодня система образования становится все более современной, поскольку она предлагает равные возможности для каждого ребенка, однако существует также ряд проблем, связанных с ограничениями на поддержку детей с нарушениями слуха, а также с тем, как укрепление их взаимодействия способствует выражению их мнений. Инклюзивное образование-важный вопрос, основанный на создании системы комфорта и современности, независимо от того, в какой системе каждый учащийся реализует свой потенциал. В этой статье, однако, исследуются основные принципы инклюзивного образования для вовлечения детей с нарушениями слуха в инклюзивное образование, а также проблемы в нем и способы их решения.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, поддержка, развитие, независимо, удобство использования, реферальная система, потенциал, стратегии, интегративное образование.

Annotation

Today, the educational system is becoming more modern with the fact that it offers equal opportunities to each child, but there are also several problems associated with restrictions on supporting children with hearing impairments, as well as strengthening their communication with each other. Inclusive education is an important issue and is based on the creation of a system of convenience and modernity, regardless of whether each learner has the potential to meet their own. In this paper, he conducts research to explore the basic principles of inclusive education, the problems in it, and ways to address them in order to engage children with hearing impairments in inclusive education.

Key words: inclusive education, disadvantaged children, support, development, regardless of convenience, referral system, potential, strategies, integrative education.

Inkluziv ta’limning asosiy ahamiyati va faol amaliyotga ega bo‘lgan hozirgi davrda, o‘sish davridagi har bir shaxsning o‘ziga xos zaruratlari va ehtiyojlarini qondirish uchun muhimdir. Inkluziv ta’limning tashkil etilishi uchun to‘g‘ri bosqichlangan strategiyalar va qo‘llanishlar, har bir shaxsni o‘zining potensialini ta’minlash uchun kerakli platforma bo‘lib, bu esa o‘rganuvchilar uchun imkoniyatlarni oshirish, ularning shaxsiy rivojlanishlarini ta’minlash va

ularning jamiyatga moslanishlarini ta’minlashni maqsad qiladi. Bunday integrativ ta’lim tizimi, o‘z faoliyatlarida ta’lim olish imkoniyatlariga ega bo‘lgan va o‘z fikr-mulohazalarini ifodalashga qodir bolgan barcha o‘rganuvchilar uchun o‘ziga xos qulayliklar yaratadi. Inkluziv ta’limning amaliy muammolari va ularni hal qilish yo‘llari, o‘rganish tizimlarini rivojlantirish, o‘rganish jarayonini yaxshilash va o‘zlashtirish imkonlarini oshirishga qaratilgan.

Alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarning ta’lim olish jarayonini isloh qilib borish, rivojlanish darajasidan qat’i nazar, har bir davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb masaladir. Alohida yordamga muhtoj bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy hayotda munosib tarzda o‘z o‘rnini topishi, shuningdek, ushbu jarayonda bevosita ishtirok etishi uchun ta’limni to‘laqonli o‘zlashtirishi hamda uning zamirida muayyan kasb-hunarni egallay olish lozim. Oddiy sharoitlarda, umumiy ta’lim tizimida kamol topgan tibbiy jihatdan “nogironligi bo‘lganlik” mavqeyiga ega o‘quvchilar olgan ta’limining darajasi ularning ijtimoiy reabilitatsiyasi, moslashuvi hamda jamiyat hayotiga samarali uyg‘unlashuvining muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday umumiy tarzdagi tizim sharoitida bilimlarni egallagan, ijtimoiy hayotda yashash uchun zaruriy sanalgan ko‘nikmalar va kasb-hunarni egallagan har qanday nogironligi bo‘lgan shaxs o‘zgarishlar jarayoniga tez va qulay moslashib, shaxsiy va oilasining hayotini farovonlashtirishi orqali mamlakat turmush darajasining yuqorilashuvini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim amaliyotida samaradorlikka erishish yo‘l va omillari quyidagilardan iborat: Inklyuziv ta’lim tashkil etilgan barcha umumta’lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga nisbatdan do‘stona munosabat shakllanadi.

Inklyuziv ta’limni amalga oshirayotgan umumta’lim maktablarida davlat ta’lim standartlariga ilova sifatida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar uchun korreksion dasturlar ham inobatga olinadi, maxsus korreksion ishlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi (maxsus jihozlangan korreksion xonasi, maxsus texnik vositalar).

Inklyuziv ta’limni amalga oshirayotgan umumta’lim maktablarida tayyorlov guruh va birinchi sinflarda 35 daqiqa, yuqori sinflarda 45 daqiqadan darslar olib boriladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslangan holda belgilangan tartibda baholanadi. Ta’lim jarayonida zamonaviy umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda maxsus tamoyillar ham e’tiborga olinadi. Korreksion ta’lim o‘quvchilarning ehtiyojlariga ko‘ra tabaqalashtirilgan holda tashkil etiladi.

Inklyuziv ta’lim amalga oshirayotgan umumta’lim maktabiga o‘quvchilar ota-onalarning arizasi hamda psixologo-pedagogik komissiyalar xulosalari asosida qabul qilinadi va ta’lim muassasalarining rahbarlarining buyruqlari bilan tasdiqlanadi. Inklyuziv ta’lim amalga oshirayotgan umumta’lim maktabdagi sinflarda integratsiya qilingan o‘quvchilar soni 3-4 nafardan oshirilmaydi hamda o‘quvchilarning umumiy soni 25 nafargacha deb belgilanadi

Yuqorida qayd etilgan va amalga oshirilgan ma’lum darajadagi yutuqlar bilan birga ayrim hal etilishi kerak bo‘lgan quyidagi muammolar ham mavjud:

ota-onalar uchun nogironligi bo‘lgan bolalarni o‘qitish tizimi, inklyuziv ta’lim tizimi haqidagi o‘quv qo‘llanmalarning tanqisligi;

maxsus ehtiyojli bolalarni uyda yakka tartibda o‘qitish uchun maxsus mutaxassislarning yetishmasligi, yordamchi texnik vositalar bilan ta’minlash tizimining joylarda talab darajasida yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;

imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim muassasasida o‘qitish uchun huquqiy bazani qayta ko‘rib chiqilmaganligi;

sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi (35–40);

umumta’lim muassasalarning binolari imkoniyati cheklangan bolalarning xususiyatlariga mos ravishda qurilmaganligi;

umumta’lim muassasalarida bolalarni psixologo-tibbiy-pedagogik yordamni olish imkoni yo‘qligi;

umumta’lim muassasalari pedagoglari maxsus metodikalarni bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondira olmasligi;

umumta’lim muassasalarida tiflo, surdotexnik vositalar mavjud emasligi;

umumta’lim pedagoglari, maktab rahbarlarini maxsus ta’lim bo‘yicha qayta tayyorlovdan o‘tmaganligi va umumta’lim maktablarini qo‘shimcha kadrlar (logoped–maxsus pedagog, psixolog–ijtimoiy pedagog) bilan ta’minlanmaganligi integratsiyani amalga oshirish uchun salbiy munosabatni keltirib chiqarmoqda;

nogironligi bo‘lgan bolalar oilasi bilan maktabning uzviy aloqasi yo‘qligi;

nogironligi bo‘lgan bolalarning maktabga kelishi uchun transport bilan ta’minlash masalalari hal etilmaganligi;

chekka qishloqlardagi tashxis markazlarining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;

nogironligi bo‘lganlar aravachalari, qo‘ltiq hassalar, eshituv apparatlari, ko‘zoynaklar, travmatologik poyabzallarning yetishmasligi;

davlat tomonidan kasb-hunarga yo‘naltirish, ish bilan ta’minlash, muammolari to‘laqonli hal qilinmaganligi;

nogironligi bo‘lgan bolalarga qarovchi ota-onalar uchun nafaqaning kamligi;

tevarak-atrof muhitning nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan salbiy munosabati;
nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ishlash mahallalarda yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi va nodavlat-notijorat tashkilotlarning faoliyati yetarli emasligi;
nogironligi bo‘lgan bolalarning ota-onalarida huquqiy bilimning yetarli emasligi va davlat tomonidan belgilangan imtiyozlarni bilmasligi;
ta’lim muassasalari uchun kadrlarning yetarli emasligi;
inshootlarning alohida e’tibor va yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirilmaganligi;
malaka oshirish tizimida umumta’lim pedagoglarini maxsus ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha axborotga ega emasligi, qayta tayyorlash ishlari talab darajasida emasligi va.h.k.

Maktabda va maktabgacha ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalarga korreksion-pedagogik yordam ko‘rsatmasdan, oilalar bilan muloqotda bo‘lib turmasdan, maxsus o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlamasdan ular uchun alohida sharoit yaratmasdan turib integratsiya yoki inklyuziv ta’limni amalga oshirish ijobiy natija bermaydi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni uyg‘unlashuvi, ularni ilk yoshdan aniqlash, tashxis qo‘yish, ta’lim olishi uchun tegishli o‘quv tarbiya muassasalariga yo‘llash, uzluksiz maxsus ta’limning muqobil turlarini rivojlantirish zaruriyati mavjud. Psixik va jismoniy rivojlanishida nuqson bo‘lgan bolalarning ta’lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, umumta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya olayotgan, uy sharoitida o‘qitilayotgan bolalar ta’lim mazmunini ularning imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilash, individual dasturlarni ishlab chiqish, ota-onalar va pedagoglar uchun inklyuziv ta’lim yo‘nalishida o‘quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish ta’limga zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalarni jalb qilish, internet tarmoqlari orqali masofada o‘qitishni tashkil etish jamiyatimiz va mutaxasislar oldida turgan muhim vazifadir.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent sh., 2019-yil 29-aprel,PF-5712-son

3. Nazarova D.A., Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika – T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.
4. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarni oilada maktab ta’limiga tayyorlash. Ota-onalar uchun metodik qo‘llanma. –T.: A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2007
5. Садирова К. Г. Особенности специфического развития изобразительной деятельности учащихся с нарушениями СЛУХА //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 20. – С. 243-245.

Абдужалилова Шоира Абдумажитовна
ЧДПУ, п.ф.н., доцент
Сайфуллаева Машхура Қодир қизи
ЧДПУ, магистранти

ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ТАЖРИБАСИ

Аннотация

Мақолада инклюзив таълимнинг Ўзбекистон тажрибаси тўғрисида фикр юритилган ва муаллифнинг индивидуал ёндошувлари тақдим этилган. Асосий эътибор мазкур тажрибанинг энг муҳим жиҳатлари таҳлилига қаратилган.

Калит сўзлар: таълим, инклюзив, Ўзбекистон, тажриба, ўқитиш, ёндошув, кўникма, малака.

Аннотация

В статье рассматривается опыт инклюзивного образования в Узбекистане и представлены индивидуальные подходы автора. Основное внимание уделяется анализу наиболее важных аспектов этого опыта.

Ключевые слова: образование, инклюзивное, Узбекистан, опыт, обучение, подход, навыки, квалификация.

Abstract

The article examines the experience of inclusive education in Uzbekistan and presents the author's individual approaches. The focus is on analyzing the most important aspects of this experience.

Key words: education, inclusive, Uzbekistan, experience, training, approach, skills, qualifications.

“Ўзбекистон - 2030” стратегиясида мамлакатимизда 2030 йилга қадар сифатли таълим кўрсаткичларига эришиш қўйилган[1;4]. Мазкур вазифаларнинг ижроси жараёнида таълим турларининг барчасидан фойдаланиш тақозо этилади. Шу жиҳатдан Ўзбекистондан *инклюзив*

таълимни амалга ошириш бўйича муайян тажрибалар мавжуд. Бу ўринда эътиборингизни ана шу масаланинг асосий жиҳатлари таҳлилига тортамиз.

1.Ўзбекистонда инклюзив таълимнинг меъёрий асослари. Мамлакатимизда инклюзив таълимнинг меъёрий асослари Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “Барча учун таълим” конвенцияси ва ЮНЕСКОнинг “Ҳаёт давомида таълим” дастурларига асосан ишлаб чиқилган. Шу жиҳатдан Ўзбекистонда инклюзив таълимнинг энг муҳим меъёрий асосларини қуйидагилар ташкил қилади:

1) янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конститутциясининг 78-моддаси ва Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”, “Педагог мақоми тўғрисида” ҳамда Ўзбекистон Республикаси “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”, “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги Қонунлари;

2) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 13 октябрдаги “Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга таълим-тарбия бериш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, “2020-2025 йилларда халқ таълими тизимида инклюзив таълимни ривожлантириш концепцияси”, 2020-2025 йилларда халқ таълими тизимида инклюзив таълимни ривожлантириш концепциясини амалга ошириш бўйича “Йўл харитаси”;

3) инклюзив таълим бўйича давлат таълим стандартлари, давлат талаблари, ўқув режа ва дастурлари.

Бу меъёрий асослар Ўзбекистонда инклюзив таълимни ташкил этиш бўйича миллий тажрибани таркиб топтириш имконини берди. Шу сабабли мамлакатимизда инклюзив таълим бўйича ўзига хос тажрибавий ёндошув идрок этилади[2;3-5].

2. Ўзбекистонда инклюзив таълимнинг асосий шакллари. Мамлакатимизда 2020-2021 ўқув йилидан бошлаб инклюзив таълимни ташкил қилишнинг бир неча шакллари амалиётга жорий этила бошлади. Бунинг натижасида бугунги кунда мамлакатимизда инклюзив таълимнинг қуйидаги асосий шакллари фаолият юритмоқда:

1) умумий ўрта таълим мактаблари синфларида инклюзив синфлар фаолияти;

2) ихтисослаштирилган таълим муассасалари фаолияти;

3) олий педагогик таълим муассасаларидаги инклюзив таълим фаолияти.

Бу асосий шакллар Ўзбекистонда инклюзив таълимни ташкил қилишнинг миллий тажрибасини белгилайди. Шу жиҳатдан умумий ўрта таълим мактаблари синфларида ташкил қилинган инклюзив синфлар соғлом

ўқувчилар ва инклюзив таълим олувчи ўқувчиларнинг биргаликда таълим олишини таъминламоқда. Натижада инклюзив таълим олувчилар соғлом тенгдошлари қаторида ўзларини тўлақонли шахс сифатида идрок қилмоқда[3;3-4]. Бундай синфларда 2-3 нафар инклюзив таълим олувчи ўқувчилар ўқимоқда ва бу синфларда асосан дефектолог, логопед, педагоглар фаолият юритмоқда.

Ихтисослаштирилган таълим муассасаларида асосан ақлий ва руҳий имконияти чекланган ўқувчиларга инклюзив таълим берилмоқда. Бунда дефектолог, логопед, олегофренопедагог каби мутахассис педагоглар таълим ва тарбия жарёнини амалга оширмоқда. Ушбу ихтисослаштирилган таълим муассасаларида инклюзив таълим олувчилар имкониятлари доирасида касб ва ҳунарга йўналтирилмоқда.

Олий педагогик таълим муассасаларида “Махсус педагогика” фани воситасида бўлажак ўқитувчилар инклюзив таълим ва тарбия методикаси билан қуроллантирилмоқда. Бунда мазкур ўқув фанининг барча соҳалари бўйича педагог кадрлар тайёрлаш масаласи идрок этилмоқда.

Эътибор берилса, Ўзбекистонда инклюзив таълимнинг бундай шакллари миллий менталитет, миллий қадриятлар ва умуминсоний ёндошувлар асосида ташкил қилинган. Шу сабабли “Умумий маънавий тарбия концепцияси”га асосан мамлакатимизда ногирон болаларнинг туғилишини олдини олиш мақсадида аёлларнинг хомиладорлик даври давлат назоратига олинган ва бу билан инклюзив таълимга муҳтож қатламнинг таркиби камайиб боришига эришилаётганлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим.

3. Ўзбекистонда инклюзив таълимнинг истиқболли йўналишлари. Мамлакатимизда инклюзив таълимнинг аниқ истиқболли йўналишлари мавжуд. Бундай истиқболли йўналишларнинг асосийларини қуйидагилар ташкил қилади:

1) инклюзив таълим бўйича олий маълумотли педагогларни тайёрлаш истиқболли йўналиши;

2) кластер инклюзив таълим истиқболли йўналиши;

3) қўшма инклюзив таълим истиқболли йўналиши.

Мазкур асосий йўналишлар бўйича ташкилий ишларни йўлга қўйиш долзарб бўлиб турибди. Шу жиҳатдан инклюзив таълим турлари бўйича педагог, психолог ва социолог ўқитувчиларни тайёрлашни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Чирчиқ давлат пдагогика университети томонидан ишлаб чиқилиб, амалиётга жорий этилган кластер тизими асосида инклюзив таълимни ташкил этиш муҳим истиқболли йўналишлардан биридир. Бунда олий педагогик

таълим муассасаси профессор-ўқитувчилари, мактаб ўқитувчилари, психологлар ва шифокорлар ҳамкорликда инклюзив таълимни интенсив равишда амалга оширади.

Инклюзив таълимнинг яна бир истиқболли йўналишларидан бири қўшма таълимдир. Унда хорижий олий таълим муассасалари билан биргаликда инклюзив таълим бўйича педагог кадрлар тайёрлаш, мазкур таълим бўйича янги авлод ўқув адабиётларини яратиш ва инклюзив таълим олувчиларни ижтимоийлаштириш марказлари фаолиятини йўлга қўйиш муҳим ҳисобланади.

Диққат қилинса, мамлакатимизда инклюзив таълимни кучайтиришнинг ўзига хос истиқболли йўналишлари мавжуд. Бу масалалар таълим соҳаси вакиллари томонидан идрок этилиши керак.

Шундай қилиб Ўзбекистонда ўзига хос инклюзив таълим тажрибаси мавжуд. Бу тажрибага асосан инклюзив таълимни жамият эҳтиёжлари ва халқаро таълим қоидаларига мос равишда ривожлантириш мумкин.

АДАБИЁТЛАР:

1. “Ўзбекистон - 2030” стратегияси.// www.ziyonet.uz.
2. Қонун ҳужжатлари тўплами. № 6.// www.Lex.uz.
3. Абдужалилова Ш.А. Махсус педагогика.Дарслик.- Чирчиқ, 2023.

Dehqonova Muborakxon G‘iyosiddin qizi
CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
www.dehqonova.m@cspi.uz; 931281294

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR BILAN INDIVIDUAL ISHLASHDA DIDAKTIK VA FALSAFIY OLIMLARNING QARASHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalar bilan ish olib boruvchi pedagoglarnong individual ta’lim jarayonini tashkillashtirishda olimlarning didaktik va falsafiy qarashlari yoritib berilgan. Individual ta’limning yo‘nalishlar, olimlarning qarashlari va imkoniyati cheklangan bolalar uchun individuallashgan muhit qay tarzda yuzaga kelgani haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: individual ta’lim, muhit, yo‘nalish, qarash, faylasuf, imkoniyat.

Shaxs rivojlanishida ta’limning o‘rni va ta’siri beqiyosligi qadimdan ma’lum haqiqatdir. Ta’lim aynan bola shaxsi imkoniyatlariga yo‘naltirilishi va amaliy faoliyat negiziga qurilishi jarayondan kutilgan natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Shuning uchun Sharq mutaffakkirlari va faylasuf olimlar ham qadimdan shaxsning individual ta’limi muammosi bilan bevosita shug‘ullanib kelganlar. Ular shaxsning individual rivojlanish istagi va imkoniyatlarining namoyon bo‘lishini shaxsiy sifatlar o‘zgarishi bilan bog‘liq holda o‘rganganlar. Ma’lumki, individual ta’lim ichki va tashqi pedagogik ta’sirlar bilan bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Bu haqida E.G‘oziyev, R.Safarova, A.Tereshenkolarning tadqiqotlarida ilmiy xulosalar berilgan. Mazkur tadqiqotlarda ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini individual tarzda ta’minlash uchun, ularda tashqi ta’sirlarga nisbatan mustaqillikni tarkib toptirish kerakligi ta’kidlangan. Shunga ko‘ra, ta’lim jarayonida individual yondashuvni ta’minlash orqali shaxsiy o‘sishga xizmat qiladigan izchil didaktik tizimni vujudga keltirish lozim.

Mazkur tizim individual ta’lim tamoyillarina ko‘zda tutadi. Individual ta’limning psixologik aspektlarini o‘rganish asosida quyidagi to‘siqlar duch kelishi mumkinligini aniqladik. Masalan, inidvidual ta’limda ta’lim oluvchilar uchun yaratilgan erkin muhit, ayrim hollarda ichki va tashqi omillar tasirida muayyan o‘ziga xos ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Ta’lim oluvchilarning xohishiga ko‘ra yo‘naltirilgan pedagogik jarayon davomida tashqi (qo‘llaniluvchi usullar, vositalar, o‘zaro muloqot, topshiriqlar) hamda ichki (xotira kuchi, diqqat ko‘lami, idrok, sezgi, nutq, xohish, mayl...) kuchlar o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelishi mumkin. Bu vaziyat hozirgi kunda amaliyotni kuzatish jarayonida ma’lum bo‘ldi. Ya’ni oliy ta’limda individual ta’limning muayyan elementlarini takomillashtirishga ehtiyoj mavjud. Asosan, har bir talaba uchun pedagog tomonidan tuzilgan individual rivojlanish dasturi tarkibidagi komponentlarni optimallashtirish, shaxs-mutaxassis rivojlanishiga bog‘liq sferalarni ijtimoiy buyurtma talablari doirasida hamda talabalarning aksariyatida uchraydigan sifatlar va bo‘shliqlar bo‘yicha turkumlashga e’tibor qaratish lozim. Aynan shu vazifa ham bizning tadqiqotimizda muhim komponent sifatida tanlandi. Bunda talababalarning kasbiy va shaxsiy yetilishi uchun qaysi soha (fiziologik-psixologik-intellektual) kompetensiyalarini rivojlantirishga e’tibor qaratish kerak. Individual ta’limda muhim ikki yo‘nalishni ta’kidlash joiz: falsafiy (bilish, dunyoqarashni shakllantiruvchi jarayon), pedagogik (o‘zlashtirish jarayoni). Chunki yakka yondashish shaxsga yo‘naladi, uning bilish jarayoniga ta’sir qiladi, buning uchun esa, muayyan usullar, vositalar asosida o‘zlashtirish muhiti yaratiladi. Agar shu ikkala komponent maqsad nuqtasi bo‘lmasa, individual ta’lim o‘z mohiyatini yo‘qotadi. Uning zarurati sezilmaydi.

Ushbu fikrga yaqin qarashlar I.I.Ilyasovning ishlarida mavjud. Uning fikricha, o‘zlashtirish jarayoni 2 ta komponentdan tashkil topadi:



Individual ta’limga haqidagi nazariy yondashuvlarni tahlil qilish orqali shuni aytish mumkinki, mazkur ta’limning muhim shartlaridan biri, ta’lim oluvchi o‘z individual imkoniyati ko‘lami va mohiyatini anglashidir.

Ta’lim oluvchi o‘z maqsadi va unga yetish uchun hatti-harakatlari mohiyatini anglamasdan turib, ularni izchil va maqsadga yo‘nalgan tarzda amalga oshira olmaydi.

Mavjud manbalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, mazkur tushunchalarning mohiyatini ochish uchun individuallashtirilgan ta’lim jarayoni oldiga qanday maqsadlar qo‘yilgan va bu jarayonda qanday vositalardan foydalaniladi, degan savollarga javob izlanadi.

Didaktik olimlarning qarashlarida individuallashtirish va differensiallashtirish tushunchalarining mohiyati aniqlashtirilgan. Aksariyat manbalarda differensiatsiya ta’lim shakli bilan bog‘liq tushuncha bo‘lsa, individualizatsiya esa o‘qitish tamoyili sifatida talqin etiladi. Mazkur olimning ishini o‘rganish natijasida individual ta’limning asl mohiyatini ochib beruvchi quyidagi ilmiy bashoratli xulosalarni keltirdik:

- korreksion mashg‘ulotlarni modellashtirishga talabalarni o‘rgatish uchun individual ta’limga maxsus pedagogning tayyorligi qaysi mezonlar bilan o‘lchanishini aniqlashtirish lozim;
- oliy ta’limda talabaga yo‘naltirilgan metodik ishlar holatini o‘rganish va ularda individual ta’lim tamoyillari qanchalik inobatga olinayotganini tahlil qilish maqsadga muvofiq;
- korreksion ta’limga bo‘lajak maxsus pedagoglarni muvaffaqiyatli tayyorlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini kompleks realizatsiyasiga yo‘naltirilgan modelni ishlab chiqish, asoslash va tavsiflash lozim;
- individual ta’limda subyektlar faoliyati trektoriyasini tizimlashtiruvchi usul, vosita va texnologiyalarni klassifikatsiyalash orqali oliy ta’limda o‘quv-

pedagogik jarayon va ma’naviy tadbirlar samaradorligini oshirishga ustuvorlik berish.

Individual ta’lim sharoitida talabalarning o‘quv faoliyati muhim ahamiyatga ega. O‘quv faoliyatda talabaning ruhiy, aqliy, fiziologik imkoniyatlari uyg‘unlashadi. Individual muhitda yangi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar o‘zlashtiriladi. Natijada talabalar o‘zlashtirilgan bilim, egallangan ko‘nikma va malakalarni kundalik o‘quv hamda mehnat faoliyatlari davomida qo‘llaydilar.

Individual ta’limda talabalar turli murakkab, iyerarxik strukturalarni loyihalashtirishga jalb etiladilar. Bu jarayonda talabalarning o‘zlashtirgan bilimlari, mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega. Ta’lim oluvchining yakka va jamoaviy harakatlari orqali, ularni aqliy operasiyalar va majmuaviy kasbiy keyslarni bajarishga undash mumkin. Bu jarayon natijasida amaliyotga sifatli kadr yetishib chiqadi.

Individual ta’lim sharoitida bo‘lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg‘ulotlarni modellashtirishga tayyorlashning o‘ziga xos mazmuni, shakl-shamoyili mavjud bo‘lib, bunda sohaga oid nazariy muhit va amaliy yo‘nalgan faol o‘quv muhiti yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Faol o‘quv muhiti yaratiladi kachonki, jarayon talaba ehtiyojlari va kasbiy rivojlvnish muammolarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa. Buning uchun zarur omillar va tamoyillarni ajratib olish zarur. Shuning uchun keyingi paragraf aynan shu masala bayoniga qaratiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dehqanova, M. (2023). O‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonlarining dinamikasi. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, *2*(10 Part 3), 173-176.

2. Dehqonova, M. (2023). Korreksion mashg‘ulot rahbari ostida ritmika harakatlarni takrorlash va uning samaradorligi. *Молодые ученые*, *1*(1), 34-35.

3. Muborak, D., & Shahnoza, M. (2022). Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda metodik jamlanmalar yig‘ish. *Ta’lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali*, *2*(10), 371-376.

4. G‘iyosiddinovna, D. M., & Azam, E. (2022). Zaif eshituvchi bolalar maktabdan keyingi ta’limida kasbiy malakalarni shakllantirishda shaxslararo munosabat o‘rnatishga ko‘maklashish. *ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 211-213.

5. Dehqonova, M., & To‘raqulova, D. (2022). Davlat ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarni inklyuziv ta’limga

tayyorlash. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, *1*(26), 31-34.

6. Dehqonova, M., & Najmiddinova, N. (2022). Maxsus ehtiyojli bolalar ta’lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalasi. *Академические исследования в современной науке*, *1*(20), 121-125.

Z.M.Jo‘rayeva
Respublika Ta’lim Markazi
Maxsus pedagogika bo‘limi boshlig‘i

INKLYUZIV TA’LIMGA MUVAFFAQIYATLI MOSLASHUVIDA TABIATSHUNOSLIK DARSLARINING O‘RNI

Annotatsiya

Imkoniyati cheklangan bolalarni sifatli inklyuziv ta’limga jalb qilishda maxsus ta’lim muassasalari “o‘tish yo‘lakcha” vazifasini o‘tashi lozim. “Tabiatshunoslik” fanining o‘ziga xosligi bolaning ijtimoiylashuviga katta yordam ko‘rsatishi bilan belgilanadi. Maqolada mazkur darslarni tashkil etishga qo‘yiladigan talablar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: inkluziv ta’lim, model, “o‘tish yo‘lakchasi”, aqliy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalarqo‘llab-quvvatlash, ijtimoiylashuv.

Аннотация

В привлечении детей с ограниченными возможностями здоровья к качественному инклюзивному образованию специальные образовательные учреждения должны выступать в качестве “проходного пути”. Уникальность науки “естествознание” определяется тем, что она очень помогает социализации ребенка. В статье описаны требования к организации данных занятий.

Ключевые слова: инклюзивное образование, модель, “переходной путь”, дети с проблемами психического развития, коррекционно-развивающие задачи, поддержка, социализация.

Annotation

In attracting children with disabilities to quality inclusive education, special educational institutions should act as a “passing path”. The uniqueness of the science “natural science” is determined by the fact that it greatly helps the socialization of the child. The article describes the requirements for organizing these classes.

Keywords: inclusive education, model, “transition path”, children with mental development problems, correctional and developmental tasks, support, socialization.

Inklyuzivli ta’lim modeli alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun to‘siqsiz ta’lim muhitini yaratish, uni bolalar ehtiyojlariga moslashtirish va sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘qitishni nazarda tutadi. Jamiyat imkoniyati cheklangan bolalarni sifatli ta’lim olish, o‘z qobiliyatini, iqtidorini rivojlantirish huquqidan mahrum etmasligi, eng muhimi, barcha bolalar bilan muloqot qilish muhitini yaratishi lozim.

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim olish yo‘lida ko‘plab muammolar bor. Ota-onalar ham, o‘qituvchilar ham umumiy ta’lim muhitiga nogironligi bo‘lgan bolalarni qabul qilishga hali tayyor emasligini qayd etmoqdalar.
Buning uchun maxsus ta’lim muassasalari “o‘tish yo‘lakcha” vazifasini o‘tashi lozim.

Maxsus ta’lim muassasalari ish tizimini takomillashtirish, defektolog mutaxassislarini yangi texnologiyalarga o‘rgatish, o‘qitish, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda maxsus ta’lim sohasidagi vaziyat bir qator muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, ulardan biri aqliy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni o‘qitishni tashkil etish uchun eng samarali sharoitlarni izlashdan iborat vazifadir.

Rivojlanishdagi o‘ziga xosliklar bu bolalarga maxsus ta’lim sharoitlarini yaratmasdan umumiy ta’lim dasturlarini to‘liq yoki qisman o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiladi. Ushbu shartlar, avvalo, rivojlanishida muammosi bo‘lgan barcha toifadagi bolalarni o‘qitishning korreksion va amaliy yo‘nalishini o‘z ichiga oladi. Aqliy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarning shaxs sifatida shakllanib, jamiyatda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishlari uchun o‘quv-tarbiya jarayonini maxsus, korreksion va amaliy yo‘nalishda tashkil etish kerak. Mazkur ta’lim-tarbiya tamoyillarining yaxlit tizimi bo‘lib, ularni amalga oshirish ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, ularning hayotga moslashishiga yordam beradi.

O‘quv fanlari orasida “Tabiatshunoslik” fanining o‘ziga xos xususiyati uning hayotiy, ya’ni ijtimoiylashuvga katta yordam ko‘rsatuvchi fan bo‘lishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ushbu fanni o‘qitish nafaqat tabiatshunoslik bilimlarini shakllantirish, balki aqliy rivojlanish va jamiyatdagi ijtimoiy moslashuvdagi kamchiliklarni tuzatish uchun ham asosdir. Ta’limning amaliy yo‘nalishi tamoyilidan foydalanish o‘quvchilar nafaqat o‘quv materiallarini o‘zlashtiribgina

qolmay, balki ushbu bilimlarni hayotda qanday qo‘llashni biladigan tarzda o‘qitishni rejalashtirish va amalga oshirishga imkon beradi.

O‘quvchilarning atrofi olamni muntazam o‘rganib borishlariga asoslanib, ularda tabiat, o‘zi yasha turgan hudud, joyi va mamlakatimizning tabiiy boyliklari to‘g‘risida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish lozim. Ular Vatanimizning tabiiy boyliklaridan jamiyatimiz a’zolari o‘zlarining mehnat faoliyatlarida qanday foydalanayotganliklari bilan tanishishlari lozim. Bunda o‘quvchilarga insonlar mehnati atrof tabiat bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatish g‘oyat muhimdir. Ushbu talablarga ko‘ra o‘quvchilarga tabiatshunoslikni o‘qitishning ta’limiy maqsadini quyidagilar tashkil etadi:

jonli va jonsiz tabiat to‘g‘risida aniq bilimlar berish;

ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunishga o‘rgatish;

tabiatda kuzatishlar o‘tkazish o‘quvi va ko‘nikmalari bilan qurollantirish;

tabiatdan oqilona foydalanish va uning boyligini asrashga qaratilgan insonning mehnat faoliyati bilan tanishtirish.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda tabiatshunoslik fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan ta’limiy vazifalar o‘quv dasturi bo‘yicha o‘quvchilarni nazariy bilim va amaliy mahoratga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Demak, ta’limiy vazifalar tabiatshunoslik dasturi, o‘quv rejasi, mavzuning mazmunidan kelib chiqadi.

Zamonaviy maxsus pedagogika ta’lim va tarbiyaga korreksion-tarbiyalovchi ta’lim tizimi yagona jarayonining ikki tomoni deb qaraladi.

Tabiatshunoslik fanini o‘qitishning tarbiyaviy tavsifi uning mazmuni bilan belgilanadi. Darslarda tabiatshunoslik bo‘yicha berilgan barcha mavzular keng qamrovli yaxlit tarbiya masalalarini aks ettiradi. Mazkur darslarda dunyoni amaliy tushunish asoslarini shakllantirish va go‘zallikni tushunishni tarbiyalash lozim. Shu o‘rinda tabiatni o‘rganib, uning sir-sinoatlari haqida o‘quvchilarga bilim berish jarayoni davomida tabiiy boyliklarini asrash va ko‘paytirish ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etishini qayd etib o‘tish muhim. O‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarga tabiatga g‘amxo‘rlik munosabatda bo‘lishga, uni asrab-avaylash hamda uni himoya qilish bo‘yicha turli tadbirlar: yashil tabiatni, o‘simliklarni parvarishlash, himoya qilish, qishda qushlarga g‘amxo‘rlik qilish kabi vazifalarni amalga oshirishga o‘rgatadi. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarni tabiat orqali aqliy, axloqiy, nafosat, jismoniy, ekologik, iqtisodiy tarbiyasi amalga oshiriladi.

Aqliy tarbiya o‘quvchilarning tabiatshunoslik bo‘yicha tushunchalarini kengaytirish, ushbu tushunchalarini oydinlashtirish, so‘zlashuv vositasi sifatida abstrakt fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, aqliy tarbiyaning asosiy maqsadi bo‘lib xizmat qiladi. Aqliy tarbiya, nafaqat o‘qitish yo‘li bilan, balki olgan bilimlarini

amaliyotda, o‘qituvchilarning ko‘rsatmalari asosida olib boriladi. O‘quvchilarning aqliy shakllanishi ularning nutqiy tayyorgarlik darajasiga qarab rivojlanib boradi. Xususn, “daraxt” tushunchasiga ega bo‘lgan bola daraxt turlarini ham o‘rganib boradi. Agar bola “o‘simlik” tushunchasiga ega bo‘lsa, asta-sekin unga yaqin bo‘lgan tushunchalarni ham (sabzavot, meva, gul, daraxt) egallashi lozim. Ya’ni, daraxt – umumiy tushuncha; terak, tol – aniq tushuncha. Ya’ni, umumiy tushuncha – aniq tushuncha – bilimning puxtaligi, chuqurligini tashkil etadi. Nihoyat, o‘quvchilar mazkur tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini anglaydilar. O‘quvchilarga aqliy tarbiya berishning eng muhim vazifalaridan yana biri sifatida ularni qiziquvchanlik, tabiat hamda hayotga sinchkovlik bilan qarash ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Bunda, avvalo, tabiat bilan tanishtirishning eng oddiy tushunchalardan boshlab tabiat haqidagi dunyoqarashlar hosil qilinadi. Natijada o‘quvchilarning ko‘rgazmali-obrazli, ko‘rgazmali-harakatli, mantiqiy-fikrlovchi tafakkurlari rivojlanadi.

“Tabiatshunoslik” fanini o‘qitishda ulg‘ayib kelayotgan o‘quvchilarning xulq-odob-axloq me’yorlariga mos keluvchi sifatlarini shakllantirishni tushunishimiz lozim. Axloqiy tushunchalar yaxshilik, sharaf, vijdon va boshqalar baholanuvchi tushunchalarni anglatib, o‘z tarkibiga muayyan qadriyat yo‘l-yo‘riqlari, xulq-atvor me’yor va motivlari, insonlararo muomala shakllarini oladi. Tabiatshunoslik darslarida axloqiy tarbiyaning:

o‘quvchilarda axloqiy, xulqiy ko‘nikmalarni tarbiyalash;

o‘quvchilarda axloqiy his tuyg‘ularni tarbiyalash;

o‘quvchilarda axloqiy ongni, mustahkam axloqiy e’tiqodni tarbiyalash kabi vazifalari hal qilinadi.

Shuningdek, ijtimoiylashuv jarayonida muhim bo‘lgan gigiyenik, umumiy tartib intizomga rioya kilish, xulq madaniyati, mehnat qilish, jamoada yashash va ishlash ko‘nikmalarining shakllanishiga alohida e’tibor qaratish muhim sanaladi. Guruh yoki sinf yer maydonchasiga ekilgan gul, ekinlarni parvarish qilish, har bir gul, niholni asrash, daraxtlar tagini yumshatish, sug‘orish, ekishga o‘rgatish tabiatshunoslikda axloqiy ko‘nikmalarni tarbiyalashga qaratilgan ish uslublaridir. Shu bois o‘qituvchi o‘quvchilarga tajriba maydonchasi yoki tabiat burchagida o‘simlik va hayvonlarni tanishtirish jarayonini tashkil etishda mazkur jarayonni ta’lim oluvchilar e’tiborini o‘ziga rom etadigan ravishda qiziqarli, jonli, hayotiy voqea va sharoitlarga bog‘liq ish shakllaridan foydalanishi tavsiya etiladi.

“Tabiatshunoslik” fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning nafosat tarbiyasi ham amalga oshirilib, maqsadi - shaxsning didi, go‘zallikni his qilish va doimo unga intilib yashash hislatini tarkib toptirishdan iboratdir. Gullar va mevalarning hidi, shakli va rangi, qushlarning sayrashi, ariqlardan suvning

shildirab oqishi, oyoq ostidagi qorning yumshoqligi - bularning barchasi bolalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni his qilishga imkon beradi va ularda estetik hissiyotni tarbiyalash va o‘stirish uchun boy material bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarda bunday estetik tuyg‘ularning rivojlanishi, o‘z navbatida, san’at, hayot, tabiatni sevish uni tushunish va o‘rgatish uchun zarur sharoit yaratadi.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, mehnatga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, kattalar yaratgan mehnat mahsulini e’zozlash, uning qadriga yetish ruhida tarbiyalashni amalga oshirishdan iborat. Tabiatshunoslik darslarida o‘quvchilar maishiy mehnat turiga jalb qilinadilar. Maishiy mehnat o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ishlari, shaxsiy gigiyena, o‘simliklarni jonli tabiat burchagidagi hayvonlarni parvarishlashdan iborat ish turlaridir. Mehnat tarbiyasi har bir sinf o‘quvchisining yosh xususiyatini hisobga olib amalga oshirilishi muhim.

Ekologik tarbiya insonning tabiatga bo‘lgan munosabati uning axloqiyligi ko‘rsatkich bo‘lib, uning asosiy maqsadi tabiatga va tabiiy boyliklarga nisbatan ehtiyotkorlik va javobgarlik munosabatini shakllantirishdan iboratdir. Tabiatshunoslik darslarida o‘quvchilar Ona yurtimizning tabiat boyliklari, hayvonot va o‘simliklar olamining hayoti, inson va tabiat munosabati haqida bilim oladilar. Bu bilimlar “inson - atrof muhit” tizimining tarkibiy tuzilmalarini tushunishga va o‘quvchilarni tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarni tushunishga tayyorlaydi.

Tabiatshunoslik darslarida ta’limning korreksion-rivojlantiruvchi vazifalari ta’lim mazmun mohiyatidan, mavzuning ta’limiy maqsadidan, o‘quvchilarning yosh hamda yakka xususiyatlariga mos ravishda belgilanashi muhimdir. Tabiatshunoslikka o‘qitishda korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy is, tadbir, uslublarning o‘tkazilishini taqozo etadi. Bular birlamchi va ikkilamchi muammolarni tahlil qilishga, barcha psixik faoliyatni faollashtirishga qaratilgan bo‘lishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tabiatshunoslikka o‘qitishning korreksion-kompensator-tarbiyaviy vazifasi yosh avlodni Vatanga, insonlarga muhabbat, ularga va ular mehnatiga hurmat tuyg‘ulari, shaxsning ijobiy axloqiy sifatlari: poklik, to‘g‘rilik kabi yetuk, har tomonlama rivojlangan inson uchun nimaiki zarur bo‘lsa, hammasini mujassamlashtirishdan iboratdir. Mazkur vazifalarni hal etish esa maxsus ta’lim tizimi kun tartibidan o‘rin egallagan muhim vazifa sanalib, o‘qituvchilarning ushbu fanni o‘tkazishda pedagogik ta’limda eng faol qo‘llanayotgan ish uslublaridan o‘z o‘quvilarining o‘ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlariga mos, mohirona foydalanish asosidagina yechim topadi. Maxsus ta’lim muassasalari ish tizimini takomillashtirish, defektolog mutaxassislarni yangi

texnologiyalarga o‘rgatish, o‘qitish, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega. Barcha tuzilmalarning birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan jamiyatimiz alohida ehtiyojli bolalarni o‘z muhitiga qabul qilishiga erishish mumkin. Shundagina biz inklyuziv ta’limga muvaffaqiyatli jalb qilina oladigan, ijtimoiy hayotda to‘siqlarsiz uyg‘unlashib keta oladigan o‘quvchilarni tarbiyalashga muvaffaq bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: “O‘zbekiston”, 2023.
2. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining farmoni 1-ilova. PF-158-сон 11.09.2023.
3. Nazarova Dildora Asatovna. (2022). Modern approaches in the process of training educators for a special and inclusive education system. European Scholar. 3(10), 91-92. Retrieved from. https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/2798
4. Nazarova Dildora Asatovna. Organization of modern lessons in special educational institutions is the basis of the inclusive education. International Journal of Academic Research and Reflection Vol. 8, No. 3, 2020 ISSN 2309-0405
5. Nazarova D.A Aspects of achieving effective performance of heads of educational institutions in the context of inclusive education// Педагогика и современное образование: традиции, опыт и инновации. Сборник статей XYI международной научно-практической конференции. Пенза, 2021. Стр.10-12.
6. D.Tojiboyeva, A.Yo‘ldoshev. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: “Aloqachi”, 2009, 342-bet.
7. X.M.Po‘latova. Tabiatshunoslikni o‘qitish maxsus metodikasi. Toshkent -2010.

Muhammadjonova Dilafruz Farhodjon qizi
QDPI, Inklyuziv ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: muhammadjonovadilafruz01@gmail.com

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA INKLYUZIV TA’LIMNING O‘RNI

Annotatsiya

Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalar ta’limi va ularni shaxs sifatida shakillanish jarayonida inklyuziv ta’limning o‘rni, inklyuziv ta’limda inson kapitali masalasi, inson kapitaliga oid umumiy masalalar, ta’limning ijtimoy roli kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuzivlik, “capital”, inson kapitali, ta’lim, shaxs, rivojlanish, nuqson, ijtimoiy faollik, muhit, “do‘stona muhit”.

Аннотация

Освещены роль инклюзивного образования в образовании детей с ограниченными возможностями здоровья в нашей республике и процесс их формирования как личности, проблема человеческого капитала в инклюзивном образовании, общие вопросы, связанные с человеческим капиталом, а также социальная роль образования.

Ключевые слова: инклюзия, “капитал”, человеческий капитал, образование, личность, развитие, инвалидность, социальная активность, окружающая среда, “Дружелюбная среда”.

Abstract

The role of inclusive education in the education of children with disabilities in our republic and the process of their formation as individuals, the issue of human capital in inclusive education, general issues related to human capital, and the social role of education are covered.

Key words: inclusion, “capital”, human capital, education, person, development, disability, social activity, environment, “Friendly Environment”.

Zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri ta’lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta’limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta’limning barcha turlariga va ta’lim oluvchilarga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Ta’lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e’tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta’lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ta’lim inson kapitalini rivojlantirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashishda muhim rol o‘ynaydi. Inson kapitali iqtisodiy o‘sishning asosiy omili bo‘lib, ta’lim uning rivojlanishida hal qiluvchi element bo‘lib xizmat qiladi[10].

Ta’lim odamlarni kasbiy va shaxsiy o‘sishi uchun zarur bo‘lgan kognitiv va kognitiv bo‘lmagan ko‘nikmalar bilan ta’minlash orqali inson kapitalining rivojlanishiga hissa qo‘shadi[11].

Inson kapitalini rivojlantirishda ta’limning ahamiyatiga qaramay, uning

[10] Becker, G. S. (1964). Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education. National Bureau of Economic Research

[11] Heckman, J. J. (2000). Policies to foster human capital. Research in Economics, 54(1), 3-56.

samaradorligiga bir qancha muammolar to‘sqinlik qilmoqda. Bu kamchiliklarga quyidagilar kiradi:

1. Imkoniyat va tenglik: dunyo bo‘ylab millionlab bolalar va o‘smirlar sifatli ta’lim olish imkoniga ega emaslar (daromad, jins va geografik chegaralar bo‘yicha ta’lim imkoniyatlaridagi tafovutlar). Ushbu nomutanosibliklarni bartaraf etish ta’lim jamiyatning barcha qatlamlari uchun inson kapitalini rivojlantirishga hissa qo‘shishini ta'minlash uchun juda muhimdir.

2. Ta’lim sifati: ta’lim sifati asosiy muammo hisoblanadi, chunki past sifatli ta’lim o‘quvchilarda muhim ko‘nikma va malakalarni rivojlantirmasligi mumkin[12]. Ta’lim sifatini oshirish o‘qituvchilar malakasini oshirish, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va o‘quv materiallariga sarmoya kiritishni talab qiladi.

3. Ko‘nikmalarning mos kelmasligi: ta’lim orqali olingan ko‘nikmalar va mehnat bozori talablari o‘rtasidagi nomuvofiqlik bitiruvchilar o‘rtasida ishsizlik va to‘liq bandlikka olib kelishi mumkin[13]. Inson kapitaliga investitsiyalar samarali bandlik imkoniyatlariga aylanishini ta'minlash uchun ta’lim tizimlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. J.Heckmanning “Policies to foster human capital. Research in Economics” kitobida aynan shu masala to‘laqonli yoritib berilgan. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda bolalarning jismoniy salomatligini ilk yoshidan boshlab tashxislash, sog‘liqlarini doimiy nazorat qilish va mustahkamlash, har bir bolaning sifatli bilim olishlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar inklyuziv ta’limni ham rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Alohida e’tiborga muhtoj bolalarni umumiy ta’lim jarayoniga samarali jalb etish milliy pedagogikada bugun yechimini kutayotgan muhim masalalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, nogiron aholining, boshqa

[12] Hanushek, E. A., & Woessmann, L. (2007). The role of education quality in economicgrowth. World Bank Policy Research Working Paper, 4122.

[13] Autor, D. H. (2014). Skills, education, and the rise of earnings inequality among the "other 99 percent". Science, 344(6186), 843-851.

ehtiyojmand toifalarning to‘laqonli hayot faoliyatini ta’minlash uchun ularga tibbiy, ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish” kabi vazifalar belgilanib, bu borada nogiron bolalarga ta’lim-tarbiya berishga dunyoviy yondashuvlarni o‘rganish, ular asosida milliy inklyuziv ta’lim jarayonini tashkil etish va takomillashtirish, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash texnologiyalari, moslashuv va muloqotni tashkil qilishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ham barcha sohalar qatori inklyuziv ta’limni ham tubdan isloh qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” hamda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish” ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa uzluksiz ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni amalga oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyatini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qarori va uning asosida “2020-2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish” Konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-son qarori va uning asosida “Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunida ham alohida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berish va ularni shaxs sifatida shakillantirish vazifalari belgilab berilgan. BMT malumotlariga ko‘ra dunyo miqyosida 450 milliondan ortiq kishi ruhiy va jismoniy nuqsonga ega. Bu sayyoramizning undan bir qismini tashkil etadi. Shuni aytish joizki umumjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumot berishicha dunyoda bunday kishilar soni 13 foizga yaqin va dunyo miqyosida 500 mln. ortiq odam (ya’ni yer yuzidagi har bir uninchi odam) imkoniyati cheklangan shaxslar sirasiga kiradi, shulardan 150 mln. bolalardir.

Ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha davlat normativ hujjatlarida qayd qilinmaganligi, nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabatlar, imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko‘rinmaslik muammosi,

imkoniyati cheklangan bolalarning maktabda ko‘rinmaslik muammosi, moddiy mablag‘ masalasi, ta’lim muassasalarini moslashtirish, sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi, kambag‘allik, jinsiy tafovvutlarga qarab kamsitish, imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi, kadrlar masalasida muammolar va h.k. “Nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim tizimiga joriy etish kerak?”-degan haqli savol tug‘iladi.

Darhaqiqat, bu ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi, ammo bu ta’lim tizimining nafli jihati juda ko‘p, ular sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- inklyuziv ta’lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- inklyuziv ta’lim barcha uchun ta’lim sifatini yaxshilaydi;
- kamsitishlarni oldini oladi;
- inklyuziv ta’lim yanada mamlakatni inklyuzivlikka olib keladi.

Xulosa va takliflar. Inson kapitali, insonning bilm, malakalar, tajribalar, ijtimoiy aloqalar va umumiy insoniy xususiyatlari jam bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlardan iborat. Bu insonning shaxsiy va professional rivojlanishining yirik qismini ifodalovchi bir konsept hisoblanadi.

Ta’limga e’tibor berish. Inson kapitalini oshirish va shaxsiy rivojlanish uchun muhimdir. Ta’lim, bilm va malakalarni oshirish, yangiliklarni o‘rganish, tajribalar va bilmlar to‘plamini rivojlantirishga yordam bermoqda. Ta’lim o‘zida, insonlarni samarali, ishonchli va faol fuqarolarga aylantirish uchun qo‘llaniladi.

Umumta’lim muassasalari sharoitida maxsus ehtiyojli bolalarga ta’lim-tarbiya berishning o‘zigina samarali natija bermaydi. Buning uchun maktabda pedagoglar, defektologlar, psixologlar tomonidan do‘stona munosabat muhitini yaratish lozim. Sinfda do‘stona munosabat muhitining shakillanishi sog‘lom va maxsus ehtiyojli bolalarning bir-birlariga nisbatan mehr-muhabbatli bo‘lishlariga, bir-birlariga doimo yordam berishlariga zamin yaratadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bu esa korreksion- pedagogic ishni samamarali va osonroq kechishini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim muassasalarida ta’lim olishlari uchun qo‘shimcha moslamalarning yaratilishini va shu yo‘l bilan nogiron bolalar uchun qulay shart-sharoitlarni talab qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta’lim-tarbiyasini amalga oshirishga, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan ishlarni samarali olib borish uchun maxsus soha vakillari hamda nogiron bolalarning ota-onalariga inklyuziv ta’limning ahamiyati, ijtimoiy zarurligini tushuntirish ham ma’suliyatli ishlar jumlasiga kiradi. Bularning hammasi, bolalaning shaxs sifatida shakillanishiga qaratilgan bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23-sentabr. O‘RQ-637-son https://lex.uz/docs/5013007
2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli Farmoni. https://www.lex.uz/acts/3436192
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarori. https://lex.uz/docs/5044711
4. 2020-2025 yillarda Xalq ta’limi tizimida Inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘z.Res.Prezidenti. 13.10.2020 y PQ 4860-son
5. Р.Ш.Шомахмудова.”Махсус ва инклюзив таълим” услубий қўлланма. Тошкент-2011 йил.
6. Becker, G. S. (1964). Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education. National Bureau of Economic Research
7. Heckman, J. J. (2000). Policies to foster human capital. Research in Economics, 54(1), 3-56.
8. Hanushek, E. A., & Woessmann, L. (2007). The role of education quality in economicgrowth. World Bank Policy Research Working Paper, 4122.
9. Autor, D. H. (2014). Skills, education, and the rise of earnings inequality among the “other 99 percent”. Science, 344(6186), 843-851.
10. Muhammadjonova, Dilafruz. “Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalardning sezgi va idrok xususiyatlarning o‘ziga xosligi.” *Science promotion* (2023).
11. Muhammadjonova, Dilafruz. “Issues of effective organization of teaching weak hearing children to write.” *Science promotion* (2023).
12. Muhammadjonova, Dilafruz. “Speech development of deaf children.” *galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ)* (2023).

Ишматова Озодахон Сироджовна
Преподаватель кафедры "Специальная педагогика" Чирчикского государственного педагогического университета
Кравченко Анастасия Петровна
Студентка 2-го курса кафедры "Специальной педагогики" Чирчикского государственного педагогического университета

ВЗАИМОСВЯЗЬ НЕЙРОЛОГОПЕДИИ С ФОНЕТИЧЕСКОЙ РИТМИКОЙ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается взаимосвязь нейрологопедии с фонетической ритмикой в условиях инклюзивного образования. Исследования подтверждают, что нейрологопед используя фонетические упражнения для развития правильного двигательного контроля мышц артикуляционного аппарата, улучшает артикуляцию звуков, тем самым улучшается речь.

Ключевые слова: Инклюзивное образования, нейрологопедия, фонетическая ритмика, значение фонетической ритмики, дети, развитие речи.

Annotatsiya

Ushbu maqola inklyuziv ta'lim sharoitida neyrologopediyaning fonetik ritmika bilan bog'liqligi ochib berilgan. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, neyrologoped artikulyatsiya apparati mushaklarining to'g'ri motor nazoratini rivojlantirish uchun fonetik mashqlardan foydalanib, tovushlarning artikulyatsiyasini yaxshilaydi va shu bilan nutqni rivojlantiradi .

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, neyrologopediya, fonetik ritmika, fonetik ritmning ma'nosi, bolalar, nutqni rivojlantirish.

Abstract

This article examines the relationship of neurological therapy with phonetic rhythm in inclusive education. Research confirms that a neurologist using phonetic exercises to develop proper motor control of the muscles of the articulatory apparatus improves articulation of sounds, thereby improving speech.

Key words: Inclusive education, neurologopedia, phonetic rhythmics, the meaning of phonetic rhythmics, children, speech development.

В сурдопедагогической науке существуют несколько определений к фонетической ритмике. По определию Т. М. Власова ва А. Н. Пфафенрод Фонетическая ритмика — это система двигательных упражнений, в которых различные движения (корпуса, головы, рук, ног) сочетаются с произнесением определенного речевого материала (фраз, слов, слогов, звуков)[14].

Н. Д. Шматко фонетическую ритмику называет речевой ритмикой и тем самым даёт определение аналитико-синтетическому методу. Он считает что работу над произносительной стороной речи (звук, слог, слово и тд) нужно заниматься не только в дошкольном периоде но и в школьном периоде обучения[15].

Независимый узбекский исследователь О. С. Ишматова (2020-2024 гг) работает над проблемой внедрения фонетической ритмики в специальный образовательный процесс в стране. Исходя из результатов своих научно-практических исследований будуещий учённый даёт новое определение методу фонетическая ритмика.

Фонетическая ритмика представляет собой комплекс различных движений (тела, головы, рук, ног) и представляет собой коррекционную технологию, служащую для формирования и развития просодической стороны речи посредством слухового, зрительного, кинестетического воздействия (О.С. Ишматова)[16].

Из истории сурдопедагогики мы знаем что фонетическая ритмика появилась в Российской Федерации в 1986 году и начала активно использоваться в Хорватии в реабилитационном центре СУВАГ для формирования и развития устной речи детей с нарушениями слуха. А сегодня по источникам становится известно, что фонетическая ритмика начала использоваться в практической логопедии как вспомогательный метод развития произносительной стороны речи детей с различными нарушениями в речи.

Цели, которые определяют основные направления в занятиях по фонетической ритмике, заключаются в том, чтобы:

- соединить работу рече двигательного и слухового анализаторов с развитием общей моторики;

[14] Власова Т.М., Пфафенродт А.Н., Фонетическая ритмика. Учебное пособие.1998 г.

15 Шматко, Н.Д. Преемственность в системе работы над произношением детей с нарушениями слуха в дошкольных и школьных учреждениях [Текст] / Н.Д. Шматко // Дефектология. С. 45-51. 1999. - №5. – 45-47 b

[16] Ишматова О.С./Korreksion mashg‘ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og‘zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish./Monografiya. “Zebo Prints” –Chirchiq.: 44-бет .

- способствовать формированию у слабослышащих детей естественной речи с выраженной интонационной и ритмической стороной в процессе перехода общей моторики к Речи двигательной;
- развивать слуховое восприятие учащихся и использовать его в ходе формирования и коррекции произносительных навыков.

Все упражнения, содержащие движения и устную речь, на занятиях по фонетической ритмике направлены на:

- нормализацию речевого дыхания и связанной с ним слитностью речи;
- формирование умений изменять силу и высоту голоса, сохраняя нормальный тембр без грубых отклонений от нормы;
- правильное воспроизведение звуков и их сочетаний изолированно, в слогах и словосочетаниях, словах, фразах;
- воспроизведение речевого материала в заданном темпе;
- восприятие, различение и воспроизведение различных ритмов;
- умение выражать свои эмоции разнообразными интонационными средствами.

Занятие по фонетической ритмике проводит учитель-дефектолог, который должен уметь сам правильно и красиво выполнять различные движения тела, рук, ног, головы.

Метод фонетической ритмики предполагает включение в каждое занятие речевого материала из всех разделов: речевое дыхание, голос, звуки и их сочетания, ритм, темп и интонация. Во всех случаях речь педагога должна служить образцом для подражания, быть фонетически правильно оформленной, эмоционально окрашенной.

Опыт показывает, что существует определенная закономерность в последовательности появления звуков в речи детей. Из гласных обычно первыми появляются звуки А, О, У, Э. Среди согласных – это губно-губные П, Б, М, губно-зубные Ф, В, некоторые язычно – зубные Т, Д, Н, Л.

Фонетическая ритмика может быть использована как самостоятельный метод коррекции нарушений речи, так и в комбинации с другими методиками. Она широко применяется в логопедической практике для работы с детьми и взрослыми, страдающими различными формами нарушений речи, такими как дислалия, дизартрия, задержка речевого развития и другие.

Фонетическая ритмика помогает улучшить артикуляцию, произношение слов, повысить плавность и выразительность речи, а также развить музыкальный слух и чувство ритма. Этот метод способствует не

только коррекции нарушений речи, но и развитию общих коммуникативных навыков.

Фонетическая ритмика тесно связанна с нейрологопедией.

Нейрологопедия — это специализация в области логопедии и медицины, которые помогают детям и взрослым с речевыми и коммуникативными нарушениями, вызванными поражением или аномальным строением центральной нервной системы[17].

Нейрологопедия и фонетическая ритмика имеют взаимосвязь через работу с детьми с нарушениями речи и языка.

Нейрологопедия занимается диагностикой и коррекцией нарушений речи, связанных с поражением нервной системы, а также развитием речи у детей с задержкой в развитии.[18]

Фонетическая ритмика – это методика, которая использует музыкальные элементы для коррекции фонетических нарушений у детей. Комбинирование этих двух методов может помочь детям с различными нарушениями речи в развитии и улучшении своих навыков коммуникации.

Фонетические упражнения могут включать в себя различные задания, направленные на тренировку конкретных звуков, работу над дыханием и интонацией, а также на развитие слухового восприятия и фонематического восприятия. Например, пациент может выполнять упражнения на повторение и комбинирование звуков, игры на распознавание и различие звуков, тренировки на правильное произношение слов и фраз.

Нейроупражнения с использованием фонетической ритмикой позволяют создать новые нейронные сети и улучшить межполушарное взаимодействие, которое является основой развития интеллекта и речи детей.

Упражнение №1.

Постучать по столу расслабленной кистью левой руки, а затем правой в течении 10 секунд.

Сжимать и разжимать кисти рук в течении 30 секунд. Затем расслабить руки. При этом можно проговаривать скороговорку напр.: *Филипп к печке прилип.*

Упражнение №2.

[17] Ishmatova O.S./Korreksion mashg‘ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og‘zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish./Monografiya. “Zebo Prints” –Chirchiq.

[18] Лурия, А. Р. (2009). Основные проблемы нейролингвистики. URSS.

Ладошки вверх – вниз. Повернуть левую кисть на ребро, согнуть пальцы в кулак, затем выпрямить. Сделать тоже правой рукой. Движения выполнять поочередно по 5 – 6 раз каждой рукой.

Са – са – са хитрая лиса

Со – со – со новое колесо

Су – су – су увидели осу.

Таким образом, упражнениями методики во взаимодействие с фонетической ритмикой и нейрологопедией способствуют эффективной коррекции речевых нарушений у пациентов с неврологическими проблемами, помогая им восстановить и улучшить свои речевые возможности.

Фонетические упражнения играют важную роль в работе нейрологопедов, поскольку они направлены на коррекцию звуковой стороны речи у пациентов с нарушениями артикуляции, дизартрией или другими речевыми проблемами, вызванными неврологическими заболеваниями или повреждениями мозга.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Власова Т.М., Пфафенродт А.Н.Фонетическая ритмика: Пособие для учителя. — М.: Гуманит. изд. центр “ВЛА-ДОС”, 1996.
2. Лурия, А. Р. (2009). Основные проблемы нейролингвистики. URSS.
3. Лурия, А. Р. (2003). Основы нейропсихологии: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Издательский центр “Академия, 3.
4. Шматко, Н.Д. Преемственность в системе работы над произношением детей с нарушениями слуха в дошкольных и школьных учреждениях [Текст] / Н.Д. Шматко // Дефектология. С. 45-51. 1999. - №5. – 45-47 b
5. Ishmatova O.S./Korreksion mashg‘ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og‘zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish./Monografiya. “Zebo Prints” – Chirchiq.: 44-бет.
6. Ishmatova, O. S. (2023). Phonetic rhythmic exercises in working on speech sounds. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 13(1), 79-85.
7. 41. Ishmatova, O. (2023). The effectiveness of using phonetic rhythm in speech development of children with special needs. science and innovation, 2(b5), 232-236.
8. https://nsportal.ru/sites/default/files/2022/01/27/gosteva_stanovlenie_neyrologopedii.docx

Xusnuddinova Zulayxo Xamidullayevna
CHDPU Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
xusnuddinovazulayxo@gmail.com

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA KO‘RISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqola ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qitishda foydalaniladigan raqamli texnologiyalardan foydalanish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘z: ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bola, korreksiya, korreksion mashg‘ulot, texnologiya, qurilmalar, sensorika, kategoriya, individual yondashuv, uzviylik.

Аннотация

В этой статье даны рекомендации по использованию цифровых технологий, используемых для обучения детей с нарушениями зрения в условиях инклюзивного образования.

Ключевое слово: ребенок с нарушениями зрения, коррекция, коррекционное обучение, технология, приборы, сенсорика, категория, индивидуальный подход, преемственность.

“Texnologiyalar” alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar duch keladigan yengib bo‘lmaydigan to‘siqlarni bartaraf etish uchun asqotadi. Texnologiya barcha o‘quvchilarga moslashishni ta’minlash va umumta’lim o‘quv dasturiga kirish imkoniyatini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Yordamchi texnologiya – bu alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar uchun yordamchi, moslashtiruvchi va reabilitatsiya vositalarini o‘z ichiga olgan umumiy atama bo‘lib, “muayyan qobiliyatlarning yetishmasligini qoplash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan deyarli hamma narsa”ni o‘z ichiga oladi.

Qo‘ltiq tayoqchalari yoki ruchka uchun maxsus tutqich kabi texnologik qurilmalar, eshitish apparatlari, ko‘zoynaklar, yuqori texnologiyali qurilmalar, masalan, disleksiklarga o‘qishga yordam beradigan maxsus dasturiy ta’minotga ega kompyuterlar (JSST, 2009), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), universal ishlab chiqilgan texnologiyalar, ta’lim texnologiyalari. Rivojlanayotgan va innovatsion texnologiyalardan foydalanish mumkin bo‘lgan “Texnik vositalar”, “yordamchi uskunalar” bo‘lib, ular “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning funksional

imkoniyatlarini oshirish, qo‘llab-quvvatlash, yaxshilash va ularga nogironlik atrofida ishlashga yoki uning o‘rnini qoplashga yordam beradigan har qanday narsa, asbob-uskunalar yoki mahsulot tizimi” bo‘lishi mumkin. Kattalashtiruvchi oyna kabi oddiy qurilmadan murakkab kompyuterlashtirilgan aloqa tizimiga va qo‘llash xususiyatiga qarab yordamchi texnologiya qurilmalari alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki yordam bilan ta’lim tizimida va undan tashqarida foydalanilishi mumkin. Yordamchi texnologiya qurilmalariga misollar: sensorli boshqaruv qurilmalari, muqobil klaviatura va sichqoncha, nutqdan matnga so‘zni aniqlash vositalari, so‘zni bashorat qilish dasturlari, so‘z prosessorlari, grammatika tekshirgichlari, skanerlar, kompakt disklarni yozish (CD-R va CD)-RW) drayvlar va imlo tekshirgichlari.

Inklyuziv ta’limda yordamchi texnologiyalardan foydalanish yondashuvlari o‘qitish yoki mashq qilish, o‘rganishga yordam berish va imkon berish uchun texnologiyadan foydalanishga qaratilgan. Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarning katta qismi yordamga muhtojligi ko‘rinadi, ammo ular ko‘pincha diagnostika profiliga osongina mos kelmagani uchun ularga ko‘pincha yordam yetishmaydi. Yordamchi texnologiya bir sinfda bolalarni, shu jumladan, jismoniy, aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish amaliyotida “yordam berish” orqali ushbu bo‘shliqni bartaraf etishga xizmat qiladi. Tengdoshlari bilan bir xil darajada bo‘lishlariga to‘sqinlik qilgan to‘siqlarni bartaraf etish orqali ularga materialni tushunadigan tarzda o‘rganishga yordam berishi ham mumkin.

Yordamchi texnologiyalar alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini oshiradi. O‘qitishda qo‘llash uchun amaliy vositalarni taklif qiladi va o‘quvchining nogironlik tufayli erisha olmaydigan ta’lim imkoniyatlariga erishishga yordam beradi. Matnni kodlashda qiynalayotgan alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar matnni nutqqa o‘tkazuvchi ekrandan o‘quvchining yozma matn va axborotni eshitish va kognitiv qayta ishlash qobiliyati o‘rtasida “ko‘prik” sifatida foydalanishi mumkin. Matndagi fikrlarni ketma-ketlashtirishda qiynalayotgan o‘quvchi esa grafik tasvirlash dasturidan vizual ishlov berish ko‘nikmalariga ko‘prik sifatida foydalanishi mumkin. Demak, yordamchi texnologiyani oddiy sinfga samarali integratsiyalashgan holda o‘quvchilar o‘z ishlarini yakunlash uchun bir nechta vositalarni taqdim etishlari mumkin. Ular ilgari bajara olmagan yoki katta qiyinchilik bilan bajara oladigan vazifalarni bajarishda ko‘proq asqotadi.

Ta’limda yordamchi texnologiyalardan foydalanish va qo‘llash

Kategoriyalar	Yordamchi texnologiyalar	Jarayonlar
O‘qish	Elektron kitoblar, sahifalarni aylantirish uchun moslashtirilgan kitob. Bitta so‘zli skanerlar, oldindan aytib beradigan matnlar, yorliqlar, gapiradigan elektron qurilmalar. Nutq dasturiy ta’minot	Tushunishda hamda topshirilgan vazifalarga e’tibor berishda qiynalayotgan o‘quvchilar uchun
Yozish	Qalam/qalam tutqichlari, andozalar, matn protsessorlari, Word kartasi/ kitob/devor, dasturiy ta’minot, imlo/grammatikani tekshirgich, moslashtirilgan qog‘ozlar	Yozish yoki kompozitsiyada muammoga duch kelgan o‘quvchilar uchun
Matematika	Kalkulyatorlar, gaplashadigan soatlar, kattalashtirilgan ishchi varaqlar, ovoz o‘lchash asboblari, ilmiy kalkulyatorlar	Hisoblash muammolari va chalkashliklari bo‘lgan va matematika darslarida yaxshi o‘qish qiyin bo‘lgan talabalar uchun
Ko‘rish	Ko‘zoynak, ekranni kattalashtirish, ekran reader, brayl alifbosidagi katta bosma kitoblar, audio dars lentalar	Zaif ko‘ruvchi yoki to‘liq ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lmagan o‘quvchilar uchun
Eshitish	Eshitish asboblari, qalam va qog‘oz, signal qurilmalari	Eshitishda qiyinchilik tug‘diradigan yoki mutlaq eshitish qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun
Kompyuter	So‘zni bashorat qilish, muqobil klaviaturalar, ko‘rsatish opsiyasi, kalitlar, ovozni aniqlash dasturi	Kompyuterga standart shaklda kirish qiyin va akademik vazifalarni bajarishda qiynalayotgan o‘quvchilar uchun
Kengaytiruvchi / alternativ aloqa	Aloqa platasi, matn terish uchun nutq sintezi moslamasi, ko‘rish taxtasi/ ramka, ovozni chiqarish qurilmasi	Tilni tushunishda muammosi bo‘lgan va uni ifodalash qobiliyatiga ega bo‘lmagan yoki nutqida tushunarsiz bo‘lgan va ifodali nutqni namoyish eta olmaydigan o‘quvchilar uchun

O ‘ rganish. Diqqat yetishmasligi, giperaktivlik.	O‘qish va yozish (disleksiya), qo‘l yoki ko‘zni muvofiqlashtirish. Yozma ifoda va kompozitsiya (disgrafiya), nozik motorli ko‘nikmalardagi qiyinchilik, Dispraksiya, tayinlanish matematika sohasida nogironlik/ qiyinlik darajasiga qarab ilovalar/ qurilmalardan foydalanish. Diskalkuliya gapiradigan elektronika buramalar, kalkulyator, elektr organizatorlar, yoritgichlar, qalam tutqichlari, post- itlar, kompyuter imlo/grammatikani tekshirgich, elektron organizatorlar, yozib olingan materiallar, qo‘l skanerlari, chop etish yoki rasm jadvali, elektron kundaliklar va boshqalar	Nutqni rivojlantirish, o‘qish va yozishda (disleksiya), qo‘l-ko‘zni muvofiqlashtirishda, yozma ifoda va kompozitsiyada, nozik vosita ko‘nikmalarida qiyinchilik, muvofiqlashtirish (dispraksiya), matematika bilan bog‘liq muammolar bo‘lgan o‘quvchilar uchun

Yordamchi texnologiya qurilmasining muvaffaqiyati uning amalda qo‘llanilishi, foydalanuvchilarning foydalanishda qulayligi va ularning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatidan qoniqishi bilan o‘lchanadi. Yordamchi qurilmalar ehtiyojga asoslangan, ishlab chiqarish, sotib olish va texnik xizmat ko‘rsatish uchun arzon, foydalanish uchun qulay va samarali bo‘lishini ta’minlash juda muhim. Bu loyihalash va ishlab chiqishning har bir bosqichida potensial foydalanuvchilarning bevosita ishtiroki bilan ta’minlanishi mumkin.

Foydalanuvchilar va ularning atrof-muhitiga mosligi. Qurilmalar foydalanuvchilarning intilishlari, hissiy ehtiyojlari va turmush tarziga, ularning madaniyati va mahalliy urf-odatlariga mos kelishi kerak. Mahalliy standartlarga mos keladigan va foydalanuvchi nuqtayi nazaridan jismonan ham qulay bo‘lishi lozim. U foydalanuvchi xavfsizligini ta’minlashi, turli vaziyatlarda foydali bo‘lishi ishonchli bo‘lishi kerak. Ayniqsa, qishloq joylarda, chekka hududlarda va og‘ir sharoitlarda, shuningdek, yer yuzasiga va foydalanuvchining boshqa sharoitlariga mos kelishi kerak.

Arzon va sotib olish oson. Qurilmalar sotib olish uchun past narxda bo‘lishi kerak. Hukumat yoki nodavlat-notijorat tashkilotlari qurilmalarni bepul yoki subsidiyalangan stavkalarda taqdim etish va sotib olishda ham yordam berishi mumkin. Qurilmalarni yig‘ish yoki ishlab chiqarish va texnik xizmat ko‘rsatish oson va arzon bo‘lishi kerak. Shuning uchun qurilmalarni ish holatida saqlash minimal resurslarni talab qiladi va mahalliy mavjud materiallar va texnik ko‘nikmalardan

foydalangan holda ta’mirlanishi mumkin.

Foydalanish oson. Qurilmalar texnologiyaga imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar tomonidan oson va tushunarli bo‘lishi kerak, ko‘chma (bir joydan ikkinchi joyga o‘tish oson) va uzoq muddatli mashg‘ulotlar yoki murakkab ko‘nikmalarsiz ishlatish uchun qulay bo‘lishi kerak. O‘quvchilarning farqli qobiliyatlari, kontekst va yondashuvning maqsadga muvofiqligiga qarab, ta’limdagi yordamchi qoidalar alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar o‘rganishiga yordam beradi. Yordamchi qurilmalar, yordamchi texnologiyalar, resurs xonasini qo‘llab-quvvatlash va innovatsion texnologiyalardan foydalanishda birgalikdagi sa’y-harakatlarga yordam beradi. Tarbiyaviy inklyuzivlikni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash strategiyalari bu o‘quvchilarning inklyuziv ta’lim sharoitlarida nogiron bo‘lmagan tengdoshlari bilan teng ravishda o‘rganishiga yordam berishi mumkin.

Yordamchi texnologiya alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar, jumladan, hissiy, kognitiv, o‘rganish va jismoniy nogironligi bo‘lgan bolalar duch keladigan “funksional to‘siqlar”ni hal qilish orqali ushbu “nogironlik” ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son. (https://lex.uz/docs/-5013007).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 13.10.2020-yildagi PQ-4860-son. (https://lex.uz/docs/-5044711).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 14.04.2022 - yildagi PQ-209-son. (https://lex.uz/ru/docs/-5966089).

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 12.10.2021-yildagi 638-son. (https://lex.uz/ru/docs/-5679836)

5. Xusnuddinova Z. (2022). Corrective pedagogy for blind children cluster mechanisms to increase work efficiency. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, *12*(2), 68-70.

6. Zulayho X. (2022). Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan korreksion

ishlarni tashkillashtirishda ilk qadamni tashlash. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 80-82.

7. Zulayho X. (2022). Ko‘rishida nuqsoni bor bolalarning korreksion mashg‘ulotlar ish tizimini tashkil etish. *Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали*, 218-220.

8. Xusnuddinova Z. X. (2023). Alohida ehtiyojli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. Ta’lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari, 1(1), 365-368.

Dilfuza Azamkulovna Pulatova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi,
+998998307823

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA SIFATLI INKLYUZIV TA’LIM MUHITINI YARATISH (AUTIZM SINDROMLI BOLALAR MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiylashuvida inklyuziv ta’limning ahamiyati ochib berilgan. Xususan, autizm sindromli bolalar inklyuziv ta’limida tolerantlik muhitining yaratilishiga oid ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, aytizm sindromli bola, maktabgacha ta’lim, tolerantlik muhiti

Аннотация

В данной статье раскрывается значение инклюзивного образования в социализации детей с ограниченными возможностями здоровья. В частности, представлены данные о создании атмосферы толерантности в инклюзивном образовании детей с синдромом аутизма.

Ключевые слова: инклюзивное образование, ребенок с ИТ-синдромом, дошкольное образование, среда толерантности.

Abstract

This article reveals the importance of inclusive education in the socialization of children with disabilities. In particular, data on creating an atmosphere of tolerance in the inclusive education of children with autism syndrome is presented.

Key words: inclusive education, child with IT syndrome, preschool education, environment of tolerance.

Har qanday zamonaviy jamiyatning muhim vazifalaridan biri-bu alohida ehtiyojli bolalarga g‘amxo‘rlik qilish va ularga birinchi navbatda inklyuziv ta’limni joriy etish orqali sifatli ta’lim olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 13-maydagi 391-Qarori bilan tasdiqlangan qo‘shma tipdagi MTTlarni tashkil etish to‘g‘risida Nizom ishlab chiqilib, mamlakatimizning ko‘pgina viloyatlarida bunday tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining modellari amalda faoliyat olib borishlari yo‘lga qo‘yila boshladi. Ularda sog‘lom tarbiyalanuvchilar bilan bir qatorda alohida ehtiyojga muhtoj bolalar ham qatnashib, yuqori sifatli ta’lim olish, tengdoshlari qatori ta’lim resurslaridan erkin foydalanish hamda o‘zaro aloqa qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Hozir nogironligi bo‘lgan bolalarning umumta’lim maktablari, davlat tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga integratsiyalashuvi, ya’ni inklyuziv ta’lim amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu jamiyat va davlat tomonidan nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan munosabatni qayta ko‘rib chiqish, nafaqat ularning huquqlari tengligini tan olish, balki bunday bolalarga turli sohalar, jumladan, ta’limda ham keng imkoniyatlarni taqdim etish majburiyati bilan ham bog‘liq. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida “ta’lim olish har bir insonning huquqi” ekani belgilab qo‘yilgan. Bosh qonunimizda ham bu kafolatlanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning bir qancha me’yorida ham bu o‘z aksini topgan bo‘lib, xususan, 50-moddasida inklyuziv ta’lim huquqi belgilandi. Shunday ekan, imkoniyati cheklangan bolalar boshqalar singari bir xil sharoitda ta’lim olishga haqli. Gap faqat ularga bilim berish emas, balki sifatli ta’lim olishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berish haqida bormoqda. Ya’ni, nogironligi bo‘lgan bolalar ham sog‘lom o‘g‘il-qizlar kabi qiynalmasdan bog‘cha va maktabga borishi, ta’lim olishning barcha imkoniyatlariga ega bo‘lishi, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yetishmovchiligiga duch kelmasligi zarur.

Mamlakatimizda alohida ehtiyojga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlash va inklyuziv ta’limni rivojlantirishga doimiy e’tibor qaratib kelinmoqda. “Biz hammamiz boshqachamiz, ammo barchamiz tengmiz” jumlasi mamlakatimizning alohida ehtiyojga muhtoj bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarining asosiy shioriga aylangan deb aytishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 13- oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4860-son Qaroriga asosan O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga

ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida “2020-2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Bu, o‘z navbatida, Maktabgacha ta’lim tizimi va Xalq ta’limi tizimi oldiga inklyuziv sharoitlarda ta’lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish, jamoatchilik o‘rtasida alohida ta’limga ehtiyoji(lari) bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish, ijtimoiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish borasidagi muammolarni ham hal etish vazifalarini qo‘yadi.

Inklyuziv ta’lim- alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni o‘qitishning eng ilg‘or shakli bo‘lib, o‘quv jarayonida bolalar, ota-onalar va pedagoglar birgalikda tadbirlarda faol ishtirok etishadi.

Inklyuziv ta’limning quyidagi afzalliklari alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun ham, me’yorda rivojlangan bolalar uchun ham birdek tegishlidir:

-ijtimoiy imtiyozlar: bolalarga yordam ko‘rsatishda mustaqillikni rivojlantirish, ijtimoiy tajribalarni umumlashtirish, sabr-toqat va tolerantlikni rivojlantirish;

- psixologik foydalar: ustunlik tuyg‘usini shakllantirishdan qochish yoki kamlik tuyg‘usini rivojlantirish;

- tibbiy foydalar: ijtimoiy ma’qul xulq-atvorni taqlid qilish;

- pedagogik afzalliklar: har bir bolaning rivojlanishini o‘ziga xos jarayon sifatida ko‘rib chiqish (bolalarni bir-biri bilan taqqoslashdan bosh tortish).

T.G.Zubareva, N.G.Petelina va N.V.Efremovaning ta’kidlashicha, alohida ta’limga ehtiyojli bolalarning sifatli ta’lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar talab etiladi. Ularning nuqtayi nazariga ko‘ra, inklyuziv ta’limda qulay psixologik muhit yaratadigan tolerantlikning darajasi muhim rol o‘ynaydi.

Tolerantlik muhiti o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari ya’ni, alohida ta’lim ga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning tengdoshlari, ularlarning ota-onalari, pedagoglar va mutaxassislar bag‘rikenglikka ega bo‘lgandagina yaratilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi autizm nuqsonli bolani sog‘lom bolalar bilan umumiy tipdagi ta’lim muhitiga jalb qilish orqali inklyuziv ta’limga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga imkon beradi. Ish bolalarning individual dasturlari bo‘yicha bilim olishlariga imkon beradigan amaliy xatti-harakatlar tahlili asosida qurilishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziya quyidagicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

- vaqtinchalik- bola o‘yinlarda, bayramlarda, sayrda jamoada bo‘lishi mumkin;

- qisman- bola to‘liq bo‘lmagan kuni tengdoshlari bilan bo‘ladi, vizual, musiqiy va motorli mashg‘ulotlarda qatnashadi;

- to‘liq- bolaning doimiy guruhga kecha-yu kunduz tashrifi.

Amaliyotda ko‘proq vaqtinchalik va qisman inklyuziyadan foydalanilishini kuzatishimiz mumkin. Ta’lim va ijtimoiy dasturlarga moslashganda, bola maxsus pedagog yoki (tyutor) bilan birgalikda muayyan faoliyat turlari bo‘yicha doimiy guruhga kiradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, inklyuziya paytida barcha tomonlarning manfaatlari hisobga olinadi, shuning uchun alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bola tayyor bo‘lgunga qadar u qo‘shma darslarga jalb qilinmaydi, eng muhim jihat esa bu- ma’lum bir vaqt istalgan xatti-harakatlarning yo‘qligidir. Bolalar bir-biriga yordam berib, o‘rtalarida yaqin munosabatlar rivojlanadi, bir-birlariga bo‘lgan ishonch paydo bo‘ladi, hissiy adovat asta-sekin yo‘qoladi, bolalar o‘zaro farqlarga e’tibor berishni to‘xtatish orqali bag‘rikeng va chidamli bo‘lishadi. Autizmga chalingan bolalarni ijodiy faoliyat, sport tadbirlari, frontal mashg‘ulotlar va o‘yinlarga integratsiyalash bilan bir qatorda quyidagi ish shakllaridan ham foydalanish mumkin:

- tematik video- resurslardan foydalangan holda autizm muammosi haqidagi multfilm va filmlarni tomosha qilish. ushbu guruh ishi usuli bolalarning o‘zlarida va atrofida sodir bo‘layotgan voqealar to‘g‘risida ijtimoiy-psixologik voqelik va hodisalar to‘g‘risida xabardorligini kengaytirishga yordam beradi;
- ijodiy ishlar ko‘rgazmasi: “dunyo autizm bilan kasallangan bolaning nigohi bilan”, “biz boshqachamiz, lekin biz birgamiz”, “moviy rangda rang” va boshqalar;
- ertak terapiyasining elementlari;
- badiiy adabiyotdan foydalanish, do‘stlik, munosabat va o‘zaro tushunish va boshqalar;
- ijtimoiy harakatlar, bayramlar.

Ota-onalar bilan ish olib bormay turib bolalarda tolerantlikni shakllantirish mumkin emas. Ular bola uchun asosiy namunadirlar. 2013-yilda E. N. Morgacheva tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida inklyuziv ta’lim g‘oyasi va nogiron bolalarning xususiyatlari to‘g‘risida yetarli tushunchaga ega bo‘lishlariga qaramay, ota-onalarning alohida ta’lim ehtiyojli bolalarga munosabatlari neytral yoki salbiy bo‘lishi aniqlangan. Inklyuziv ta’lim jarayonida ko‘pincha sog‘lom bolalarning ota-onalari autizmga chalingan bolalar tomonidan namoyish etiladigan hissiy-emotsional sohaning o‘ziga xos xususiyatlaridan cho‘chishadi. Shuning uchun ham bolalarda bag‘rikenglikni tarbiyalashda pedagoglarning ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishlari lozim bo‘ladi. Bunda ota-onalar bilan ishlashning turli shakllarini qo‘llash mumkin: ota-onalarning tematik yig‘ilishlari, adabiyot ko‘rgazmalari, qo‘shma bayramlar, ota-onalar bilan individual ishlar.

Autizmga chalingan bolalarni inklyuziv o‘qitish ularning ijtimoiy moslashuvi darajasini oshirishga, yetarli ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalarini mustahkamlashga imkon beradi, sog‘lom bolalar boshqa bolalarning rivojlanish xususiyatlariga, o‘zaro

yordam berishga moyil bo‘lishni o‘rganadilar va ularda bag‘rikenglik shakllana boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmanovna, Q. F., Azamkulovna, P. D., & Maxkamovna, M. D. (2022). Inklyuziv ta’limda kadrlar masalasi. o‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(14), 834-842.
2. Pulatova, D., To‘raqulova, D. , Mammadiyeva, D. , Abduvaxobova, N. (2023). Inklyuziv ta’limning terminologik asoslari. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(5), 60–62. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/yota/article/view/13970
3. Pulatova, D., To‘raqulova , D. ., Najmiddinova , N. ., & Ikromova, F. . (2023). Inklyuziv ta’limda AKTdan foydalanish. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(5), 84–86. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/yota/article/view/14040
4. Pulatova, D., To‘raqulova, . D., Saydalova, B., & Zuhriddinova, D. (2023). Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalarni saralash. Наука и инновация, 1(6), 80–82. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/14418
5. Kodirova F.U, Fayzieva U.Y, Pulatova D.A, Ibadullaeva Sh.N, Khusnuddinova Z.H. Inclusive education: theory and practice. Journal of Advanced Zoology. // ISSN: 0253-7214. Volume 44 Issue S7 Year 2023 Page 660:664
6. Kodirova F.U, Pulatova D.A, Khusnuddinova Z.H. Increasing The Profitability Of The Learning Environment Through The Organization Of Adaptive Education In The Conditions Of Inclusion. Journal of Advanced Zoology. // ISSN: 0253-7214. Volume 44 Issue S7 Year 2023 Page 615:620.

Egamberdiyeva Nigora Azizovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasi
o‘qituvchisi
nigoraazizovna1991@gmail.com

ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALARNING TA’LIM OLISHGA BO‘LGAN HUQUQLARINI TA’MINLASHDA INKLYUZIV TA’LIMNING JORIYLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada alohida ehtiyojli bolalarning ta’lim-tarbiya olishga bo‘lgan huquqlarini ta’minlashning me’yoriy-huquqiy asoslari, inklyuziv ta’limning mazmuni, maqsadi hamda inklyuziv sinflari bor maktablarda o‘quvchilar uchun kerakli shart-sharoitlar, moslashtirilgan o‘quv dasturlari va darslarga qo‘yiladigan talablar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, korreksiya, kompensatsiya, moslashtirilgan dasturlar, darsga qo‘yiladigan talablar.

Аннотация

В данной статье рассматриваются нормативно-правовые основы обеспечения прав детей с особыми потребностями на получение образования, содержание, цель инклюзивного образования, а также необходимые условия для учащихся школ с инклюзивными классами, адаптированные учебные программы и требования к урокам.

Ключевые слова: инклюзивное образование, коррекция, компенсация, адаптированные программы, требования к уроку.

Jismoniy va ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bor bolalarni o‘qitish va tarbiyalash masalalari hozirgi kunda ta’lim tizimining dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahonda alohida ehtiyojli bolalar va kattalarning ijtimoiylashuv masalalari insonparvarlik tamoyillari singdirilgan amaliy vazifalar miqyosida tizimli hal etib kelinmoqda. Jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasi xalqaro tashkilotlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. BMTning “Xalqaro Oila kuni” rezolyusiyasi, YUNESKOning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi, “Ming yillik rivojlanish” hamda “Bolalar hayot kechirishi uchun maqbul dunyoni yaratish to‘g‘risida”gi deklaratsiyalarida alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta’lim sharoitida sifatli ta’lim muhitini yaratish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860 son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar

ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari mamlakatimizda alohida ehtiyojli bolalarning ta’lim olishga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash bo‘yicha huquqiy-me’yoriy asos hisoblanadi.

2020-yil 19-may kuni Oliy Majlis ilk bor inklyuziv (uyg‘unlashgan) ta’lim tushunchasi kiritilgan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qildi. O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta’lim tamoyillariga muvofiqligi bo‘yicha tahlil o‘tkazdi. Qonunning 20-moddasi alohida ehtiyojli bolalarni ta’lim olish imkoniyatini yaratadi.

Qonunning 20-moddadasida Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etiladi. Inklyuziv ta’limni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilandi.

Inklyuziv ta’lim - nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar, (turli sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lgan) o‘smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.[3;6]

“Inklyuziv ta‘lim” atamasi fransuzcha “***inclusif”*** so‘zidan olingan “o‘z ichiga oladi” degan ma’noni anglatib, maxsus ehtiyojlari bo‘lgan va shartli ravishda sog‘lom, ya’ni sog‘lig‘i cheklanmagan shaxslarning birgalikdagi ta’limini anglatadi. Inklyuziv ta’lim - hamkorlikdagi ta’lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta’lim sifatida tan olingan bo‘lib, “inklyuziv” va “integratsiyalashgan” atamalari ko‘pincha bir xil ma’noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan ushbu tushunchalar orasida farq bor:

- nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo‘yilgan birinchi qadamdir;
- integratsiyalashgan ta’lim - bu diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir;
- integratsiyalashgan ta’limda bolaga muammo sifatida qaraladi.

Inklyuziv ta’lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta’lim tarbiya olishlarini ta’minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv ta’lim olish jarayoni bir-biriga o‘xshamaydigan, intellektual, jismoniy va ruhiy rivojlanishida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo‘lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim

va ko‘nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziy ta’lim - alohida ehtiyojli bolalar bilan sog‘lom bolalar uchun teng ta’lim olish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorining 4-bobi, 17-bandiga ko‘ra bugungi kunda umumta’lim maktablarining inklyuziv sinflariga quyidagi toifadagi alohida ehtiyojli bolalar qabul qilinishi belgilab qo‘yilgan:

- eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);
- ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);
- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);
- nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);
- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo‘y o‘sishining yetishmovchiligi — pakanalik);
- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalar;
- aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o‘zi harakat qila oladigan yoki qo‘shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji);
- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;
- xulq-atvor va ruhiyatning qo‘pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;
- intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo‘lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1martadan oshmagan paytda).

Alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv sinflarga yaratilgan maxsus shart-sharoitlar, moslashtirilgan o‘quv rejalari, dasturlari, darsliklar tufayli bu toifadagi bolalar ta’lim-tarbiyasini samarali tashkil qilish mumkin.

Inklyuziv ta’lim ishtirokchilariga oila, maktab, mahalla, sinfdoshlari va tengdoshlari, mutaxassislar, sog‘liqni saqlash tizimi xodimlari kiradi.

Inklyuziv ta’lim, barcha subyektlar birgalikda maqsadli faoliyat olib borgandagina, samarali natijalarga erishiladi. Ya’ni:

Oila - ota-ona farzandining ijtimoiy hayotga erta va samarali moslashishi uchun o‘z tengqurlari bilan ta’lim olishi zarurligini anglashi va har tomonlama tayyor bo‘lishi kerak.

Mahalla – o‘z navbatida aholini imkoniyati cheklangan bolalarga ijobiy munosabatda bo‘lishini tarbiyalashi, oilani ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Maktab jamoasi - imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berishga tayyor bo‘lishi, ularni qabul qilish uchun shart-sharoitlar yaratishi lozim.

Sinfdoshlar - sog‘lom o‘quvchilar imkoniyati cheklangan bolalarni o‘z saflariga qabul qilishga tayyor bo‘lishlari kerak.

Mutaxassislar - maktabga kelgan o‘quvchini birinchi navbatda o‘qituvchi, psixolog, maktab shifokori, defektolog (logoped) qo‘llab-quvvatlab, ta’limga to‘g‘ri yo‘naltirishlari lozim.

Sog‘liqni saqlash tizimi klinik tashxis qo‘yishi, muntazam davolash-profilaktika ishlarini olib borishi zarur.

Xalq ta’limi tizimi o‘quvchini ta’lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish bilan birga metodik qo‘llanma va tavsiyalar bilan ta’minlashi kerak;

Tibbiy-psixologo-pedagogik komissiya bolalarni o‘rganib, tegishli xulosani beradi va ota-ona tanlovi asosida bolani ta’limga yo‘naltiradi.

Nodavlat va notijorat tashkilotlari maktabdagi ta’lim-tarbiya muassasalariga homiylik va boshqa yordamlarni ko‘rsatadi.[1;181]

Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan inklyuziv sinflarda o‘qitish umumdidaktik va xususiy tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi. Mazkur tamoyillardan to‘liq foydalanish sog‘lom va imkoniyati cheklangan bolalarni samarali o‘qitishning muhim shartlaridandir.

Alohida ehtiyojli bolalarni o‘qitish jarayonida umumdidaktik tamoyillar bilan birga quyidagi xususiy tamoyillardan foydalaniladi:

- ta’lim-tarbiya jarayonida korreksiya-kompensatsiya ishlarining ustivorligi tamoyili;
- nutqiy muloqotga ehtiyojni tug‘diruvchi muammoli vaziyatlarni yaratishning muhimligi tamoyili;
- vaziyatboplik tamoyili;
- konsentrik yondashuv tamoyili.

Shu bilan birga inklyuziv sinflarda darslarga qo‘yiluvchi talablar quyidagicha turkumlanadi:

1) pedagogik talab;
2) gigiyenik talab;
3) psixologik talab;
4) zamonaviy talab;

5) didaktik talab;
6) tarbiyaviy talab. [4;28]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, alohida ehtiyojli bolalar sog‘lom tengdoshlari kabi ta’lim olish huquqiga ega. Shu bilan birga, maxsus tashkil etilgan o‘quv faoliyati ushbu toifadagi bolalarning ta’lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirishini ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida alohida ehtiyojli bolalarning ijtimoiy hayotga erta moslashishi va integratsiyalashuvini keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. S.B.Qorayev, A.Sh.Abdujalilova. Umumiy pedagogika. Darslik.Toshkent: “Olmaliq kitob business” - 2024-y.
2. F.U.Qodirova. Inklyuziv ta’lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash metodikasi (musiqa ta’limi misolida). O‘quv qo‘llanma – Chirchiq: “Zebo Prints”, 2023-y.
3. F.U.Qodirova, X.Sh.Yunusova. Inklyuziv va maxsus ta’limning filologik asoslari. O‘quv qo‘llanma – Toshkent: “Zebo Prints”, 2022-y.
4. F.U.Qodirova, Sh.Z.Matupayeva. Matematika o‘qitish metodikasi (inklyuziv ta’limda). Darslik – Toshkent: “Yangi chirchiq book”, 2022-y.
5. Qodirova, F. U., & Egamberdiyeva, N. A. (2023). Ta’lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalarni tashxislash va korreksiyalash ishlarining mazmuni. Konferensiya, 1(1), 201-205.
6. Egamberdiyeva, N. A., & Raxmatullayeva, M. R. (2022). Inklyuziv ta’limda eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarning psixologik xususiyatlari. Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari, 1(1), 163-167.

Ibadullayeva Sh. N.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIM

Annotatsiya

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tashabbuslari bilan inklyuziv ta’limda olib borilayotgan ilg‘or ishlar va yangilanayotgan O‘zbekistonda inklyuziv ta’limga qaratilayotgan e’tibor va yaratilgan keng imkoniyatlar qabul qilingan qarorlar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, qaror, imkoniyat, alohida ta’lim, ommoviy ta’lim, ijtimoiylashish.

Аннотация

Дана информация о передовой работе, проводимой в инклюзивном образовании по инициативам нашего Президента Шавката Миромоновича Мирзиёева и принятых решениях относительно уделяемого внимания инклюзивному образованию и широких возможностей, создаваемых в модернизирующемся Узбекистане.

Ключевые слова: инклюзивное образование, решение, возможность, специальное образование, массовое образование, социализация.

Abstract

Information is given about the advanced work being carried out in inclusive education by the initiatives of our President Shavkat Miromonovich Mirziyoyev and the decisions made regarding the attention paid to inclusive education and wide opportunities created in the modernizing Uzbekistan.

Key words: inclusive education, decision, opportunity, special education, mass education, socialization.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirish va barcha maktab yoshidagi bolalar sifatli bilim olish huquqiga ega ekanligini inobatga olgan holda inklyuziv ta’limga bo‘lgan e’tibor yanada oshdi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabridagi Oliy Majlisga murojaatnomasida 2023-yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nomlanishini taklif etdi. Yig‘ilganlar tomonidan bu tashabbus qo‘llab-quvvatlandi. Zero, ta’lim sifatini oshirish-Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir. Shuning uchun ushbu sohada ko‘proq muloqot va islohotlar olib borish, o‘quv faoliyat ishlari sifatini yanada oshirish bo‘yicha konsepsiyalar ishlab chiqish lozim” deb ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasida 2005-yilning 19-sentabrida XTV ning 234-sonli buyrug‘i bilan “Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar uchun inklyuziv ta’lim to‘g‘risida Muvaqqat Nizom” I tasdiqlandi. Unda qayd qilinishicha imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar quyidagi tartibda inklyuziv ta’limga qamrab oladi :

-ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar;

-harakat muvozanati buzilgan;

-o‘ziga-o‘zi xizmat qila oladigan oligrofren darajadagi bolalar va o‘smirlar;

-nutqida nuqsoni bor bolalar;

-zaif eshituvchi bolalar;

-zaif ko‘ruvchi va kech (5 yoshdan keyin) bo‘lgan bolalar;

-ko‘zi ojiz (Brayl tizimi va o‘qishni egallagan) bolalar va o‘smirlar;
-kar (muloqot darajasida nutqi bo‘lgan, o‘qishni va yozishni bilgan) bolalar va o‘smirlar.

Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021-yildagi “Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risidagi Muvaqqat Nizomi” tasdiqlandi. Hujjat 13.10.2020-yildagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4860-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan.

Inklyuziv ta’limning ijobiy tomonlari bo‘lganiday salbiy tomonlari ham yo‘q emas, albatta. Buni bartaraf etish va takomillashtirish maqsadida quyidagi sharoitlar amalga oshirilmoqda:
-inklyuziv ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish, inklyuziv ta’lim metodikasiga oid materiallarni takomillashtirish;
-inklyuziv ta’lim jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismoniy sog‘lom va baquvvat shakllanishiga erishish;
-inklyuziv ta’lim joriy etilishida, avvalo, chekka hududlarda joylashgan alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qishiga e’tibor qaratish;
-inklyuziv ta’lim dasturlari asosida zamonaviy, axborot-kommunikativ texnologiyalari asosida dars shakllantirish;

Inklyuziv ta’lim tizimi orqali quyidagi natijalarga erishish ko‘zda tutilmoqda: Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan shaxslarning rivojlanishi, ularning jamiyatga integratsiyasi, inklyuziv ta’lim tizimi qulayliklari va afzalliklari, ta’lim sifati, shuningdek, o‘quvchilarning rivojlanish darajasi, o‘z qobiliyatini rivojlantirish orqali yutuqlarga erishishini ta’minlash, inklyuziv ta’limni bosqichma-bosqich tashkil etish orqali alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni teng huquqli jamiyat a’zosi sifatida umumta’lim muassasalarida ta’lim olishlari va shu kabi natijalar.

Inklyuziv ta’lim – ta’lim turi, jismoniy, aqliy, ijtimoiy, hissiy va boshqa xususiyatlardan qat’iy nazar umumta’lim muassasalarida ta’lim olishdir. Psixolog L.S.Vigotskiy (1986-1934) inklyuziv ta’lim asoschisi bo‘lib, uning nazariyasiga ko‘ra bolalar ijtimoiy muhitda eng samarali bilim olishadi. Oliy aqliy funksiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hamkorlikdan boshlanadi, keyin shaxsiy bo‘ladi deb aytib o‘tgan. L.Vigotskiy ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida pedagoglar o‘rni kattaligini ta’kidlaydi. Ko‘pgina mamlakatlarda bu jumla to‘g‘ri qarash ekanligini ko‘rsatadi.

Bizning ta’lim darajamiz uzoq vaqt davomida barqaror darajada bo‘lib turibdi. Bu holatda ta’lim tizimi yaxshi ishlaydi, ammo rivojlanmaydi. Chunki rivojlanish doimo yangilik yaratilgan joyda bo‘ladi. Bu gapimizga Prezidentimiz Shavkat

Miromonovich Mirziyoyevning keltirilgan so‘zlari asos bo‘ladi: “Ushbu jarayonlarda deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyolilar, yoshlar, tadbirkorlar va keng jamoatchiligimizning faol bo‘lishlarini, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishlarini so‘rayman”.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev imkoniyati cheklangan shaxslar uchun bir qancha qonunlar qabul qilgan. Shunday qonunlardan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son Farmoniga muvofiq kirish imtihonlarida ishtirok etgan nogironligi bo‘lgan shaxslarni oliy ta’lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan qo‘shimcha ravishda ikki foizli davlat granti asosidagi kvota ajratish tartibini joriy etish belgilangan. Bu qonun I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 14-maydagi PQ-4319-son qarorida oliy ta’lim muassasasiga qabul bo‘yicha test sinovlari tashkil etilayotgan o‘quv yilidan avvalgi yillarda ta’lim muassasalarini tugatgan abituriyentlardan bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravari miqdorida to‘lov to‘lashi belgilangan. Nogironligi bo‘lgan shaxslar mazkur to‘lovdan ozod etilgan. Bu ham ularga yaratilgan imtiyozlardan biridir.

BMT ning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari tengligi, ayniqsa, ayollar va bolalarning ta’lim olishi, salomatligini saqlashi, mehnat qilishi, o‘zi va oilasi uchun yetarlicha turmush sharoitiga ega bo‘lishining huquqiy kafolatlarini belgilovchi xalqaro huquqiy hujjatdir. Mazkur Konvensiya BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan va 2008-yil 3-mayda kuchga kirgan. BMT ning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi XXI asrda qabul qilingan inson huquqlari to‘g‘risidagi birinchi shartnomadir. 2021-yil fevral holatiga ko‘ra, BMT ning 192 a‘zo davlatidan 182 tasi ushbu xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilgan. Konvensiya 50 ta moddadan iborat bo‘lib, dunyodagi nogironligi bo‘lgan shaxslar holatini tahlil qilish asosida qabul qilingan.

Qonunlar haqida so‘z yuritilar ekan, eng avvalo, har bir insonni huquqlari to‘g‘risida gap ketadi. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan va Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma’qullangan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning tub tubida quyidagi asosiy masalalar haqida yoziladi:

- nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlash sohasini tartibga solish;

-nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlat va jamiyat hayotida to‘la huquqli tarzda ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- fuqaroni nogironligi bo‘lgan shaxs deb e‘tirof etish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni reablitatsiya va abilitatsiya qilish;

- nogironligi bo‘lgan shaxslarning sog‘lig‘ini saqlash va ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish;

- nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishi, ushbu shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

-nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat qilishi va bandligini ta’minlash.

Yuqorida keltirilgan qonunning qisqacha mazmuni shundan iboratki, imkoniyati cheklangan shaxslar ham sog‘lom insonlar singari haq-huquqlari davlat tomonidan muhofaza qilinadi. 2020-yil 28-iyulda Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi uchun BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida” gi konvensiyasining kuchga kirishiga bag‘ishlangan marosim bo‘lib o‘tdi. Bu anjuman O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 22-fevral kuni BMT “Inson huquqlari” bo‘yicha kengashning 46-sessiyasidagi nutqida ilgari surgan yana bir tashabbus amalga oshirilgani munosabati bilan tashkil etildi. Bu o‘rinda gap 2021-yilda “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingani haqida bormoqda.

Bundan tashqari yana 2021-yil 30-31-mart kunlari Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) komissiyasining 17-sessiyasi imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlariga bag‘ishlandi. Ushbu yig‘ilish “Imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish” mavzusida bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda Hukumat qarorlarida nogironligi bo‘lgan shaxslarga davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha bir qator imtiyozlar va qulayliklar yaratilgan.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun bundan tashqari yana bir qancha imtiyozlar yaratilgan. Davlatimiz rahbari ham nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yana bir qancha qonun va qarorlar qabul qilingan. Ular o‘zlari uchun yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanadilar. O‘zlariga berilayotgan bilimlarni o‘zlashtirishi biroz qiyin bo‘lsa-da, o‘zlari tanlagan biror bir sohani ustasi bo‘lishga intiladi. Ular uchun yaratilgan oliy ta’limga qabul qilinishi ularning intilishlariga, o‘z orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishga harakat qilishadi. Hayotda hech qachon qoqilmaslikka, o‘zlarini sevimli ishlari, sohalari bo‘yicha yangidan yangi kashfiyotlar qilishga o‘z bilimlarini sarflaydilar. Imkoniyati cheklangan insonlarni ko‘rsangiz ularni imkoniyati cheklangan deb o‘ylamaysiz. Ularni bir ko‘rishdayoq mehringiz tushib qoladi. Mana shundan insonlarga bilim berish biroz mushkul

hisoblanadi. Ammo bu insonlar ham kimningdir yordamiga muhtoj. Ularga bilim berish savobli ish hisoblanadi. Men ham mana shunday insonlarga yordam berish uchun maxsus pedagogikaning surdopedagogika yo‘nalishida tahsil olmoqdaman. Imkoniyati cheklangan bolalarga yana bir muhim yangiliklardan biri bu inklyuziv ta’limning joriy etilganidir. Inklyuziv ta’limda ular sog‘lom bolalar singari oddiy maktabda o‘qishadilar. Bu ham ularga yaratilgan imtiyozlardan biridir.Shunday ekan biz ham imkoniyati cheklangan insonlarga o‘z qo‘limizdan kelgancha yordam berishga harakat qilamiz. Barcha O‘zbekiston Yoshlari bir kuchmiz va oldimizga qo‘yilgan maqsadlarni birgalikda amalga oshirishga harakat qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida “ gi PQ-4860-son qaror ;
2. Vazirlar Mahkamasining “ Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risidagi Muvvaqqat Nizom “ I;
3. “Oliy Ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-3775-son qaror “ I ;
4. Sh.N.Ibadullayeva. Inklyuziv ta’lim - imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash // European Journal of Interdisciplinary Research and Development Volume-09 Nov. - 2022 Website: www.ejird.journalspark.org ISSN (E): 2720-5746
5. Sh.N.Ibadullayeva Pedagogika desantura-ta’lim klasteri asosida inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishning innavotsiyon mexanizmi sifatida Муғаллим ҳэм узлуксиз билимлендириў илмий-методикалық журнал № 6/3. Nukus 2022y.
6. Sh.N.Ibadullayeva Sh.F.Xabibullayeva R.S.Otajonova “O‘zbekistonda inkluyziv ta’lim” Международный современный научно-практический журнал “Научный импульс” № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 1
7. Sh.N.Ibadullayeva B.J.Bekchanova Bag‘rikenglik, tenglik, integratsiya –”oq qamish” chellenchida Международный современный научно-практический журнал “Научный импульс” № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 2
8. Monografiya.Sh.N.Ibadullayeva.”Ta’lim klasteri asosida inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish”, ttps://novateurpublication.com/index.php/np/catalog/book/158.

Olimova Nodirabegim Ibrohimjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

INKLYUZIV VA MAXSUS TA’LIM TIZIMIGA MAXSUS PEDAGOGLARNI KASBIY TAYYORLASHNING MUHIM JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada surdopedagog kadrlarni kasbiy tayyorlashning vazifalari, mohiyati va “Maxsus pedagogika” (surdopedagogika) eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni maxsus ta’lim-tarbiya jarayoni nazariyasi va amaliyoti haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Maxsus pedagogika, surdopedagogika, YUNESKO, “Namunali ta’lim” risola, didaktika.

Mamlakatimizda taraqqiyotimizning asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirish keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishni talab etmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga ko‘ra, islohotlar markazida aholining, jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo‘lgan shaxslarning turmush tarzini tubdan yaxshilash, sog‘liqni tiklash va mustahkamlash, ta’lim-tarbiyasi jarayoni sifatini ta’minlash masalalari asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu o‘rinda maxsus va inklyuziv ta’lim jarayoni uchun pedagog kadrlarni tayyorlash muhim o‘rin egallaydi.

Kattalar ta’limining rivojlanishiga YUNESKOning ta’lim bo‘yicha xalqaro komissiyasi tomonidan hayot davomida uzluksiz ta’lim olishning asosiy tamoyillarini, ya’ni “anglashni o‘rganing”, “amalga oshirishni o‘rganing”, “birgalikda yashashni o‘rganing”, “yashashni o‘rganing” kiritilishi asos bo‘ldi. Bunda yangi ta’lim dasturlarini yaratishga, ta’lim sifatini ta’minlashda yangicha yondashuvlarga, ta’lim-tarbiyaning yangi shakllarini joriy qilishga qaratilgan ta’lim siyosatini va paradigmasini, hozirgi kunga qadar mavjud bo‘lgan konsepsiyasini o‘zgartirish zaruriyati tug‘ildi. Shu bois, ta’lim xizmatlarini tashkil etishning turli darajalarini aks ettiruvchi rasmiy, norasmiy va informal ta’lim shakllari kiritildi. Endilikda hayot davomida uzluksiz ta’lim olishda individual ta’lim olish traektoriyasini loyihalash, kasbiy rivojlanish va malaka oshirish ta’limning jozibadorligini ta’minlashda rasmiy, norasmiy va informal ta’limning didaktik imkoniyatlaridan foydalanishni pedagogik jihatdan asoslash talab etiladi. Bugungi kun tushunchasidagi kattalar ta’limi rivojlanishi yoki uzluksiz ta’lim olish XXI asrdagi tezkorlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini barcha sohalarini egallashi, ta’limni raqamlashtirilishi natijasida fan, texnika, ijtimoiy-

iqtisodiy munosabatlardagi o‘zgarishlar oqibati bilan bog‘liq. Katta yoshlilar ta’limi jarayonining o‘ziga xos jihatlaridan biri bu o‘zlashtirilayotgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar tizimining kasbiy yoki hayotiy jarayonda o‘z o‘rnini topishga qaratilganligining ongli ravishda anglanishi, maqsadning aniqligi, o‘qish-o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyaning kuchliligi bilan tavsiflanadi. Bu esa ta’lim jarayonida o‘ziga xos differansial yondashuv, zaruriy pedagogik shart-sharoitlar hamda o‘qitish texnologiyalarini talab etadi. Abu Nasr al Farobiy “Namunali ta’lim” risolasida ta’lim oluvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan materialni yaxshi yo‘sinda bayon qilish masalasiga alohida to‘xtalib, kishi bilim va tajriba orttirmasdan oldin juda ko‘p narsalarni nazarga ilmaydi, bilim egallab, tajriba hosil qilgach, haligi narsalarga qarashini o‘zgartiradi, avval behuda deb hisoblovchi narsalarning zaruratligini his etadi, ilgari e’tiborini tortmagan narsa endi aksincha uni hayratga soladi” deb yozadi.

“Maxsus pedagogika” (surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika) fanni o‘qitishdan maqsad – defektologiya fakulteti talabalarida ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar uchun maxsus muassasalarda korreksion ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari hamda usullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir. “Maxsus pedagogika” (surdopedagogika) esa eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni maxsus ta’lim-tarbiya jarayoni nazariyasi va amaliyoti, eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning xususiyatlari, ularni rivojlantirish, korreksiya vositalarini yaratish, qo‘llash, o‘rganish masalalarini qamrab oladi. Oliy o‘quv yurtlari Defektologiya yo‘nalishi talabalar maxsus pedagogikaning metodologik asoslari, xalq ta’limi hamda pedagogika fanining hozirgi zamon talablari, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi nazariyasi va amaliyotining hozirgi zamon holati bilan tanishib borishadi. Bunda “Maxsus pedagogika” fani yetakchi o‘rin egallaydi. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriatida “Maxsus pedagogika” fani quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash asoslarining nazariy bilimlari;

amaliy kasbiy ko‘nikmalarining shakllanishi;

pedagogik qobiliyatlarining rivojlanishi;

bo‘lajak kasbiga qiziqish, o‘z ustida ishlash hamda pedagogik ko‘nikmasini takomillashtirish.

O‘z mutaxassisliklariga binoan talabalar surdopedagogikaning metodologik asoslari, ta’lim tizimi hamda pedagogika fanining hozirgi zamon talablari, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi nazariyasi va amaliyotining hozirgi zamon holati bilan tanishib borishadi. Bu borada

talabalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga, ularning mustaqil, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, kasbiy bilim va ko‘nikmalarini egallashiga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur talablarga muvofiq ravishda nafaqat nazariy materiallar bayon etiladi, balki talabalarning mustaqil ishlashi uchun ham vazifalar ro‘yhati beriladi. Mazkur vazifalar mazmun jihatdan turlichadir. Unga materialni ongli ravishda idrok etishga, eshitadigan va eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning o‘qish jarayonining umumiy va xususiy tomonlarini ajratishga, materialni qayta guruhlashtirishga, sxema va jadvallar tuzishga doir vazifalar kiritiladi. Qator vazifalarni talabalar maktab-internatga borganidan so‘ng, laboratoriya mashg‘ulotlarida yoki pedagogik amaliyot davrida bajarishi nazarda tutilgan.

Dars o‘tish o‘qituvchidan fanni puxta bilishnigina emas, balki o ‘z bilimini ustalik bilan talabalar ongiga yetkazishni ham talab qiladi. Talabalar fanni puxta o‘zlashtirishlari uchun uni o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar katta ahamiyatga ega, shu sababli pedagoglar o‘z fanlarini o‘rganish metodlarini puxta egallashlari, ularni mahorat bilan qo‘llay bilishlari kerak. Fanning maqsadi kasb ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarni fanni o‘rganishda qo‘llaniladigan an’anaviy va interaktiv metodlar bilan tanishtirish va kelajakda o‘z faoliyatlarida qo‘llash va yangi usullarni yaratishni o‘rgatishdir.

Didaktika (yunon-didaklikos-o‘qitadigan, o‘rgatadigan) - pedagogikaning bilim olish, ta’lim va tarbiya nazariyasiga oid sohasi. U talabalaning bilim olish, o‘zlashtirish va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoniga xos ta’lim prinsiplari, uslublari va o‘quv jarayonini tashkil qilishga oid hamma masalalarni o‘rganadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda didaktika sohasi avvalgi erishilgan yutuqlarni saqlab qolgani holda yangiliklar bilan boyitilib, yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda didaktikaga tarbiyadan alohida holda qaralmaydi. U yoshlarni tarbiyalashdagi umumiy maqsad va vazifalardan kelib chiqadi. Yoshlarga ta’lim berish jarayoni jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika taraqqiyoti, jamiyatning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi bilan chambarchas bog‘iq. Ta’lim va tarbiyaning mazmuni, maqsadining o‘zgarishi didaktika prinsiplari, uslublari va tashkiliy shakllarining ham o‘zgarishiga, rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Barcha fanlarni o‘rganishda didaktik prinsiplar muhim o‘rin tutadi. Didaktik prinsiplar dars mazmuni va darsni tashkil etishga tegishlidir. Didaktik tamoyillarga o‘qitish va o‘qish jarayonida qoidalar sifatida rioya qilinishi zarur. Ular bir-biriga bog‘lanib ketadi, quyidagi prinsiplar o‘qitish va o‘qish jarayonini samarali tashkil qilish bo‘yicha qoidalar bo‘lib, ular uzoq vaqt davomidagi tajribaga asoslangan. Ta’lim berish (didaktika)ning asosiy tamoyillari quyidagilar.

1. Faollik tamoyili. Inson ta’lim olishining haqiqiy, chinakam mohiyati o‘zining aqliy faoliyati natijasida bilimning yangi-yangi sir-asrorlarini mustaqil ravishda

anglab olishidir. Talaba, o‘quvchi o‘z harakati bilan fanlarni yaxshiroq o‘rganadi va o‘zlashtiradi. O‘quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ulaning o‘zlari fanga qiziqsin, uni bilishga harakat qilib, intilsin. Buning uchun o‘quvchi-talabalar darsga faol qatnashishi lozim.

2. Nazariya bilan amaliyotning bir-biri bilan bog‘liqligi. Nazariy bilim doim kasb-hunar amaliyoti bilan bog‘lanishi lozim. Amaliy ta ’lim ham o‘z navbatida nazariy bilimlarga asoslangan bo‘lishi kerak.

3. Ko‘rgazmalilik. Bilimlarni iloji boricha ko‘rgazmali va real hayotga yaqin tarzda taqdim etish tilning tushunarliligini va ta’lim jarayonida audiovizual vositalardan foydalanishni, bevosita ish holatida va real obyektlarda o‘qitishni talab qiladi. Darslar ko‘rgazmali qurollar yordamida berilsa, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari osonlashadi.

4. Tushunarlilik. O‘quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo‘lishi kerakki, o‘quvchilar uni o‘zlaridagi bilimlar bilan bog‘lay olishsin va uni tushunishda qiynalmasin. Ya’ni, o‘quv materialining mazmuni, shuningdek, o‘qituvchining tili va fikrlarini ifodalash usuli o‘quvchi-talabaning bilim saviyasiga mos kelishi lozim. Lekin bu ilmiy terminlardan foydalanilmaydi, degani emas.

5. Namunalardan foydalanish. O‘quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim to‘g‘ri namunalarni tanlashga harakat qilish kerak. Yaxshi model, amaliyotdan olingan tipik misollar, turlicha mahsulotlar ham olingan natijaning sifati qanday bo‘lishini aniq ko‘rsatadi.

6. Ilmiylik o‘quv materialining mazmuni haqiqiy va ilmiy jihatdan tasdiqlangan yoki ilmiy tadqiqotlar asosida sinalgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, fanning yangi yutuqlari va kashfiyotlarini o‘zida aks ettirishi lozim. O‘qituvchining taxminiga yoki subyektiv fikriga asoslangan material qo‘llanilmasligi kerak.

7. Bilimlarni qo‘llash. O‘quvchi-talabalar olgan bilimlarini amalda qo‘llay olishi kerak. Shuning uchun bu bilimlar qo‘llanilgan va amaliy vaziyatda sinalgan bo‘lishi zarur bunday amaliy vaziyatlar o‘qituvchi tomonidan yaratilishi lozim.

8. Natijalarni mustahkamlash tamoyili. O‘qishdagi muvaffaqiyatlar tan olinishi va baholanishi kerak. Bu o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida doimiy aloqa bo‘lishini talab qiladi. Natijalar esa maxsus “Baholash varaqalari”da qayd qilinishi kerak. Shunday qilib, hozirgi paytda ko‘pgina mamlakatlarda maxsus ehtiyojlarga ega bolalani imkoniyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda alohida ta’lim va tarbiya berishdan to‘liq integratsiyaga o‘tilmoqda. Mazkur jarayon mamlakatlani qonunlari tomonidan tartibga solinadi. Mazkur kategoriyadagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning dunyoviy tajribasidan kelib chiqqan holda alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalani o‘qitishni tashkil etishning minimal standartlari ishlab chiqilgan.

1. Turli darajadagi og‘ir kamchiliklarga ega o‘quvchilarni pedagogik xususiyatlarini inobatga olgan holda imkon boricha umumta’lim maktabining boshlang‘ich va o‘rta sinflariga kiritish zarur.
2. Agar rivojlanishdagi nuqson umumta’lim sinfiga to‘liq integratsiyaga imkon bermasa, o‘quvchi umumta’lim sinfida ijtimoiy va ta’limiy asoslarga ega bo‘lishi va qo‘shimcha tarzda darsdan tashqari individual yoki guruhli davolash-korreksion darslar olishi mumkin.
3. Og‘ir aqliy va jismoniy kamchiliklarga ega bolalar umumta’lim maktabi qoshidagi alohida sinflarda tahsil olib, bunda bolalar tizimli ravishda sog‘lom tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lishi mumkin. Xizmat ko‘rsatish tizimi borasidagi asosiy e’tibor ma’muriyatga qulay sharoitlar yaratishga emas, bolalami ta’lim-tarbiya olish imkoniyatiga qaratiladi.
4. Individual o‘quv rejalari pedagog va ota-onalar hamkorligida o‘quvchilarni integratsiyalashgan ta’lim olish ehtiyoji va atrof- muhitni shart- sharoitlarini inobatga olingan holda tuziladi.
5. Ta’lim-tarbiyani tashkil etishda mustaqillik ongli ravishda shakllantiriladi.
6. O‘quv jarayonini mazmuni bolani yoshiga mos va integratsiyalashgan muhitda faoliyat ko‘rsatish uchun zarur funksional malakalar (uy ro‘zg‘ori, kasbiy xizmat ko‘rsatish, transport va h.k.) ga bog‘liq bo‘lishi joiz.
7. Ta’lim-tarbiya, boshqa odamlar bilan munosabatlar bolalar integratsiyalashgan muhitda boshqa individlar bilan munosabatga kirishini kafolati bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining farmoni 1-ilova. PF-158-сон 11.09.2023.
2. “O‘zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-407-сон 20.10.2022.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –160 b.
4. Nazarova D.A, Mamarajabova Z.N. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika). - T.: Innovatsiya-ziyo. 2020.
6. Nazarova Dildora Asatovna. (2022). Modern approaches in the process of training educators for a special and inclusive education system. European Scholar. 3(10), 91-92. Retrieved from. https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/2798

7. Nazarova D.A. Inklyuziv madaniyatini shakllantirishda ta’lim klasteri subyektlarining o‘rni. //Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference.
8. Nazarova Dildora Asatovna. Organization of modern lessons in special educational institutions is the basis of the inclusive education. International Journal of Academic Research and Reflection Vol. 8, No. 3, 2020 ISSN 2309-0405
9. Nazarova D. A Aspects of achieving effective performance of heads of educational institutions in the context of inclusive education// Педагогика и современное образование: традиции, опыт и инновации. Сборник статей XYI международной научно-практической конференции. Пенза, 2021. Стр.10-12.
10. D.Tojiboyeva, A.Yo‘ldoshev. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: “Aloqachi”, 2009, 342-bet.
11. Xamidova M. Maxsus pedagogika (mutaxassuslikka kirirsh). -T.: NIF MSH. 2020.

Назарова Эльвира Нариманович
Заведующая кафедрой дошкольного образования
Университет Пучон в Ташкенте

УСЛОВИЯ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ РАВНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВ И ЗАКОННЫХ ИНТЕРЕСОВ ДЕТЕЙ, НУЖДАЮЩИХСЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ

Аннотация

В статье освещаются особенности воспитательной работы с детьми раннего возраста, находящихся в альтернативной опеке. Затронуты проблемы в разработке методологических основ, вопросы подготовки кадров, разработки образовательных программ. Предложены некоторые решения для повышения качества оказываемых воспитательных, социальных и развивающих услуг детям, находящихся в альтернативной опеке.

Ключевые слова: сироты; дети, оставшиеся без попечения родителей, альтернативная опека; институциональные учреждения; сенситивный период.

Annotatsiya

Maqolada muqobil parvarishdagi ilk yoshdagi bolalar bilan tarbiyaviy ishning xususiyatlari yoritilgan. Uslubiy asoslarni ishlab chiqishning umumiy muammolari, kadrlar tayyorlash va ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda yuzaga keladigan masalalar ko‘rib chiqiladi. Muqobil parvarishdagi bolalarga ko‘rsatilayotgan ta’lim, ijtimoiy va rivojlanish xizmatlari sifatini oshirish bo‘yicha ayrim yechimlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: yetimlar; ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar, muqobil parvarish; institutsional muassasalar; sensitiv davr.

Annotation

The article reveals the importance of the development of children from birth to 3 years. The features of educational work with young children in alternative care are highlighted. General problems in the development of methodological foundations, issues arising in the training of personnel and the development of educational programs are touched upon. Some solutions have been proposed to improve the quality of educational, social and developmental services provided to children in alternative care.

Key words. Orphans; children left without parental care, alternative care; institutional organisations; sensitive period.

Воспитание подрастающего поколения – одна из первоочередных задач нашего государства. От того, каким будет молодое поколение, во многом зависит будущее Узбекистана, его развитие, его поступательное движение к прогрессу. Правительство Республики Узбекистан прилагает все усилия в этом направлении. Подтверждением этого является факт принятия целого ряда законов и подзаконных актов, государственных программ, обеспечивающих устойчивое развитие в данной области. Исходя из этого, основная задача педагогики состоит в достижении комплекса взаимосвязанных действий. Прежде всего, необходимо обеспечить равные возможности в реализации прав и законных интересов уязвимых групп детей.

В современное время наблюдается увеличение внимания к обучению и развитию детей уже в раннем возрасте: особое внимание уделяется качественному обучению и воспитанию детей в раннем возрасте, так как именно в этом возрастном периоде происходит наиболее интенсивное освоение окружающей действительности.

Первые годы жизни имеют решающее значение для развития детей и оказывают фундаментальное влияние на их жизнь во взрослом возрасте. Особенностью детей раннего возраста (от 0 до 3-х лет) является быстрый темп развития. Большая ранимость организма. Ранний период развития детей от рождения до трёх лет является наиболее важным адаптационным периодом в онтогенезе человека, на протяжении которого происходит становление органов, систем и основных функций организма. На этом этапе жизни мозг ребенка обладает наиболее высоким темпом своего развития и

именно в этом возрасте формируются предпосылки для дальнейшего его обучения.

Важным фактором младенческого возраста является установление тесного эмоционального взаимодействия матери и ребенка. Именно в процессе раннего общения формируются основы всей психической деятельности малыша: развиваются психические процессы, появляются тонкие переживания, рождаются новые высшие чувства (нравственные, эстетические, интеллектуальные), развиваются коммуникативные способности, закладывается основа характера.

Младенец, когда бодрствует, учится без устали. И тот объем информации, который он усваивает за год, то количество новых движений, новых функций, которыми он овладевает, несопоставимо с приобретенными навыками любого другого возрастного периода. Иными словами, ранний возраст – критический возраст в развитии ребенка. То, что на этом этапе упущено, впоследствии наверстывается с трудом или не наверстывается вовсе.

В последней четверти XX века представления о возможностях раннего развития значительно углубились на основе нейрофизиологических и психологических открытий. Одно из великих открытий – это выявление в мозгу ребенка нейронов, ожидающих стимуляции извне. Нейроны будут работать, если получат стимуляцию из внешнего мира. Следовательно, на основе работы нейронов у ребенка начнут формироваться навыки и умения. Исследования физиологии мозга показали, что развитие умственных способностей ребенка – это его личный опыт познания в первые три года жизни, т.е. в период развития мозговых клеток.

Известные педагоги и психологи доказали исключительность раннего и дошкольного возраста [9; 12]. Именно в сензитивные периоды ряд функций особенно чувствителен к внешним воздействиям и бурно развивается под их влиянием.

Нейробиологическое сканирование мозга показало, что 75-80% объема головного мозга сформировано до трех лет. Мозг активизируется через стимуляцию базовых органов – зрения, слуха, обоняния, осязания, вестибулярных и других рецепторов. Сенсорный поток информации в центральную нервную систему, является основным фактором, обеспечивающим созревание мозга ребёнка и является стимулом для развития поведения и психики. Если ребенок перестает получать достаточную информацию для развития, стимул для работы отсутствует, нейроны работать не будут и со временем совсем утратят эту способность, развитие начинает задерживаться.

Формирование психосоциальных навыков у детей до трех лет – это процесс, в результате которого дети приобретают жизненную ориентировку, обучаются элементарным навыкам коммуникации, самостоятельности, осваивают правила поведения. Существенную роль в формировании социализации играет семья. Ребенок развивается через общение с близкими, через свободное движение, наблюдение за происходящим вокруг. Он наблюдает за тем, что делают близкие родные. В этом возрасте дети способны сосредоточено открывать и закрывать крышку на бутылке, кидать кубик и слушать звук, с которым кубик падает, заталкивать в щелку пуговицу, пересыпать крупу, шлепать по воде. Для гармоничного развития ребенка важным является возможность родителей обеспечивать соответствующее удовлетворение потребностей развития ребенка, умение адаптироваться к меняющимся по мере роста потребностям ребенка [10].

Исследования свидетельствуют, что отсутствие заботы влияет на развитие мозга, поведение и чувства ребенка. Из-за отсутствия стимулов, которые может обеспечить малышу близкий человек, не задействуются все отделы мозга, и эти отделы, как следствие, атрофируются без восстановления на их месте новых.

Специалисты отмечают, если окружающие взрослые мало общаются с детьми, не имеют возможность уделить внимание индивидуально каждому воспитаннику, можем наблюдать рост числа детей с задержкой речевого и общего развития уже в раннем возрасте.

Выдающимися учеными-психологами было доказано что, если в раннем возрасте ребенок лишается семейного окружения, родительской заботы, любви и внимания, это негативно отражается на его дальнейшем развитии. Авторы объясняют деструктивные тенденции развития детей в первую очередь особой социальной ситуацией, отягощенной коммуникативной, эмоциональной и сенсорной депривацией. Особо тяжелые последствия имеет разрыв привязанностей ребенка с близким взрослым: данный фактор влечет за собой невозможность полноценного развития в отсутствие привязанности и близких межличностных отношений [12].

Рассматривая данные вопросы, можно выделить группу детей, которые находятся в риске задержки развития. Это дети-сироты и дети, оставшиеся без попечения родителей (далее дети в альтернативной опеке) от рождения до 3-х лет, которые находятся (временно или постоянно) в доме ребенка. Дом ребенка – это государственное учреждение. Штат сотрудников дома ребенка

призван временно заменить семью всем детям данного учреждения и обеспечить их своевременное всестороннее развитие.

Дома ребенка занимают особое место в системе воспитания, образования, оздоровления детей от рождения до 3 лет жизни. Эти учреждения призваны заменять родителей и близких людей каждому ребенку и обеспечить всестороннее развитие.

Основная задача домов ребенка – обеспечение своевременного, полноценного физического и психического развития, социальная адаптация детей и подготовка их к жизни в обществе. Однако уделить должное внимание всем детям, как бы это происходило в семейном окружении, у педагогов и обслуживающего персонала нет возможностей по ряду причин.

В дом ребенка чаще попадают дети, имеющие в своем анамнезе нарушения развития во внутриутробном периоде, во время родов, заболевания в период новорожденности, недоношенные дети. Встречаются дети с отягощенной генетической наследственностью. Сюда попадают дети из социально неблагополучных семей и другие особенности, мешающие нормальному течению развития.

Имеется ряд особенностей условий жизни детей в домах ребенка. Прежде всего – это отсутствие близких и родных людей, невозможность получения широкого спектра сенсорной информации, постоянное пребывание детей в коллективе взрослого персонала и сверстников, что имеет огромное влияние на весь ход развития, поведение, коммуникацию и их здоровье. Дети, с рождения оставленные без родительского внимания, воспитания и ухода, при недостаточных эмоциональных контактах отстают в росте, развитии от своих сверстников, наблюдаться задержка не только эмоционального, но и коммуникативного, интеллектуального развития.

В уязвимом положении находятся дети раннего возраста, находящиеся в альтернативной опеке. Эти условия препятствуют реализации с раннего возраста коммуникативных умений и навыков при общении с окружающими, затрудняются в проявлении своих эмоций.

Педагогический коллектив, обслуживающий и ухаживающий персонал дома ребенка, которые постоянно находятся в поле зрения детей, являются важным источником, от которых дети берут образец правильного поведения и культуры общения на родном языке. Это объясняется тем, что ребенок раннего возраста ориентирован на взрослого, находящегося рядом. Дети в этом возрасте подражают взрослым в словах, в манерах, оценках, чувствах, поступках. Поэтому ко всем взрослым, участвующим в процессе воспитания и обучения детей раннего возраста, должны предъявляться строгие требования.

Умственное развитие, самостоятельность, инициатива, творчество, формируется только в процессе активной деятельности. Поэтому необходимо так организовать жизнь детей, чтобы как можно больше времени было заполнено самостоятельной деятельностью.

В связи с вышеиложенным, можно сказать, что успешность в работе с детьми раннего возраста, находящихся в альтернативной опеке, возможна лишь в тесной, взаимосвязанной работе всех специалистов, где осуществляется принцип командного междисциплинарного подхода. Создание единой, сплоченной команды специалистов дает возможность совместно обсуждать и планировать развивающую работу с каждым ребенком индивидуально, грамотно и четко распределять задачи каждого участника в образовательно-развивающей работе, включая родителей или лиц их заменяющих.

Мониторинг исследования, проведённый в домах ребенка по регионам республики и по г. Ташкент показал:

1. Дом ребенка – находится в структуре национального агенства по социальной защиты при Президенте РУз. Это институциональное учреждение, которое организовано по типу деятельности дошкольных образовательных организаций для детей, живущих в семьях, только с круглосуточным пребыванием. Основной акцент направлен на реализацию социальной функции. Ребенок, живущий в семье, ежедневно возвращается из дошкольной организации домой. В кругу родных имеет возможность реализовать базовые потребности, такие как, любовь родных и близкий людей, эмоциональная близость, понимание, общение и др. Ребенок, живущий в институциональном учреждении, не получает должного жизненно-важного удовлетворения базовых потребностей, что не способствует полноценному его развитию.
2. Было выявлено, что в недостаточной степени разработаны теоретико методологические модели воспитания и развития педагогического процесса в условиях дома ребенка.
3. Деятельность педагогов дома ребенка строится по типу деятельности педагогов дошкольных образовательных организаций, предназначенных для детей, живущих в семьях. Поэтому необходим пересмотр роли воспитателя с ориентиром на компенсацию (на сколько это возможно) ребенку отсутствующих родителей, организацию различных форм эмоционально-личностного общения с каждым ребенком и др.
4. Есть проблема в подготовке кадров педагогического состава в домах ребенка. В настоящее время педагогические кадры по направлению дошкольного образования в высших и средних педагогических учебных

заведений, в институтах повышения профессиональной компетентности уже работающих специалистов в данной системе готовят лишь для предоставления услуг детям, живущих в семьях дома детям после 3 лет обучения. Теоретическая, методологическая система подготовки воспитателей, работающих в домах ребенка разработана в недостаточной мере.

В связи с вышеизложенным, необходима специальная теоретическая, методическая и организационная работа по данному направлению. Реализация такого подхода невозможна без научно-методического обоснования и разработки модели профессиональной деятельности педагога дома ребенка.

Взяв во внимание все особенности специфической деятельности воспитательной работы, встает необходимость в проведении ряда мероприятий, требующие неотлагательного решения:

1. Создание комплексной образовательной программы на основе современных научных представлений о закономерностях психофизического развития ребенка от рождения до 3 лет, охватывающей основные сферы развития ребенка: физическое, познавательное, социально-эмоциональное и духовно-нравственное.
2. Разработка и организация теоретической, методологической системы подготовки воспитателей, работающих в домах ребенка с детьми раннего возраста.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Закон Республики Узбекистан “Об образовании” № ЗРУ-6673 от 23 сентября 2020 г.
2. Закон Республики Узбекистан “О гарантиях прав ребенка”, № ЗРУ-1397 января 2008 г.
3. Закон Республики Узбекистан “О дошкольном образовании и воспитании”. Принят Законодательной палатой 22 октября 2019 года. Одобрен Сенатом 14 декабря 2019 г.
4. Закон Республики Узбекистан “Об охране здоровья граждан”, Принят Законодательной палатой 29 июня 2007 года, Одобрен Сенатом 24 августа 2007 г.
5. Постановление Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по совершенствованию системы защиты прав ребенка”// https://lex.uz/ru/docs/4831114 от 29 мая 2020 г., № ПП-4736
6. Постановление Кабинета министров Республики Узбекистан “О мерах по совершенствованию управления системой и выбора альтернативных

форм по предотвращению социального сиротства оставшихся детей без попечения родителей, укрепления института семьи и размещения детей-сирот” // https://lex.uz/ru/docs/4535475от 30 сентября 2019 г., № 824.

7. Барыс, И.С. Нетрадиционная форма социализации детей раннего возраста в условиях дошкольного образовательного учреждения [Текст] // И.С. Барыс / Вопросы дошкольной педагогики. – 2016. — №3. – С. 81-84.
8. Климон, Н.Л. Влияние семьи на формирование социально-бытовых навыков у дошкольников. [Электронный ресурс] // URL: https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-semi-na-formirovanie-sotsialnobytovyh-navykov-u-doshkolnikov (дата обращения 02.08.2017).
9. Винник М.О. Задержка психического развития у детей. Методологические принципы и технологии диагностической и коррекционной работы. Ростов-на-Дону, 2007г.
10. Воспитание и обучение детей младшего дошкольного возраста. Книга для воспитателя детского сада. /Под редакцией Г.Н. Годиной, Э.Г. Пилюгиной. – М., 1987
11. Галигузова Л.Н., Мещерякова С.Ю. Педагогика детей раннего возраста. – М., 2007 г.
12. Смирнова Е.О., Галигузова Л.Н., Ермолова Т.В., Мещерякова С.Ю. Диагностика психического развития детей от рождения до 3 лет. – Санкт-Петербург, 2005г.
13. Nazarova Dildora Asatovna. (2022). Modern approaches in the process of training educators for a special and inclusive education system. European Scholar. 3(10), 91-92. Retrieved from. https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/2798
14. Nazarova Dildora Asatovna. Organization of modern lessons in special educational institutions is the basis of the inclusive education. International Journal of Academic Research and Reflection Vol. 8, No. 3, 2020 ISSN 2309-0405
15. Nazarova D. A Aspects of achieving effective performance of heads of educational institutions in the context of inclusive education// Педагогика и современное образование: традиции, опыт и инновации. Сборник статей XYI международной научно-практической конференции. Пенза, 2021. Стр.10-12.
16. https://lex.uz/ru/docs/4831114от 29 мая 2020 г., № ПП-4736.
17. https://lex.uz/ru/docs/4535475от 30 сентября 2019 г., № 824.

Ибрагимова Севара Кабилджановна
Университет Ориентал

УПРАВЛЕНИЕ ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИЕЙ

Annotatsiya

Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim jarayoni mazmuni, inklyuziv ta’lim muassasasini boshqarish vazifalarining mohiyati tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar: inklyuziv ta’lim, jarayon, inklyuziv ta’lim muassasasi, boshqarish, vazifalar, rahbar

Аннотация

В статье описывается содержание процесса инклюзивного образования. Анализируется сущность задач управления инклюзивным образовательным учреждением.

Ключевые слова: инклюзивное образование, процесс, учреждение инклюзивного образования, менеджмент, обязанности, руководитель.

AbstractThe article describes the content of the process of inclusive education. The article analyzes the essence of the tasks of managing an inclusive educational institution.

Key words: inclusive education, process, inclusive education institution, management, responsibilities, leader.

Одной из популярных тем на сегодняшний день является инклюзивное образование, относительно новое для Республики Узбекистан и достаточно распространённое в развитых странах мира. Инклюзивное обучение признано всем мировым сообществом как наиболее гуманное и эффективное. Актуальность рассматриваемой проблемы заключается в том, что инклюзивное образование предоставляет возможность каждому ребенку, независимо от физических и умственных способностей, удовлетворить потребность в получении образования и равные права для всех.

Обычное образование нацелено на обычных детей, включает в себя обычных педагогов и обычные школы. Специальное образование включает работу с особыми детьми, под них подстраиваются и школа, и педагоги. Интегрированное образование с помощью реабилитации и адаптации подстраивает специального ребенка к обычному образованию. И наконец, инклюзивное образование, воспринимая ребенка таким, какой он есть, подстраивает под него систему образования.

Ежегодно в образовательных учреждениях нашей страны увеличивается число детей с особыми потребностями в образовании. Признание государством ценности социальной и образовательного “включения” детей данной категроии обусловливает необходимость создания для них соответствующей образовательной среды именно в общеобразовательном учреждении.

Во всемирной конференции по образованию лиц с особыми потребностями (ЮНЕСКО. г. Саламанка (Испания) 1994 г.) был введён термин “инклюзия” и провозглашены принципы инклюзивного образования:

ценность человека не зависит от его способностей и достижений;

каждый человек способен чувствовать и думать;

каждый человек имеет право на общение и на то, чтобы быть услышанным;

все люди нуждаются друг в друге;

подлинное образование может осуществляться только в контексте реальных взаимоотношений;

все люди нуждаются в поддержке и дружбе ровесников;

для всех обучающихся достижение прогресса скорее может быть в том, что они могут делать, чем в том, что не могут;

разнообразие усиливает все стороны жизни человека.

Инклюзивное образование – это постепенный, детальный и очень бережный процесс включения ребенка в общую образовательную среду, которая учитывает индивидуальные особенности и опирается на сильные стороны ребенка. Данный вид образования – это такая организация процесса обучения, при которой все дети, независимо от их физических, психических, интеллектуальных, культурно-этнических, языковых и иных особенностей, включены в общую систему образования и обучаются по месту жительства вместе со своими сверстниками без инвалидности в одних и тех же общеобразовательных школах, техникумах, высших учебных заведениях общего типа, которые учитывают их особые образовательные потребности и оказывают необходимую специальную поддержку. То есть, её целью является создание безбарьерной среды в обучении и профессиональной подготовке людей с особыми потребностями в образовании. Данный комплекс мер подразумевает как техническое оснащение образовательных учреждений, так и разработку специальных программ, учебных курсов для педагогов и других учащихся, направленных на развитие их взаимодействия лицами с инвалидностью.

Инклюзия касается всех субъектов образовательного процесса: детей с особыми потребностями и их родителей; физически здоровых обучающихся и членов их семей; педагогов и специалистов образовательного пространства; администрации; структур дополнительного образования. Система образования должна подстроиться под нужды каждого человека, а не наоборот. Управление инклюзивной организацией характеризируется многими факторами функционирования – ресурсами, определенными условиями, процессами, которые требуют эффективного управления.

Управление – систематическое воздействие субъекта управленческой деятельности (одного человека, группы лиц или специального созданного органа) на социальный объект, в качестве которого может выступать общество в целом, его отдельная сфера (например, экономическая или социальная), отдельное предприятие или фирма, с тем, чтобы обеспечить их целостность, нормальное функционирование, динамическое равновесие с окружающей средой и достижение намеченной цели.

Образовательное учреждение, являясь социальной организацией и представляет собой систему совместной деятельности людей (педагогов, обучающихся, родителей), то целесообразно говорить об управлении ею. Путем воздействия на условия жизни людей, мотивацию их интересов, их ценностные ориентации осуществляется социальное управление. Управление образовательным учреждением – систематическое, планомерное, сознательное и целенаправленное взаимодействие субъектов управления различного уровня в целях обеспечения эффективной деятельности образовательного учреждения.

Сегодня распространено понятие “менеджмент” в различных сферах, в том числе и образовательной сфере. Понятие “управление” является более широким, так как понятие “менеджмент” в основном касается различных аспектов деятельности руководителя, тогда как понятие “управление” охватывает всю область человеческих взаимоотношений в системах “руководители-исполнители”. Теория управления школой и педагогическим коллективом дополняется теорией внутри школьного менеджмента. Деятельность менеджера строится на основе уважения, доверия к своим сотрудникам, создания для них ситуаций успеха. Это сторона менеджмента дополняет теорию внутри школьного управления. Управление образовательным учреждением – это система управления, применение системного подхода к теоретическому осмыслению управленческой деятельности.

Таким образом, “система управления образовательной организацией” – совокупность взаимосвязанных между собой мероприятий, направленных на достижение значимой цели образовательной организации. К таким мероприятиям относятся управленческие функции, реализация принципов и применение эффективных методов управления. Структура управления инклюзивными организациями.

Общеобразовательная школа (с позиций теории управления), является сложной динамической системой. Она может выступать объектом управления. Управление в образовании можно рассматривать как деятельность особого рода, которая обеспечивает функционирование и развитие образовательного учреждения, реализацию его концепции, программы и задач. Управление образовательными учреждениями – разновидность социального управления, поскольку главное содержание деятельности всех его субъектов составляет руководство людьми.

Основная задача управления инклюзивной образовательной организацией – создать максимальные условия для получения равных образовательных возможностей детей с особыми потребностями в обучении и воспитании, подобрать соответствующие кадры. Этот процесс рассматривается как личностное образование, направленное на взаимодействие с детьми, имеющими особыми потребностями. При этом необходимо сохранить психическое и физическое здоровье детей, спроектировать определенное образовательное пространство, внедрить коррекционно-образовательные технологии обучения, воспитания и личностного развития обучающихся, включая изменения показателей качества их образовательных достижений. Здесь целесообразно рассмотреть инклюзивную образовательную организацию как организацию, в управлении которой учитываются различия, соответствующие между детьми с особыми потребностями. Одной из главных задач современного образования является “включение” детей с особыми потребностями в образовательный процесс. Для того, чтобы в образовательной организации были созданы специальные условия инклюзивного обучения детей данной категории, необходимо соблюсти ряд нормативно установленных процедур.

Руководитель инклюзивной образовательной организации должен проектировать полифункциональное образовательное пространство образовательного комплекса, моделировать его структуру, включать новые элементы, новых субъектов деятельности, новые виды деятельности, создавать новые субъект-субъектные отношения, формировать и корректировать содержание образовательного и коррекционно-

педагогического процессов, развивать сетевое взаимодействие с различными социальными институтами, полноценно используя их ресурсы. Особое внимание следует обратить на соответствие содержания обучения и воспитания детей с особыми потребностями задачам коррекции, развития и здоровье сбережения. Комплексная программа психолого-педагогического сопровождения ребенка с особыми образовательными потребностями разрабатывается консилиумом педагогов. Задача консилиума – обеспечить такую комплексную технологию психолого-педагогической поддержки, которая будет гарантировать высокий уровень сохранения психофизического здоровья детей с особыми потребностями в условиях вариативного освоения образовательной программы.

Таким образом, инклюзивность образовательной организации, заставляет находить инновационные решения для осуществления образовательного процесса. Управление инклюзивным образовательным учреждением должно осуществляется с учетом доминирующих социальных положений, согласно ресурсным возможностям образовательной организации. Понимание механизма их соподчиненности и логически опосредованного взаимодействия, повышает коэффициент эффективности управления инклюзивным образовательным учреждением.

ЛИТЕРАТУРА:

1. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 1-ilova. PF-158-сон 11.09.2023.
2. Буковцова, Н. И. Инклюзивное образование детей с ограниченными возможностями здоровья: проблемы и перспективы // М.: МГППУ, 2011.-286 с.
3. Бут Т., Эйнскоу М. Показатели инклюзии: практич. пособие. М.: Перспектива, 2007. 124 с.
4. David Mitchell “What Really Works in Special and Inclusive Education” First published 2008 by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN2008 David Mitchell
5. Nazarova D.A Aspects of achieving effective performance of heads of educational institutions in the context of inclusive education// Педагогика и современное образование: традиции, опыт и инновации. Сборник статей XYI международной научно-практической конференции. Пенза, 2021. Стр.10-12.

Турсунова Комила Юнус кизи
студентка 1-го курса ТГПУ им Низами факультета Дошкольное образование” направления “Дошкольное образование

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: 5 КОМПЛЕКСНЫХ ШАГОВ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ РАЗНООБРАЗИЯ И РАВЕНСТВА

Annotatsiya

Inklyuziv ta’lim- bu xilma-xillikni mamnuniyat bilan qabul qiladigan va har bir o‘quvchining o‘ziga xos fazilatlari yoki sharoitlaridan qat’i nazar, kutib olinishi, qadrlanishi va hurmat qilinishini ta’minlashga intiladigan falsafa. Maqsad xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratishdir, unda barcha talabalar hukm yoki istisnolardan qo‘rqmasdan o‘rganish, o‘sish va o‘zlari bo‘lish erkinligini his qilishadi. Maqolada jamiyat o‘rtasidagi farqlarni tan olish va ularni umumiy tajribamizning muhim va qismi sifatida qabul qilish haqida gap boradi. Inklyuziv ta’lim orqali jamiyat har bir o‘quvchiga o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga va barchamiz uchun yanada jonli va mehmondo‘st dunyoni yaratishga yordam bera olamiz.

Asosiy tushunchalar: inklyuziv ta’lim, universal yondashuv, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, strategiyalar, imkoniyatlar, tamoyillar.

Аннотация

Инклюзивное образование — это философия, которая приветствует разнообразие и стремится к тому, чтобы каждый учащийся, независимо от его уникальных качеств или обстоятельств, приветствовался, ценился и уважался. Цель состоит в том, чтобы создать безопасную, благоприятную учебную среду, в которой все учащиеся чувствуют себя свободными учиться, расти и быть самими собой, не опасаясь осуждения или исключения. В статье речь идет о том, чтобы признать различия между нами и принять их как важную и ценную часть нашего общего опыта. Благодаря инклюзивному образованию мы можем помочь каждому ученику полностью раскрыть свой потенциал и создать более яркий и гостеприимный мир для всех нас.

Ключевые понятия: инклюзивное образование, универсальный подход, самоопределение, стратегии, возможности, принципы.

Annotation

Inclusive education is a philosophy that welcomes diversity and strives to ensure that every student, regardless of their unique qualities or circumstances, is welcomed, appreciated and respected. The goal is to create a safe, supportive learning environment in which all students feel free to learn, grow and be themselves

without fear of condemnation or exclusion. The article is about recognizing the differences between us and accepting them as an important and valuable part of our shared experience. Through inclusive education, we can help every student reach their full potential and create a brighter and more welcoming world for all of us.

Key concepts: inclusive education, universal approach, self-determination, strategies, opportunities, principles.

Инклюзивное образование направлено на создание среды, в которой каждый учащийся имеет равные возможности для процветания и успеха. Применяя различные стратегии, инструменты и методы, педагоги стремятся создать учебную среду, которая является гостеприимной и благоприятной для учащихся с любыми способностями. Такой подход не только практичен и эффективен, но и невероятно вдохновляет, позволяя студентам полностью раскрыть свой потенциал и подготовиться к захватывающему и полноценному будущему. Поэтому, если вы ищете способ изменить жизнь своих учеников, принятие принципов инклюзивного образования — отличное место для начала!

4 руководящих принципа инклюзивного образования

Образование – это не просто достижение цели, это путешествие, которое никогда не заканчивается. Инклюзивное образование является отражением этого, поскольку это непрерывный процесс, направленный на создание благоприятной и инклюзивной учебной среды для каждого учащегося. В отличие от универсального подхода, инклюзивное образование является динамичным и гибким, учитывающим уникальные потребности и способности каждого учащегося. [1;77]

Инклюзивное образование основано на ряде руководящих принципов, в том числе:

1. **Многообразие и инклюзивность**: Цель состоит в том, чтобы создать среду, в которой каждый студент чувствует, что его ценят и ценят, независимо от его происхождения или индивидуальности. Поощряя разнообразие, мы способствуем созданию сообщества учащихся, которые ценят различия и культивируют более глубокое понимание мира. Инклюзивное образование – это не только адаптация учеников, но и создание атмосферы принятия и понимания, в которой каждый может преуспеть.
2. **Сотрудничество и командная работа**: Эффективное сотрудничество и сплоченная командная работа имеют решающее значение для инклюзивного образования. Успех каждого учащегося лежит на плечах педагогов, семей и членов сообщества, работающих вместе в унисон. Эта синергия гарантирует, что каждый студент получит заботу и поддержку, необходимые ему для

академического и личного успеха, а также для полной реализации своего потенциала.

3. **Доступ и участие**: Инклюзивное образование открывает двери для всех учащихся, предлагая гостеприимную и благоприятную среду, в которой каждый учащийся может преуспеть. Устраняя барьеры на пути к обучению, этот подход гарантирует, что каждый ученик имеет равные возможности для доступа к первоклассному образованию и участия во всех школьных мероприятиях без ограничений.

4. **Расширение прав и возможностей и самоопределение**: Инклюзивное образование способствует формированию культуры самоопределения, позволяя учащимся взять бразды правления в свои руки. Уделяя особое внимание развитию навыков и приобретению знаний, учащиеся получают инструменты, необходимые для достижения своих целей и полного раскрытия своего потенциала. [2;15].

Открытие красоты инклюзивного образования может стать американскими горками трудностей и настойчивости для педагогов, но награда безгранична! Образовательная среда, в которой особое внимание уделяется инклюзивности, не только поддерживает многообразие обучения, но и закладывает основу для большего равенства и социальных изменений. Усилия, прилагаемые педагогами для создания инклюзивной среды, могут оказать длительное влияние на учащихся и выйти далеко за пределы школьных стен.

Инклюзивное образование – это призыв к социальному равенству. Приняв эту мощную образовательную философию, педагоги имеют возможность создать среду, в которой каждый может полностью реализовать свой потенциал и внести свой вклад в создание более справедливого мира.

Инклюзивное образование является важнейшим аспектом развития детей младшего возраста, обеспечивающим каждому ребенку равный доступ к светлому будущему. В критический период раннего детства обеспечение первоклассного образования и поддержки имеет важное значение для максимального роста и потенциала. Ни один ребенок не должен быть забыт, а инклюзивное образование гарантирует, что каждый юный ум сможет расцвести.

Инклюзивное дошкольное образование – это создание среды, в которой каждый ребенок чувствует себя желанным гостем, независимо от его способностей. Это все равно, что устроить вечеринку для каждого малыша и убедиться, что все они отлично провели время! Воспитатели детей младшего возраста являются ключом к тому, чтобы это произошло. Они похожи на

супергероев с особыми способностями, которые позволяют им корректировать свой стиль преподавания в соответствии с потребностями каждого ребенка. [3;109]. Но они не могут работать в одиночку – семьи и другие специалисты должны быть частью команды, чтобы гарантировать, что каждый ребенок получит поддержку, необходимую им для процветания. Давайте работать вместе, чтобы создать инклюзивное сообщество, в котором каждый чувствует, что его ценят и уважают.

На протяжении всей истории ученые-педагоги признавали ценность инклюзии, отстаивая ее потенциал для полного раскрытия потенциала каждого учащегося. Ознакомьтесь с их идеями и откройте для себя преобразующую силу образования, которая действительно никого не оставляет без внимания.

“Единственный недостаток в жизни – это плохое отношение”. Пронзительные слова Скотта Гамильтона показывают, что взгляды и убеждения могут быть самым серьезным препятствием на пути к созданию инклюзивной и разнообразной учебной среды. Подлинная инклюзивность требует непредвзятого подхода к различиям и активных усилий по борьбе с негативными представлениями. Давайте примем этот образ мышления и создадим доброжелательную атмосферу для всех учащихся, чтобы они могли преуспеть.

“Инклюзия – это не стратегия, направленная на то, чтобы помочь людям вписаться в системы и структуры, существующие в наших обществах; Речь идет о преобразовании этих систем и структур, чтобы сделать их лучше для всех”. Сильные слова Дианы Рихлер перекликаются с важностью революционных преобразований в образовании для обеспечения инклюзивности для всех учащихся.

“Инклюзия – это не приобщение людей к тому, что уже существует; Это создает новое пространство, лучшее пространство для всех” [5]. Слова Джорджа Дея призывают нас уделять первоочередное внимание созданию инклюзивных пространств, которые обслуживают всех, а не просто ассимилировать группы в уже существующие пространства. Инклюзивное образование выходит за рамки учета различий и требует, чтобы мы создавали превосходную учебную среду для всех учащихся.

3 полезных сервиса для инклюзивного образования

Для педагогов и школьных администраторов, стремящихся создать инклюзивные классы, этот путь может быть как сложным, так и полезным. И хотя путь к инклюзии может быть долгим и трудным, существуют ресурсы и услуги, которые могут сделать этот путь более гладким. Если вы ищете

помощь на этом пути, вот три услуги инклюзивного образования, которые вы, возможно, захотите проверить:

1. Inclusive-Education-Initiative.org — В современном мире как никогда важно обеспечить каждому доступ к образованию. Вот почему такие организации, как Инициатива инклюзивного образования, так ценны – их онлайн-курсы помогают преподавателям продвигать практику инклюзивного образования во всем мире. Они предлагают ряд тем для изучения, каждая из которых предназначена для того, чтобы помочь вам лучше удовлетворить потребности вашего разнообразного студенческого состава. Независимо от того, хотите ли вы создать более дружелюбную атмосферу в классе или разработать учебную программу, которая действительно охватывает всех, этот курс для самостоятельного изучения - идеальное место для начала.
2. ExceptionalChildren.org — Существует профессиональная ассоциация, которая занимается помощью педагогам, работающим с учениками с инвалидностью. Совет по делам детей с особыми потребностями (CEC) предлагает множество ресурсов и услуг для поддержки таких педагогов, как вы. Они предоставляют онлайн-форумы и сообщества, возможности профессионального развития и доступ к исследованиям и передовому опыту, связанным с инклюзивным образованием. С помощью CEC вы сможете улучшить свои преподавательские навыки и оказать положительное влияние на жизнь ваших учеников с ограниченными возможностями.
3. DREDF.org — Фонд образования и защиты прав инвалидов (DREDF) — это некоммерческая организация, которая выступает за защиту и продвижение прав людей с ограниченными возможностями [6].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Инклюзивное образование является мощным инструментом для признания различий и создания равных условий для всех учащихся. Он способствует созданию инклюзивного и благоприятного учебного пространства, которое полезно для учащихся с любыми способностями и происхождением. Учителя должны убедиться в том, что они реализуют меры, которые позволяют всем учащимся быть вовлеченными в учебный процесс. Все вместе мы должны действовать на опережение и сделать это всеобъемлющей целью образования. Мы все можем внести свой вклад в позитивные изменения в мире обучения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. “Creating Inclusive Learning Environments for Young Children: What to Do on Monday Morning” by Clarissa Willis.
2. “Inclusive Education: Supporting Diversity in the Classroom” by Patricia A. Latham and Anne R. Hodkinson.
3. “The Inclusive Classroom: Strategies for Effective Differentiated Instruction” by Margo A. Mastropieri and Thomas E. Scruggs.
4. “The Routledge International Handbook of Early Childhood Play” edited by Tina Bruce, Carolyn Edwards, and Peter Clough (Chapter 19 specifically focuses on inclusive education).
5. “Universal Design for Learning in Action: 100 Ways to Teach All Learners” by Whitney H. Rapp and Katrina L. Arndt.
6. Инклюзивное образование: руководство из 5 шагов по внедрению многообразия (scienceandliteracy.org)

D. Sh. Shukurova
CHDPU Maxsus pedagogika
kafedrasi tayanch doktoranti
dilbarmatkasimova@mail.com

INKLYUZIV TA’LIMDAGI O‘QUVCHILAR NUTQINI MOBIL DASTUR ORQALI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Hozirgi kunda inklyuziv ta’lim rivojlanishi omalashib bormoqda. Tadqiqotimiz natijasida ma’lum bo‘lishicha, inklyuziv ta’limdagi aksariyat o‘quvchilar nutqida muommolar uchrab turadi. Biz esa ushbu muammoga zamonaviy yechimni taklif qilamiz. Logosmart mobil ilovasi orqali bolalar nutqini rivojlantirish onson va qulay.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv, LogoSmart, ilova, nutq, o‘quvchi, logoped.

Абстракт.

В настоящее время развитие инклюзивного образования набирает обороты. В результате нашего исследования выяснилось, что большинство учащихся инклюзивного образования имеют проблемы с речью. Мы предлагаем современное решение этой проблемы. Развивать речь детей легко и удобно через мобильное приложение “Логосмарт”.

Ключевые слова: инклюзив, LogoSmart, приложение, речь, студент, логопед.

Abstract

Currently, the development of inclusive education is gaining momentum. As a result of our research, it became clear that most students in inclusive education have problems with their speech. We offer a modern solution to this problem. It is easy and convenient to develop children's speech through the Logosmart mobile application.

Key words: inclusive, LogoSmart, application, speech, student, speech therapist.

Dunyo siyosatida insonparvarlilik tamoyillarga tayanib, jamiyatdagi nogiron va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga yaratilgan imkoniyatlar, qulay shart-sharoitlar, ularning erkin, farovon yashashi uchun kerak bo‘lgan barcha sohadagi qo‘llab-quvvatlanishlari bilan belgilanadi. Nogiron bolalarning ta’lim olish jarayonini sifatli tashkil etish, isloh qilib borish, har bir davlat va jamiyat oldidagi dolzarb masalalardan biridir. Alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarning ijtimoiy muhitga hech bir qiyinchiliklarsiz moslashishi, munosib tarzda o‘z o‘rnini topishi, negizida ta’lim va tarbiyaning o‘rni beqiyos.

UNICEF inklyuziv ta’limni O‘zbekiston ta’lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug‘ullanadi. Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi[19].

Bir necha asrlar ilgari pedogoglar normal rivojlanishdan orqada qolgan insonlarga ham ta’lim berish mumkin ekanligini tadqiq etishgan. Bunga qaramasdan XXI asr realizatsiyasining zamonaviy ta’lim tizimida inklyuziya hali yetarlicha chuqur o‘rganilmagan bo‘lib, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida bu savol hali to‘laligicha o‘z javobini topmagan, faqatgina bazi bir qismlari yoritib berilgan. Ilmiy suhbatlarda ham inklyuziv ta’limni amalga oshirish imkoniyatlari va xususiyatlari tashkil etish chora tadbirlari to hozirgi kungacha ochiqligicha qolmoqda [20].

Rus tadqiqotchilaridan L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, V.N.Myasishchev, K.D.Ushinskiy, N.N.Malofeev, N.D.Shmatko, A.N.Golubeva va boshqalar inklyuziv ta’limni tashkil etishda alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarni psixologik hamda pedogogik muommolarini o‘rgangan. Shuningdek, I.I.Mamaychuk, L.P.Koskovoy, O.S.Nikolskayalar, V.S.Manovatomova, Y.S.Alyoshina, M.Krijanovskaya, V.S.Muxina, A.A.Bodalyov, Y.R.Baevskayalar imkoniyati

[19] https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/inklyuziv-talim

[20] Особенности реализации инклюзивного образования детей дошкольного возраста Выпускная квалификационная работа Екатеринбург 2017

cheklangan bolalarning pedagogik-psixologik korreksiyalash masalalari to‘g‘risida tadqiqot ishlari olib borganlar. Ushbu tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, inklyuziv ta’limdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot ishlari yetarli emasligi hozirgi zamon tendensiyalariga mos texnologiylar ishlab chiqilmaganligi ma’lum bo‘ldi.

Texnologiya asrida yashar ekanmiz har bir bola sog‘lom yoki nuqsoni mavjud ekanligidan qati nazar texnologiya yutuqlaridan foydalanishga haqlidir. Hozirgi kunda bolalar orasida mobil o‘yinlarga bog‘lanib qolish holati avj olmoqda bu esa bolalar nutqi bilish jarayonlariga o‘z salbiy tasirini o‘tkazmay qolmaydi. Respublikamizdagi inklyuziv ta’lim maktablarida tajriba sinov ishlarini olib borar ekanmiz. Inklyuiziv sinf o‘quvchilarining 92% nutq nuqsoni mavjud ekanligi aniqlandi. Ushbu muommoga qisman yechim sifatida biz LOGOSMART mobil ilovasini taklif etamiz.

LOGO SMART – uyali aloqa vositasi orqali sog‘lom tovushlar talaffuzida muommolari mavjud hamda alohida ehtiyojga va rivojlanishida muommosi bo‘lgan bolalar, o‘smirlar hamda katta yoshdagi shaxslar uchun qulay intraktiv tarzda ishlaydigan, logoped, mashg‘ulotlarining o‘rnini bosuvchi zamonaviy innovatision ilova. Tadqiqot jarayonida ma’lum bo‘lishicha LOGO SMART ilovasi hamda ushbu ilovani o‘rnini qoplovchi ilova, web sayt yoki platforma hozirgi kunga qadar Respublikamizda hududida mavjud emas. LOGO SMART ilovasiga ehtiyoj qanchalik yuqori ekanligi 85% aholi (o‘qituvchilar, ota-onalar, bolalar mahalla faollari, shifokorlar, logopedlar, defektologlar, surdopedogoglar, oligofrenopedogolar) tomonidan ta’kidlandi, ilovani yaratish qo‘llab quvvatlandi.
Ilova inklyuziv sinflarda ta’lim oluvchi:

- yengil nutq kamchilikiga ega;
- og‘ir nutq nuqsonlariga ega;
- eshitish va nutq nuqsonlariga ega shaxslar va bolalar;

uchun mo‘ljallangan.

Ilova foydalanuvchilarga quydagi imkoniyatlarni taqdim etadi.

- Logoped mashg‘ulotlar o‘rnini 60% qoplab bera oladi.
- Bolalar uchun joy va vaqt tanlamaydigan, intraktiv mashg‘ulot lar didaktik o‘yinlar to‘plamini taqdim etadi.
- Ilovadagi barcha rivojlantiruvchi mashqlar sun’iy intellekt orqali nazorat qilinadi va bola o‘z o‘zini kuzatib, tekshirib boradi.
- Mutaxassis bilan uydan chiqmagan holda online konsultatsiya xizmati taklif etadi.
- Logopedik korreksion mashg‘ulotlar uchun arzon va qulay to‘lov usulini taklif etadi.

- Yo‘llanma logopedlar xizmatni qisqartiradi, bolalar xavfsizligini qisman ta’minlaydi.
- Ilova mutaxassislar uchun elektron dastur intiraktiv yordamchi vazifasini bajaradi.
- Ilova orqali mutaxassis bola uchun onson va qulay uy vaziflarni berishni taklif etadi.

Bundanan tashqari, respublikamizda Maxsus va inklyuziv ta’limda logoped mutaxassilarning yetishmasligi bizning mahsulotga bo‘lgan talabni yaqqol namoyon etadi. Mazkur mobil ilovani yaratish yuzasidan Respublika bolalar ijtimoiy mosloshuv markazi hamda Toshkent shahridagi 20 ga yaqin inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablardagi alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar nuqsonlari ularda nomoyon bo‘luvchi nutq nuqsonlari o‘rganildi[21]. Statistika agentligidan ma’lumotlar olindi, statistik ma’lumotlar to‘plandi[22]. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, respublikamizda 3-12 yoshgacha bo‘lgan bolalar 6.912 1000 mln 92.3% tashkil etib, ulardan 0.575 000 mln 7.7% ortiq bola nutq nuqsonlariga ega[23].



Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlar respublikamiz hududida LOGO SMART ilovasiga ehtiyoj borligini ma’lum qiladi. Biz yaratmoqchi bo‘lgan LOGO SMART ilovasining yana bir ustunligi ilovadan foydalanuvchi 24 soat davomida kuning xohlagan qismida foydalanish mumkinligi, ota- onalarga ham ish vaqtidan uzilmagan holda farzandlarida uchrab turuvchi nutq nuqsonlarini bartaraf etishga ko‘mak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

[21] https://www.facebook.com/ijtimoiyhimoya agentligi/
[22] https://rehabing.org/uz/hotel-detail/rtssad-146/
[23] https://ssv.uz

1. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida https://lex.uz/docs/3436192
2. Жусупова Г.Б Особенности реализации инклюзивного образования детей дошкольного возраста Выпускная квалификационная работа Екатеринбург 2017 10-с
3. Sattorova Sh.M “Ta’lim klassteri muhitida ijtimoiy yo‘nalishi talabalarining inklyuziv yondashuvini kompetensiyaviy yodashuv asosida rivojlantirish” Ped. fan. nom… diss. – Chirchiq., 2022-13 bet
4. Xamidova M.U Maxsus pedagogika.-T.: “Fan va texnologiya”, 2018 yil. 164-7 bet.
5. Qaxxorova S.Q., Zamonaviy ta’lim / Современное образование. 2015, 8 son 44-bet.
6. Nazarova Dildora Asatovna. (2022). Modern approaches in the process of training educators for a special and inclusive education system. European Scholar. 3(10), 91-92. Retrieved from. https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/2798
7. Nazarova D.A. Inklyuziv madaniyatini shakllantirishda ta’lim klasteri subyektlarining o‘rni. //Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference.
8. Понятийный аппарат педагогики и образования: сборник научных трудов / отв. ред. М. А. Галагузова. –Екатеринбург: [б. и.], 2020. – Вып.12. – 432 с. 12с– Текст:
9. Коршунова О. В. Теоретико-методологические основы инклюзии в образовании // Научно-методический электронный журнал “Концепт”. – 2016. – Т. 8. – С. 16–20. – URL: http://e-koncept.ru/2016/56114.htm.
10. Сулейманова Р.А., Хакимжанова Г.А. Зарубежный и отечественный опыт включения детей с особыми нуждами в общеобразовательный процесс: проблемы и пути решения. - Алматы: КАПринг. 2001.]
11. Малофеев Н.Н. Почему интеграция в образовании закономерна и неизбежна / Альманах ИКП РАО, 2007. №11.
12. Nazarova Dildora Asatovna. Organization of modern lessons in special educational institutions is the basis of the inclusive education. International Journal of Academic Research and Reflection Vol. 8, No. 3, 2020 ISSN 2309-0405

Internet saytlari

1. https://www.facebook.com/ijtimoiyhimoya agentligi/
2. https://rehabing.org/uz/hotel-detail/rtssad-146/
3. https://ssv.uz

5-SHO‘BA. *UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA PEDAGOG XODIMLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI*

Халилова Шахноза Тургуновна
Доктор педагогических наук, профессор
Университет Ориентал
Тел: (+99890) 9538019
Тургунбоев Жалолиддин
СтажёрУниверситета Ориентал
Тел: (+99890) 0005800

РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Статья обсуждает важность развития педагогических компетенций для учителей и предлагает несколько способов, которые помогают им в этом. Автор подчеркивает, что педагогические компетенции помогают учителям работать более эффективно с учениками, улучшить качество образования и повысить свою профессиональную репутацию. Среди рекомендуемых способов развития педагогических компетенций автор упоминает участие в профессиональных развивающих программах, командную работу, чтение профессиональной литературы, использование онлайн-ресурсов и менторинг.

Ключевые слова: профессиональное развитие, ученики, онлайн-ресурсы, командная работа, развитие педагогических компетенций, профессиональная литература, менторинг.

Annotatsiya

Maqolada o‘qituvchilarning o‘qitish kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati muhokama qilinadi va bunda ularga yordam berishning bir necha usullari taklif etiladi. Muallif ta’kidlaganidek, pedagogik kompetensiyalar o‘qituvchilarga o‘quvchilar bilan samarali ishlash, ta’lim sifatini oshirish va ularning kasbiy obro‘sini oshirishga yordam beradi. Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning tavsiya etilgan usullari orasida muallif kasbiy malaka oshirish dasturlarida ishtirok etish, jamoada ishlash, professional adabiyotlarni o‘qish, onlayn resurslardan foydalanish va murabbiylikni qayd etadi.

Kalit so‘zlar: malaka oshirish, talabalar, onlayn resurslar, jamoada ishlash, pedagogik kompetentsiyalarni rivojlantirish, professional adabiyotlar, murabbiylik.

Abstract

The article discusses the importance of developing teaching competencies for teachers and suggests several ways to help them with this. The author emphasizes that pedagogical competencies help teachers work more effectively with students, improve the quality of education and enhance their professional reputation. Among the recommended ways to develop pedagogical competencies, the author mentions participation in professional development programs, teamwork, reading professional literature, using online resources and mentoring.

Key words: professional development, students, online resources, teamwork, development of pedagogical competencies, professional literature, mentoring.

На современном этапе развития Нового Узбекистана происходят коренные реформы в системе непрерывного образования. И очень важно, чтобы педагоги этой эпохи владели профессиональной компетенцией.

Педагогические компетенции – это набор знаний, умений и навыков, необходимых для эффективной работы педагога. Развитие педагогических компетенций является ключевой задачей для каждого учителя и образовательного учреждения в целом. В данной статье мы рассмотрим, что такое педагогические компетенции, почему они важны, и как их можно развивать.

Что такое педагогические компетенции?

Педагогические компетенции – это навыки, знания и умения, необходимые для успешной работы педагога. “Они включают в себя различные области, такие как управление классом, планирование уроков, оценка учеников, взаимодействие с родителями и коллегами, развитие профессиональных навыков и многие другие” [1; 133].

Почему педагогические компетенции важны?

“Развитие педагогических компетенций имеет несколько причин. Во-первых, педагогические компетенции позволяют учителям лучше понимать своих учеников, идентифицировать их индивидуальные потребности и разработать индивидуальные планы обучения. Во-вторых, педагогические компетенции способствуют улучшению качества образования и повышению эффективности учебного процесса. В-третьих, развитие педагогических компетенций помогает учителям улучшить свою профессиональную репутацию, что может способствовать повышению их статуса и зарплаты” [4; 76].

Как можно развивать педагогические компетенции?

Существует множество способов, которые помогают педагогам развивать свои компетенции. Рассмотрим наиболее эффективные из них:

Участие в тренингах и семинарах. “Семинары и тренинги могут предоставить педагогам новые знания и навыки, а также позволить им обменяться опытом с коллегами” [2; 42].

Работа над проектами. Участие в проектах, связанных с образованием, может помочь педагогам развить свои профессиональные навыки, расширить свой кругозор и научиться работать в команде. Кроме того, это может способствовать повышению мотивации педагогов и учеников.

Общение с коллегами. “Общение с другими учителями может помочь педагогам узнать о новых методах и подходах к обучению, а также получить обратную связь от более опытных коллег” [3; 55].

Чтение профессиональной литературы. Чтение профессиональной литературы может помочь педагогам получить новые знания и идеи для улучшения своей работы.

Повышение квалификации обеспечит преподавателя владение новыми знаниями, умениями и навыками, которые будут способствовать эффективного взаимодействия в учебно-воспитательном процессе образовательного учреждения.

Использование онлайн-ресурсов. Сегодня существует множество онлайн-ресурсов, которые могут помочь педагогам развивать свои компетенции, такие как вебинары, онлайн-курсы и форумы.

Менторинг. Работа с ментором может помочь педагогам получить обратную связь, советы и поддержку на протяжении всей карьеры.

В заключение, развитие педагогических компетенций является ключевой задачей для каждого учителя и образовательного учреждения. Педагогические компетенции позволяют учителям эффективно работать с учениками, улучшить качество образования и повысить свою профессиональную репутацию. Существует множество способов, которые помогают педагогам развивать свои компетенции, и каждый учитель должен выбрать те, которые наиболее подходят ему и его стилю обучения.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Васильева А.В. Профессиональное развитие педагогов в условиях образовательной организации / А.В. Васильева, Н.А. Мамедова // Вестник Московского государственного областного университета. – 2019. – №4. – С. 132–136.

2. Гаврилова И.А. Модель развития профессиональной компетентности педагогов / И.А. Гаврилова // Образование и наука. – 2019. – № 9. – С. 39–49.

3. Халилова Ш.Т. Формирование профессиональных компетенций педагога в условиях образовательных инноваций / Халилова Ш.Т. // Научный диалог. – 2022. – № 11. – С. 50–61.

4. Халилова Ш.Т. Формирование профессиональных компетенций педагога в условиях современной школы / Халилова Ш.Т. // Педагогическое образование. – 2021. – № 9. – С. 74–79.

Анаркулова Гулназ Мирзахматовна
Профессор кафедры
“Методика профессионального образования”
Ташкенсткого государственного
педагогического университета имени Низами

КОМПЕТЕНТНЫЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Данная статья посвящена проблеме компетентной подготовки учителей Технологии. Сущность компетентного подхода подготовки учителей, содержания технической и технологической компетентности.

Ключевые слова: компетентность, компетентностный подход, подготовка учителей Технологии.

Annotation

This article is devoted to the problem of competent training of Technology teachers. The essence of the competent approach to teacher training, the content of technical and technological competence.

Key words: competence, competency-based approach, teacher training Technology.

Реформа в системе непрерывного образования республики Узбекистан ставит задачу перед педагогическим кадрами системы высшего образования подготовка специалистов как квалифицированных, так и конкурентоспособных на международном рынке труда. Стратегия реформ строится на основе системного подхода, которого мы видим преобразования

общеобразовательных школ с девятилетним обучением на 11 летнее образования.

В основе таких преобразований всегда лежит освоение новых технологий как совокупности традиционных и инновационных методов и приемов. Хочется подчеркнуть: не призывы к модернизации образовательного процесса, не разработка очередных программ совершенствования и развития обновляет школу. Ее обновляет учитель, овладевший новыми технологиями обучения и воспитания.

Современная организация образовательного процесса должна гарантировать возможность усвоения учебного материала каждым учащимся на высоком уровне, обеспечить его готовность осуществлять эффективную деятельность в сложных, вариативных, постоянно изменяющихся условиях.

Модернизация системы непрерывного образования в сторону компетентностного подхода исходит из изменений в обществе, влияющих на ситуацию в сфере образования, – ускорение темпов развития общества.

Компетентностный подход – это совокупность общих принципов определения целей образования, отбора содержания образования, организации образовательного процесса и оценки образовательных результатов.

К числу таких принципов относятся следующие положения:

Смысл образования заключается в развитии у обучаемых способности самостоятельно решать проблемы в различных сферах и видах деятельности на основе использования социального опыта, элементом которого является и собственный опыт учащихся.

Смысл организации образовательного процесса заключается в создании условий для формирования у обучаемых опыта самостоятельного решения познавательных, коммуникативных, организационных, нравственных и иных проблем, составляющих содержание образования.

Оценка образовательных результатов основывается на анализе уровней образованности, достигнутых студентами на определённом этапе обучения.

Исследования показали по проблеме компетентностный подход имеются различные подходы.

Например Е.Я. Коган считает, что это принципиально новый подход, который требует пересмотра отношения к позиции учителя, к обучению учащихся; этот подход должен привести к глобальным изменениям от изменения сознания до изменения методической базы.[24] А.Г. Бермус

[24] Е.Я. Коган. Компетентностный подход и новое качество образования. Современные подходы к компетентностно-ориентированному образованию: Материалы семинара/под ред. АВ Великановой .2001.

подчеркивает, что компетентностный подход рассматривается как современный коррелят множества более традиционных подходов (культурологического, научно-образовательного, дидактоцентрического, функционально-коммуникативного и др.); компетентностный подход, применительно к практике образования, не образует собственную концепцию и логику, но предполагает опору или заимствование понятийного и методологического аппарата из уже сложившихся научных дисциплин (в том числе, лингвистики, юриспруденции, социологии и др.)[25].

Компетентностный подход, по мнению О.Е. Лебедева, – это совокупность общих принципов определения целей образования, отбора содержания образования, организации образовательного процесса и оценки образовательных результатов. К числу таких принципов относятся следующие положения:

- смысл образования заключается в развитии у обучаемых способности самостоятельно решать проблемы в различных сферах и видах деятельности на основе использования социального опыта, элементом которого является и собственный опыт учащихся;
- содержание образования представляет собой дидактически адаптированный социальный опыт решения познавательных, мировоззренческих, нравственных, политических и иных проблем;
- смысл организации образовательного процесса заключается в создании условий для формирования у обучаемых опыта самостоятельного решения познавательных, коммуникативных, организационных, нравственных и иных проблем, составляющих содержание образования;
- оценка образовательных результатов основывается на анализе уровней образованности, достигнутых учащимися на определенном этапе обучения.[26]

При подготовке учителей Технологии в системе непрерывного образования особенно внимание уделяется на вид деятельности, который представляет двойственные содержания, включающие следующие:

1) технологическая деятельность;
2) педагогическая деятельность;
3) В состав компетенции, включающие технологическую деятельность при подготовке учителей.

[25] Бермус А.Г. Российское педагогическое образование в контексте Болонского процесса // Педагогика. – 2005. – №10. – С. 102–109.

[26] Лебедев О.Е. Компетентностный подход в образовании. // Школьные технологии. – 2004. – № 5. – С.3-1

Технологии входят следующие:

1) технологическое знание;
2) организация и технологии возделывания сельскохозяйственных культур;
3) знание и различие видов сельскохозяйственных машин;
4) формы и методы эксплуатации различных видов техники в домоводстве;
5) решение технологических задач по выполнению конкретных задач по сервизному обслуживанию;
6) выполнения операции на различных видах оборудований и т.д.

Теперь рассмотрим педагогическую деятельность, которая требует следующие компетенции:

1) знание учебно-нормативных документации;
2) овладения знаниями дидактических принципов организации учебного процесса;
3) различать виды технических средств и подготовка дидактических материалов;
4) организация и управления учебным процессом;
5) формы и методы организации учебного процесса;
6) организация теоретических и практических занятий по предмету Технология;
7) овладения педагогическим мастерством и техникой обучения;
8) коммуникативные способности;
9) психологические знания;
10) виды и формы оценки знаний умений и навыков учеников;
11) подготовка учебно-методических комплексов;
12) использование педагогических технологии в процессе обучения;
13) организация и управления процессов воспитательных работ в учебном заведений и т.д.

Учитывая вышеизложенных каждый компонент составляющие компетентность включает в себя ряд требований к подготовке специалиста. По данной проблеме учёные дают свои определение, в том числе Э.Ф. Зеер в своих научных работах даёт определение, под профессиональной компетенцией понимается совокупность профессиональных знаний, умений, а также способы выполнения профессиональной деятельности[27].

Профессиональная деятельность учителей Технологии в системе непрерывного образования включает в себя педагогические работы,

[27] Зеер Э.Ф. Психология профессий: Учебное пособие для студентов вузов. – М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003. – 330 с.

методические работы, воспитательные работы, выполнения несложных технологических операции, соответствие технической и технологической компетентности.

Техническая компетентность включает в себя знание и умения, выполнения технологических операций, работа со инструментами, токарными станками, сельскохозяйственной техникой и т.пр.

Педагогическая компетентность как преподаватель овладения знаниями, умениями и навыками использования методов, форм и средств обучения.

Широкое употребление термина “компетенция” в педагогической литературе последних лет обусловлено введением в образовательное пространство многих стран компетентностного подхода, который рассматривается как альтернатива “знаний-умений-навыков”, ограничивающих цели обучения и воспитания узким предметным образованием и недостаточно учитывающих сущность компетентности современного человека в условиях конкуренции свободного рынка труда.

В последние десятилетия практически во всех развитых странах Европейского союза в условиях создания единого образовательного пространства в рамках принятой Болонской декларации произошла переориентация содержания образования на освоение ключевых компетенций. В компетентностном подходе отражен такой вид содержания образования, который не сводится к знание ориентировочному компоненту, а включает целостный опыт решения жизненных проблем, выполнения ключевых функций, социальных ролей, проявление компетенций.

Компетентностный подход в образовании в противоположность концепции “усвоения знаний” предполагает освоение учащимися умений, позволяющих им в будущем действовать эффективно в ситуациях профессиональной, личной и общественной жизни. Разумеется, предметное знание при этом не исчезает из структуры образованности, а выполняет в ней подчиненную, ориентировочную роль.

Однако большинство проводимых в настоящее время исследований посвящено анализу какой-либо одной компетенции. Так, к примеру, рассматривая профессиональную компетентность учителя, И.С. Данилова выделяет коммуникативную компетенцию, Н.А. Игнатенко – социокультурную, А.А. Петров – общекультурную компетенцию, Т.А. Разуваева – читательскую компетенцию. Поэтому до сих пор не существует целостного представления о том, набор каких компетенций составляет в своей совокупности профессиональную компетентность того или иного

специалиста. Данный вопрос еще подлежит теоретико-методологическому и эмпирическому изучению.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР:

1. Указ Президента Мирзиёева Ш.М. №УП-5812 от 06.09.2019 г. “О дополнительных мерах по дальнейшему совершествованию сиситемы профессионального образозования” Т., 2019 г.
2. Анаркулова Г.М. Модель подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. *Научный журнал “Молодой учёный”№13(93),июль., 2015. -590-592.*
3. Анаркулова Г.М., Рузибаева Г.А. Модернизация содержание профессиональной подготовки и повышения квалификации кадров в системе высшего образования республики Узбекистан. *Научный журнал. Проблема науки и образования. № 51(125)2018 г.*
4. Зеер Э.Ф. Психология профессий: Учебное пособие для студентов вузов. – М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003. – 330 с.
5. Лебедев О.Е. Компетентностный подход в образовании. // Школьные технологии. – 2004. – № 5. – С.3-1

Karimova Shaxloxon,
Oriental universiteti dotsenti, PhD

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IMLOVIY SAVODXONLIKKA ERISHUVDAGI DIDAKTIK USULLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining imloviy savodxonlikka erishuvidagi pedagogoik-psixologik imkoniyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan didaktik usullar haqida bahs yuritiladi, Talabalarning yozma nutq madaniyati va uni shakllantirish, ona tili, yozma nutq bobida olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilarda yozma nutqni shakllantirish va o‘stirish yo‘llari, usullarini ular ongiga singdirish asosda savodxonlikning talab darajasida bo‘lishini, o‘zbek tili imkoniyatlaridan o‘z o‘rnida foydalanishni ta'minlash masalalari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *kommunikativ yondashuv, pedagogik texnologiya, ta’lim jarayoni, og‘zaki va yozma nutq, dialogik nutq, tinglab tushinish, bevosita yordam, mustaqil ta’lim, deduktiv yondashuv*.

Аннотация

В данной статье рассматриваются дидактические приемы, направленные на развитие педагогико-психологических возможностей и умений в достижении орфографической грамотности будущих учителей начальных классов, заключающиеся в закреплении и углублении знаний учащихся о культуре письменной речи и ее формировании, родном языке, полученных в главе письменная речь. Освещаются также вопросы формирования и развития письменной речи у учащихся, внедрения в их сознание методов и приемов обучения грамоте, обеспечения востребованного уровня грамотности, использования возможностей узбекского языка.

Ключевые слова: *коммуникативный подход, педагогическая технология, образовательный процесс, устная и письменная речь, диалогическая речь, понимание на слух, непосредственная помощь, самостоятельное обучение, дедуктивный подход*

Annotation

This article discusses didactic methods aimed at developing pedagogical-psychological opportunities and skills in the achievement of spelling literacy of teachers of the future primary class, consists in strengthening and deepening the students ' culture of written speech and its formation, knowledge gained in the chapter of native language, written speech. Also covered are the ways of forming and growing written speech in students, the absorption of methods into their minds, ensuring that literacy on the basis is at the level of demand, the use of the opportunities of the Uzbek language in its place.

Keywords: communicative approach, pedagogical technology, educational process, oral and written speech, dialogical speech, listening, direct assistance,

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nutqiy va imloviy savodxonlikka ega bo‘ladigan ona tili ta’limida o‘quvchi o‘z fikrlarini ravon bayon qila oladigan bo‘lishi va to‘g‘ri savodli yoza oladigan bo‘lishi kerak. Shu jihatdan, boshlang‘ich sinflarning ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy bilimlarini bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda takomillashtirib borish lozim. Shunga ko‘ra, ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning eng samarali usul va metodlarini qo‘llash bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bu muhim vazifalarni esa bilim, malakalari yetarli o‘qituvchilar amalaga oshiradi. Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf

o‘qituvchilarining yozma va og‘zaki nutqini takomillashtirish masalasi esa birinchi galdagi ustuvor vazifalardir.

“Til, eng avvalo, insonning ichki dunyosi, olamni idrok qilishi, tafakkur tarzi va kamolotini belgilaydigan vosita. Tilga ko‘pincha aloqa vositasi sifatida qarashadi. Aslida bu tilning mohiyatini to‘g‘ri anglamaslik natijasida paydo bo‘lgan noto‘g‘ri qarash. Til faqat aloqa vositasigina emas, u insonning tafakkur tarzini tayin qiladigan, dunyoni bilishi, dunyoni ko‘rishi, eshitishi vositasi hamdir.” [28]

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiyaning zamon talablari darajasida takomillashtirilishi, yoshlarning ma`naviy barkamol shaxslar bo‘lib yetishida asosiy omillardan hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik va metodik tayyorgarligini oshirish, darslarni ilmiy jihatdan takomillashtirish, ilg‘or va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga to‘liq joriy qilish to‘grisida ko‘plab fikrlar bayon etilmoqda.

Zero, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ham ta’limiy ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi dars maqsadiga erishishda o‘quvchilarning imloviy savodxonligi, uni yanada takomillashtirish usulllaridan foydalanish va darslarni tashkil qilish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Fikrlarimizni amaldagi yangi darsliklar va ularda o‘qitishdagi asosiy vazifalarga diqqat qaratsak:

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi[29]da til o‘qitishning o‘rganuvchiga asoslangan yondashuvlar turkumidan foydalaniladi. Bu yondashuv tilning real hayotiy vaziyatlarda qo‘llanishi va ana shu vaziyatlarda o‘rganuvchi sezadigan ehtiyojlarni qondirishga asoslanadi.

Tanlangan topshiriqlar vositasida o‘qituvchi o‘quvchlarni turli hayotiy vaziyatlarda grammatik jihatdan to‘g‘ri va kommunikativ jihatdan erkin so‘zlay oladigan darajaga olib chiqishni maqsad qilib qo‘yishi muhimdir. O‘quvchining tilni qo‘llashdagi real ehtiyoj (ijtimoiy muloqot, akademik ta’lim) hisobga olingan va zaruriy lingvistik qurilmalar turli nutqiy vaziyatlarda berilgan. Grammatik bilimni yetkazish insonning til malakasi og‘zaki nutqni tushunish, yozma nutqni tushunish, fikrni og‘zaki va yozma ifodalash orqali shakllanishi lmiy isbotlangan. Ana shundan kelib chiqib, darsliklar yaratishda grammatik bilim alohida emas, nutqiy vaziyat ichida berilishi haqidagi qarash asos qilib olingan. Bunda til o‘qitishga kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanilgan. Kommunikativ

[28] Mahmudov N. Til va yozuv. Toshkent, 1987.

[29]Mavlonova K. Ona tili va o`qish savodxonligi. 3-sinf uchun Darslik. Toshkent-2022.

yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish va o‘z nutqini to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatishdir.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning ona tili ta’limi bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar quiyidagi uch parametrli standart mezoni orqali aks ettiriladi: o‘qish texnikasi, o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta’limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi va o‘quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo‘yicha ta’lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va hokazo);
- tavsifning mavzuga muvofiq va mukammal bo‘lishi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- imloviy (yozma) savodxon bo‘lishi.[30]

Quyida yozma savodxonlikni oshirishga qaratilgan didaktik usullardan tavsiya qilamiz. “So‘zlarning tuzilishi jihatdan turlari” mavzusi[31]ni mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg‘ulot misolida beriladigan topshiriqlarni zamonaviy usullarda tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalarni keltirsak.

Avval matn audio shaklda o‘qib eshittiriladi.

Mehnat bilan suyagi qotgan, mehnat tufayli izzat-u hurmat ko‘rgan har bir ota-ona bolasining ham mehnat bilan yashashini, mehnat bilan el-yurt oldida sharaf topishini xohlaydi. Shu tufayli bolalarining kelajagini o‘ylab, ularni mushtumdek paytlaridan katta-kichik mehnatga o‘rgatadilar. To‘g‘ri tarbiyaning eng ta’sirli, eng samarali usuli ham shu, ammo ba’zi bolalar ro‘zg‘or ishlaridan ham bosh tortadilar. Otalari yo onalariga shafqatsiz, berahm kishilarga, hatto quldorlarga qaraganday o‘qrayib, alang-jalang yeb yuborgilari kelguday bo‘lib qaraydilar. Malol kelib, qo‘l uchida qilgan ishlaridan ota-onalari norozi bo‘lishsa, uzr so‘rash o‘rniga to‘ng‘illab beradilar. Ota-ona bolalarining mehnatiga hamma vaqt, erta-kech ham muhtoj bo‘lavermas, lekin bolani yoshligidan ishga o‘rgatish, mehnatga ko‘niktirish zimmalaridagi burch ekanligi shunday yo‘l tutishga majbur qiladi. Bilmaganini bilishni, o‘rgatilganini o‘rganishni xohlamagan kaltabin yoshlarga qarab shoir degan ekan:

Kimki o‘rganishni or bildi,

[30] Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 3-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / K. Mavlonova, [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 160 b.

[31] Ona tili. 60110700-Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi Fan Dasturi. O`z.Res. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Har qadamda o‘zni xor bildi.

(M. Ismoiliy)

1. Tinglab tushunish mashqi.

Audiomatn eshittirib bo‘lingach, quyidagi savollar beriladi:

1. Matnda qaysi insoniy xislatlar haqida so‘z yuritilgan?
2. Bilmaganini bilishni, o‘rgatilganini o‘rganishni xohlamagan yoshlarga qanday salbiy sifat qo‘shilyapti?
3. To‘g‘ri tarbiyaning eng ta’sirli, eng samarali usuli qanday ekan? Va uni asosan kimlar amalga oshiruvchi shaxslar kim?

2. Og‘zaki nutqni o‘stirish mashqi

1. Siz matnga qanday nom topgan bo‘lar edingiz?
2. Mehnatsevarlik tushunchasini qanday izohlaysiz?
3. Mehnat va mehnatsevarlik haqida qanday o‘zbek maqollarini bilasiz?
4. Mehnatkash insonlar jasorati haqida, mehnatning foydalari to‘grisida yozilgan qaysi badiiy asarlarni esladingiz?
5. Bu asarlardan siz qanday xulosa chiqargansiz?
6. Qaysi qo‘l mehnati bilan shug‘ullanasiz?

3. Yozma nutqni rivojlantiruvchi mashq.

1.Matnda aytilishi va yozilishi farqlanadigan so‘zlarni ajrating va ikki ustunga ajratib yozing.

Talaffuziga ko‘ra	Yozilishiga ko‘ra
Shavqat	Shafqat
Mushtim	Mushtum
Burj	Burch
To‘ng‘illap	To‘ng‘illab
Uzur	Uzr

2. Lug‘at ustida ishlash. Xorijiy tajribada ham til egalarining muayyan til malakalarini egallashda asosiy yordamchi vosita lug‘atlar ekanligi e`tirof etilib, savodxonlik borasida amaliy foydalari ko‘p qayd etilgan.[32]

4. Grammatik bilimni mustahkamlovchi mashq.

[32]Isabel Beck, Charles Perfetti, Margaret G.Mckewon. Effects of long-term vocabulary instruction on lexical access and reading comprehension. August 1982. Journal of Educational Psychology DOI:10.1037/0022-0663.74.4.506 August, D., Carlo, M., Dressler, C., & Snow, C. (2005). The critical role of vocabu lary development for English language learners. Learning Disabilities Research and Practice, 20, 50–57

1. Matndan so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra faqat juft so‘zlarni ajratib yozing. Hosil bo‘lishiga qiqqat qiling va so‘z turkumini aniqlang. Juft so‘z bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Masalan, ota-ona (ot so‘z turkumi, bir-biriga mazmunan yaqin so‘zlardan tuzilgan), alang-jalang qaraydilar (Ravish so‘z turkumi, har ikki qismi atash ma`nosiga ega bo‘lmagan so‘zlardan hosil bo‘lgan).

Til ta’limida talabalarning, ayniqsa, boshlang‘ich ta’limiy yo‘nalishida tahsil oluvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda turli didaktik usullaridan foydalanishi va darslarni interfaol metodlarga tayangan holda tashkil qilish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Yuqoridagi mulohazalardan xulosalarimiz quyidagicha:

1. Insonning til malakasi og‘zaki nutqini tushunish, yozma nutqni tushunish, fikrni og‘zaki va yozma ifodalash orqali shakllanish ilmiy isbotlangan. Ana shundan kelib chiqib, til ta’limida grammatik qoidalarni o‘rgatibgina qolmasdan tilga muloqot jarayonida asosiy vosita ekanligini inobatga olinishiga ahamiyat qaratish muhim.
2. Dars jarayonlarida grammatik bilim alohida emas, nutqiy vaziyat ichida berilish haqidagi qarash asos qilib olinishi, bunda til o‘qitishga kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanilishi o‘zlashtirishga ham ijobiy ta`sir etuvchi omillardan ekanligi oydinlashdi.
3. Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda o‘zgalar nutqini tushunishi va o‘z nutqini ravon, to‘g‘ri ifodalashiga o‘rgatishdir.
4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ilk savod chiqarishda chinakam savodxonlikka erishgan o‘qituvchilar qo‘lida ta’lim olishi talabalik davridanoq jiddiy e’tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maxmudov N. Til va madaniyat. - Toshkent, 2005.
2. G‘ulomova X. Husnixatga o‘rgatish metodikasi. - Toshkent, 2007.
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligi oshirish yo‘llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
4. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sharoitida innovatsiyalar. Special Issue | 2022
5. Isabel Beck, Charles Perfetti, Margaret G.Mckewon. Effects of long-term vocabulary instruction on lexical access and reading comprehension. August

1982. Journal of Educational Psychology DOI:10.1037/0022-0663.74.4.506 August, D.,
6. Carlo, M., Dressler, C., & Snow, C. (2005). The critical role of vocabu lary development for English language learners. Learning Disabilities Research and Practice, 20, 50–57
7. Karimova Sh. Shodiyev I. Til ta’limida ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan usullar//Til va adabiyot ta’limi. Toshkent, 2022.№ 12. 3-5 betlar
8. Karimova Sh. Toshxujayeva Sh. Lingvopoetikaning nazariy masalalari// Xorazm Ma`mun akademiyasi axborotnomasi. 2022-11/4. Xiva.182-185
9. Karimova Sh. Til ta’limida sintaktik birliklarni o‘qitish //O‘zbek tili tadqiqi va ta’limi muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –T.: ―Universitet‖, 2021
10. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -T.: O‘zbekiston, 1992.
11. Kozimova N. Ona tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent, 2009. –B.213.

M.R.Isxakova
MTTDMQTMOI Pedagogika va psixologiya kafedrasi
v.v.b.dotsenti, p.f.f.d.(PhD)
Telefon: +998(91) 1918449, mavluyda_ir@mail.ru

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOGLARI MALAKASINI OSHIRISHNING ANDRAGOGIK YONDASHUVGA ASOSLANGAN MODELI

Annotatsiya.

Maqolada andragogik yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining malakasini oshirish jarayonini tashkil etish, uning andragogik modelini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, kattalar ta’limida samarali texnologiyalardan foydalanish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: andragogika, andragogik yondashuv, andragogik model, katta yoshli ta’lim oluvchi, malaka oshirish, metod, vosita, shakllar, o‘quv jarayoni, pedagoglar, maktabgacha ta’lim tashkiloti.

Abstract

The article describes the organization of the process of professional development of pedagogues of preschool educational organizations based on the andragogic approach, the development and implementation of its andragogic model, as well as the use of effective technologies in adult education.

Key words: andragogy, andragogic approach, andragogic model, adult learner, professional development, method, tool, forms, educational process, pedagogues, preschool educational organization.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) pedagoglarining malakasini oshirish masalalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini amalga oshirishda, albatta, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, amaliy tajribalari inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir. Bunday imkoniyatni andragogik yondashuvga asoslangan malaka oshirish tizimi beradi.

Bizning tadqiqotimiz hozirgi kunda andragogik yondashuv asosida malaka oshirish tizimini takomillashtirish borasidagi ishlar yyetarli darajada amalga oshirilmaganligini ko‘rsatdi.

Shu munosabat bilan bizning ilmiy izlanishimizning maqsadi maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining malakasini oshirish jarayonida andragogik modelning imkoniyatlarini ochib berish bo‘ldi.

Malaka oshirish jarayonining andragogik modeli kattalar o‘qituvchisi (andragog) va ta’lim oluvchi (tinglovchi)ning barcha bosqichlarda: diagnostika, rejalashtirish, amalga oshirish, baholash, korreksiya jarayonida birgalikdagi faoliyati shaklida tashkil etiladi. Ta’lim oluvchilar (kattalar va katta bo‘lmagan) xususiyatlaridan kelib chiqib, pedagogik va andragogik o‘qitish modellarini taqqosladik. Modellarni yaratish uchun ta’lim oluvchining tasnifi, ta’lim jarayoni xususiyatlari, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar faoliyat turlarini qiyosiy tahlil qildik.

1-rasm. Andragogika va pedagogikada o‘qish jarayoni qiyosi

Andragogik modelning asosiy g‘oyalari: kattalarga ta’lim beruvchining etakchi roli; kattalar - ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining hamkorlikdagi faoliyati; o‘quv jarayonini tayyorlash va uni amalga oshirishda o‘zaro hurmat, mas’uliyat va birgalikda ishlashga asoslangan norasmiy andragogik o‘quv muhiti.

Andragogik malaka oshirish modeli ta’lim jarayonining barcha parametrlarini aniqlashga imkon beradi: u katta yoshdagi ta’lim oluvchilarning asosiy xususiyatlariga, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyatiga asoslangan bo‘lib, ular kattalarning yetakchi, faol pozitsiyasini belgilaydi, shuningdek, o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida teng ishtirokchi sifatida guruhiy faoliyat ishtirokchisi hisoblanadi [1].

MTT pedagoglari malakasini oshirishning ushbu andragogik modeli murakkab dinamik jarayon bo‘lib, “Men – kattaman” psixologik pozitsiyasiga asoslanadi va u anglash qobiliyatini, faoliyat va xatti-harakatlarni muvofiqlashtirish, loyihalash, tartibga solish, refleksiya (aks ettirish) va korreksiyalash (tuzatish)ni amalga oshirishni nazarda tutadi.

M.Sh.Noulz andragogik modelni *muqobil qonuniyatlar tizimi, muayyan ta’limiy vaziyatning xususiyatlariga javob beradigan amaliy model* deb atadi [7].

1984-yilda M.Sh.Noulz *andragogik model*ga quyidagi ta’rifni berdi: bu to‘liq yoki qisman qabul qilinishi yoki moslashtirilishi mumkin bo‘lgan elementlar tizimi. Bu modelning butunlay va o‘zgartirilmasdan qo‘llanilishi kerak degani emas. Moslashuvchanlik – andragogik modelning muhim xususiyati [7].

Andragogika tadqiqotlarni o‘rganish asosida (S.G.Vershlovskiy[1], S.I.Zmeyev[4], M.P.Gromkova[3], A.Kopilova[5], Z.V.Vozgova[2], M.Mirsoliyeva [6], M.Noulz [7], O.A.Orlova [8] va boshqalar.) biz pedagoglar malaka oshirishining quyidagi komponentlaridan iboat bo‘lgan andragogik modelinini belgiladik:



2-rasm. Andragogik model

Andragogik model komponentlarini quyidagicha izohladik:

- *andragogik tamoyillar* (mustaqil ta’lim olish: birgalikdagi faoliyat, tinglovchi tajribasiga tayanish, ta’lim olishni individuallashtirish, tizimli ta’lim, kontekstli ta’lim, o‘quv natijalarini aktuallashtirish, ta’limning elektivligi, ta’lim ehtiyojlarini rivojlantirish).
- *malaka oshirish jarayonining bosqichlari* (diagnostika, malaka oshirish jarayonini rejalashtirish va uni amalga oshirish, refleksiya, malaka oshirish jarayonini korreksiyalash);
- *ta’lim beruvchining vazifalari* (diagnostika testlari, anketa-so‘rovnomalar, kuzatuvlar olib borish, suhbatlar o‘tkazish; tinglovchilar bilan birgalikda malaka oshirishning individual dasturini ishlb chiqish; muvaffaqiyatli o‘qitish uchun zarur bo‘lgan ilmiy, uslubiy va psixologik sharoitlarni tayyorlash; diagnostika tadbirlarini o‘tkazish va tinglovchilar malaka oshirish jarayonini amalga oshirilishini monitoringini tashkil etish;
- malaka oshirish jarayonining kurs ishlarida yutuqlarni baholash vositalari va shakllari, usullari, tartiblari va malaka oshirish jarayonining o‘zi, ushbu jarayonning faol ishtirokchilarining malakasini oshirish maqsadlariga va tinglovchilarning xususiyatlariga mos keladigan harakatlarini tanlash va ulardan foydalanish; malaka oshirish jarayonining yetarli darajada samarali bo‘lmagan tarkibiy qismlariga kerakli o‘zgarishlarni kiritish);
- *ta’lim oluvchilarning funksiyalari* (diagnostika vazifalarini bajarish va ta’lim ehtiyojlari, bilim va ta’lim uslublarini, o‘z-o‘zini diagnostika qilish texnologiyasini bosqichma-bosqich o‘zlashtirish); individual o‘quv dasturining ta’lim beruvchilar bilan birgalikda ishlab chiqish; ta’lim olish uchun qulay psixologik muhit yaratish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish va ularga rioya qilish; malaka oshirish kurslarida o‘qitishning turli manbalari, vositalari, shakllari va usullarini izlash va ulardan foydalanish; malaka oshirish jarayonida erishilgan yutuqlarni baholashning turli mezonlari, shakllari, usullari, tartiblaridan hamda ushbu jarayonning faol ishtirokchilarining harakatlaridan foydalanish; o‘quv jarayonini korrektsiyalash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish);
- *tashkiliy shakllar* (muammoli ma’ruzalar, ma’ruza-vizualizatsiyalar, munozaralar, ishbilarmonlik o‘yinlari, proektiv, refleksiv seminarlar va boshqalar), *metodlar* (keyslar tahlili usuli, o‘yin orqali loyihalash, aqliy hujum, bitta savol formati, to‘siqlarni bartaraf etish texnikasi va boshqalar) va *vositalar* (o‘qitishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun uslubiy ko‘rsatmalar va boshqalar).

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining malaka oshirish kurslarida biz MTT pedagoglarining malakasini oshirishning yuqorida ko‘rsatilgan andragogik modelini joriy qildik. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu model bizning ijtimoiy-andagogik sharoitimizga moslashtirildi: biz malaka oshirish jarayonida katta yoshli tinglovchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga oldik, andragogik tamoyillarga, tashkiliy shakllarning o‘ziga xos xususiyatlariga va interfaol usullarga tayandik.

Andragogik modelning joriy etilishi MTT pedagoglarining kasbiy mahoratini, ularning ijodiy faolligini, tadqiqot ishlarida mustaqilligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Olingan ma’lumotlarga asoslanib, biz andragogik yondashuv doirasida MTT pedagoglarining malakasini oshirish uchun quyidagi tashkiliy va pedagogik shartlarni amalga oshirdik:

- MTT pedagoglarining malakasini oshirishning andragogik modeli ishlab chiqildi va amalga oshirildi (maqsad, kattalar ta’limi tamoyillari, mazmuni, tashkiliy shakllari, usullari, ta’lim vositalari, samaradorlik mezonlari);
- pedagoglar malakasini oshirishda qo‘llaniladigan andragogik texnologiyalar yaratildi (faol ta’lim uchun vaziyatni tahlil qilish texnologiyasi, aqliy hujum, faol ta’limning kompleks texnologiyalari va boshqalar);
- malaka oshirish tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar uchun andragogik model bo‘yicha ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha turkumli treninglar o‘tkazildi.

Natijada *malaka oshirishning andragogik modeli* bizga o‘quv jarayonini quyidagicha takomillashtirishga imkon berdi:

- katta yoshli ta’lim oluvchilarning yoshi, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olish;
- katta yoshli ta’lim oluvchilarning kasbiy va hayotiy tajribasiga tayanish;
- ta’lim jarayoniga yorqin obraz (tasvir)lar, misollarni kiritish;
- o‘quv jarayoni va kasbiy rivojlanish uchun mas’uliyatni oshirish;
- ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasida ishonchli, ijobiy munosabatlarni yaratish;
- axborotni taqdim etishning turli shakllari va usullarini, faoliyat shakllarini ishlab chiqish va ularning mobilligini ta’minlash;
- ta’lim olish uchun yuqori motivatsiyani saqlab qolish va malaka oshirish jarayoniga ma’lum o‘zgarishlar kiritish.

Shunday qilib, biz MTT pedagoglarini andragogik yondashuv asosida malakasini oshirish kattalar ta’limi jarayonini yangicha – innovatsion tarzda tashkil etishga imkon beradi, degan *xulosaga keldik:*

- katta yoshli ta’lim oluvchilarning ehtiyojlarini qondirish va ularning imkoniyatlarini kengroq ochib berish;
- individual traektoriyalar bo‘yicha kasbiy rivojlanishni kafolatlash;
- o‘z-o‘zini tahlil qilishning turli shakllaridan doimiy foydalanishni o‘z ichiga oladigan (refleksiya (aks ettirish), o‘zini sinab ko‘rish, o‘zini o‘zi baholash, o‘z-o‘zini korreksiyalash (tuzatish)ni va boshqalar) o‘z ichiga olgan hayot davomidagi ta’limga e’tibor qaratish;
- kattalar ta’limida afzal ko‘rilgan interfaol ta’limdan va ta’limning eng keng tarqalgan shakli bo‘lgan kichik guruhlar ishlaridan keng foydalanish.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, andragogik yondashuvga asoslangan model maqsad, tamoyillar, usullar, metodlar va ta’lim vositalari kabi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lgan majmuani nazarda tutadi, shu bilan birga, MTT pedagoglarining malakasini oshirish tizimida tinglovchilarga o‘zlarining kasbiy malakalarini oshirishda muammolarni samarali hal etish yo‘llarini belgilab, ularni natijali bartaraf eta olish, bilimlarni integratsiyalash va murakkab muammolarni hal qilish va kattalar ta’limining asosiy tamoyili - “hayot davomida ta’lim”ni amalga oshirishga imkoniyat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Вершловский С.Г. Общее образование взрослых: Стимулы и мотивы. М., 1987
2. Возгова З.В. Андрагогические особенности профессиональной подготовки в процессе непрерывного повышения квалификации научно-педагогических работников. В: Фундаментальные исследования, 2013, № 6, с. 730-734.
3. Громкова М.Т. Андрагогика: теория и практика образования взрослых: Учеб. пособие для системы доп. проф. образования. Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. 495 с.
4. Змеёв С.И. Андрагогика: основы теории, истории и технологии обучения взрослых. Москва: PerSe, 2007. 272 с.
5. Копылова А. В. Особенности андрагогической модели в системе повышения квалификации педагогических и руководящих работников образования. В: Вестник ТГПУ, 2010, вып. 10(100), с. 43-47.
6. Ноулз М.Ш. Современная практика образования взрослых, 1970 г.

7. M.Mirsoliyeva Andragogikaning taraqqiyot yo‘nalishlari. Zamonaviy ta’lim. 2016.11

8. Орлова О.А. Андрагогический аспект подготовки учителя в системе последипломного образования. В: Вектор науки ТГУ, 2012, № 4(11), с. 216-218.

Эшонқулова Маъсуда Хабибовна
Гулистон Давлат университети (PhD)

БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРИНИ ИЖОДИЙ МЕТОДИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация

Мақолада бўлажак тарбиячи (ўқитувчи)ларини методик тайёргарлигини математик мазмуни ва услубий таъминот вазифалари, мактабгача таълим муассасасида услубий ишнинг турли шакллари ёрдамида интерфаол шакл ва усуллардан фойдаланган ҳолда ўқитувчиларнинг методик тайёргарлигини амалга ошириш, назарий ва амалий билимларини амалиётга жорий этиш масалалари қаралади.

Калит сўзлар: педагогика, психология, мактабгача таълим, математик-методик тайёргарлик, элементар математика, таассув ва тафаккур.

Аннотация

В статье рассматриваются математическое содержание и методические задачи методической подготовки будущих воспитателей (педагогов), осуществление методической подготовки педагогов с использованием интерактивных форм и методов с использованием различных форм методической работы в дошкольном образовании, применение теоретических и практических знаний.

Ключевые слова: педагогика, психология, дошкольное образование, математико-методическая подготовка, элементарная математика, воображение и мышление.

Annotation

The article discusses the mathematical content and methodological tasks of methodological training of future educators (teachers), the implementation of methodological training of teachers using interactive forms and methods using various forms of methodological work in preschool education, the application of theoretical and practical knowledge.

Key words: pedagogy, psychology, preschool education, mathematical and methodological training, elementary mathematics, imagination and thinking.

Бўлажак тарбиячиларда бундай қобилиятлар мавжудлиги уларнинг мактабга тайёрлов гуруҳи болалари ижодий шахсини ривожлантириш бўйича тайёргарлиги ва самарали иши учун асос бўлади. Тўлиқ олий маълумотли мутахассис тайёрлашда (таълимнинг магистратура босқичи) ижодий фикрловчи шахс шаклланишига имкон берувчи математик маданиятга тегишли мутахассисларнинг ижодий касбий фаолиятга етарли даражада юқори математик тайёргарлигини таъминлаш зарур. ОТМнинг ҳужжатида айтилганидек, бу босқич "мустақил ижодий касб фаолиятига тайёр мутахассисларни тайёрлаш" мақсадига эга.

Мактабгача таълимни услубий таъминлаш қуйидагиларни ўз ичига олади:

таълим дастурининг ўқув ва дастурий ҳужжатлари;

таълимнинг дастурий режалаштирилган ҳужжатлари (режалар таълим ишлари);

ўқув дастурлари бўйича ўқув ва услубий адабиётлар (нашрлар, таълим дастурларини амалга ошириш учун зарур бўлган ва ўқув жараёнини ташкил этиш учун қулай шаклда тақдим этилган ва ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда илмий ёки амалий характердаги тизимлаштирилган маълумотларни ўз ичига олган;

ўқув қуроллари;

ахборот ва таҳлилий материаллар.

Услубий таъминот - бу ҳар томонлама маълумот педагогик тизимнинг ўзига хос тузилмаси бўлган, унинг элементларини акс эттирувчи модел ва мутахассислар тайёрлашни бошқаришнинг дидактик воситалари.

Услубий таъминот эҳтиёжларни прогнозлаш, услубий маҳсулотларни ишлаб чиқиш ва уларни педагогик фаолиятда қўллашни ўз ичига олган мураккаб жараён сифатида тавсифланиши мумкин.

Замонавий талабларга мувофиқ ўқув жараёнини услубий таъминлашнинг асосий вазифаларини ажратиб кўрсатамиз:

− ҳар бир ўқитувчининг касбий эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда илмий-педагогик маълумотларни ўрганиш учун шароит яратиш;

− ўқитувчилар фаолиятида илғор тажрибани ўзгартириш;

− аниқлаш учун мониторингдан фойдаланиш;

− ўқув жараёнини услубий таъминлаш самарадорлиги;

− педагогик фаолиятда жамоа ижодий муҳит ва изланиш яратиш.

Таълим жараёнини услубий таъминлашнинг асосий вазифалари бўлади.

1. Ўқитувчилар тажрибасини умумлаштириш ва таржима қилиш функтсияси (воситаларни аниқлаш, муаммоларни ҳал қилиш ва педагогик амалиётда учрайдиган энг типик қийинчиликларни таҳлил қилиш).

2. Педагогик тадқиқотлар натижаларини амалиётга жорий этиш функсияси (илмий ва услубий адабиётларни ўрганиш, илмий тадқиқотлар асосида ишлаб чиқилган тавсияларни қўллаш самарадорлигини баҳолаш).

Жорий услубий ёрдам функцияси (ўқитувчиларга маслаҳат бериш, юзага келган муаммоли вазиятларни танлаш, таҳлил қилиш, педагогик муаммоларни ҳал қилишда ўқитувчиларга ёрдам бериш, ўқув фаолияти учун жорий амалий материалларни ишлаб чиқиш).

Ҳозирги босқичда индивидуал йўналтирилган ёндашув ғояси жорий этилмоқда, бунда услубий ёрдам ҳар бир ўқитувчининг эҳтиёжларини инобатга олади, ижодий ўсишни индивидуал амалга ошириш учун шароитлар яратилади.

Бу, шунингдек, янги шароитда, замонавийлаштирилган ва сўнгги вазифаларга мувофиқ оқилона тажрибани самарали қўллаш, бир хил муаммонинг бир нечта эчимларини кўриш қобилияти, ривожланган сезги бўлиши мумкин. Демак, услубий таъминот илмий-методик фаолиятни ривожлантиришнинг янги босқичидир.

Концептуал модел учта компонентни ўз ичига олади: мавзу мазмуни, унинг фазовий ташкил этилиши ва уларнинг вақт ўтиши билан ўзгариши. Унинг ҳар бир таркибий қисми мактабгача ёшдаги болада янги фаолият турлари учун мотивларнинг пайдо бўлишини, ташқи дунё билан билиш ва ўзаро таъсир қилиш воситалари ва усулларини ўзлаштириш тажрибасини, катталар ва тенгдошлар билан мулоқот қилиш тажрибасини шакллантиради. Мактабгача ёшдаги болаларнинг когнитив ривожланишининг предмети таркибига қуйидагилар киради:

− болаларни ўқитиш жараёнида ўқув қўлланмаларида, макетларида, катталар катталар (масалан, лабораториялар, ўқув китоблари);

− ўйинлар, ўйин материаллари ва буюмлари, бола билан ёлғиз ёки катталар ва тенгдошлар билан биргаликда пайдо бўлади (масалан, мушак пуфакчалари, балонлар);

− болалар машқлари учун жиҳозлар фаолият (масалан, ўлчовлар ва тажрибалар учун материаллар).

Ривожланаётган объект-фазовий муҳитда (мини-лабораториялар) ўйин материаллари ҳамма учун мавжуд.

Ривожланаётган объект-фазовий муҳитда (мини-лабораториялар) ўйин материаллари болалар учун мавжуд. Тўйинганлик шароитида бола мустақил равишда фаолиятни танлайди, шунинг учун унинг фаоллиги ошади.

Кўриб чиқилаётган муаммонинг назарий таҳлили тадқиқотнинг амалий қисмига ўтишга, 6-7 ёшли болаларда табиий фанлар билан танишишда табиатшунослик билимларини шакллантиришнинг услубий таъминотининг мазмуни ва моҳиятини аниқлашга имкон беради. жонсиз табиат.

Шундай қилиб, мактабгача таълим ташкилотининг педагогик жамоасининг услубий ёрдамга бўлган эҳтиёжи, биринчи босқичда, янги технологияларнинг замонавий талаблари билан боғлиқ бўлган билим ва кўникмаларни такомиллаштиришни доимий рағбатлантиришдир. Замонавий шароитда мактабгача таълим муассасалари фаолиятини доимий равишда такомиллаштириш зарур. Ва бу кўп жиҳатдан уларнинг ишини услубий қўллаб-қувватлашга боғлиқ.

Мактабгача таълим муассасасида услубий ишнинг турли шакллари ёрдамида интерфаол шакл ва усуллардан фойдаланган ҳолда ўқитувчиларнинг касбий компетенсиясини, малакасини ошириш, назарий ва амалий билимларини тўлдириш мумкин. Интерфаол иш шаклларидан фойдаланишнинг асосий афзаллиги шундаки, улар фикр-мулоҳазаларни билдириши, очиқ фикр алмашишига сабаб бўлиши, ҳамкасблар ўртасида ижобий муносабатларни шакллантиришни рағбатлантириши мумкин. Ўқитувчилар билан ишлашнинг ушбу шаклларининг асосини жамоавий муҳокамалар, мулоҳазалар, хулосалар аргументлари, ақл ва истеъдодлар рақобати ташкил этади.

Мактабгача тарбия амалиёти назариясини таҳлил қилиш асосида 6-7 ёшли болаларда жонсиз табиат билан танишишда табиатшунослик билимлари асосларини шакллантиришнинг услубий таъминоти мазмунини очиб бердик ва асослаб бердик.

2. Ўтказилган тадқиқотлар жонсиз табиат билан танишиш ва услубий таъминотда табиатшунослик билимлари тушунчаларини аниқлаштириш имконини берди.

3. 6-7 ёшли болаларда табиатшунослик билимлари асосларини шакллантиришни методик таъминлашнинг асосий таркибий қисмлари қуйидагилардан иборатлиги аниқланди ва исботланди.

− болаларнинг когнитив ва экспериментал фаолияти учун ривожланаётган предметли-фазовий муҳитни ташкил этиш;

− тарбиячиларнинг самарали ва ижодий муаммоларни ҳал қилиш учун услубий ва амалий тайёргарлиги, мактабгача ёшдаги болаларнинг биргаликдаги ва мустақил экспериментал фаолиятини ташкил этиш.

4. Тадқиқотимизни олиб бориш жараёнида 6-7 ёшли болаларда жонсиз табиат билан танишишда табиий фанлар асосларини шакллантиришни услубий таъминлаш самарали бўлади, деган фараз тасдиқланган. 6-7 ёшли болаларда жонсиз табиат билан танишишда табиатшунослик асослари ишлаб чиқилади ва амалга оширилади.

Биз ўз ишимизда 6-7 ёшли болаларда жонсиз табиат билан танишишда табиатшунослик билимлари асосларини шакллантиришни услубий таъминлашнинг барча мумкин бўлган жиҳатларини тугатмадик. Келажакда бизнинг тадқиқотимизнинг навбатдаги босқичи жонсиз табиатни ўрганишда мактабгача ёшдаги болалар ўртасида табиатшунослик билимлари асосларини шакллантиришни ўрганиш ва услубий ёрдамни ташкил этиш учун педагогик шарт-шароитларни излаш бўлиши мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, бўлажак тарбиячи(ўқитувчи)лари методик таълими ривожланишининг бутун тарихи уларда бола шахсини мақсадли ва узлуксиз тайёрлаш, хусусан, уларни математикани ўқиш жараёнида ижодий унсурларнинг ривожлантирилиши билим ва кўникма ҳосил қилиш тарбиянинг таркибий қисми ва унинг касбий воситасига айланиши кўзда тутилади.

Кўплаб математик ва услубшунослар болаларга математикани ўргатишда бўлғуси тарбиячининг касбий, математик ва методик тайёргарлиги масаласи билан шуғулланган. Уларнинг ишлари математика ўқитувчиси ривожланиш муаммоларининг ҳал қилинишига салмоқли ҳисса қўшди. Мактабгача таълим ташкилоти тарбиячи (ўқитувчи)ларини тайёрлашдаги мавжуд фарқларга қарамай, математика ўқитувчиси методик тайёргарлиги бўйича тадқиқотчилар муҳим назарий хулосаларга эришдилар. Бўлажак тарбиячиларни тайёрлаш жараёнида мактабгача таълим ташкилоти концепцияси ҳам ҳисобга олиниши лозимлиги қайд қилинди.

Мактабгача тайёрлаш математика машғулотларида тарбиячи(ўқитувчи)ларининг методик тайёргарлиги назарияси ва амалиётига салмоқли ҳисса қўшди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017 йил, 488 бет.

2. Математика сохасидаги таълим сифатини ошириш ва илмий-тадқиқотларни ривожлантириш чора табирлари тўғрисида. Узбекистон Республикаси президентининг ПҚ-4708-сон 07.05.2020 Қарори.

3. Джанпеисова Г.Э. Теория и методика формирования математических представлений. / Учебное пособие. Т.: Тафаккур, 2019. – 420 с.

4. Djumayev M.I. Boshlang‘ich ta’limda milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etishning didaktik asoslari xususuda. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 558-570 бетлар

5. Джумаев М.И. Реализация профессиональной компетентности педагогов как средство методико-математической подготовки в колледжах. Профессиональное образование Арктических регионов № 4/2022.7-9 ст. www.arctic-prof.ru

6. Djumaev M. Formation of a general approach to solving problems for primary education according to the requirements in the national curriculum of uzbekistan. interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): Vol. 10, Issue 6, June 2022**)** 771-781 бет

7. Эшонкулова М.Х. Дидактические основы формирования элементарных математических представлений у дошкольников. Педагогический Вестник Казахстана №4 2018

8. Эшонкулова М.Х. Механизм стратегии нового подхода к учебно воспитательному процессу современной дошкольной образовательной организации. Ежеквартальный научно-теоретический и практический журнал. Москва 2020 № 2 [34]

O‘tamurodova Shohida Muhammadqulovna
Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
Abduqayumova Malika Mirzohid qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti
Musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabasi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSIQIY DIDNI SHAKLLANTIRISH MASALASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqa tinlgash, kuylash, ritmik harakatlar, cholg‘u asboblarida chalishga o‘rgatish va o‘zbek milliy musiqa

madaniyati namunlaridan foydalanish orqali musiqiy didni shakllanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, maktabgacha yoshdagi bola, musiqiy did, musiqa tinglash, kuylash, tinglash, ritmik harakatlar, musiqa cholg‘u asboblarida chalishga o‘rgatish, milliy musiqa.

Аннотация

В данной статье рассматривается формирование музыкального вкуса у детей дошкольного возраста посредством прослушивания музыки, пения, ритмических движений, обучения игре на музыкальных инструментах, а также на примерах узбекской национальной музыкальной культуры.

Ключевые слова: музыка, дошкольник, музыкальный вкус, слушание музыки, пение, слушание, ритмические движения, обучение игре на музыкальных инструментах, национальная музыка.

Abstract

This article discusses the formation of musical taste in preschool children through listening to music, singing, rhythmic movements, teaching them to play musical instruments, and using examples of Uzbek national music culture.

Key words: music, preschool child, musical taste, listening to music, singing, listening, rhythmic movements, teaching to play musical instruments, national music.

Xalqaro tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) millatlar o‘rtasida tinchlikni mustahkamlash va saqlash madsadidan tashqari, bu tashkilot deyarli barcha sohalarni rivojlantirish masalalarini o‘z ichiga qamrab olgan. Ushbu tashkilotning tarkibiga kiruvchi YUNESKO – ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkilotining vazifasi shu sohalarni keng ko‘lamda rivojlantirishdan iborat. Ayni paytda O‘zbekiston ham shu tashkilotning a’zosi hisoblanib, buning natijasini so‘nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan islohotlarda, ayniqsa, madaniyat va san’atga qaratilayotgan e’tiborda ko‘rishimiz mumkin. Bunga Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ilgari surgan “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha” beshta muhim tashabbusni yaqqol misol qilish mumkin. Chunki bu loyihadagi birinchi tashabbus aynan madaniyat va san’atga qaratilgan bo‘lib, yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi[1].

Bundan tashqari, “Ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4307-sonli Prezident qarorining 6-bandida maktabgacha ta’lim haqida, bolalarga ma’naviyat va madaniyatni singdirish haqida

bir qancha fikrlar bildirilgan[2]. Prezidentimizning 2022-yildagi 112-sonli “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida yoshlarning musiqiy savodiga urg‘u berilib, cholg‘u asboblarini chalishni o‘rganishi zarurligi aytib o‘tilgan va respulikamizdagi barcha viloyatlar bo‘yicha har bir maktabda lektoriy konsertlar o‘tkazilishi vazifa etib belgilab berilgan[3]. Bu qarorning ijrosida musiqiy didni shakllantirish uchun lektoriy konsertlarda o‘quvchilarga har bir musiqiy cholg‘u asboblarining kelib chiqishi va u haqida qo‘shimcha ma’lumotlar berilmoqda va asarlar ijro etilmoqda.
Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy didni shakllantirish masalasini muhokama qilish uchun avvalo, bir nechta savollarga javob topishimiz zarur: “Did o‘zi nima va u nima uchun kerak?”, “Musiqa nima?” “Inson qachondan boshlab musiqa eshitishni boshlaydi?” Did – hayot va san’atning barcha sohalarida insonning estetik hodisalarni farqlash, tushunish va baholash qobiliyati. Inson “Did”i yuksak yoki past, keng yoki tor, cheklangan yoki cheklanmagan, nozik yoki sayoz bo‘lishi mumkin. Insonning musiqiy didi ma’lum darajada irsiy hamda hayot davomida orttirilgan bo‘ladi. Musiqiy didni tarbiyalash orqali shakllantirilib, takomillashtirilib va taraqqiy ettirib boriladi. Inson musiqa san’at asarlariga munosabati badiiy dida namoyon bo‘ladi. Badiiy did insonning adabiyot va san’at asarlarini tushunib yetish, baholay olish va ulardan zavqlana bilish salohiyatini ko‘rsatadi”[4]. “Musiqa so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib, “muzalar san’ati”, ya’ni “ilhom parilari san’ati” degan ma’noni anglatadi. Musiqa-navo insonga ilhom bag‘ishlaydi. Shuninngdek, musiqa – inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmuyi vositasida aks ettiruvchi san’at turi. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv va boshqalar)ni o‘zida mujassamlashtiradi. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg‘ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir”[5].

Diniy manbalarda keltirilishi va ota-bobolarimizning ta’kidlab kelishicha, bola tug‘ilmasidan ancha oldin, ya’ni o‘n besh haftalik davridan eshitish qobiliyati rivojlana boshlar ekan. 6-7 oylikdan boshlab esa xuddi biz kabi eshitish, tovushlarga javob qaytarish va eshitganlarini tahlil qilish qobiliyati shakllanishi aytiladi. Bundan kelib chiqadiki, bolaga ona qornidan boshlab go‘zal tarbiyani va yaxshi odobni singdirishimiz lozim.

Musiqiy didni shakllantirish uchun ta’lim tizimining poydevori bo‘lgan maktabgacha ta’lim boshlang‘ich davr hisoblanadi. Avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim beruvchi pedagoglar o‘z sohasini puxta egallagan, kerakli bilim va malakalar bilan qurollangan bo‘lishi shart, shundagina ular bolalarda musiqiy didni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Maktabgacha ta’limda musiqiy bilimlar o‘quvchilarga tinglash, kuylash, ritmik harakatlar va cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish kabi faoliyat turlari orqali o‘rgatiladi:

Tinglash. Bolalar musiqani tinglash orqali uni his etadilar, ohanglarning quvnoq yoki g‘amginligini, jarangdor yoki mayinligini, jo‘shqin yoki o‘ychanligini eshitib tahlil qiladilar. Shuningdek, ular bu jarayonda tinglangan qo‘shiqni qanday ijro etish, qanday kuylashni qisman tushunib oladilar.

Kuylash. Kuylash faoliyatida esa avval qo‘shiqning mazmuni va matni musiqa rahbari tomonidan tushuntiriladi va bolalar uni yod olganlaridan so‘ng, bandlarga bo‘lib ijro etiladi.

Ritmik harakatlar. Ritmik harakatlar muhim faoliyat turi bo‘lib, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatini, musiqiy savodxonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ritmik harakatlar bolalarga turli xildagi marshlar, raqslar, mashqlar va o‘yinlar orqali o‘rgatiladi. Bu faoliyat turi bolalarning musiqiy xotirasini va musiqiy qulog‘ini rivojlantiradi va bundan tashqari bolalarning jismoniy holatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Musiqa asboblarida chalishga o‘rgatish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning cholg‘u asboblarini chalish faoliyatida asosan urma-zarbli cholg‘ulardan foydalaniladi. Chunki, bunday cholg‘u asboblari bolalar uchun ancha qulay va chalinishi tushunarli bo‘ladi (boshqa cholg‘u asboblariga nisbatan). Maktabgacha yoshdagi bolalarga mos keladigan urma-zarbli cholg‘ularga kichik doirachalar, turli hajmdagi mis tarelkalar, nog‘ora, uchburchak, shiqildoq kabilarni misol qilish mumkin. Bu kabi cholg‘ulardan mashg‘ulotlarda foydalanish bolalarning ritm, usul va templarni yaxshi his qilishini, eshitish qobiliyatini rivojlantiradi va bu ularga keyinchalik maktabda musiqa darslarida qiynalmasliklarini ta’minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy didni shakllantirish uchun o‘zbek milliy kuy-qo‘shiqlaridan foydalanishni tavsiya etish mumkin. Masalan: “Andijon polkasi”, “Dilxiroj”, “Lazgi”, turli yalla va laparlar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, insonda musiqiy didning shakllanishi ona qornidan boshlanib, tug‘ilgandan so‘ng mehrga to‘la alla bilan davom etadi. Maktabgacha yosh davri musiqiy didni shakllantirish uchun asosiy davrlardan biri bo‘lib, musiqiy tushunchalar, madaniyat va musiqiy didning shakllanishi kuy tinglash, qo‘shiq kuylash, ritmik harakatlar va cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyatlari orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Boyovut tumani sektor rahbarlarining axborotlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-favraldagi 19/118-6-sonli qo‘shma qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 03.05.2019-y. PQ-4307-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli, 02.02.2022-y.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Did
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Musiqa

Абирова Умида Назаровна
Oriental университети,
Узлуксиз таълим педагогикаси кафедраси ўқитувчиси

ЎЗБЕКИСТОНДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ИЖТИМОИЙ ҲАМКОРЛИГИНИНГ ПЕДАГОГИК ФУНКЦИЯЛАРИ

Аннотация

Мақолада бугунги кунда Ўзбекистонда ёшларни тарбиялашда оила, маҳалла ва таълим муассасалари ижтимоий педагогик ҳамкорлигини такомиллаштириш йўллари, таклиф ва тавсиялари берилган.

Таянч тушунчалар: таълим, тарбия, оила, маҳалла, ижтимоий, маънавият, маърифат, ёшлар.

Аннотация

В статье представлены пути, предложения и рекомендации по совершенствованию социально-педагогического сотрудничества семьи, соседства и образовательных учреждений в воспитании молодежи в современном Узбекистане.

Ключевые слова: Образование, воспитание, семья, соседство, социальное, духовность, просвещение, молодежь.

Ижтимоий педагогика ўсмирнинг ижтимоийлашувини ижтимоий тарбия объекти сифатида тадқиқ қилар экан, юқорида қайд этганимиздек, “ижтимоийлашув” атамаси мазмунига махсус тўхталиб ўтиш жоиз бўлади. Ижтимоийлашув – ўсиб келаётган авлоднинг мавжуд қадриятлар тизими ва ахлоқ меъёрларини фаол ўзлаштириш ва ривожлантириш йўли билан мазкур жамиятнинг ижтимоий роллар тизимига қўшилиш жараёнидир.

Ижтимоий педагогиканинг профилактик функцияси тарбия жараёни йўналишларидан бири сифатида тадқиқ этади. У нафақат жамиятнинг тарбиявий салоҳиятини, балки тарбиявий кучларни мувофиқлаштиришнинг турли шакллари асосида унинг самарадорлигини ошириш йўлларини ўрганади.

“Ижтимоий педагогика” атамасининг илмий қўлланила бошланиши ўз тарихига эга жараёндир. У XIX аср охирида А.Дистервег томонидан таклиф этилган. Немис олими В.Вернернинг таъкидлашича, 1910 йилдан 1920 йилгача “Ижтимоий педагогика” икки хил маънода тушунилиб ўзига хос тадқиқотлар йўналишига эга бўлган.

Булар, аввало, халқнинг маданий савиясини юксалтириш мақсадида жамият тарбиявий кучларини бирлаштириш (П.Наторп); иккинчидан, ночор болаларга ижтимоий ёрдам кўрсатиш, ғамхўрлик қилиш, вояга етмаганлар орасида ҳуқуқбузарликнинг олдини олишни (Г.Боймер) кўзда тутган.

Кузатишларимиз ижтимоий-педагогиканинг бугун амалда бўлган усуллари сифатида:

- оиладаги тарбиявий жараён;
- маҳалладаги тадбирлар, маросимлар, давра суҳбатлари, кўрик-танловлар;
- таълим муассасаларида олиб борилувчи узлуксиз маънавий тарбия;
- оммавий ахборот воситалари (ижтимоий тармоқлар, газета-журналлар, телекўрсатув, радиоэшиттиришлар);
- ахборот ресурс марказлари, кутубхоналар билан доимий алоқада бўлиш;
- театр, истироҳат боғлари;
- қадимий шаҳарларга сайёҳатлар уюштириш;
- болалар ижодиёти уйларидаги тўгаракларда иштирок этиш;
- спорт мажмуаларидаги машғулотларга қатнашиш ва бошқалар амалга

оширилмоқда.

Болалар ва ўсмирларнинг жамиятда анъанага кирган ахлоқий меъёр ва қоидаларга мос келадиган фазилатлари рағбатлантирилса, мос келмайдиган хулқларни ифодалашда психологик-педагогик адабиётларда “ҳуқуқбузарлик”, ‘‘номақбул ҳаракат”, “ахлоқсизлик”, “ девиант хулқ” сингари тушунчалардан фойдаланилади. Ушбу тушунчалар эса ўз навбатида ижтимоий тарбия субъектларини ҳаракатга келтирувчи механизмнинг ишга тушишига сабаб бўлади.

Маълумки, “Механизм” сўзи турли манбаларда турлича таърифланади. Шулар жумласидан м еханúзм (грек тилидан олинган бўлиб, μηχανή — мосланма, қурилма) — машина, ускунани ҳаракатга келтирувчи ички тузилишини англатади[33]. Ижтимоий педагогик ҳамкорликнинг механизми маҳалла, оила ва таълим муассасаларининг айни вақтда амалда бўлган ҳуқуқий меъёрий асослар, қадриятлар, урф одатлар, анъаналар билан белгиланувчи функциялари мажмуидан иборатдир. Бунда ижтимоий педагогиканинг профилактик функцияси яққол намоён бўлади.

турли психологик-педагогик тадбирлардан фойдаланиш;

- ўсмирларга маънавий-маърифий ёрдам кўрсатиш;
- ўсмирларни ота-онанинг эътиборсизлиги ва шубҳали шахслар билан

мулоқотнинг салбий таъсиридан асраш кабиларни кўзда тутади.

Ижтимоий педагогик ҳамкорлик ишлари ўқув, оила, ахборот ресурс марказлари Ёшлар иттифоқи, турли ижтимоий институтлар ва жамоатчилик ташкилотлари билан ҳамкорликда амалга оширилади. Хуқуқий-профилактик тажрибалар шуни кўрсатадики, кескин чоралар (ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилиш, ўсмирни ахлоқ тузатиш муассасасига юбориш ва бошқалар) ҳамиша ҳам ижобий натижа беравермайди, балки муаммони бартараф этмай, уни чуқурлаштириб юборади. Шунга кўра ўсмирлар билан мафкуравий-педагогик профилактика фаолиятини ташкил этиш уларнинг салбий хулқи ижтимоий-педагогик моҳиятини тузатиш, шахсга муҳит, оила, мактабнинг таъсир кучини ҳисобга олиш, тенгдошлар билан шахсий мулоқот кабилардан келиб чиқишни тақозо қилади.

Болани бузғунчи ғояларга асосланган ижтимоий хавфли хулқдан асраш, уни ижтимоий фойдали фаолиятга жалб этиш – ижтимоий педагогик ҳамкорликнинг бош вазифаси ҳисобланади. Айниқса яхши

[33] Артоболевский И. И. (общ.пед.) Машина, её прошлое настоящее и будущее. Круг чтения по технике для молодежи, Молодая гвардия, 1959, 510 с.

хулқни гуруҳий шаклда ташкил этиш катта аҳамиятга эга. Бузғунчи ғоялар таъсирига қарши туришга ожиз гуруҳни аниқлаш (хуқуқбузарлик ва жиноятга мойил ўсмирлар, психологик ривождан ортда қолганлар, ўзини кўрсатишга интилувчилар, нобоп оилада ўсган болалар, тан олинмаган “босс”, камситилган ўсмирлар кабилар) – мақсадга йўналтирилган профилактика ишларининг объектлари бўлишлари талаб этилади.

Тадқиқотимиз нуқтаи назаридан педагогика фанлари доктори М.Қуронов томонидан ишлаб чиқилган, ўқувчиларнинг миллий тарбияланганлик мезонлари, кўрсаткичлари, даражалари ва фазилатларини ўлчашнинг уч қатламли ўлчам системаси алоҳида аҳамиятга эга. Зеро Ўзбекистон ватанпарварлиги, миллий ғурурлик, миллатлараро мулоқат маданияти, виждонийлик, миллий одоб ва миллий мафкуравий онглиликни уйғун шакллантиришда илмий ва халқ педагогикасининг амалий бирлигидан келиб чиқиб ёндашиш ривожланаётган шахснинг миллий туйғусига бевосита ва билвосита боғланувчи фазилатлар ҳисобланади[34].

Ушбу ёндашувда ахлоқий, маънавий, миллий, мафкуравий, сиёсий, ижтимоий тарбия йўналишларининг ўзаро алоқадорлиги таъкидланади.

Оила, маҳалла ва таълим муассасасалари ижтимоий педагогик ҳамкорликнинг мазмуни ва методикаси, шакл ва воситаларини ишлаб чиқишда дунё миқёсидаги жараёнларнинг таҳлили билан ҳамоҳанг тарзда унинг тарихий хусусиятлари, анъана ва тажрибалари қиёсий-педагогик ёндашув асосида амалга оширилиши лозим.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Артоболевский И. И. (общ.пед.) Машина, её прошлое настоящее и будущее. Круг чтения по технике для молодежи Молодая гвардия, 1959, 510 с.
2. Қуронов М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Педагогика фанлари доктори ... ёзилган диссертация . – Т.: 1998. – 363 б.
3. Убайдуллаева Р. Ата-Мирзаев О. Қуронов М. Оила ва баркамол авлод тарбияси. – Т., “Ижтимоий фикр”, 2012, 114-115 бет.

M.K.Xudayberdiyeva
Toshkent shahar Yashnobod tumani
216-maktab oliy toifali matematika va informatika
fani o‘qituvchisi

TA’LIM MUASSASALARIDA PEDAGOG KADRLARNING XALQARO TADQIQOT TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Rivojlangan davlatlar tajribasida samarali foydalanib kelinayotgan PISA, TIMSS topshiriqlari bizda bugungacha chuqur o‘rganilmagan, ushbu topshiriqlarni bajarish bo‘yicha o‘qituvchi qanday ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerakligi ushbu maqolada tahlil qilinadi. Tahlillar natijasida Oliy ta’lim muassasalari pedagogika yo‘nalishi bitiruvchilari va o‘qituvchilar malaka oshirish kurslarida PISA hamda TIMSS dasturi doirasida o‘qitishni qanday tashkil qilish masalasi ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, malaka oshirish, xalqaro tadqiqotlar, kreativ fikrlash, matematik savodxonlik, ta’lim berish shakllari.

Аннотация

Задания PISA, TIMSS которые по сей день не исследуется в нашей стране, эффективно используются в опыте развитых стран и объясняет какими навыками должен обладать учитель для выполнения этих задач. В результате анализа также был рассмотрен вопрос о том, как организовать обучение в рамках программы PISA и TIMSS на курсах повышения квалификации выпускников и преподавателей педагогики высших учебных заведений.

Ключевые слова: качество образования, повышение квалификации, международные исследования, креативное мышление, математическая грамотность, формы обучения.

Annotation

PISA, TIMSS tasks, which have not been studied in our country to this day, are effectively used in the experience of developed countries and explains what skills a teacher should have to perform these tasks. As a result of the analysis, the question of how to organize training under the PISA and TIMSS programs in advanced training courses for graduates and pedagogy teachers of higher educational institutions was also considered.

Key words: quality of education, advanced training, international research, creative thinking, mathematical literacy, forms of education.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini yuqori darajada, xalqaro talablar va standartlarga mos holatda o‘zgartirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va kreativ fikrlashini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 12- dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra:

xalqaro tadqiqotlar dasturlarining mazmun-mohiyati bilan pedagoglarni tanishtirish;

bo‘lajak pedagoglarni ham umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga ishga kelishdan oldin OTM da o‘qish jarayonidanoq mazkur yo‘nalishda tayyor holda kelishlarini ta’minlash;

izlanuvchan pedagoglarni xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish;

TIMSS, PISA xalqaro tadqiqotlarida matematik savodxonlik yo‘nalishidagi qo‘llanmalardan o‘quv jarayonida foydalanish;

o‘qitish mazmuniga oid axborotlarni qayta ishlash, umumlashtirish va o‘quvchilarga yetkazish;

matematika fanlarini o‘qitish jarayonida qo‘yiladigan zamonaviy talablar asosida darslarni tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

matematika fanining nazariyasi va uni o‘qitish metodikasi yutuqlari bilan xabardor qilish bilan birgalikda xalqaro ta’lim tadqiqotlari, xalqaro ta’lim dasturlari bilan tanishtirish, topshiriqlarni dars jarayonida muammoli vaziyatlarni hal etish uchun qo‘llash bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni berib borishdan iboratdir.

Ta’lim sifatini yuqori darajaga chiqarishda eng asosiy e’tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan ikkita muhim yo‘nalish mavjud:

1) o‘qituvchilarning bilim saviyasi;
2) kasb mahoratini oshirishdir.

Davlatimiz rahbari tomonidan aynan mana shu jihatlarni rivojlantirish lozimligi ilgari surilgan. Endilikda yuqori malakali, o‘z ustida doimiy ishlaydigan ustozlar faoliyatini yangicha yondashuvlar asosida qo‘llab-quvvatlash, mahoratli pedagoglar tajribasidan samarali foydalanish hamda ularning o‘qitish metodikasini ommalashtirish lozimligi uqtirildi.

Buning uchun mahoratli pedagoglar tajribasidan foydalanish hamda ularni dars jarayonlarida keng qo‘llanishiga oid ko‘rsatmalar berib borish lozim.

Xalqaro tadqiqotlarni o‘tkazilishi bo‘yicha ma’lumotlarni keltirib o‘tadigan bo‘lsak, PISA bu – o‘quvchilarning o‘qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo‘lib, o‘quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga mo‘ljallangan.

PISA xalqaro baholash dasturi, shuningdek, o‘quvchilar munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma’lumot to‘playdi va o‘quvchilarda muammoni hal qila olish kabi ko‘nikmalarni ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o‘quvchi yoshlarning fikr munosabatlari va ular bergan taklif va yechimlarni baholaydi.

PISA – dunyo mamlakatlari o‘quv dasturlarida mavjud bo‘lgan talablar doirasida xalqaro baholash dasturlarini o‘tkazishga asoslanib, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga e’tibor qaratadi.

PISA hech qanday o‘quv dasturini belgilamaydi yoki targ‘ib qilmaydi yoki umumiy e’tirof etishni taqozo etmaydi. Ishtirokchi mamlakatlar ekspertlari va iqtisodchilarining fikricha, o‘quvchilarda matematik savodxonlik, o‘qish savodxonligi hamda tabiiy fanlar savodxonligi fanlaridan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikma darajalari shakllanishi va mustahkamlanishi davlatlarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim dastlabki qadamlar deb hisoblanishini e’tirof etadilar.

PISA tadqiqoti (Programme for International Student Assessment) – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti IHTT (OECD – Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi. Tadqiqot ilk bor 2000- yilda o‘tkazilgan bo‘lib, har uch yilda bir marotaba o‘tkazib boriladi. O‘zbekiston 2022- yilda o‘tkazilgan xalqaro tadqiqotlarda ilk bor rasman ishtirok etdi.

PISA tadqiqoti quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

-ta’lim sohasidagi eng yirik, keng ko‘lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri sanaladi;

- tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan 15 yoshli o‘quvchilar ishtirok etadilar;

- tadqiqotda o‘quvchilarning “hayotga tayyorlik” darajasi, ya’ni ularning maktabda egallagan bilim va ko‘nikmalaridan hayot faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;
- tadqiqotda o‘quvchilarning matematika, o‘qish (matnni tushunish), tabiiy fanlar yo‘nalishdagi va global muammolarni hal etish sohasidagi funksional savodxonligi baholanadi;
- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta’lim tizimining o‘ziga xosligi bo‘yicha ma’lumot olish imkonini beradigan kontekst axborot to‘planadi.
- O‘zbekistonning PISA tadqiqotida ishtirok etishi quyidagilarga imkon yaratib beradi:
- O‘zbekiston umumta’lim maktablari bitiruvchilarining ta’lim olishni davom ettirishga qay darajada tayyorligini aniqlash;
- mamlakatdagi umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash;
- o‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta’lim tizimlari haqidagi qiyosiy ma’lumotlarni olish.

Nima uchun PISA tadqiqotlari har uch yilda bir marotaba o‘tkaziladi va nega faqat 15 yoshli o‘quvchilarning bilim darajalari sinab ko‘riladi?

PISAning asosiy vazifasi – mamlakatlarni ta’lim siyosatiga oid ma’lumotlar bilan ta’minlash va qarorlar qabul qilishda ularni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Tadqiqotning har uch yilda o‘tkazilishi esa mamlakatlarga siyosiy qarorlarni va tegishli dasturlarning ta’sirini hisobga olish uchun ma’lumot va tahlillarni o‘z ichiga olgan holda o‘z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratib beradi. Agar tadqiqotni o‘tkazish davriyligi qisqa muddatda amalga oshirilsa, o‘zgarishlar va yangilanishlar uchun yetarli vaqt va kerakli ma’lumotlarni to‘play olmaslik muammosini vujudga keltiradi. Tadqiqot doirasi 15 yoshli o‘quvchi yoshlar orasida o‘tkazilishiga asosiy sabab aksariyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) a’zo davlatlarda ushbu yosh majburiy ta’lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi.

PISA xalqaro baholash dasturi butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o‘tkazib kelinayotgan dastur sifatida o‘ziga xos muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro tadqiqotlardan bo‘lgan TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study)- o‘quvchilarning matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash dasturi hisoblanadi. Dunyoning turli mamlakatlaridagi o‘rta maktab o‘quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy fanlarni o‘qitish darajasi va sifatini, shuningdek milliy ta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni aniqlash va taqqoslash imkonini beradi. Ta’lim yutuqlarini baholash bo‘yicha Xalqaro Assotsiatsiya tomonidan milliy markazlar ishtirokida yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar konsortsiumda amalga oshiriladi. Xalqaro muvofiqlashtiruvchi tadqiqot markazi Boston kolleji (International Study Center,

Boston College, AQSh) hisoblanadi. Tadqiqot 1995- yildan boshlab, to‘rt yillik sikllarda amalga oshiriladi va o‘rta ta’lim sohasida eng nufuzli xalqaro tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot dasturi bilan qamrab olingan mamlakatlar soni asta-sekin o‘sib bormoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimiga ega bo‘lgan mamlakatlarda matematika va tabiiy fanlar siklidan 4- va 8-sinf o‘quvchilarining tayyorgarligini qiyosiy baholash, shuningdek, o‘quvchilar yutuqlarining turli darajalarini belgilaydigan ta’lim tizimlarining xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Matematika fanining mazmun sohalari

• To‘rtinchi sinf: sonlar, o‘lchov va geometriya, ma’lumotlar.



• Sakkizinchi sinf: sonlar, algebra, geometriya, ma’lumot va ehtimollik



Matematika fanining kognitiv sohalari

• To‘rtinchi va sakkizinchi sinflar: bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish

TIMSS tadqiqotidagi test topshiriqlari bir qator fikrlash ko‘nikmalarini qamrab oladi, jumladan, o‘quvchilarning olgan bilimlarini qo‘llay olishlari, muammolarni hal qilish, vaziyatlar yuzasidan mulohaza qilish uchun tahliliy va mantiqiy fikrlash. Ta’kidlab o‘tilganidek, uchta kognitiv sohalar matematika va tabiiy fanlar uchun ham, ikkala sinf uchun ham bir xil bo‘lib, matematika va tabiiy fanlarga oid

tushunchalarni o‘rganishda, so‘ngra ushbu tushunchalarni qo‘llash va ular yordamida mulohaza yuritishda amalga oshiriladigan bir qancha kognitiv jarayonlarni qamrab oladi. Shuningdek, tabiiy fanlardan TIMSS tadqiqotida ilmiy amaliyotlar mazmun sohalariga integratsiya qilinadi, jumladan, matematikani o‘rganish hayotda uchraydigan muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradi, qat’iyatlilikka o‘rgatadi. Matematika fani kundalik hayotda, masalan, hisob-kitob ishlari, pul muomalasida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, muhandislik, arxitektura, buxgalteriya, bank ishi, biznes, tibbiyot sohasi, ekologiya, kosmonavtika sohalari kuchli matematik bilimga ega bo‘lishni talab qiladi. Matematika iqtisodiyot va moliyada, kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta’minot yaratishda, axborot texnologiyalari va yangiliklardan xabardor bo‘lishda hayotimizda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar ilmiy tadqiqot o‘tkazishda tizimli ravishda qo‘llaydigan kundalik hayot va maktabda egallangan ko‘nikmalar shular jumlasidandir.

TIMSS tadqiqotida uch xil kognitiv soha mavjud: bilish, qo‘llash, mulohaza yuritish.

Bilish

Ushbu kognitiv sohaga oid test topshiriqlari yordamida o‘quvchilarning faktlar, munosabatlar, jarayonlar, tushunchalar va jihozlar to‘g‘risidagi bilimlari baholanadi. Aniq va keng qamrovli faktlarga asoslangan bilimlar o‘quvchilara ilmiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan yanada murakkab kognitiv faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

M4_01 (2003 yil, ID kodi, bet)

Azizada raqamli kartochkalar bor. U kartochkalar yordamida qaysi eng kichik uch xonali sonni ko‘rsata oladi?

U har bir kartorchkadan faqat bir marta foydalanishi mumkin.



Javob:_____

M4_02

9 · 22 ga eng yaqin bo‘lgan javob qaysi?

A) 5 · 20 **B) 5 · 25** **C) 10 · 20** **D) 10 · 25**

M4_03

3 + 8 = □ + 6

Tenglik to‘g‘ri bo‘lishi uchun bo‘sh katakchaga qaysi son yozilishi kerak?

A) 17 **B) 11** **C) 7** **D) 5**

M4_04

Qaysi sonda 8 raqami 800 ni bildiradi?

A) 1468 B) 2587 C) 3809 D) 8634

Yuqorida keltirilgan topshiriqlar bilish kognitiv sohasiga tegishli topshiriqlar sirasiga kiradi va o‘quvchilar bu kabi topshiriqlarni yechishda deyarli hech qanday qiyinchilikka uchramaganlar.

Qo‘llash

O‘quvchilar ushbu kognitiv sohaga oid test topshiriqlarini bajarishda matematika fanidan ta’lim olish va ta’lim berish jarayoni orqali tanish bo‘lhi mumkin bo‘lgan faktlar, munosabatlar, jarayonlar, tushunchalar, jihozlar va metodlar to‘g‘risidagi bilimlarni qo‘llashlari kerak.

M4_28

▲ belgi Akromdagi qalamlar sonini anglatadi. Kamol Akromga yana 3 dona qaıam berdi. Akromda nechta qalam bor?

A) 3 : ▲ B) ▲ + 3 C) ▲ - 3 D) 3 · ▲

M4_31

Aziza xonaning burchagiga qutilarni joyladi. Barcha qutilar bir xil o‘chamda. U nechta qutini joyladi?



A) 25 B) 19 C) 18 D) 13

Mulohaza yuritish

Ushbu kognitiv sohaga oid test topshiriqlarini bajarish uchun o‘quvchilar ma’lumotlarn tahlil qilishlari, xulosalar chiqarishlari va o‘z tushunchalarini yangi vaziyatlarga tadbiq etishlari zarur. “Qo‘llash” sohasida keltirilganidek, matematik qoida, teorema va tushunchalarni qo‘llashni, “Mulohaza yuritish” sohasiga oid test topshiriqlari notanish yoki murakkabroq kontekstlarni o‘z ichiga oladi. Bunday test topshiriqlariga javob berishda bir nechta yondashuv yoki strategiya bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ilmiy mulohaza yuritish gipotezalarni ilgari surish va ilmiy tadqiqotlarni loyihalashni ham o‘z ichiga oladi.

Mazkur ishlarning biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi va A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash instituti bilan birgalikda “Stesting” loyihasi doirasida platforma yaratildi. Mazkur platformaga joylashtirgan topshiriqlarni o‘quvchilar 2022- yil 1- fevraldan boshlab ishlashni boshlagan.

O‘quvchilar xalqaro tadqiqotlar formatidagi topshiriqlarga o‘rgatish A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi muammolarini o ‘rganish va istiqbollarini belgilash instituti tomonidan Xalq ta’limi vazirligi bilan hamkorlikda Stesting loyihasida ishlab chiqilgan platformasida TIMSS xalqaro tadqiqotlarining ochiq bazasidan 500 dan ortiq topshiriqlar maxsus platformaga joylashtirilgan.
Stesting TIMSS bo‘yicha test yechishlar soni 1- fevraldan 1- iyulgacha 2500 283 tani tashkil qildi. Matematika yo‘nalishi-1650186,78 (53) natija ko‘rsatdilar.

Bajarilgan topshiriqlar natijalarini tahlil qilib quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. O‘quvchilar:

- geometrik xarakterdagi masalalarni yechishda qiyinchilikka duch kelgan;
- amaliy xarakterga ega topshiriqlarning matematik modelini tuza olmaydilar;
- standart fundamental masalalarni qiyinchiliklarsiz bajaradilar;
- algebraik ifodalar ustida amallarni bajarish so‘ralgan topshiriqlarning aksariyatini to‘g‘ri bajarishga erishganlar.

Xulosa o‘rnida quyidagi mezonlarni keltirib o‘tamiz:

- darslarda nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan birga olib borish, tajriba va tadqiqotlar o‘tkazish, savol bera olish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- darslarida fanlararo integrasiyasini tashkillashtirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish;
- jadval va grafikdagi ma’lumotlarni izohlash uchun matematika faniga oid tushunchalardan foydalanish;
- ta’rif va teoremalarni tasdiqlash va isbotlash uchun tegishli tadqiqotlarni o‘tkazish, mulohaza yuritish, baholash va umumiy xulosalar chiqa olishlari uchun kichik loyiha ishlari berib borish;
- mantiqiy, kreativ, tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar bilan ishlash;
- ma’lumotni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘qishdan tashqari savollarga javob berish uchun foydalanish (masalan, muammolarni yechish va ma’lumotlardan foydalangan holda hisob-kitoblarni bajarish, ikki yoki undan ortiq manbalardagi ma’lumotlarni birlashtirish, ma’lumotlar asosida xulosalar chiqarish) ko‘nikmasini rivojlantirish;
- sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda matematika mazmun sohasidagi topshiriqlar bilan ishlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Republikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ-637-son, 2020 yil 23 sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirirish konsepsiyasi. https://lex.uz/docs/4312785
3. Шляйхер Андреас. Образование мирового уровня. Как вқстроить школьную систему XXI века? / Андреас Шляйхер; [пер. с англ. И.С.Денисенко, И.Ю.Облачно]; предисловие С.С.Кравцова. – Москва: Издательство “Национальное образование”, 2019. – 336 с – (Антлогия образования). ISBN 978-96-64-300002 (англ.), ISBN 978-5-4454-1248-9 (рус.).
4. TIMSS 2019 Assessment framework. Ina V.S.Mullis and Michael O.Martin, Editors. International association for evaluation of educational achievement (IEA).
5. http://www.centeroko.ru/
6. “Ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar to‘g‘risida (PISA Xalqaro baholash dasturidagi matematika fani misolida)” mavzusidagi seminar-trening majmua. fiz.mat.f.n., dosent R.Turgunbayev. Toshkent-2019 yil. Nizomiy nomli TDPU ning respublika seminari.

Jumanazarova Dildora Choriyevna
NavDPI, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Ermatova Gulnoz Pirimovna
NavDPI,Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti

BOLALARNI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIGA MOSLASHUV JARAYONIDA OTA-ONA VA TARBIYACHI HAMKORLIGI

Annotatsiya

Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim-tarbiya jarayoniga moslashishida ota-ona va tarbiyachilarning hamkorligi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, bola, ota-ona, oila, adaptatsiya, osonroq moslashish, o‘yin, tarbiyachining roli.

Аннотация

Освещены вопросы сотрудничества родителей и педагогов в адаптации детских дошкольных образовательных организаций к образовательному процессу.

Ключевые слова: дошкольное образование, ребенок, родители, семья, адаптация, легкая адаптация, игра, роль воспитателя.

Abstract

The issues of cooperation between parents and teachers in the adaptation of children's preschool educational organizations to the educational process are highlighted.

Key words: preschool education, child, parents, family, adaptation, easy adaptation, game, role of the teacher.

Maktabgacha yoshdagi har bir bolani yangi sharoitga moslashish jarayoni o‘ziga xosdir. Adaptatsiya (moslashish) har bir bolaga turlicha kechadi. Agar bola onasiga bog‘lanib qolgan bo‘lib, atrofdagi o‘zgarishlarni qiyinchilik bilan qabul qilsa, yangi sharoitga moslashishi ham qiyin kechadi. Oilada turli yoshdagi insonlar bilan muloqotda bo‘lgan, erka o‘smagan bolalar esa tez moslashadilar. Mutaxassislarning ta`kidlashlaricha tez moslashadigan bolalar xulqi bir oy ichida, ishtahasi birinchi hafta oxirida, uyqusi esa ikki hafta davomida o‘z holiga qaytadi. Adaptatsiya qiyin kechadigan bolalarda xulqi bir oyda, ishtaha va uyqusi 20-40 kun davomida avvalgi holiga qaytadi. Moslashish murakkab kechadigan bolalarning ishtahasi umuman yo‘qoladi, uyqusi va kayfiyati qattiq buziladi va yomon tushlar ham ko‘rib uyda onasi bila qolish istagi juda kuchli bo‘lib, kasal ham bo‘lib qolishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotiga endi qatnay boshlagan bolaning ota-onasi va tarbiyachi o‘rtasida juda yaqin muloqot bo‘lishi lozim. Ota yoki onasi bola haqidagi kerakli ma`lumotlarni tarbiyachiga aytib berishi kerak. Imkoniyati bo‘lsa bir necha bog‘chaga keladigan bolalarni bir kunda olib kelish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, dastlab bolalarni birgalikda maktabgacha ta’lim muassasasi ko‘rish uchun olib kelinadi. Ikkinchi kun esa muassasa bilan tanishtiriladi.Uchinchi kun esa, guruh bilan tanishtirilib 1-1,5 soatlar qoldiriladi. To‘rtinchi kun bir necha soatga uzaytirilib, ota yoki onasi tarbiyachi bilan kelishilgan holda guruhga qolishi mumkin.

Agar bola guruhga qolmayman deb harxasha qilsa zinhor “Agar shunday qilsang, bog‘chadan olb ketmayman” deyish mumkin emas.Bola ota-onasi uchun qimmatli ekanligini his qilishi kerak va uni olib ketishga kelgan ota-ona uni sog‘inganini kun bo‘yi uni o‘ylaganini bola bilishi kerak va uni hech qachon bu yerda qoldirib ketmasliklariga ishonishi lozim. Ketayotgan ota-ona bolani aldab qoldirib ketmasliklari va aksincha ketishlari haqida ogohlantirishlari, xayrlashishlari lozim.

Muassasaga dastlab qatnaydigan bolalarga talablarni biroz kamaytirish lozim. Bola uchun uyda tinch sharoit yaratish va o‘zi yoqtirgan mashg‘uloti bilan shug‘ullanishga imkon berish zarur. Bundan tashqari u qatnaydigan muassasa haqida hikoya qilib beriladi. U erda yaratilgan shart-sharoitlar haqida, turli o‘yinlar,

yangi do‘st-o‘rtoqlar orttirishi, uyda yo‘q o‘yinchoqlar, turli raqslar, rasm chizish, loydan buyum yasashlari haqida ma`lumot berish kerak. Hikoya haqiqatga yaqin bo‘lsin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotiga osonroq moslashishlari uchun o‘yin tashkil etilib, unda asosiysi tarbiyachi, guruh bolalari haqida rollar bo‘lsa yaxshiroq. Chunki bola bog‘cha hayotiga yaqinlashadi. Bundan tashqari bola bilan kun davomida bog‘chada nima ishlar qilgani haqida suhbatlashish va u hikoya qilib berishni istasa qiziqish bilan tinlash, lozim bo‘lsa savollar bilan unga yordamlashiladi.

Ota-onalar bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotidan olib ketgani kelishganda tarbiyachi va enaga bilan bola kun davomida o‘zini qanday tutgani va u erishgan yutuqlar bilan qiziqishlari lozimdir.

Moslashishi qiyin kechadigan bolalar bo‘lsa uni uni tibbiy ma`lumotlari bilan tarbiyachi yaqingan tanishishi, ota-onalari bilan suhbatlashib, bolani surunkali kasalliklar bilan og‘rigani yoki bo‘lmasa tez-tez shamollashi, asbiylashishi, uning qiziqishlari, qaysi mashg‘ulotni yoqtirishi, qaysi o‘yinchoqni sevib o‘ynashi, qaysi o‘yinni, ertak yoki hiqoyani sevib tinlashi haqida suhbatlashishi, umuman olganda bola haqida barcha ma`lumotlarni bilishi kerak. Bola uyda sevib o‘ynaydigan o‘yinchog‘ini, uyini eslatadigan biror narsani olib qolishi mumkinligini tarbiyachilar ota-onasi bilan suhbatlashlari lozim.Bola bilan individual suhbat uyushtirib, uni qiziqishlari, qaysi o‘rtog‘i bilan o‘ynashni yoqtirishi, qaysi o‘yin unga yoqishi, qaysi mashg‘ulotga qatnashishni yoqtirishi, uni shovqinli o‘yinlardan uning roziligi bilan ozod etishi kerak.

Biz yuqoridagi bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib ota-onalarga quyidagilarni tavsiya etishimiz mumkin:

- Tarbiyachiga bolangizni o‘ziga xos xususiyatlari haqida ayting;
- Shovqinli o‘yinlardan tashqari, o‘zi o‘ynab, dam olishi uchun imkoniyat yarating;
- Bolani majburan ovqatlantirmang;
- Imkon boricha bolani guruhdan ertaroq olib ketishga harakat qiling;
- Uyda esa asabiy zo‘qriqishdan saqash uchun ochiq havoda o‘ynashiga yordam bering;
- Kechki vaqt yaxshi ertaklar o‘qib bering.
- Tarbiyachidan har kuni bolaning yutuqlari, xulq-atvorini haqida suhbatlashing.

Bayon etilgan fikrlar va tavsiyalarga amal qilinsa kelajagimiz, ertamiz bo‘lgan hayotimiz davomchilarini ruhiy zo‘riqishlardan, tanglik holatlaridan asrab qolishimiz va so‘lom, barkamol avlod bo‘lib yetishishlariga o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lar edik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” QONUN. T.: 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi T.: 2022.
5. Rasulova M., Abdullaeva D., Oxunjonova S., “Bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligi” T.:, 2004.
6.Axmedova X. va boshqalar “Bolangiz maktabga tayyormi?” T.., 2000.

Qayimova Maftuna Tursunovna,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti xodimi
Toshkent shahar
Tel: 93 592 78 79

UMUMTA’LIM MUASSASALARI XODIMLAR FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR AMALIYOTI

Annotatsiya

Umumta’lim maktablari xodimlarini boshqarishda rag‘batlantirish usullari turli mamlakatlarda o‘ziga xos tarzda shakllanib kelgan. Har bir mamlakatda xodimlarni rag‘batlantirish bo‘yicha ma’lum modellari mavjud bo‘lib, har biri afzallik va kamchiliklarga egadir. Maqolada xodimlar faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha xorij tajribasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagoglar, ta’lim muassasalari, boshqaruv, rag‘batlantirish usullari, xorij tajribasi.

Абстрактный

Методы мотивации персонала общеобразовательных школ сформировались в разных странах по-своему. В каждой стране существуют определенные модели стимулирования сотрудников, каждая из которых имеет свои преимущества и недостатки. В статье анализируется зарубежный опыт мотивации сотрудников.

Ключевые слова: педагоги, образовательные учреждения, менеджмент, методы мотивации, зарубежный опыт.

Abstract

Methods of motivating the staff of general education schools have been formed in different countries in their own way. Each country has certain models of employee incentives, each of which has advantages and disadvantages. The article analyzes the foreign experience of motivating employees.

Keys words: Pedagogues, educational institutions, management, motivation methods, foreign experience.

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayoni subyektlarining motivatsiyasini shakllantirish masalasi eng dolzarbdir. Bu, bir tomondan, o‘qituvchining zamonaviy bolalar avlodini tarbiyalash missiyasi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, buni mamlakat taraqqiyotining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va jamiyatni modernizatsiyalash jarayonlari taqozo etmoqda.

Turli mamlakatlarda pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalari o‘xshashligiga qaramasdan, ta’lim standartlariga zamonaviy yondashuv farq qiladi. Bundan tashqari, ma’lum bir mamlakatning xususiyatlariga qarab, ta’lim jarayonining rivojlanish tarixi, pedagogik faoliyatning qurish tizimi va motivatsiya tizimi o‘zgaradi.

Ta’lim muassasalari boshqaruvida pedagoglar muassasaning samarali ishlashi va rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ta’lim muassasalarining yuqori natijali ishlashining kaliti bu- pedagoglarni rag‘batlantirishning samarali tizimi, shaxsiy maqsadlar va muassasa maqsadlariga erishishni ta’minlash uchun pedagoglarni mehnat qilishga undaydigan vositalardan samarali foydalanishdir. Pedagoglarni rag‘batlantirish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud modellarning har biri ham afzalliklarga, ham ma’lum kamchiliklarga ega.

Xorijda inson resurslarini boshqarish amaliyoti, birinchi navbatda, yuqori motivatsiya va professionallik tufayli yuqori natijalarga erishadigan samarali ishchi jamoani shakllantirishga qaratilganligi isbotlangan.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida pedagoglarni rag‘batlantirish tizimini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, u turli xil iqtisodiy vositalar, pedagoglarni yangi va zamonaviy moddiy-texnika mahsulotlari bilan ta’minlash, muassasa hayotiga oid qaror va loyihalarni ishlab chiqishga jalb qilish, pedagoglarning doimiy ravishda kasbiy rivojlanishiga e’tibor qaratish va boshqalar bilan ajralib turadi. Ko‘pgina Yevropa maktablarida pedagoglarni rag‘batlantirish o‘quvchilarning oliy o‘quv yurtlariga kirishi, pedagoglarning Xalqaro va Respublika doirasidagi tanlovlarda g‘olibligi kabi ko‘rsatkichlarga bog‘liq. Pedagogning o‘ziga xos xizmatlarini baholash asosida ish haqini individuallashtirish tendentsiyasi ham mavjud. Individuallashtirish mexanizmi uning mehnat sharoitlarini farqlashni ham, bevosita mehnat faoliyati jarayonida mehnatni baholashni ham o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina

rivojlangan mamlakatlarda xodimlarni rag‘batlantirish modellari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular milliy xususiyatlar va aholi mentalitetining xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘z ta’lim konsepsiyasi sharoitlariga yo‘naltirilgan.



1-chizma. Rag‘batlantirishga oid xorijiy modellar[35]

Mehnatni rag‘batlantirishning Nemis modeli ishlab chiqarish va ijtimoiy ta’minot xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan va adolat tamoyillariga alohida tayanadi. Pedagoglarning tarif stavkalari va rasmiy maoshlari kafolatlangan eng kam ish haqi sifatida hisoblanadi. Qo‘shimcha rag‘batlar ta’lim samaradorligini oshirish

[35] Muallif ishlanmasi

va individual yutuqlar uchun to‘lanadi. Shuningdek, pensiya sug‘urtasi badallari direktor va pedagog tomonidan paritet (yuqorida aytilganidek adolat tamoyillari) asosida to‘lanadi. Ta’lim muassasalari pedagoglarga tibbiy sug‘urtadan tashqari, kasbiy rivojlanishi uchun kutubxonalarga borish hamda foydalanish, turli madaniy dasturlarda qatnashish, qiziqish kurslarida qatnashish va sport bilan shug‘ullanish imkoniyatini beradi.

Fransuz pedagoglarni rag‘batlantirish modelining o‘ziga xos xususiyati ta’lim sohasining rivojlanishi hamda uning strategik rejalashtirishiga alohida bog‘liqdir. Ish haqi siyosatida ikkita tendentsiya mavjud: ish haqining narx darajasi hamda yashash narxiga qarab indeksatsiya qilish va uni individuallashtirish. Ish haqini individuallashtirish printsipi, asosan, boshqaruv xodimlariga nisbatan qo‘llaniladi va kasbiy malaka darajasi, bajarilgan ishlarning sifati, kiritilgan ijobiy takliflari ahamiyati va pedagoglarning harakatchanligi darajasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ko‘pgina Fransuz muassasalari oltita mezon bo‘yicha pedagogning ishi uchun ballik tizimdan (0 dan 120 ballgacha) foydalanadilar: kasbiy bilim, mehnat unumdorligi, ish sifati, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, ta’lim jarayoni etikasi, tashabbus.

Xodimlarni rag‘batlantirishning Polsha modeli ta’lim samaradorligini oshirishni, shu bilan birga, ta’lim olishdagi imkoniyati hamda daromadlari cheklangan yoki kam ta’minlangan guruhlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatishni nazarda tutadi. Bunday modelning paydo bo‘lishi ta’limdagi inqirozli hodisalarni bartaraf etish zarurati va mamlakat aholisining kelajakdagi iqtisodiy va ijtimoiy yutuqlar uchun muayyan qurbonlik qilishga tayyorligi bilan bog‘liq[36].

AQShning bir nechta shtati va shaharlarida, shuningdek, Singapur va Janubiy Koreyada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar o‘rtacha qobiliyatga ega yetti-sakkiz yoshli ikki o‘quvchiga bir-biridan juda farq qiladigan (yuqori va past saviyali) o‘qituvchilar biriktirilsa, uch yildan keyin ularning bilimi darajasi bir-birinikidan 50 foizdan ziyodroqqa farq qilarkan. Demak, yuqori malakali o‘qituvchilar dars bergan sinflarda o‘quvchilar uch barobar tezroq rivojlanar ekan. Shu sababdan xorij davlatlari xodimlarning kasbiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratishadi[37].

Yaponiya va Xitoyning boshqaruv modellari G‘arb boshqaruv tajribasini an’anaviy milliy xususiyatlar bilan muvaffaqiyatli sintez qilishi bilan farqlanadi.

Pedagoglarni rag‘batlantirishda Yapon modeli kollektivizmga asoslanadi va muassasaning mafkuraviy uyg‘unligini ta’minlash istagi bilan ajralib turadi. Muassasalarda “bir oila” va uning barcha xodimlari jamoaning umumiy farovonligi

[36] https://www.dissercat.com/content/upravlenie-motivatsiei-personala-innovatsionnykh-organizatsii
[37] "Янги Ўзбекистон" газетаси. 187 (709), 2022 йил 13 сентябрь

uchun fidokorona mehnat qilishlari kerak, deb ishoniladi. Yaponiya maktablari har bir xodimlariga taqdim etadigan imtiyozlar va ijtimoiy xizmatlarning bir necha to‘plamiga ega. Bularga tibbiy xizmatlar, shaxsiy sug‘urta, ish bilan bog‘liq jarohatlar bo‘yicha sug‘urta, pedagoglarning oila a’zolariga ta’lim olishda yordam berish va boshqalar kiradi. Muassasa xodimlarining ish haqi ularning haqiqiy natijalariga va ish stajiga bog‘liq; direktorlarning ish haqi maktabning natijalariga bog‘liq (bu “suzuvchi ish haqi” deb ham ataladi). Yaponiyada mehnat motivatsiyasining asosiy tarkibiy qismlari umrbod bandlik tizimi, pedagoglarning norasmiy shaxslararo munosabatlari, ishdagi kollektivizm, kadrlar rotatsiyasi, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit va mehnat ruhi hisoblanadi. Barcha tarkibiy bo‘linmalar birgalikda harakat qiladi, bu esa pedagoglarning umumiy mehnat faolligini yanada oshiradi[38].

Xitoy muassasalarida asosiy ish haqi miqdori ta’lim darajasiga, pedagogning ish tajribasiga yoki ular bilan tuzilgan shartnomaga bog‘liq. Bonuslar yuqori sifatli ish natijalari uchun beriladi, ularning miqdori muassasaning joriy yildagi natijalari bilan belgilanadi. Tibbiy sug‘urta, transport va telekommunikatsiya harajatlari (telefon, mobil telefon, internet), ijtimoiy ta’minot uchun moliyaviy yordam, ta’lim yoki kasbiy rivojlanish Xitoy maktablarida odatiy kompensatsiya hisoblanadi. Pedagoglar uchun kompensatsiya shaklida olingan ushbu mablag‘lar bo‘yicha soliq to‘lash shart emasligi ham juda muhimdir.

Shuningdek, jahon amaliyotida nostandart rag‘batlantirishning quyidagi vositalari mavjudligini ham qayd etamiz:

– xodim va uning oilasi uchun yiliga bir marta dam olish joyiga bepul sayohatlar uchun chiptalar taqdim etish;

– go‘zallik saloni xizmatlaridan chegirma bilan foydalanish;

– xodimlarni muassasa hisobidan nufuzli MBA dasturlari bo‘yicha o‘qitish va boshqalar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish munkinki, xodimlarga beriladigan rag‘batlantirish turlari quyidagilardan iborat: 1) pul, kimdir pul ishlashni xohlagani uchun ishlashni, pul bilan kimdir uning ehtiyojlarini qondira oladi; aksariyat xodimlar uchun pul kuchli stimul bo‘lishi mumkin; 2) xavfsizlik ba’zi ishchilar uchun insonning asosiy ehtiyojidir; ba’zida xavfsiz ish pul yoki ish haqidan ko‘ra muhimroqdir. Bu holatda nazarda tutilgan xavfsizlik, asosan, berilgan ish haqi kam bo‘lsa-da, ishdan bo‘shatish ehtimoli haqida tashvishlanishdir, lekin ish uzluksizlikni kafolatlaganligi sababli, bu insonning ishlashga bo‘lgan asosiy qiziqishiga aylanadi; 3) do‘stlik, odamlar boshqa odamlarga muhtoj; do‘stlikning mavjudligi ularni birgalikda

[38] https://www.dissercat.com/content/motivatsiya-i-stimulirovanie-trudovoi-deyatelnosti-na-predpriyatiyakh-turbiznesa-sotsiologic

ishlaydigan va bir-biriga ega bo‘lgan guruh sifatida birlashtiradi; 4) adolatli e’tirof, bu boshliqlar va bo‘ysunuvchilar yoki ularning tengdoshlari o‘rtasidagi munosabatlardan olinadigan ijtimoiy ehtiyojlardan biridir. Ushbu adolatli muomala o‘qituvchilarning ishdagi kontsentratsiyasini buzishi mumkin bo‘lgan vazifalar, rag‘batlantirish va boshqa mukofotlarni berishda beg‘araz mo‘ljallangan; 5) avtonomiya bu- o‘qituvchining egoizmini bajarishda rag‘batlantirishning bir shakli muayyan chegaralar ichida ish olib borish ijodkorlik va spontanlikni oshiradi; 6) muvaffaqiyat- direktorlar o‘z ishlarining natijalarini hurmat qilishlari va maktab tashkilotining maqsadlarini amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratishlari kerak. Uning ishi muhim emasligini his qiladigan kishi ko‘pincha g‘ayratli emas va ko‘pincha o‘z ishini bajarishda shikoyat qiladi. Ta’lim muassasalarida xodimlarni moddiy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish g‘ayratli, faol va yuqori samarali ishchi kuchini yetishtirish uchun juda muhimdir. Rag‘batlantirish doirasini kengaytirish, shaffoflikni oshirish, uzluksiz ta’lim madaniyatini rivojlantirish, ishlashga asoslangan mukofotlarni amalga oshirish va tizimni muntazam ravishda ko‘rib chiqish orqali ta’lim muassasalari umumiy o‘sish va muvaffaqiyatga erishishda yuqori iste’dodlarni jalb qiladigan va saqlaydigan muhit yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://www.dissercat.com/content/upravlenie-motivatsiei-personala-innovatsionnykh-organizatsii
2. “Янги Ўзбекистон” газетаси. 187 (709), 2022 йил 13 сентябрь
3. https://www.dissercat.com/content/motivatsiya-i-stimulirovanie-trudovoi-deyatelnosti-na-predpriyatiyakh-turbiznesa-sotsiologic
4. SSPME+1321 (2).pdf

Ergasheva Barno Ziyavitdin kizi
Tashkent State Pedagogical
University named after Nizami, teacher

IMPROVING THE INTEGRATIVE TECHNOLOGY OF PREPARING FUTURE EDUCATORS FOR PROFESSIONAL- PEDAGOGICAL ACTIVITY ON THE BASIS OF A COMPETENCY APPROACH

Annotation

Improving the level of development of a country in modern society, not only its technical condition, but also the professional competence of specialists trained in higher education institutions.

Keywords: Competence, learning, intellectual, strategy, system, expert, context.

Reforming the education system in the country has risen to the level of state policy, ensuring that our children acquire modern knowledge and skills in accordance with world standards, grow up as physically and spiritually mature people, realize their abilities and talents, intellectual potential. Great tasks have been set, such as cultivating feelings of loyalty and devotion

The Concept of Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030 includes students' independent learning, critical and creative thinking, systematic analysis, formation of entrepreneurial skills, introduction of methods and technologies aimed at developing competencies in the educational process. Important tasks such as the widespread introduction of advanced pedagogical technologies, curricula and teaching materials based on educational standards have been identified. [1]

President Sh. Mirziyoyev in the development strategy of New Uzbekistan for 2022 - 2026, the system of preschool education was highlighted and given a number of tasks. Professional development of more than 160,000 teachers in 2022-2026. Special attention was paid to improving the process of preschool education on the basis of science-based approaches. [2]

At the same time, many reforms in the country emphasize the need to further improve the professional competencies of teachers in improving the quality of professional training of students in the higher education system in the development of civil society based on democratic principles. Being able to withstand strong competition, which is a priority in the labor market in the context of market relations, shows the need to have professional competence from each specialist, to gradually increase it In carrying out these tasks, the creation of effective innovative models based on the principles of multi-stage continuity, continuity and consistency in the context of education requires the development of professional competencies of teachers. Analysis of the activities of teachers of vocational education in higher education institutions shows that they need to develop professional competence in their subject and the education of a harmoniously developed generation and the ability to consistently apply them in their future careers. In modern society, the level of development of a country is determined not only by its technical condition, but also by the professional competence of specialists trained in higher education institutions. Modernization of the education system, changes in the system of

vocational education make it necessary to develop the professional competence of the staff of the educational institution. At present, the state educational standards of higher professional education are being introduced, and innovations are being widely introduced in the content and technology of education aimed at improving the quality of training of future teachers of vocational education. The English term “competence” literally means “ability”. The content means “the effective use of theoretical knowledge in activities, the ability to demonstrate a high level of professionalism, skill and ability.” The concept of “competence” means having a plan of action in unconventional situations, how a specialist behaves in unexpected situations, communicates, takes a new approach in dealing with competitors, performs ambiguous tasks, makes full use of contradictions, develops consistently and in complex processes. The professional training of future educators in the context of a competent approach should be based on the following principles:

- The principle of humanity - to create conditions for the formation of the best qualities and abilities in the educator; humanization of the relationship between the educator and the children, respect for the personality of the future specialist, understanding of his requests, interests, dignity, upbringing of a humane, sincere, kind, compassionate person
- The principle of democratization is the elimination of offenses, which is an authoritarian style of communication. Perception of the future educator as the highest social value, the definition of his right to freedom, the development of pedagogical skills
- The principle of competence - the creation of conditions for the development of the necessary components of the pedagogical competence of the graduate
- The principle of problem-solving means that the future specialist is focused on solving real pedagogical problems. Helps in spiritual self-awareness
- The principle of technological unity of the educational process - the use of new knowledge, educational technologies and objective information, identifying differences in the positions of participants and understanding the position of the interlocutor.

Objectives of the formation of professional competence of future educators of preschool educational institutions:

-creation of conditions for the formation of the professional culture of the future specialist;
-activation of the formation of the main competencies of future educators;
-ensure mastering.
-formation of professional mobility of educators;
-Organization of methodological, didactic support of students

-formation of social activity on the basis of personal qualities and social skills of the person

In conclusion, the effectiveness of the vocational education process depends on the full implementation of all its components in the system of step-by-step training of future educators. Development and introduction of new methods of education and upbringing in order to form a competitive teacher, experience of studying world teachers, adapting the best examples of professional competence, establishing relations with international organizations, conducting joint international events and projects, effective use of innovative educational technologies, competency-based approach formation of its professional levels (basic, special) as a result of specialized training of future educators, the main levels of professional competence of the subject of activity are the result of training, professional training, professional experience and professional skills.

REFERENCES:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 of October 8, 2019 on approval of the Concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 dated 29.01.2022.

3. Karpenko A.G. Vocational training of future social workers in the context of university education: scientific, methodological and organizational and technological aspects: monograph / ed. S.Ya. Kharchenko. – Drohobych, 2007.

4. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(B7), 401-405.

5. Barno, E. (2023). O‘zbekistonda maktabgacha talim muassasalarining zamonaviy tizimi. Research Focus International Scientific Journal, 2(3), 103-105.

Nishanova Zulfizar Yashin qizi
TDPU mustaqil tadqiqotchisi
94- 679-66 06

ZAMONAVIY O‘QITUVCHI M.G.DAVLETSHIN TALQINIDA

Annotatsiya

Maqolada psixologiya fanlari doktori, professor M.G.Davletshinning “Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi” asari nazariy tahlil qilingan. Shuningdek, o‘qituvchining kasbiga, shaxsiga xos psixologik xislatlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, kasb, muhim xislatlar, kasbiy bilimlar, M.G.Davletshin.

Аннотация

В статье теоретически анализируется доктора психологических наук, профессора М.Г. Давлетшина “Психология современного школьного учителя”. Также описаны психологические особенности, специфичные для профессии и личности учителя.

Ключевые слова: педагог, профессия, важные качества, профессиональные знания, М. Г. Давлетшин.

Abstract

The article “Psychology of a Modern School Teacher” by Professor M.G. Davletshin, Doctor of Psychology, is theoretically analyzed. Also, the psychological characteristics specific to the teacher's profession and personality are described.

Key words: teacher, profession, important qualities, professional knowledge, M.G. Davletshin.

M.G.Davletshin “Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi” asarida o‘qituvchining shaxsiga, kasbiga xos xususityalarga batafsil to‘xtalganlar [1]. O‘quvchilarga zamonaviy bilimlarni berish uchun o‘qituvchining o‘zi shunday bilimga ega bo‘lmog‘i lozim. Shuning uchun ham hozirda yangi turdagi o‘rta maxsus bilim yurtlarida dars berish qobiliyatiga ega bo‘lgan pedagoglarni tayyorlash masalasi jiddiy tarzda qo‘yilmoqda.

Ustozning ta’kidlashicha, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida dars berish uchun o‘qituvchi eng oliyjanob xislatlarga ega bo‘lmog‘i zarur. Zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog bo‘lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy psixologik mexanizmlardan foydalana olishi zarur.

“Zamonaviy maktab o‘qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O‘qituvchi – sinfdagi o‘quv jarayoni tashkilotchisidir. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun dars payti, qo‘shimcha darslarda va, shu bilan birga, dasrdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir.

Zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog bo‘lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham u o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy -psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur” – deya ta’kidlagan M.G. Davletshin [1; 5-b.].

M.G.Davletshin rahbarligida M.Abdullajanova, Ye.Gladkova, A.Mashkurov, T.Hamroqulov, E.Xidirov va boshqalar ilmiy izlanishlarida turli fan o‘qituvchilarining professiogrammalari yaratildi. Professiogrammalardan ma’lum bo‘lishicha, o‘qituvchi quyidagi shaxsiy xislatlarga ega bo‘lishi zarur: bolalarni yaxshi ko‘rish, ularni sevish; amaliy-psixologik aql farosatlilik; mehnatsevarlilik; jamoat ishlarida faollik; mehribonlik; kamtarlik; odamiylik, dilkashlik; udabburonlik, mustahkam xarakterga ega bo‘lish; o‘z bilimini oshirishga intilish.
M.G.Davletshinning ta’kidlashicha, o‘qituvchining eng muhim xislatlari quyidagilardan iborat:
“o‘qituvchining o‘z Vataniga sodiqligi;
bolalarni sevishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi;
o‘z yurti, ona tili, o‘z xalqining turmush tarzi va uning madaniyatini sevishi; davlatining mustaqilligi g‘oyasida yashashidan iboratdir;
ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;
olijanobligi, aqli, farosati, ma’naviy pokligi, ma’naviyat va ma’rifat bo‘yicha yuksak maqcadlarni bolalarga singdirib borishi;
o‘zini qo‘lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam- matonatliligidir” [1; 6-b.].

O‘qituvchining kasbiga xos bilimlari quyidagilardir:
ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi;
psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi;
etnopsixologik bilimlarni egallashi;
hozirgi zamon pedagogikasi metodologik asoslarini egallaganligi maktab yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xislatlarini tushunishi;
o‘z fani o‘qitish metodikasini bilishi;
o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir etishning samaradorligini bilishi;
ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.

O‘z kasbiga xos xislatlar quyidagilar:
milliy istiqlol mafkurasini tushunishi;

zamonaviy maktabda olib boriladigan o‘quv tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar;
milliy an’ana va urf odatlarni tushunishi o‘qituvchining kuzatuvchanligi; boshqa o‘qituvchilarning tajribalarini o‘rganib, undan to‘g‘ri xulosa chiqara olishi;
psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalana bilishi;
o‘quvchilarni to‘g‘ri tushunib, ularning xulq-atvor sabablarini tushuntirishni bilishi kerak.

M.G.Davletshinning ta’kidlashicha, o‘qituvchining shaxsiy-pedagogik uddaburonligiga quyidagilar kiradi:
“dars mashg‘ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi;
o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi;
ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilarning taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi;
pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi;
bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o‘z faoliyatini rejalashtira bilishi;
o‘quv materiallarini rejalashtira olishi;
o‘zining ta’lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi” [2; 9-b.].
Shuningdek, M.G. Davletshin zamonaviy o‘qituvchi qanday tashkilotchilik malakalariga ega bo‘lishi lozimligiga ham batafsil to‘xtalib o‘tgan:
“bolalar jamoasini uyushtira bilishi;
turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi;
bolalarni nimalardir bilan qiziqtirib, ularni faolllashtira olishi;
amaliy masalalarni hal etishda o‘zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo‘llay olishi” [3; 10-b.].
M.G.Davletshin tomonidan o‘qituvchining kommunikativ malakalari ham ko‘rsatib o‘tilgan:
“bolalarni o‘ziga jalb etishni bilishi;
bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi;
bolalarning jamoalararo va jamoa ichidagi o‘zaro munosabatlarini tartibga solishni bilishi;
bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog‘lashni bilishi.
Gnostik malakalari:
bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi;
o‘zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;
boshqa o‘qituvchilarning tajribalarini o‘rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to‘g‘ri xulosa chiqara olishi zarur” [4 ; 10 -b.].

M.G.Davletshinning ta’kidlashicha, o‘qituvchining ijodiy xislatlariga quyidagilar kiradi:

“pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi;

o‘quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;

o‘zini o‘quvchi o‘rniga qo‘yib, bo‘lib o‘tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi;

avvalgi voqealar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati;

o‘zining o‘quvchiga pedagogik ta’sir natijalarini oldindan ko‘ra bilishga intilishi” [1 ;50 -b.].

Bizningcha, M.G.Davletshinning o‘qituvchida refleksiya va intuitsiya rivojlangan bo‘lishi haqidagi fikrlari e’tiborga loyiq.

M.G.Davletshin pedagogika oliy o‘quv yurtiga kirayotgan abituriyentlarni pedagogik faoliyatga moyilligi va qobiliyatlariga qarab qabul qilish zarurligini ta’kidlagan. O‘qituvchi doimiy ravishda o‘z bilimlarni oshirish bilan shug‘ullanishi zarurdir. Chunki o‘qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog hamma vaqt odamlar orasida bo‘lar ekan, u birinchidan, odamlarni ko‘pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o‘z qarashlari bo‘yicha to‘g‘ri tushuntirib berishi lozim. Ikkinchidan, o‘qituvchining o‘zi axborotlar olish uchun o‘quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega. Uchinchidan, u o‘ta tor doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lib, ko‘pincha o‘z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi. O‘qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirishi pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlardandir.

Sharq mutafakkirlari o‘qituvchi o‘zi o‘qib tursagina o‘qituvchi bo‘la oladi, agar o‘qishni to‘xtatib qo‘yar ekan, unda o‘qituvchilik ham o‘ladi, deb juda haqqoniy aytganlar. Bu haqiqatni yoshi qancha bo‘lishidan, pedagogik mahoratidan, qanday dars berishidan qat’iy nazar barcha o‘qituvchilar yaxshi bilib olishlari lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – T.: TDPU. 1999. -24 b.

2. Davletshin M.G. Ijtimoiy psixologiya muammolari va ularni odamlar bilan ishlashda qo‘llash. - T., 1990. -24 b.

3. Davletshin M.G., Abduraxmonov F.R. Qadimgi Sharq davlatlarida psixologik fikrlarning rivojlanishi. -T.: Bilim, 1995. -26 b.

4. Давлетшин М.Г. Психологические аспекты формирования взаимоотношений в учебных коллективах. // Психология взаимоотношений учащихся в учебных коллективах. Сборник научных трудов. -Т.: ТГПИ. 1989. С. 5-10.

Абдуганиева Диёра Абдурашид кизи
Международная исламская академия Узбекистана
докторант 1 курса по психология религии
(+99897) 539-26-24

ВОЗДЕЙСТВИЕ ДЕСТРУКТИВНЫХ ЭМОЦИЙ НА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПЕДАГОГА

Annotatsiya

Maqolada pedagoglarning destruktiv emotsional holatlari izohlanuvchi asosiy nazariy tamoyillar aks ettirilgan. Pedagoglar faoliyatida destruktiv emotsiyalarning namoyon bo‘lish darajasini o‘rganish natijalari taqdim etilgan va xodimlarning sog‘lig‘ini saqlash va muvaffaqiyatli o‘quv faoliyati uchun qulay psixologik muhitni yaratishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan profilaktika choralari yo‘nalishlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik faoliyat; destruktiv emotsiyalar; ta’lim muhiti; ta’lim muhitining psixologik xususiyatlari; stress; qo‘rquv, g‘azab.

Аннотация

В статье отражены основные теоретические положения, на основе которых понимается процесс деструктивных эмоциональных состояний педагогов. Представлены результаты исследования степени выраженности деструктивных эмоций в деятельности педагогов, определены направления профилактических действий, которые необходимо осуществлять для создания комфортной психологической среды, способствующей успешной учебе и сохранению здоровья персонала.

Ключевые слова: педагогическая деятельность; деструктивные эмоции; образовательная среда; психологические характеристики образовательной среды; стресс; страх; гнев.

Abstract

The article reflects the main theoretical provisions on the basis of which the process of destructive emotional states of teachers is understood. The results of the research of the degree of expression of destructive emotions in the activity of teachers are presented; the directions of preventive actions, which should be carried

out to create a comfortable psychological environment, contributing to successful learning and preservation of staff health, are defined.

Key words: pedagogical activity; destructive emotions; educational environment; psychological characteristics of educational environment; stress; fear; anger.

Эмоциональные переживания вездесущи по своей природе, невозможно представить жизнь без эмоций. Эмоции также важны в образовательном процессе, поскольку они сопровождают практически все аспекты познания.

Эмоции – это совокупность психофизиологических процессов для эффективного использования ограниченного набора ограниченных по величине природных ресурсов человека путем управления состояниями и режимами работы организма на всех этапах деятельности по удовлетворению потребностей [1;85]. Эмоции – это психические процессы, связанные с инстинктами, потребностями и мотивами. Они ощущаются и воспринимаются, как душевное волнение и отражают особенности переживания жизненных ситуаций.

К деструктивным эмоциям относятся:

Стресс – совокупность неспецифических адаптационных (нормальных) реакций организма на воздействие различных неблагоприятных факторов-стрессоров (физических или психологических), нарушающее его гомеостаз, а также соответствующее состояние нервной системы организма (или организма в целом) [2;343].

Страдание – осознание невозможности удовлетворения потребности.

Гнев – сильное негодование при серьезном препятствия на пути удовлетворения потребности.

Отвращение – антипатия и омерезение от соприкосновения с объектами, противоречащими основным принципам и установкам.

Презрение – глубоко пренебрежительное отношение к позиции, взглядам, поведению других людей.

Страх – защитный инстинкт, мобилизующий организм при информации о реальной или воображаемой опасности, ставший из фактора развития фактором застоя.

Стыд – осознание несоответствия своих помыслов, поступков и внешности с ожиданиями окружающих и с собственными представлениями.

Такие астенические эмоции, истощая физически, приводят к пассивности. При них усиливается мышечное напряжение, сковываются ноги физически и психологически. Становится трудно “двигаться по жизни” [3].

Профессиональная деятельность педагога является одной из самых стрессогенных. Многие знают, что символом педагогической профессии является пеликан. Почему именно он? Еще в древние времена пеликан отождествлял самопожертвование, ну а легенда, повествующая о самоотверженной птице, окончательно закрепила такое сравнение: как пеликан жертвует собой ради жизни своих птенцов, так и педагог жертвует своей энергией и нередко здоровьем, чтобы дать максимум своим ученикам.
Действительно, профессия педагога требует от него практически полной самоотдачи. Такой, что нередко учитель может забыть о себе и своих нуждах, запереть в себе негативные чувства и запретить себе показывать слабости. Нам часто кажется, что работа учителя и воспитателя предполагает спокойствие, уравновешенность, умение контролировать ситуацию и вести себя рационально. Но мы живые люди, и рано или поздно эмоции все равно находят выход в виде неожиданной болезни или срыва на учеников или близких.
Педагогу, стремящемуся быть примером для своих воспитанников, важно уметь проживать свои эмоции экологично, в первую очередь, для самого себя. Ведь благополучие и эмоциональное состояние – не только залог счастливой и полноценной жизни, но и основа профессионализма.

Деструктивные эмоции учителей имеют следущие причины.
Организационные: неудобный график, долгий от дома на работу, отсутствие взаимопонимания с коллегами, неясность должностных обязанностей, повышенные требования администрации.
Личностные: особенности типа личности и характера (например, интровертированный меланхолик), гиперответсвенность и исполнительность, внутриличностные конфликты, семейные проблемы.
В деятельности учителя имеется немало факторов, вызывающих высокий уровень психической напряженности и тревожности. Как показал опрос, основными причинами возникновения таких состояний являлись “неуверенность в завтрашнем дне, нестабильность” (86%), “неудовлетворенность материальным стимулированием” (93%), “усталость от нервных перегрузок” (86%), “невозможность переносить стрессы” (74%), “психологическая несовместимость с руководством” (68%). Мы считаем, что возникновение хронической усталости у учителей связано с тревожностью, апатичностью, фрустрацией мотивов и потребностей, снижением уровня “жизненной энергии”.

Психическую напряженность повышают также недостаточный уровень комфортности в школьных помещениях, неудовлетворенность оснащенностью техническими средствами в школе (18%), обеспечением

необходимыми методическими материалами (26%), недостаточной разработанностью учебной литературы (46%).

27% учителей с пониженной эмоционально-волевой устойчивостью находятся в состоянии постоянного стресса; 13% отмечают депрессивный фон настроения, 57% опрошенных считают, что в процессе выполнения рабочей нагрузки у них “часто возникают перегрузки” [4;57].

Таким образом, результаты исследований свидетельствуют, что ведущими функциональными состояниями учителей являются высокая психическая напряженность и утомление. Причиной возникновения данных состояний являются факторы, имеющие социально-экономический и организационный характер.

В исследовании Забеловой П.Б. выявлены профессиональные факторы, стимулирующие возникновение негативных психических состояний госслужащих и прежде всего – психологических стрессов. Они были разделены на три подгруппы [5;61]: 1) организационные (низкий статус, маленькая заработная плата, неопределенность перспектив и т.д.); 2) связанные с профессиональным “Я” (ролевой конфликт, недостатки притязания, низкая удовлетворенность и пр.); 3) связанные с несоответствием уровня профессионализма и масштабом решаемых задач и ответственностью. Профессиональный стресс – это напряженное состояние работника, возникающее у него при воздействии эмоционально-отрицательных и экстремальных факторов, связанное с выполнением профессиональной деятельности. Мы в своей работе придерживаемся следующей классификации профессионального стресса: информационный, эмоциональный и коммуникативный стресс.

Все эти виды стресса возникают у учителя в профессиональной деятельности. В условиях информационных перегрузок, когда учитель не справляется с возникшей перед ним задачей и не успевает принимать важное решение в условиях жесткого ограничения во времени, возникает информационный стресс. Эмоциональный стресс может остро переживаться человеком, поскольку разрушаются глубинные установки и ценности учителя, связанные с его профессиональной деятельностью. Эмоциональный стресс возникает при реальной или предполагаемой опасности, переживаниях унижения, вины, гнева и обиды, в случаях противоречий или разрыва деловых отношений с коллегами или конфликтов с администрацией школы.

Коммуникативный стресс, связанный с реальными проблемами межличностного обучения с учениками и коллегами, проявляется в повышенной раздражительности, неумением защититься от коммуникативной

агрессии, неспособности сформулировать отказ там, где это необходимо, незнании специальных приемов защиты от манипулирования.

У каждого человека своя индивидуальная форма поведения в стрессовом состоянии. И также у каждого - свой индивидуальный сценарий стрессового поведения, выражающийся в частоте и форме проявления стрессовых реакций. Можно заметить, что одни “стрессуют” чуть ли не каждый день, но в небольших дозах (не слишком агрессивно с окружающими). Другие – несколько раз в год, но чрезвычайно сильно, существенно снижая самоконтроль в общении: они могут неожиданно “взорваться” и накричать на учеников или коллег.

Среди множества загадок сути человеческой природы возникает вопрос об агрессивности человека, агрессивности его мышления и поведения. Этот вопрос давно и неотступно, в различных аспектах, занимает умы многих ученых, давая человеческому разуму бесконечную пищу для самопознания. В чем состоит тайна противостояния добра и зла в человеке, любви и ненависти, добродетели и порока, способности к творческому созиданию и деструкции, разрушению и самоуничтожению. Среди многочисленных сетований на деградацию нашего общества можно без труда уловить осуждающие пассажи в адрес такой черты характера современного человека, как агрессивность, которую часто отождествляют с деструктивностью. В частности, академик Д. Лихачев подчеркивает что “агрессивность происходит от потребности в деятельности. Это деятельность в чистом виде, без содержания. Жажда деятельности – естественное свойство человека. Ее нужно воспринимать полноценным содержанием.

Стрессовый сценарий проявляется не только в таких характеристиках, как частота и форма поведения и общения человека. Важной является такая характеристика, как направленность стрессовой агрессии человека на самого себя или на окружающих учащихся, коллег. Один учитель винит себя и стремится проанализировать прежде всего свои собственные ошибки. Другой обвиняет окружающих и не способен посмотреть на себя со стороны.

Стрессовый сценарий “запускается” почти автоматически. Достаточно незначительного нарушения привычного ритма и условий педагогической деятельности, как будто против воли самого человека “включается” стрессовый механизм и начинает “раскручиваться” как “маховик какого-то убийственного оружия”. Учитель начинает конфликтовать по какой-то мелкой, незначительной причине. У него искажается восприятие ученика и коммуникативной ситуации, он придает негативное значение тем деталям, на которые в спокойном состоянии почти не обращал внимание.

Все чаще в исследованиях для более точной характеристики наблюдаемых явлений психологи вынуждены использовать собственно психопатологическую терминологию, например: депрессия, апатия, дисфория и т.п. Это подтверждает трансформацию психологических переживаний, реакций в психопатологии, личностные и поведенческие реакции на границе или за пределами границ психологической нормы в диапазоне аномальной личностной изменчивости.

Может ли учитель научиться регулировать свое собственное состояние в условиях профессионального стресса и перестроить стрессовый сценарий. Мы предполагаем, что да! Вначале ситуация вызывает довольно полезный стресс и мобилизацию внутренних ресурсов [4:60]. Но став затяжной и нерешенной, превращает стресс в дистресс, истощающий все силы. Поэтому необходимо повышать уровень эмоционального интеллекта (совокупность эмоциональных и социальных способностей: понимание собственных эмоций и эмоций других людей, управление эмоциональной сферой и само-мотивация) и осознанно создавать позитивные эмоции.

Современному педагогу важно понять: **чтобы профессионально выполнять свою работу, вовсе не нужно морально истощать себя.** Наша эмоциональность может помочь не только интересно провести урок, но и творчески подготовить учебные материалы, с юмором уладить конфликт в классе, чтобы в итоге остаться довольным собой и своей работой.

В педагогической деятельности более успешны люди, научившиеся владеть собой, имеющие развитую психотехнику личной саморегуляции. Человек реагирует на свое окружение в соответствии со своей интерпретацией внешних стимулов, которые преломляются через внутреннее содержание. В связи с этим. М. Бехтерев, С.Л. Рубинштейн, а затем Гане Селье [6;63] выразили свои положения, что имеет значение не то, что происходит, а то, как воспринимает челове. Иначе, крайне неспецифический набор психофизических реакций и изменений организма зависит в большей степени не от природы внешних факторов, а от совокупности внутренних факторов человека.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Анохин П.К. Эмоции // Психология эмоций: Тексты. - М., 2019. - 542 с.
2. Краткая медицинская энциклопедия. В 2-х томах / Под ред. В. И. Покровского, изд. 3-е, испр. и доп. // М.: НПО “Медицинская

энциклопедия”, 1994. – Т. II, Миазы – Ящур, 544 с. ISBN 5-8317-0086-0. С. 343– 344 (Стресс, эмоциональный стресс).
3. https://rosuchebnik.ru/material/negativnye-emotsii-v-rabote-pedagoga-i emotsionalnyyintellekt/?utm_source=google.com&utm_medium=organic&utm_campaign=google.com&utm_referrer=google.com
4. Глушкова, Н. (2002). Деструктивное воздействие стрессовых факторов на психологические характеристики личности педагога. Наука. Инновации. Технологии, (30), 57-64.
5. Боев И.В, Золотарев С.В. Психофизиологическая диагностика и дифференциальная диагностика конституционально-типологического континуума подростков. - Ставрополь: Клиника пограничных состояний СГМА, 1999.
6. Леонова А.Б, Кузнецова А.С. Психопрофилактика стрессов. - М.: МГУ, 1992.

Абдуллаева Гавхар Сапаровна (DSc)
Чирчикский государственный педагогический университет
кафедра “Специальная педагогика”
Атамирзаева Зебуннисо Бахтиёр кизи
Аскарова Жайнагул Аскаровна
Бердикулова Умида Закирджановна
Жумабаева Махмуда Махамаджановна
Одилбекова Барчиной Ботир кизи
Студенты 1 курса направления логопедии ЧГПУ

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИИ В ДУХОВНОМ ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация

Современное общество перешло на новый уровень своего развития – информационное общество, основой развития которого все в большей мере становится не материальное производство, а производство знаний и информации на базе современных информационных технологиях (ИТ). ИТ прочно вошли во все сферы жизнедеятельности человека, сегодня невозможно представить ни одну область деятельности без компьютерной техники, современных средств коммуникации и связи.

Ключевые слова: информационные технологии, духовное воспитание детей, компьютерные сурдологопедические тренажеры, средства коммуникации.

Abstract

Modern society has moved to a new level of its development – the information society, the basis for the development of which is increasingly becoming not material production, but the production of knowledge and information based on modern information technologies (IT). IT has firmly entered all spheres of human activity, today it is impossible to imagine any field of activity without computer technology, modern means of communication and communication.

Key words: information technologies, spiritual education of children, computer-based speech therapy simulators, means of communication**.**

Самое широкое применение информационных технологий (ИТ) нашли в системе образования. Как известно, одним из принципов профессионально-педагогической направленности обучения является принцип информатизации, который требует использование современных ИТ на разных этапах обучения. Поэтому, трудно представить в современном учебном процессе преподавание учебных дисциплин без применения ИТ.

Информационные технологии (ИТ) в образовании позволяют:

- наглядно представлять учебную информацию;
- моделировать объекты окружающего мира;
- повышать интерес и мотивацию к изучению учебных дисциплин;
- активизировать познавательную деятельность;
- широкий доступ к образовательным ресурсам, в том числе к информационным ресурсам всего мира;
- коллективно работать в рамках электронных сетевых структур и через электронно-образовательное пространство;
- контролировать знания, умения и навыки учащихся;
- совершать виртуальные познавательные экскурсии и др.

Применение специализированных компьютерных технологий при работе с особыми детьми позволяет активизировать компенсаторные механизмы и достичь оптимальной коррекции нарушенных функций. Многообразие дефектов, их клинических и психолого-педагогических процесса. Поэтому разработка новых приёмов, методов и средств коррекционного проявлений предполагает применение разных методик коррекции, а, следовательно, и использование разных компьютерных технологий. Их применение способствует результативности коррекционно-образовательного обучения детей представляется одним из актуальных направлений развития специальной педагогики.

Область применения ИКТ в области образования лиц с огаринченными возможностями здоровья (ОВЗ):

1. Компенсаторная сфера. Применение ИКТ позволяет возместить (компенсировать) нарушения функций организма и оптимизировать процесс получения знаний учащимися.

2. Дидактическая сфера. Способствуют оптимизации учебно-воспитательного процесса, стимулируют появление новых технологий обучения учащихся с особенностями психофизического развития.

3. Коммуникативная сфера. Облегчают процесс коммуникации, позволяют реализовать свои способности, содействуют расширению социальных связей.

Основные функциональные ограничения детей с ограниченными возможностями здоровья:

У детей с нарушением слуха сложность или невозможность восприятия звука, а также определение локализации, громкости, высоты и качества звуков.

У детей с нарушением зрения сложность или невозможность восприятия световых ощущений, формы, размера, очертаний и цвета визуального раздражителя.

У детей с интеллектуальной недостаточностью затруднения обусловлены недоразвитием высших психических функций: памяти, внимания, восприятия, а также низкой мотивацией и контролем своей деятельности, сложностью в распознавании и символов и др.

Специальная компьютерная программа – тренажёр для детей дошкольного возраста “Я читаю, говорю” (Бабушкины уроки). Предназначена для детей с нарушением слуха, речи, а также для всех детей дошкольного возраста.

С помощью этой программы можно проводить коррекционную работу по развитию речи, формированию просодических сторон речи, развитие слухового восприятия, а также много упражнений уделено духовному развитию подрастающего поколения.

Основными составляющими инновационной модели коррекционно-педагогической помощи глухим учащимся 1-2 классов являются динамические модули: I модуль – просодика, II модуль – звукопроизношение, III модуль – фонематика и слуховое восприятие и IV модуль – лексика, грамматика и учимся читать.

Принцип индивидуального обучения. Специализированная компьютерная программа “Я говорю, читаю” предназначена для индивидуальных и групповых занятий с детьми и позволяет создавать

корректирующие работы в соответствии с их индивидуальными образовательными потребностями и возможностями.

Слуховое восприятие, звукопроизношение играют ведущую роль в осуществлении общения ребенка с окружающим миром, и является одним из основных условий развития речи у детей. Совершенствование различных сторон слухового восприятия (пространственный, временной, звуковой, тембровый, ритмический, фонематический слух) интенсивно происходит в школьном возрасте, когда дети наиболее интенсивно включаются в различные виды деятельности.

Диаграмма № 1

Диаграмма № 2

Таким образом, позитивные изменения, проявляемые в росте слухоречевого потенциала на основе разработанной учебной специализированной компьютерной технологии “Учимся говорить и читать” для обучения детей с нарушением слуха делают его приемлемым для широкого использования на практике. Вместе с тем, применение разработанных методик в комплексе с учетом всех выделенных преимуществ и ограничений, а также требований позволяет получить более объективную оценку относительно уровня сформированности речеслухового потенциала детей с нарушением слуха в условиях компьютеризации образования.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Абдуллаева Г.С. Обучение диалогической речи учащихся с нарушением слуха // Наука и образование сегодня. – Москва, 2018. - № 10. –С. 25-30.
2. Абдуллаева Г.С. Формирование диалогической речи как одного из направлений интеграции и социальной адаптации детей с нарушениями слуха // Материалы международной научно-практической конференции “Гармонично развитое поколение – условие стабильного развития, благополучия и процветания общества”. – Ташкент, 2013. - №10. – С. 207.

3. Байлукова Н.А. Организация дистанционного обучения детей с ограниченными возможностями здоровья. Информационные технологии для Новой школы. Мат-лы конференции. Том 3. — СПб.: ГБОУ ДПО ЦПКС СПб «Региональный центр оценки качества образования и информационных технологий», 2013.
4. Qodirova Feruzaxon Usmanovna “Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari” Toshkent-2020.

Шазадаев Фарход Алимович
преподаватель Ташкентский Филиал Самаркандского
Государственного Университета
Ветеринарной Медицины, Животноводства и Биотехнологий

АЛГОРИТМ РЕШЕНИЮ ЗАДАЧ, РАЗВИВАЮЩИХ ТВОРЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ НА УРОКАХ И ВО ВНЕУРОЧНОЕ ВРЕМЯ

Аннотация

Проблема повышения эффективности обучения геометрии пред-полагает дальнейшее исследование вопросов, связанных с методикой организации различных форм развития творческого мышления учащихся при решении геометрических задач на уроке и во внеурочное время.

Ключевые слова.

Алгоритм, информатика, информация, творческое мышление, повышения эффективности обучения, математика.

Abstract

The problem of increasing the effectiveness of geometry teaching suggests further research into issues related to the methodology for organizing various forms of development of students' creative thinking when solving geometric problems in class and outside of class time.

Key words. Algorithm, computer science, information, creative thinking, improving learning efficiency, mathematics.

Взаимосвязь различных форм деятельности учащихся в учебном процессе по геометрии, прежде всего, подчинена цели постоянного

повышения степени творчества учащихся в процессе обучения решению геометрических задач.

Степень развития творческого мышления учащихся одного класса условно можно разделить на три уровня:

1. Умение применять только-что полученные знания для ре шения предложенной задачи, т.е. непосредственное использование определений понятий, их свойств к решению задач (репродуктивные умения);

2. Умение применять полученные знания в стандартных условиях, установление связей между новым и ранее изученными понятиями и свойствами при решении задач (продуктивные умения):

3. Умение приобретения опыта творческой деятельности, т.е. перенос знаний и умений в нестандартные условия, самостоятельное получение новых знаний.

Систематизация задач, соответствующих данным уровням, привела к необходимости выделения трех групп.

Первая группа включает задачи для первичного применения только что полученных знаний - таких задач около 20% .

Вторая группа включает задачи для закрепления полученных знаний и овладения ими в стандартных условиях. Задачи этой группы направлены на формирование у учащихся поисковых умении. на установление связей между новым и ранее изученными понятиями, свойствами и приемами - таких задач около 70%.

Третья группа включает задачи, направленные на приобретение учащимися опыта творческой деятельности, на перенос знаний и умений в нестандартные условия, на самостоятельное получение новых знаний - таких задач около 10%.

Для организации работы, направленной на развитие творческого мышления учащихся в процессе решения задач нужно знать, прежде всего, те основные факты, которые предопределяют сам процесс творческой деятельности и стимулируют его протекание. Другими словами, нужно знать те качества, развитие которых у учащегося определяет успех в развитии его творческого мышления[6].Для развития творческого мышления необходим учет тех психологических компонентов, которые участвуют в творческом процессе и являются условием успешного его протекания. Основными этими компонентами являются: богатое воображение, наблюдательность, глубокая проницательность ума, развитие логического мышления, хорошая память, сообразительность и т.д.

Общеобразовательная школа ставит своей целью формирование и развитие вышеперечисленных качеств личности учащихся. Однако практика показывает, что школа не в достаточной мере формирует и развивает эти важные качества у учащихся в процессе обучения. в том числе и в процессе решения геометрических задач[8].

В процессе решения геометрических задач целесообразно формировать и развивать такие факторы, которые способствуют развитию творческого мышления учащихся, а именно:

1. Развивать у учащихся основные компоненты творческого процесса: воображение, наблюдательность, логическое мышление, память, смекалку, т.е.

а) приучать к нахождению наиболее рациональных путей достижения поставленной цели, сопоставлять и оценивать резуль таты;

б) устанавливать логические связи между решенными зада чами и делать соответствующие выводы, умение обобщать.

2. Воспитывать умение применять знания, полученные в процессе решения задач, в практике повседневной жизни.

Школьный курс геометрии располагает весьма благоприятными возможностями в реализации указанных путей развития творческого мышления учащихся в процессе решения задач.

Следует отметить, что работу по овладению необходимыми способами и приемами решения геометрических задач, умению делать необходимые выводы в процессе решения и находить пути разрешения возникающих вопросов, целесообразно начинать с рассмотрения более простых и доступных учащимся задач, полнее используя их развивающие функции. При этом целесообразно чаще заботиться о разнообразии выбранных задач по их содержанию, приемам решения и организации урока.

Каждый урок в школе должен содержать в себе четко сформулированные цели. Для того, чтобы урок геометрии прошел на должном уровне, необходимо четкое понимание и последовательная реализация учителем общеобразовательных, воспитательных и развивающих целей и задач урока. На уроке в процессе решения задачи каждый ученик овладевает системой математических знаний, специальными и обще учебными умениями и навыками, определенным уровнем развитости и воспитанности, - развивается его творческое мышление. Каждая цель урока должна быть конкретна, поскольку выражает определенные

качественные изменения в знаниях, навыках, в развитии творческого мышления учащихся, в совершенствовании нравственных свойств личности. [12].В содержание урока должен быть включен материал, способствующий решению конкретных задач для развития творческого мышления учащихся. Методы обучения, как способы совместной деятельности учителя и учащихся, выбирают с расчетом максимального вовлечения учащихся в познавательный процесс.

В учебных и методических пособиях, которые собственно и определяют в основном структуру урока, ныне практически отсутствуют творческие задачи, которые могли бы настроить учителя на должную творческую ориентацию в построении урока.

Учитель должен направлять, поощрять исследовательскую активность учащихся с помощью вопросов, создания проблемных ситуаций на уроках, уроков свободного творчества и соблюдать ряд условий:

- поддерживать хороший темп урока, не допуская случайных "простоев";

- все пояснения, инструкции и указания необходимо делать четко. кратко и доступно до начала (а не во врем) работы;

- постоянно активизировать мыслительную деятельность всех учащихся с помощью вопросов и заданий как при объяснении учителя, так и при индивидуальных ответах учеников;

- не отвлекать учащихся посторонними разговорами, хождениями по классу и громкими замечаниями отдельным ученикам, когда весь класс работает;

- разнообразить виды и формы работы;

- использовать различные стратегии организации внимания при анализе предметов и явлений.

Опыт работы в школе показывает, что решение одной и той же задачи различными способами способствует развитию логического мышления, сообразительности, критичности, рационализации действий, нахождению правильного пути разрешения различных ситуаций [7].

Решая одну и ту же задачу различными способами, можно более эффективно осознать содержание того или иного понятия, темы, раздела и всего курса планиметрии.

В зависимости от содержания задачи, решая ее различными способами, можно намного лучше понять специфику того или иного способа, его преимущество и недостатки.

Большинство задач по планиметрии допускают различные способы решения. Было бы целесообразным включить в школьные учебники задачи, решаемые различными способами или на одном уровне, или в пределах одной темы, или на протяжении учебного года, целого курса.

В методике обучения решению задач различными способами можно выделить несколько этапов:

а) указание теоремы, определение понятия, правила, дополни тельного построения, который надо использовать при нахождении пути решения задачи данным способом;

б) указание теории (темы, раздела), которая используется при решении задачи данным способом;

в) указание самого метода решения;

г) предложить решить задачу без всякого указания.

Это дает возможность учащихся класса разделить условно на отдельные группы:

1^0. Учащиеся, нуждающиеся в конкретных указаниях (теоремы, определение понятия, правила, дополнительные построения) для решения задачи;

2^0. Учащиеся, нуждающиеся в общих указаниях (тема, раздел, метод решения) для решения задачи;

3^0. Учащиеся, не нуждающиеся в указаниях при решении задачи.

Систематическое включение учащихся в поиск различных способов решения одной и той же задачи дает возможность переходить им из одной группы в другую, т.е. способствует развитию их творческого мышления.

Таким образом, методика развития творческого мышления учащихся, на наш взгляд, прежде всего направлена на обучение учащихся решению одной и той же задачи различными способами.

Мы считаем, что выбор метода и способа решения задачи является относительным: в одном случае он может быть сразу понятным и доступным для учащихся, а в другом случае - нет, нужна подготовительная работа.

Повышение качества обучения взаимосвязано с развитием творческого мышления учащихся в учебном процессе. В настоящем исследовании разработана методика обучения учащихся решению геометрических задач в средней школе, способствующая развитию творческого мышления.

1. Разные учебные предметы имеют неодинаковые возможности для развития творческого мышления. Целенаправленное развитие творческого мышления в процессе обучения геометрии требует ис

следования в методике математики на основе достижений психолого-педагогической науки и школьной практики.

2. Необходимые предусловия осуществления самостоятельной творческой деятельности эффективно формируется у школьников в процессе решения целенаправленно построенной системы геометрических задач, которая должна строиться на основе результатов исследовании психологов и с проблемы развития творческой личности.

3. Предложенная система геометрических задач как содержащий компонент соответствующей методической системы способствует формированию необходимых качеств творческого мышления личности: способность к "видению проблемы", оригинальность мышления; гибкость мышления; способность к генерировании идей; умения прогнозировать результаты своей деятельности.

4. Развитие творческого мышления проявляется в способности самостоятельно ставить проблемы и получать новые знания в процессе творческой деятельности.

5. Целенаправленное включение системы творческих задач в учебный процесс способствует развитию творческого мышления, дает возможность приблизить учебную деятельность к научной, повышает эффективность обучения геометрии учеников общеобразовательных школ.

6. Использование метода составления задач является эффективным способом развития творческого мышления учащихся в процессе решения задач, формирования у них устойчивых познавательных интересов, что постепенно переходит в потребность анализировать и синтезировать, обобщать, конкретизировать и т.п.

7.Изучение и применение предложенной методики развития творческого мышления учащихся средствами геометрических задач студентами педагогических вузов, учителями и методистами рас ширить их взгляд на творческую задачу как на обще дидактическую категорию и метод обучения.

Предлагаемые задачи связаны с программным материалом и не являются дополнительной нагрузкой при изучении курса геометрии.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Артебякина О.В. Формирование математического языка у студентов педагогического ВУЗа. Вестник Челябинского государственного университета. 2011. №33 (248). Вып.60. С. 218–219.

2. Атаханов Р. Математическое мышление и методики определения уровня его развития / под науч. ред. В.В. Давыдова. – Рига, 2000.
3. Колягин Ю.М. Задачи в обучении математике. Часть 1. – М.: Просвещение, 1977.
4. Попова, Л.В. Некоторые личные особенности старшеклассниц, обучающихся в женских классах разного типа. Л.В. Попова // Женщины России на рубеже XX – XXI веков. – Иваново, 1998. – С. 218.
5. Фрумин, И.Д. Вызов критической педагогики. ИД. Фрумин // Вопросы философии. 1998. №12. - С. 55-62.
6. Жумаев Эркин, Основными структурными инновационной деятельности учащихся старших классов // Педагогик маҳорат. Назарий ва илмий - методик журнал.Бухоро.-№4.- 2021 йил. -Б.67-72.
7. Жумаев Эркин, Вопросы направления повышения качества высшего образовани Республики Узбекистан // Агро Илм махсус сон. Аграр-иктисодий, илмий-амалий журнал.Бухоро.-№3(87).- 2022 йил. -Б.95-96.
8. Жумаев Э.Э., Айтувганов У.Х. Математика и туризм как средства развития творческого мқшления у студентов. // НАУКА И МИР. Международный научный журнал. Волгаград. №2 (78), 2020, Том 2. Б.22-25.
9. Жумаев Э.. Характеристика содержательной функциональной линиив школном и вузовском курсе математики. Халқаро илмий – амалий анжуман мақола ва тезислари тўплами, “ВЕСТНИК НАУКИ” Уфа 13 июн, 2023 йил.220-223 б.
10. Djumayev M.I. Boshlang‘ich ta’limda milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etishning didaktik asoslari xususuda. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 558-570 бетлар.
11. Джумаев М.И. Реализация профессиональной компетентности педагогов как средство методико-математической подготовки в колледжах. Профессиональное образование Арктических регионов № 4/2022.7-9 ст. www.arctic-prof.ru
12. Djumaev M. Formation of a general approach to solving problems for primary education according to the requirements in the national curriculum of uzbekistan. interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): Vol. 10, Issue 6, June 2022 771-781 бет.

Jabborova M.Q.
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak tarbiyachi(o‘qituvchi)larining metodik-matematik tayyorgarligi takomillashuvi uchun ko‘p bocqichli tayyorgarlikning joriy tizimi javob beradi. Ko‘p bocqichli oliy ta’lim ctrukturalari “shaxc va amaliyotning rang-barang madaniy-ta’limiy talablarni qondirish, umummadaniyat, ilmiy va kacbiy jahatdan mutaxacciclar mukammalashuvini iqticodiy talab va mehnat bozorini hicobga olgan holda amalga oshirish kabi maqcadlarga ega ekan”ligi qayd qilinadi.

Kalit so‘zlar. Bo‘lajak tarbiyachi, maktabgacha ta’lim, kasbiy komponentlik, kompetensiya, milliy o‘quv dasturi.

Абстрактный

В статье действующая система многоуровневой подготовки отвечает за совершенствование методической и математической подготовки будущих учителей. Отмечается, что многопрофильные структуры высшего образования «имеют цели удовлетворения различных культурно-образовательных потребностей личности и практики, совершенствования студентов с общекультурной, научной и профессиональной стороны с учетом экономического спроса и рынок труда.

Ключевые слова. Будущий педагог, дошкольное образование, профессиональная составляющая, компетентность, национальная учебная программа.

Abstract

In the article, the current system of multi-level training is responsible for improving the methodological and mathematical training of future teachers. It is noted that multidisciplinary structures of higher education “have the goals of meeting the various cultural and educational needs of the individual and practice, improving students from a general cultural, scientific and professional perspective, taking into account economic demand and the labor market.

Key words. Future teacher, preschool education, professional component, competence, national curriculum.

O‘tgan asrning 60-yillarida ta’limning hozir keng tarqalgan psixologik modellari paydo bo‘ldi. Hozirgi kunda ham maktabgacha ta’lim tizimida, an’anaviy sistemadan boshqa, L.V. Zankov va D.B. Elkonin, nazariyasiga asoslangan tizimlar amal qilayapti. Rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasining paydo bo‘lishi bolaning ijodiy shaxs sifatida rivojlanishi muammosini oldinga suradi.

Bolaning rivojlanishi ta’limning asosiy maqsadiga aylanib boradi. L.S. Vigotskiy, P.Y. Galperin, V.L. Zankov, N.A. Talizina, D.B. Elkoninning tadqiqotlari bolalar psixikasining turli jihatlarini ochib berdi. Bu ishlarda bolalarning bir qator muhim xususiyatlari aniqlangan: o‘z psixik [ruhiy] jarayonlarini anglashga o‘tish; ko‘rgazma-obrazli va so‘z-mantiqaviy fikrlash o‘rtasidagi munosabatlar ziddiyati; mavhum va umumlashmaning o‘sishi va sifat bo‘yicha o‘zgarishlari; tushunchalarning qatorli joylashuvidan ularning iyerarxiyasi va ko‘ppog‘onali tizimga o‘tish; oliy xotira funksiyalarining rivojlanishi va hokazolar [6]. Ularda shu jumladan bolalarning ijodiy fikrlashi, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga, qobiliyatlarni rivojlantirishga, aqliy faoliyati usullariga va hokazolarga ham e’tibor qaratilgan.

D.B. Elkoninning ta’limning ma’lum mazmuni va metodlari bolalarni nazariy shakldagi bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirib olish darajasiga chiqarib qo‘yishga qodirligi haqidagi xulosasi nazariy fikrlash g‘oyasiga asos soladi; aynan shu fikrlashni esa “aslida ijodiy fikrlash deb atash mumkin” [5].

Inson tomonidan predmet va hodisalarni ularning muhim xossalari, aloqalari va munosabatlari bilan birga, bilvosita umumlashtirilgan holda bilish – fikrlashning darajasi subyekt rivojlanganligining eng muhim ko‘rsatkichidir.

A.Y. Sukar tasavvurning yangi tushunchasini taklif etadi: “Tasavvur mohiyati – butunni qismlardan oldin ilg‘ab olish; alohida, ba’zan tarqoq detallar asosida but obraz yasashdir. Eng avvalo tasavvur faolyatini maqsadni mo‘ljallash bilan bog‘lash lozim. “Agar eng kam miqdorda bo‘lsa ham, tasavvur bo‘lmasa, bajarilayotgan ishning taxminiy natijalarini oldindan bilish mumkin emas” [9, 55 b.] esda tutish lozimki, ma’lum ma’noda tasavvur fikrlash tanqidiyligining antipodi hisoblanadi, shuning uchun u sifatning ham, bu sifatning ham rivojlanishiga imkon beradigan mexanizmlarni topish darkor [masalan, “tezis-antitezis” usuli, tushunchaga to‘liq obraz shakllanishida yordamlashuvchi va bir tomonlamalikdan asrovchi turli tomondan yondashuv usuli].

L.S. Vigotskiy [2] ijodiy tasavvurni juda yuqori baholadi. Uning yozishicha, “kelajakka intilgan ijodiy shaxsning shakllanishi hozirgi kunda mujassamlashgan ijodiy tasavvur yordamida amalga oshiriladi”, Tasavvur yoki fantaziya deganda, u “miyamizning kombinatsiyalash qobiliyatiga tayangan ijodiy faoliyatni tushungan”. U bolalarda “ijodiyotni rivojlantirishning o‘ta muhimligiga e’tibor qaratgan. Yangi vazifalarni bajara oladigan yangi obrazni yaratish maqsadida tuzilgan obrazlar mazmunini o‘zgartirish ijodiy tasavvurning vazifasi hisoblanadi[ilova].

Ko‘plab metodistlar, **“*konstruktor geometrik faoliyatga layoqat*:** kattaliklarni o‘lchash va hisoblash o‘quvi, geometrik shakllarni tasvirlash va bajarish [chizish], geometrik obyektlarni modellash va konstruksiyalash”ni rivojlantirish zarur deb hisoblaydilar. Bola amaliy faoliyatining muhim ko‘rinishi modellash, ko‘rgazmali qurol yasash, qandaydir matematik tushuncha, tushuncha xususiyati va tushunchalar orasidagi munosabatni tasvirlovchi buyumlar va qo‘l mehnati mahsuli hisoblanadi. Saralash yoki ularning illyustratsiyasining tayyorlash jarayonida matematik tushuncha mazmunini o‘zlashtirish, bu tushunchalarning mavjud hususiyatlari haqida tasavvur shakllanishida juda yaxshi qo‘l keladi. Bolaning bunday faoliyati

motor-muskul apparatining rivojlanishiga turtki beradi [ayniqsa kichik motorikani]. Bundan tashqari, geometrik jism modeli bolaning o‘z qo‘li bilan yasalgan bola xotirasida hissiy holatga ko‘ra kuchli va yorqin taassurot qoldiradi.

So‘nggi vaqtlarda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun matematika bo‘yicha rivojlantirishga mo‘ljallangan qo‘llanmalar chop etildi. Jumladan, ko‘rgazmali va rivojlantiruvchi geometriya bo‘yicha, tasavvurni rivojlantirish bo‘yicha [Z.Ibragimova[6], N.Bikboyeva va b], Maktabgacha ta’lim uchun ona tilidan SH.Yo‘ldosheva[6], husnuxat bo‘yicha M.G‘ulomov, mehnat ta’limi bo‘yicha X.Sanaqulov[5], Atrofimizdagi olam, [8], matematika bo‘yicha M.DJumayev[4] ko‘rgazmali qo‘llanmalariamaliyotda qo‘llanilmoqda. Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar maktabga tayyorlov guruhi bolalari uchun darslik va daftarlarga ko‘p miqdorda kiritilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarining fikrlash faoliyatini faollashtirishga imkon beruvchi masalalar paydo bo‘ldi. Bular quyidagi turdagi masalalardir: qonuniyatni topib, sonlar qatorini davom ettiring; umumiy va farqli belgilarni ayting; mulohazani yakunlang; tasnif belgisini tanlang; tanlangan belgi bo‘yicha sonlarni guruhlarga ajrating; kuzatishdan xulosa chiqaring va uni quyidagi masalani yechishda qo‘llang; to‘plamdagi “ortiqcha” obyektni toping; to‘g‘ri javobni tanlang va hokazo. Ko‘pincha bu turdagi topshiriqlar bolalarga arifmetik material o‘rganilayotganda taklif qilinadi. Rivojlanish deganda obyektning yo‘naltirilgan, qonuniyatli, qaytarilmas o‘zgarishi tushunilib, unda yangi sifatlar paydo bo‘lishi, obyekt tomonidan yangi holat yoki struktura hosil qilinishini ifodalaydi [3].

Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalari rivojlanishi – bu bir darajadan boshqasiga o‘tish, yanada yuqori tartib, intellektual sohada yangi bilimlar paydo bo‘lishi, mavjudlarini takomillashuvini ifodalovchi o‘zgarish jarayonidir. Yangi bilim deganda bolalar tomonidan zehn o‘tkirligi, mustaqil ravishda faoliyat maqsadi qo‘yish layoqati, kuzatilgan hodisalarni umumlashtirish va hokazolar kabi yangi sifatlar hosil qilinishi tushuniladi .

Ijodiy faoliyatning ko‘plab baholash kriteriylari ajratilgan holda tavsifini ko‘ramiz:

–bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda yangi vaziyatga nisbatan tatbiq etish;

–tanish obyektning yangi funksiyada qo‘llash;

–tanish standart shartlarda yangi muammolarni ko‘rish;

–mashg‘ulotlar ga oid obyekt strukturalarini ko‘rish;

–muqobil yechimni ko‘ra olish layoqati;

–boshqalari ma’lum holda yechimning orginal usulini hosil qilish qobiliyati;

–ma’lum usullarni yangisiga mustaqil kombinatsiyalash.

Bunda muallif ko‘rsatadiki, ushbu ijodiy faoliyat sifatlarini o‘zlashtirish “uning kelgusi rivojlanishi va chuqurlashtirilishi maktabgacha bazasi sifatida yetarli” shu munosabatga boshqa mualliflar nuqtai nazarini keltiramiz:

–ayni bir masala yechimiga bir necha variantli yondashuvni amalga oshirish;

–masala yechish usullarini saralash natijasidagi muqobillik;

–yangi masalani yechishda oldindan ma’lum usullarni kombinatsiyalash ;
–shartni qayta shakllantirish;
–g‘oyaviy tayanch sohalarni ajratish;
–rag‘batlantiruvchi bo‘g‘inlardan foydalanish.
–bir aqliy operatsiyani boshqasiga o‘tkazish;
–masalaning ko‘rinishini o‘zlashtirish, masala qo‘yilishining yangi variantlari;
–turli yechish usullarini topish;
–yechish usulini takomillashtirish, ratsionallashtirish;
–olingan ma’lumotlarni qayta ishlash;
–olingan ma’lumotni kodlashtirish;
–taqqoslash o‘tkazish;
–masala mohiyatini tushunish;
–“chet” axborot (yondosh tafakkur)dan foydalanish asnosida yechish usullarini ko‘rish;
–axborotni qismlarga ajratmay, yaxlit qabul qilish;
–kerakli axborotni kerakli vaqtda bera olish qobiliyati;
–assotsiatsiyalash va assotsiatsiyalangan tushunchalarni farqlash osonligi;
–bir obyekt va tushunchadan boshqasi (unga mazmunan uzoq)ga o‘tish osonligi va tezkorligi;
–ishonchsiz farazdan voz kechish;
–baholash harakatlariga qobillik;
–ko‘rinishlarni generatsiyalash osonligi;
–noodatiy holatlarga yangicha qarash;
–majburiy o‘zaro munosabat o‘rnatilishi (obyekt ma’lumoti va hosilasi o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanishlar);
–paydo bo‘lgan fikrlarni qayd qilish (“ilg‘ab olish” qobiliyati);
–yangi shartlar asosida muammoga qaytish (biror narsa bilan shug‘ullangandan so‘ng).

Oldin o‘zlashtirilgan doirasiga joylashmaydigan narsani ko‘ra olish qobiliyati ko‘proq bolalar tabiatiga xos. Ular kattalar ko‘nikib bo‘lgan nomutanosiblik va bo‘shliqlarni juda tez qayd qiladilar. Ijod oldin ma’lum bo‘lgan axborotni qabul qilinayotgan axborot bilan birlashtirish, bu yangi bilimni bilim tizimida mavjudlariga qo‘shib yuborish qobiliyatisiz yuzaga chiqmaydi. Biroq maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarida tafakkurning ijodiy unsurlarini rivojlantirishda ko‘rgazmaliligi, ommabopligi, obrazliligi, predmetliligi ta’sirida geometrik material ahamiyatini qayd qilish lozim. Shuning uchun unga ham katta e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, bolalar bog‘chasidagi elementar matematik tasavvurlarni o‘zlashtiradi. Geometrik figuralardan nafaqat hisoblash maqsadida, balki yasash maqsadida ham foydalanadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xabib R. O‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish. Toshkent. O‘qituvchi.1989 yi 160 b.

2. Xujaqulov A.E. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilaga nicbatan qadriyatli munocabatni shakllantirish :-Pedagogika fanlari bo‘yicha falcafa doktori (RhD) dicc. T.:2020-143 b.
3. Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kacbiy kompetensiyacini takomillashtirish // ped.f.b.f.d. (RhD) ilmiy darajacini olish uchun yozilgan dicc.-Toshkent: MTMRMQTMOI, 2021.-125 b
4. Erdiniyev P.M. Texnologiya obucheniya na ocnove ukrupneniya didakticheckix yedinits, cxemnix i znakovix modeley uchebnogo materiala .https://studfile.net/preview/2230304/page:6/
5. Erdiniyev P.M. Obucheniye matematike v nachalnix klaccax. Mockva.1977. 120 ctr.
6. Eshonkulova M.X. Elementar matematik tacavvurlarni shakllantirishning zamonaviy macalalari. TDPU. 2018 y
7. Eshonkulova M.X.Didakticheckiye ocnovi formirovaniya elementarnix matematicheckix predctavleniy u doshkolnikov.Pedagogicheckiy Vectnik Kazaxctana №4 2018 .-460 b.
8. Djanpeicova G.E. Teoriya i metodika formirovaniya matematicheckix predctavleniy. / Uchebnoye pocobiye. T.: Tafakkur, 2019. – 420 c.
9. Djanpeicova G.E. Covremenniye acpekti matematicheckogo obrazovaniya doshkolnikov. / Metodicheckoye pocobiye. T.: TDPU, 2017 – 104 c
10. Djumayev M.I. Boshlang‘ich cinflarda matematika o‘qitish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish.Mejdunarodnaya nauchno-teoreticheckaya Online konferensiya na temu «Kompetentnoctniy podxod v organizatsii nachalnogo obrazovaniya: teoriya i praktika».NUKUC . 28.04.2020.

Xolmatova Zulfiya Topiboldiyevana
Farg‘onaDU o‘qituvchisi (PhD)

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TA’LIM JARAYONIDA GENDERLI YONDASHUV MUAMMOLARI TO‘G‘RISIDA

Annotatsiya

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi majlisida Prezident o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni amalga oshirish uchun Senatda yangi tuzilma - Ayollar va gender tenglik qo‘mitasini tuzishni taklif qildi.

“Oliy Majlis Senati Kengashining” O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va gender tengligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, Oliy Majlis Senatining Ayollar va gender tengligi bo‘yicha qo‘mitasi tuzildi”, - deyiladi bayonotda.

Shuningdek, qo‘mitaga ayollar huquqlariga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish bo'yicha umume’tirof etilgan xalqaro meyorlarni milliy qonunchilikka muvofiqlashtirish, O‘zbekiston Respublikasiga biriktirilgan gender tengligi bo‘yicha xalqaro hujjatlar normalarining amalda bajarilishini monitoring qilish va ularda belgilangan tavsiyalarning bajarilishini nazorat qilish vazifasi yuklatildi.

Mazkur ish genderli yondoshuv asosida qurilgan hozirgi zamon maktabidagi ta’lim jarayonining tahlilidan iboratdir.

Kalit so‘zlar. Gender, tushuncha, ta’lim, o‘qitish, tarbiya, maktab va OTM, strategiya, erkak va ayol.

Аннотация

Как напоминает пресс-служба верхней палаты парламента, на двадцатом пленарном заседании Сената Олий Мажлиса Узбекистана президент предложил для реализации чрезвычайно важных и актуальных задач создать в Сенате новую структуру – Комитет по вопросам женщин и гендерного равенства.

“Принято постановление Кенгаша Сената Олий Мажлиса “О совершенствовании деятельности Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан в сфере всесторонней поддержки женщин и обеспечения гендерного равенства”. Согласно постановлению, образован Комитет Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства”, - говорится в сообщении [3].

Также на комитет возожжена задача по разработке предложений по имплементации в национальное законодательство общепризнанных международных норм по искоренению всех форм дискриминации прав женщин, осуществление мониторинга за внедрением на практике норм международных документов по вопросам гендерного равенства, к которым присоединена Республика Узбекистан и исполнением установленных в них рекомендаций.

Данная работа представляет собой анализ образовательного процесса в современной школе на основе гендерного подхода.

Ключвые слова. Гендер, понятий, образования, обучения, воспитания, школа и ВУЗ, стратегия, женщина и мужчина.

Abstract

As the press service of the upper house of parliament reminds, at the twentieth plenary session of the Senate of the Oliy Majlis of Uzbekistan, the President proposed to create a new structure in the Senate - the Committee on Women and Gender Equality to implement extremely important and urgent tasks.

“The resolution of the Kengash of the Senate of the Oliy Majlis” On improving the activities of the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan in the field of comprehensive support for women and ensuring gender equality “was adopted. According to the resolution, the Committee of the Senate of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality has been formed, the message says.

Also, the committee was charged with the task of developing proposals for the implementation of universally recognized international norms on the elimination of all forms of discrimination against women's rights into national legislation, monitoring the implementation in practice of the norms of international documents on gender equality, to which the Republic of Uzbekistan is attached and the implementation of the recommendations established therein.

This work is an analysis of the educational process in a modern school based on a gender approach.

Key words. Gender, concepts, education, training, upbringing, school and university, strategy, woman and man.

O‘zbekistonda jamiyatning barcha sohalarida ayol va erkaklar teng huquqligini ta’minlashni maqsad qiluvchi 2020-2030 yillarda Gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilinadi. Strategiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad – barcha ayollar va qizlar, erkaklar va bolalar uchun ularning irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotdagi fundamental inson huquqlarining ta’minlanishiga erishish hisoblanadi.

“Mamlakatda barcha sohalarda ayol va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlaridan foydalanishiga harakat qilinmoqda. Yaqinda bo‘lib o‘tgan saylovlar misolida ham buni ko‘rish mumkin. Hozirda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash va ta’lim sohasida gender tengligiga erishdi. Boshqa yo‘nalishlarda ham shu natijaga erishish uchun mazkur strategiya yordam beradi”.

Pedagogik faoliyatning obro‘-e’tiborini va ijtimoiy maqomini oshirish yuzasidan davlat siyosati ro‘yobga chiqariladi. Ta’lim oluvchilarning va pedagoglarning o‘qishi, sog‘liga va dam olishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Ta’lim muassasalari va sog‘liqni saqlash organlari bolalar hamda o‘quvchi yoshlarning sog‘ligini saqlash va mustahkamlash uchun zarur choralarni ko‘radilar. O‘quv-tarbiya jarayonining sog‘lomlashtirishga qaratilgan yo‘nalishini ro‘yobga chiqarish, sog‘lom turmush tarzi normalarini joriy etish uchun sharoitlar

ta’minlanadi. Ta’lim oluvchilarning tibbiy-gigiyena madaniyatini oshirish, ularning jismoniy tarbiya va sport bobidagi faolligini kuchaytirish hamda jismoniy kamolot darajasini oshirish uchun tashkiliy-uslubiy yondashuvlar takomillashtiriladi. Sog‘liq va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun munosib muhit yaratiladi.

Hozirgi zamon maktabining qadriyatli oriyentatsiyalari, maqsadlari va normalari jamiyatda ma’lum va umuqabul qilingan sifatlar bilan bir qtaorda “ayollik”, “erkaklik” kabi sifatlar ham kiritilsa, bu biror ma’noda yangi genderli asosda ko‘rilgan maktab bo‘lishi anglandi va ko‘rsatildi. Bu qadriyatlar, maqsadlar va normalarni ta’lim muassasasi faoliyatining “oxirgi natijasiga” kiritilganida bu tushuncha ma’nosining kengayishi, o‘quvchining yangi “xos xarakteristikalari” kiritilishi va shuningdek, ta’lim jarayonining korreksiyalanishi to‘g‘risida gapirishm mumkin.

Shuni ham aytib o‘tamizki, har bir individ o‘zida maskulinlik va feminlik xislatlariga u yoki bu darajada ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tabiat tomonidan ikki jins belgilanishiga qaramasdan, madaniyat, tarixiy davr, jamiyattdagi o‘zgarishlarga bog‘liq ravishda gender tiplari variantlari, genderli xilma-xillik ko‘proq kuzatiladi. Gender tushunchasining turli fanlardagi talqinini ko‘rib chiqaylik.

Bu yerda muammoli va munozarali o‘rinlar ancha ko‘p. O‘tkazilgan tadqiqot muhokama qilinayotgan muammoning mufassal to‘liq tavsifiga da’vogarlik qilmaydi. Shunga qaramasdan, hozirgi zamon maktabi sharoitlarida ta’limda genderli yondoshuv jamiyatda gender madaniyatini shakllantirish uchun, genderli ta’lim konsepsiyasini ishlab chiqish uchun foydali bo‘aldi. Bunda tadqiqot davomida gender tadqiqotlari sohasida qilingan tahlil faqat pedagogikadagina emas, balki sotsiologiya, psixologiya, falsafada ham foydali bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

“Gender” tushunchasi aniq psixologo-pedagogik xarakteristikalarga ega bo‘lmaganligi va pedagogikada yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi aniqlandi. Bu esa bizga “gender” tushunchasi mohiyatini ta’lim sohasi doirasida aniqlashtirish imkonini berdi. Bunday faraz, taxmin qo‘yildi: “genderni” erkak va ayol jinsidagi shaxslar xulq-atvorining shaxsning psixologik ustanovkalari, jamiyat va davlat talablariga muvofiqlashgan xos xarakteristikalari majmui sifatida qarash mumkin.

Psixologiyada “gender” “ijtimoiy-biologik” xarakteristika sifatida qaraladi va uning yordamida “erkak” va “ayol”ga ta’rif beriladi [5]. Falsafada “gender” kategoriyasi “kompleks mexanizm-texnologiya bo‘lib, u subyektni normativlik jarayonida ham erkak va ham ayol sifatida ta’riflaydi va odam ekspektatsiyalarga muvofiq ravishda kim bo‘lishini rostlashni belgilaydi [9].

Sotsiologiyada “gender” atamasi ta’limda, kasbiy faoliyatda, hokimiyatga erishishda, oilaviy rolda reproduktiv xulq-atvorda individual imkoniyatlarni aniqlaydigan ijtimoiy status sifatida talqin qilinadi [5].

Xalqaro feministik hamjamiyat tomonidan gender tushunchasi “odamlarga jamiyat tomonidan ularning biologik jinsiga bog‘liq ravishda beriladigan barcha ijtimoiy va madaniy normalar, qoidalar va rollarni belgilash uchun foydalaniladigan” tushuncha sifatida tan olingan [34].

Muammoning nazariy tahlili va eksperiment ishining boshlang‘ich tajribasi genderli yondashuv asosidagi maktab modelining quyidagi tamoyillarini ta’riflash imkonini berdi:

- jismoniy, psixologik, ijtimoiy, ma’naviy salomatlikni saqlash tamoyili;
- tabiatga muvofiqlik tamoyili – u erkak va ayol individualligini qaror toptirish, jinslarning o‘zaro munosabat madaniyatini, erkaklik va ayollikni tarbiyalashga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunida amalga oshiriladi;
- majmuaviylik tamoyili u vositalar majmui va integrativ dasturlardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Integratsiya jarayonlari xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: tanlov bo‘yicha o‘quv fanlari majmuasini yaratish; jins faktorini hisobga olib, ta’lim shakllari va metodlarini yaratish; yangi ta’lim fezosini yaratish;
- ijtimoiylik tamoyili – u maktab bitiruvchilarida odimlar bilan o‘zaro munosabatlarni qurish uquvlarini shakllantirish, o‘z hulq-atvor strategiyasini ishlab chiqish konkret hayotiy muammolarni hal qilish uquvlarini shakllantirishga qaratilgan.

Bu ta’riflangan tamoyillar bir jinsli sinflarda ta’lim oluvchi qmzlar va o‘smirlar uchun xos umumiy xislatlarni aniqlash imkonini beradi. Bular jumlasiga quyidagilar xosdir.

- o‘qishda psixologik to‘siqlarning yo‘qligi;
- jismoniy va ma’naviy takomillashuvga ehtiyoj;
- erkak va ayol individualligini qabul qilish, uning betakrorligi va noyobligi;
- jinslar orasida do‘stona munosabat yaratish va o‘qitish;
- o‘z kuchlariga ishonch, o‘z-o‘zi bo‘lish qobiliyati.

Odatdagi maktabda bunday ta’lim bo‘lishi mumkinmi degan savol beixtiyor tug‘iladi. Bo‘lishi mumkin, lekin samarasi eng kam bo‘ladi. Bu odatdagi maktabda ta’lim vektori bolalarni bilimlarni o‘rgatishga yo‘naltirilganligi, shu bilan birga qancha erta bo‘lsa, shuncha yaxshiligi bilan bog‘liqdir. Bunda boshlang‘ich maktabda sinchkov, zehni o‘tkir o‘quvchidan kelgusida kuchsiz irodali o‘rtacha o‘quvchi o‘sib yetilishi mumkin. Maktabdagi a’lochi hayotda unchalik muvaffaqiyatli bo‘lmasligi ham mumkin. Buning ustiga qiz bolalar va o‘g‘il

bolalarning psixologik xususiyanlarining hisobga olinmasligi jinsning ichki qobiliyatlarini ochmasligi ham mumkin.

Yuqorida bayon qilingan tamoyillarga batafsilroq to‘xtalish. Ularning har birining ma’nosini ochayotib, qadriyatlar tizimida jismoniy va axloqiy sog‘lomlik birinchi o‘rinda turishini ko‘rsatib o‘tamiz. “Sog‘liq – bu faqat kasalliklar va jismoniy kamchiliklar yo‘qligigina emas, balki to‘la jismoniy, intellektual va ruhiy bardamliligidir” (Xalqaro sog‘liqni saqlash tashkiloti matnidan).

O‘quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlariga bog‘liq ravishda umumiy rivojlanish qonuniyatlari to‘g‘risida bilimsiz sog‘liqni mustahkamlaydi, shaxsni faol, shodmon, negativ ta’sirlarga qarshi turishga qodir bo‘ladi. Boshqa odamlar, qarma-qarshi jins bilan to‘g‘ri, sog‘lom munosabatlar ichki rivojlanishning bepoyon sharti, o‘g‘il-qiz bola ichki salohiyatining ochilish shartidir

Sog‘liqni asrash, “ayollik”, “erkaklik”ni tarbiyalash uchun pedagogik jamoa jinsning individual rivojlanishi xususiyatlarini bilishi lozim. Bu haqdagi umumlashma axborot jadvalda taqdim qilingan[3].

Ta’lim-tarbiya asosiy va qo‘shimcha jarayonning amalga oshirishi bu axborot asosida amalga oshiriladi. Bir jinsli sinflarda darslarning olib borilishi, zachyot tadbirlari, tanlovlar, mavzuviy suhbatlar, disputlar jinslar o‘zaro munosabati madaniyatining shakllanishiga, ayol va erkak individulligining qaror topishiga yordam beradi.

Psixologiya va pedagogik tadqiqotlarning o‘tkazilgan tahlili mazkur muammoning yetarlicha ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatdi. Bu ta’lim va tarbiyaning jinsiy oidlikni hisbga oladigan konseptual asoslarining yo‘qligi, erkakli va ayollik sifatlari orasidagi chegaralarning yo‘qolishi, “erkaklik” va “ayollik” ideallarining transfiormatsiyalashuvi bilan bog‘liqdir.

Shunday qilib, biz tomonimizdan, genderli yondashuv asosida ko‘rilgan maktab ta’lim jarayoni modelining asosiy xarakteristikalari taqdim etildi va tavsiflandi. Mazkur model ma’lum say-harakatlar to‘plami, uning rivojlanish sharoitlarini ifodalovchi biror tizimni nazarda tutadi. Bu yaratilgan model, ish quroli bo‘lgani holda, o‘g‘il bolalar va qiz bolalar salohiyatli imkoniyatlarini ochish va rivojlantirishga ta’sir etuvchi faktorlarni tahlil qilish va rivojlantirishga imkon berish bilan birga, balki tizimning o‘ziga, uning amal qilish sharoitlariga tuzatishlar kiritishga ham imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.

2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Postanovleniye Kengasha Senata Oliy Majlisa “O sovershenstvovanii deyatelnosti Senata Oliy Majlisa Respubliki Uzbekistan v sfere vsestoronney podderjki jenshin i obespecheniya gendernogo ravenstva” 2019.
4. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas’ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a’zosi M.M.Xayrullayev. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1975, 71-72 b.
5. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I-jild.Toshkent, 1968, 151 b.
6. Avloniy A. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. –T., Ma’naviyat, 1998. –304 b.
7. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq.-T.: “O‘qituvchi”. 1992.-160 b.
8. Alisher Navoiy. Arbain hadis(“Qirq hadis”).-T., “Yozuvchi”, 1991.57.
9. Vigotskiy L.S.Voobrajeniye i tvorchestvo v shkolnom vozroste.-Moskva. “Nauka”.1980.-237 s
10. Gaynutdinov R.Z. Psixologiya lichnosti uchitelya v uzbekskoynatsionalnoy shkoli i yeyo formirovaniye v sisteme neprerivnogo obrazovaniya / Diss. ... dokt. psix.nauk. – Sankt-Peterburg, 1992. – 354 s.
11. Galperin P.Y. Psixologiya mishleniya i ucheniye o poetapnom formirovanii umstvennix deystviy /Issledovaniye mishleniya v sovetskoy psixologii. Pod red. YE.V. Shoroxovoy. – M.: “Nauka”, 1966. – s. 259-276
12. Jumayev M.E. Yangicha tafakkur ta’lim va tarbiya mezoni. Nauchniye trudi seminara. Vipusk-4, T., 1998, 87-90-b.
13. Kodirov B.R. Izucheniye sklonnosti podrostkov. – T.: “Fan”.1996.–50 s.
14. Ma’naviyat –asosiy tushunchalar izohli lug‘at.T., 2005 yil 547 bet.
15. Ma’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar)/Ma’sul muxarrir: M.M.Xayrullayev.-T.:A.Kodiriy nomidagi xalk merosi nashriyoti. 1999, -400 b.
16. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. – T., O‘qituvchi, 1994. – 112 b.
17. Nemov R.C. Statisticheskiy analiz eksperimentalnix dannix i sposobov naglyadnogo predstavleniya rezultatov. – M., Prosvesheniye, 1992. – 550 s.
18. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish.: Ped.fan.dok. ... diss.– T., 2000.– 305 b.
19. Ochilov M., Ochilova N. O‘qituvchi odobi. –T.,O‘qituvchi,1997.–136 b.
20. Forobiy A. N.Fozil odamlar shahri.–T.:Xalq merosi,1993. -224 b.

Karimova Shaxlo
Oriental universiteti dotsenti
To‘laganova Shahnoza
Oriental universiteti talabasi

KICHIK YOSHDAGI TA’LIM OLUVCHILAR TARBIYASIDA MUTAFAKKIRLAR QARASHINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada kichik yoshdagi o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasi xususida mutafakkirlarning fikrlarining o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, bu fikrlarning o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasidagi didaktik ahamiyati xususidagi qarashlar va nazariyalar o‘rganib chiqilgan. Ta’lim tizimi tarixi va kelajagi to‘g‘risidagi ilmiy qarashlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ajdodlar merosinin ma`rifiy ahamiyati va sharqona tarbiyadagi roli ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, tarbiya, insoniy fazilat, ma’rifat, donishmad, didaktika, o‘quvchilar, maktab.

Abstract

The article analyzes the role of thinkers in the education of young students. Also, views and theories about the didactic importance of these ideas in the education of students were studied. Information about the history and future of the educational system is presented. The educational significance of the heritage of ancestors and its role in oriental education are shown.

Key words: education, education, human virtue, enlightenment, wisdom, didactics, students, school.

Ma’lumki, inson tarbiyasi, rivojlanish va svilizatsiyada muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Uning kelajakda qanday darajaga ega bo‘lishi, insoniy fazilatlari shaxsiyati va ijtimoiy psixologik rivojlanishida tarbiyaning o‘rni beqiyos hisoblangan. Jumladan, jamiyat rivojlanishida ham tarbiya alohada ahamiyatga ega. Shu sababli qadim zamonlardan beri O‘rta Osiyo va Turonzaminda ta’lim bilan tarbiya egizak tushuncha sifatida qaralgan.

Tarbiya bu – insonning insoniy qiyofasi sifatida namoyon bo‘luvchi, unga bolaligidan to buguniga qadar yetib kelgan davrda insoniylik g‘oyalari, urf-odatlari, ananalari, tili, dini, millati jihatdan singdirilgan bilimlar tizimidir.

Bugungi kunda davlatimizda, ta’lim va tarbiyaga alohada e’tibor berib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari chiqarayotgan qaror va farmonlar ushbu ishlarga dasturulamal bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Avvalo ,ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konstepstiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”[39]gi PF-5712-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmonlarining[40] ijrosini ta’minlashdagi kichik ilmiy ish bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada ta’lim va tarbiyaga xos bo‘lgan mutafakkiirlarning fiklari atroflicha o‘rganib tahlil qilinadi.

Ta’lim – insonning bu hayotidagi ustunlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim insoniyat svilizatsiyasida o‘zidan avvalgi o‘tgan insonlar ilmini o‘rganish va rivojlanish uchun eng asosiy vosita bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Eng qadimgi odamlar davridan tortib shu kunga qadar insoniyat ta’lim darajasi shu darajaga yetdiki endi, u bemalol fazoda parvoz qila oladi, boshqa yerdagi inson bilan soniyalar orasida bog‘langan holda u bilan suhbat qura oladi. Avvalgi qilgan yumushlarini endi o‘zi ixtiro qilgan robot va mashinalarga qildira oladi.

Ilm xususida Muhammad alayhissalom o‘z hadislarida: “Ilmga ilm olmoq yo‘li bilan erishilgaydir. Ilm-u hunarni Xitoyga borib bo‘lsa ham o‘rganinglar.... Ilm egallang. Ilm sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘iz damlarda yo‘ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg‘uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir”[41],- deydi.

Ilm-ma’rifat – insonni kamolotga yetaklovchi, unga najot beruvchi buyuk ne’mat. Imom Buxoriyning o‘n ikki asr avval “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay” degan fikrlari buning yorqin dalili bo‘la oladi. Shu bois ajdodlarimiz qadimdan ilm-ma’rifat va farzand ta’lim-tarbiyasiga ustuvor ahamiyat qaratib keladi.

Shuningdek, tarbiya haqida donishmand sharq mutafakkirlari o‘zlarining asrlardan-asrlarga o‘tib kelayotgan hikmatlari bugungi kun uchun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Jumladan ulardan eng mashhuri Abdulla Avloniyning ushbu so‘zlaridir. “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”[42]. Bu hikmat kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining “Tarbiya” odobnoma kabi darsliklarida ham keltirib o‘tilgan.

Mirzo Ulug‘bek o‘z madrasasining peshtoqiga “Ilm olmoq har bir muslim va muslima uchun farzdir,” degan hadisi sharifini yozdirgan edi. Demak, ilmli insonlar

[39] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni. - https://lex.uz/docs/-4312785
[40] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida Farmoni.- https://lex.uz/docs/-3107036
[41] Abu Rayhon Beruniy. O’ylar, hikmatlar, naqllar,she’rlar. Toshkent. Yosh gvardiya. 1973.44-bet
[42] A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y.

azaldan ardoqlangan. Zero, “Qissai Rabg‘uziy”da keltirilishicha, Alloh taolo 40 ta obiddan ko‘ra 1 ta olimni afzal bilgan, chunki obid kishi ko‘r-ko‘rona ibodat qiladi, olim esa o‘z ilmu ziyosini yon atrofdagi kishilarga ulashadi”-degan edilar. Shuningdek O‘rta Osiyoning mashhur olimlari Farg‘oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar — Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar — Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi. Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk insonlar ta’lim tarbiya xususida o‘zlarining bitmas tuganmas ilmiy merosini qoldirib ketishgan.[43]

Forobiy o‘zining “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Fanlarning tasnifi”, “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida”, “Ilmlar va san’atlar fazilati” kabi ko‘plab risolalarida insonning ma’naviy rivojlanishi ilm-ma’rifatga va uning tarbiyasiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy bobomizning aytishlaricha “Ilmning foydasi ochko‘zlik bilan oltin-kumush to‘plash uchun bo‘lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo‘lishdir... Qadimda eronliklarda Daymoh oyining birinchi kunini xurram kun deb atashar ekan. Shu kuni podshoh oddiy fuqaro kiynmida ko‘chaga chiqar ekan. Shoh o‘sha kuni o‘zining el-yurtdagi ahvolni bilish, odamlar bilan gaplashar ekan.”[44] O‘sha kuni insonlar u bilan bemalol gaplashishshar ekan. Shoh ularga so‘glik tilar ekan.

Beruniyning bu hikmati oliyjanob podshoh haqida bo‘lib, kichik yoshdagi o‘quvchilarning tarbiyasi va ta’limida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda birinchi navbatda olijanoblik shakllansa, hikoyaning ta’sirida demokratiya va tenglik haqidagi qarashlari vujudga kela boshlaydi.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining barcha sarlarida ta’lim va tarbiyaning mezonlari, insonning go‘zal fazilatlari xususida she’r va hikmatlarida to‘xtalib o‘tgan.

Beruniy kabi yana bir mutafakkirlarimizdan biri Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida quyidagicha fikrlar keltitilgan.

Zakovat qayerda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘ladi,
Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik bo‘ladi.
Zakovatli uqadi, bilimli biladi,
Bilimli, zakovatli tilakka yetadi.[45]

[43] Uchinchi Renessans — milliy g‘oya sifatida-//- Xalq so’zi. – 2020. – 07 sentabr. – № 63.
[44] Rahimov S. Abu Ali Ibn Sino. Ta’lim va tarbiya haqida. – Toshkent, O’qituvchi, 1967. – 75 bet
[45] Yu.X.Hojib. Qutadg’u bilig (Saodatga yo’llovchi bilim) – Toshkent, Fan, 1971.659-bet

Albatta asar “Qutadg‘u bilik” ya’ni “Baxtga eltuvchi bilim” asari nomining o‘zidayoq tolibi ilmlarning ta’lim-tarbiyasi haqidagi qimmatli ma’lumotlar haqida fikrlar keltirilgan. Yusuf Xos Hojibning turkiy adabiyotning eng nodir na’munalaridan biri bo‘lgan asarning nafaqat kichik yoshdagi o‘quvchilar tarbiyasida balki butun jamiyat ta’lim va tarbiyasida ham ahamiyati beqiyosdir.

Shuningdek, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-Haqoyiq”, Alisher Navoiyning “Mahbub - ul qulub”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlari didaktik asarlar hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, sharq mutafakkirlarining ta’lim va tarbiya jarayoniga qanchalik darajada ahamiyat berishganligining ifodalaydi.

Kaykovusning “Qobusnoma”, IV asrda yashab o‘tgan hind faylasufi Beydaboning “Kalila va Dimna” asarlari, “Ramayana”, “Maxobhorat” dostonlari, Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Jomiyning “Bahoriston”, Ahmad Donishning “O‘g‘illarga nasihat”, bundan tashqari Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, “Chor darvesh”, “Ming bir kecha” kitoblarida ham kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun ta’lim va tarbiyaga oid nodir xazinalar jamlangan. [46]

Natija. Ta’lim va tarbiya to‘g‘risida sharq donishmandlarining fikrlari bilan birga ularni bu jarayonning qanday olib borganliklari haqida ko‘hna tarixiy manbalardan qimmatli ma’lumotlar qolgan.

Xususan, buyuk tabib ibn Sino bobomiz o‘z davridagi ilmiy fanlarni: odob (xulq etikasi), astronomiya, tibbiyotshunoslik, til va uning grammatikasi, fikx (musulmon qonunchiligi), tizimlar bo‘yicha ajratadi.

Tarbiya esa: aqliy tarbiya; jismoniy sog‘lomlashtirish; estetik tarbiya; ma’naviy tarbiya; hunarga o‘rgatish, kabi turlarga ajratadi.

Sharqdagi Uyg‘onish davri Sharq mutafakkirlari - Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi olimlar o‘qish tizimida erkinlik tamoyilini ustun bilishadi. Bolalarning ta’limiga qo‘yilgan sxolastik o‘qitish va qat’iy intizom kabi qoidalrga qarshi chiqadilar. Olimlarning fikriga ko‘ra o‘qish bola uchun qiziqarli bo‘lishi muhim hisoblanadi.

Tarix davomida turli mutafakkirlar yosh talabalarni tarbiyalash borasida o‘z fikrlarini bildirganlar. Qadimgi yunon faylasufi Platon jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishni o‘z ichiga olgan har tomonlama ta’limning muhimligiga ishongan. U o‘quvchilarni atrofdagi dunyoni chuqurroq anglash uchun tanqidiy fikrlash va muloqotga kirishish zarurligini ta’kidladi. Sharq mutafakkirlari esa ta’lim va tarbiya jarayonini o‘z asarlarida va amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llaganligi sababli O‘rta Osiyo tarixi ikki rennesansni boshidan kechirganligiga guvoh bo‘lamiz.

[46] Нуров Ж. Н. “Шарк мутаффаккирларининг таълим-тарбия хакидаги фикрлари”-Москва “История” 23.04.2020 10:36-https://multiurok.ru/files/shark-mutaffakkirlarining-talim-tarbiia-khakidagi.html

Xulosa qilib aytganda, ushbu mutafakkirlarning fikr-mulohazalari kichik yoshdagi o‘quvchilarni ham ta`lim olishlariga, ham tarbiya jarayonlarigama`naviy-ma`rifiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, axloqiy ehtiyojlarini qondirish uchun doimiy ravishda rivojlanib borayotgan o‘qitish amaliyotining muhimligini ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni. - https://lex.uz/docs/-4312785.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida Farmoni.- https://lex.uz/docs/-3107036.
3. Abu Rayhon Beruniy. O‘ylar, hikmatlar, naqllar,she’rlar. Toshkent. Yosh gvardiya. 1973.44-bet.
4. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O‘qituvchi. 1992 y.
Rahimov S. Abu Ali ibn Sino. Ta’lim va tarbiya haqida. – Toshkent, O‘qituvchi, 1967. – 75 bet.
5. Uchinchi Renessans — milliy g‘oya sifatida-//- Xalq so‘zi. – 2020. – 07 sentabr. – № 63.
6. Rahimov S. Abu Ali Ibn Sino. Ta’lim va tarbiya haqida. – Toshkent, O‘qituvchi, 1967. – 75 bet.
7. Y.X.Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga yo‘llovchi bilim) – Toshkent, Fan, 1971.659-bet.
8. Нуров Ж. Н. “Шарк мутаффаккирларининг таълим-тарбия хакидаги фикрлари”-Москва “История” 23.04.2020 10:36-https://multiurok.ru/files/shark-mutaffakkirlarining-talim-tarbiia-khakidagi.html

Erkinova Nigora Esanovna
Oriental universiteti,
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi.
nigoraerkinova68@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA MULTIMEDIA VA O‘QUVCHI ONGINI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quv jarayonining metodik jihatlariga ijobiy o‘zgarishlar olib kirishda pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratning zarurligi, o‘quv jarayonining metodik jihatlari, darslarda multimedia texnologiyalari ta’sirini oshirishi, ma’lumotlarni idrok etishda o‘quvchini jalb qilgan holda mavzuni o‘rganishni yanada samarali qililishi kabi jihatlar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: multimedia, kompyuter, dars jarayoni, pedagogik mahorat, metodika.

Абстракт

В данной статье обосновывается необходимость педагогической технологии и педагогического мастерства во внесении позитивных изменений в методические аспекты образовательного и учебного процесса. Указывается на место мультимедийных технологий на занятиях, которые повышают качество учебного процесса, помогают в усвоении обучающегося. Раскрыты такие аспекты информации, которые помогают в повышение эффективности изучения предмета.

Ключевые слова: мультимедиа, компьютер, учебный процесс, педагогическое мастерство, методика.

Abstract

This article substantiates the need for pedagogical technology and pedagogical skill in making positive changes in the methodological aspects of the educational and training process. The place of multimedia technologies in classes is indicated, which improves the quality of the educational process and helps in the student’s learning. Such aspects of information as increasing the efficiency of studying the subject are disclosed.

Key words: multimedia, computer, educational process, pedagogical skills, methodology.

“…islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq…”

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Ta’limning jahon ta’lim standartlariga moslashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarga ehtiyoj sezadi. Pedagogik ta’lim amaliyotida kasbiy tayyorgarlik bilan bog‘liq ayrim masalalaming o‘z aksini yaxshi topmaganligi ham tegishli

o‘qitish metodikalarining takomillashuvini dolzarb masalaga aylantirib qo‘ymoqda[47].

O‘quv jarayonining metodik jihatlari yaxshi natijalarga erishishda pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat lozim.

O‘quv jarayonining metodik jihatlari ikki qismga bo‘lib o‘rganiladi:

1) pedagogik texnologiya;

2) pedagogik mahorat.

Pedagogik texnologiyaga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- ✓ klassik ma’ruza;
- ✓ texnika vositalari yordamida o‘qitish;
- ✓ tushuntirish, ko‘rgazmali, suhbat, rasmli;
- ✓ muammoli, izlanishli;
- ✓ dialogli metod;
- ✓ o‘yin metodi.

Pedagogik mahoratga:

- ✓ pedagogik insonparvarlik yo‘nalishi;
- ✓ ixtisos-mutaxassislikka doir bilimlar (kasbiy bilimlar);
- ✓ pedagogik qobiliyat;
- ✓ pedagogik texnika (ko‘nikma-iqtidor) kiradi.

Dars jarayonlarida multimediadan foydalanish o‘quv jarayoni sifatini oshiradi, ma’lumotlarini yaxshi qabul qilishda o‘quvchini jalb qilgan holda mavzuni o‘rganishni yanada samarali qiladi. Hozirgi kunda multimedia texnologiyalari o‘quv jarayonini boyitishning eng ko‘lamdor yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Multimedia o‘zi nima, u o‘quvchilarga nima beradi?

Multimedia (lotincha — ko‘p va — vositachi bo‘lmoq) — kompyuterning matn, grafik, tovushli va videoma’lumotlar bilan ishlashga imkon beruvchi qurilmasi. Ana shunday qurilma o‘rnatilgan kompyuter multimedia kompyuter deyiladi. Hozirda deyarli barcha kompyuterlar multimedia qurilmalar bilan ta’minlangan. Bularga SE-KOM, SE-K\U kompakt disklarini o‘qiydigan disk yurituvchi qurilmalar, tovush platalari, videokartalar va boshqalar kiradi. Keyingi vaqtlarda multimedia qurilmalar standartiga grafik tezlatgichlar va katta hajmli universal kompakt disklar ham qo‘shildi[48].

Multimedia - yangi texnik va dasturiy vositalardan foydalangan ravishda interaktiv dasturiy ta’minot nazoratidagi vizual va audioeffektlarning o‘zaro ta’siri

[47] H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar ya pedagogik mahurat. T., «Iqtisod-moliya». 2009.5-b.

[48] https://uz.wikipedia.org/wiki/Multimedia

bo‘lib, ular matn, ovoz, grafik, fotosuratlar, videolarni bitta raqamli tasvirda birlashtiradi.

Multimedia bir vaqtning o‘zida tovushli, animatsiyali ishlashni ta’minlaydigan interfaol (dialog) tizim bo‘lib, videoramkalar, turli harakatsiz rasmlar va matnlar shular jumlasidandir.

Sinf xonalarini kompyuterlar bilan ta’minlash- tegishli ma’lumotlarni olish imkoniyati, dunyo bilan muloqotni tashkil qilish imkoniyati bilan bog‘liq qulayliklarga ega. Mavjud dasturiy mahsulotlar, jumladan, tayyor elektron darslik va kitoblar hamda o‘z ishlanmalari o‘qituvchiga o‘qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Internet ta’lim oluvchilar uchun ma’lumot topish va olishda, hamkasblar bilan fikr almashishda ajralmas yordamchiga aylanmoqda. Elektron taqdimot slaydlaridan darsda ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O‘quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalarning berilishi mavzuni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi.

Turli salohiyatga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan interaktiv usulda dars tashkil etish muhim sanaladi, chunki har bir o‘quvchining bilim darajasi va uning baholanishi suhbat asnosida tez hamda aniq namoyon bo‘ladi. Berilgan materialning zaruriy qismini o‘quvchilarga multimedia vositalari orqali berish yo‘lidan borishning samarasi yaxshi bo‘ladi.

Maktab o‘qituvchisining jamiyatdagi o‘rnini yuksaltirish bo‘yicha qilinayotgan ishlar o‘z samarasini beryapti. Bu borada ustoz-murabbiylarning o‘z

faoliyati bilan ishtirok etishlari katta hissa qo‘shadi. Ta’lim tizimida zamonaviy talablar asosida darslar tashkil etish yuqori samara beradi. O‘quvchining tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini o‘stirishga mo‘ljallangan qiziqarli, rangli materiallar tayyorlash zarur. Dars jarayonida texnik vositalardan foydalanishni kuchaytirish ahamiyatga ega.

Avvalgi tajribalarda o‘quv darsliklaridagi bor ma’lumotlar bola tomonidan qayta so‘zlab berilsa, bu uning bilimini ko‘rsatish darajasi deb qaralardi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday yondashuvning o‘zi o‘zlashtirish mezonini hamma vaqt ham belgilay olmas ekan. Hozirda o‘quvchilarning mustaqil va kretativ fikrlash doirasini kengaytirish muhimligi zamon talabi bo‘lib qolmoqda. O‘z fikriga ega bo‘lgan o‘quvchi hayotda uchraydigan turli vaziyatlardan oson chiqa oladi. Mana shunday o‘quvchilarni yetishtirishda mustaqil qarashga ega shaxsni shakllantirishdagi dastlabki bosqich bo‘la oladi.

Misrosoft Power Point dasturi

Microsoft Power Point (to‘liq nomi — Microsoft Office Power Point, inglizcha: *power point'power point* — ishonarli hisobot) — taqdimotlar yaratish va ularni tomosha qilishga mo‘ljallangan dastur bo‘lib, Microsoft Officening bir qismi hisoblanadi va Microsoft Windows, macOS tizimlarida ishlash imkoniyatiga ega. Power Pointda yaratilgan taqdimotlar proyektor yordamida katta ekranlarda yoki katta o‘lchamli televizion ekranlarda ko‘rishga mo‘ljallangan[49].

Darslarda namoyish materiallari qog‘oz, elektron, plyonka, va prospektlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Power Point ushbu ko‘rinishdagi namoyish materiallarini tayyorlashda qo‘llaniladigan asosiy dastur hisoblanadi. Power Point dasturida inson faoliyatidagi (biror sohada) namoyish uchun to‘plangan materiallarni slaydlarga joylashtirish, ularni multimedia (matn, audio, video, animatsiya va grafik ob’yekt)lardan foydalanib shakllantirish, masalan: matn mazmunini rasm ko‘rinishida tasvirlash, maxsus effektlar yordamida bezash orqali tezkor taqdimotlar yaratishni ta’minlaydi.

Multimediali dars jarayonlarini yaratish

Hozir o‘qituvchining dars berish metodikasi avvalgidan farq qiladi. Bugungi kunda o‘quvchilarni darsga yanada qiziqtirish uchun texnika vositalaridan imkon qadar ko‘proq foydalanadigan bo‘lishdi, chunki hozir texnika asridir. Infogramma, diagramma, prezentatsiya kabi elementlardan foydalanish o‘quv samaradorligini oshirishga xizmat qilyapti.

[49] https://uz.wikipedia.org/wiki/Microsoft_PowerPoint

Misol uchun, Behbudiyning “Vatan”[50] (X. To‘xtaboyev) matnini o‘tishda mavzuga mos hayotiy voqealarning namoyish etilishi ta’lim oluvhchilarning mavzuni yanada chuqurroq o‘zlashitirilishiga yordam beradi.

Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o‘quvchilar o‘zlarining munosabatlarini bildirib, ularni tahlil qilish orqali bilimlarini kengaytrishadi.

Multimedia axborotlarni har xil ko‘rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarni yaratish, uni ko‘rish, eshitish organlari orqali qabul qilish hamda tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi.

Multimedia texnologiyalari an’anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn shaklida emas, balki ovoz va harakatlar ko‘rinishida ifodalanilishi o‘quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq, intiluvchan va qiziquvchan bo‘lishga o‘rgatadi.

Darsliklarda berilgan ma’lumotlar videofilmlar, prezentatsiya, mavzuga doir rangli rasmlar bilan berilishi maqsadga muvofiq, chunki materialni o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi ancha oson bo‘ladi.

Darslarda yangi pedagogik, zamonaviy texnologiyalar, noan’anaviy usullarni keng qo‘llash, ko‘rgazmali, didaktik, nostandart test, tarqatma materiallardan, xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning o‘rni katta.

Ta’lim oluvchilarga savollar orqali murojaat qilish ularni dars jarayonida bahs – munozaraga tortadi. Har bir o‘quvchining faol qatnashishga jalb qiladi. Bu kabi tashkil etilgan darslar quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

- o‘qitish mazmuni yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- o‘z vaqtida o‘quvchi-o‘qituvchi – o‘quvchilar o‘rtasida samimiy aloqalar o‘rnatiladi;
- o‘qitish usullari ta’lim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda kichadi (yakka, juft, guruh , katta guruhlar);
- o‘zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o‘quv materiali yaxshi esda qoladi;

[50] Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism, T.,2022. 11-b

- o‘zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashish ko‘nikmalari shakllanadi;
- o‘quv jarayonida o‘quvchining o‘z-o‘ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi;
- o‘quvchi uchun dars qiziqarli o‘qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O‘qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo‘ladi.

Har bir o‘quvchining o‘zi mustaqil fikr yuritishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o‘tilgan darslarda o‘quvchi faqat ta’lim mazmunini o‘zlashtirib qolmay, balki o‘zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Mavzuni o‘quvchilarga tushuntirishda real hayotdan olingan lavhalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Texnik vositalar orqali ko‘rsatilgan mavzuga doir lavhalarni ko‘rgan o‘quvchilarning ushbu mavzuni yanada yaxshiroq tushunishlariga imkon yaratadi.

Melodeklamatsiya (she’rni musiqiy ohangga solib o‘qish) usuli o‘quvchi qalbiga ta’sir qilib, hikoya haqidagi tasavvurini kengaytiradi. Undan darsda samarali foydalanish mumkin.

O‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘ladilar:

- grafika, ovozli axborotlarni matn shakliga keltirish yoki aksincha;
- muhokama etilayotgan mavzu bo‘yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;

- o‘zining o‘quv- biluv faoliyatini rejalashtirish.

Ta’limda zamonaviy axborot vositalarining o‘rni

Multimedia axborotlarni har xil ko‘rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko‘rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi.

Multimedia texnologiyalarida an’anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko‘rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko‘rinishida ifodalanilishi o‘quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo‘lishga o‘rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar bu – bilim, dalil va qonunlarni taqdim

etishda barcha imkoniyatlarni o‘zida jamlab olgan usul va metodlar demakdir. Har qanday texnologiya bu- axborot texnologiyalari bo‘lib, uning negizini ma’lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash tashkil etadi. Mavzuning vazifasi ta’lim beruvchini o‘quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish qobiliyatlariga baho berish hamda keyinchalik bu ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishga doir ma’lumotlar bilan qurollantirish, shuningdek, o‘quvchilarni mamlakat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida multimedia vositalari orqali olingan ko‘nikmalaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kompyuterning didaktik imkoniyatlarini boshqa hech qanday texnik vosita bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Shunday ekan, axborot texnologiyalari ta’lim jarayonida quydagi vazifalarni yechish imkonini beradi: didaktik-kompyuter dasturlaridan ko‘rgazmali qurol sifatida foydalanish, uslubiy-mavzuni tushuntirishda, dars natijalarini tahlil etishda kompyuterni ishlatish usullarini belgilash, tashkiliy-ta`lim jarayonini qisqa vaqt ichida samarali tashkillashtirish, ta’limiy -o‘quvchilarda o‘tilgan mavzuni mustahkamlash va ularda axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Darsda kompyuterdan foydalanish nafaqat ta’lim vaqtini tejaydi, shu bilan birgalikda ta`lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, interfaol ish tartibi o‘quvchiga o‘quv tezligiga ta’sir qilishi, materialni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va darsning tushunarsiz qismlarini takrorlashga qaytish imkonini beradi. Elektron taqdimot darsda slaydlardan ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O‘quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida o‘tilayotgan materialning berilishi mavzuni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi. Namoyish

slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o‘quvchilar o‘zlarini munosabatini bildirishi,uni tahlil qilishi mumkin.

Yildan yilga jahonda texnika rivojlanib boryapti. Hozirgi o‘qituvchi zamon bilab hamnafas bo‘lishi davr talabiga aylanib bo‘ldi. Dars jarayonida qo‘llangan texnik vositalar o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutq inson fikrlashini chuqurlashtiradi, ayniqsa, yetuk mutaxassislarni tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rdatmoqdaki, ta’lim sifatiga katta e’tibor bergan mamlakatlar taraqqiyotda oldinga qarab tezroq ketadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, o‘quvchilarning bilim sifatini oshirishda multimedia vositalari muhim bo‘lib, undan har bir dars jarayonida foydalanish o‘rinlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurazzoqova D “Interfaol metodlar: nazariya, amaliyot, tajriba” Pedagoglar uchun qo‘llanma. Toshkent-2013 yil.
2. Komil Jalilov “Baholash nazariyasi asoslari”
3. H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar ya pedagogik mahurat. T., «Iqtisod-moliya». 2009.5-b.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism, T.,2022. 11-b.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Microsoft_PowerPoint
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Multimedia
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Microsoft_PowerPoint
8. https://kitobxon.com/oz/online-reader/5162
9. https://uz.living-in-belgium.com/debate-vs-declamation-13039

G‘ofurov Jamoliddin
Oriental universiteti
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi
stajyor o‘qituvchisi
Tel: (99)- 820-70-19

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta`lim yo‘nalishida natural son tushunchasini kiritish, mavzuni o‘qitishda o‘qitishda mavjud muammo va yechimlar, matematik ko‘nikmalarni takomillashtirish va uning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: natural son, sonlar, natural sonlar to‘plami, sanoq, sanoq birliklari, matematik tushunchalar, noa’nanaviy metodlar, matematik amallar.

Аннотация

В данной статье рассмотрены внедрение понятия натурального числа в направлении начального образования, проблемы и пути решения в преподавании предмета, совершенствовании математических навыков и его научно-теоретические основы.

Ключевые слова: Натуральное число, числа, совокупность натуральных чисел, счет, единицы счета, математические понятия, нетрадиционные методы, математические операции.

Abstract

In this article, the introduction of the concept of natural number in the direction of primary education, problems and solutions in teaching the subject, improvement of mathematical skills and its scientific and theoretical foundations are discussed.

Key words: Natural number, numbers, set of natural numbers, count, units of count, mathematical concepts, unconventional methods, mathematical operations.

Qadimda yashagan insonlar tirikchilik uchun har xil qushlar, kiyiklar va boshqa jonivorlami ovlash bilan kun kechirganlar. Ana shu ovlangan hayvonlar, umuman olganda, jonivorlar sonini dastlab qo‘l va oyoq barmoqlari bilan ko‘rsatib tushuntirishga harakat qilishgan. Agar ovlangan jonivorlar soni ikkala qo‘l barmoqlari sonidan ko‘p bo‘lsa, ularni hisoblash uchun oyoq barmoqlaridan ham foydalanganlar.

Vaqt o‘tishi bilan kishilarning ongi ham ana shu davrga nisbatan shakllana borgan. Har xil xo‘jalik ishlarini bajarish jarayonidagi hisoblarga oyoq va qo‘l barmoqlarining soni javob berolmay qolgan, natijada ular hisoblash ishlarini

bajarishda tayoqchalardan foydalanganlar. Ana shu qo‘l va oyoq barmoqlari hamda ishlatilgan tayoqchalarni sanash natijasida bir, ikki, uch, to‘rt va hokazo sonlar hosil qilingan.

Masalan, bitta qush, ikkita kiyik, uchta boshqa hayvon va hokazo. Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinadiki, son bu odamlar sanash natijasida narsalarning miqdoriy qiymatlarini ifoda qiluvchi tushuncha ekan. Sonlar raqamlar bilan belgilanadi, bizning sanoq sistema o‘nlik sanoq sistema bo‘lganligi uchun u to‘qqizta qiymatli va bitta qiymatsiz raqam bilan belgilanadi: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9.

Matematika kursida 1, 2, 3, …… qatorni natural sonlar qatori deb ataladi. Natural sonlar to‘plami quyidagi xossalarga ega.

1. Natural sonlar to‘plamining birinchi elementi 1 ga teng.

2. Natural sonlar to‘plamida ixtiyoriy natural sondan keyin keladigan va undan bitta ortiq bo‘lgan birgina natural son mavjuddir.

3. Natural sonlar to‘plamida 1 sonidan boshqa har bir natural sondan bitta kam bo‘lgan va bu sondan oldin keladigan birgina natural son mavjuddir.

Boshlang‘ich sinf matematika kursida natural sonlar to‘plami haqidagi eng sodda tushunchalar o‘quvchilarda shakllantiriladi. 4-sinfda esa koordinata tekisligi va nur tushunchalari kiritilganidan keyin natural sonlar to‘plamining geometrik tasviri ko‘rsatiladi. Har bir natural songa koordinata nurning bitta nuqtasi mos kelishini o‘qituvchi ko‘rgazmali qurollar yordamida tushuntirishi lozim. Shundan keyin o‘quvchilarga natural sonlarni og‘zaki va yozma nomerlash ishlari o‘rgatiladi. Buning natijasida o‘quvchilar natural sonlarni o‘qish va yozishni o‘rganadilar.

1. Sanash vaqtida birinchi o‘nta sonning har biriga alohida nom beriladi.

2. Sanoq birliklari guruhlariga shunday birlashtiriladiki, buning natijasida bir xil o‘nta birligidan yangi ikkinchi xona birligi, ikkinchi xonaning o‘nta birligidan yangi uchinchi sanoq birligi va hokazolar tuziladi.

3. Ikkinchi xonadan boshlab har bir xona birligi shu xonadan bevosita quyi xonaning o‘nta birligidan tuzilgani uchun bizning sanoq sistemamiz o‘nlik sanoq sistemasi deb ataladi. 10 soni esa sanoq sistemasining asosi deb ataladi.

4. Turli xonalardan iborat bo‘lgan sonlarning har uchtasining birliklarini birlashtirib sinflar tuziladi. Dastlabki to‘rtta xona birliklariga alohida nomlar beriladi, ya’ni bulardan to‘rtinchi xona birligi ming, ikkinchi sinf birligi deb qaraladi va undan xuddi asosiy birliklardan tuzilgan kabi navbatdagi birliklar tuziladi. Ikkinchi sinfning mingta birligi uchinchi sinfning birligi - millionni tashkil etadi va hokazo.

5. Sonlarni yozish uchun 10 ta raqam qo‘llanadi, noldan boshqa hamma raqamlar qiymatli raqamlar deb ataladi va hisoblanadi.

6. Qiymatli raqamlarning qiymati ularning sondagi o‘rniga qarab o‘zgaradi. Bundan keyin o‘qituvchi o‘quvchilarga natural sonlarni qo‘shish va ayirishni hamda ko‘paytirish va bo‘lishni kundalik hayotda uchraydigan misollar asosida o‘rgatishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, Obidjon 35 ta ko‘chat, Sobidjon esa 28 ta ko‘chat ekdi. Ularning ikkalasi birgalikda necha to‘p ko‘chat ekishgan? 35 + 28 = 65 ta.

Ikkita natural sonni qo‘shish natijasida yangi bir natural son hosil bo‘ldi, uni shu sonlarning yig‘indisi deyiladi. 30 va 35 sonlari qo‘shiluvchilar, 65 soni yig‘indi deb ataladi. Shu fikrlar o‘quvchilarga o‘rgatiladi, so‘ngra qo‘shish amaliga ta’rif beriladi.

Ta’rif. Ikki sonning yig‘indisini topish amaliga qo‘shish deb ataladi.

Natural sonlarni qo‘shish yana quyidagicha usul bilan tushuntirilishi mumkin. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, natural sonlar to‘plamini doskaga yozib, unda 3 soni belgilanadi, so‘ngra ana shu 4 sonidan unga qarab 6 ta son sanaladi, natijada 10 soni hosil bo‘ladi. Demak, 4+6 = 10 bo‘lar ekan. 6+4 =10 bo‘lishini ham yuqoridagidek tushuntirish mumkin. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11 natural sonlar to‘plamida 6 sonini belgilab, undan o‘ngga qarab 4 ta son sanaladi, natijada 10 soni hosil bo‘ladi, demak, bundan quyidagi xulosa kelib chiqadi a + b = b + a. Bu tenglikdan qo‘shish amaliga nisbatan quyidagi qoidani ifoda qilish mumkin.

Qoida. Qo‘shuvchilaming o‘rni almashgani bilan yig‘indining qiymati o‘zgarmaydi, ya’ni a + b = b + a.

Biz qo‘shiluvchilar sonini uchta olganimizda ham yuqoridagi qoida o‘rinli bo‘lib, (a + b) + c = (a + c) + b tenglik hosil bo‘ladi, bu esa qo‘shish amaliga nisbatan guruhlash qoidasini ifodalaydi. Endi natural sonlarni ayirish qaraladi. Natural sonlarda ayirish amalini o‘rgatish uchun quyidagidek masalalami qarash mumkin. Savatchada 20 dona konfet bor edi. Sarvar shu konfetdan 6 donasini yeb qo‘ydi. Tarelkada necha dona konfet qoldi? Bu masalani yechish uchun shunday noma’lum x sonini topish kerakki, bunda 6 + x = 20 tenglik o‘rinli bo‘lishi kerak. Bu hosil qilingan tenglikni o‘qiydigan bo‘lsak, birinchi qo‘shiluvchi va yig‘indi ma’lum bo‘lib, ikkinchi qo‘shiluvchi esa noma’lumdir.

Qoida. Qo‘shiluvchilardan biri va yig‘indi ma’lum bo‘lganda, ikkinchi qo‘shiluvchi noma’lum sonni topish amaliga ayirish deb ataladi.

x = 20-6. x = 14. Agar umumiy holda a + x = b desak, bundan x = b-a hosil bo‘ladi. Bunda x- ayirma, b- kamayuvchi, a- ayiriluvchi deb yuritiladi. Ayirish amalini o‘quvchilarga yana quyidagicha tushuntirish mumkin. Masalan, 20 sonidan 6 sonini ayirish kerak bo‘lsin. Buning uchun 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 21 natural sonlar qatorini doskaga yozib, 20 son belgilanadi va undan chapga qarab oltita son belgilaymiz, natijada 14 soni hosil bo‘ladi, bu degan so‘z 20-

6 = 14 deganidir deb o‘quvchilarga tushuntiramiz. Bu yerda 20 soni kamayuvchi, 6 soni ayiriluvchi, 14 soni esa ayirma deb ataladi.

Masala: 5 ta tokchaning har biriga 16 ta donadan kitob terilgan bo‘lsa, hammasi bo‘lib qancha kitob terilgan? Bu masalani yechish uchun qo‘shish amalidan quyidagicha foydalaniladi: 16+16+16+16+16=80 yoki bu tenglikni 16-5=80 ko‘rinishda ham yozish mumkin: bunda javoblarning bir xil bo‘lganligini o‘qituvchi o‘quvchilarga tushuntirishi lozim. Bu yerda 16 va 5 sonlari ko‘paytuvchilar, 80 soni esa ko‘paytma deb yuritiladi.

Ta’rif. Qo‘shiluvchilari o‘zaro teng bo‘lgan sonlarning yig‘indisini topish amaliga ko‘paytirish deyiladi va u bunday yoziladi:

$$a \cdot b = \underbrace{a + a + a + \ldots + a}_{b \text{ ta}}$$

a va b sonlari ko‘paytuvchilar, c esa ko‘paytma deb yuritiladi. Yuqoridagi ma’lumotlardan keyin ko‘paytirish amaliga nisbatan o‘rinli bo‘lgan quyidagi uch qonunni ko‘rsatish lozim.

1. Ko‘paytirish amaliga nisbatan o‘rin almashtirish (komutativlik) qonuni o‘rinli.

   a*b = c bo‘lsa, b*a = c bo‘ladi

2. Ko‘paytirish amaliga nisbatan tarqatish (distributivlik) qonuni o‘rinli:

   a (b + c) = ab + ac.

   Bu qonunni bunday tushuntirish mumkin.

$$(b + c) \cdot a = \underbrace{(b + c) + (b + c) + (b + c) + \ldots (b + c)}_{} = ab + ac.$$

3. Ko‘paytirish amaliga nisbatan guruhlash (assotsiativ) qonuni o‘rinli (a-b)c=a(b-c), bu tenglikni quyidagicha tushuntirish mumkin:

$$(a \quad b) \cdot c = \underbrace{\underbrace{a + a}_{b} + \ldots \underbrace{a + a}_{b} + \ldots \underbrace{a + a + \ldots + \ldots}_{b}}_{c} = a \cdot (b \cdot c)$$

Bu tenglikni quyidagicha izohlash mumkin. Har bir qatorda b tadan qo‘shiluvchi b*c bo‘lib har bir qo‘shiluvchi a ga teng, ya’ni (b*c)*a deb yozish mumkin.

Masala: Bozorga 6 yashikda 36 kg olma keltiridi. Har bir yashikda necha kilogrammdan olma bo‘lgan? Bu masalani yechish uchun shunday x sonini topish kerakki, x=36:6 bo‘lsin. Bunday son 6 bo‘ladi. Ana shu 6 sonini hosil qilish uchun bo‘lishni, ya’ni x=36:6 amalni bajariladi, bu amal bo‘lish deb yuritiladi.

Ta’rif. Ko‘payuvchi sonlardan biri va ko‘paytma son ma’lum bo‘lganda, ikkinchi ко‘payuvchi sonni topish amaliga bo‘lish deyiladi

va u quyidagicha yoziladi a*x = c, x=c:a, x-bo‘linma, c-bo‘linuvchi, a-bo‘luvchi deb yuritiladi. Yuqoridagi misolda esa 36- bo‘linuvchi, 6-bo‘luvchi, x-bo‘linma deb ataladi. Har qanday natural sonni 0 soniga bo‘lish mumkin emas, chunki 0*x = c tenglikni qanoatlantiradigan x sonini topish mumkin emas. Demak, x= x:0 tenglikning bo‘lishi mumkin emas.

Aniqki, qo‘shish amaliga nisbatan qarama-qarshi amal ayirishni va bu ko‘paytirishga nisbatan teskari amal bo‘lishni quyidagi chizma orqali ko‘rsatish ham mumkin:



Natural sonlar to‘plamini kengaytirish uslubi

Bu mavzuni tushuntirish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga koordinata nurining har bir nuqtasiga bittadan natural son mos kelmasligini, ya’ni koordinata nuridagi nuqtalar to‘plamini ortib qolishini ko‘rgazmali asosda tushuntirishi lozimdir. Bu mulohazaga ko‘ra natural sonlar to‘plamini yanada kengaytirish va natijada yangi sonlar to‘plamini hosil qilish ehtiyoji zarur ekanligini o‘qituvchi yana bir marta o‘quvchilarga tushuntirishi lozim. Bundan tashqari, o‘qituvchi natural sonlar to‘plamida har doim qo‘shish va ko‘paytirish amallarini bajarish mumkin, ammo ayirish va bo‘lish amallarini har doim ham bajarish mumkin emasligini misollar yordamida ko‘rsatish kerak. Masalan, 8 + 7 = 15, 3• 8 = 24. Bu yerda hosil qilingan 15 yig‘indi va ko‘paytma 24 sonlar natural sonlar to‘plamida mavjuddir, ammo 8-11 ayirmada chiqadigan -3 soni natural sonlar to‘plamida mavjud emas, bu natural sonlar to‘plamida har doim ham ayirish amalini bajarish mumkin emas degan so‘zdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘quvchilarga natural sonlar ustida bajariladigan amallar bajarilishini samaraliroq, amallar ketma-ketligi qoidasini yaxshilab bilib, o‘rganib olishlari uchun bir nechta mashqlarni jamoa tarzida va individual ravishda bajartiriladi. O‘quvchilar

bilim darajasi oshgach, misollarni mustaqil ishlaydilar va o‘rganishadilar. Darsda foydalaniladigan barcha o‘quv materiallari (shu jumladan, kartochkalar, mashqlarning na’munalari, kompyuter vositalari) darsning maqsadiga juda mos bo‘lishi zarur. Darslarda o‘quvchilar bilimi, malakasi, ko‘nikmasini o‘stirish darsning mazmunida va qo‘llaniladigan vazifalar turlarida o‘z aksini topadi. Matematika darslarida ta’limiy maqsadlarga erishishning foydali bo‘lishiga darsda og‘zaki va yozma ishlarni maqsadga muvofiq o‘tkazish, o‘quvchilarning o‘quv ishlarini tekshirib, nazorat qilib borish, o‘z vaqtida xatolarning oldini olish va to‘g‘rilash, zamonaviy axborot texnologiyalari va texnika vositalaridan foydalanish kabi omillar katta ta’sir ko‘rsatadi. Har bir mashg‘ulot o‘qituvchining sa’y-harakati bilan yuqori sifatli dars darajasiga ko‘tariladi. Dars jarayonida qat’iy andoza bo‘lishi mumkin emas, bu dars sifatiga salbiy ta’sir e’tadi. Ammo darsning bosqichlari: vazifalarni tekshirish, takrorlash, yangi materialni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish bosqichlariga rioya qilgan xolda mashg‘ulotni olib borish amalda o‘zini oqlayapti. Har bir bosqichni mavzuga muvofiq didaktik jihatdan boyitish esa o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Bularga ijobiy yondashish, darsning maqsadi va foydalaniladigan metodik usullariga asoslangan holda bosqichlar orasidagi ichki uzviy bog‘lanish, belgilangan ishlarning mazmunini aniq va ravshan belgilab olish katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

XULOSA

Natural sonlar va ular ustida matematik amallar o‘rganish, o‘quvchilarni matematika fanini sevib, uning nazariy va amaliy qonuniyatlarini o‘rganishda qo‘llanadi. Bu esa ularni mustaqil fikrlash, muammolarni o‘zlarining uslublari bilan yechishga olib keladi. Natijada, bu bilimlarni rivojlanish, yangi yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash va malakalarni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Matematika o‘sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirishda o‘quv fani sifatida keng imkoniyatlarga ega. Matematik tafakkur obyektlari va ularni yasash haqida mantiqiy xulosalar chiqarish , mulohazalarni shakllantirish, asoslash va isbotlash ko‘nikmalarini shakllantiradi va bu asosda mantiqiy tafakkur rivojlanadi. Matematikadan misol va masalalarni yechish jarayonida tafakkurning ijodiy va amaliy qirralari rivojlanadi.

Matematik isbotlardagi aniq, qisqa, ravon fikr yuritish, geometrik shakllarni tasavvur qilish , ulardagi simmetriya, qat’iy qonuniyatlar asosida go‘zallikni ko‘ra olishga o‘rgatish orqali o‘quvchilarga estetik ta’lim-tarbiya beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Antonov K. P. To‘plam. «O‘qituvchi», 1975.

2. Bikboyeva N.U. va boshqalar «Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi», T., «O‘qituvchi», 1996.
3. Давидов В.В. «Возростная и педагогическая психология». М,. Педагогика, 1992
4. Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi Qayta ishlangan II nashri. T., «O‘qituvchi» 1997. va boshqalar elementar matematikadan masalalar
5. Galitskiy M.A. va boshqalar «Algebra va matematik analiz kursini chuqur o‘rganish» T., «O‘qituvchi», 1995.
6. Кларин М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках., М., «Просвещение», 1994.

MUNDARIJA

1. Axmedov M. Kirish so‘zi …….. 3
2. Ahmet Alkan. Nogironlikka zamonaviy yondashuv - inklyuziv ta’limning o‘zagi……..……5
3. M.Mirqosimova. Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda refleksiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati…….……...……...9
4. Вохидов Ш. Внеурочная деятельность как возможность для проектирования индивидуального роста личностного развития младшего школьника (по образовательному стандарту Российской Федерации)……..……19
5. Nishonova Z. Pedagogning maqomiga e’tibor – nurli kelajakka e’tibor……..……..29
6. Эркинов А. Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достони – қадимий мерос……...…32
7. Nazarova Sh. Sanoat 4.0 davrida maxsus ehtiyojli shaxslarga ta’lim berishning muhim masalalari…….38
8. Pulatova D. Barkamol avlod bolalar maktablarida ta’lim oluvchilarni hayotga tayyorlash masalalari.....47

1-SHO‘BA. *BUYUK AJDODLAR MEROSI – KELAJAK AVLOD TARBIYASIDA MUHIM DIDAKTIK MANBA*

9. Egamberdiyeva F. Yosh avlod tarbiyasida axloqiy ko‘nikmalarni tarkib toptirish……..…...…54
10. Toshov M. Yoshlarning ma’naviy dunyoqarashi shakllanishida ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy me’rosning o‘rni…….…...….58
11. Ishonxanova I. Alisher Navoiy hikmatlarining ta’limdagi o‘rni va ahamiyati…….61
12. Matnazarova K.Otaboyeva Sh. Mutafakkir ajdodlarimiz merosida barkamol inson tarbiyasi.....66
13. Yakubova Z. Muratova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiylashida milliy qadriyatlarning o‘rni.....71
14. Mirsagatova N., Yusupova G. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida barkamol shaxs tarbiyasi.....75
15. Mamanazarov U. Zokirova M. Buyuk ajdodlar merosi-kelajak avlod tarbiyasida muhim didaktik manba……..80
16. Jabborova N. Ajdodlar merosining kelajak avlod tarbiyasida tutgan o‘rni…….85

17. Badriddinova H., Mamtaliyeva M. Bola tarbiyasida Alisher Navoiy ijodining beqiyos o‘rni……89
18. Махмудова Д. От классики к современности: Перспективы развития дошкольного образования через призму наследия Монтессори и Песталоцци……...……..92

2-SHO‘BA. *MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA O‘QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI*

19. Халилова Ш. Тургунова К. Инновационные методы обучения в дошкольном возрасте.....99
20. Djumaev M., Sharifova G. Maktabgacha ta’lim tayyorlov guruhdari va boshlang‘ich ta’limda o‘qitishning таълим uzviyligi hamda uzluksizligining o‘ziga xos xususiyatlari…….……...101
21. Saibova I. O‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimi……107
22. Shomurodov J. O‘quvchilarni estetik tarbiyalashda kognitiv texnologiyalarning o‘ziga xosligi……...116
23. Shukurov Y. Pedagogika ta’lim texnologiyalardan foydalanishda innovatsion yondashuv…….…121
24. Karimova Sh., Jakbarova S.Improving spelling and grammatical skills in language education…….……...128
25. Mamadiyorov J. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar……..……132
26. Xolikova D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish omillari…….137
27. Erkinova N., Yunusova N. Yoshlar ta’limi tizimi – taraqqiyot jarayonida.141
28. Мажидова Ф., Нигматуллина Л. Влияние стратегии семейного воспитания на развитие творческих способностей детей дошкольного возраста…… 148
29. Mamanazarov U., Nurmanova D. Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qitishning innovatsion texnologiyalari …….....151
30. Nabiyeva N. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qitishning innovatsion texnologiyalari……..…….…156
31. Abdullayeva F., Saydazimova N. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy moslashuvida turli xil psixologik metodikalarni qo‘llashning ahamiyati…….....159

32. Abdurazzaqov O‘. Mahmudova Z. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda innovatsion o‘qitish texnologiyalarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar…….…..163
33. Djumayeva M. Проблема естественно- научная грамотность в начальной школе…….…..166
34. Mirsagatova N. Erkinxo‘jayeva M. Zamonaviy pedagogikada ta’lim-tarbiya masalalari…….……..…172
35. Umarova M., Anvarova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda xalq maqollaridan foydalanish…….……..…..…175
36. Raximberganova M. Maktabgacha 4-5 yoshdagi bolalarni ijtimoiy moslashtirishda ijodiy o‘yinlardan foydalanish imkoniyatlarining mohiyati……..……...179
37. Nasrullayeva Y. Boshlang‘ich sinf o‘quvshilarining matematik savodxonligini oshirishda noan’anaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati……..…….....184
38. Otaqulova G. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kvest texnologiyalari asosida mashg‘ulotlar tashkil etish……187
39. Ли А. Инновационные технологии обучения в системе дошкольного и начального образования…….……....190

3-SHO‘BA. *UZLUKSIZ TA’LIM DASTURLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUV*

39. Муротмусаев К. Хотин - қизлар спортининг психологик ва тиббий биологик асослари.....196
40. Qarshiyeva D. Informatsion stress va uning psixologik mexanizmlari.....201
41. Ubaydullayev N. Talabalarda o‘z-o‘zini nazorat qilishning psixologik xususiyatlari.....204
42. Тошхужаева Ш., Каримова Ш. Тил таълимида лингвопоэтик тадқиқотлар таҳлили.....212
43. Ermatova G., Maxmudova N. Harakatli o‘yinlar orqali bolalarda irodaviy sifatlarni tarbiyalash.....216
44. Abdurazzaqov O‘. Uzluksiz ta’lim dasturlarini takomillashtirishda pedagogik va psixologik yondashuvlar……...……220

45. Мавлонов А. Теоретические основы проблемы поисково-исследовательские задачи как средство развития творческого мышления учащихся……..……223
46. Hasanova I. Bola shaxsini rivojlanishida pedagogik diagnostikaning o‘rni ta’lim tizimidagi imkoniyatlari.....229
47. O‘rolova O‘. Maktabda ta’lim sifatini boshqarishda baholashning innovatsion usullarini joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari…….....…….....235
48. Iskandarov N. Zamonaviy yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mehnat turlari va bolalar mehnatini tashkil etishning pedagogik xususiyatlari…….....…….....241
49. Seytimbetova U. O‘rganish va izlanish davrida bolalar psixologiyasi……246
50. Temirov S. The place and significance of pedagogical technologies in providing knowledge to students……...……250

4-SHO‘BA. *INKLYUZIV TA’LIMGA BOSQICHMA-BOSQICH O‘TISH: MAVJUD AMALIYOT, MUAMMO, YECHIM VA ISTIQBOLLAR*

51. Аюпова М. Инклюзив таълим тизимида олиб бориладиган логопедик иш мазмуни.....255
52. Nazarova D. Ta’lim klasteri – alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar ta’lim tizimi samaradorligini oshirish omili…….....…….....259
53. Нуркельдиева Д.А. К вопросу внедрение инклюзивного образования в Узбекистане……...……..……265
54. Bozorov O. Ilk va erta yoshda bolalar nutqini rivojlantirish muammolari.....272
55. Sadirova K. Inklyuziv ta’limda samaradorlikka erishish yo‘llari.....275
56. Абдужалилова Ш., Сайфуллаева М. Инклюзив таълимнинг Узбекистон тажрибаси……..…..281
57. Dehqonova M. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan individual ishlashda didaktik va falsafiy olimlarning qarashlari…….284
58. Jo‘rayeva Z. Inklyuziv ta’limga muvaffaqiyatli moslashuvida tabiatshunoslik darslarining o‘rni 288
59. Muhammadjonova D. Inson kapitalini rivojlantirishda inklyuziv ta’limning o‘rni……..293
60. Ишматова О., Кравченко А. Взаимосвязь нейрологопедии с фонетической ритмикой в условиях инклюзивного образования.....299

61. Xusnuddinova Z. Inklyuziv ta’lim sharoitida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....304
62. Pulatova D. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sifatli inklyuziv ta’lim muhitini yaratish (autizm sindromli bolalar misolida).....309
63. Egamberdiyeva N. Alohida ehtiyojli bolalarning ta’lim olishga bo‘lgan huquqlarini ta’minlashda inklyuziv ta’limning joriylanishi.....313
64. Ibadullayeva Sh. Yangilanayotgan O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim.....318
65. Olimova N. Inklyuziv va maxsus ta’lim tizimiga maxsus pedagoglarni kasbiy tayyorlashning muhim jihatlari.....324
66. Назарова Э. Условия предоставления равных возможностей в обеспечении прав и законных интересов детей, нуждающихся социальной защите.....329
67. Ибрагимова С. Управление инклюзивной образовательной организацией..... 337
68. Турсунова К. Инклюзивное образование: 5 комплексных шагов по обеспечению разнообразия и равенства.....342
69. Shukurova D. Inklyuziv ta’limdagi o‘quvchilar nutqini mobil dastur orqali rivojlantirish texnologiyasi.....347

5-SHO‘BA. *UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA PEDAGOG XODIMLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI*

70. Халилова Ш., Тургунбоев Ж. Развитие педагогических компетенций на современном этапе развития Нового Узбекистана.....352
71. Анаркулова Г. Компетентный подход к подготовке учителей Технологии в системе непрерывного образования……..……..355
72. Karimova Sh. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining imloviy savodxonlikka erishuvdagi didaktik usullar.....360
73. Isxakova M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari malakasini oshirishning andragogik yondashuvga asoslangan modeli.....366
74. Эшонқулова М. Бўлажак тарбиячиларини ижодий методик тайёргарлигини ривожлантириш масалалари…….....372
75. O‘tamurodova Sh., Abduqayumova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy didni shakllantirish masalasi…….....……377
76. Абирова У. Ўзбекистонда оила, маҳалла ва таълим муассасалари ижтимоий ҳамкорлигининг педагогик функциялари.....381

77. Xudayberdiyeva M. Ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarning xalqaro tadqiqot topshiriqlari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish…….....…385
78. Jumanazarova D., Ermatova G. Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashuv jarayonida ota-ona va tarbiyachi hamkorligi…….....…….....393
79. Qayumova M. Umumta’lim muassasalari xodimlar faoliyatini rag‘batlantirishda xorijiy mamlakatlar amaliyoti…….....…396
80. Ergasheva B. Improving the integrative technology of preparing future educators for professional-pedagogical activity on the basis of a competency approach…….……..…….....401
81. Nishanova Z. Zamonaviy o‘qituvchi M.G.Davletshin talqinida…….....405
82. Абдуганиева Д. Воздействие деструктивных эмоций на деятельность педагога…….……..……409
83. Абдуллаева Г., Атамирзаева, Аскарова Ж., Бердикулова У., Жумабаева М., Одилбекова Б. Роль информационных технологии в духовном воспитании детей дошкольного возраста.....415
84. Шазадаев Ф. Алгоритм решению задач, развивающих творческое мышление на уроках и во внеурочное время.....419
85. Jabborova M. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammo va yechimlari.....426
86. Xolmatova Z. Boshlang‘ich ta’limda ta’lim jarayonida genderli yondashuv muammolari to‘g‘risida.....430
87. Karimova Sh., To‘laganova Sh. Kichik yoshdagi ta’lim oluvchilar tarbiyasida mutafakkirlar qarashining o‘rni.....437
88. Erkinova N. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida multimedia va o‘quvchi ongini rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish.....441
89. G‘ofurov J. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish.....450